www.asr-conference.com

19-NOYABR, 2025-YIL



“O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR TAHLILI, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Toshkent - 2025

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR TAHLILI, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Toshkent – 2025

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR TAHLILI, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor
Sh.Mustafakulov tahriri ostida

Konferensiya materiallarini nashrga tayyorlaganlar:
X.Topilov, M.Mamadaliyev

*Ushbu konferensiya **2025-yil 19-nayabr** kuni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **2024-yil 27-dekabrdagi** “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **490-sonli** buyrug‘i asosida o'tkazildi.*

Tahririyat kengashi:

Sherzod Mustafakulov – Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Odiljon Qo‘ysinov – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Mahamadsiddiq Amonboyev – Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Alisher Jo‘rayev – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Munis Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Xasan Sabirov – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Najmiddin Qodirov – Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Dilshod Nasriddinov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Baxtigul Tolipova – Iqtsidoyot fanlari bo‘yicha falasa doktori (PhD)
Zulfiya Xamidova – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Umarov Elshod – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent
Mardanova Ra'no – Dotsent (PhD)
Abdulaxatov Muzaffar – Dotsent
Rajabov Sherzod – Dotsent
Mirza Tulayev – Dotsent
Sulaymanova Shoira – v.b.dotsent (PhD)
Nigmanov Azizbek – v.b.dotsent
Xolmuxamedova Feruza – v.b.dotsent (PhD)
Farxod Irisqulov - Ilmiy va innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig‘i

© Nordic International University
© ASR (Academic Scientific Research)

SO‘Z BOSHI

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, aziz olimlar, tadqiqotchilar va mehmonlar!

Barchangizga Xalqaro Nordik universiteti akademik jamoasi nomidan “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi: amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili, muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida faol ishtirokingiz uchun minnatdorchilik bildiraman.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan chuqur va keng ko‘lamli islohotlar barcha sohalarda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda yoshlar siyosatini kuchaytirish O‘zbekiston – 2030 strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarini tashkil etadi. Ushbu islohotlar mazmun-mohiyatini ilmiy asosda tadqiq etish, samaradorligini baholash va ilmiy takliflar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur konferensiyaning o‘tkazilishi va ilmiy to‘plamda nashr etilgan maqolalar sohalar kesimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni, natijalari, mavjud muammolar va ularning ilmiy asoslangan yechimlariga bag‘ishlangan. Tadqiqotlarda iqtisodiyot, huquq, ta’lim, boshqaruv, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, raqamli texnologiyalar, ekologiya va inovatsiyalar kabi yo‘nalishlar qamrab olingan holda strategik maqsadlarga erishish jarayoni tahliliy yondashuv asosida yoritildi.

Ushbu konferensiya ilmiy hamjamiyat vakillari o‘rtasida fikr almashish, yangi ilmiy g‘oyalarni ilgari surish va amaliy natijalarni ishlab chiqishda hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, degan umiddamiz. Ilmiy xulosalar hamda takliflar mamlakatimizda davom etayotgan islohotlar samaradorligini oshirishga, O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishga munosib hissa qo‘shishiga ishonamiz.

Barchangizga mazmunli ilmiy izlanishlar, yuksak ijodiy muvaffaqiyatlar va yangi ilmiy yutuqlar tilayman!

Sherzod Mustafakulov,
Xalqaro Nordik universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

1-SHO’BA: IQTISODIY BARQARORLIK VA HUQUQIY-IJTIMOIY TIZIMNING INNOVATSION RIVOJI

Mustafakulov Sherzod	“Bir makon – bir yo‘l” – global investitsion loyihaning bugungi kundagi ahamiyati	8
Aliakbarova Rushanabonu Murodullayevna	Роль сми и коммуникации в формировании социально-экономической стабильности в системе образования	14
Batirov Farxad Bakitovich	Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mamlakatning iqtisodiy barqarorlik katalizatori sifatida	18
Davronova Maftuna Baxodir qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning barqaror rivojlanish modeli: xorij tajribasi va o‘zbekiston amaliyoti	22
Ibragimova Zarema Zokirovna	Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida boshqaruv tahlilining roli	26
Mamajonova Gulasal Oribjon qizi	Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni oshirish masalalari	30
Mamayusupova Mashxura Sodiqovna	Zamonaviy elektrotexnika sanoatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar: misni chuqur qayta ishlash orqali sifatni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish	34
Ostonova Charos Zubaydullayevna	The role of language in shaping economic thinking: cognitive and cultural perspectives	37
Qo‘chqorov Sherzodbek Dilshodjon o‘g‘li	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i borasida amalga oshirilayotgan islohotlar	42
Сулейманова Шоира Алавхановна, Эркинова Шахзодахон Зафаровна	Формирование и устойчивое развитие стартап-экосистемы в Узбекистане	45
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	Davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobotlarini takomillashtirishning axborot va nazorat asoslari	49
Tolibjonov Xurshibek Hayotjon o‘g‘li	O‘zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish tizimi: iqtisodiy barqarorlik va huquqiy-ijtimoiy holat tahlili	53
Usmonov Davlatjon Sherzodjon o’g’li, Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o’g’li	The state’s fiscal policy and its priority directions in ensuring economic stability	57
Назаров Хусанбек Аввазбек угли	Экономическая эффективность цифровой трансформации туристической отрасли узбекистана: теоретические, эмпирические и методологические основы	61
Abdujalilova Husnidabonu Kozimjon qizi, Suleymanova Shoira Alavhanovna, Nishonov Vohobjon Xamidulla o‘g‘li	Strategic role of standardization in the economic development of Uzbekistan	66

2-SHO’BA: MILLIY IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH VA XALQARO INTEGRATSIYANI CHUQURLASHTIRISH

Axmedov Islombek Utkir o‘g‘li	Neft gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy ahamiyati	74
Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotni rivojlanib borishiga tashqi savdo hamda investitsiya ko‘rsatkichlari ta’sirini statistik baholash	78
Fayziyev Oybek Raximovich	Baliqchilik xo‘jaliklarida aylanma kapitalni samarali boshqarishning strategik yondashuvlari	83
Ismailov Baxit Abdireymovich, Jumaniyazov Rashid Azamatovich	Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish	89
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li	Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va byudjetlashtirish tizimini rivojlantirish	92
Jo‘rayev Dilmurod Alisherovich	Mamlakat elektronika va elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish	96
Jo‘rayev Dilmurod Alisherovich	Elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo‘llari	100
Maksudov Mashxurbek, Usmonov Davlatjon	O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining modernizatsiyasi va xalqaro integratsiyasini chuqurlashtirish: islohotlar tahlili, muammolar va istiqbollar	103
Mamatqulov Bekzod Akmalovich	Xalqaro reyting va indekslarda davlat boshqaruvi samaradorligini baholash mezonlari	109
Mardanova Rano	Green economy as a strategic vector for sustainable development of society	117

Nigmanov Azizbek Ulugbekovich	O‘zbekiston sanoat korxonalarida energiya sarfini baholash	128
Nigmanov Azizbek Ulugbekovich, Nuriddinova Ozodaxon Suyarovna	Xalqaro iqtisodiy integratsiya: nazariy asoslar va amaliy tajriba	132
O‘razaliyev Javlonbek O‘rinboyevich	Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishda xorijiy investitsiyalarning tutgan o‘rni	135
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	Auditorlarning professional fikri va mulohazalarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar	138
Qutbiddinova Solihabonu Sirojiddin qizi, Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o’g’li	Yalpi ichki mahsulot dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish: empirik tahlil	142
Nigmanov Azizbek Ulugbekovich, Raximova Zarina Farxodovna	Xalqaro iqtisodiy integratsiya: nazariy asoslar va amaliy tajriba	149
Sabirov Xasan Nusratovich	Davlat-xususiy sherikligi asosida sanoat korxonalarini rivojlantirishning xorij tajribalari tahlili	153
Sadriddinov Baxtiyor Shamshiddin o’g’li	Korxonalarni stabil rivojlantish strategiyasini ishlab chiqish va tadbiq etish yo’llari (Namangan viloyati) misolida	157
Sa’dullayeva Sayyora Nasillo qizi	The role of the light industry as a driver of national economic development	160
Safarov Alisher Ibrohim o‘g‘li	Tovar-moddiy zahiralar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	164
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	Innovatsiyalar tizimi: kontseptual yondashuvlar, turlari va strategik boshqaruv mexanizmlari	167
Teshabayev Dilmurod Boxodir o’g’li	Moliyaviy hisobning raqamli iqtisodiyotdagi konseptual muammolari	172
Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich	Qoraqalpog‘istonda uzumchilikning strategik rivojlanishini boshqarish muammolari va yechimlari	176
Xaydarov Sardor Komil o‘g‘li	Agroklasterlarda raqamli texnologiyalar samaradorligini oshirish yo‘llari	183
Журакулова Мухлиса Джахонгировна	Эффективность цифровой трансформации и внедрения передовых систем управления	192
Самандаров Д.У.	Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими харажатларини молиялаштиришда “даволанган ҳолат” тизимини жорий этиш	197
Холикова Дурдона Бунёджон кизи	Модернизация национальной экономики и углубление международной интеграции: синергия развития в условиях глобализации	202

3-SHO’BA: YOSHLAR SIYOSATI, MA’NAVIY-MA’RIFIY TARAQQIYOT VA MADANIY MEROSNI RIVOJLANTIRISH

Alimov Zokir Chori o‘g‘li	Internet madaniyati va yoshlar axloqiy qadriyatlarining o‘zaro ta’siri	206
Alimov Zokir Chori o‘g‘li	Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning samarali yo‘llari	209
Bazarova Shaxlo Shuxratovna	Oydin Sobirova nasrida ma’rifatparvarlik va realizm tamoyillari	212
Davlyatova Sayyora Gulamovna	Yoshlar siyosatini takomillashtirishda faollik, ijtimoiy mas’uliyat va kelajak sari ishonch	216
Ishankulova Farangis Azamovna, Abdiyeva Oysha Ro‘zimurod qizi	Germaniya tarixiy maktab iqtisodiy ta’limotining bugungi kundagi ahamiyati	220
Kadirova S.Sh.	Xotin-qizlar faolligini oshirish – strategiyadagi muhim maqsad sifatida	223
O‘tkirbek Muhammad Sobir	Arba’in she’rlarda ayol timsoli	226
Omonqulov Ro‘ziqul Ma’ruf o‘g‘li	Yoshlar siyosatida o‘zbekiston armiyasining muhim o‘rni hamda integrativ mediamakondagi imiji	229
Қодиров Нажмиддин Неъматович	Ёшлар қанотлари орқали партиялар фаолиятида ёшлар иштироки	235
Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich	Ma’naviy immunitet va axborot madaniyati: o‘zbekiston tajribasida yoshlar bilan ishlash tizimi	243
Ro’zimboyeva Dinora O’ktam qizi	Raqamli asrda yoshlarning ma’naviy immunitetini shakllantirish: imkoniyatlar va tahdidlar	246
Яковлева Диана Юрьевна	Реализация стратегических приоритетов молодёжной политики, духовно-просветительского развития и сохранения культурного наследия в контексте стратегии “Узбекистан - 2030”	251
Yo‘ldosheva Madhiya Bekmurod qizi	Sport mashg‘ulotlari va milliy o‘yinlarni o‘tkazish orqali tezkorlik qobiliyatini rivojlantirish uslubiyati	255

4-SHO’BA: ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK BARQAROR TARAQQIYOTNI TA’MINLASH

Murtazaev Akbarxon Olimovich	Qishloq xo‘jaligida mehnat (mardikorlar) bozoridagi ishtirokchilarni minimallashtirishning istiqboldagi prognoz ko‘rsatkichlari	259
Ganiyev Akmal Abduhalilovich	Neft-kimyo sanoatida boshqaruv jarayonlarining tizimli tahliliy yondashuvi	263
O‘razaliyev Javlonbek O‘rinboyevich, To‘xtaboyev Bobur Ulug‘bek o‘g‘li	Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda atrof muhitni muhofaza qilish yo‘nalishlari	266

Odilov Abdullo Komiljon o‘g‘li	Atmosfera ifloslanishini 3D modellashtirish va ekologik xavf zonalarini baholash uchun gibrid AI–ML modeli	269
Pirmamatov Og’abek	Qishloq xo‘jaligida ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish	275
Khalilov N., Mardonov M. Sh., Khikmatov Kh.	Samarkand viloyat xududidan oqib o’tayotgan qoradaryo suvini kam hajimli miqdorda ekologik zararlarsiz elektrokimyoviy usulda tozalash jarayonini kimyoviy va statistik tahlili	278
Содиков Мурод Наимович	Воздействие на организм человека солнечной радиации в условиях Самаркандской области	288
Kholmukhamedova Feruza	From efficiency to sustainability: ESG-based transformation of industrial enterprises	292

5-SHO’BA: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ILG‘OR BOSHQARUV TIZIMLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI

Amonboyev Mahammadsidik	Oliy ta’lim muassasalarida strategik menejment tizimini takomillashtirish yo‘llari	296
Abdullayev Munis Kurbonovich	Neft va gaz sohasini raqamli transformatsiya qilishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari	300
Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi	Ko‘p omilli statistik modellar yordamida o‘zbekiston tashqi savdo ko‘rsatkichlarini tahlil qilish	305
Begalova Durdona Baxodirovna	Demografik siyosatni shakllantirishda raqamli axborot texnologiyalarning o‘rni	312
Бегалов Баҳодир Абдусаломович	Сунъий интеллект технологияларидан иқтисодий ривожланишда фойдаланиш йўллари	320
Eshonqulova Zulayxo Maxamatmurot qizi	Ma’lumotlarga asoslangan strategik rejalashtirishda analitik platformalarning ahamiyati	325
Kenjebayeva Gulfuza Raxmatillayevna, Kamolova Ruxshona Temurxon qizi	Raqamli transformatsiya davrida MHXSga muvofiq moliyaviy investitsiyalar hisobi va tahlili	329
A.U.Kobilov	Innovative activities of the evolution of digital platforms	333
Mardanova Ra’no Isakovna	Sanoat 4.0 texnologiyalarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri	339
Mukhriddin Mukhiddinov, Mirzarahmatov Shahzodbek Ulugbekovich	Artificial intelligence–driven approaches to clinical decision support systems	343
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali joriy etishning nazariy va amaliy asoslari	349
Qulmatova Sayyora Safarovna	Mahalla tizimida oziq ovqat xavfsizligi masalalari	354
Qulmatova Sayyora Safarovna	Mahalla tizimini raqamlashtirishdagi asosiy yo‘nalishlar	359
Rajabov Sherzod Baxtiyorovich	Raqamli transformatsiya jarayonlarining sanoat 4.0 ga o‘tishdagi o‘rni va bosqichlari	362
Sabirova Dildor Arifovna, Odiljon Olimovich Azizov	O‘zbekistonda elektron hukumat tizimini takomillashtirish jarayonlari	366
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	Raqamli transformatsiya jarayonida autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlik orqali ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish	371
Shakirov Utkirbek Tahirovich	Milliy sug‘urta bozorida biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar sosida takomillashtirish	376
Sofoyeva Fotima Davlatyorovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining rivojlanish tendensiyalari	381
Sultonov Sherali Nuraliyevich, Xurramova Feruzabonu Panji qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xavfsizligi va kiberxavfsizlik muammolari	386
Tolipova Baxtigul Farxodovna	Oziq-ovqat sanoatida raqamli tranformatsiya: yo‘nalishlari va afzalliklari	391
Umarova Ra’no Sunnatxonovna	Davlat fuqarolik xizmatchilarining malakasini oshirish jarayonlarini boshqarish	396
Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich	“Ta’lim sohasida raqamli transformatsiya va ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish: xorijiy tajriba va o‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari”	400
Xakimov Ziyodulla Axmadovich, Karimova Shirin Zoxid qizi	Hududiy ijtimoiy tabaqalashuvni baholashda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi	403
Xakimov Ziyodulla Axmadovich, Xidoyatov Murod Batirovich	O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari brendni shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri	406
Xusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li	Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodlarini takomillashtirish	411
Zoirov O‘lmas Erkin o‘g‘li	Raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv usullarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish	416
Исторахон Абдусаломова Илхом кызы	Применение цифровых технологий в процессе переписи населения в Республике Узбекистан: тенденции и перспективы	422
Алиев Абдунаби Рустам ўғли	Рақамли хизматларни бошқаришда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш	425
Аҳмаджонов Азимжон Каримжон ўғли	Акциядорлик жамиятларида кўрсатиладиган аудиторлик хизматлари таркибини ривожлантириш истиқболлари	430
Bekmirzayev Obidjon Nuraliyevich, Karimov Abdukarimjon Alisher o‘g‘li	Neyron tarmoqlar asosida tahdidlarni aniqlash usuli va algoritmi tahlili	435

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Жабарова Люция Алиевна, Аллаберганова Гаухар	Эффективность цифровой трансформации и внедрение передовых систем управления	440
Жуманиёзова Саъдия Бахтиёр кизи, Грошева Ирина Владимировна	Повышение вовлеченности персонала в управлении вузом в условиях цифровой трансформации образования	444
Мухриддин Мухиддинов, Кадирова Гузаль, Музаффарова Хулькар	Эффективность цифровой трансформации и внедрения передовых систем управления	448

“BIR MAKON – BIR YO‘L” – GLOBAL INVESTITSION LOYIHANING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Muallif: Mustafakulov Sherzod [1]
Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti rektori [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17596696

ANNOTATSIYA

Mazkur ishda “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusining global investitsion loyihalar tizimidagi o‘rni va uning bugungi kundagi iqtisodiy, siyosiy hamda geostrategik ahamiyati tahlil etiladi. Unda tashabbus doirasida Xitoy va boshqa ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasidagi infratuzilma, transport, savdo va energetika sohalaridagi hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari, investitsiya oqimlarini kengaytirish imkoniyatlari hamda mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, loyiha doirasida O‘zbekistonning ishtiroki va milliy iqtisodiyot uchun yaratayotgan imkoniyatlar ham ko‘rib chiqiladi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so`zlar: “Bir makon – bir yo‘l”, global investitsiya, infratuzilma loyihalari, mintaqaviy integratsiya, xalqaro hamkorlik, transport koridorlari, iqtisodiy rivojlanish, savdo aloqalari.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlarining avj olishi davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarining kengayishiga olib keldi. Ushbu jarayon, birinchidan, transport kommunikatsiyalari tizimini rivojlantirish, shuningdek, yangi, arzon va qisqa transkontinental tranzit koridorlarini shakllantirishni talab etayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, mintaqa mamlakatlarining jahon transport tizimi bilan tutashuvchi transport sohasini o‘zaro muvofiqlashtirishni taqozo etmoqda.

Ayni damda, ko‘plab davlat rahbarlari tomonidan transport loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tashabbuslar ilgari surilayotgan bo‘lib, muhim loyihalardan biri sifatida «Buyuk ipak yo‘li»ni qayta tiklashga qaratilgan harakatlarni ham qayd etish joiz. Mazkur yo‘nalishda birgina Xitoy tomonidan «Bir makon – bir yo‘l» global transport koridorlarini yaratish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyihani amalga oshirish uchun dastlabki bosqichda 900 млрд AQSH dollaridan ziyod mablag‘ni ajratish rejalashtirilayotganligini qayd etish joiz. Bu kabi transport koridorlarining ishga tushishi xalqaro tashuvlarda ham vaqtni, ham ortiqcha xarajatlarni tejalishiga olib keladi.

Ma’lumki, Xitoy 2013-yilda Yevroosiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirish maqsadida “Bir makon – bir yo‘l” deb nomlangan iqtisodiy taraqqiyotning yangi strategiyasini e’lon qildi. Shu tariqa Xitoy raisi Si Szinpin ko‘p asrlik Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklash borasidagi o‘z g‘oyalarini amalga oshirmoqda. Yangi Ipak yo‘lini tashkil qilish g‘oyasi Si Szinpin tomonidan 2013-yilning 7-sentyabr kuni ilgari surilgan edi. Oradan bir oy o‘tib, u Indoneziya parlamentida so‘zlagan nutqida XXI-asrning Buyuk Ipak yo‘li haqidagi fikrlarini takrorladi.

Jahon amaliyotida transport tizimini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tadqiqot markazlari tashkil etilgan va ushbu yo‘nalishdagi muammolarning ilmiy yechimini

topishga bag‘ishlangan maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, dengizga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyati bo‘lmagan davlatlar uchun muqobil bo‘lgan arzon va qisqa transport koridorlarini yaratish, multimodal transport koridorlaridan foydalanishni rivojlantirish, zamonaviy va qulay transport-logistika xizmatlarini joriy etish, tovar tannarxida transport xarajatlarini qisqartirish kabi masalalarga keng ilmiy doiralar tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrdagi PQ-3422-sonli «2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi hamda 2015-yil 6-martdagi PF-2313-sonli «2015-2019 yillarda muxandislik kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida»gi farmonlari soha rivoji uchun huquqiy-me’yoriy hujjat vazifasini o‘taydi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, integratsion jarayonlarning tobora chuqurlashishi va xalqaro savdo samaradorligining transport logistikasiga bog‘lanib qolishi mamlakatlarning bir loyiha ostida birlashish zaruriyatini keltirib chiqardi. Ushbu zaruriy jarayonni ro‘yobga chiqarish va mintaqalararo integratsion aloqalarni rivojlantirish maqsadida Xitoy Xalq Respublikasi “Bir makon – bir yo‘l” loyihasi tashabbusini ilgari surmoqda.

O‘tgan yili Xitoy poytaxti Pekinda “Bir makon – bir yo‘l” deb nomlangan xalqaro anjuman bo‘lib o‘tgan edi. Xalqaro hamkorlik aloqalarni rivojlantirishga bag‘ishlangan anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

Pekinning “Bir makon – bir yo‘l” loyihasi uchta qit’ada joylashgan 60 ta davlatni qamrab oladi. Loyiha 10 million aholi istiqomat qiladigan Siandan boshlanishi belgilangan. Bu shaharni xitoyliklar sivilizatsiya beshigi sifatida ko‘rishadi. Bir vaqtlar sayyoramizning eng yirik shahri bo‘lgan Sian ming yillar davomida Xitoyning poytaxti vazifasini o‘tagan.

1-jadval

Tadqiqot davomida o‘rganilayotgan 48 ta “Bir makon – bir yo‘l” qatnashchilarining iqtisodiyoti ro‘yxati[1]

Mintaqa	Iqtisodiyotlar
Sharqiy Osiyo	Xitoy Xalq Respublikasi, Mo‘g‘uliston
Janubi-Sharqiy Osiyo	Bruney Sultonligi, Kambodja, Indoneziya, Lao Xalq Demokratik Respublikasi, Malayziya, Myanmar, Filippin, Singapur, Tailand, Sharqiy Timor, Vetnam
Janubiy Osiyo	Afg‘oniston, Bangladesh, Butan, Hindiston, Maldiv orollari, Nepal, Pokiston, Shri Lanka
Markaziy Osiyo	Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	Bahrayn, Misr, Eron, Iroq, Isroil, Iordaniya, Quvayt, Livan, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, Falastin Milliy Ma’muriyati, Suriya, Birlashgan Arab Amirligi, Yaman
XI-asr Dengiz Ipak Yo‘li	Efiopiya, Kenya, Marokash, Yangi Zelandiya, Panama, Koreya, Janubiy Afrik

[1] Manba: China International Trade Institute

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Loyihaga ko‘ra, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Yevropaning ayrim mintaqalari moliya bilan ta’minlanadi. Tahlilchilarning fikricha, Yangi Buyuk Ipak yo‘lining tashkil qilinishi Xitoyni jahondagi yetakchi davlatlardan biriga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Shuningdek, “osmon osti mamlakati”ning Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ham nufuzi ortadi, hamda mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy ta’siri kengayadi (1-jadval).

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Xitoy o‘zining temiryo‘l va qurilish kompaniyalari xorijga chiqishidan manfaatdor hisoblanadi. Rossiya-Xitoy hukumatlari temiryo‘l masalasida bir qator loyihalarni birgalikda ishlab chiqmoqda. Hozirda Xitoy Pekin – London yo‘nalishida tezyurar poyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ham bosh qotirmoqda. Agar bu loyiha amalga oshadigan bo‘lsa, u holda yo‘lovchilar atigi ikki kun ichida Londondan Pekinga yoki Pekindan Londonga yetib olishlari mumkin bo‘ladi.


Shuni ta’kidlash lozimki, Xitoy bundan avval dunyoda eng uzoq masofali yuk poyezdi yo‘nalishini ishga tushirgan edi. Bu yo‘nalish mamlakat shimoliy-sharqidagi Xarbin shahri va Germaniyaning Gamburg shahrini o‘zaro bog‘laydi. Xitoyga tegishli SHRC (China railway construction) davlat korporatsiyasi Kaliforniyaga qadar o‘ta tezyurar poyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yish loyihasi ustida ish olib bormoqda. Loyihaning qiymati 68 milliard dollarga teng ekani aytilmoqda.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

2014-yilda Afrika Ittifoqining Addis-Abebedagi qarorgohida nutq so‘zlagan Xitoy Davlat Kengashining bosh vaziri Li Kesyan o‘z mamlakati Afrika qit’asi davlatlari poytaxtlarini o‘zaro bog‘lovchi qit’alararo tezyurar poyezdlar qatnovini ishlab chiqish rejasini qo‘llab-quvvatlashini bildirgan edi. Shuni eslatib o‘tish kerakki, hozircha Afrika mamlakatlarini bog‘lovchi temiryo‘l tarmog‘i mavjud emas. Bundan 100 yil avval Buyuk Britaniya va Fransiya Afrikada temiryo‘l tarmog‘ini yaratish masalasini muhokama qilgan ammo, amalga oshmay qolgan edi.

“Bir makon — bir yo‘l” loyihasi doirasida tashkil etiladigan transport yo‘lagi Avstraliya va Indoneziyani, Osiyo mamlakatlarini, Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi orqali AQSH bilan bog‘laydi. Hisob-kitoblarga qaraganda, Yangi Ipak yo‘li sayyoramiz aholisining yarmidan ko‘prog‘ini, to‘g‘rirog‘i 4,4 milliard kishi istiqomat qiladigan mamlakatlarni qamrab oladi. Yangi Ipak yo‘lining quruqlikdagi qismida uchta temiryo‘l yo‘lagi barpo etiladi. Shimoliy yo‘lak Rossiya hududlaridan o‘tadi. Markaziy va janubiy yo‘lak esa Markaziy va O‘rta Osiyo mamlakatlari hududlaridan o‘tishi rejalashtirilgan.

Keyinchalik temiryo‘llar yo‘laklariga avtomobil yo‘llari ham qo‘shiladi. Yangi Ipak yo‘lining asosiy yo‘nalishi O‘rta Osiyodan o‘tadi. Bu yo‘lakning uzunligi 6 ming 500 kilometrni tashkil qilib, uning 4 ming kilometri Xitoyning Tinch okeani sohillaridan Sinjon – Uyg‘ur Muxtor O‘lkasigacha bo‘lgan yo‘ldir. U yerdan Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston orqali Eron, Iroq, Suriya va Turkiyaga boradi. U yog‘i esa Yevropaga bir qadam. Dengiz yo‘li ham xuddi qadimgi savdo yo‘li singari Guanchjoudan boshlanadi va V’etnam, Tailand, Malayziya, Singapur va Indoneziya orqali Qizil dengizga chiqib, Afrikagacha yetib boradi. Yangi transport yo‘laklari Xitoydan ortilgan yuklarni qisqa muddatlarda Yevropaga yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan (1-rasm).



1-rasm. “Bir makon — bir yo‘l” loyihasi doirasida tashkil etiladigan transport yo‘lagi[2]

Tashabbus negizida Xitoy ichki bozorining to‘yinishi sababidan bozor topa olmay qiynalayotgan Xitoy shirkatlari uchun Yevroosiyo mamlakatlari hududida multi-milliard dollarlik infratuzilma loyihalarini vujudga keltirish, ular Xitoyning ommaviy banklaridan beriladigan imtiyozli kreditlar orqali Xitoydagi firmalar tomonidan barpo etilishi yotadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

«Bir makon – bir yo‘l» loyihasining diqqatga sazovor joyi shundaki, u nafaqat quruqlik va dengizda, balki axborot texnologiyalari sohasida ham markazi Xitoy bo‘lgan hamkorlikni taklif etadi. Xitoy bu sohada «Dijital ipak yo‘li» qurilishini barcha mamlakatlar bilan birgalikda amalga oshirishiga harakat qilmoqda. Mazkur sohada Xitoyning Huawei, ZTE, China Telecom, China Mobile shirkatlari allaqachon dunyoga tanilib ulgurgan.

Xitoyning «Bir makon – bir yo‘l» tashabbusi dunyo mamlakatlari tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Mamlakatimizda ham bu loyiha tafsilotlari tadqiq etilishi, voqealar rivoji sinchkovlik bilan kuzatilishi lozim, deb hisoblaymiz. Eng muhimi, biz uchun «Bir makon – bir yo‘l» qaysi o‘rinda foydayu, qaysi o‘rinda xavf – shularni bilib olishimiz lozim.

Koronavirus pandemiyasi sharoitida, ushbu loyihaning rivojlanish jarayonlaridagi zamonaviy muommolarning tarkibi o‘zgarib boradi. Loyihaning rivojlanish tendensiyasi esa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy inqirozdan chiqish strategiyalariga bog‘liq bo‘ladi.

Xitoy va Markaziy Osiyo transport koridorlarinig logistik rivojlanish xususiyatlari. Xitoy va Markaziy Osiyo transport koridorlarining rivojlanishi hamda logistik imkoniyatlarning kengayib borishi ikki yirik mintaqa uchun ulkan istiqbollarni ochib beradi. Mintaqalarning chegaraviy holati va uzoq yillik mushtarak tarixi ushbu mamlakatlarni yagona logistik tizim ostida birlashtirish imkoniyatini beradi.

Mintaqani rivojlantirishga qaratilgan muhim loyihalarni amalga oshirish maqsadida 2018-yilning noyabr oyida Samarqandda “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu tadbirda hozirgi kunda mintaqaviy hamkorlikni barcha muhim

[2] https://www.cfr.org/backgrounder/chinas-massive-belt-and-road-initiative

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

sohalar bo‘yicha rivojlantirish tendensiyalari haqida so‘zladi va Markaziy Osiyo bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlat rahbarining asosiy tashabbuslaridan biri – Markaziy Osiyo bo‘yicha BMT rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi, 2019-yilda BMT Bosh Assambleyasi “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlik” rezolyutsiyasini qabul qildi. Rezolyutsiyada transport infratuzilmasi va tranzit yo‘laklarini rivojlantirish, yangi avtomobil va temir yo‘llar, aviaqatnovlarni ochish orqali barcha transport turlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirishga alohida etibor qaratilgan.

Markaziy Osiyoda mavjud transport yo‘laklarini takomillashtirish va yangilarini shakllantirish dolzarbligini e’tirof etgan holda, davlatimiz rahbari Samarqandda bo‘lib o‘tgan tadbirda Toshkent shahrida transport yo‘laklari bo‘yicha xalqaro konferensiyani tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.

Asosiy maqsad – mintaqaning tranzit salohiyatini birgalikda rivojlantirish, xalqaro transport yo‘laklaridan foydalanish samaradorligini oshirish, xalqaro tashuvlar jarayonidagi turli to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, meyoriy-huquqiy baza va tarif siyosatini takomillashtirish hisoblanadi.

Ayrim malumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari temir yo‘llarining uzunligi 22 ming kilometrga teng. Qozog‘iston eng yirik va eng ko‘p foydalaniladigan temir yo‘llar tizimiga ega, uning hissasiga mintaqadagi temir yo‘llarning 66 foizi va barcha yuk tashishlarning 84 foizi to‘g‘ri keladi. Mintaqadagi temir yo‘llarning qariyb 18 foizi O‘zbekiston hududidan o‘tadi va barcha tashishlarning qariyb 11 foizi mamlakat hissasiga to‘g‘ri keladi. Turkmaniston taxminan 12 foiz mintaqaviy temir yo‘llarga egalik qiladi va barcha tashishlarning 4 foizini ta’minlaydi (2-jadval).

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

2-jadval

BMBY loyihasi natijasida Markaziy Osiyo davlatlarida transport xarajatlarining qisqarishi[3]

	Xitoy	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Tojikiston	Turkmaniston	O‘zbekiston
Xitoy	0%	13%	46%	0%	0%	**8%**
Qozog‘iston	13%	17%	1%	46%	63%	**28%**
Qirg‘iziston	46%	1%	0%	33%	41%	**37%**
Tojikiston	0%	46%	33%	0%	4%	**7%**
Turkmaniston	0%	63%	41%	4%	0%	**13%**
O‘zbekiston	8%	28%	37%	7%	13%	**1%**

Xitoy va qo‘shni mamlakatlar bilan tarnsport tashuvlari osonlashishi hamda tezlashishi hisobiga unga sarflanadigan xarajat qisqarishiga erishish mumkin. O‘zbekiston misolida olib ko‘radigan bo‘lsak, loyiha asosida infrastruktura obyektlari yaxshilanishi, yangi yo‘llar barpo qilinishi hisobiga barcha ishtirokchilar bilan transport xarajatlarida ijobiy o‘zgarish sodir bo‘ladi.

Xususan, Qirg‘iziston bilan tashiladigan transport xarajatlari 37 foizgacha, Qozog‘iston bilan esa 28 foizgacha qisqarishiga erishish mumkin. Boshqa ishtirokchi davlatlar bilan ham transport va yuk tashish borasida xarajatlarni minimallashtirish imkoni mavjud. Xitoy hukumati yo‘llar qurilishi va yangi infrastruktura inshootlarini

[3] Mazkur hisob kitoblar Jahon Bankining 2019 yilda ushbu loyiha bo‘yicha tayyorlagan hisoboti va tahlillari asosida ishlab chiqilgan.

barpo qilishda katta tashabbus ko‘rsatmoqda, moliyaviy mablag‘larni o‘z zimmasiga olishini ta’kidlab kelmoqda.

Markaziy Osiyoda qo‘shimcha yuk tashish oqimlarini jalb etish imkonini beradigan yangi transport va tranzit yo‘laklarini shakllantirish, transport va logistika sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganib, xalqaro logistika markazlari tarmog‘ini yaratish, mintaqa transport-logistika salohiyatini rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlarning portlaridan samarali foydalanish uslublarini shakllantirish, Markaziy Osiyoda Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini birlashtiruvchi muhim tranzit yo‘l bo‘lib xizmat qiladigan yagona integratsiyalashgan tizimni yaratish masalalari mintaqa uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi bugungi global iqtisodiy hamkorlikning eng yirik va strategik ahamiyatga ega loyihalaridan biri bo‘lib, u nafaqat infratuzilmani modernizatsiya qilish, balki mintaqalar o‘rtasida barqaror savdo, investitsiya va madaniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Loyiha ishtirokchi mamlakatlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratib, ularni jahon xo‘jalik tizimiga chuqurroq integratsiya qiladi. Shu orqali global iqtisodiy o‘sishning yangi markazlari shakllanmoqda va xalqaro transport-logistika tizimi barqaror rivojlanish sari yo‘naltirilmoqda.

O‘zbekiston uchun esa ushbu tashabbus iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Mamlakatning geografik joylashuvi, transport tarmoqlari va iqtisodiy salohiyati “Bir makon – bir yo‘l” loyihasida strategik o‘rinni egallash imkonini beradi. Shu bois, O‘zbekistonning bu tashabbusdagi faol ishtiroki nafaqat milliy manfaatlarga, balki butun mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasini 2016-yilning to‘qqiz oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to‘g‘risida. Xalq so‘zi, № 208 (6643), 2016-yil 21-oktabr.
2. Ayjun, U. (2020). “Bir makon, bir yo‘l” ga xizmat ko‘rsatuvchi strategik tillar. Uzbekistan: Language and Culture, 2(2).
3. Muminov B.Sh. O‘zbekiston iqtisodiyotida markazlashgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo‘llari. 08.00.07.: Iqt. fanl. nomzodi dissertatsiyasi./O‘zR Bank-moliya akademiyasi. – T., 2012. 135 b.
4. Mustafakulov Sh. Investitsion faoliyat, salohiyat va jozibadorlik. Bozor, pul va kredit Ilmiy-amaliy oylik jurnal. 4/2017, aprel (239), 10-19 b.
5. Jie Z., Hong L. China-SEAN Cooperation on High-Quality BRI: Regional Experience, Order Reconstruction and Strategic Rethinking //China Int'l Stud. – 2023. – T. 101. – C. 53.
6. Liu Y. China's Law and Policy on Cross-Border Data Flow: A Review of Digital Silk Road //JE Asia & Int'l L. – 2024. – T. 17. – C. 109.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

РОЛЬ СМИ И КОММУНИКАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Автор: Aliakbarova Rushanabonu Murodullayevna [1]
Аффилиация: Xalqaro Nordik Universiteti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17557913

АННОТАЦИЯ

В тезисе анализируется роль современных медиа и коммуникаций в формировании социально-экономической устойчивости в системе образования. Исследование, выполненное в научно-управленческом ключе, посвящено влиянию медиа на становление устойчивого мышления у молодежи. На основании авторского социологического опроса в трех вузах Узбекистана рассматриваются положительные и отрицательные эффекты воздействия медиа на молодежь. Особое внимание уделено уровню медиаграмотности, трансформации ценностей под влиянием медиасреды, а также роли системы образования в обеспечении правовой и социальной устойчивости. Полученные результаты показывают значительное влияние современных медиа на сознание молодых людей и обосновывают необходимость интеграции медиаграмотности и критического мышления в образовательные программы для укрепления устойчивого развития.

Ключевые слова: медиа, коммуникации, социально-экономическая устойчивость, образование, молодежь, медиаграмотность.

ВВЕДЕНИЕ

Современные средства массовой информации и коммуникации стали неотъемлемой частью жизни молодежи в эпоху цифровизации. По данным международной статистики, к началу 2024 года численность пользователей Интернета превысила 5,3 млрд человек (около 65,8% населения Земли). Такое широкое распространение цифровых технологий приводит к тому, что молодое поколение ежедневно сталкивается с огромными потоками информации из множества источников. Это создает как новые возможности для образования и самореализации, так и серьезные вызовы для формирования устойчивого, критически мыслящего мировоззрения у молодежи.

В условиях Узбекистана вопросы влияния медиа на социально-экономическую устойчивость приобретают особую актуальность. Страна активно продвигает стратегию цифрового развития и молодежной политики, направленную на повышение интеллектуального и ценностного потенциала молодых граждан. Одновременно наблюдается быстрое проникновение новых медиа и социальных сетей в жизнь узбекской молодежи, что трансформирует их ценностные ориентации и модели поведения. С одной стороны, медиа могут способствовать повышению осведомленности молодежи о социально-экономических проблемах, стимулировать инновационное и устойчивое мышление. С другой стороны, неконтролируемое медиапотребление и

недостаток медиаграмотности ведут к рискам дезинформации, распространения негативных влияний и ослабления традиционных ценностей.

Социально-экономическая устойчивость в контексте системы образования подразумевает способность общества и экономики сохранять стабильное развитие благодаря подготовке грамотных, критически мыслящих граждан, разделяющих конструктивные ценности. Формирование такого «устойчивого мышления» у молодежи во многом зависит от характера информационного пространства, в котором они находятся, и от эффективности образовательных усилий по развитию медиаграмотности и правовой культуры.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Результаты опроса дают целостную картину медийного поведения и установок студентов узбекских вузов. Подтверждено, что подавляющее большинство молодежи активно пользуется современными медиа: около 78% респондентов указали, что ежедневно получают информационные новости через социальные сети и другие онлайн-платформы. Вместе с тем выявлен существенный разрыв между самооценкой медиаграмотности и реальными навыками критической обработки информации. Примерно 55% студентов считают свой уровень медиа-компетентности достаточным, однако лишь около 20% опрошенных продемонстрировали уверенность в отличении достоверных сведений от фейковых (т.е. успешно справились с тестовыми вопросами на проверку источников). Этот показатель соответствует данным общенациональных исследований, согласно которым только 15% населения способны критически оценивать онлайн-контент. Кроме того, 68% опрошенных согласны с тем, что современные медиа существенно влияют на ценностные ориентации молодежи (включая отношение к социальным нормам, потребительскому поведению, гражданской активности). Одновременно 86% студентов выразили поддержку идее введения в университетах обязательного курса по основам медиаграмотности, что свидетельствует о высоком осознании молодежью значимости данной проблемы.

Полученные результаты свидетельствуют о значительном воздействии медиасреды на студентов и одновременно указывают на проблемные зоны, требующие внимания со стороны образовательной системы и общества. Высокий уровень вовлеченности молодежи в цифровые коммуникации (фактически около четырех из пяти студентов ежедневно черпают информацию из интернета) означает, что медиа стали одним из главных институтов социализации. От того, какой контент потребляют молодые люди, во многом зависит формирование их взглядов, ценностей и социальных моделей поведения. Выявленное убеждение большинства респондентов в мощном влиянии медиа на ценности подтверждает, что современные коммуникации могут как ускорять позитивные изменения в сознании (повышая информированность о социальных проблемах, стимулируя гражданскую активность), так и приводить к нежелательным последствиям. К последним относятся распространение потребительских стереотипов, деструктивных или девиантных форм поведения (например, случаев вандализма под влиянием интернет-челленджей), ослабление приверженности традиционным нормам и снижение межпоколенческой преемственности.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Одним из ключевых выводов нашего исследования стало явное пожелание самой молодежи ввести обучение медиаграмотности в систему образования. Подавляющее большинство студентов поддерживают введение специализированного курса – этот запрос созвучен позиции экспертов: сегодня в вузах Узбекистана отсутствует обязательная дисциплина по медиаграмотности, и ее внедрение с первого курса рассматривается как необходимый шаг для подготовки студентов к вызовам информационного общества. Наши результаты демонстрируют, что восполнение данного пробела является назревшим: образовательные учреждения должны оперативно адаптировать учебные программы с учетом развития цифровых компетенций, критического мышления и культуры работы с информацией. Необходима подготовка квалифицированных преподавателей и методических материалов, основанных на лучшей отечественной и зарубежной практике медиаобразования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Современные медиа и коммуникации оказывают глубокое и разностороннее влияние на процесс обучения и социализации молодежи, а через него – на социально-экономическую устойчивость общества. Проведенное исследование показало, что узбекская молодежь широко интегрирована в глобальное информационное пространство, однако недостаточный уровень медиаграмотности создает серьезные риски для правовой и социальной стабильности. Чтобы минимизировать негативные влияния и одновременно раскрыть позитивный потенциал медиасреды, необходим активный комплексный подход. Ключевую роль здесь должна сыграть система образования, интегрируя развитие медиаграмотности и критического мышления в учебные программы на всех уровнях. Практические рекомендации включают внедрение специальных модулей или курсов по медиаграмотности в вузах, повышение квалификации преподавателей в данной области, а также поддержку молодежных инициатив, направленных на формирование культуры ответственного потребления информации и навыков фактчекинга.

Реализация указанных мер, подкрепленная государственными программами (такими как стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030») и международным сотрудничеством, позволит воспитать поколение с устойчивым мировоззрением – медиаграмотное, социально ответственное и адаптивное к вызовам времени. Такое поколение будет способно противостоять информационным угрозам, сохранять верность конструктивным ценностям и активно участвовать в долгосрочном социально-экономическом развитии страны, обеспечивая правовую и социальную устойчивость в обществе.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Очилова Д. Цифровая грамотность как инструмент повышения правовой осведомленности молодежи // Институт законодательства и правовой политики при Президенте РУз. – 21.02.2024
2. Majidova R., Nozimova M. Актуальность медиаграмотности и способы ее развития в Таджикистане и Узбекистане // The Oxus Society, Отчет, 2024

3. Муллагулова Д.Е. Влияние современных СМИ и новых медиа на распространение вандализма среди молодежи Узбекистана // Universum: общественные науки, 2023. – №6(97)

4. Уримбетова З.А. Медиаграмотность и информационная культура в Узбекистане: проблемы и перспективы // Материалы конференции (Zenodo), 2025

5. Ходорева О. «В Узбекистане не было информационных войн». Секреты адаптации пособия по медиаграмотности // Internews Kazakhstan, 20.08.2021

6. Sputnik Узбекистан. Шавкат Мирзиёев предложил провести "Международный фестиваль детского культурного контента".

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MAMLAKATNING IQTISODIY BARQARORLIK KATALIZATORI SIFATIDA

Muallif: Batirov Farxad Bakitovich [1]
Affilyatsiya: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17557983

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tadbirkorlikni moliyalashtirish orqali mehnat bozorida bandlikni ta`minlash, tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati haqida so`z yuritilgan. Tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi mexanizmlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Maqolada aholining ish bilan bandligi tadqiq etilgan. Xususan, Respublika aholsining mehnat bozorida iqtisodiy faollik darajasi statistik tahlil etilib, hududlar o‘rtasidagi tafovutlar o`rganilgan. Davlat tomonidan tadbirkorlik qo`llab-quvvatlanishi tahlil qilinadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so`zlar: tadbirkorlik, moliyalashtirish, mehnat bozori, bandlik, imtiyozli resurs.

KIRISH

Jahon tajribasidan ma`lumki, tadbirkorlik iqtisodiy barqarorlikni keltirib chiqaruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Shuning uchun biznes muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash davlatimizda ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa o`tgan 8 yildan ortiq vaqt davomida O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida dinyo jamiyatining e`tiboriga loyiq katta natijalarga erishdi. Harakatlar strategiyasining uzviy davomi bo`lgan 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 21-maqsadida “Iqtisodiy tarmoqlarda barqaror yuqori o`sish sur`atlarini ta`minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) ni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib ahyoli jon boshiga to`g`ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda daromadni o`rtachadan yuqori bo`lgan davlatlar qatoriga kirish uchun zamin yaratish” vazifasi qo`yilgan. Bunda tadbirkorlik faoliyati haqida gapiradigan bo`lsak, yil sayin tadbirkorlik subyektlari kengayib, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar rivojida o`zining ulushi tobora ortib borayotganini guvohi bo`lamiz. Yangi O`zbekistonda faol tadbirkorlik nafaqat ish o`rinlarini yaratib, bandlik masalasini hal qilishga, balki innovatsiya va ilg`or texnologiyalarni olib kirish hisobiga raqobatbardoshlikni oshirishga hizmat qilmoqda.

“Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – strategik yo‘limiz”,- dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlik vakillari bilan uchrashuvda. Yurtimizda bu soha ish o‘rni, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo‘shilgan qiymat va eksportni ko‘paytirishga eng katta turtki berayotgan yo‘nalishga aylandi. So‘nggi besh yilda kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 karra ko‘paydi. Ularda 10 million 500 ming odam – jami band aholining 74 foizi daromad topib, ro‘zg‘or tebratayapti. Xususan, aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 22 trillion so‘mlik imtiyozli resurs ajratiladi. Shuning 2,5 trillion so‘mi

yoshlarga, yana shunchasi ayollar tadbirkorligi loyihalari uchun yo‘naltiriladi. O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasini xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ham qo‘llab-quvvatlamoqda. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa moliya tashkilotlarining amaliy hamkorligi va ko‘rsatayotgan yordami o`z o`rniga ega.

ASOSIY QISM

Aholining ish bilan bandligi mamlakatning yalpi ichki mahsulotining o‘sishi, yashash darajasining oshishi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Aholi bandligi esa mana shunday omillardan biri bo‘lgan, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. O`zbekiston mehnat bozorida bandlar soni ortib borayotganini ko`rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Mamlakatimiz mehnat bozorida bandlar soni.

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	13 541,1	13 236,4	13 538,9	13 706,2	14 014,2	14 261,9
Qoraqalpog‘iston Resp	711,3	707,4	702,6	714,2	735,5	759,4
Andijon viloyati	1 284,5	1 225,9	1 264,3	1 296,8	1 329,0	1 338,6
Buxoro viloyati	797,1	788,0	777,3	780,6	803,2	796,7
Jizzax viloyati	536,2	534,3	550,7	546,4	553,9	559,2
Qashqadaryo viloyati	1 220,0	1 171,0	1 202,5	1 207,3	1 220,1	1 296,3
Navoi viloyati	412,7	399,4	410,4	410,1	426,4	435,2
Namangan viloyati	1 104,6	1 088,7	1 104,8	1 100,6	1 129,1	1 159,6
Samarqand viloyati	1 455,8	1 418,3	1 441,3	1 479,8	1 504,2	1 521,1
Surxandaryo viloyati	1 024,2	985,5	1 001,9	1 006,3	1 011,2	1 024,9
Sirdaryo viloyati	350,1	332,2	334,1	335,0	338,0	351,2
Toshkent viloyati	1 232,9	1 177,2	1 222,1	1 204,5	1 234,9	1 251,6
Farg`ona viloyati	1 492,6	1 448,6	1 483,3	1 511,7	1 555,4	1 563,9
Xorazm viloyati	736,5	716,4	726,4	741,8	776,5	779,5
Toshkent shahri	1182,6	1243,5	1317,2	1371,1	1396,8	1424,7

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning afzalliklari hisobga olingan holda uni izchil rivojlantirish mustaqillikka erishilgan dastlabki davrdan boshlab davlatning ustuvor vazifasi darajasiga ko‘tarildi. Strategik maqsadlar-zamonaviy demokratik davlat qurish, aholining hayot darajasini munosib bosqichga ko‘tarish, bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotga o‘tish, shuningdek, taraqqiy topayotgan mamlakatlar tajribasi inobatga olingan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berildi.

Davlat tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kredit olish shartlarini yengillashtirish, soliq imtiyozlari taqdim etish va infratuzilmani yaxshilash orqali kichik biznesning rivojlanishi rag‘batlantirilmoqda. Kichik va o‘rta biznes uchun qulay sharoitlar yaratish natijasida yangi ish o‘rinlari ochilmoqda va aholi bandligi oshmoqda.

Tadbirkorlik subyektlariga yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun beriladigan imtiyozlar yangi ish o‘rinlarining soniga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, agar korxonada 200 dan ortiq ehtiyojmand odam ish bilan ta’minlansa, kompaniya soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan «20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis» dasturi (keyingi o‘rinlarda - Dastur) ishtirokchilari uchun imtiyozlar hamda preferensiyalarni qo‘llashni tartibi tasdiqlandi.

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati 2024-yil 1-martdan boshlab tadbirkorlik subyektlariga quyidagi qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etilmoqda:

a) o‘rta tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish loyihalarini moliyalashtirish;

b) kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarining loyihalariniga xizmatlar;

v) 2024 — 2026-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlariga Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori va asosiy stavkaning 1,75 baravaridan oshmagan stavkada milliy valyutada 5 milliard so‘mgacha ajratiladigan kreditlar bo‘yicha asosiy stavkaning 40 foizigacha miqdorda uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga kompensatsiya taqdim etish va boshqalar.

Tadbirkorlar tomonidan kredit olish uchun ariza «hamkorlik shartnomasi» tuzilgandan so‘ng Dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlik subyekti tomonidan mustaqil ravishda yoki hokim yordamchisining ko‘magi bilan platforma orqali elektron shaklda taqdim etiladi. Kreditlar 14 foiz stavkada 7 yilgacha, aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratiladi. Bunda kreditlar:

· 5 mlrd so‘mgacha — 51 tadan 100 tagacha yangi ish o‘rni yaratishni rejalashtirgan tadbirkorlik subyektiga;

· 10 mlrd so‘mgacha — 101 tadan 200 tagacha yangi ish o‘rni yaratishni rejalashtirgan tadbirkorlik subyektiga;

· 15 mlrd so‘mgacha — 200 tadan ortiq yangi ish o‘rni yaratishni rejalashtirgan tadbirkorlik subyektiga ajratildi.

Banklar tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 2025 yil yakuniga qadar 3.570,0 ming nafar aholini daromadli mehnat bilan band qilish, shu jumladan 2.100,0 ming nafar kishini kichik va o‘rta biznesga jalb qilish uchun 120.378,0 mlrd so‘m kredit ajratish maqsad qilib qo‘yilgan. 2025 yilda aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash dasturi doirasida Markaziy bank va tijorat banklarining mahalla bankirlari faoliyatini yo‘lga qo‘yilgan.

XULOSA

Tadbirkorlikni moliyalashtirish, ayniqsa, yoshlar, ishsizlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi o'rtasida bandlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ish o'rinlari yaratish maqsadida biznes-loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator davlat dasturlari va tashabbuslari amalga oshirilmoqda. O`zbekistonda 20-avgust «Tadbirkorlar kuni» etib belgilangan, har yili davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o`tkazib, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta`minlash bo`yicha qulay shart-sharoit yaratish bo`yicha muttasadilarga ko`rsatma beradilar. Buning natijasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari asta sekin rivojlanib, yirik soliq to`lovchisiga aylanishi kuzatilmoqda, ya`ni «o‘zini o‘zi band qilgan shaxs-yakka tartibdagi tadbirkor-kichik biznes-o‘rta biznes-

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

yirik korxona» zanjiri amal qiladi. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning barqaror o`sish sur`atlarini ta`minlovchi katalizatori sifatida namoyon bo`lmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi «2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-12-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi «Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-193- sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi «20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis» dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi VMQ-279-sonli Qarori.
4. Abdurahmonova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta’minlash. Monografiya. T.: „Iqtisodiyot”, 2014y., 6 bet.
5. Hamdamov, S. (2024). Mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 13, 83–85. https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1029
6. https://www.president.uz/oz/lists/view/7955 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
7. https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2 - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISH MODELI: XORIJ TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Muallif: Davronova Maftuna Baxodir qizi [1]
Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti, Iqtisodiyot va Biznesni boshqarish kafedra 1-bosqich Magistranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558083

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning barqaror rivojlanish modeli: xorij tajribasi (Qozog‘iston, Ozarbayjon, Tojikiston) va O‘zbekiston amaliyoti masalalari yoritilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, barqaror tadbirkorlik rivojlanishi uchun raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish, innovatsion biznes modellar yaratish va xorijiy tajribani lokal sharoitlarga moslashtirish zarurligini uchun model taklif etilgan.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so`zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish, xalqaro tajriba, iqtisodiy samaradorlik, tadbirkorlik.

KIRISH

Hozirgi vaqtda global iqtisodiyot rivojlanishning asosiy tendensiyasidan biri bu raqamli texnologiyalar asosidagi yangi iqtisodiy munosabatlar tizimining shakillanishidir. Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish sohalarida innovatsion echimlarni joriy etishni, balki butun iqtisodiy muhitning yangi formatda faoliyat yuritishini ta’minlamoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning kengayishi tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Jumladan, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning barqaror rivojlanish modelini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, global raqamlashuv jarayonlarida Markaziy Osiyo davlatlari — Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikiston tajribalari alohida qiziqish uyg'otmoqda. Bu mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha davlat dasturlari, elektron hukumat tizimlari, raqamli infratuzilmalar va innovation startap ekotizimlari jadal rivojlanmoqda. Ularning amaliyoti O'zbekiston uchun muhim tajriba manbai bo'lib, milliy iqtisodiyotda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasini belgilashda ilmiy asos bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni turli mamlakatlarda farqli dinamikada sodir bo’lmoqda. Hususan, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari — Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikistonda raqamlashuv siyosatida muajyan o'xshashliklar va farqlar mavjud. Ushbu mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga oid davlat strategiyalari, elektron ҳukumat tizimlari, raqamli infratuzilmalar va innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish bo'yicha muntazam ishlar amalga

oshirilmoqda. Ular tajribasini tahlil qilish O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega, sababi mamlakatimiz ham raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sari qadam tashlamoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan «Digital Uzbekistan – 2030» strategiyasi mamlakatda raqamli infratuzilmani takomillashtirish, raqamli hizmatlar turlarini kengaytirish va raqamli tadbirkorlik muhitini yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida ma'lum institutsional va iqtisodiy to'siqlar saqlanib qolmoqda. Masalan, raqamli savodhonlik darajasi pastligi, kichik va o'rta biznes sub'ektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanish salohiyati etarlicha rivojlanmaganligi, axborot havfsizligi va kibertahdidlarga qarshi etarli himoya mehanizmlarining mavjud emasligi shular jumlasidandir.

Qozog'istonda raqamli iqtisodiyot «Digital Kazakhstan» strategiyasi asosida barqaror rivojlanmoqda. Bu mamlakatda elektron hukumat tizimi va raqamli biznes muhiti yaratilgan, innovatsion klasterlar tashkil etilgan. Ozarbajzhon esa «ASAN xidmət» va «MyGov» kabi elektron davlat hizmatlari orqali raqamli infratuzilmani mustahkamlamoqda. Bu mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tadbirkorlik muhitining shaffofligi, raqobatbardoshligi va innovatsion faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday qilib, ushbu mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va ulardagi ijobiy natijalarni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ASOSIY QISM

Barqaror rivojlanish modeli — iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni birlashtiruvchi konsepsiyadir. Tadbirkorlik nuqtai nazaridan, quyidagi omillar muhim: biznesni boshlash va yuritish imkoniyati, raqamli infratuzilma, moliyalashtirish, innovatsiya, raqamli ko'nikmalar.

Raqamli iqtisodiyot esa — AKT hamda raqamli platformalar orqali iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish, mahsulot va xizmatlarda raqamli transformatsiya qilishni anglatadi. Demak, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tadbirkorlik uchun yangi imkoniyat ochadi — masalan, onlayn savdo, fintech, startaplar, IT-eksport va h.k. Biroq barqaror rivojlanish uchun tadbirkorlik «ko'p-qirrali» bo'lishi shart: ish o'rinlari yaratish, qo'lga kirish imkoniyati, raqamli inklyuziya (raqamli tenglik) va boshqalar.

1-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (2025 yil holatiga ko'ra)

Ko'rsatkichlar	Qozog'iston	Ozarbayjon	Tojikiston	O'zbekiston
Raqamli strategiya nomi	«Digital Kazakhstan»	«Digital Azerbaijan»	«Digital Tajikistan»	«Digital Uzbekistan – 2030»
Boshlanish yili	2018	2020	2021	2020
IT-investitsiyalar (mlrd $)	2.6	1.8	0.9	2.1
Raqamli tadbirkorlik sub'yektlari soni (mingta)	23	17	5	19
E-commerce hajmi (mlrd $)	3.4	2.9	0.4	2.2
Internet foydalanuvchilari ulushi (% aholi)	91.5 %	88.3 %	64.7 %	83.4 %
Startaplar soni (2024 y.)	4 800	3 200	900	2 700
Raqamli savodxonlik darajasi (% aholining ishchi qismi)	84 %	78 %	53 %	72 %

IT eksport hajmi (mln $)	620	480	90	410
Bandlikda raqamli sektor ulushi (% jami bandlikdan)	5.8 %	4.9 %	1.6 %	3.8 %
Elektron hukumat indeksi (EGDI, 2024)	0.77	0.74	0.52	0.69
Raqamli infratuzilma sifati indeksi (ITU, 2024)	7.4 / 10	6.9 / 10	5.1 / 10	6.5 / 10

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Qozog‘iston, Ozarbayjon va Tojikiston davlatlarida raqamli iqtisodiyot va raqamli tadbirkorlik rivojlanish sur’atlari turlicha kechayotganini ko‘rish mumkin. Qozog‘iston mintaqada eng ilg‘or natijalarni qayd etmoqda. 2018 yildan boshlab amalga oshirilayotgan «Digital Kazakhstan» strategiyasi natijasida IT-investitsiyalar hajmi 2,6 milliard dollarga yetgan, raqamli tadbirkorlik sub’yektlari soni 23 mingdan oshgan va elektron tijorat bozori 3,4 milliard dollarga teng bo‘lgan. Bu mamlakatda raqamli infratuzilmaning kengayishi, davlat xizmatlarining avtomatlashtirilishi hamda startap ekotizimining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Ozarbayjon esa 2020 yilda qabul qilingan «Digital Azerbaijan» dasturi orqali qisqa muddat ichida raqamli transformatsiyada sezilarli yutuqlarga erishdi. IT-investitsiyalar 1,8 milliard dollarni tashkil etadi, bu esa iqtisodiyotning xizmat va savdo tarmoqlarida raqamli texnologiyalar jadal joriy etilayotganidan dalolat beradi. Elektron tijorat bozorining 2,9 mld dollarga hajmi mamlakatda onlayn to'lovlar va raqamli platformada xizmatlarining faol o'sishini namayon etadi.

Tojikistonda esa raqamli iqtisodiyot hali boshlang'ich bosqichda bo'ldi, «Digital Tajikistan» strategiyasi 2021 yildan amalga oshirilmoqda. IT-investitsiyalar hajmi 0,9 milliard dollarni tashkil etsa-da, bu mamlakat iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqanda muhim natija hisoblanadi. Raqamli tadbirkorlik sub'ektlari soni 5 mingta atrofida bo'lib, bu mamlakatda raqamli infratuzilmani kengaytirish va internet qoplamasini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, uch davlatda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi davlat siyosati, investitsiya muhiti va infratuzilma darajasi bilan bevosita bog'liq. Qozog‘iston modelini tahlil etish O'zbekiston uchun raqamli transformatsiya jarayonida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu tajriba mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarini raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilishda foydali bo'ladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar natijasida ko’ra, raqamli iqtisodiyot bugungi global iqtisodiy makonda tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida shakllanmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki innovatsion biznes modellarni yaratish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini bermoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan davlat strategiyasining aniqligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi, raqamli savodxonlik darajasi va innovatsion ekotizimning faolligiga bog‘liq. O‘zbekiston amaliyoti nuqtai nazaridan, «Digital Uzbekistan – 2030» strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston uchun xorijiy tajribalarning o‘rganilishi raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishda milliy model yaratish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. World Bank. (2020). Public-Private Partnerships in Infrastructure and Innovation: Global Experiences and Lessons for Developing Economies. Washington, D.C.: The World Bank.
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – Raqamli iqtisodiyot asoslari: O‘quv qo‘llanma.
3. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – Raqamli iqtisodiyot asoslari: O‘quv qo‘llanma.
4. Qozog‘iston Respublikasi Raqamli rivojlanish, innovatsiyalar va aerokosmik sanoat vazirligi – Digital Kazakhstan Annual Report 2023.
5. Soliev, F. (2023). Institutional Development of the Digital Economy in the Republic of Tajikistan. CAREC Digital Economy Think Tank.

IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH VOSITASI SIFATIDA BOSHQARUV TAHLILINING ROLI

Muallif: Ibragimova Zarema Zokirovna [1]
Affilyatsiya: Farg‘ona davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558156

ANNOTATSIYA

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun nafaqat amaliy texnologiyalarni takomillashtirish, balki maxsus bilim sohalarini ham ilgari surish zarur. Buning uchun ularni tizimlashtirish va alohida ilmiy yo‘nalishlarga ajratish, metodologik tamoyillarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotimiz doirasida iqtisodiy fanlarning nisbatan yangi sohasi bo‘lgan boshqaruv tahlilining iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi vazifalarini atroflicha o‘rgandik. Biz uning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratdik.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so`zlar: boshqaruv tahlili, boshqaruv hisobi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, iqtisodiy faoliyat samaradorligi, korxonaning moliyaviy holati.

KIRISH

Jahondagi beqaror iqtisodiy vaziyat va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida kompaniyalar o‘z faoliyati samaradorligini oshirishning yangi usullarini izlashga majbur bo‘lmoqda. Bu xaridlar sohasida yanada zamonaviy tahlil usullaridan foydalanish, xodimlarni rag‘batlantirishning samarali tizimlarini yaratish, debitorlik qarzlarini boshqarishni optimallashtirish va kontragentlarning ishonchliligini baholashni o‘z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlarning barchasi moliyaviy barqarorlikni saqlashga qaratilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida kompaniyalarga raqobatchilardan ajralib turish imkonini beradi.

Iqtisodiytni yangi tizimga o‘tish jarayonida uchta jihatni birlashtirish zarur: moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va boshqaruv tahlili. Ushbu tarkibiy qismlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq:

1. Boshqaruv tahlili boshqaruv qarorlarini takomillashtirish va ularni yanada asosli qilishga yordam beradigan vositadir.

2. Boshqaruv hisobi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborot bazasini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, boshqaruv hisobining vazifalari faqat buxgalteriya hisobi, rejalashtirish va nazorat qilish bilan cheklanmaydi. Ular analitik funksiyani ham o‘z ichiga oladi. Bu vazifani bajarishga iqtisodiy tahlilning muhim qismi bo‘lgan boshqaruv tahlili javob beradi. Tahlilning obyektlari, maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini ko‘rib chiqadi. Bunday tahlilni o‘tkazish uchun keng axborot bazasidan foydalaniladi. U tashkilot ichida aylanib yuradigan va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Tashqi muhit tahlili ochiq manbalarda e'lon qilinadigan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Bular investorlar, resurs yetkazib beruvchilar yoki nazorat qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar bo'lishi mumkin. Bunday tahlilning vazifasi maksimal foyda olish va risklarni minimallashtirish imkonini beradigan investitsiyalar uchun istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashdir.

Moliyaviy tahlil iqtisodiy faoliyatning umumiy tahlilining bir qismidir. U o'zaro bog'liq bo'lgan ikki bo'limdan iborat: moliyaviy tahlil va ishlab chiqarishni boshqarish tahlili. Tahlilning moliyaviy va boshqaruvga bo'linishi buxgalteriya hisobi tizimining korxona miqyosida moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'linishi bilan bog'liq. Jahon amaliyotida boshqaruv tahlili an'anaviy ravishda boshqaruv hisobining bir qismi bo'lib, u korxona rahbariyati va boshqaruvini axborot-tahliliy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Boshqaruv tahlilining maqsadlari:

1. Asosiy resurslar: asbob-uskunalar, xomashyo va ishchi kuchidan yanada samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish va sotuvni oshirish salohiyatini o'rganish.

2. Moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasini, shu jumladan foyda va moliyaviy holatni tahlil qilish.

3. Mahsulotning real qiymatini shakllantirish va taqsimlashning asoslanganligini baholash.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

4. Foyda tarkibini o'rganish, unga ta'sirini aniqlash va baholash.

5. Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish rezervlarini aniqlash va ulardan foydalanish.

6. Ishlab chiqarishning zararsizligini ta'minlash uchun sotish, xarajatlar va foyda o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish.

7. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning mumkin bo'lgan natijalarini baholash hamda bu jarayonlarni jadallashtirish yo'llarini izlash.

Korxona moliyaviy holatining ichki tahlilini o'tkazish uchun turli xil ma'lumotlardan foydalaniladi: boshqaruv, birlamchi va tahliliy hisob. Ushbu ma'lumotlar alohida moddalar va byudjetlarni batafsil o'rganish imkonini beradi, bu esa tashkilotning moliyaviy holati haqida to'liq tasavvur beradi. Tarmoqning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, axborot manbalari ro'yxati to'ldirilishi mumkin. Masalan, qurilish sohasida ko'rsatkichlarni prognoz qilish uchun loyiha-smeta ma'lumotlaridan foydalaniladi, bu esa rivojlanish jarayonlari va istiqbollarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Boshqaruv tahlili-bu kompaniyalarning sanoat xususiyatlarini hisobga olgan holda va oqilona operatsion va kelajakdagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishga qaratilgan maxfiy operatsion ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan tashkilotlarning biznes jarayonlarining ichki tahlili [1]. O'zbekistonda korxonalardagi aksariyat bosh buxgalterlar faqat an'anaviy buxgalteriya hisobi bilan shug'ullanadilar. Afsuski, ko'pgina korxonalarda boshqaruv hisobi mavjud emas yoki boshlang'ich holatda. Boshqaruv hisobining ko'plab jihatlari allaqachon buxgalteriya hisobi, operatsion va statistik hisob, iqtisodiy tahlil va boshqalarning an'anaviy tushunchasiga kiritilgan. Biroq, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar mutaxassislarining fikriga ko'ra, kompaniyalar o'z ish vaqti va resurslarining qariyb 90 foizini boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishga sarflaydi, an'anaviy moliyaviy hisobga esa faqat ozgina qismi qoladi [2].

Afsuski, viloyatimizdagi korxonalarda ahvol boshqacha, Buni O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida boshqaruv hisobini tashkil etish va tahlil qilish bo‘yicha yagona yondashuv va tavsiyalar mavjud emasligi bilan asoslash mumkin.

Xalqaro hamjamiyatda boshqaruv hisobi ishbilarmonlik muloqoti vositasi sifatida qabul qilinadi, shuning uchun ushbu mavzuni o‘rganish katta amaliy ahamiyatga ega. Biznesning jadal rivojlanishi sharoitida boshqaruv hisobi va uni tahlil qilish tizimini tashkil etish dolzarb standartlarga javob berishi va maksimal samaradorlik, tezkorlik va barqarorlikni ta’minlashi kerak.

Boshqaruv tahlili strategik menejmentning elementi sifatida joylashtirilgan bo‘lib, u tashkilotlarni boshqarishni takomillashtirishning yangi usullarini ishlab chiqishga yordam beradi, bu yesa ko‘rib chiqilayotgan maqsad va vazifalar nuqtai nazaridan boshqaruv tahlili haqidagi tushunchamizni kengaytiradi. Shunday qilib, agar ilgari xorijiy va mahalliy amaliyotda xarajatlarni baholash, xarajatlarni hisoblash va xarajatlarni boshqarish boshqaruv tahlilining asosiy maqsadi sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalarning faqat kichik bir qismidir [3]. Binobarin, kompaniya jarayonlari yanada murakkab va xilma-xil bo‘lib borishi bilan uning funksiyalari sonining ko‘payishi hisobiga boshqaruv tahlilining maqsadli chegaralarini kengaytirish zarurati tug‘iladi. Boshqa sabablarga barcha mumkin bo‘lgan yechimlardan to‘g‘ri yechimni tanlash, iqtisodiy mexanizm faoliyatini yaxshilash uchun yangi boshqaruv usullarini izlash zarurati kiradi. Shunday qilib, boshqaruv tahlilining maqsadi quyidagicha belgilanishi mumkin: biznesni boshqarish samaradorligini oshirish orqali strategik siyosatni amalga oshirishga ko‘maklashish [4].

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Xorijiy va mahalliy akademik iqtisodchilarning yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish boshqaruv tahlili tahlil jarayonida hisobga olinishi kerak bo‘lgan sohaga xos xususiyatlarga ega degan xulosaga keldi [5-6]. Masalan, tashkilotlarda boshqaruv tahlilining vektorlari quyidagilardir: inventarizatsiyani tahlil qilish, savdo tahlili, debitorlik qarzlarini tahlil qilish va xarajatlarni tahlil qilish. Ushbu vektorlarning har biri ham o‘ziga xos sanoat xususiyatlariga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda respublikamizda dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarining boshqaruv tahlilini tashkil etish va ularni ichki iqtisodiyotga tatbiq etish tajribasi qo'llashdan avval, buxgalteriya hisobi boshqaruv tahlilini tashkil etishning zamini ekanligini alohida e'tirof etish zarur. Buxgalterlarning funksiyalari nafaqat buxgalteriya hisobi, balki ishlab chiqarish xarajatlari smetasi bo'yicha ishlarni boshqarish va muvofiqlashtirish, buxgalteriya ma'lumotlarini tayyorlash va uni talqin qilishni o'z ichiga oladigan shart-sharoitlar yaratilmoqda, balki qaror qabul qilishda, ma'lumotlarni saralashda va tahlil qilish beqiyos o'rin egallaydi, zero turli xil variantlarga asoslangan yechimlar bugungi kunning eng asosiy rivojlanishning yuragi sanaladi.

Buxgalteriya hisobini tashkil qilishda buxgalteriya siyosatini shakllantirishga katta e'tibor berilishi kerak, bu tashkilot tomonidan tanlangan buxgalteriya protseduralari va usullari, ular faoliyat shartlariga, natijalar va moliyaviy holatni to'liq taqdim etish talablariga eng mos keladi deb hisoblaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Чая, В. Т. Управленческий учет: учебник и практикум для вузов / В. Т. Чая, Н. И. Чупахина. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 354 с.
2. Темиркулов, А. А., & Ахмадохунова, Х. О. (2022). Необходимость Управленческого Учета В Строительных Организациях Республики Узбекистан. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(4), 1-8.
3. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallalari. Scientific progress, 3(4), 1030-1037.
4. Ibragimova, Z. (2021). BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINING HOLATI VA UNING FAOLIYATINI BAHOLASH. Scientific progress, 2(2), 811-815.
5. Zokirovna, I. Z. (2024). KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBINING AXBOROT BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(Maxsus son), 65-70.
6. Qudbiyev, N. T. (2023). Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari: korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari.

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION SALOHIYATNI OSHIRISH MASALALARI

Muallif: Mamajonova Gulasal Oribjon qizi [1]
Affilyatsiya: Farg‘ona davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558178

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy ishda korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlari faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish bilan bog‘liq asosiy jihatlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotning asosiy vazifasi innovatsiyalarni joriy etish darajasini baholash va sanoat sohasida innovatsion faoliyat istiqbollarini aniqlashdan iborat. Ushbu masalalar korxonaning kelajagi uchun muhim rol o‘ynaganligi sababli, tadqiqot davomida innovatsion salohiyatdan yanada samarali foydalanishga yordam berishi mumkin bo‘lgan asosiy bosqichlar va xususiyatlar o‘rganildi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so`zlar: korxona rivojlanishi, innovatsion komponent, innovatsion rivojlanish, innovatsion rivojlantirish strategiyasi, innovatsion salohiyat.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovatsion rivojlanish korxonalar uchun muvaffaqiyatning asosiy omiliga aylanmoqda. Yetakchi kompaniyalar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yangi texnologiyalar va g‘oyalarni joriy etmasdan turib, ishlab chiqarishning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlab bo‘lmaydi.

Innovatsion rivojlanish samarali bo‘lishi uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularni jamiyat va iqtisodiyotga foyda keltiradigan sohalarga yo‘naltirish zarur. Innovatsion strategiyani tanlash innovatsion rivojlanish darajasiga bog‘liq [1], shuning uchun uni baholash strategik rejalashtirishning muhim qismiga aylanadi [2]. Korxonaning innovatsion rivojlanishini baholashning asosiy jihatlaridan biri hisobga olinishi kerak bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlashdir.

Shu bilan birga, kompaniyaning innovatsion rivojlanish darajasiga obyektiv baho berish uchun uning salohiyatini turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, innovatsion faoliyat imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilish va strategiyani aniqlashga yordam beradigan ko‘rsatkichlar tizimini tanlash kerak [3]. Innovatsion salohiyatning holati innovatsion strategiyani tanlash va amalga oshirish bilan bog‘liq boshqaruv qarorlariga bevosita ta'sir ko‘rsatadi, shuning uchun uni baholash kompleks ravishda amalga oshirilishi kerak.

ASOSIY QISM

Innovatsion salohiyatni shakllantirish asosida kompaniyaning innovatsiyalar bozoridagi ehtiyojlarini tahlil qilish yotadi. Buning uchun kompaniyaning moliyaviy va iqtisodiy holatini kompleks baholash amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, salohiyat imkoniyatlar va

tahdidlar aniqlanadi. Bundan tashqari, innovatsion rivojlanishga yordam berishi mumkin boʻlgan omillar va shart-sharoitlar tizimlashtiriladi.

Bunday tahlil korxonaning ichki va tashqi muhiti haqida tasavvurga ega boʻlish imkonini beradi. Innovatsion salohiyatni baholashda uning asosiy tarkibiy qismlarini tizimlashtirishning muayyan talablariga rioya qilish muhimdir. Ushbu komponentlar tarmoq, ishlab chiqarish tizimi, texnologik jarayon va tashkilotning rivojlanish bosqichining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion salohiyat darajasini aks ettiradi.

Rivojlanish va oʻsish uchun asos boʻlgan innovatsiyalarni joriy etish jarayonida salohiyatni roʻyobga chiqarishga yordam beradigan yashirin va aniq strategik imkoniyatlarga e'tibor qaratish muhimdir [4]. Shuningdek, innovatsion salohiyatdan foydalanish natijalarini koʻrsatuvchi bevosita va bilvosita koʻrsatkichlarni ham hisobga olish zarur Innovatsion salohiyatni baholash metodologiyasi bir nechta asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Muvofiqlik tamoyili: innovatsion salohiyatni baholash har tomonlama va toʻliq boʻlishi kerak.

2. Funksional boʻlinish prinsipi: funksiyalarni tarkibiy qismlarga ajratib, vaziyatni tahlil qilish imkonini beradi.

3. Koʻrsatkichlarni minimallashtirishda informativlik tamoyili: maqsadlarga erishish uchun yetarlicha informativlikni saqlab qolgan holda, ichki va tashqi muhitni, shuningdek, turli xil munosabatlarni belgilaydigan innovatsion salohiyatning tarkibiy qismlari sonini kamaytirish kerak.

4. Zaruriy xilma-xillik tamoyili: turli koʻrsatkichlarni optimal nisbatda hisobga oladi.

5. Miqdoriy aniqlik tamoyili: koʻrsatkichlar aniq oʻlchov birliklarida ifodalanishi kerak, bu ularning taqqoslanishini ta'minlaydi va innovatsion salohiyatning tarkibiy qismlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrnatishga imkon beradi.

Sanoat korxonasining innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish va rivojlantirishni jadallashtirish uchun uni baholashning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqish zarur. Innovatsion salohiyatni baholash jarayoni bir nechta asosiy bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

1. Innovatsion salohiyatning resurs tarkibini aniqlash. Bu bosqich xarajati yondashuvga asoslangan tarkibiy tahlilni ifodalaydi. Tahlil jarayonida intellektual va inson resurslari, marketing, tadqiqot, ishlab chiqarish va texnologiya, innovatsiya va investitsiya, axborot, infratuzilma, korxonaning tashkiliy va boshqaruv imkoniyatlari kabi resurslar koʻrib chiqiladi.

2. Samaradorlik tahlili. Bu bosqichda kompaniya hisobotidagi ma'lumotlar asosida risklarni hisobga olgan holda innovatsion faoliyatdan keladigan foyda baholanadi.

3. Innovatsion madaniyatni baholash. Yakuniy bosqich xodimlarning innovatsion faoliyatga jalb etilganlik darajasini, ularning motivatsiyasi va oʻzgarishlarga tayyorligini tahlil qilishdan iborat.

Innovatsiya madaniyati innovatsion gʻoyalarni yaratishga yordam beradigan kuchli vositadir [5]. U kompaniyada innovatsiyalarning rivojlanish va qabul qilish darajasini baholash, shuningdek, tashkilotning yangi yondashuvlar va yechimlarni joriy etishga qanchalik tayyorligini aniqlash imkonini beradi [6].

Innovatsion salohiyatni baholashning mavjud usullarini tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki fikrimizcha turli jihatlarni qamrab oluvchi takomillashtirilgan

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

koʻrsatkichlar tizimi joriy etish hamda ishlab chiqish mumkin boʻladi, bu innovatsion boshqaruv sharoitida sanoat korxonasining innovatsion salohiyatini baholashga asoslangan innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayoni tashkil etadi, u bir nechta ketma-ket bosqichlarni oʻz ichiga oladi.

Birinchi bosqich tashkilotning innovatsion salohiyatini batafsil baholashdir. Ushbu baholash innovatsion rivojlanish yoʻnalishlarini belgilash uchun asos boʻlib xizmat qiladi va korxonaning ushbu sohadagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchi bosqich. Innovatsion rivojlanishning mumkin boʻlgan yoʻllarini prognozlash va qiyosiy tahlil qilish. Bu bosqichda kelajak ssenariylari ishlab chiqiladi va turli boshqaruv qarorlarining oqibatlari baholanadi. Bu turli ssenariylarda vaziyat qanday rivojlanishini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchi bosqich. Sanoat korxonasi uchun innovatsion strategiyani tanlash. Strategiya jadallashtirilgan innovatsion rivojlanish ssenariylariga asoslanishi kerak. Asoslangan qaror qabul qilish uchun salohiyat tendensiyalarni qiyosiy tahlil qilish, tashqi va ichki omillarni hisobga olish zarur.

Toʻrtinchi bosqich. Innovatsion rivojlanishning tanlangan yoʻlini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish. Avvalgi bosqichlar natijasida sanoat korxonasining tanlangan innovatsion rivojlanish yoʻlini amalga oshirishga yordam beradigan strategiya shakllanadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, korxonalarning muvaffaqiyatli ishlashi va raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollarini chuqur tahlil qilish, shuningdek, innovatsion loyihalarni amalga oshirish salohiyatini baholash zarur.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Koʻpgina korxonalarda innovatsion loyihalarni amalga oshirish va istiqbolli rivojlanish yoʻnalishlarini tanlash uchun salohiyatni baholashning ilmiy asoslangan usullaridan foydalanilmaydi. Bu esa innovatsion faollikning past darajasiga olib keladi.

2. Kompaniyalar rahbarlari barqaror innovatsion rivojlanishning tashkiliy va boshqaruv barqarorligi, innovatsion madaniyat kabi muhim jihatlariga yetarlicha e'tibor bermaydilar. Bunday yondashuv xodimlarning innovatsiyalarga boʻlgan motivatsiyasini pasaytiradi va kutilgan natijalarga erishishda muvaffaqiyatsizlik ehtimolini oshiradi.

Bizningcha, innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maxsus usullardan foydalanish kerak. Ular yangi texnologiyalarni joriy etish salohiyatini baholash va hozirgi iqtisodiy vaziyatga eng mos keladigan strategiyani tanlash imkonini beradi. Zamonaviy dunyoda uzoq muddatli raqobat ustunliklariga erishish uchun innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollarini oʻz vaqtida tahlil qilish va korxonalarda innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini baholash imkonini beradigan metodologiyani qoʻllash zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son. https://lex.uz/docs/-6102462

2. Pardayevich, Q. B. (2023). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarishning maksimal hajmi tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 5, 187-192.

3. Mamajonova Gulasal Oribjon Qizi (2025). ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (11), 22-32.

4. Farahmand, N. F. H. (2019). Strategic planning and innovation: Driving growth and sustainability in organizations. Journal of Business and Economic Options, 2(1), 26-34.

5. Хомутский, Д. (2022). Управление инновациями в компании. Litres.

6. Гаврилюк, А. В. (2019). Культура инновационной деятельности в организациях: современные практики и методы развития. Теория и практика общественного развития, (6 (136)), 37-41.

ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR: MISNI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI SIFATNI OSHIRISH VA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH

Muallif: Mamayusupova Mashxura Sodiqovna [1]
Affilyatsiya: Farg‘ona davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558255

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda elektrotexnika sanoatining iqtisodiyotni rivojlanishidagi o’rni va ahamiyati, sohani rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xalqaro savdoning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish integratsiyalashuvining kengayishi va takomillashishi, zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy maxsulotlarni joriy etish xisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, elektrotexnika maxsulotlari eksportining rivojlanish ko’rsatkichlari, mahsulotlar eksporti geografiyasi, mis xom-ashyosini chuqur qayta ishlash ko‘rsatkichlari yoritilgan.

Kalit so`zlar: misni qayta ishlash, iqtisodiy o’sish, elektrotexnika, eksport, mahsulot hajmi, eksport geografiyasi, mahalliy mahsulotlar, mahalliylashtirish.


Elektrotexnika sanoati bu nafaqat mamlakat iqtisodiyotining drayveri balki, eksport salohiyatini oshiradigan, yuqori texnologiyalarni joriy etadigan strategik tarmoq xisoblanadi. So‘nggi yillarlarda mamlakatda ushbu sohani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilib, mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘lami kengaygan. Shu bilan birga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mahalliylashtirishni oshirish hamda eksportbop mahsulotlar turini kopaytirish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Oxirgi 7 yilda sohada 8 barobarga o‘sh tendensiyasi kuzatildi. Sohaning Respublika sanoatidagi ulushi ham ortib bormoqda. Jumladan sanoatda 3.5 % , tovarlar eksportida 10% ni tashkil etadi. Bu sohani davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlanayotganligidan dalolat beradi.

Tarmoqni izchil takomillashtirish va jarayonda soha vakillarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator huquqiy xujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston-2030” Taraqqiyot Strategiyasiga ko‘ra, “Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish” maqsadida elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va barcha maishiy texnika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga 1,5 milliard dollar investitsiya jalb qilish ko‘zda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra bugungi kunda respublikada misni qayta ishlash bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Mis quvurlari va alyuminiy profillari eksportini amalga oshirish orqali kutilgandan ko‘ra ko‘proq natijaga erishildi. Mis elektrotexnika sanoatidagi eng asosiy

xom-ashyo xisoblanadi. Xalqaro ekspertlar yashil energiya inqilobi sababli 2030 yilga borib bu noyob ma'danga bo'lgan talab 40% ga ortishini taxmin qilishmoqda. O'zbekistonda esa bu global bozor extiyojini egallash uchun juda katta imkoniyat va tabiiy salohiyat mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 40 mln tonnadan ortiq mis zaxirasi aniqlangan.

Raqamlarga murojat qiladigan bo'lsak, 2018 yilda mamlakatimizda 22500 tonna mis xom-ashyosi qayta ishlangan bo'lsa 2024 yilda bu ko'rsatkich 92000 tonnani tashkil etdi. 2025 yilga kelib esa 110000 tonna misdan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar tayyorlash reja qilingan. Bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan 5 barobarga o'sishni ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida mis xom-ashyosini qayta ishlash hajmi dinamikasi (tonna)

2024 yilda birja savdolari orqali xarid qilingan mis xom-ashyosining 85,3 ming tonnasi qayta ishlanib 9,4 trln so'mlik yuqori qiymatli mahsulot ishlab chiqarilgan. Angren "Pipeplant" MChJ O'zbekistonda turli diametrli mis quvurlari ishlab chiqaruvchi yirik eksportyor korxonalaridan biri. 2024 yilda ushbu quvvat orqali 7,5 ming tonna qiymati 84 trln so'mga teng bo'lgan mis xom-ashyosi qayta ishlanib tayyor mahsulotning 95 % xorijiy davlatlarga eksport qilingan.

Mamlakatda olib borilgan izchil siyosat, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mis eksporti geografiyasi 2021 yilda 42 ta davlatdan 2024 yilda 71 ta davlatga ko'paydi. Qisqa vaqt ichida 29 ta yangi mamlakat bozorlariga kirib borildi.

2021 yilda jami mis mahsulotlari eksporti 387,3 mln dollarni tashkil qilgan bo'lsa, shundan qo'shilgan qiymatli mahsulotlar hajmi 98,1 mln dollar bo'lgan. 2024 yilda esa 782,6 mln dollarlik mis mahsulotlari eksportidan qo'shilgan qiymatli mahsulotlar hajmi 309,2 mln dollarga oshgan. O'sish 315% demakdir. Bu natija qayta ishlashning iqtisodiy samarasi bo'lsa, ijtimoiy ahamiyati ham yuqori. Misni qayta ishlash boshlangandan beri tarmoqda 1148 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, joriy yilning 15-oktyabrida imzolangan PQ-304-sonli "Elektrotexnika sanoatida xomashyoni chuqur qayta ishlashni rag'batlantirish, sohaning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori sohani rivojlantirishga qaratilgan yana bir muhim qadamlardan biri xisoblanadi. Xususan, qarorga muvofiq 2026 yilda eksport geografiyasini 80 ta davlatga, eksport hajmini 3 mlrd dollarga etkazish belgilab o'tilgan.

Kabel-sim sanoat yo'nalishida asosiy xom-ashyo bo'lib mis xisoblanadi. Misni qayta ishlash, nafaqat qayta ishlash misdan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot

ishlab chiqarishga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Qabul qilingan qarorni tag-zaminida ham mana shu masala yotadi. Xom-ashyoni chuqur qayta ishlagan ishlab chiqaruvchini qo‘llab-quvvatlash, unga moliyaviy yordam berish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mis xom-ashyosini birja savdolariga qo‘yishda 4% chegirmani 2030 yilgacha saqlab qolish bu korxonani aylanma mablag‘ini tejab, mahsulotni ham arzon, ham barqaror xom-ashyo bilan ta’minlashiga zamin yaratadi.

Yangi qarorga ko‘ra tadbirkorni qo‘llab-quvvatlash elektrotexnika korxonalarini moliyaviy tomondan hamda vaqtni tejash maqsadida kuchlanish qurilmalari, podstansiyalar, yuqori kuchlanishli transformatorlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga mahalliylashtirish sertifikatini 24 oydan 36 oygacha muddati uzaytirib berilmoqda.

Elektrotexnika sohasidagi mamalkatimiz potensiali hali yuqori. Birgina misni qayta ishlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan gigant loyihalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yiliga kamida 1 milliard dollarlik yangi bozorlarni ochib beradi. Elektrotexnika klasterini tashkil etish uchun puxta zamin yaratib, minglab yangi ish o‘rinlariga yo‘l ochadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mamayusupova Mashxura Sodiqovna (2023). Tashqi savdo siyosatini mustahkamlash va eksportni rag‘batlantirishda elektrotexnika sanoati mahsulotlarining roli va ahamiyati. Iqtisod va moliya (O‘zbekiston), (4 (164)), 14-20. doi: 10.34920/eIf/VOL_2023_ISSue_4_3
2. Mamayusupova, M. (2023). Elektrotexnika sanoati korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(11-12). https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss11-12/a365
3. Mamayusupova M.S. (2024). Elektrotexnika sanoati mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish istiqbollari. “Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” ilmiy jurnali, 12/2-2024. – 48-b.
4. Mamayusupova M. (2024). Specific features of the development of electrical engineering enterprises in the conditions of digitalization of the economy. Бюллетень науки и практики, 10 (8), 319-324. doi: 10.33619/2414-2948/105/35
5. Mamayusupova, Mashxura Sodiqovna (2023). Elektrotexnika sanoati maxsulotlarinig eksport salohiyatini oshirish rivojlanishning muhim omili sifatida. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (2), 65-72. doi: 10.5281/zenodo.7732836

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

THE ROLE OF LANGUAGE IN SHAPING ECONOMIC THINKING: COGNITIVE AND CULTURAL PERSPECTIVES

Author: Ostonova Charos Zubaydullayevna [1]
Affiliation: Nordic International University [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558310

ABSTRACT

This paper explores how language shapes economic thinking through cognitive and cultural perspectives. By examining metaphors, conceptual frameworks, and culturally embedded meanings, it argues that language not only reflects but also constructs how individuals and societies perceive value, money, and economic behavior. The study applies a conceptual analysis grounded in cognitive linguistics—particularly the Sapir–Whorf hypothesis and Lakoff’s theory of conceptual metaphors—and complements it with cultural comparisons drawn from English, Uzbek, and East Asian economic discourses. The findings suggest that linguistic framing influences economic reasoning, while cultural values shape what societies consider fair, prosperous, or moral in economic life. This insight may contribute to improving intercultural communication, translation accuracy in economics, and global cooperation in policy-making.

Keywords: language and economy; cognitive linguistics; conceptual metaphor; Sapir–Whorf hypothesis; cultural perspective; economic thinking.

INTRODUCTION

Language is not merely a system of symbols; it constitutes the very framework through which human thought is structured. The ways individuals describe, interpret, and reason about the world are profoundly influenced by linguistic patterns. This influence is particularly salient in the domain of economics, where abstract concepts such as growth, debt, and value are understood and communicated through specific lexical choices and metaphors. Although economists often treat their models as objective, the language framing these models frequently carries implicit assumptions. For instance, describing the economy as “recovering” employs a metaphor of health and illness, subtly portraying economic systems as living organisms capable of healing, weakening, or failing.

Understanding how language shapes economic thinking is increasingly important in a globalized world. English has become the dominant medium for international economic discourse, transmitting not only technical vocabulary but also cultural assumptions that emphasize competition, productivity, and market freedom. In contrast, economic language in countries such as Uzbekistan and China often reflects collective responsibility, moral evaluation, and equilibrium rather than rivalry. Such cross-linguistic differences demonstrate that language not only mediates communication but actively shapes economic reasoning and perception.

The theoretical foundation of this study draws upon two major linguistic approaches. The Sapir–Whorf hypothesis posits that language influences cognition,

suggesting that speakers of different languages may conceptualize the world differently (Whorf, 1956). Complementing this perspective, Lakoff and Johnson's Conceptual Metaphor Theory (1980) argues that humans comprehend abstract concepts through metaphors grounded in physical and sensory experience—for example, conceptualizing "economic growth" as "upward movement."

This study aims to investigate how language shapes economic thinking from both cognitive and cultural perspectives. The research specifically addresses the following questions:

How do cognitive linguistic structures, particularly metaphors, influence economic reasoning and behavior?

In what ways do culturally embedded linguistic traditions shape the moral, ethical, and emotional dimensions of economic thought?

By examining both the cognitive mechanisms and cultural frameworks embedded in language, this research contributes to a deeper understanding of economic thought, with implications for linguistics, education, and policy-making. It highlights how linguistic choices unconsciously guide economic reasoning, emphasizing the need for critical awareness in both local and global economic contexts.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Cultural expressions encode moral attitudes toward wealth. In Uzbek, *baraka* means divine blessing associated with honest work; *rizq* implies sustenance granted by God. These terms mix spirituality and economics. A person may be "wealthy" yet seen as lacking *baraka* if perceived as greedy or unjust.

In Chinese, *经济 (jingji)* historically meant "to govern the household wisely," linking economy to harmony and social balance. In contrast, English economic discourse emphasizes competition, efficiency, and productivity—values emerging from Protestant and capitalist ethics.

Table 1. Comparison between Cognitive and Cultural Perspectives on Economic Language

Aspect	Cognitive View	Cultural View
Focus	Mental framing and metaphorical structure	Collective meanings, moral and social values
Key Influence	Conceptual Metaphors (Lakoff & Johnson, 1980)	Traditions, beliefs, and social norms
Examples	"The economy is recovering," "Money flows"	*Baraka* (Uzbek: blessing), *Jingji* (Chinese: household management)
Effect on Thinking	Shapes reasoning and policy metaphors	Shapes ethical and moral judgments
Risk of Misunderstanding	Different metaphors across languages	Divergent moral meanings for similar economic terms

Metaphors function as invisible maps of thought. They do not simply decorate speech—they organize how people understand abstract concepts such as the economy, money, and growth. As Lakoff and Johnson (1980) pointed out, metaphors are fundamental to human cognition: we live by them, often unconsciously. In the field of economics, this metaphorical reasoning becomes particularly evident.

When someone says *"the market reacts"* or *"the economy is recovering,"* they ascribe human qualities to an abstract system. This personification suggests that markets possess agency, emotions, and natural rhythms. Once this metaphor takes hold, market outcomes appear as inevitable rather than the result of human choices.

Policies can then be justified as "letting the market heal itself," rather than as deliberate acts of social engineering. Thus, metaphors influence not only understanding but also responsibility.

The "economy as organism" metaphor is among the most common in both political discourse and journalism. It conceptualizes recessions as "illnesses" and growth as "health." For instance, after the 2008 global financial crisis, major newspapers wrote headlines like *"The Economy Is Sick but Healing Slowly"* or *"Stimulus as a Medicine for a Weak Economy."* These linguistic choices guided public expectations—if the economy is "sick," recovery is gradual and requires patience. This framing encourages tolerance for inequality or slow reform, as illness is seen as a natural, cyclical state.

Another recurring frame is the "economy as a machine." Politicians frequently use expressions like *"restarting the economy," "fueling growth," "fixing broken systems,"* or *"adjusting fiscal levers."* This metaphor implies that the economy is a mechanical device subject to external control. When leaders adopt this frame, it legitimizes interventionist policies—governments become "engineers," and citizens are expected to "trust the experts." The danger, however, is that human suffering becomes depersonalized. Unemployment or inflation are not moral issues but "mechanical failures."

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Meanwhile, the "money as liquid" metaphor ("cash flow," "frozen assets," "liquidity crisis") evokes natural movement. It normalizes economic inequality because flows are seen as natural forces: wealth "flows" upward, and poverty "trickles down." Yet, as Fairclough (2010) argues, such metaphors mask social power relations by turning human-made systems into neutral, physical processes.

A further layer emerges when metaphors interact with national ideologies. In Anglo-American contexts, "growth" is almost sacred; the metaphor of upward motion is deeply moralized. Words like "rising economy" and "downturn" frame progress vertically—up is good, down is bad. By contrast, in some Eastern traditions, balance rather than upward movement symbolizes harmony. The Chinese concept of 中庸 *(zhongyong)*, or "the middle way," values stability over constant acceleration. Thus, linguistic metaphors reflect—and reproduce—philosophical orientations toward change and risk.

From my observation, students learning economics in English adopt these metaphors uncritically. When a concept like "economic growth" is taught through diagrams showing upward arrows, it implicitly conveys that growth is the ultimate goal. Rarely do we ask whether perpetual growth is compatible with sustainability or social well-being. This demonstrates how metaphors do not just help us understand ideas—they teach us what to value.

Therefore, metaphors are not neutral cognitive tools. They are ideological structures embedded in language that direct perception, emotion, and action. Recognizing them allows us to think about the economy more critically and humanely.

While metaphors shape thought, culture gives them moral meaning. Every society interprets economic success through its moral codes, and language is the medium through which those codes are expressed.

In Uzbekistan, for instance, wealth without fairness is socially suspect. The proverb *"pul bor joyda obro' bor"* ("where there is money, there is respect") acknowledges the social influence of wealth but not necessarily its moral legitimacy.

Parallel sayings such as *"halol mehnatning barakasi bor"* ("honest work brings blessing") restore balance by connecting prosperity to ethics. The Uzbek language thus intertwines economy and spirituality: money must be earned with honesty (*halollik*), shared with generosity (*saxovat*), and blessed with divine favor (*baraka*). These linguistic patterns shape social expectations and economic behavior.

This moral framing contrasts with the Anglo-American discourse of success, where prosperity often equals productivity. The dominant vocabulary—*efficiency, innovation, competitiveness, performance*—reflects what Weber (1930) called the "Protestant ethic," where work is both a moral duty and a sign of divine grace. Here, success justifies wealth, not the other way around. Such language produces an economic culture where "winners" deserve their success because they are seen as industrious and rational.

However, moral economies differ sharply across linguistic worlds. In East Asian contexts influenced by Confucianism, terms related to economy—like the Chinese *经济 (jingji)*—originally meant "to manage the household well." Prosperity was a byproduct of social harmony, not its opposite. The moral dimension is implicit: good governance and ethical behavior lead to economic order. Words like *harmony (和)* and *balance (平衡)* carry strong moral weight in Chinese and Japanese economic communication.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

These contrasts illustrate how economic reasoning is culturally grounded. When an English economist talks about "freedom of the market," the value of individual liberty is central. When an Uzbek or Chinese policymaker emphasizes "stability" or "balance," the value of collective harmony prevails. Both are rational within their cultural frameworks but may conflict in international dialogue.

Interestingly, the cultural moral codes embedded in language influence not only perception but also economic outcomes. In societies where moral or spiritual concepts are tied to wealth, informal social control discourages corruption or greed. A businessman seen as lacking *baraka* may lose trust even if he is rich. In Western societies, where morality and economy are often separated, success may be admired regardless of method. Thus, linguistic expressions contribute to distinct ethical economies.

From a linguistic point of view, this means that every economic term carries "semantic morality." Words like *profit*, *growth*, or *competition* are not purely technical—they encode judgments about what is good or necessary. Similarly, Uzbek terms like *rizq* (sustenance) and *niyat* (intention) express the belief that material outcomes depend on moral intention. The language itself preserves the link between ethics and economics.

In diplomacy, these subtleties matter. When global institutions like the IMF or World Bank communicate policy goals, their English-language framing often assumes Western rationality and moral neutrality. Yet local audiences interpret these policies through their cultural lens. A project described as "increasing market efficiency" may sound to English speakers like good governance, but to others it might suggest moral coldness or social disruption.

To achieve mutual understanding, international communication must involve *conceptual translation*. This means explaining not only terms but the value systems behind them. Economists and linguists could collaborate to develop multilingual glossaries that capture both technical accuracy and cultural nuance.

From another perspective, global economic education should integrate linguistic reflection. Students studying economics in non-native English contexts could analyze metaphors and cultural assumptions in their textbooks. Such practice would help them recognize how economic discourse reflects specific worldviews and how these may differ from their own.

The study concludes that language is not just a tool for describing economic realities—it actively constructs them. Through metaphors, grammar, and cultural narratives, language determines how societies conceptualize value, success, and fairness. The cognitive dimension frames reasoning; the cultural dimension infuses meaning with moral depth.

Recognizing these influences is essential for fair global communication. Policymakers, translators, and educators should consider linguistic diversity when designing economic programs or teaching materials. Respecting linguistic worldviews can lead to more empathetic international cooperation.

Ultimately, language shapes not only economic vocabulary but also moral imagination. When societies become aware of this, they can design economies that reflect both efficiency and humanity—a balance of logic and ethics expressed through the words we choose.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

REFERENCES

1. Boroditsky, L. (2011). How language shapes thought. Scientific American, 304(2), 62–65.
2. Chen, K. (2013). The effect of language on economic behavior: Evidence from savings rates, health behaviors, and retirement assets. Quarterly Journal of Economics, 128(2), 669–701.
3. Fairclough, N. (2010). Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. Routledge.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
5. Whorf, B. L. (1956). Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. MIT Press.
6. Weber, M. (1930). The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. Routledge Classics.
7. Wierzbicka, A. (2006). English: Meaning and Culture. Oxford University Press.

YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Muallif: Qo‘chqorov Sherzodbek Dilshodjon o‘g‘li [1]
Affilyatsiya: Soliq qo‘mitasi Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo inspeksiyasi Davlat soliq Katta inspektori [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558400

ANNOTATSIYA

Tezisda O‘zbekistonda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar mazmunan tahlil qilingan. Tadqiqotda Prezidentning 2025-yil 18-apreldagi PF–67-sonli farmoni hamda 21-oktabrdagi PQ–313-sonli qarorlarining soliq tizimiga ta’siri, ayniqsa tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan yengilliklar o‘rganilgan. Muammo sifatida yuridik shaxslar zimmasidagi yer solig‘i yukining og‘irligi va to‘lov tartibining murakkabligi qayd etilgan. Ushbu hujjatlar orqali soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish, soliq yuklamasini kamaytirish va ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim chora-tadbirlar belgilangan. Tadqiqot natijalari yuridik shaxslarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda iqtisodiy faollikni oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so`zlar: Yer solig‘i, Yuridik shaxslar, Soliq ma’muriyatchiligi, Prezident farmoni PF-67, PQ-313 qarori, Soliq imtiyozlari, Tadbirkorlik subyektlari, Moliyaviy yengilliklar, Iqtisodiy islohotlar, Soliq siyosatini takomillashtirish.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar jarayonida soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar yaratish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, soliq tizimini raqamlashtirish, soliq yuklamasini kamaytirish hamda ishlab chiqaruvchi korxonalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qator Prezident farmonlari, qarorlari hamda turli qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Shulardan biri — 2025-yil 18-aprel kuni qabul qilingan PF–67-sonli “Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmondir. Mazkur Farmon mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, soliq sohasida ham muhim o‘zgarishlarni belgilab berdi.

Bundan tashqari, 2025-yil 21-oktyabrda qabul qilingan PQ–313-sonli qaror orqali O‘zbekistonning olis hududlarida aloqa tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida yo‘ldosh aloqa texnologiyalariga oid loyihalarga soliq imtiyozlari berilishi belgilandi. Bu qaror tadbirkorlikni rag‘batlantirish, infratuzilmani kengaytirish hamda iqtisodiy faollikni oshirish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, ularning iqtisodiy mazmunini va amaliy ahamiyatini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tezis aynan shu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning

mohiyati, huquqiy asoslari va ularning tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil etishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

2025-yil 18-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–67-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon “Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” deb nomlangan. Ushbu farmon bilan soliq sohasida qator muhim o‘zgarishlar tasdiqlandi.

Xususan, farmonning “Bojxona to‘lovlari va soliq ma’muriyatchiligi” bobining 13-qismida quyidagi norma belgilangan: “*20 va undan ortiq ishchisi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan mol-mulk va yer soliqlari hamda ijara to‘lovlari bo‘yicha hisoblangan soliq summalari 2025-yil 15-iyulda va 1-dekabrda bo‘lib-bo‘lib to‘lanilishiga ruxsat berilsin*”[1].

Mazkur norma asosida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va mol-mulk solig‘i ma’muriyatchiligi tizimiga muayyan yengilliklar kiritildi. Bizga ma’lumki mazkur soliqlarni to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq amalga oshirilgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XVI bo‘limi “Yer solig‘i” deb nomlanib, u ikki asosiy qismdan iborat: “Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i” va “Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i”. “Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i” bobida ushbu soliq turining soliq to‘lovchilari, soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliqni hisoblash va to‘lash tartibi hamda boshqa huquqiy me’yorlar belgilangan[2].

Mazkur bobga ko‘ra, yuridik shaxslar ikki toifaga bo‘linadi:

- Aylanmadan soliq to‘lovchi yuridik shaxslar – ular yillik soliq summasining to‘rtdan bir qismini har chorak uchinchi oyining 20-sanasiga qadar to‘lashlari shart.
- Aylanmadan soliq to‘lovchi bo‘lmagan yuridik shaxslar – ular esa yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismini har oyning 10-sanasiga qadar to‘lashlari lozim. Biroq, yanvar oyi uchun soliq to‘lovi 20-yanvarga qadar amalga oshiriladi.

Agar soliq majburiyati soliq davri davomida, soliq to‘lashning belgilangan muddatidan keyin yuzaga kelsa, unda mazkur majburiyat yuzaga kelgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida to‘lanishi kerak.

Shuningdek, Soliq kodeksiga binoan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliq to‘lov tartibi biroz farq qiladi. Ya’ni, bunday yerlar bo‘yicha yillik soliq summasining 30 foizi hisobot yilining 1-sentyabriga qadar, qolgan qismi esa 1-dekabrga qadar to‘lanishi lozim [3].

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, yer solig‘i to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash Soliq kodeksiga ko‘ra odatiy tartib hisoblanmaydi. Shu sababli PF–67-sonli farmonga muvofiq ushbu soliqlarni to‘lash muddatlariga qo‘shimcha imkoniyatlar berilishi orqali yuridik shaxslarga moliyaviy yengilliklar yaratildi. Bu esa, o‘z navbatida, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy yuklamasini yumshatish va ularning ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-oktyabrdagi PQ–313-sonli “Respublikaning olis hududlarida aloqa qamrovini oshirishda yo‘ldosh aloqa texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham qabul qilindi. Mazkur qaror bilan o‘rta va past orbitali yo‘ldosh aloqa tarmoqlarini O‘zbekiston hududida markaziy yer stansiyasi orqali tashkil etish bilan bog‘liq loyihalar uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalar belgilandi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Xususan, ushbu qaror doirasidagi loyihalarga qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i, resurs soliqlari, jumladan yer solig‘i bo‘yicha ham imtiyozlar belgilandi. Qarorda quyidagicha belgilangan: “Markaziy yer stansiyalari, terminallar va yo‘ldosh aloqa infratuzilmasining boshqa aktiv qurilmalari joylashtirilgan telekommunikatsiya inshootlari hamda ularning yer maydonlari yer solig‘idan ozod etiladi”[4].

Mazkur norma orqali Respublikaning chekka hududlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining aloqa infratuzilmasini rivojlantirish faoliyati rag‘batlantirilmoqda, bu esa iqtisodiy rivojlanish va hududlararo raqamli tenglikni ta’minlash yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar mamlakatda soliq ma’muriyatchiligi tizimini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoit yaratish va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, 2025-yil 18-aprel kuni qabul qilingan PF–67-sonli Prezident farmoni bilan yer va mol-mulk soliqlarini to‘lash muddatlarini bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish imkoniyati yaratilgani korxonalar uchun muhim yengillik bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu o‘zgarish yirik va o‘rta darajadagi korxonalar uchun pul mablag‘larini yanada oqilona boshqarish, aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz davom ettirish uchun qo‘shimcha imkonini beradi.

Shu bilan birga, PQ–313-sonli Prezident qarorida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari, xususan, yo‘ldosh aloqa texnologiyalarini rivojlantirish loyihalari uchun yer solig‘idan ozod etish chorasi, respublikaning olis hududlarida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat soliq yuklamasini kamaytirish, balki mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, hududlar o‘rtasidagi raqamli aloqalarni yaxshilash hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirish uchun muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, mazkur islohotlar soliq siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish yo‘lida muhim bosqichdir.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. https://www.lex.uz/uz/docs/-4674902
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.10.2025-yildagi PQ-313-son. https://lex.uz/uz/docs/-7787621
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.04.2025-yildagi PF-67-son. https://lex.uz/uz/docs/7483820
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi rasmiy veb-sayti. https://www.gov.uz/oz/soliq
5. Yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi. https://gov.uz/oz/advice/70/document/1335

ФОРМИРОВАНИЕ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ СТАРТАП-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Авторы: Сулейманова Шоира Алавхановна [1], Эркинова Шахзодахон Зафаровна[2]
Аффилиация: и.о. доцент кафедры “Экономика и управление бизнесом” Международного университета Нордик [1], Студентка финансового направления Международного Вестминстерского университета [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558458

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль стартап-экосистемы Узбекистана в обеспечении экономического развития и её влияние на устойчивый рост. Проведён анализ механизмов государственной и частной поддержки стартапов, их вклада в создание новых рабочих мест, внедрение инновационных идей и повышение конкурентоспособности национальной экономики. Особое внимание уделено роли венчурного капитала, нормативно-правовой базы, кадрового потенциала и инновационной инфраструктуры в формировании эффективной экосистемы. Кроме того, исследуется значение международного сотрудничества и обмена опытом для дальнейшего развития стартап-сектора страны.

Ключевые слова: Стартап-экосистема, инновации, экономический рост, венчурный капитал, инфраструктура, кадровый потенциал, международное сотрудничество.

ВВЕДЕНИЕ

Стартапы являются одним из ключевых двигателей экономического развития любой страны. Они играют важную роль во внедрении инновационных идей, создании рабочих мест и повышении конкурентоспособности. В условиях глобализации и цифровой экономики стартап-экосистемы приобретают стратегическое значение для устойчивого роста национальной экономики и её интеграции в мировое пространство.

В последние годы в Узбекистане стартап-сектору уделяется особое внимание: реализуются государственные программы поддержки, развиваются IT Park, технопарки, акселерационные центры и грантовые механизмы, что создаёт благоприятные условия для молодых предпринимателей. Кроме того, развитие венчурного капитала и международное сотрудничество способствуют выходу отечественных стартапов на мировой рынок.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

За последние годы экономика Узбекистана демонстрирует устойчивый рост, при котором инновации, информационные технологии и стартапы играют всё более значимую роль. Так, внешнеторговый оборот страны увеличился с 26,6 млрд долларов в 2017 году до 62,6 млрд долларов в 2023 году, а объем прямых иностранных инвестиций вырос с 3,3 млрд до 22,3 млрд долларов [1]. Эти показатели свидетельствуют о повышении международной инвестиционной

привлекательности Узбекистана и формировании благоприятной деловой среды для развития стартапов и инноваций.

Одним из показателей экономической устойчивости Узбекистана является снижение уровня инфляции — с 14,4% в 2017 году до 8,8% в 2023 году. Объём валового внутреннего продукта (ВВП) за этот период увеличился с 62,1 млрд до 90,8 млрд долларов США [2]. Этот рост свидетельствует о проведении в стране процессов экономической диверсификации. Кроме того, демографическая структура населения создаёт благоприятные условия для развития стартапов: 60% населения моложе 30 лет, а число трудоспособных граждан достигло 21 миллиона человек [2]. Это указывает на наличие молодого и активного человеческого капитала, способного генерировать и реализовывать инновационные идеи.

Цифровая инфраструктура также стремительно развивается. В стране насчитывается 31 миллион пользователей интернета, при этом уровень охвата сетью составляет 99%. Около 67% государственных услуг предоставляются в онлайн-формате, что способствует укреплению цифровой экономики. Кроме того, по доступности мобильного интернета Узбекистан занимает 22-е место в мире, что повышает конкурентоспособность на рынке цифровых услуг [3].

IT Park стал ключевой платформой для развития стартапов. Его первый комплекс построен в Ташкенте на площади 6,3 гектара, а по всей стране функционируют 14 филиалов и более 200 IT-центров. В университетах создано 46 инкубационных программ, направленных на поддержку молодёжных инноваций. Если в 2017 году количество резидентов IT Park составляло 147 компаний, то к 2024 году их число превысило 2400, а количество компаний с иностранным капиталом увеличилось с 4 до 582 [4].

Для резидентов IT Park действуют широкие налоговые и финансовые льготы. Отменены корпоративный, социальный, имущественный и земельный налоги, а на импорт услуг не взимается НДС. Ставка налога на дивиденды составляет 5%, а подоходного налога с физических лиц — 7,5%. Кроме того, в рамках программы Zero Risk государство компенсирует расходы на аренду офисных помещений, техническое оборудование, часть заработной платы сотрудников и подготовку кадров [4].

Для иностранных инвесторов в Узбекистане создан благоприятный правовой режим. IT Park располагает специальной правовой зоной, близкой по модели к аналогам ОАЭ и Сингапура [5]. В ней действуют нормы, основанные на международных стандартах в таких сферах, как защита интеллектуальной собственности, международные банковские услуги, трудовые отношения и налоговое регулирование. Финансовые и экономические споры решаются через международный арбитраж, что усиливает доверие иностранных инвесторов.

Экспортный потенциал сектора также стремительно растёт. Если в 2017 году экспорт IT-услуг составлял всего 600 тысяч долларов, то к 2023 году этот показатель достиг 344 миллионов долларов. В структуре экспорта 56% приходится на IT-услуги, 27% — на аутсорсинг бизнес-процессов (BPO), 9% — на креативную индустрию и GameDev, а 8% — на программное обеспечение.

В 2023 году основную часть экспорта IT Park Узбекистана составили IT-услуги (56%), что свидетельствует о высоком спросе на данный сектор на международном рынке. BPO-услуги заняли второе место с долей 27%,

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

основываясь на доступной и квалифицированной рабочей силе. На долю GameDev и креативных услуг пришлось 9%, тогда как программные продукты составили 8%. Такая структура указывает на то, что IT-сектор страны преимущественно ориентирован на экспорт услуг, однако процесс диверсификации уже начался [5].




Рис. 1. Объём экспорта IT-услуг Узбекистана (млн долл. США) [5]

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Из графика видно, что экспорт IT-услуг в Узбекистане за последние шесть лет значительно вырос. Если в 2017 году он составлял всего 0,6 млн долларов, то к 2021 году этот показатель достиг 46 млн долларов. В 2022 году объём экспорта утроился и составил 144 млн долларов. В 2023 году он увеличился до 344 млн долларов, что в 574 раза больше по сравнению с 2017 годом. Данная тенденция подтверждает стремительное развитие IT- и стартап-экосистемы страны, а также её способность предлагать конкурентоспособные продукты и услуги на международном рынке.

География экспорта также диверсифицирована: 45% направляется в Северную Америку, 27% — в страны СНГ и Азиатско-Тихоокеанского региона, 21% — в Европейский союз и Великобританию, и 6% — на Ближний Восток и в Африку [6]. Эти результаты свидетельствуют о том, что стартап-экосистема Узбекистана постепенно формируется и обладает значительным потенциалом для устойчивого развития. Молодое и активное население, развитая цифровая инфраструктура, благоприятная бизнес-среда, созданная через IT Park, а также международная интеграция превращают страну в инновационный центр региона.

ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Стартап-экосистема Узбекистана становится важным фактором роста национальной экономики и инновационного развития. Несмотря на существующие проблемы — слабый рынок венчурного капитала, несовершенная правовая база и недостаточная инфраструктура — государственная поддержка и потенциал молодёжи создают условия для прогресса. Проведение комплексных реформ и вывод стартапов на международный уровень способны превратить Узбекистан в инновационный центр Центральной Азии.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. World Bank. (2023). Uzbekistan country data. Retrieved from https://data.worldbank.org/country/uzbekistan

2. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2023). Demographic and economic indicators of Uzbekistan. Retrieved from https://stat.uz

3. Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan (MICT). (2023). Digital economy development programs. Retrieved from https://mitc.uz

4. IT Park Uzbekistan. (2024). Results of 2023: Transformation and plans for 2024. Retrieved from https://it-park.uz

5. Spot.uz. (2024). IT Park resident companies and export indicators. Retrieved from https://spot.uz

6. United Nations Development Programme (UNDP). (2024). Digital economy in Uzbekistan: Opportunities and challenges. Retrieved from https://undp.org/uzbekistan



DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBOTLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AXBOROT VA NAZORAT ASOSLARI

Muallif: Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna [1]
Affilyatsiya: Farg‘ona davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558562

ANNOTATSIYA

Maqolada davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobotlarining axborot va nazorat funksiyalarini takomillashtirish masalalari yoritilgan bo‘lib sog‘liqni saqlash tizimida moliyaviy intizomni mustahkamlash, mablag‘lardan samarali foydalanish va shaffoflikni oshirishda buxgalteriya hisobotlarining o‘rnini tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Farg‘ona viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi hamda OITSga qarshi kurash markazi misolida amaliy tajriba o‘rganilib, UzASBO dasturi asosida buxgalteriya hisobi yuritishning afzalliklari hamda mavjud muammolar ko‘rsatib o‘tilgan.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so`zlar: buxgalteriya hisobi, hisobot, nazorat funksiyasi, axborot tizimi, UzASBO, IPSAS, davlat tibbiyot muassasasi, moliyaviy shaffoflik, sog‘liqni saqlash.

KIRISH

Hozirgi kunda sog‘liqni saqlash tizimi davlat tomonidan ijtimoiy sohaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tibbiyot muassasalarida moliyaviy boshqaruvning samaradorligi ko‘p jihatdan buxgalteriya hisobotlarining ishonchliligi, shaffofligi va tahliliy imkoniyatlariga bog‘liqdir. Buxgalteriya hisobi tizimi faqat ma’lumot yig‘ish emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida byudjet muassasalarining, jumladan tibbiyot tashkilotlarining buxgalteriya hisobi UzASBO avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali yuritiladi [1]. Ushbu tizim Moliya vazirligi tomonidan joriy etilgan bo‘lib, davlat sektori buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga (IPSAS) [2] bosqichma-bosqich moslashtirishni maqsad qilgan.

Shu bilan birga, ayrim tibbiyot muassasalarida (jumladan, Farg‘ona viloyatida) pullik xizmatlardan tushgan daromadlarni hisobga olish jarayonlari hali ham qisman qo‘lda amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa hisobotlarning ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib buxgalteriya hisobini yurishini sekinlashtirmoqda. Mazkur maqolada davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobotlarining axborot va nazorat funksiyalarini kuchaytirish, ularni avtomatlashtirilgan tizim asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

ASOSIY QISM

Axborot funksiyasi — buxgalteriya hisobotlarining boshqaruv tizimiga xizmat qiluvchi eng muhim vazifasidir. Hisobotlar yordamida tashkilot faoliyatining moliyaviy natijalari, resurslardan foydalanish samaradorligi va kelajakdagi rivojlanish

yo‘nalishlari baholanadi. Davlat tibbiyot muassasalarida axborot funksiyasi quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

· byudjet mablag‘larining sarflanishi bo‘yicha batafsil tahliliy ma’lumot taqdim etish;

· pullik tibbiy xizmatlardan tushgan daromadlarni tahlil qilish;

· mablag‘larning maqsadli sarflanishini kuzatish;

· moliyaviy natijalar asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish.

Masalan, Farg‘ona viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida har chorakda shakllantiriladigan hisobotlar asosida xizmatlar hajmi va xarajatlar tuzilmasi tahlil qilinadi. Bu ma’lumotlar sog‘liqni saqlash boshqarmasiga taqdim etiladi va keyingi byudjet rejalashtirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumotlariga ko‘ra, sog‘liqni saqlash tizimida samarali moliyaviy boshqaruv uchun buxgalteriya hisobotlarining tahliliyligi va raqamlashtirilganligi muhim ahamiyatga ega.

Nazorat funksiyasi — buxgalteriya hisobotlarining davlat mablag‘laridan maqsadli foydalanishni, daromadlar va xarajatlar ustidan qat’iy moliyaviy nazoratni ta’minlashdagi roli bilan belgilanadi.

Davlat tibbiyot muassasalarida nazorat ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

1. Davlat nazorati — Moliya vazirligi, Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Soliq qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Ichki nazorat — tibbiyot muassasasi buxgalteriya bo‘limi tomonidan muntazam o‘tkaziladi.

Farg‘ona viloyati OITSga qarshi kurash markazida pullik xizmatlardan tushgan daromadlar bo‘yicha ma’lumotlar hozirda “bildirgi” shaklida qog‘oz ko‘rinishda taqdim etiladi. Ushbu bildirgilar asosida mukofotlar hisoblanadi. Ammo bu jarayonni elektron shaklga o‘tkazish zarur, chunki buxgalteriya nazoratining aniqligini va tezkorligini oshiradi.

IFAC tavsiyalariga ko‘ra, davlat muassasalarida buxgalteriya hisobotlari nazorat mexanizmlari bilan integratsiyalashgan axborot tizimi orqali yuritilishi kerak [3]. Shvetsiya, Koreya va Turkiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, “Accrual accounting” tizimi asosida ishlovchi integratsiyalashgan moliyaviy tizimlar moliyaviy shaffoflikni 25–30% oshirgan [4].

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritish “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun, Byudjet kodeksi, hamda Moliya vazirligining UzASBO bo‘yicha buyrug‘lariga asoslanadi [5-6]. Ushbu hujjatlar davlat muassasalarida yagona elektron axborot tizimini yaratish, moliyaviy shaffoflikni oshirishni ko‘zda tutadi. UzASBO dasturi buxgalteriya yozuvlarini avtomatik tarzda yuritish, xarajatlarni nazorat qilish va hisobotlarni real vaqt rejimida tayyorlash imkonini beradi. Lekin ayrim tibbiyot muassasalarida hali ham Excel va qog‘oz ko‘rinishidagi ma’lumotlar saqlanmoqda. Shuning uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

· pullik xizmatlardan tushgan daromadlar bo‘yicha yagona elektron bildirgi shaklini ishlab chiqish;

· UzASBO tizimiga “Daromadlar fondi” moduli kiritish;

· 0% soliq stavkasidagi daromadlarni rivojlantirish fondi sifatida alohida analitik hisobda yuritish;

· ichki audit tizimini avtomatlashtirish.

Xalqaro amaliyotda IPSAS standartlari asosida tibbiyot muassasalarining moliyaviy hisobotlari “Accrual accounting” tizimiga asoslangan holda yuritiladi. Bu tizim sog‘liqni saqlash sohasida mablag‘lar harakatini aniq kuzatish va nazorat qilish

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

imkonini beradi. Shvetsiya, Koreya Respublikasi, Turkiya davlatlarida buxgalteriya hisobi integratsiyalashgan moliyaviy boshqaruv tizimlari orqali yuritiladi.

Farg‘ona viloyatida joylashgan Bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi va OITSga qarshi kurash markazida buxgalteriya hisobi UzASBO va Excel dasturlari orqali yuritiladi. Biroq, pullik xizmatlardan tushgan daromadlar qog‘oz shaklidagi bildirgilar asosida kiritilmoqda. Shu sababli, bildirgi shaklini elektron formatda joriy etish va UzASBO tizimiga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

1-jadval

Farg‘ona viloyati tajribasi va xalqaro standartlar taqqoslanishi

Yo‘nalish	Farg‘ona viloyati tajribasi	IPSAS va IFAC tajribasi	Taklif
Hisobot tizimi	UzASBO + Excel	Integratsiyalashgan moliyaviy tizim	UzASBO modullarini kengaytirish
Nazorat	Qisman qo‘lda	To‘liq raqamli audit	Ichki audit avtomatlashtirish
Daromadlar	Qog‘oz bildirgi	Elektron registr	Elektron shakl joriy etish
Soliq imtiyozlari	0% stavka, ajratmasiz	Analitik fond yuritiladi	“Rivojlantirish fondi” schoti ochish

Bu jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekiston tibbiyot muassasalari xalqaro amaliyot yo‘nalishida faol harakat qilmoqda, biroq integratsiya darajasi hali to‘liq emas.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobotlarining axborot va nazorat funksiyalarini takomillashtirish sog‘liqni saqlash tizimi boshqaruvining ajralmas qismidir.

Axborot funksiyasi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Asosiy ilmiy tavsiyalar:

1. UzASBO tizimini rivojlantirish orqali buxgalteriya hisobotlarini raqamlashtirish, ichki auditni avtomatlashtirish hamda IPSAS standartlariga moslashtirish zarur. UzASBO tizimida “Pullik xizmatlar daromadi” va “Rivojlantirish fondi” modullarini ishlab chiqish.
2. Har bir tibbiyot muassasasi uchun yagona elektron bildirgi shaklini joriy etish.
3. Ichki nazorat tizimlarini raqamli platformaga o‘tkazish.
4. Buxgalterlar va iqtisodchilarni xalqaro standartlar bo‘yicha o‘qitish.

Bu chora-tadbirlar davlat tibbiyot muassasalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi, sog‘liqni saqlash tizimida ochiqlik va ishonchlilikni mustahkamlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Zamirovich, J. S. (2024). BYUDJET HISOBI TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(06), 180-186.

2. IPSASB (2024). Handbook of International Public Sector Accounting Standards. https://www.ipsasb.org/publications/2024-handbook-international-public-sector-accounting-pronouncements

3. Палешева, Н. В., & Швец, Е. В. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И КОНТРОЛЯ БЮДЖЕТНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ НА ОСНОВЕ ОБЗОРА НАКОПЛЕННОГО ОПЫТА

НЕДОСТАТКОВ И НАРУШЕНИЙ. ЭКОНОМИКА И СОВРЕМЕННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ: ТЕОРИЯ, 59.

4. Barroy, H., & Gupta, S. (2021). Fifteen years later: moving forward Heller's heritage on fiscal space for health. Health Policy and Planning, 36(8), 1239-1245.

5. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 01.01.2014. https://lex.uz/docs/-2304138

6. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" (yangi tahriri) Qonuni, 13.04.2016 yildagi O'RQ-404-son. https://lex.uz/uz/docs/-2931253

O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH TIZIMI: IQTISODIY BARQARORLIK VA HUQUQIY-IJTIMOIY HOLAT TAHLILI

Muallif: Tolibjonov Xurshibek Hayotjon o‘g‘li [1]
Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Mustaqil tadqiqotchisi,Magistratura Fakulteti Dekan o‘rinbosari [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558614

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish tizimi tahlil qilinib, uning iqtisodiy barqarorlik, huquqiy va ijtimoiy holatiga e’tibor qaratilgan. Tadqiqot doirasida korxonalarda loyihalarni rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash va ishchi jarayonlarni optimallashtirish metodlari o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion loyihalarni boshqarish tizimi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so`zlar: innovatsion loyiha, sanoat korxonasi, iqtisodiy barqarorlik, huquqiy holat, ijtimoiy holat, boshqaruv tizimi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti sezilarli o‘zgarishlardan o‘tdi: modernizatsiya, liberallashtirish va xususiylashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlar orqali davlatning taraqqiyot strategiyasi shakllanmoqda. Xususan, sanoat sohasida innovatsion loyihalarni rivojlantirish – raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va global bozorga chiqish nuqtai nazaridan muhim omilga aylangan. Korxonalarda innovatsiyalarning joriy etilishi, boshqarish tizimlarining takomillashuvi hamda huquqiy-ijtimoiy muhitning yangilanishi zamonaviy sanoat rivoji bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar mamlakatda innovatsion rivojlanish va sanoatning modernizatsiyasi yo‘lida muhim yo‘nalishlarni belgiladi. Masalan, PF-165-son farmoni “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida qabul qilingan bo‘lib, unda korxonalarda innovatsion faoliyatni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ilm-fan sohasida hamkorlikni kuchaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan [1]. Bu hujjat orqali mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va sanoat korxonalarining global raqobatbardoshligini oshirish uchun sharoit yaratildi. Shu bilan birga, korxonalar o‘z loyihalarini rejalashtirishda innovatsion infratuzilma va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shuningdek, “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish tizimi”ni yaratish bo‘yicha qabul qilingan [2]. Ushbu qaror yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish

va ishlab chiqarish sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan. Qarorda, sanoat korxonalari faoliyatini zamonaviy boshqaruv tizimlari orqali optimallashtirish, innovatsion loyihalarni samarali amalga oshirish va iqtisodiy hamda huquqiy-ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash choralari belgilangan. Natijada, korxonalar o‘z strategik qarorlarini real vaqt rejimida qabul qilish, risklarni baholash va resurslarni optimal taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlik hamda huquqiy-ijtimoiy tizimning takomillashuvi innovatsion faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim shart-sharoitlarni yaratmoqda. Shuningdek, kichik va o‘rta korxonalar ham innovatsion mahsulot ishlab chiqishda faol-lashib bormoqda: 2024-yilda sanoatda 3 203 ta texnologik innovatsiya amalga oshirilgan, innovatsion mahsulot hajmi esa 5 835,4 milliard so‘mga yetgan [3].

Mamlakatda huquqiy-ijtimoiy sohada ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2022-yilda davlat tomonidan majburiy mehnat va bolalar mehnatini tizimli olib borilmasligi haqidagi muammolar bartaraf etilganligi tashkilotlar tomonidan qayd etilgan. [4] Bundan tashqari, xususiy sektor rolini oshirish, davlat xususiylashtirishni jadallashtirish va tashqi investitsiyalarni jalb qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ko‘paygan.

Shu sababli, O‘zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining hozirgi holatini va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, ayniqsa iqtisodiy barqarorlik va huquqiy-ijtimoiy tizim kontekstida — ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tahlil korxonalar, davlat boshqaruvi va siyosat shakllantiruvchilari uchun o‘zaro integratsiyalashgan rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining samaradorligini baholash uchun bir qator indikatorlar asosida tahlil olib borish zarur. Ushbu indikatorlarga innovatsion loyihalar soni, R&D (ilmiy-tadqiqot va tajribaviy ishlanmalar) uchun ajratilgan xarajatlar hamda ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulot hajmi kiradi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda innovatsiyalarga bo‘lgan e’tibor oshib, davlat tomonidan innovatsion rivojlanishga oid strategik hujjatlar va dasturlar qabul qilindi. Shu davrda sanoat korxonalari o‘z faoliyatini modernizatsiya qilmoqda, yangi texnologiyalarni joriy etmoqda va innovatsion loyihalarni amalga oshirishni kengaytirmoqda.

Quyidagi jadvalda 2019–2024 yillarda sanoat korxonalarida amalga oshirilgan innovatsion loyihalar soni, R&D xarajatlari va innovatsion mahsulot hajmi ko‘rsatilgan. Ushbu ma’lumotlar korxonalarda innovatsion faoliyatning dinamikasini va uning iqtisodiy samaradorligini vizual tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar va R&D xarajatlari (2019–2024) [5].

Yil	Innovatsion loyihalar soni (ta)	R&D xarajatlari (mlrd so‘m)	Innovatsion mahsulot hajmi (mlrd so‘m)
2019	2 100	1 200	3 200
2020	2 350	1 350	3 450
2021	2 700	1 500	4 100
2022	3 000	1 750	4 600
2023	3 203	1 900	5 200
2024	3 450	2 050	5 835

Jadval ma’lumotlariga qaraganda, 2019–2024 yillar oralig‘ida sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar soni 2 100 dan 3 450 taga oshgan, bu esa korxonalarda innovatsion faoliyatning barqaror o‘sishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2021–2022 yillarda loyihalar sonining sezilarli darajada oshishi davlatning innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatini aks ettiradi.

R&D xarajatlari ham doimiy ravishda oshgan, 2019 yilda 1 200 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda 2 050 mlrd so‘mga yetgan. Bu korxonalarning innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayganini va boshqaruv tizimlarining samarali ishlashini ko‘rsatadi.

Innovatsion mahsulot hajmi ham oshganligi e’tiborga loyiqdir: 2019 yilda 3 200 mlrd so‘m bo‘lgan ko‘rsatkich 2024 yilda 5 835 mlrd so‘mga yetgan. Bu holat, nafaqat loyihalar soni va R&D xarajatlariga, balki ularning iqtisodiy samaradorligi va bozor talablari bilan mos kelishini ham ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadval tahlili O‘zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish tizimi barqaror rivojlanayotganini va iqtisodiy barqarorlik hamda huquqiy-ijtimoiy muhitning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tizimni yanada takomillashtirish, loyihalarni samarali tanlash, monitoring va natijalarni baholash mexanizmlarini rivojlantirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish tizimi so‘nggi yillarda sezilarli rivojlandi va barqarorlik ko‘rsatkichlarini oshirdi. 2019–2024 yillar oralig‘ida innovatsion loyihalar sonining 2 100 tadan 3 450 taga oshishi, R&D xarajatlarining 1 200 mlrd so‘mdan 2 050 mlrd so‘mga yetishi hamda innovatsion mahsulot hajmining 3 200 mlrd so‘mdan 5 835 mlrd so‘mga ko‘tarilishi korxonalarda innovatsion faoliyatning kengayganini va iqtisodiy samaradorlikning oshayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu jarayon huquqiy-ijtimoiy muhitning takomillashuvi va davlat tomonidan innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan strategik dasturlarning samarali amalga oshirilishi bilan chambarchas bog‘liq.

Biroq, tahlil shuni ko‘rsatadiki, tizimning samaradorligi hali to‘liq emas. Innovatsion loyihalarning iqtisodiy natijalari va bozor talablari bilan mosligi, loyihalarni tanlash, monitoring va baholash mexanizmlari hamda resurslardan optimal foydalanish sohalarida takomillashuv zarurati mavjud. Shuningdek, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda mablag‘lar ajratilishi va korxonalardagi boshqaruv tizimining kompleksligi orasida hali to‘liq muvofiqlik kuzatilmaydi.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha yagona metodologiyani joriy etish, KPIlar va indikatorlar tizimini mustahkamlash zarur. Ikkinchidan, innovatsion loyihalarga ajratiladigan moliyaviy resurslarni kengaytirish, xususan xususiy sektor va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi navbatda, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish, texnoparklar va laboratoriyalar faoliyatini kengaytirish hamda R&D xarajatlarini oshirish lozim.

Shuningdek, huquqiy-ijtimoiy muhitni takomillashtirish orqali innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish muhimdir. Oxirgi taklif sifatida, sanoat korxonalari uchun xalqaro standartlarni joriy etish va xorijiy kompaniyalar, ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish mumkin. Shu choralar orqali O‘zbekiston sanoat korxonalari innovatsion faoliyatni barqaror va raqobatbardosh tarzda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son. 2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-6102462
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.01.2022 yildagi PQ-99-son. Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/-5836411
3. https://stat.uz/img/images/ishbilarmonlikdan-mikrofirma-eng_p59459.pdf
4. https://www.worldbank.org/en/results/2024/07/16/helping-uzbekistan-undertake-a-historic-social-and-economic-transformation
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Sanoat va innovatsion faoliyat bo‘yicha statistik ma’lumotlar. https://stat.uz

THE STATE’S FISCAL POLICY AND ITS PRIORITY DIRECTIONS IN ENSURING ECONOMIC STABILITY

Authors: Usmonov Davlatjon Sherzodjon o’g’li [1], Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o’g’li [2]
Affiliation: Nordic International university Faculty of economics and pedagogy [1], Nordic International university Lecturer of the Department of Economics and Business Administration
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558654

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of the state’s fiscal policy in ensuring economic stability. In a market economy, the government’s fiscal, budgetary, and tax policies are considered crucial factors for supporting economic growth, controlling inflation, and improving the investment climate. The study highlights the main priority directions of fiscal policy, including strengthening budgetary stability, maintaining public debt at an optimal level, simplifying the tax system, and promoting investments in the real sector of the economy. In addition, financial reforms being implemented in Uzbekistan, their impact on economic stability, and the effectiveness of cooperation with international financial institutions are analyzed. As a result, the theoretical and practical aspects of ensuring macroeconomic stability through strategic planning of state fiscal policy are substantiated.

Keywords: economic stability, fiscal policy, budgetary stability, tax system, public debt, investments, macroeconomic balance, financial reforms, economic growth.

INTRODUCTION

In a market economy, ensuring economic stability is one of the key strategic goals of every state. A stable economic environment is a critical factor determining a country’s social welfare, investment attractiveness, and competitiveness in the international arena. In recent years, global economic instability, geopolitical risks, and financial crises have posed new challenges for governments. From this perspective, for Uzbekistan, it is particularly important to scientifically shape and effectively implement fiscal policy to strengthen economic stability.

The relevance of this topic lies in the fact that ensuring economic stability requires strategic planning of state fiscal policy, efficient use of resources, and deepening of financial reforms. At the same time, it is necessary to expand cooperation with international financial institutions, manage public debt optimally, and support the private sector to develop the real sector of the economy. Research conducted on this basis provides scientific and practical recommendations for further improving Uzbekistan’s fiscal policy, thereby enhancing the significance of this study.

Analysis and results

The state’s fiscal policy — encompassing fiscal measures (budgetary and tax policy), public debt management, and planning of public expenditures — serves as a

tool for ensuring macroeconomic stability. This policy aims to achieve three main objectives: (1) maintaining macroeconomic balance (controlling inflation and managing aggregate demand), (2) directing investments toward infrastructure and social services to support growth, and (3) mitigating economic risks (such as financial crises and external shocks). In theory, the effectiveness of fiscal policy depends on the targeting of policy instruments, budgetary discipline, and the level of transparency.




Figure 1. Fiscal policy instruments and their functions.

Yana bir guruh iqtisodchi olimlarimiz O.Sh. Dadabayev, S.S. Soatov, A.M. Sagitov tashqi savdo almashinuvdir, ya'ni mamlakat moddiy resurs-larini ko‘paytirishi yoki kamaytirishi mumkin bo‘lgan tovarlarni olib kirish va olib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatdir deb ta'rif berib, tashqi savdoni Bojxona statistikasining predmeti sifatida ta'kidlashgan[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har qanday iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilishda statistik ko‘rsatkichlar tizimi muhim rol o‘ynaydi shu jumladan, tashqi savdo jarayonlarni tadqiq etishda ham tashqi savdo faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi

[2] SH.M. Mirziyoyev raisligida eksport, investitsiya va mahalliy sanoatda 2024 yilda turgan vazifalar bo‘yicha yig‘ilish.

muhim ahamiyat kasb etadi. Puxta rejalashtirilgan strategiyalar uchun, albatta, shaffof statistik ko‘rsatkichlarga chuqur ehtiyoj seziladi.




1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo ko‘rsatkichlari va yalpi ichki mahsulotning o‘zgarish dinamikasi[3]

Tashqi savdo statistikasi ko‘rsatkichlarini o‘rganishda iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.Y. Surinova tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: “Jahon iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi turli mamlakatlarning globalizatsiya va iqtisodiy integratsiya jarayonining mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayon tashqi iqtisodiy ko‘rsatkichlarini quyi ko‘rsatkichlar tizimi orqali o‘z aksini topadi. Tashqi savdo ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oluvchi tovarlar va xizmatlar, shuningdek, mamlakat to‘lov balansining ko‘rsatkichlari hisoblanadi”[6].

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 2024 yilda 65,9 mlrd. AQSH dollarni tashkil qilgan. Ushbu ko‘rsatkich 2023 yilga nisbatan 3,8 % o‘sishga erishganini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘lami bo‘yicha eksport mamlakat yalpi ichki mahsulotining 39 % dan ko‘proq qismini, import esa deyarli 61 % qismini tashkil qiladi. Mamlakat iqtisodiyotini o‘sishi tendensiyasi tashqi savdo aylanmasining o‘zgarish tendensiyasiga o‘xshash. Mutloq qiymatlarga qaraydigan bo‘lsak, tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 26,95 mlrd. AQSH dollarni, import esa 38.99 mlrd. AQSH dollarni tashkil qilgan. Mos ravishda 2023 yil bilan taqqoslaganimizda eksport 8,4 %, import esa 0,8 % o‘sishni ko‘rsatgan. Oldingi yillarga qaraganda eksportda o‘sish tendensiyasi tezlashgan hamda importni o‘zgarish sur'atiga yaqinlashgan. Biroq, import hajmi eksport hajmidan sezilarli kattaligi sabab mamlakat tashqi savdo aylanmasida saldo ko‘rsatkichi manfiy qolmoqda (1-rasm).

3 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi eksporti va yalpi ichki mahsulot o‘rtasidagi regression bog‘langanlik grafik ifodasi

Bizning fikrimizcha, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni statistik tadqiq etishda, agar ob'yekt mamlakat miqiyosida bo‘lsa YAIM ko‘rsatkichlariga nisbatan taqqoslash orqali foydalaniladi. Hudud miqiyosida esa YAHM (yalpi hududiy mahsulot) va YAIM asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Regressiya tenglamasi grafigidan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz eksporti bilan yalpi ichki mahsulot o‘rtasidagi bog‘lanish zichligi kuchli. Tahlilimiz asosida cheddok shkalasi orqali O‘zbekiston eksporti va uning yalpi ichki mahsuloti o‘rtasidagi Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblab chiqdik.

1-jadval

Korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymatlari

	O‘zbekiston Respublikasi YAIM	O‘zbekiston Respublii eksporti	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi
O‘zbekiston Respublikasi YAIM	1,0000		
O‘zbekiston Respublikasi eksporti	0,8278	1,0000	
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	0,9156	0,7565	1,0000

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi eksporti va yalpi ichki mahsuloti o‘rasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,8278 ga teng. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, amalga oshirilayotgan eksport hajmlari yalpi ichki mahsulotga kuchli ijobiy ta'sir o‘tkazmoqda.

$$\ln y = 29131{,}03 + 0{,}294\ln x_1 + 0{,}319\ln x_2$$

bu yerda:

$\ln y$ – Respublikamiz YAIM;

$\ln x_1$ – Respublikamiz eksporti;

$\ln x_2$ – Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatyaptiki, mamlakatimiz eksportini 1 % ga ortishi, mamlakatimiz YAIMini 0,294 % ga ortishiga olib keladi. Mamlakatimga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1 % ga ortishi, mamlakatimiz YAIMini 0,319 % ga ortishiga olib keladi. Modelimizning har bir parametri statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, parametrlarning t-statistika qiymatlari jadval qiymatidan katta. Bundan tashqari modelimiz uchun fisher mezoni 15,4 ga tengligi modelni umumiy ko‘rinishda muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. BMT Savdo va rivojlanish tashkiloti – System of National Accounts / United Nations Statistics Division, 2024. par.6.7,6.15.
2. Bryus V. - Kanada: Tarix, geografiya, iqtisodiyot, madaniyat. 1985.
3. Avdokush E.F. – International economic relations: Textbook. M.: 2001. — 368p.
4. Mirsaidov M. – Xalqaro-iqtisodiy-munosabatlar. O‘quv qo‘llanmasi. www.sies.uz. 2021. Toshkent. 156b.
5. Dadabayev O.Sh., Soatov S.S., Sagitov A.M. – Bojxona statistikasi va tizimli yahlil, 2021.
6. Bashkatova B.I., Surinova A. Y.. — 2-e izd., pererab. i dop Mejdunarodnaya statistika: uchebnik dlya magistrov / pod red.. — M.: Izdatelstvo Yurayt, 2015. — 701 s. — Seriya: Uchebniki NIUVSHE.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALNI SAMARALI BOSHQARISHNING STRATEGIK YONDASHUVLARI

Muallif: Fayziyev Oybek Raximovich [1]
Affiliyatsiya: Alfraganus University, Iqtisodiyot fakulteti, “Moliya” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD), Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17563465

ANNOTATSIYA

Maqolada baliqchilik xo‘jaliklarida aylanma kapitalni boshqarishning zamonaviy muammolari va strategik yechimlari tahlil qilinadi. “TCT Fish Cluster” misolida aylanma aktivlar tarkibi va tuzilmasidagi o‘zgarishlar, ularning aylanish tezligi va moliyaviy samaradorlikka ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli axborot tizimlarini joriy etish, debitor qarzdorlikni boshqarish va ombor zaxiralarini optimallashtirish orqali aylanma kapital samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, xavflarni strategik boshqarish, ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Baliqchilik xo‘jaligi, aylanma kapital, moliyaviy boshqaruv, raqamli tizimlar, strategik boshqaruv, resurslar aylanishi, xavflarni boshqarish.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi sohasida boshqaruvning zamonaviy muammolari, eng avvalo, tarmoqlararo munosabatlarni samarali muvofiqlashtirish va resurslar aylanishini strategik boshqarish bilan chambarchas bog‘liqdir. Aholi sonining o‘sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va global iqlim o‘zgarishlari sharoitida agrar sektorda, jumladan, baliqchilik xo‘jaliklarida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda[1].

Xususan, baliqchilik xo‘jaliklarida aylanma kapitalni samarali boshqarish tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini saqlash, xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish, rentabellikni oshirish hamda tarmoqning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy strategik omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, aylanma kapitalning harakati, uning tarkibiy tuzilmasi va boshqaruv mexanizmlarini chuqur tahlil etish baliqchilik xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni zamonaviy boshqaruv modeliga moslashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biridir.

Ma'lumki, aylanma kapital ishlab chiqarish jarayonida doimiy harakatda bo‘lib, har bir ishlab chiqarish siklida to‘liq aylanadi va o‘z qiymatini yaratilgan mahsulotga to‘liq o‘tkazadi. Baliqchilik xo‘jaliklarida uning asosiy tarkibini biologik aktivlar (baliq tuxumi, naslli baliqlar, ozuqa), ishlab chiqarish zahiralari, energiya manbalari va ayrim hollarda tayyor mahsulot tashkil etadi. Shu bilan birga, tarmoqning o‘ziga xos mavsumiyligi va tabiiy omillarga yuqori bog‘liqligi aylanma kapital boshqaruvini strategik yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi[2; 3].

Zamonaviy boshqaruv tamoyillari shuni ko‘rsatmoqdaki, moliyaviy resurslar aylanishini raqamli nazorat vositalari orqali monitoring qilish, ishlab chiqarish va moliyaviy oqimlarni tahliliy modellashtirish, shuningdek, resurslardan samarali

foydalanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqish baliqchilik xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo‘nalishidir[4; 6; 7]. Shu bois, ushbu tadqiqotda baliqchilik xo‘jaliklarida aylanma kapitalni boshqarishning zamonaviy muammolari tahlil qilinadi hamda ularni strategik yechimlar orqali takomillashtirish yo‘nalishlari asoslab beriladi.

Shunday ekan, qishloq xo‘jaligining boshqa yo‘nalishlariga nisbatan, **baliqchilik sohasida aylanma kapitalni shakllantirish va boshqarish jarayoni tabiiy-biologik hamda texnologik omillar bilan chambarchas bog‘liq.** Masalan, suvning harorati, uning tarkibidagi kislorod miqdori, ozuqa sifati kabi parametrlar bevosita biomassa o‘sishiga ta'sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, **boshqaruvning zamonaviy muammolaridan biri — ekologik va iqtisodiy barqarorlikni uyg‘un holda ta'minlaydigan strategik boshqaruv modelini yaratish** hisoblanadi[5; 8].

Bunday sharoitda aylanma kapitalni samarali boshqarish nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, balki resurslar harakatini to‘g‘ri prognoz qilish, ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz ta'minlash va xavflarni minimallashtirish orqali ham amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, **aqlli monitoring va raqamli axborot tizimlarini joriy etish** boshqaruvning eng muhim strategik yechimlaridan biri sifatida qaraladi.

Aylanma kapital haqidagi aniq va tezkor ma'lumotlar asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari **ishlab chiqarish samaradorligini oshirib**, xarajatlar tuzilmasini optimallashtiradi. Masalan, “Smart Aqua Management”, ERP yoki 1C kabi raqamli tizimlarning joriy etilishi natijasida suv sifati, energiya sarfi, ozuqa samaradorligi va ishchi kuchidan foydalanish bo‘yicha real vaqt ma'lumotlari orqali aniq tahlil o‘tkazish imkoni yaratiladi[5]. Bu esa, o‘z navbatida, **aylanma kapital harakatini prognozlash va moliyaviy xavflarni boshqarishda strategik afzallik** beradi.

Shu bilan birga, **aylanma kapitalning aylanish tezligini oshirish ham boshqaruvdagi muhim vazifalardan biri** hisoblanadi. Aylanish siklini qisqartirish orqali ishlab chiqarish sikllari soni ko‘payadi, foydalilik darajasi ortib, raqobatbardoshlik kuchayadi. Buni amalga oshirish uchun:

- zaxiralar hajmini optimallashtirish;
- debitor qarzlarni kamaytirish;
- pul oqimini rejalashtirish va monitoring tizimini takomillashtirish talab qilinadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aylanma mablag‘larning 20–25 foizi ozuqa mahsulotlariga yo‘naltiriladigan baliqchilik xo‘jaliklarida **ozuqa samaradorligini tahlil qilish va raqamli boshqaruv usullarini qo‘llash orqali aylanish tezligini 10–12 foizga oshirish mumkin.**

Natijada, aylanma kapitalni boshqarishda zamonaviy boshqaruv yechimlari — raqamlilashuv, strategik tahlil va ekologik tavakkalchiliklarni hisobga oluvchi modellar — baliqchilik xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, aylanma kapitalni boshqarish jarayonida xavflarni strategik boshqarish masalasi zamonaviy boshqaruvning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, suv resurslari tanqisligi, energiya narxlarining o‘sishi va bozordagi noaniqliklar baliqchilik xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, xavflarni boshqarishning innovatsion strategiyalarini joriy etish, jumladan, sug‘urta mexanizmlari, xavflarni taqsimlash va tavakkalchilikni xedjirlash usullaridan foydalanish, aylanma kapital yo‘qotilishining oldini olishda

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullar korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy boshqaruvning yana bir strategik yechimi — axborot oqimlarini raqamli integratsiya qilish va ularni tahlil qilish jarayonini avtomatlashtirishdir. Baliqchilik sohasida ma'lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va vizuallashtirish jarayonlarini raqamli platformalar orqali boshqarish, iqtisodiy tahlil sifatini yaxshilash va qaror qabul qilish samaradorligini oshirishga imkon beradi[9]. Bu nafaqat aylanma kapital harakatini doimiy monitoring qilish, balki ishlab chiqarish jarayonidagi samaradorlikni oldindan prognoz qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Aylanma kapitalni samarali boshqarish tizimi — ishlab chiqarish barqarorligi, foydalilik darajasi va iqtisodiy o‘sish sur'atlariga bevosita ta'sir etuvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, aylanma aktivlar tarkibi va tuzilmasini muntazam tahlil qilish, ulardagi dinamik o‘zgarishlarni kuzatib borish boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish imkonini yaratadi.

Bu jihatdan, Toshkent viloyatidagi “TCT Fish Cluster” baliqchilik xo‘jaligi misolida aniq tahlil o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxona faoliyatida aylanma aktivlar tarkibidagi o‘zgarishlar raqamli axborot tizimi orqali kuzatilib, ular asosida ishlab chiqarish va muomala sohalaridagi resurslar taqsimotining dinamikasi aniqlangan.

Quyidagi 1-jadvalda 2021–2025-yillar davomida “TCT Fish Cluster” korxonasining aylanma aktivlar tarkibi va tuzilmasidagi o‘zgarishlar ko‘rsatilgan bo‘lib, u aylanma kapital boshqaruvi samaradorligini baholash va strategik yechimlarni belgilash uchun ilmiy asos vazifasini o‘taydi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

1-jadval

“TCT Fish cluster”da aylanma aktivlarining tarkibi va tuzilmasining tahlili[1]

Aktivlar	1.01.2021-y.		1.01.2023-y.		1.01.2025-y.		o‘zg. 1.01.2024-y. 1.01.2021-y.ga n-n.	
	ming so‘m	%	ming so‘m	%	ming so‘m	%	ming so‘m	%
I. Ishlab chiqarish sohasida:								
Ishlab chiqarish zaxiralari	5110577,6	11,34	1535265,11	2,35	1115118,65	1,37	-3995458,95	-78,18
Tugallanmagan ishlab chiqarish	25372744,3	56,32	46434157,28	71,10	61737525,16	75,88	36364780,86	143,32
Kelgusi davr xarajatlari		0,00	156379	0,24	55667,85	0,07	55667,85	
Jami:	**30483321,9**	**67,66**	**48125801,39**	**73,69**	**62908311,7**	**77,32**	**32424989,76**	106,37
II. Muomala sohasida:								
Tayyor mahsulotlar	699558,2	1,55	908736,24	1,39	212867,83	0,26	-486690,37	
Tovarlar		0,00	61774,18	0,09	171636,29	0,21	171636,29	
Pul mablag‘lari – jami	1932970,3	4,29	566847,33	0,87	135899,57	0,17	-1797070,73	-92,97
shundan: - kassa		0,00	42092,5	7,43	2,10	0,00	2,10	
- xisob-kitob schyoti	1720286,5	89,00	395400,43	69,75	89903,62	66,15	-1630382,88	-94,77
- chet el valyutasi		0,00		0,00	0,00	0,00	0,00	
Debitorlar	3302864,8	7,33	8640056,44	13,23	14713488,76	18,08	11410623,96	345,48
Qisqa muddatli investitsiyalar	8632849,8	19,16	7004231,02	10,73	3219558,70	3,96	-5413291,10	-62,71
Kechiktirilgan xarajatlar		0,00		0,00	0,00	0,00	0,00	
Jami:	**14568243,1**	**32,34**	**17181645,21**	**26,31**	**18453451,2**	**22,68**	**3885208,05**	26,67
III. Boshqa aylanma aktivlar								
Boshqa aylanma aktivlar	0	0,00	0	0,00	0,00	0,00	0,00	
Hammasi:	**45051565**	**100,00**	**65307446,6**	**100,00**	**81361762,81**	**100,00**	**36310197,81**	80,60

[1] Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanidagi “TCT Fish cluster” mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2021-2024-yillik hisobotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari “TCT Fish Cluster” korxonasining 2021–2025-yillar davomida aylanma aktivlari tarkibi va tuzilmasidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Ma'lumotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, korxona faoliyatida aylanma aktivlarning o‘sish sur'ati 80,6 foizni tashkil etgan, ya'ni 2021-yildagi 45,05 mlrd so‘mdan 2025-yilda 81,36 mlrd so‘mgacha ortib, ikki baravardan ko‘proq o‘sgan. Bu o‘sish, birinchi navbatda, ishlab chiqarish sektoridagi “to‘liq aylanuvchi” aktivlar ulushining ortishi bilan bog‘liq.

Ishlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlar shundan dalolat beradiki, 2021–2025-yillarda “to‘xtovsiz ishlab chiqarishni ta'minlash strategiyasi” amalga oshirilgan. Jumladan, ishlab chiqarish zaxiralari 78,18 foizga qisqargan bo‘lsa-da, to‘liq tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi 143,32 foizga o‘sgan. Bu holat, korxonada qayta ishlash jarayonlari va biologik aktivlar aylanishi faollashganidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, “TCT Fish Cluster”da aylanma kapital aylanishining biotexnologik bosqichi kengaygan, bu esa strategik jihatdan resurslardan samarali foydalanish va ichki aylanish tezligini oshirishni ta'minlagan.

Ishlab chiqarish sohasining umumiy aylanma aktivlar tarkibidagi ulushi 2021-yildagi 67,66 foizdan 2025-yilda 77,32 foizgacha o‘sgan. Bu ko‘rsatkich korxona strategiyasida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Muomala sohasi tahlili shundan dalolat bermoqdaki, tayyor mahsulotlar ulushi 1,55 foizdan 0,26 foizgacha qisqargan. Bu, bir tomondan, mahsulot aylanishining tezlashganini, ikkinchi tomondan, ombor zaxiralarini optimallashtirish siyosati samara berganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, debitor qarzlar 345,48 foizga oshgani korxonada to‘lov intizomini kuchaytirish va debitorlikni boshqarish bo‘yicha alohida strategik choralar talab etilishini anglatadi.

Qisqa muddatli investitsiyalar 62,71 foizga qisqargan bo‘lib, bu aylanma kapitalning ishlab chiqarish faoliyatiga yo‘naltirilayotganini, ya'ni moliyaviy faollikdan ko‘ra real sektor samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv siyosati yuritilayotganini ko‘rsatadi.

Pul mablag‘larining 92,97 foizga kamayishi shundan dalolat beradiki, “TCT Fish Cluster” aylanma aktivlarni passiv holda saqlab turishdan ko‘ra, ularni ishlab chiqarish aylanishiga jalb qilishni afzal ko‘rgan. Bu strategiya qisqa muddatli likvidlikni pasaytirsa-da, aylanma kapitaldan foydalanish koeffitsiyentini oshirish nuqtayi nazaridan samarali hisoblanadi.

Tahlil natijalari asosida aytish mumkinki, “TCT Fish Cluster”da aylanma aktivlar tuzilmasidagi o‘zgarishlar moliyaviy boshqaruvning strategik transformatsiyasini ifoda etmoqda. Korxona ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan resurslarning ulushini ko‘paytirish orqali to‘liq aylanuvchi kapital siklini qisqartirish va foyda normasini oshirish strategiyasini amalga oshirmoqda.

Shuningdek, debitorlik qarzlarining o‘sishi va pul mablag‘larining qisqarishi korxonaning ayrim likvidlik muammolarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, aylanma kapitalni boshqarishda raqamli nazorat tizimlari, debitor qarzlar bo‘yicha prognozlashtirish modellari va avtomatlashgan to‘lov monitoringi platformalarini joriy etish kelgusi davrda muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari “TCT Fish Cluster”da aylanma aktivlar tarkibidagi sifat o‘zgarishlari orqali iqtisodiy barqarorlik, resurslar samaradorligi va raqamli boshqaruv tizimlari asosida qaror qabul qilish amaliyoti kuchayganini ko‘rsatadi. Bu tendensiyalar zamonaviy boshqaruv nazariyasi nuqtayi nazaridan

“iqtisodiy samaradorlik va barqarorlikni raqamli boshqaruv orqali ta'minlash” konsepsiyasiga to‘la mos keladi.

Shunday qilib, “TCT Fish cluster”dagi aylanma aktivlar tarkibi va tuzilmasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, klasterning moliyaviy faoliyati so‘nggi yillarda ayrim salbiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, strategik jihatdan ijobiy tendensiyalarga ham ega bo‘lgan. Jumladan, ishlab chiqarish sohasi ulushining ortishi hamda tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining keskin o‘sishi klasterning ishlab chiqarish salohiyati kengayib borayotganini anglatadi. Biroq, aylanma mablag‘lar ichida pul mablag‘lari va qisqa muddatli investitsiyalar ulushining pasayishi likvidlik darajasining kamayishiga, debitor qarzdorlik hajmining ortishi esa aylanma mablag‘larning aylanish tezligining pasayishiga olib kelgan.

Shu bilan birga, tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, “TCT Fish cluster”da moliyaviy menejment tizimini yanada samarali tashkil etish, aylanma aktivlar tuzilmasini optimallashtirish hamda pul oqimlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi

Shu asosda quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

– birinchidan, debitor qarzdorlikni kamaytirish maqsadida hisob-kitob intizomini kuchaytirish, elektron to‘lov tizimlarini keng joriy etish lozim;

– ikkinchidan, aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish uchun ombor zahiralarini boshqarishda raqamli nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi;

– uchinchidan, likvidlik darajasini barqarorlashtirish uchun qisqa muddatli investitsiya instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish, pul mablag‘larini samarali taqsimlash tizimini yo‘lga qo‘yish zarur;

– to‘rtinchidan, aylanma aktivlar tuzilmasini tahlil qilish asosida ularni diversifikatsiya qilish hamda ishlab chiqarish va muomala sohalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash tavsiya etiladi.

Umuman olganda, yuqoridagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi “TCT Fish cluster” faoliyatida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish hamda klasterning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fayziyev O.R. “Aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari” // «Muhandislik va iqtisodiyot». – Toshkent, 2024. - № 4. – B. 43-47

2. Fayziyev O.R. “Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirishning asosiy yo‘llari” // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”. – Toshkent, 2024. - № 11. – B. 179-184.

3. Fayziyev O.R. “Aylanma mablag‘lar samaradorligini oshirishning muhim omili” // “Jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 2-qism / Ma'mun universiteti. – Toshkent: Bookmany print, 2024. 41–46 b.

4. Fayziyev O.R. “Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri”. “Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2024. 509-514 betlar.

5. Fayziyev O.R. “Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda baliqchilik tarmog‘ining ahamiyati va o‘rni” // «AGROIQTISODIYOT». – Toshkent, 2024. №4. B. 46-50. (08.00.00., № 25).

6. Fayziyev O.R. “Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirishga omillar ta'sirini baholash” // “Marketing”. – Toshkent, 2025. №1. B. 314-318. (08.00.00., №).

7. Fayziyev O.R. “Aylanma kapital rentabelligini baholashga kompleks yondashuv” // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”. – Toshkent, 2025. - № 2. – B. 559-566.

8. Fayziyev O.R. “Qishloq xo‘jaligi korxonalarida aylanma mablag‘lar harakati va rentabelligining kompleks tahlili” // «AGROIQTISODIYOT». – Toshkent, 2025. №1. B. 151-153. (08.00.00., № 25).

9. Fayziyev O.R. Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirishga ta'sir

10. qiluvchi omillar tahlili. / “Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari [Matn] / “Ma'mun universiteti” NTM.- Xorazm: Khwarezm publication, 2025. - 608 b. 596-599.

11. Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanidagi “TCT Fish cluster” mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2021-2024-yillik hisobotlari.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

MILLIY IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH VA XALQARO INTEGRATSIYANI CHUQURLASHTIRISH

Mualliflar: Ismailov Baxit Abdireymovich [1], Jumaniyazov Rashid Azamatovich [2]
Affiliyatsiya: Qoraqalpoq davlat universiteti, Moliyaviy texnologiyalar kafedrasi dotsenti (PhD) [1], Qoraqalpoq davlat universiteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar mutaxassisligi 2b guruh talabasi [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17563551

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish jarayonlari yoritilgan. Iqtisodiy islohotlar, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion rivojlanish hamda xalqaro hamkorlikning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, modernizatsiya jarayonidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so‘zlar: global iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, modernizatsiya, innovatsion yondashuv, barqaror rivojlanish, xalqaro hamkorlik, investitsiyalar, iqtisodiy integratsiya, iqtisodiy islohotlar.

KIRISH

Hozirgi davrda global iqtisodiyotda ro‘y berayotgan keskin o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, yangi ishlab chiqarish modellari va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi har bir davlatdan o‘z iqtisodiy siyosatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish — mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda xalq farovonligini yuksaltirishning eng muhim omillaridan biridir.

Modernizatsiya - jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmasini zamonaviy taraqqiyot talablariga mos holda yangilash, isloh qilish va takomillashtirish jarayonidir [1].

Milliy iqtisodiyotni samarali modernizatsiya qilish esa xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlaridan ajralgan holda kecha olmaydi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya - bu alohida mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhlari o‘rtasida barqaror munosabatlarni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, bu milliy iqtisodiy tizimlarning bosqichma-bosqich birlashishiga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayon bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va iqtisodiyotni xalqarolashtirishga asoslangan bo‘lib, bu reproduktiv jarayonning milliy iqtisodiyotdan tashqarida kengayishini anglatadi [2].

O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillik yillarida milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, uning raqobatbardoshligini kuchaytirish va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv yo‘lida izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026) hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish,

innovatsion rivojlanish va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Globalizatsiya chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uni raqobatbardosh qilish hamda jahon iqtisodiy makoniga to‘laqonli integratsiyalash zarurati kuchaymoqda. Ko‘plab davlatlar milliy rivojlanishning optimal modelini izlamoqda, iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirmoqda hamda xalqaro hamkorlik va integratsiya aloqalarini strategik jihatdan mustahkamlashga intilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichi boshlandi. Mamlakatda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish, investitsion muhitni yaxshilash hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi izchil davom etib, xalqaro savdo - iqtisodiy hamkorlik geografiyasi kengaymoqda, xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda.

ASOSIY QISM

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Repsublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish bo'yicha bir qancha ilojlar olib bormoqda. O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish
- Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarni hamda magistral avtomobil yo‘llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish.
- Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmladini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizim yo'lga qo'yish
- Elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini jadal rivojlantirish uchun zamonaviy "yashil" va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish
- Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish [3].

O‘zbekistonning modernizatsiya jarayonidagi yutuqlari uning xalqaro hamjamiyat bilan faol aloqalari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Mamlakat tajriba almashinuvi, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb etish maqsadida global tashkilotlar, qo‘shni davlatlar hamda rivojlanayotgan bozorlar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. So‘nggi yillarda xalqaro hamkorlik yanada mustahkamlanib, dunyo mamlakatlari bilan turli yo‘nalishlarda aloqalar kengaymoqda. Savdo, ta’lim, fan va texnologiyalar, madaniyat, turizm hamda investitsiya kabi sohalarda yangi qo‘shma dasturlar, loyihalar va tashabbuslar yo‘lga qo‘yilmoqda. Bunga misol qilib keltirishmiz mumkin:

Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li loyihasi (CKU Railway), Markaziy Osiyoni Xitoy bilan bog‘laydigan strategik loyiha.

Masdar (BAA), ACWA Power (Saudiya Arabistoni), Total Eren (Fransiya) bilan quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari.

Erasmus+, DAAD, KOICA, JICA qo‘shma ta’lim loyihalari.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Shunindek, O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkiloti (JST/WTO) ga a’zo bo‘lish jarayoni mamlakatning taraqqiyot strategiyalarida asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada,

- tashqi iqtisodiy aloqalarni liberallashtirish,
- xalqaro savdo tizimiga integratsiyani chuqurlashtirish,
- JSTga a’zo bo‘lish orqali mamlakatning global savdo maydonidagi ishtirokini kuchaytirish
- ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [3].

Demak, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va xalqaro hamkorlikni kengaytirish siyosati barqaror iqtisodiy o‘sish, farovon hayot darajasi hamda jahon iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integratsiyani ta’minlashga qaratilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish jarayonlari mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, raqobatbardoshligini oshirish hamda jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Modernizatsiya jarayonlari orqali ishlab chiqarishning texnologik darajasi yangilanmoqda, raqamli iqtisodiyotga o‘tish jadallashmoqda, sanoat tarmoqlari diversifikatsiya qilinmoqda hamda “yashil iqtisodiyot” tamoyillari bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilmoqda.

Xalqaro integratsiya jarayonining chuqurlashuvi esa mamlakat uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Xususan, xalqaro savdo, investitsiyalar, ilmiy-texnik hamkorlik va transport-logistika sohalaridagi sheriklik aloqalari O‘zbekiston iqtisodiyotini global iqtisodiy tizimga faol qo‘shilishga zamin yaratmoqda. JSTga a’zo bo‘lish jarayonining jadallashuvi, xalqaro energetika va infratuzilma loyihalarida ishtirok etish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiy modernizatsiya va integratsiya jarayonlarini yanada samarali amalga oshirish uchun bir qator tizimli muammolarni hal etish talab etiladi. Jumladan, innovatsion rivojlanishni tezlashtirish, malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va startap ekotizimini rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Umuman olganda, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u mamlakatni barqaror, innovatsion va raqobatbardosh iqtisodiyotga ega zamonaviy davlat sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharipov B. M. “Modernizatsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri” - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 45-bet.
2. Sharipov B. M. Xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitida innovatsion investitsiyalar masalalari: muammo va yechimlar. Management, Marketing and Finance International Scientific Journal, Volume 2, Issue 4, 2024, pp. 16–19.
3. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” 2022–2026 (PF–60, 28.01.2022) https://lex.uz/docs/5841063.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI HISOBGA OLISH VA BYUDJETLASHTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Muallif: Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: Namangan davlat texnika universiteti, Buxgalteriya hisobi kafedrasi o‘qituvchisi(mustaqil tadqiqotchi) [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17563594

ANNOTATSIYA

Maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va byudjetlashtirish tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda buxgalteriya hisobi hamda byudjetlashtirishning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, korxonalarda ekologik xarajatlar hisobini yuritishning xalqaro tajribasi tahlil qilinadi va uni milliy amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ishlab chiqarish xarajatlari, byudjetlashtirish, ekologik xarajatlar, resurs tejamkorlik, barqaror rivojlanish.

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon hamjamiyatida iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ekologik omillar bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Iqtisodiy o‘sishning an’anaviy modellari tabiat resurslarining tez tugashi, chiqindilar hajmining ortishi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ko‘plab mamlakatlar iqtisodiy siyosatni “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan holda olib borishga o‘tmoqda.

Yashil iqtisodiyot — bu resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy barqarorlikni uyg‘unlashtiruvchi tizimdir. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish hamda ekologik xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olishni talab etadi.

Buxgalteriya hisobi va byudjetlashtirish tizimi yashil iqtisodiyotning amaliy mexanizmlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ishlab chiqarish xarajatlarini ekologik mezonlar asosida hisobga olish korxonalarga nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki ekologik javobgarlikni ham ta’minlash imkonini beradi.

O‘zbekiston ham milliy iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va xalqaro ekologik standartlarga moslashtirish yo‘lida faol islohotlar olib bormoqda. Bu jarayonda ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar hisobi va byudjetlashtirish tizimini “yashil” yondashuv asosida takomillashtirish zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur maqolada ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va byudjetlashtirish tizimiga yashil iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish yo‘llari, xalqaro tajriba hamda milliy amaliyotning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik omillarga asoslangan yondashuv tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi korxonalarning moliyaviy faoliyatida nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik javobgarlikni ham ta'minlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va byudjetlashtirish tizimini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qismda ishlab chiqarish xarajatlarining ekologik tarkibini aniqlash, byudjetlashtirishda "yashil" mezonlarni qo'llash, xalqaro tajribani o'rganish hamda milliy amaliyotni takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yashil hisob yuritish tizimining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va korxona moliyaviy boshqaruvidagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Xarajatkar va byudjetlashtirishga yashil iqtisodiyot bo'yicha quyidagicha qarashimiz mumkin:

1. Xarajatlar hisobi tizimida yashil yondashuv ya'ni an'anaviy buxgalteriya hisobida asosiy e'tibor ishlab chiqarish xarajatlarini moliyaviy nazorat qilishga qaratilgan bo'lib, ekologik omillar ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida xarajatlar hisobi tizimini ekologik mezonlar bilan boyitish zaruriyati ortib bormoqda.

Yashil yondashuvda xarajatlar faqat ishlab chiqarish resurslari sarfi bilan emas, balki atrof-muhitga ta'sir darajasi bilan ham baholanadi. "Ekologik xarajatlar" tushunchasi tarkibiga chiqindilarni qayta ishlash, ifloslanishni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, energiya va suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq mablag'lar kiradi [1].

Bu yondashuv korxonaga nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslarni tejash orqali moliyaviy natijalarni yaxshilash imkonini beradi. 1-jadvalda ishlab chiqarish jarayonida yashil xarajatlar tarkibi va ularni hisobga olish elementlari tizimli tarzda keltirilgan.

1-jadval.
Yashil xarajatlar hisobi elementlari

Xarajat turi	Hisobga olish formasi	Maqsad
Xom-ashyo va material sarfi	MFCA metodika bilan dastlabki xarajatlar	Resurslarni tejash
Energiya va suv sarfi	Energiya monitoringi + xarajatlar analizi	Atrof-muhit yukini kamaytirish
Chiqindi va qayta ishlash xarajatlari	Alohida hisob-kitoblar va byudjet satrlari	Chiqindilarni kamaytirish
Ekologik soliqlar va jarimalar	Buxgalteriya uyushmasida alohida obyekt	Ekologik mas'uliyatni oshirish

2. Byudjetlashtirishda "yashil" mezonlar joriy etilishi bu esa hozirgi kunda byudjetlashtirish jarayonini ekologik mezonlar bilan uyg'unlashtirish davlat moliyasini boshqarishda muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. "Yashil byudjetlashtirish" (Green Budgeting) konsepsiyasi mamlakat iqtisodiy siyosatida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish hamda ekologik loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga xizmat qiladi [2;3].

Bu yondashuvda byudjetni shakllantirish, ijro etish va monitoring jarayonlariga ekologik mezonlar kiritiladi. Masalan, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalaridagi xarajatlar ekologik baholashdan o'tkaziladi. Natijada moliyaviy

resurslar “yashil iqtisodiyot” loyihalariga yo‘naltiriladi, bu esa uglerod izini kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi [4].

Quyidagi 2-jadvalda byudjet jarayonining bosqichlari bo‘yicha “yashil” elementlarni kiritish misollari keltirilgan.

2-jadval.
Byudjet jarayonida “yashil” elementlarni kiritish yo‘nalishlari

Byudjet bosqichi	Amalga oshiriladigan “yashil” chora-tadbirlar	Kutilayotgan natija
Rejalashtirish	Ekologik maqsadlarga yo‘naltirilgan xarajat moddalari shakllantiriladi	Resurslarning ekologik samaradorligini oshirish
Moliyalashtirish	Yashil obligatsiyalar va grantlar hisobidan mablag‘ ajratiladi	“Yashil” loyihalar uchun barqaror moliyaviy manbalar yaratiladi
Ijro etish	Ekologik ko‘rsatkichlar asosida xarajatlar tahlil qilinadi	Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish
Monitoring va audit	Yashil byudjet indikatorlari tizimi joriy etiladi	Davlat xarajatlarining ekologik samaradorligini baholash imkoniyati yaratiladi

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, “yashil hisob” va ekologik byudjetlashtirish tamoyillari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda ekologik xarajatlarni hisobga olish tizimi mahsulot tannarxini aniqlashda, chiqindilarni kamaytirishda hamda resurslardan tejamkor foydalanishda ijobiy natijalar bergan [5].

Masalan, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya tajribasida mahsulot dizaynida ekologik yondashuvni qo‘llash ishlab chiqarish jarayonidagi chiqindilarni 25–30 foizgacha kamaytirgan, shu bilan birga, korxonaning umumiy foydasini oshirgan. Bunday tizimda ekologik xarajatlar alohida modda sifatida ajratilib, ular bo‘yicha ichki hisobotlar muntazam yuritiladi [6].

O‘zbekistonda esa ekologik xarajatlarni hisobga olish va “yashil” byudjetlashtirish amaliyoti hali to‘liq shakllanmagan. Bu holat mavjud tizimni takomillashtirish uchun katta salohiyat mavjudligini bildiradi. Mamlakatda ekologik xarajatlarni aniqlash, tasniflash va hisobotlarda aks ettirish mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

Quyidagi jadvalda ayrim mamlakatlarda ekologik byudjetlashtirish amaliyoti solishtirma tarzda keltirilgan.

3-Jadval.
Ayrim davlatlarda ekologik byudjetlashtirish amaliyoti taqqoslanishi

Davlat	Ekologik xarajatlar hisobi shakli	Natijaviy ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston uchun tavsiya
Fransiya	“Green Budget Tagging” tizimi orqali byudjetda ekologik modda belgilanadi	Davlat xarajatlarining 20% “yashil” yo‘nalishga yo‘naltirilgan	Milliy byudjetda ekologik xarajatlarni alohida kodlash
Yaponiya	Ishlab chiqarish dizaynida ekologik indikatorlar hisobga olinadi	Chiqindilar 30% gacha kamaygan	Korxonalarda ekologik audit tizimini kuchaytirish
O‘zbekiston	Ekologik xarajatlar alohida modda sifatida yuritilmaydi	Monitoring tizimi zaif	Milliy buxgalteriya standartlariga ekologik xarajatlar hisobi bo‘yicha bo‘lim kiritish

O‘zbekiston sharoitida ekologik xarajatlarni hisobga olishni milliy buxgalteriya standartlariga integratsiya qilish, ularni xalqaro amaliyotga mos tarzda shakllantirish

zarur. Bu yondashuv korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan buxgalteriya hisobi va byudjetlashtirish tizimi korxonalarning iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish xarajatlarini ekologik mezonlar asosida hisobga olish korxona faoliyatining samaradorligini oshiradi, chiqindilarni kamaytiradi va resurslardan foydalanishni optimallashtiradi.

Yashil hisob yuritish tizimi nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki moliyaviy natijalarni yaxshilashga ham xizmat qiladi. Chunki ekologik xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish korxonalarga energiya, xomashyo va suv resurslarini tejash imkonini beradi. Shu bilan birga, "green budgeting" tamoyillarini joriy etish davlat va korporativ darajada ekologik investitsiyalar hajmini oshiradi, bu esa barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida bu tizimni takomillashtirish uchun milliy buxgalteriya standartlariga ekologik xarajatlar hisobi va ekologik hisobot shakllarini kiritish, raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish hamda korxonalar miqyosida ekologik audit mexanizmini mustahkamlash zarur.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini buxgalteriya amaliyotiga joriy etish orqali iqtisodiy faoliyatda moliyaviy shaffoflik, ekologik javobgarlik va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'ladi. Shu tariqa, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va byudjetlashtirish tizimi nafaqat iqtisodiy boshqaruv vositasi, balki ekologik taraqqiyotning strategik poydevoriga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Efuntade, Alani Olusegun, va Olubunmi Omotayo. "Green Cost Accounting, Environmental Economics and Auditing: Efficient and Effective Utilisation of Natural Resources via Corporate Sustainability and Responsibility Approach." *Journal of Accounting and Financial Management* 9, no. 5 (2023): 104-119.
2. Liao, K. "Implications for Cost Management Analysis of New Green Building Materials in Low-Carbon Economies." *SCIEXPLOR* (2024).
3. Tu, J.C. "Analysis on the Relationship between Green Accounting Guidelines and Product Redesign." *Sustainability 7*, no. 5 (2015): 626-642.
4. "Green Budgeting: Towards Common Principles." Organisation for Economic Co-operation and Development / European Commission (2021).
5. Orecchia, Carlo, va Paolo Di Caro. "Green Budgeting and the Evaluation of Mitigation Policies in Italy." *Law Review* (2023).
6. "Implementation of Green Accounting to Concern for the Environment." *JIMEK* (2023).

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

MAMLAKAT ELEKTRONIKA VA ELEKTROTEXNIKA SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH

Muallif: Jo‘rayev Dilmurod Alisherovich [1]
Affiliyatsiya: Toshkent Davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17563642

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda O‘zbekiston elektronika va elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda ishlab chiqarish zanjirlarining samaradorligini oshirish, raqamlashtirish va avtomatlashtirish asosida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan mexanizmlar tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda elektronika sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, sun’iy intellekt va IoT (Internet of Things) texnologiyalarini joriy etish orqali korxonalar raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Tahlil natijalari asosida ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishning texnologik, tashkiliy va moliyaviy yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ishlab chiqarish jarayoni, optimallashtirish, elektronika sanoati, elektrotexnika, raqamlashtirish, IoT, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, samaradorlik, energiya tejamkorlik.

KIRISH

Bugungi kunda elektronika va elektrotexnika sanoati mamlakat iqtisodiyotining yuqori texnologik segmentlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu soha ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida — dizayn, komponentlar yig‘ilishi, sinov va xizmat ko‘rsatish tizimlarida — ilg‘or raqamli yechimlarni talab etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ushbu tarmoqning o‘sishi, bir tomondan, energetik xavfsizlik va sanoat modernizatsiyasi bilan, ikkinchi tomondan, global texnologik raqobatning kuchayishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish bugungi kunda nafaqat samaradorlikni oshirish vositasi, balki korxonalar uchun strategik omil sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishning raqamli transformatsiyasi, logistika tizimlarini integratsiyalash va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalarini joriy etish natijasida mahsulot tannarxi 15–25% gacha kamayadi, energiya sarfi esa 10–12% gacha qisqaradi. Shu sababli, elektronika sanoati korxonalari uchun ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish innovatsion boshqaruvning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

ASOSIY QISM

Elektronika va elektrotexnika sanoati zamonaviy iqtisodiyotning yuqori texnologik asosini tashkil etadi. Ushbu sohada ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish — energiya tejamkorlik, resurslardan oqilona foydalanish, tannarxni pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish orqali korxonalarning raqobatbardoshligini

kuchaytirishning eng samarali yo‘lidir. Bunday optimallashtirish jarayoni texnologik, tashkiliy va moliyaviy omillar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni talab etadi [1].

Texnologik optimallashtirish yo‘nalishlari.

Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarida raqamlashtirish va avtomatlashtirish asosiy drayverlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, “Artel Electronics Group” korxonasida ishlab chiqarish liniyalariga IoT texnologiyasi joriy etilgan bo‘lib, real vaqt rejimida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish imkonini beradi. Bu tizim yordamida mahsulotlar oqimi, energiya sarfi va nosozliklar avtomatik tarzda qayd etiladi, bu esa ishlab chiqarishning to‘xtash holatlarini 20–25% gacha kamaytirishga imkon bergan [2].

Bundan tashqari, “O‘zKabel” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarish liniyalarida Germaniya va Italiya texnologiyalari asosida yaratilgan PLC boshqaruv tizimlari joriy etildi. Natijada mehnat unumdorligi 1,6 baravar oshdi, energiya sarfi esa 11% ga qisqardi. “Techno Cable Group” esa robotlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalarini joriy etib, mahsulot sifatida aniqlangan nosozliklar sonini 12% gacha kamaytirgan.

Bunday yondashuvlar ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi, “inson omili”ni kamaytiradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish liniyalarida raqamli egizaklar (digital twins) texnologiyasini joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini raqamli muhitda modellashtirish imkonini yaratish mumkin [3].

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Elektrotexnika korxonalarida ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi faqat texnologik yangilanishlar bilan emas, balki boshqaruv tizimini optimallashtirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. “Lean Manufacturing” (tejamkor ishlab chiqarish) tamoyillarini joriy etish orqali korxonalar ishlab chiqarish zanjirlaridagi ortiqcha xarajatlarni qisqartirishi va jarayonni standartlashtirishi mumkin.

Masalan, “O‘zelektroapparat–Electroshield” korxonasida ishlab chiqarish bosqichlarida “5S” tizimi (Sort, Set in order, Shine, Standardize, Sustain) joriy qilingan bo‘lib, bu ishlab chiqarish jarayonining shaffofligini oshirishga va resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Boshqaruvning yangi yondashuvlaridan biri bu — ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini joriy etishdir. ERP tizimlari ishlab chiqarish, logistika, moliya va kadrlar jarayonlarini yagona axborot bazasiga birlashtiradi. Natijada real vaqt rejimida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini kuzatish, buyurtmalarni muvofiqlashtirish va zahiralarni boshqarish osonlashadi.

O‘zbekiston elektrotexnika korxonalarida 2024-yilga kelib ERP tizimlari qamrovi 68% ni tashkil etgani kuzatilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotiga ko‘ra) [4]. Bu ko‘rsatkich 2020-yildagiga nisbatan qariyb ikki barobar o‘sishni anglatadi.

1. Ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi o‘xshash bo‘lishi;
2. Savdo va investitsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning yuqoriligi;
3. Siyosiy tizimlarning barqarorligi va muvofiqligi;
4. Madaniy va tarixiy yaqinlik;
5. Geografik yaqinlik va transport imkoniyatlari.

Integratsiya jarayonining iqtisodiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- bozor hajmining kengayishi;
- ishlab chiqarish samaradorligining oshishi;
- sarmoyalar oqimining ko‘payishi;
- bandlik darajasining o‘sishi;
- “masshtab effekti” tufayli xarajatlarning kamayishi.

Biroq, integratsiya ham ayrim xarajatlarni keltirib chiqaradi – masalan, bojxona daromadlarining qisqarishi yoki raqobatbardoshlikning vaqtincha pasayishi. Ammo uzoq muddatda bu salbiy omillar iqtisodiy o‘sish bilan qoplanadi.[2]

Bugungi kunda dunyoda yuzlab integratsion tuzilmalar faoliyat yuritmoqda. Jahon savdo tashkiloti (JST) ma’lumotlariga ko‘ra, 2005-yilgacha 300 dan ortiq mintaqaviy bitimlar ro‘yxatga olingan, ularning aksariyati – erkin savdo zonalari shaklida.

Ular orasida uchta asosiy integratsion markaz ajralib turadi:

1. Yevropa Ittifoqi (EI)
2. Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi (NAFTA)
3. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (ASEAN, APEC)

Yevropa Ittifoqi integratsiyaning eng rivojlangan modeli hisoblanadi. 1951-yilda 6 ta davlat tomonidan Yevropa Ko‘mir va Po‘lat Hamjamiyati asos solingan bo‘lib, keyinchalik 1957-yilda Rim shartnomasi orqali Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EEH) tashkil etildi. 1993-yilda esa Maastrix shartnomasi qabul qilinib, u Yevropa Ittifoqining huquqiy asosiga aylandi.[3]

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi:

- yagona valyuta – yevroni joriy etgan;
- yagona bozor va yagona bojxona tizimiga ega;
- ijtimoiy, agrar, transport, energetika siyosatida yagona yo‘nalishga amal qiladi.

XI asrda integratsiya jarayonlari mintaqaviy doiradan chiqib, global miqyosda amalga oshmoqda. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

- Osiyo va Tinch okeani hamkorlik tashkiloti (APEC)
- Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN)
- Evroosiyo iqtisodiy ittifoqi (EAEU)
- Afrika qit’asi erkin savdo zonasi (AfCFTA) [4]

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Bu tuzilmalar jahon savdo hajmining 80 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. Integratsiya hozirda nafaqat savdo va investitsiya, balki innovatsion, ekologik va raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlarida ham chuqurlashmoqda.

Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillari zamonaviy integratsiya siyosatining markaziga aylanmoqda.

XULOSA

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – bu milliy iqtisodiyotlarning birlashuvi va yagona iqtisodiy makonning shakllanish jarayonidir. U globalizatsiyaning chuqurlashgan shakli bo‘lib, mamlakatlarga bozor hajmini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va investitsion muhitni yaxshilash imkonini beradi. [5]

Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, integratsiya bosqichma-bosqich amalga oshirilganda, u nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi. Bugungi kunda integratsiya jarayonlari global miqyosda davom etmoqda va yangi shakllarda – raqamli va yashil iqtisodiyot asosida rivojlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Balassa, B. (2013). The theory of economic integration (routledge revivals). Routledge.
2. Engman, M. (2005). The economic impact of trade facilitation.
3. EI bilan tanishing // https://european-union.europa.eu/principles-countries-history/history-eu_en
4. Нигманов, А. У. (2020). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YONALISHLARI. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, *1*(2).
5. Krugman P., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. New York: Addison-Wesley, 2018

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

MILLIY IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH VA XALQARO INTEGRATSIYANI CHUQURLASHTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING TUTGAN O‘RNI

Muallif: O‘razaliyev Javlonbek O‘rinboyevich [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi, Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564071

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ularning xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishdagi o‘rni tahlil etilgan. Muallif tomonidan xorijiy sarmoyalarni jalb etish mexanizmlari, investitsion muhitni yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXI) roli ilmiy asosda yoritilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, investitsion siyosatni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, milliy iqtisodiyot, modernizatsiya, xalqaro integratsiya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish.

KIRISH

Globallashuv sharoitida har bir mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish darajasi xorijiy investitsiyalar hajmi hamda ularning samaradorligiga bevosita bog‘liq. Xorijiy sarmoya nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg‘or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro mehnat taqsimotiga qo‘shilish imkonini ham beradi. Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategik ahamiyat kasb etadi [1].

Milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi — bu ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasini yangilash, yangi innovatsion yo‘nalishlarni joriy etish, xalqaro iqtisodiy integratsiya tizimida faol ishtirok etish orqali ichki va tashqi bozorlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash jarayonidir [2]. Shu nuqtai nazardan, xorijiy investitsiyalarni samarali boshqarish iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ASOSIY QISM

Albatta, xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati benihoya ulkandir. Xususan, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotga bir nechta asosiy yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi [3]:

- kapital resurslarini kengaytirish orqali ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi;
- zamonaviy texnologiyalarni transfer qilish orqali innovatsion o‘sishni ta’minlaydi;

- ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi;
- eksport salohiyatini oshiradi va to‘lov balansini yaxshilaydi;
- raqobat muhitini kuchaytiradi, bu esa samarali boshqaruv va sifatni oshirishga olib keladi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, sanoat, energetika, axborot texnologiyalari va qishloq xo‘jaligi sohalarida iqtisodiy faollikni sezilarli darajada oshirgan.

Xorijiy investitsiyalar nafaqat milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda , balki, xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xalqaro integratsiya mamlakatning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlash bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Xorijiy sarmoyadorlarning ishtiroki orqali:

- ✓ eksport-import balansida barqarorlikka erishiladi;
- ✓ xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga qo‘shilish imkoniyati yaratiladi;
- ✓ mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik mustahkamlanadi;
- ✓ transmilliy kompaniyalar bilan strategik sheriklik yo‘lga qo‘yiladi [4].

Bu jarayonlar natijasida mamlakat iqtisodiyoti xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashadi, texnologik yangilanishlar joriy etiladi va milliy ishlab chiqarish raqobatbardoshligi ortadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Zamon talabi o‘laroq, O‘zbekiston tajribasida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning dolzarb yo‘nalishlari sirasiga nimalarni kiritish mumkin?

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan bir qator huquqiy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:

- ➢ “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi (2020-yil);
- ➢ maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) va erkin industrial zonalarning tashkil etilishi;
- ➢ soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari va soddalashtirilgan ruxsatnoma tizimi joriy etilishi;
- ➢ xalqaro moliya institutlari bilan strategik hamkorlikning kengayishi.

Natijada, mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2024-yilda 27.7 milliard AQSh dollaridan oshdi [5]. Eng yirik sarmoyadorlar qatorida Xitoy, Rossiya, Turkiya va Germaniya davlatlari ajralib turadi.

Biroq, hali bu natijalar ildam qadamlar bilan odimlayotgan Yangi O‘zbekiston uchun albatta yetarli emas. Oldimizda xorijiy investitsiyalarni boshqarishda dolzarb muammolar turganini bir zumga ham unitib bo‘lmaydi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali boshqarish yo‘lida bir qator muammolar:

1) investitsion infratuzilmaning ba’zi hududlarda rivojlanmaganligi;
2) huquqiy kafolatlarning yetarli darajada barqaror emasligi;
3) malakali kadrlar yetishmasligi;
4) transport-logistika tizimidagi cheklovlar;
5) ayrim sohalarda byurokratik to‘siqlarning saqlanib qolganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun davlatning investitsion siyosatini yanada erkinlashtirish, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish, hududiy investitsiya markazlarini tashkil etish zarur.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Ular orqali mamlakat iqtisodiyotiga zamonaviy texnologiyalar, yangi boshqaruv uslublari, innovatsion g‘oyalar kirib keladi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelgusida xorijiy investitsiyalarni hududlar kesimida diversifikatsiya qilish, innovatsion startaplar va yashil iqtisodiyot loyihalariga yo‘naltirish orqali O‘zbekiston xalqaro iqtisodiy tizimda o‘z o‘rnini yanada mustahkamlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2024.
2. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yil 25-dekabr.
3. L.N.Xalikova va b. (2025). Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotga ta’siri. “Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya” jurnali, 4(10), 204–210.
4. M.A.Yakubova. Iqtisodiy siyosatga kirish, Toshkent.: “Tibbiyot nashriyoti” matbaa uyi, 2022, 27-30 bet.
5. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63852-khorizhij-investitsiyalar-azhmida-ajsi-davlatning-ulushi-yu-ori-2
6. Jahon banki ma’lumotlari (World Bank Data, 2024).
7. O’razaliyev, J. (2024). SUG'URTA KOMPANIYALARINING IQTISODIYOTDAGI PUL OQIMLARI HARAKATIGA TA’SIRI. *Наука и инновация*, *2*(25), 29-33.
8. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari, 2024-yil.
9. Karimov A., “O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar roli”, Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2023-yil, №2.
10. OECD (2023). Foreign Direct Investment Statistics Yearbook.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

AUDITORLARNING PROFESSIONAL FIKRI VA MULOHAZALARINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Muallif: Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich [1]
Affiliyatsiya: Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564097

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada auditorlarning professional fikr va mulohazalarining shakllanishiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar tizimli ravishda tahlil qilingan. Auditorlik faoliyatida qaror qabul qilish jarayoni ko‘p omilli bo‘lib, normativ-huquqiy muhit, buyurtmachi bosimi, audit bozoridagi raqobat, regulyatorlarning faolligi, sud-huquq amaliyoti hamda iqtisodiy barqarorlik kabi tashqi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: auditorlik faoliyati, professional mulohaza, tashqi omillar, ichki omillar, normativ-huquqiy muhit, mustaqillik, raqobat muhiti, buyurtmachi bosimi, institutsional omillar.

Auditorlik faoliyatida professional mulohazani shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, bunda tashqi muhit omillari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, auditorning qaror qabul qilishida ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omillar sifatida normativ-huquqiy muhit, buyurtmachi bilan aloqalar, audit xizmatlari bozori holati, raqobat darajasi, tartibga soluvchi institutlar faolligi, sud-huquq amaliyoti va iqtisodiy barqarorlik darajasi alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bu omillar auditorning erkin va mustaqil mulohaza yuritishiga imkon yaratishi yoki aksincha, bosim ostida qolgan qarorlarni qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Auditorlarning professional mulohazasini shakllantirishda tashqi va ichki omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular integrallashgan holda ta’sir ko‘rsatadi. Har bir omil mustaqil holda auditorning fikriga ta’sir qilishi mumkin bo‘lsa-da, aynan ularning o‘zaro munosabati va kombinatsiyasi auditorlik xulosalarining sifatini, asoslanganligini va ob’yektivligini aniqlab beradi. Bunday integratsiya psixologik, institutsional va metodik jihatlarning kesishgan nuqtasida yuz beradi va bu jarayonlar auditorlik qarorlarini shakllantirishda aniqlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, Prasad Pranil o‘z tadqiqotida quyidagicha ta’kidlaydi: “Agar auditorlar faoliyat yuritayotgan muhitda standartlar tez-tez o‘zgarib tursa yoki ular yetarlicha tushuntirilmasa, ular o‘z professional mulohazalarini shakllantirishda ikkilanib qoladilar va ko‘pincha an’anaviy, xavfsiz yo‘lni tanlaydilar”. Bu holat O‘zbekiston amaliyotiga ham taalluqli bo‘lib, yangi standartlarning joriy qilinishi va ularni to‘liq tushuntirishdagi uzilishlar auditorlar mulohazasida noaniqlik keltirib chiqarishi mumkin.

Tashqi omillarning muhim bir qatlami - buyurtmachining auditorga ko‘rsatadigan bevosita yoki bilvosita ta’siri hisoblanadi. Ayrim holatlarda bu bosim auditorni xolis qaror qabul qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Batul Hasan bu haqda shunday deydi: “Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda mijozlar auditorlarga ijobiy xulosa olish maqsadida jiddiy bosim o‘tkazadilar, bu esa ularning mustaqilligini

xavf ostiga qo‘yadi va mulohazalarni noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi”. Bu O‘zbekistonda ham mavjud muammo bo‘lib, buyurtmachi bilan moliyaviy manfaatlar to‘qnashuvi auditorlik xulosasining aniqligini pasaytiradi.

Shuningdek, McGillis S. o‘zining xalqaro taqqoslov tadqiqotida madaniy va institutsional omillarni auditorlik mulohazasiga ta’sir etuvchi muhim tashqi komponent sifatida ko‘rsatadi: “Masalan, Braziliya kabi yuqori iyerarxiyaga asoslangan jamiyatlarda auditorlar ko‘pincha mijoz kutgan qarorga yaqin mulohaza bildiradi, Kanada kabi tenglikka asoslangan muhitlarda esa auditorlar professional shubhani qat’iy saqlab qoladi”. Bu fikr madaniyat va boshqaruv strukturalari orqali shakllanadigan tashqi ta’sirlar auditorlik fikrining erkinligini belgilab berishini ko‘rsatadi.

Tashqi omillardan yana biri - audit xizmatlari bozorida raqobat muhitining mavjudligi yoki yo‘qligi bilan bog‘liq. Agar bozorda bir necha kuchli audit tashkiloti bo‘lsa, mijozlar sifatli xizmatni tanlashga harakat qiladi va bu holat auditorni mustaqil fikr yuritishga rag‘batlantiradi. Aksincha, bozor tor, monopolistik yoki rasmiyatchilik ustuvor bo‘lgan holatlarda, auditorlar mulohazasi ko‘pincha shablon asosida va asoslanmagan bo‘ladi.

A.R.Gubaydullina bu haqda quyidagicha fikr bildiradi: “Professional mulohaza faqat auditor tashqi bosimdan himoyalangan va sifat nazorati hamda regulyatsiya tizimi mustaqil va uzluksiz ishlayotgan sharoitdagina ishonchli bo‘lishi mumkin”. Prasad Pranil ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlab, shunday deydi: “Auditorlik tashkilotlarining regulyatorlar oldida javobgarligi oshgan sari, ularning professional mulohazasi ko‘proq standartlarga asoslangan va ehtiyotkor bo‘ladi”.

Auditorning professional mulohaza yuritish qobiliyati faqat tashqi me’yoriy muhit va auditning institutsional kontekstiga bog‘liq emas, balki bevosita uning individual fazilatlari va ichki psixologik-axloqiy tayyorgarligiga ham chambarchas bog‘liqdir. Bu ichki omillar auditorning o‘z kasbiy faoliyatiga munosabati, axloqiy qadriyatlari, bilim va tajribasi, analitik fikrlash darajasi, stressga bardoshliligi, qaror qabul qilishdagi mustaqilligi kabi ko‘plab xususiyatlar bilan belgilanadi. Bunday omillarni chuqur o‘rganish auditor mulohazasining sifati va aniqligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.


Quyida auditorlarning professional mulohazasiga ta’sir qiluvchi tashqi va ichki omillar integratsiyasining murakkab tizimi sxematik ko‘rinishda keltirilgan. Sxemada har bir bosqichning o‘zaro bog‘liqligi, turtki (drayver), cheklov (limitator) va kuchaytiruvchi (katalizator) funksiyalari aniqlashtirilgan.

Biroq, hali bu natijalar ildam qadamlar bilan odimlayotgan Yangi O‘zbekiston uchun albatta yetarli emas. Oldimizda xorijiy investitsiyalarni boshqarishda dolzarb muammolar turganini bir zumga ham unitib bo‘lmaydi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali boshqarish yo‘lida bir qator muammolar:

1) investitsion infratuzilmaning ba’zi hududlarda rivojlanmaganligi;
2) huquqiy kafolatlarning yetarli darajada barqaror emasligi;
3) malakali kadrlar yetishmasligi;
4) transport-logistika tizimidagi cheklovlar;
5) ayrim sohalarda byurokratik to‘siqlarning saqlanib qolganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun davlatning investitsion siyosatini yanada erkinlashtirish, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish, hududiy investitsiya markazlarini tashkil etish zarur.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY



1-rasm. Auditor professional mulohazasiga ta'sir qiluvchi omillar integratsion modeli

Ushbu modeldan ko'rinib turibdiki, auditorlik qarorlari hech qachon yakka omil asosida shakllanmaydi. Har qanday tashqi omil auditorning ichki resurslari orqali qayta ishlanadi va bu qayta ishlash jarayonida shaxsiy axloq, bilim va psixologik barqarorlik muhim o'rin tutadi. Tashqi bosim kuchli bo'lishi mumkin, ammo kuchli ichki tamoyillar mavjud bo'lmasa, professional mulohaza sifatsiz va asossiz bo'ladi. Shuning uchun ham, O'zbekistonda auditorlarning ichki salohiyatini oshirish bilan birga, tashqi me'yoriy va institutsional muhitni yanada sog'lomlashtirish zarur. Faqat ana shu holatdagina professional mulohaza integratsiyalashgan, muvozanatli va ishonchli shaklga ega bo'ladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. McGillis S. Auditor professional skepticism–a cross-cultural study in the global International Financial Reporting Standards environment: the case of Canada and Brazil: дис. – 2020.
2. Батул Тауфике Хасан. Внешние и внутренние факторы, влияющие на профессиональные суждения аудиторов: дис. ... д-ра философии / Батул Тауфике Хасан. – Сидней: Macquarie University, 2021. – 248 с.
3. Бхиде А. Требуются ответственные суждения//Harvard Business Review. - 2010. - С.46-57.
4. Генералова Н.В. Профессиональное суждение и его применение при формировании отчетности, составленной по МСФО//Бухгалтерский учет. - 2005. - №23. - С.54-61.
5. Губайдуллина А.Р. Профессиональное суждение бухгалтера как инструмент формирования бухгалтерской (финансовой) отчетности: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.12 / А.Р. Губайдуллина. – Казань, 2014. – 176 с.
6. Панкова С.В., Саталкина Е.В. Профессиональное суждение бухгалтера и аудитора: сходства и различия//Международный бухгалтерский учет. 2011. №21 (171). - С.10-15.
7. Прасад Пранил. Влияние изменений в аудиторском регулировании и стандартах на суждения и принятие решений аудиторами: дис. ... д-ра философии / Прасад Пранил. – Сидней: Macquarie University, 2017. – 249 с.
8. Справочник по внешнему и внутреннему аудиту хозяйствующих субъектов на территории Республики Узбекистан. - Т.: Норма. 2007. - 84 с.

9. Туякова З.С., Саталкина Е.В. Классификация профессионального суждения как современного инструментария бухгалтерского учета//Вестник ОГУ. - 2010. - №1(107). - С.90-97.

10. Шапошников А.А. Профессиональное суждение и его роль в аудите//А.А.Шапошников, Т.В.Синицына//Аудиторские ведомости. -2006. - №4. - С. 4-7.

YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI TAHLIL QILISH: EMPIRIK TAHLIL

Mualliflar: Qutbiddinova Solihabonu Sirojiddin qizi [1], Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o’g’li [2]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Iqtisosiyot va pedagogika fakulteti Turizm yo’nalishi talabasi [1], Xalqaro Nordik universiteti Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasi o’qituvchisi [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564135

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda O’zbekiston iqtisodiyotining o’sishiga ta’sir ko’rsatuvchi turli makroiqtisodiy ko’rsatkichlar hamda ularning Yalpi ichki mahsulot (YaIM) bilan o’zaro bog’liqligi o’rganilgan. Empirik tahlil davomida asosiy omillar sifatida to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar (FDI), qurilish ishlari hajmi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, qishloq xo’jaligi mahsulotlari umumiy hajmi, tug’ilishlar soni, aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromadlar va transport xizmatlari hajmi kabi ko’rsatkichlarning YaIM dinamikasiga ta’siri aniqlanib, ularning iqtisodiy o’sishdagi o’rni miqdoriy jihatdan baholangan. Statistik va ekonometrik uslublar asosida o’zgaruvchilar o’rtasidagi korrelyatsiya kuchi hamda yo’nalishi tahlil qilinib, har bir omilning iqtisodiy o’sishga qo’shgan hissasi aniqlangan. Tadqiqot natijalari siyosat ishlab chiquvchilar uchun barqaror iqtisodiy rivojlanish va YaIMning izchil o’sishini ta’minlash bo’yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Yalpi ichki mahsulot (YaIM), iqtisodiy o’sish, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar (FDI), qurilish ishlari hajmi, sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo’jaligi mahsulotlari hajmi, tug’ilish darajasi, aholi daromadlari, transport xizmatlari, empirik tahlil.

KIRISH

Global iqtisodiy transformatsiya sharoitida Yalpi ichki mahsulot (YaIM) dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur anglash barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. YaIM mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati, ishlab chiqarish samaradorligi va makroiqtisodiy barqarorligini aks ettiruvchi eng kompleks ko’rsatkichlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda tub tuzilmaviy islohotlar va iqtisodiy diversifikatsiya jarayonini boshdan kechirayotgan O’zbekiston misolida, YaIM o’sishiga ta’sir etuvchi determinantlarni tahlil qilish asosli iqtisodiy siyosat va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirish uchun zarur bo’lgan muhim xulosalarni beradi.

Barqaror iqtisodiy o’sish jarayoniga qaramay, YaIMga eng kuchli ta’sir ko’rsatuvchi aniq omillarni aniqlash masalasi dolzarb bo’lib qolmoqda. Ichki va tashqi omillar — jumladan, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar (FDI), sanoat ishlab chiqarishi, qurilish faoliyati, qishloq xo’jaligi mahsulotlari hajmi, aholi daromadlari hamda demografik ko’rsatkichlar, xususan tug’ilish darajasi — iqtisodiy faoliyatga turli darajada ta’sir ko’rsatadi. Ushbu omillar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni empirik

tahlil qilish ularning miqdoriy ta'sirini baholashga va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy mexanizmlarni chuqurroq anglashga imkon yaratadi.

Shuningdek, ushbu mavzuning dolzarbligini asoslash sifatida bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari chuqur tahlil ostiga olingan. Xususan, N.Adam va A.Alzuman o'zining "Effect of per Capita Income, GDP Growth, FDI, Sectoral Composition, and Domestic Credit on Employment Patterns in GCC Countries: GMM and OLS Approaches" nomli tadqiqotlarida mualliflar jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, YaIM o'sishi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI)ning tarmoq tuzilmasi hamda moliyaviy chuqurlik bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, FDI hajmining ortishi va yuqori daromad darajasi bandlik tuzilmasini sezilarli darajada o'zgartiradi, shuningdek, iqtisodiy o'sishning ish o'rinlariga ta'siri tarmoqlar tarkibiga bog'liqligi aytib o'tilgan. [1] Ushbu maqola tadqiqotimizning mavzusi uchun dolzarb bo'lib, unda FDI, aholi daromadlari va tarmoq ishlab chiqarish hajmining (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va transport) YaIMga ta'sirini baholashda ilg'or ekonometrik yondashuvlar — xususan, dinamik panel tahlil metodlaridan foydalanish bo'yicha foydali metodologik namuna taqdim etadi.

Shuningdek, W.Alaloul o'zining "Assessment of Economic Sustainability in the Construction Sector: Evidence from Three Developed Countries (the USA, China, and the UK)" nomli tadqiqotida 1970–2020-yillar davrini qamrab olgan vaqt qatorlari asosida VECM (Vector Error Correction Model) va prognozlash usullaridan foydalangan holda qurilish sohasi faoliyati va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog'liqliklarni aniqlashgan. [2] Tadqiqot natijalari qurilish sektorining ishlab chiqarish, transport va bandlik bilan kuchli bog'liqliklarga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu ish qurilish hajmining iqtisodiyotda nafaqat to'g'ridan-to'g'ri talab omili sifatida, balki sanoat ishlab chiqarishi, aholi daromadlari va transport xizmatlari orqali bilvosita iqtisodiy o'sish drayveri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Y.Zhang o'zining "The Role of Transport Infrastructure in Economic Growth" nomli tadqiqotida transport infratuzilmasiga (avtomobil yo'llari, temir yo'l tarmoqlari va logistika xizmatlari) kiritilgan investitsiyalarning YaIM o'sishiga ta'siri vaqt kesimida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari transport infratuzilmasi rivojlanishi va mintaqaviy iqtisodiy o'sish o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. [3] Mazkur xulosalar transport xizmatlari hajmini YaIM modellari uchun alohida izohlovchi o'zgaruvchi sifatida kiritish zarurligini tasdiqlaydi, chunki transport tarmog'i sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi (ishlab chiqarishni oshiradi) hamda mehnat harakatchanligi orqali aholi daromadlariga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, A.Suyunov o'zining "Do Foreign Direct Investments and Bank Credits Affect the Unemployment Rate in Uzbekistan?" nomli tadqiqotida O'zbekiston misolida milliy vaqt qatorlari asosida ekonometrik tahlil o'tkazib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), bank kreditlari va mehnat bozori ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rgangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, FDI oqimlari va moliyaviy resurslar iqtisodiy faollik hamda bandlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. [4] Garchi maqola bevosita ishsizlik darajasiga qaratilgan bo'lsa-da, uning O'zbekiston uchun xos empirik natijalari FDI va kredit sharoitlari milliy ishlab chiqarish hajmi hamda aholi daromadlariga qanday uzatilishini yoritib beradi. Shu bois, ushbu tadqiqot O'zbekiston bo'yicha YaIM dinamikasini modellashda FDI,

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

moliyaviy-kredit ko'rsatkichlari va daromad o'zgaruvchilarini kiritish zarurligini asoslab beradi.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy izlanishlardan olingan natijalarga asoslangan holda, o'z tadqiqotimizda O'zbekistonda YaIM dinamikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni empirik tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida FDI, qurilish ishlari hajmi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, jami daromadlar, transport xizmatlari hamda aholi o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar o'rganilib, ularning ta'sir darajasi va yo'nalishi aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'lim tadqiqotimizning asosiy bo'limi bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasida 2010-2024-yillar kesimida tashkil etilgan yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida korrelyatsion tahlil amalga oshiriladi. Ta'sir etuvchi omillar sifatida mamlakatga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, qurilish ishlari hajmi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi, tug'ilishlar soni va yana ko'plab omillar tanlab olingan. (jadval 1)

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Jadval 1

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsuloti hajmiga ta'sir etuvchi omillar [5]

YaIM	Atrof muhitga chiqayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi (tonna)	Muhofaza qilingan hududlar (ming. ga)	FDI	Qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi (mlrd.so'm)	Tug`ilganlar soni (kishi)	Aholi umumiy daromadlari hajmi (mlrd.so'm)	Transport xizmatlari hajmi (mlrd.so'm)
Y	x1	x2	x3	x4	x5	x6	x7	x8	x9
88102.4	729	823.2	104.2	8245.8	38119	30856.7	634810	62631.6	10524.4
115628	788.2	823.2	102.6	9504.8	47587.1	45285.9	622835	85933.5	13571.7
142333	817.6	885.4	110.6	11753.9	57552.5	55750	625106	104263	16498.8
173202	855.2	885.4	111.3	15219.3	70634.8	66435.3	679519	126268	20562
210998	1162.1	885.5	109.8	20060.4	84011.6	81794.3	718036	146392.9	23781
250545	975.1	885.5	109.4	25423.1	97598.2	99604.6	734141	169344.3	26817.3
290213	1008.2	885.5	104.1	29413.9	111869.4	115599.2	726170	197962.4	30617.8
356454	853.5	874.5	119.4	34698	148816	148199.3	715519	249346.3	36217.2
473653	883.7	1545.7	129.9	51129.3	235340.7	187425.6	768520	313655.2	44159.4
594660	952.8	1545.9	138.1	71156.5	322535.8	216283.1	814960	381387.9	54473.5
668038	924.4	1570.6	95.6	88130.3	368740.2	250250.6	841817	431182.4	53662.9
820537	908.7	3457.8	102.9	107492.7	456056.1	303415.5	905211	538450.7	67238.6
995573	873.6	4472.5	100.2	130790.9	553265	345191.7	932217	654993.3	83985.6
1.2e+06	763.2	4310.1	123.4	202819.2	658991.7	405418	961962	756084.2	114553.3
1.5e+06	866.7	5355.6	131.3	263679.2	880198.5	439948	926422	896274.4	146736.3

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan omillar O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida tanlangan. Chunki FDI iqtisodiyotga kapital oqimini ta'minlab, texnologik yangilanish va bandlikni oshiradi; qurilish ishlari hajmi infratuzilma rivoji orqali iqtisodiy faollikni kuchaytiradi; sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi real sektorning asosiy drayverlari bo'lib, ishlab chiqarish hajmi va qo'shilgan qiymatni oshiradi; aholi umumiy daromadlari ichki talabni shakllantiradi; transport xizmatlari hajmi esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bozorga yetkazilishini va iqtisodiy integratsiyani ta'minlaydi. Shu bilan birga, tug'ilishlar soni demografik o'sish orqali mehnat resurslariga ta'sir etadi,

atrof-muhit ko'rsatkichlari va muhofaza qilingan hududlar esa barqaror rivojlanish omillari sifatida iqtisodiy o'sishning ekologik muvozanatini aks ettiradi.

Yuqoridagi tanlab olingan omillar o'rtasida o'tkaziladigan korrelyatsion-regression tahlilni bajarishda "STATA" amaliy dasturidan faol foydalanamiz. Dastavval biz qanday ekonometrik modellardan foydalanishimizni aniqlab olishimiz kerak bo`ladi. Tadqiqotimiz uchun eng optimal model sifatida Liner modelini tanlab oldik.

$$y = a_0 + \sum_{i=1}^{m} (a_i x_i)$$

Bunda a_0 , $a_1$hamda a_n tanlangan parametrlar hisoblanadi.

Korrelyatsion-regression tahlil asosida olingan ekonometrik modellarning ishonchliligini har tomonlama tekshirish va baholash imkoniyati yaratiladi. Korrelyatsion bog'liqlikni aniqlashda foydalaniladigan formula quyidagicha:

$$r_{ij} = \frac{\left(\sum x_i x_j - \sum x_i \times \sum x_j / n\right)}{\sqrt{\left(\sum x_i^2 - \left(\sum x_i\right)^2 / n\right)\left(\sum x_j^2 - \left(\sum x_j\right)^2 / n\right)}}$$

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Regressiya tengamasi sifati yoki bog'lanish modelini xarakterlashda determinatsiya koeffitsientidan foydalaniladi.

$$R^2 = 1 - \frac{D_{qoldiq}}{D(y)} \; yoki \; R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \bar{y})^2} \quad [8]$$

Determinatsiya koeffitsienti 0 va 1 oralig'ida o'zgaradi.

$$0 \leq R^2 \leq 1$$

Fisherning F-mezoniga ko'ra, regressiya tenglamasining statistik ahamiyatliligi tekshiriladi. F qiymatini R^2 determinatsiya koeffitsienti bo'yicha ifodalanishi mumkin:

$$F = \frac{\sum_{i=1}^{n}(\hat{y}_i - \bar{y})^2 / k}{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \hat{y}_i)^2 / (n-k-1)} = \frac{R^2}{1-R^2} * \frac{(n-k-1)}{k} \quad [9]$$

Ekonometrik tahlilda Fisher testi (F-testi) regressiya modelining umumiy ahamiyatliligini baholash uchun muhimdir, chunki u modeldagi barcha mustaqil o'zgaruvchilarning birgalikda bog'liq o'zgaruvchini tushuntirish qobiliyatini sinaydi. Formula bo'yicha, u tushuntirilgan dispersiya (R^2 orqali) va tushuntirilmagan dispersiyani solishtirib, modelning nol gipotezasini (barcha koeffitsientlar nolga teng) rad etish yoki qabul qilish imkonini beradi; agar F-statistika yuqori bo'lsa, model statistik jihatdan ahamiyatli deb topiladi, bu esa noto'g'ri spetsifikatsiya xavfini kamaytiradi va ishonchli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

O'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalari quyidagicha. (jadval 2)

Jadval 2

O’zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hajmiga ta’sir etuvchi omillar o’rtasida o’tkazilgan korrelyatsion tahlil natijasi

	Y	x1	x2	x3	x4	x5	x6	x7	x8	x9
Y	1.0000									
x1	-0.1216	1.0000								
	0.6658									
x2	0.9585	-0.2017	1.0000							
	0.0000	0.4710								
x3	0.3482	-0.0316	0.2281	1.0000						
	0.2034	0.9109	0.4136							
x4	0.9866	-0.1693	0.9486	0.3686	1.0000					
	0.0000	0.5463	0.0000	0.1764						
x5	0.9981	-0.1411	0.9616	0.3414	0.9882	1.0000				
	0.0000	0.6161	0.0000	0.2130	0.0000					
x6	0.9899	-0.0972	0.9397	0.3213	0.9576	0.9831	1.0000			
	0.0000	0.7303	0.0000	0.2429	0.0000	0.0000				
x7	0.9374	0.0407	0.8902	0.2327	0.8830	0.9252	0.9693	1.0000		
	0.0000	0.8856	0.0000	0.4040	0.0000	0.0000	0.0000			
x8	0.9985	-0.1185	0.9600	0.3289	0.9777	0.9950	0.9952	0.9506	1.0000	
	0.0000	0.6739	0.0000	0.2314	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000		
x9	0.9918	-0,1284	0.9474	0.4122	0.9954	0.9897	0.9684	0.8991	0.9850	1.0000
	0.0000	0.6484	0.0000	0.1269	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000	

Manbaa: STATA amaliy dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu korrelyatsiya matritsasi tahlilida YaIM (Y) bilan sanoat mahsulotlari hajmi (x5, r=0.9981), transport xizmatlari (x9, r=0.9918), aholi daromadlari (x8, r=0.9985), tug’ilganlar soni (x7, r=0.9374) va qishloq xo’jaligi mahsulotlari (x6, r=0.9899) o’rtasida juda kuchli musbat bog’liqlik kuzatiladi, bu iqtisodiy o’sishning asosiy omillari sifatida ushbu ko’rsatkichlarni ta’kidlaydi; qurilish ishlari (x4, r=0.9866) va FDI (x3, r=0.3482) ham ijobiy ta’sir ko’rsatsa-da, FDI nisbatan zaifroq; muhofaza qilingan hududlar (x2, r=0.9585) bilan ham yuqori korrelyatsiya mavjud bo’lib, ekologik muhofaza iqtisodiy rivojlanishga mos kelishi mumkinligini bildiradi; aksincha, ifloslantiruvchi moddalar hajmi (x1) bilan salbiy bog’liqlik (r=-0.1216) kuzatiladi, bu atrof-muhit ifloslanishi YaIM o’sishiga to’sqinlik qilishi yoki teskari sabab-oqibat munosabatlarini ko’rsatadi.

Yuqorida tahlil qilingan natijasidan kelib chiqib, regression tahlil amalga oshiriladi. (rasm 3)

Jadval 3

O’zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hajmiga ta’sir etuvchi omillar o’rtasida o’tkazilgan regression tahlil natijasi

Y	Coef.	Std. Err.	t	P>|t|	[95% Conf.	Interval]
x1	-8.811142	14.66607	-0.60	0.574	-46.51147	28.88919
x2	-1.719564	3.500723	-0.49	0.644	-10.71846	7.279331
x3	-687.6886	204.4672	-3.36	0.020	-1213.288	-162.089
x4	-.8538376	.3495403	-2.44	0.058	-1.752359	.0446843
x5	.8040475	.0979992	8.20	0.000	.5521324	1.055963
x6	.7427941	.2596525	2.86	0.035	.075336	1.410252
x7	.0481871	.0535757	0.90	0.410	-.0895336	.1859078
x8	-.0179369	.2813715	-0.06	0.952	-.7412253	.7053515
x9	4.991467	1.039404	4.80	0.005	2.319595	7.66334
_cons	36780.68	29852.89	1.23	0.273	-39958.62	113520

Manbaa: STATA amaliy dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu regressiya tahlil natijalarida YaIM (Y) modeli statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, sanoat mahsulotlari (x5, coef=0.804, t=8.20, p=0.000) eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatib, 1 mlrd.so'm o'sish YaIMni 0.804 mlrd.so'mga oshirishi mumkin; qishloq xo'jaligi (x6, coef=0.743, t=2.86, p=0.035) va transport xizmatlari (x9, coef=4.991, t=4.80, p=0.005) ham musbat va ahamiyatli; FDI (x3, coef=-687.689, t=-3.36, p=0.020) va qurilish (x4, coef=-0.854, t=-2.44, p=0.058) salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi yoki FDI samarasizligini bildirishi mumkin; ifloslanish (x1), muhofaza hududlari (x2), tug'ilganlar (x7) va daromadlar (x8) ahamiyatsiz (p>0.05), ammo yuqori standart xatolar (masalan, x3 uchun 204.4672) va keng ishonch intervallari multikollinearia muammosini ta'kidlaydi, bu koeffitsientlarni beqaror qilib, Fisher testi orqali modelning umumiy ahamiyatliligiga qaramay, alohida ta'sirlarni ishonchsiz qiladi va VIF hisoblash yoki Ridge regressiyasini talab etadi.

Yuqoridagi regressiya natijalaridan kelib chiqib, p<0.05 shartiga asosan statistik jihatdan ahamiyatli o'zgaruvchilar (x3 - FDI, x5 - sanoat mahsulotlari, x6 - qishloq xo'jaligi mahsulotlari va x9 - transport xizmatlari) saqlanib, iqtisodiy model quyidagicha tuziladi:

$$\boldsymbol{Y = 36780.68 - 687.69 * X3 + 0.804 * X5 + 0.743 * x6 + 4.991 * x9}$$

Ushbu iqtisodiy model YaIM (Y) ni xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (x3), sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi (x5), qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi (x6) va transport xizmatlari (x9) asosida ifodalaydi, bunda doimiy qiymat 36780.68 mlrd.so'mni tashkil etib, bazaviy iqtisodiy darajani bildiradi; FDI (x3) ning salbiy koeffitsienti (-687.69) investitsiyalarning samarasizligi yoki resurslarning noto'g'ri yo'naltirilishini ko'rsatib, har bir birlik FDI o'sishi YaIMni 687.69 mlrd.so'mga kamaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi; aksincha, sanoat ishlab chiqarishi (x5) va qishloq xo'jaligi (x6) mos ravishda 0.804 va 0.743 koeffitsientlari bilan real sektorning o'sishini rag'batlantirsa, transport xizmatlari (x9) eng kuchli musbat ta'sir (4.991) ko'rsatib, logistika va infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishdagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi; model Fisher testi orqali ahamiyatli bo'lib, siyosatchilarga sanoat, qishloq xo'jaligi va transportni rivojlantirishga ustuvorlik berish, FDI samaradorligini oshirishni tavsiya etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korrelyatsiya matritsasi va regressiya natijalari YaIMning sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, transport xizmatlari va aholi daromadlari bilan kuchli musbat bog'liqligini ko'rsatib, bu omillar iqtisodiy o'sishning asosiy

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

harakatlantiruvchi kuchlari ekanligini ta’kidlaydi; shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar va qurilish faoliyatining salbiy ta’siri resurslarning samarasiz taqsimlanishi yoki investitsiyalarning mahalliy iqtisodiyotga mos kelmasligini bildiradi, atrof-muhit ifloslanishi va demografik ko’rsatkichlarning ahamiyatsizligi esa ekologik va ijtimoiy omillarning hozircha cheklangan rolini ochib beradi; ammo o’zgaruvchilar o’rtasidagi yuqori multikollineariya modelning ishonchliligini pasaytirib, koeffitsientlarni beqaror qilishi va Fisher testi natijalariga qaramay, alohida ta’sirlarni aniq baholashni qiyinlashtiradi.

Takliflar:

— Sanoat, qishloq xo’jaligi va transport sektorlarini rivojlantirishga ustuvorlik berib, ularning samaradorligini oshirish.
— Xorijiy investitsiyalarni mahalliy ehtiyojlarga moslashtirib, samaradorligini monitoring qilish.
— Multikollineariya muammosini bartaraf etish uchun o’zgaruvchilarni tanlash yoki qo’shimcha usullarni (masalan, PCA) qo’llash.
— Ekologik muhofaza va demografik omillarni modelga bosqichma-bosqich kiritib, uzoq muddatli ta’sirni o’rganish.

Iqtisodiy siyosatni real sektor va infratuzilmaga yo’naltirib, barqaror o’sishni ta’minlash.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N. Adam and A. Alzuman, «Effect of per capita income, GDP growth, FDI, sectoral composition, and domestic credit on employment patterns in GCC countries: GMM and OLS approaches,» *Economies,* т. 12, № 11, pp. 315-321, 2025.

2. W. Alaloul, «Assessment of economic sustainability in the construction sector: evidence from three developed countries (the USA, China, and the UK),» *Sustainability,* т. 14, № 10, p. 6326., 2022.

3. Y. Zhang и L. Cheng, «The role of transport infrastructure in economic growth: Empirical evidence in the UK,» *Transport Policy,* т. 133, pp. 223-233, 2023.

4. A. Suyunov, «Do foreign direct investments and bank credits affect employment in Uzbekistan?,» *Journal of Economics and Development,* т. 24, № 2, pp. 98-111, 2022.

5. «O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi,» 1, Tashkent, 2025.

6. A. Ishnazarov и H. Sabirov, Ekonometrikada amaliy paketlar, Tashkent: 978-9943-7665-0-1, 2021.

7. K. Sabirov, Ekonometrika II, Tashkent: 978-9943-8049-3-7, 2022.

8. N. Raximov, EKONOMETRIKAGA KIRISH, Tashkent, 2023.

9. D. Toshpo'latov, Ekonometrikadan amaliy mashg'ulotlar, Toshkent: 978-9910-769-67-2, 2024.

XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY TAJRIBA

Mualliflar: Nigmanov Azizbek Ulugbekovich [1], Raximova Zarina Farxodovna [2]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va biznesni boshqarish” kafedrasi dotsenti [1], Xalqaro Nordik universiteti 1-JI-24 Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi talabasi [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564221

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalqaro valyuta tizimining evolyutsion bosqichlari, ularning asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Parij, Genueza, Bretton-Vud va Yamayka valyuta tizimlari misolida valyuta tizimlarining jahon iqtisodiyotidagi roli va ularning iqtisodiy barqarorlik, global savdo va moliyaviy integratsiyaga ta’siri yoritilgan. Zamonaviy dunyo iqtisodiyoti erkin valyuta kurslariga asoslangan bo‘lib, davlatlar global bozor talablariga moslashmoqda.

Kalit so‘zlar: valyuta tizimi, oltin standarti, rezerv valyuta, valyuta kursi, global iqtisodiyot, moliyaviy integratsiya.

KIRISH

Valyuta tizimi – bu valyuta munosabatlarini tashkil etish va tartibga solish shakli bo‘lib, u milliy qonunchilik yoki davlatlararo shartnomalar bilan mustahkamlanadi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va global savdo hajmining o‘sishi fonida valyuta tizimi mamlakatlar iqtisodiyotining barqarorligi va xalqaro moliyaviy aloqalarni samarali boshqarishda muhim vosita hisoblanadi.[1]

Jahon valuta tizimi o‘z rivojida bir necha bosqichlardan o‘tgan. Har bir bosqich tizimning ishlash prinsiplari bilan farqlansa-da, oldingi tizimlardan ma’lum merosni olgan. Mazkur maqolada valyuta tizimining asosiy evolyutsion bosqichlari, ularning xususiyatlari va zamonaviy dunyo iqtisodiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Valyuta tizimining maqsadi milliy va xalqaro moliyaviy operatsiyalarni tartibga solish, pul-kredit siyosatini samarali boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdir. Shu bilan birga, u davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatini, xususan, import va eksport operatsiyalarini muvofiqlashtirish, valyuta kursini nazorat qilish va xalqaro to‘lovlarni amalga oshirishni osonlashtiradi. Valyuta tizimi orqali davlatlar o‘z milliy valyutasining qiymatini mustahkamlash, inflatsiya va deflyatsiya kabi iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Birinchi jahon valuta tizimi Parij valuta tizimi (1867–1920-yillar) bo‘lib, sanoat inqilobi va xalqaro savdoning kengayishi natijasida paydo bo‘lgan. Bu tizim oltin moneta standarti asosida shakllangan bo‘lib, u Parij shahrida valyuta munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha o‘tkazilgan muzokaralardan so‘ng nomlangan.[2]

Asosiy prinsiplari:

- Milliy valyutalarning oltin zaxirasi bilan mustahkamlanishi;
- Oltin global pul sifatida ishlatilgan, barcha to‘lovlarda qabul qilingan;
- Banknotlar markaziy banklar tomonidan erkin oltin zaxirasiga konvertatsiyalangan;
- Valyuta kursi “oltin nuqtalar” doirasida cheklangan;
- Ingliz funti xalqaro muomalada taniqli valyuta sifatida qabul qilingan;
- Milliy oltin zaxirasi va ichki pul taklifi o‘rtasida qat’iy nisbat saqlangan.

Tizim o‘ziga hos muammolarni vujudga keltirdi. Avvalo oltin zaxirasiga qattiq bog‘liqligi sababli iqtisodiy moslashuvchanlikni chekladi; monopolistik kapitalizmning rivojlanishi tizim samaradorligini kamaytirdi; Birinchi jahon urushi davrida oltin standarti deyarli ishlamay qoldi; tizim faqat oltin asosida bo‘lgani uchun xalqaro savdo va moliyaviy operatsiyalarni kompleks hal qila olmadi.

Bu tizim mamlakatlar orasida oltinni erkin harakatlantirish orqali valyuta kurslarining nisbatan barqarorligini ta’minlagan. Biroq XX asr boshida kapitalizmning monopolistik shakllari, AQSh va Fransiya iqtisodiy kuchining o‘sishi Britaniyaning yetakchi pozitsiyalarini susaytirgan. Birinchi jahon urushi davrida oltin standarti deyarli tugagan, banknotlar oltinga konvertatsiya qilinmay qolgan va oltin erkin harakati taqiqlandi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

I – jahon urushdan keyin xalqaro savdo munosabatlarini tiklash zarurati Genueza valyuta tizimini (1922–1930-yillar) yaratishga olib keldi. 1922 yilda Genueza xalqaro iqtisodiy va moliyaviy konferensiyasida kapitalistik davlatlar oltin zaxiralari yetarli emasligi tan olindi. Shu bilan birga, AQSh dollari va ingliz funti xalqaro to‘lov vositasi sifatida tavsiya etildi.

Asosiy xususiyatlari:[3]

- Oltin global pul rolini saqlagan;
- Ayrim valyutalar (dollar va funt) boshqa valyutalar bilan almashilgan, ular esa oltin zaxirasiga tayanadi;
- Milliy banknotlar bevosita oltin bilan emas, balki boshqa valyutalar bilan konvertatsiyalangan;
- Valyuta kurslarining sezilarli o‘zgarishlarini markaziy banklar nazorat qilgan.

Kamchilik sifatida aytishimiz mumkinki, valyuta konvertatsiyasi murakkab va markaziy bank nazorati iqtisodiy moslashuvchanlikni kamaytirgan; 1929–1931 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi tizimni deyarli tugatgan; valyutani devalvatsiya qilish ko‘plab davlatlarni iqtisodiy jihatdan zaiflashtirgan.1929–1931 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Genueza tizimini deyarli tugatdi. Ko‘plab davlatlar valyutani devalvatsiya qildi va oltin standarti bekor qilindi. AQShda 1933 yilda banknotlarni oltinga almashtirish to‘xtatildi va dollar 41% devalvatsiya qilindi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida 1944 yilda Bretton-Vud konferensiyasida yangi tizim qabul qilindi. Bu tizim oltin va ikkita valyutaga (AQSh dollari va ingliz funti) asoslangan Bretton-Vud valuta tizimi (1944–1976-yillar) edi.[4]

Asosiy prinsiplari:

- Oltin global pul funksiyasini saqlagan;
- Rezerv valyutalar: dollar va funt;
- 1 unsiya oltin 35 dollarga teng belgilangan;
- Milliy valyutalarning oltin va dollar pariteti o‘rnatilgan;
- Dollar xalqaro savdoda ustun rol o‘ynagan.

Bu tizim bitta valyutani ustunligini tan olar edi. Dollarni rezerv valyuta sifatida ustun qo‘yish boshqa davlatlar uchun adolatsiz sharoit yaratdi; valyuta kurslarini paritet asosida mustahkamlash global iqtisodiy o‘zgarishlarga tez moslashishni chekladi; 1971 yilda dollar inqirozi tizimning barqarorligini yo‘qotdi; tizim boshqa davlatlar mustaqilligini cheklagan.1971 yilda dollar inqirozi sababli AQSh oltin almashinuvini to‘xtatdi, valyuta kurslari o‘zgaruvchan bo‘ldi va 1970-yillarda Bretton-Vud tizimi tugadi.

1976 yilda Yamayka konferensiyasida va 1978 yilda ratifikatsiya qilingan Yamayka valuta tizimi (1976–hozirgi davr) qabul qilindi.

Asosiy tamoyillari:

- Oltin standarti rasmiy ravishda bekor qilindi;
- Valyutalar erkin savdo asosida shakllangan;
- Rezerv valyutalar: AQSh dollari, nemis marka, ingliz funti, shveytsar franki, yapon iyenasi, fransuz franki;
- Davlatlar valyuta kursi rejimini mustaqil belgilash huquqiga ega.

Yamayka valuta tizimi ham ideal emas, erkin valyuta kurslari tizimi valyutalarning yuqori o‘zgaruvchanligini keltirib chiqaradi; valyuta kurslaridagi tebranishlar iqtisodiy barqarorlikka xavf tug‘diradi; kichik va rivojlanayotgan davlatlar global bozor ta’siriga juda sezgir; rezerv valyutalar ko‘p bo‘lishi va diversifikatsiya qilish zarurati murakkab moliyaviy boshqaruvni talab qiladi. Zamonaviy dunyo iqtisodiyoti erkin valyuta kurslariga asoslangan va davlatlar global bozor talablariga moslashmoqda.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

XULOSA

Xalqaro valyuta tizimi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi va uning evolyutsiyasi jahon iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir valyuta tizimi o‘z davrining iqtisodiy, siyosiy va texnologik sharoitlariga moslashgan bo‘lib, afzalliklari bilan bir qatorda muayyan kamchiliklarga ham ega bo‘lgan. Parij va Genueza valyuta tizimlari oltin standartiga asoslanganligi sababli xalqaro savdo va moliyaviy operatsiyalarda barqarorlikni ta’minlagan, biroq iqtisodiy moslashuvchanlikni cheklagan. Bretton-Vud tizimi esa dollarni asosiy rezerv valyuta sifatida qabul qilgan holda global iqtisodiyotda markaziy o‘rin egallagan, ammo bu tizim boshqa davlatlar iqtisodiy mustaqilligini cheklash kabi kamchiliklarga ega bo‘lgan. Zamonaviy Yamayka valyuta tizimi esa erkin valyuta kurslariga asoslangan bo‘lib, davlatlarga valyuta rejimini mustaqil belgilash imkonini beradi, biroq bu tizim yuqori o‘zgaruvchanlik va global bozor shoklariga sezgirlik kabi yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro valyuta tizimining samarali ishlashi global iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va mamlakatlarning moliyaviy xavfsizligini ta’minlash uchun muhim shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Explore the Cambridge Dictionary // https://dictionary.cambridge.org/us/dictionary/english/monetary-system

2. The Latin Monetary Union Experience (1865–1926): French Views on Monetary Union and Lending of Last Resort in Retrospect // https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1515/jbwg-2022-0015/html

3. The Genova Conference of 1922: A Reassessment after 100 Years // https://www.iei1946.it/article/905/the-genova-conference-of-1922-a-reassessment-after-100-years
4. The Bretton Woods International Monetary System: An Historical Overview // https://www.nber.org/papers/w4033
5. The "Jamaica Agreement," International Monetary Reform, and the Developing Countries // https://www.gsb.stanford.edu/faculty-research/working-papers/jamaica-agreement-international-monetary-reform-developing-countries

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI TAHLILI

Muallif: Sabirov Xasan Nusratovich [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti, Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasi mudiri i.f.f.d.(PhD) dotsenti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564262

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmining mohiyati, uning xalqaro amaliyotdagi samarali qo‘llanilishi hamda O‘zbekiston sanoatini modernizatsiya qilishdagi roli tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlar – Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi – tajribalari asosida DXSh modeli orqali sanoat korxonalarini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari yoritilgan. O‘zbekiston tajribasida DXSh mexanizmlarining kengayishi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga – raqobatbardosh sanoatni yaratish, eksport salohiyatini oshirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish – bilan uzviy bog‘langan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik (DXSh), sanoat korxonalari, investitsiya, innovatsiya, infratuzilma, xususiy sektor, eksport salohiyati, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, iqtisodiy o‘sish.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o‘rinlarini barpo etish masalalari har bir davlatning ustuvor strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat tarmog‘ining barqaror yuksalishi milliy iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu asnoda, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, keng ko‘lamdagi investetsiya kiritish va ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik – ya’ni davlat-xususiy sherikligi (DXS) mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Davlat-xususiy sherikligi mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida, xususan, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, energetika, infratuzilma va sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanilib, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishda tayanch vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu mexanizm orqali davlat o‘z zimmasidagi moliyaviy yukni kamaytirish bilan birga, xususiy sektorning innovatsion yondashuvlarini, ilg‘or texnologiyalarini va boshqaruv tajribasini iqtisodiyotga jalb etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sherikligi asosida tashkil etilgan sanoat zonalari va korxonalari mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda, eksport salohiyatini kengaytirishda hamda texnologik yangilanishni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Masalan, Singapur va Xitoy hamkorligidagi Suzhou Industrial Park, Bolgariyadagi

Trakia Economic Zone, hamda Daniyadagi Kalundborg Eco-Industrial Park kabi loyihalar davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning muvaffaqiyatli namunalari sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston ham jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida faol ishtirok etar ekan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashni o‘zining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Mazkur strategiyada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirishga, jumladan, yangi sanoat zonalari va klasterlar tashkil etishga, ishlab chiqarish infratuzilmasini yangilashga, hamda xususiy sarmoyalarni faol jalb etishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish, sanoat korxonalarini DXSh asosida rivojlantirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ASOSIY QISM

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) iqtisodiyotda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik shakli bo‘lib, resurslar, risklar va foydaning adolatli taqsimlanishini nazarda tutadi. Jahon banki ta’rifiga ko‘ra, DXSh “infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarda davlat va xususiy sektor o‘rtasida risklar va javobgarlikni taqsimlovchi strategik hamkorlik” sifatida e’tirof etiladi [1].

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

DXSh samaradorligini belgilovchi uch asosiy shartni ajratib ko‘rsatadilar[2]:

1. Davlatning aniq strategik maqsadlari mavjudligi;
2. Xususiy sektorning innovatsion salohiyatidan foydalanish;
3. Huquqiy va moliyaviy shaffoflikni ta’minlash.

DXSh asosida davlat byudjeti yukini kamaytirish bilan birga, ishlab chiqarish infratuzilmasiga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, bu model barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi[3].


Xalqaro tajriba esa DXSh mexanizmi sanoatni modernizatsiya qilish, keng investetsiya kiritish va innovatsion rivojlanishda muhim o‘rin tutishini o‘z amaliyotida isbotlab turibdi. Masalan, Janubiy Koreyada “Private Investment Infrastructure Act” doirasida DXSh loyihalari asosida sanoat infratuzilmasi, texnoparklar va eksport klasterlari barpo etilgan. Bu jarayon mamlakatda texnologik rivojlanish va eksport ulushining ortishiga olib kelgan[4].

Turkiya mamlakati tajribasida esa DXSh modeli energetika, transport va farmatsevtika sohalarida keng qo‘llanilgan. Shu orqali mamlakat sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirib, raqobatbardosh eksportchi davlatlar qatoriga kirgan [5].

Xitoyda esa “PPP + Innovation” modeli asosida sanoat zonalariga davlat tomonidan yer va infratuzilma taqdim etilib, xususiy sektor ishlab chiqarish, logistika va texnologik yechimlarni joriy etgan. Bu natijada 2015–2022 yillar oralig‘ida xususiy investitsiyalar hajmini 40 % ga oshirishga olib kelgan[6].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa DXSh modellari raqamli sanoat, qayta tiklanuvchi energiya va yashil texnologiyalar tarmoqlarida keng joriy etilmoqda [7].

Xorijiy amaliyotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki: DXSh modeli samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar mavjudligidir(1-rasm).



1-rasm. DXSh modelining samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar[5]

O‘zbekiston so‘nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini faol rivojlantirmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ–537) ushbu sohada huquqiy asoslarni yaratdi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida esa mamlakat sanoatini “raqobatbardosh, texnologik va eksportga yo‘naltirilgan” tizimga aylantirish maqsadi belgilangan[8]. Strategiyada DXSh mexanizmlarini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda ko‘zda tutilgan:

- yangi sanoat zonalari va klasterlarni barpo etish;
- ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
- yashil texnologiyalarni joriy etish;
- xususiy sarmoyalarni jalb etish va investitsiya muhitini yaxshilash.

Masalan, “Yangi O‘zbekiston sanoat zonalari” dasturi doirasida davlat tomonidan yer, kommunikatsiya va infratuzilma ta’minlanmoqda, xususiy investorlar esa ishlab chiqarish, texnologiya va boshqaruvni olib borishmoqda[9].

Amalga oshirilgan tahlillar shuni ifodaladiki:

1. DXSh modeli O‘zbekiston sanoatini modernizatsiya qilishda samarali mexanizm bo‘lib, u davlatning strategik maqsadlarini xususiy sektor resurslari bilan uyg‘unlashtiradi.
2. Xorij tajriba tahlili esa, DXSh modelidan muvaffaqiyatli foydalanish uchun huquqiy barqarorlik, risklarni adolatli taqsimlash va shaffof monitoring tizimi muhimligi[4,5].
3. O‘zbekistonda DXSh modeli asosida sanoat zonalari, logistika markazlari va texnoparklar barpo etilishi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlariga to‘liq mos keladi[8].

DXSh modeli sanoat korxonalarining energiyatejamkorlik, eksport salohiyati va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Biroq DXSh modelining to‘liq samarasi uchun loyihalarni baholash tizimini va xususiy sarmoyadorlar uchun kafolatlar mexanizmini takomillashtirish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish zarurdir.

DXSh modeli O‘zbekistonda sanoatni raqamlashtirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va innovatsion ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish jarayonlarida strategik ahamiyat kasb etadi[10].

Demak, davlat-xususiy sheriklik asosida sanoat korxonalarini rivojlantirish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlari — ya’ni raqobatbardosh, innovatsion va barqaror sanoat iqtisodiyotini shakllantirish — uchun asosiy drayverlardan biridir. Shu bois, O‘zbekistonda DXSh mexanizmlarini yanada takomillashtirish, huquqiy

asoslarini mustahkamlash va xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish milliy iqtisodiyot barqarorligiga xizmat qiladi.

XULOSA

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda, xususan, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim mexanizm sifatida e’tirof etiladi. Jahon amaliyotida — xususan, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi tajribalarida — DXS modeli orqali infratuzilma va sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga erishilgan.

O‘zbekiston sharoitida esa DXSh mexanizmlarining joriy etilishi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari — raqobatbardosh iqtisodiyot, barqaror sanoat, yashil texnologiyalar va xususiy sarmoyani keng jalb etish — bilan uzviy bog‘liqdir. Natijada, DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar mamlakatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, energiyatejamkor texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy iqtisodiy tenglikni ta’minlash imkonini bermoqda.

Shunday qilib, DXSh modeli O‘zbekistonning sanoat siyosatini modernizatsiya qilish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘lida asosiy drayverlardan biri hisoblanadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. (2017). PPP Knowledge Lab: Public-Private Partnerships Explained.
2. Grimsey, R., & Lewis, M. (2002). Evaluating the Risks of Public Private Partnerships. Elsevier.
3. Spackman, P. (2004). Public Policy and Management Review.
4. Asian Development Bank (ADB). (2018). PPP Infrastructure Projects: Case Studies in the Republic of Korea.
5. OECD. (2020). Public-Private Partnerships in Turkey: Policy Review.
6. IMF Working Paper. (2022). PPP and Infrastructure Investment in China.
7. European Commission. (2021). Green PPP Framework Report.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. www.gov.uz
9. Eurasian Research Institute. (2023). Industrial Policy of Uzbekistan.
10. GreenUniversity.uz. (2024). Uzbekistan 2030 Strategy: A Step towards a Green Future.

KORXONALARNI STABIL RIVOJLANTISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA TADBIQ ETISH YO’LLARI (NAMANGAN VILOYATI) MISOLIDA

Muallif: Sadriddinov Baxtiyor Shamshiddin o’g’li [1]
Affiliyatsiya: Namangan davlat texnika universiteti o’qituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564283

ANNOTATSIYA

Maqolada Namangan viloyatida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan strategik yondashuvlar tahlil qilinadi. Hududiy sanoat tarmoqlarining hozirgi holati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari iqtisodiy, innovatsion va ekologik omillar asosida o‘rganiladi. Shuningdek, viloyatning resurs salohiyatidan samarali foydalanish, investitsion muhitni yaxshilash va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, sanoat siyosati, innovatsiya, hududiy iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, investitsiya, Namangan viloyati.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida hududlarda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda sanoatni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mahalliy xomashyo asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Namangan viloyati iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra mamlakatning yengil va oziq-ovqat sanoati bo‘yicha yetakchi hududlaridan biri hisoblanadi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi 24,3 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu O‘zbekiston umumiy sanoat mahsulotining 5,1 foiziga tengdir 1. Biroq sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi uchun zarur infratuzilma, innovatsion texnologiyalar va ekologik samaradorlik masalalari hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

1. Namangan viloyati sanoat salohiyatining hozirgi holati

Viloyatda 2,5 mingdan ortiq sanoat korxonalari faoliyat yuritadi, ularning 90 foizdan ortig‘i kichik va o‘rta biznes sub’yektlariga to‘g‘ri keladi. Eng yirik tarmoqlar — **to‘qimachilik**, **oziq-ovqat**, **qurilish materiallari**, **kimyo**, hamda **elektr jihozlari ishlab chiqarish** yo‘nalishlaridir.

So‘nggi yillarda “Namangan” va “Kosonsoy” erkin iqtisodiy zonalari hamda “Chortoq” kichik sanoat zonasi faoliyati natijasida 400 dan ortiq yangi sanoat loyihalari amalga oshirilgan. Shunga qaramay, ishlab chiqarish quvvatlarining eskirganligi, mahalliy xomashyo bazasidan to‘liq foydalanilmasligi va kadrlar malakasining yetarli emasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

2. Sanoatni barqaror rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlari

Namangan viloyatida sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish taklif etiladi:

a) Innovatsion modernizatsiya va raqamli transformatsiya.

b) Korxonalarda ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash, “raqamli zavod” (smart factory) konsepsiyasini joriy etish, raqamli nazorat va tahlil tizimlarini (ERP, IoT) keng qo‘llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

b) Hududiy sanoat klasterlarini shakllantirish.

To‘qimachilik va charm-poyabzal tarmoqlarida klaster modelini kengaytirish, bu orqali xomashyo yetkazib berish, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksportni yagona zanjirga birlashtirish zarur. Masalan, “Namangan Textile Cluster” misolida klaster modeli 2023-yilda 150 mln dollarlik mahsulot ishlab chiqargan.

c) Ekologik va energiya samaradorligi.

Barqaror sanoat siyosatining ajralmas qismi sifatida “yashil texnologiyalar”ni tatbiq etish muhimdir. Quyosh energiyasi asosida ishlab chiqaruvchi sexlar sonini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash liniyalarini kengaytirish ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

c) Investitsion muhitni takomillashtirish.

Hududdagi sanoat zonalarida xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari, yer ajratish soddalashtirilgan tartiblari va infratuzilma ta’minotini yaxshilash orqali investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin.

e) Inson kapitalini rivojlantirish.

Sanoatning texnologik yangilanishi ta’lim tizimi bilan uyg‘un kechishi zarur. Namangan muhandislik-texnologiya instituti negizida sanoat korxonalari bilan “dual ta’lim” dasturlarini joriy etish orqali zamonaviy mutaxassislar tayyorlash lozim.

3. Barqaror rivojlanish natijalarining kutilgan iqtisodiy ta’siri

Ushbu strategiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish quyidagi natijalarga olib kelishi kutiladi:

- ishlab chiqarish hajmining 5–7 yil ichida 1,5 barobarga oshishi;
- eksport tarkibida tayyor mahsulot ulushining 60 foizgacha yetishi;
- korxonalarda energiya sarfini 20–25 foizga kamaytirish;
- yangi ish o‘rinlarining 30 mingdan ortig‘ini yaratish.

Bular o‘z navbatida viloyatning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytiradi hamda milliy sanoat tizimining raqobatbardoshligini oshiradi.

1-jadval.

Sanoat korxonalarini barqaror rivojlanish sharoitida strategik boshqaruv

Bo‘lim / Yo‘nalish	Asosiy mazmun	Xalqaro tajriba	O‘zbekiston tajribasi
I. Nazariy asoslar	Barqaror rivojlanish va strategik boshqaruvning printsiplari: iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat	Germaniya va Shvetsariya: yashil texnologiyalar va innovatsion boshqaruv orqali raqobatbardoshlik	Milliy strategiyalar: energiya tejamkorligi, chiqindilarni kamaytirish, milliy “Yashil iqtisodiyot” dasturi
II. Strategik boshqaruv vositalari	Innovatsion menejment, yashil boshqaruv, moliyaviy va operatsion monitoring	Yaponiya va Janubiy Koreya: raqamlashtirish va energiya tejamkorlik orqali barqaror rivojlanish	Toshkent va Samarqanddagi sanoat korxonalari: qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejamkor uskunalar
III. Ta’sirlar	Korxona va milliy iqtisodiyotga ta’siri: iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik	Germaniya va Skandinaviya: milliy va hududiy siyosatlar bilan uyg‘un strategik boshqaruv	O‘zbekiston: “Yashil iqtisodiyot” va sanoat modernizatsiyasi orqali barqaror rivojlanishga yo‘naltirish

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Jadval va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarida strategik boshqaruvning samarali vositalari: innovatsion menejment, yashil boshqaruv va moliyaviy-operatsion monitoring hisoblanadi.

Xalqaro tajriba (Germaniya, Yaponiya, Skandinaviya) korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va milliy iqtisodiyot barqarorligiga hissa qo‘shishda samarali ekanligini ko‘rsatadi[5].

O‘zbekiston tajribasi esa energiya tejamkorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va milliy “Yashil iqtisodiyot” dasturi orqali barqaror rivojlanish strategiyasini tatbiq etayotganini namoyish etadi. Shu asosda, sanoat korxonalari barqaror rivojlanish tamoyillarini strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilsa, ular nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Porter, Michael E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press, 1985.
2. Sachs, Jeffrey D. The Age of Sustainable Development. New York: Columbia University Press, 2015.
3. Elkington, John. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Gabriola Island, BC: New Society Publishers, 1997.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4853-son qarori “Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish to‘g‘risida”, 2020-yil.World Economic Forum. Global Competitiveness Report 2020. Geneva: World Economic Forum, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2024-yil.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

THE ROLE OF THE LIGHT INDUSTRY AS A DRIVER OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT

Author: Sa’dullayeva Sayyora Nasillo qizi [1]
Affiliation: Doctoral student Tashkent State University of Economics [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564305

ABSTRACT

This article analyzes the role of the light industry in the national economy and its importance as a driver of economic growth. The study examines how the increase in the share of industrial products in exports contributes to expanding the country’s export potential, strengthening the national currency, and improving the trade balance. In addition, the share of the light industry in gross domestic product and its significance in the global economy are studied. Based on the findings, conclusions and recommendations for further development of the sector are provided.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Keywords: gross domestic product, light industry, industry, export, textile, trade balance.

INTRODUCTION

In recent years, while systematic reforms aimed at modernizing and diversifying the national economy have been actively implemented, ensuring balanced growth in the industrial sector — an integral part of the economy — has become one of the country’s key priorities. The effective use of scientific achievements and the introduction of innovations in industrial sectors contribute to the technological renewal of the economy and improvement of the competitive environment. In short, the development of industry serves to enhance the population’s living standards and promote overall social progress.

MATERIALS AND METHOD

In the global light industry sector, groups of countries have emerged that act as suppliers of raw materials, manufacturers of finished products, and consumers. In particular, China is the world’s largest exporter of finished textile products, followed by Bangladesh, Vietnam, India, and Turkey. China is the undisputed leader in both textile production (fibers, fabrics, and yarns) and clothing manufacturing, possessing the largest production chain and export capacity. In 2022–2023, China accounted for about 30% of the global apparel export market.[1] According to WTO and UN Comtrade data, Bangladesh has shown significant growth in clothing exports, becoming the world’s second-largest apparel exporter due to its low labor costs. In the consumer market, China remains the main consumer, while the United States represents the largest import market in value terms. WTO and fashion industry statistics also identify the European Union as one of the leading importers with the largest market share. [2]

[1] International Yearbook of Industrial Statistics – edition 2023
[2] WTO - Global value chains sectoral profiles textiles and clothing industry and world trade statistical review – 2023

Cotton and synthetic fibers constitute the main raw materials for light industry. The major suppliers of these raw materials are India, the United States, China, Brazil, and Pakistan. China also leads in the production of synthetic fibers and petrochemical materials such as polyester, making it an indispensable part of the global textile industry.[3]

RESULT AND ANALYSIS

As a result of ongoing reforms, Uzbekistan's industry has evolved from a purely production-oriented sector into a strategic driver of economic growth. The implementation of measures aimed at forming modern industrial infrastructure has led to an increase in the share of industry in the country's gross domestic product (GDP). Therefore, the share of industrial output within the gross domestic product deserves particular attention. (Figure 1)




Figure 1. Dynamics of GDP and Industrial Output Growth in the Republic of Uzbekistan[4]

According to the data presented in **Figure 1**, during the period of **2020–2024**, the shares of GDP and industrial production in the economy of the Republic of Uzbekistan demonstrated steady growth, though with varying intensity. In **2020,** the gross domestic product (GDP) increased by **17.9%**, while industrial output grew by **18.5%**. In **2022–2023**, however, a short-term slowdown in industrial growth was observed (from **121.35%** to **119.2%**), which can be explained by disruptions in global logistics chains and fluctuations in raw material prices.

Nevertheless, the 26–30% share of industry in GDP does not yet indicate full leadership of the sector in the national economy. This suggests that there remains significant potential to further expand the scale and capacity of industrial production. The **economic essence of the light industry** lies in increasing the added value of raw materials — that is, transforming them into high-income products through processing. The development of light industry directly contributes to **increasing**

[3] Food and agriculture organization of the United Nations - www.fao.org
[4] Based on the official website of the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics, under the authorship of the author — Siat.stat.uz.

female employment, especially in the textile and garment sectors, and facilitates the formation of regional industrial clusters (from raw material to finished product).

In the Republic of Uzbekistan, all industrial sectors are grouped into 18 major complex industries.[5] The term *industrial structure* refers to the composition of industries, the proportions among them, and their interrelationships. In particular, the light industry includes, apart from large-scale textile and leather production, branches such as silk production, carpet weaving, embroidery, and the manufacture of consumer goods. Due to the ongoing reforms in the textile and leather sectors, light industry plays a vital role in ensuring employment and increasing export revenues. Currently, around 430,000 people are employed in this sector. Light industry accounts for 14% of total industrial production and 16% of national exports. In the first nine months of 2025, industrial enterprises in Uzbekistan produced goods worth 773.8 trillion soums, which represents a 6.8% increase compared to the same period of the previous year. [6]As of October 1, 2025, there were 57.8 thousand active industrial enterprises in the country. The largest shares by type of economic activity are distributed as follows[7]:

- Food production – 11.5 thousand enterprises (20.0%)
- Other non-metallic mineral products – 8.2 thousand (14.1%)
- Clothing production – 5.8 thousand (9.9%)
- Manufacture of fabricated metal products – 4.7 thousand (8.1%)
- Furniture production – 4.0 thousand (6.9%)
- Textile production – 3.6 thousand (6.2%)

Rubber and plastic products – 2.7 thousand (4.7%)

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

CONCLUSION

From our perspective, light industry remains one of the most important and promising sectors of the economy, still possessing significant potential for diversification. To accelerate the development of the sector, it is advisable to:

- introduce digital technologies into production;
- expand the domestic raw material base;
- strengthen export and branding activities;
- improve vocational training and workforce qualification;
- deepen the cluster system (from raw material to finished product);
- enhance financial and investment support, including tax incentives;
- attract foreign and private investments; and
- promote green bonds as a financing mechanism for environmentally sustainable production.

According to forecasts, by 2027, Uzbekistan's annual textile exports are expected to reach USD 10 billion, strengthening the country's position as a regional textile hub and further boosting the export of finished products. To help achieve these goals and sustain modernization momentum, the United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) has launched the project *"Sustainable Modernization of Uzbekistan's Textile and Garment Industry."* This initiative is expected to benefit local communities by reducing poverty, increasing employment,

[5] O.Abdurahimov – Industry economics 2009 Tashkent
[6] From the speech of the President of the Republic of Uzbekistan on 12 December 2024, "Discussion of results and proposals in the light-industry sector", reported by Uzdaily.uz.
[7] Prepared based on the data of the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics.

and **enhancing economic diversification**, while also **accelerating Uzbekistan's transition to a digital economy.**[8]

REFERENCES

1. International Yearbook of Industrial Statistics – edition 2023
2. WTO - Global value chains sectoral profiles textiles and clothing industry and world trade statistical review – 2023
3. Food and agriculture organization of the United Nations - www.fao.org
4. Official website of the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics— Siat.stat.uz.
5. O.Abdurahimov – Industry economics 2009 Tashkent
6. The speech of the President of the Republic of Uzbekistan on 12 December 2024, "Discussion of results and proposals in the light-industry sector", reported by Uzdaily.uz.
7. The United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) website



[8] Based on data from the United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) website

TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Muallif: Safarov Alisher Ibrohim o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Moliya va bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564348

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu tezisda Tovar moddiy zaxiralar hisobini xalqaro standandartlarga moslashtirish chora tadbirlari va bu jarayondagi mavjud muammolar o‘rganilib ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy amaliy tavsiya va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tovar moddiy zaxiralar (TMZ), moliyaviy hisobotning xalaqaro standarti MHXS (IAS), baholash, FIFO, LIFO, likvidlik, inventarizatsiya.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi, birinchi navbatda, ularning moliyaviy hisobotida aks ettirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va ishonchliligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan tovar-moddiy zahiralar (TMZ) hisobi korxonaning eng muhim buxgalteriya yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. TMZ ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining ajralmas qismi bo‘lib, ular korxonaning aylanma aktivlarining asosiy qismini tashkil etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»[1] gi PQ-4611-son va 2025 yil 15 sentyabrdagi «Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-282 son[2] qarorlarida o‘z aksini topgan. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlaridan (MHXS) biri bo‘lgan IAS 2 – Inventories standarti TMZ hisobini yuritishning yagona talablari va baholash usullarini belgilab beradi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda milliy amaliyotni xalqaro tajribaga yaqinlashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Tovar-moddiy zahiralar – bu ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan yoki qayta sotish uchun mo‘ljallangan aktivlardir. Ularga xomashyo, materiallar, tayyor mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, tovarlar va ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinadigan boshqa resurslar kiradi. TMZ korxonaning ishlab chiqarish hajmini, likvidligini va moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. IAS 2 – Inventories standarti TMZni quyidagicha belgilaydi:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4611-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.02.2020 y., 07/20/4611/0209-son, 23.08.2021 y., 06/21/6280/0811-son.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282 son qarori.

“Tovar-moddiy zahiralar – bu odatiy xo‘jalik faoliyati davomida sotish uchun mo‘ljallangan, ishlab chiqarish jarayonida sotish uchun tayyorlanayotgan yoki ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan aktivlardir.”[3] Mazkur standart TMZni baholashda asosiy tamoyil sifatida “eng past qiymat” tamoyilini belgilaydi. Ya’ni TMZ tannarxi va realizatsiya qilinadigan sof qiymati orasida eng past qiymatda hisobda aks ettiriladi. Bu tamoyil foydaning sun’iy oshishining oldini oladi va korxonaning moliyaviy holatini aniqroq aks ettiradi.

IAS 2 standarti TMZni baholashda quyidagi usullarga ruxsat beradi:

FIFO – birinchi kirgan birinchi chiqadi usuli;

O‘rtacha og‘irlangan qiymat usuli.

LIFO usuli esa xalqaro amaliyotda tan olinmaydi, chunki u aktivlarning real qiymatini buzadi. O‘zbekiston amaliyotida ham LIFO usulidan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHXS) asosida TMZ hisobini tashkil etish an’anaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Ammo so‘nggi yillarda MHXSga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida TMZ hisobini xalqaro talablarga moslashtirish zarurati kuchaymoqda. Ayni paytda ayrim korxonalarda:

- ✓ TMZni qayd etish va hujjatlashtirishda yagona metodik yondashuv yo‘qligi;
- ✓ Baholashda subyektiv qarorlarning ustuvorligi;
- ✓ Inventarizatsiya jarayonining zamonaviy texnologiyalar asosida yetarli darajada tashkil etilmagani;
- ✓ Axborot tizimlarida TMZ harakati bo‘yicha avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarining sustligi kabi muammolar mavjud.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, TMZ hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. MHXS (IAS 2) tamoyillarini milliy normativ hujjatlarga to‘liq integratsiya qilish;
2. Tannarxni aniqlashning zamonaviy usullarini joriy etish (masalan, Activity-Based Costing);
3. Inventarizatsiya jarayonini raqamlashtirish – RFID, QR-kod yoki ERP tizimlari orqali avtomatlashtirish;
4. Buxgalter va auditorlar uchun xalqaro standartlar bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish;
5. Moliyaviy hisobotlarda TMZ bilan bog‘liq ma’lumotlarning shaffofligini oshirish – foydalanuvchilarga ishonchli va taqqoslanadigan axborot taqdim etish.

Rivojlangan davlatlar, jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, TMZ hisobi to‘liq raqamlashtirilgan, baholash usullari esa korxona faoliyatining xususiyatiga mos tanlanadi. Misol uchun, yirik sanoat korxonalarida FIFO usuli ko‘p qo‘llaniladi, chunki u real narx o‘zgarishlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, IFRS 15 (“Revenue from Contracts with Customers”) bilan uzviy bog‘liq holda TMZni realizatsiya daromadlari bilan uyg‘unlashtirishga e’tibor qaratiladi. Tovar-moddiy zahiralar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish korxonalarning moliyaviy hisobotini xalqaro miqyosda tan olinishiga, investitsion jozibadorlikning ortishiga va korxona faoliyati ustidan samarali nazorat o‘rnatilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishda milliy hisob standartlarini xalqaro

[3] 2-son BHXS « Zaxiralar» O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug‘iga ilova. https://lex.uz/docs/6312360

talablarga uyg‘unlashtirish, TMZ harakatini raqamli texnologiyalar asosida nazorat qilish va buxgalter kadrlarning malakasini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4611-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.02.2020 y., 07/20/4611/0209-son, 23.08.2021 y., 06/21/6280/0811-son.
2. 1O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282 son qarori.
3. 1 2-son BHXS « Zaxiralar» O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug‘iga ilova. https://lex.uz/docs/6312360
4. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 24-fevral.
5. Xasanov A. va boshqalar. *Moliyaviy hisobot va xalqaro standartlar asoslari.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. Rahmonov B. *Tovar-moddiy zahiralar hisobi va tahlili.* – Toshkent, 2021.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

INNOVATSIYALAR TIZIMI: KONTSEPTUAL YONDASHUVLAR, TURLARI VA STRATEGIK BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Muallif: Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564372

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada innovatsiyalar tizimini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Unda innovatsiyalarni boshqarishning kontseptual yondashuvlari, ularning turlari va strategik boshqaruv mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, innovatsion jarayonlarda institutlar, resurslar va texnologik infratuzilmaning o‘rni ko‘rsatilib, milliy innovatsiya tizimini samarali boshqarish orqali iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari innovatsiyalarni tizimli asosda boshqarish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilishini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: innovatsiyalar tizimi, kontseptual yondashuvlar, strategik boshqaruv, innovatsion siyosat, texnologik rivojlanish, milliy innovatsiya tizimi, raqobatbardoshlik, iqtisodiy barqarorlik, boshqaruv mexanizmlari, innovatsion infratuzilma.

KIRISH


Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsiyalar raqobatbardoshlik va iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Innovatsion jarayonlar orqali yangi texnologiyalar, mahsulotlar va boshqaruv yondashuvlari shakllanib, ularning samarali integratsiyasi mamlakatlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsiyalar tizimini chuqur o‘rganish va uni milliy iqtisodiyotning strategik boshqaruv elementi sifatida rivojlantirish zaruriy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda innovatsion siyosatni iqtisodiy islohotlarning markaziga qo‘yib, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, yuqori texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu strategik hujjat innovatsiyalar tizimini samarali boshqarish, yangi qiymat zanjirlarini yaratish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam institutsional asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bois innovatsiyalar tizimi, uning kontseptual yondashuvlari, turlari va strategik boshqaruv mexanizmlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda innovatsiyalar tizimining nazariy asoslari, uning tarkibiy elementlari va milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida innovatsiyalarni strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo‘lib, ular jamiyatning barcha sohalarida yangilanish va samaradorlikni oshirish jarayonlarini belgilab beradi. Innovatsiyalarni to‘g‘ri tasniflash ularni tahlil qilish, strategik boshqarish va amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois innovatsiyalarning umumiy tasniflanishi ularning mazmuni, miqyosi va ta’sir doirasini chuqur anglash imkonini beradi hamda milliy innovatsion siyosatni shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.




1-rasm. Innovatsiyalarning umumiy tasniflanishi.

Rasmda keltirilgan “Innovatsiyalarning umumiy tasniflanishi” sxemasi innovatsiyalarni uchta asosiy mezon bo‘yicha — obyektlar bo‘yicha, yangilik darajasi bo‘yicha va tarqatish hududi bo‘yicha guruhlaydi. Obyektlar bo‘yicha innovatsiyalar texnologik, ekologik, tashkiliy va ishlab chiqarish, boshqaruv, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy sohalarni qamrab oladi. Bu, innovatsiyalar faqat texnikaviy emas, balki boshqaruv, huquqiy va madaniy yo‘nalishlarda ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Yangilik darajasi bo‘yicha tasnif esa innovatsiyalarni davriy, asosiy, yaxshilash, mikroinnovatsiyalar va psevdoinnovatsiyalar (ya’ni, muddatidan oldin yoki eskirgan tizimni takomillashtirishga qaratilgan yangiliklar) shaklida farqlaydi. Tarqatish hududi bo‘yicha innovatsiyalar global, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda faoliyat yuritadi. Umuman olganda, bu tasnif innovatsion faoliyatning ko‘p qirrali va tizimli tabiatini yoritib, ularni samarali boshqarish uchun konseptual asos yaratadi.

Innovatsiyalar turlari va ularning tarkibiy qismlarini aniqlash zamonaviy iqtisodiyotda yangiliklarni samarali joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Innovatsiyalar odatda ikki asosiy yo‘nalishga — mahsulot va jarayon


innovatsiyalariga ajratiladi. Ushbu tasnif innovatsion faoliyatning amaliy sohalarda qanday shakllanishini, ya'ni yangi mahsulotlar yaratishdan tortib, ularni ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarigacha bo'lgan barcha bosqichlarni tizimli o'rganish imkonini beradi.



2-rasm. Innovatsiyalarning asosiy turlari va ularning tarkibiy qismlari.

Rasmda keltirilgan "Innovatsiyalarning asosiy turlari va ularning tarkibiy qismlari" sxemasi innovatsiyalarni mahsulot innovatsiyalari va jarayon innovatsiyalariga ajratadi. Mahsulot innovatsiyalariga yangi tovarlar va xizmatlarni yaratish, ularning sifatini va foydalanuvchanlik darajasini oshirish, shuningdek, dizayn va qadoqlashdagi sezilarli o'zgarishlar kiradi. Bu turdagi innovatsiyalar iste'molchilar ehtiyojini qondirish hamda bozor raqobatida ustunlikni ta'minlashga qaratilgan. Jarayon innovatsiyalari esa ishlab chiqarishning yangi usullarini, logistika tizimlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, marketing va sotuv jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liq. Shuningdek, ma'muriyat va boshqaruv innovatsiyalari ham jarayon innovatsiyalarining muhim qismi bo'lib, ular tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirish va strategik qarorlar qabul qilishni optimallashtirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, ushbu tasnif innovatsiyalarni kompleks tizim sifatida anglash va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun nazariy hamda amaliy asos yaratadi.


Innovatsiya strategiyasi — bu korxona yoki mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozor imkoniyatlarini yaratish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. U innovatsion faoliyatning yo'nalishlarini, maqsadlarini va resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini belgilaydi. Innovatsion strategiyaning mazmunini to'g'ri tushunish va uning tarkibiy qismlarini aniqlash orqali korxona yoki davlat miqyosida yangi qiymat yaratish, innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali boshqaruvni ta'minlash mumkin.



3-rasm. “Innovatsiya strategiyasi” ning mazmuni va tuzilishi.

Rasmda keltirilgan “Innovatsiya strategiyasi”ning mazmuni va tuzilishi besh asosiy tarkibiy qismdan iborat. Ular — yangi qo‘shimcha qiymat yaratadigan xizmatlar, yangi bozorlami yaratish, tarqatish va marketingning yangi usullari, yangi biznes modellari hamda yangi bozorlarga chiqishdir. Ushbu elementlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, innovatsion faoliyatning butun zanjirini ifodalaydi. Masalan, yangi xizmatlar yaratish orqali korxona mijozlar uchun qo‘shimcha qiymat hosil qiladi, yangi bozorlarni shakllantirish esa mahsulot yoki xizmatlarni global miqyosda ilgari surish imkonini beradi. Marketing va tarqatishning innovatsion usullari mahsulotni samarali joylashtirishni ta’minlaydi, yangi biznes modellari esa iqtisodiy resurslardan optimal foydalanishga xizmat qiladi. Natijada, innovatsiya strategiyasi raqobat muhitida ustunlikni ta’minlovchi, iqtisodiy o‘sishni tezlashtiruvchi va barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmiga aylanadi.

“Innovatsiya” tushunchasi kichik va o‘rta biznes (KOB) sohasida yangi g‘oyalar, mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish va bozor talablariga moslashishni anglatadi. Ushbu rasmda innovatsiya tizimli jarayon sifatida tasvirlanib, uning KO’B uchun ahamiyati “Natija (innovatsiya)” orqali yangi mahsulotlar, texnologiyalar, biznes yuritish usullari va boshqaruv modellari yaratishda namoyon bo‘ladi. Bu jarayon innovatsion faoliyatdan boshlanib, mustahkamlash bosqichigacha davom etadi va natijada iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.



4-rasm. “Innovatsiya” tushunchasining kichik va o‘rta biznes sohasiga nisbatan ta’rifi

Rasmdagi sxemaga ko‘ra, “Innovatsiya” tushunchasi kichik va o‘rta biznes (KO’B) sohasida “innovatsion jarayonlar to‘plami” sifatida ta’riflanadi, bu jarayon tizim ichida “innovatsion faoliyat”dan boshlanib, “Natija (innovatsiya)” bosqichida yangi mahsulotlar, texnologiyalar, biznes yuritishning yangi usullari, boshqaruvning yangi modellarini yaratish va amalga oshirish orqali mustahkamlanadi; natijada raqobatbardoshlikni oshirish, rag‘batlantirish (kichik biznesning iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga qo‘shgan hissasi), qiymat (moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan) yaratiladi, bu esa innovatsiyani KO’B uchun nafaqat yangilik kiritish, balki raqobat ustunligi va iqtisodiy samaradorlikka erishish vositasi sifatida ko‘rsatadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim drayveri bo‘lib, u nafaqat texnologik yangiliklar, balki boshqaruv, marketing, tashkiliy va ijtimoiy sohalarni ham qamrab oladi. Innovatsiyalar tizimini chuqur tahlil qilish, ularni to‘g‘ri tasniflash va strategik boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida innovatsion rivojlanishga ustuvor ahamiyat berilishi mamlakatda ilm-fan, texnologiya va biznes integratsiyasini kuchaytirish, yangi bozorlarni shakllantirish hamda yuqori qo‘shimcha qiymat yaratishga yo‘l ochmoqda.

Umuman olganda, innovatsiyalar turlarini, ularning tarkibiy qismlarini va strategik yo‘nalishlarini tizimli o‘rganish — iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini aniqlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro bozorda barqaror pozitsiyani egallash imkonini beradi. Innovatsiya strategiyasining to‘g‘ri tuzilishi — yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yangi biznes modellarini shakllantirish hamda bozorlar kengayishini ta’minlash orqali iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilishning asosiy omilidir. Shu bois innovatsion rivojlanishni samarali boshqarish va uni milliy strategiyalar bilan uyg‘unlashtirish kelajakdagi barqaror iqtisodiy taraqqiyotning kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘xtaboyev, J. (2025). Kichik biznesning innovatsion rivojlanishini boshqarish tizimini shakllantirish. Лучшие интеллектуальные исследования, 44(5), 343-351.
2. Habibjonov, U. (2025). Professional savdoni shakllanish kanallarining tarqatilish tavsifi. Nordic_Press, 7(0007).
3. Habibjonov, U. (2025). Masofaviy savdoda yetkazib berish tendensiyalari. Nordic_Press, 7(0007).
4. Amonboev, M. (2020). Corporate Governance and Development: The case of Uzbekistan. Архив научных исследований, (22).
5. Tohirjon Xo‘janazar o‘g, O. (2025). Innovatsiyalar iqtisodiyotni tivojlantiruvcji vosita sifatida. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar, 1(9), 273-277.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

MOLIYAVIY HISOBNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI KONSEPTUAL MUAMMOLARI

Muallif: Teshabayev Dilmurod Boxodir o’g’li [1]
Affiliyatsiya: Farg’ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564428

ANNOTATSIYA

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda buxgalteriya hisobi tizimi ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Amaldagi milliy standartlar va qonunchilik axborot texnologiyalari rivojiga to‘liq mos kelmaydi. Blokcheyn va sun’iy intellekt kabi texnologiyalar hisob tizimida tub o‘zgarishlar qilish imkonini bermoqda. Tadqiqotning maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisob tizimini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashdir. Ishda raqamli texnologiyalarning hisob tizimiga ta’siri, asosiy o‘zgaruvchan elementlar hamda tartibga solishdagi muammolar tahlil qilinadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so‘zlar: Moliyaviy hisob, Raqamli iqtisodiyot, Buxgalteriya tizimi, Raqamlashtirish (raqamli transformatsiya), Sun’iy intellekt, Blokcheyn texnologiyasi, Moliyaviy hisobot (MHXS / IFRS), Metodologik yondashuv, Huquqiy tartibga solish, Axborot xavfsizligi.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini, balki moliyaviy hisob tizimini ham tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, elektron hukumat, elektron hisob-kitob va soliq tizimlarini joriy etish orqali buxgalteriya hisobi va hisobot yuritish jarayonlarini transformatsiya qilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalar tufayli buxgalteriya jarayonlarida inson omiliga asoslangan, qo‘lda bajariladigan usullar sekin-asta avtomatlashtirilgan tizimlar bilan almashtirilmoqda. Shu bilan birga, axborotdan foydalanish, uning tezkorligi, dolzarbligi va ishonchliligi bugungi kundagi asosiy talablar sirasiga kiradi. O‘zbekiston buxgalteriya tizimi ham bu ehtiyojlarga moslashishi, ayniqsa, Moliyaviy hisobotlarni xalqaro hisobotlariga (IFRS) muvofiqlashtirilgan holda takomillashishi lozim.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi qonuni (13.04.2016 yildagi O‘RQ-404-son yangi tahriri) asosida buxgalteriya yuritishning huquqiy asoslari belgilangan bo‘lsa-da, raqamli iqtisodiyot talab qilayotgan konseptual yondashuvlar, buxgalteriya fanining yangi funksiyalari va texnologik imkoniyatlari to‘liq aks etmagan. Bu esa, amaliyotda yuzaga kelayotgan ehtiyojlar bilan mavjud qonunchilik va metodologik yondashuvlar o‘rtasida nomuvofiqlikni yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya tizimining O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida qanday konseptual muammolarga duch kelayotgani, tizimning qanday elementlari transformatsiyaga muhtojligi, va bu muammolarni bartaraf etish yo‘llari ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb mavzuga aylanmoqda. Ayniqsa, axborotning sifatini

oshirish, ichki va tashqi foydalanuvchilarga ma’lumotni tez va to‘liq yetkazib berish, raqamli texnologiyalar asosida hisobot yuritishni avtomatlashtirish kabi masalalar bugungi kun buxgalteriyasining asosiy yo‘nalishiga aylanmoqda.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda hisob metodologiyasi amaliy haqiqatlardan ortda qolmoqda. Mualliflar quyidagi omillarni raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar deb bilishadi:

- Hisob yuritishdagi konservatizm;
- Foydalanuvchilar uchun hisob axborotining foydaliligini pasayishi va buxgalteriya funksionalligini kamayishi.

Moliyaviy hisob an’anaviy ravishda qat’iy me’yorlar va texnikalar asosida yuritilgan bo‘lib, ushbu tizimda o‘zgarishlarni amalga oshirish murakkab metodologik yondashuvlarni talab etadi. Oldingi davrlarda bu konservatizm ijobiy hol sifatida baholangan bo‘lsa, bugungi kunda tez o‘zgarayotgan muhitda bu jiddiy to‘siq sifatida namoyon bo‘lmoqda. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro hisobotlari (IFRS) qattiq qoidalarga emas, balki konseptual tamoyillarga asoslangan holda joriy etildi, ammo ular ham foydalanuvchilarning sifatli axborotga ehtiyojini to‘liq qondira olmadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotda hisob tizimining barcha elementlari sezilarli darajada o‘zgardi va bu mavjud hisob kontsepsiyasini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Tashqi omillar — globallashuv va raqamlashtirish — hisob tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular ishlab chiqarishning ijtimoiylashuvi va iqtisodiy faoliyatning xalqaro integratsiyasiga olib keldi. Bu esa barcha mamlakatlar uchun yagona standartlarga asoslangan hisob tizimlarini yaratish zaruratini keltirib chiqardi. O‘zbekiston Respublikasida ham MHXSga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida milliy standartlarni takomillashtirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalari (blokcheyn, sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar) hisob ma’lumotlarining mazmunini va sifatini tubdan o‘zgartirdi. Misol uchun, blokcheyn tranzaksiyalarni vositachilarsiz ro‘yxatga olish va xavfsiz saqlash imkonini beradi.

Shuningdek, hisob jarayonlarida odam ishtirokining kamayishi kuzatilmoqda. Buxgalterning ko‘plab funksiyalari — buxgalteriya yuritish, moliyaviy hisobot tayyorlash va taqdim etish — kompyuter texnologiyalari bilan almashtirilmoqda. Sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi hisob jarayonini butunlay avtomatlashtirishga olib keladi. Kelajakda buxgalteriyaning an’anaviy funksiyalari (ikki tomonlama yozuv, axborotni tahlil qilish va taqdim etish) keskin o‘zgarishi yoki qayta talqin qilinishi ehtimoldan xoli emas.

MUHOKAMA

Hisob tizimi jamiyat rivojlanish bosqichlariga mos tarzda turli davrlarda har xil tartibga solish mexanizmlariga ega bo‘lgan. Bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o‘zgarishi hisob kontsepsiyasini va uni tartibga soluvchi qonunchilikni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. *O‘zbekiston* respublikasining 1996-yilgi “*Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida*”*gi* (Yangi tahriri. 2016-*yil* 13-aprel. *№* O'RQ-404) qonunlarda hisobning asosiy vazifasi — foydalanuvchilarga axborot yetkazish, faoliyatdagi salbiy holatlarning oldini olish, o‘sish zaxiralarini aniqlash deb belgilangan. Biroq zamonaviy sharoitda bu yondashuv eskirgan bo‘lib, zamonaviy

axborot ehtiyojlariga javob bermaydi. Hisobning obyektlari va subyektlari, usullari va tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish zarur.

TAKLIFLAR

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (2016-yil, O‘RQ-404-son) moliyaviy hisobot yuritishning umumiy huquqiy asoslarini belgilab bergan bo‘lsada, raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan yangi jarayonlarni to‘liq qamrab olmaydi. Xususan, elektron hujjatlar aylanishi, raqamli imzo, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt asosidagi hisob tizimlari, blokcheyn orqali tasdiqlash mexanizmlari kabi masalalar amaldagi qonunlarda yetarlicha tartibga solinmagan.

Shu sababli, buxgalteriya sohasining raqamli transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan yangi **“Raqamli buxgalteriya to‘g‘risida”** qonunni ishlab chiqish zarurati dolzarbdir. Ushbu qonun quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- **Raqamli hujjat aylanishi** va uning yuridik kuchini belgilovchi normalar;
- **Elektron imzo va elektron tasdiqlash tizimlari**ning buxgalteriya amaliyotida qo‘llanish tartibi;
- **Axborot xavfsizligi** va ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash mexanizmlari;
- **Sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini** moliyaviy hisobda qo‘llashning huquqiy asoslari.

Mazkur qonunning qabul qilinishi buxgalteriya hisobi tizimida shaffoflik, ishonchlilik va tezkorlikni oshiradi, raqamli iqtisodiyot talablariga mos yangi boshqaruv madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday normativ hujjatlar iqtisodiy axborot sifati va davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

Raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyot ijtimoiy munosabatlar tabiatini va axborot talablarini tubdan o‘zgartirdi. Buxgalteriya tizimi — boshlang‘ich hujjatlardan tortib, moliyaviy hisobotlargacha — butunlay transformatsiyaga uchrayapti. Hisob tizimining asosiy elementlari raqamli transformatsiyaga mos ravishda o‘zgarib bormoqda; tashqi texnologik va iqtisodiy omillar ularning funksional mazmunini yangilash zaruratini tug‘dirmoqda. Shu sababli, buxgalteriya kontsepsiyasining qonunchilikdagi asoslari zamonaviy sharoitlarga moslashtirilishi, uning funksiyalari va metodologiyasi qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Shuningdek, hisob kontsepsiyasini zamonaviy global tendentsiyalar asosida ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismanov I.N., Teshabayev D.B. Problems of accounting in small business and private entrepreneurship entities in accordance with the International Financial Reporting Standards (IFRS). // American Journal of Economics and Business Management. – ISSN 2576-5973 (online), Published by “Global Research Network LLC" under Volume: 6 Issue: 5, 2023. – Pp. 241-245.

2. Teshabayev D(2023), NEW MODELS FOR ANALYSING THE FINANCIAL STATEMENTS OF ORGANISATIONS

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori
4. Razzaqova, D. A. Q. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati. Scientific progress, 2(8), 243-249.
5. *O'zbekiston* respublikasining “*Buxgalteriya hisobi to'g'risida*”*gi* (Yangi tahrir, 2016-*yil* 13-aprel)

QORAQALPOG‘ISTONDA UZUMCHILIKNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Muallif: Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich [1]
Affiliyatsiya: Navoiy viloyati, O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi boshliq o‘rinbosari, Toshkent davlat agrar universiteti mustaqil izlanuvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564484

ANNOTATSIYA

Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida uzumchilik tarmog‘ining rivojlanish holati va samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Tabiiy, iqtisodiy va texnologik omillarning ta'sir mexanizmi va darajasi 0–5 shkala asosida baholangan. Tadqiqot natijalari asosida sohani rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: uzumchilik, samaradorlik, tabiiy omillar, texnologik yangilanish, qishloq xo‘jaligi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. U nafaqat aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, balki eksport salohiyatini kengaytirish, qishloq hududlarida bandlikni oshirish va mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o‘rin tutadi.

2024-yilda mamlakatda yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi 444,6 trillion so‘mni tashkil etgani va oxirgi besh yilda 18,5 foizga o‘sgani sohada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. O‘rtacha yillik o‘sish sur'ati 103,5 foizni tashkil etishi esa qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanish tendensiyasi shakllanganidan dalolat beradi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi hajm va samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha mintaqada yetakchi o‘rinni egallab, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘izistondan ilgarilab bormoqda. Bu holat mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi strategik pozitsiyasini mustahkamlash bilan bir qatorda, tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ham kuchaytirmoqda.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi barqaror o‘sish ham bu jarayonning amaliy ifodasidir: don ekinlari — 238,2 kg (+7,6%), kartoshka — 100,0 kg (+8,7%), sabzavotlar — 322,7 kg (+6,1%), meva va rezavorlar — 88,0 kg (+7,4%), uzum — 49,1 kg (+2,9%), poliz ekinlari — 72,2 kg (+17,2%), go‘sht — 79,2 kg (+7,5%), sut — 334,8 kg (+4,9%) va tuxum — 236,9 dona (+2,4%)[1].

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, yangi qiymat zanjirlarini shakllantirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan islohotlar ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. Bu jarayonda uzumchilik sohasi milliy agrar iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

[1] https://daryo.uz/k/2025/03/25/ozbekistonda-yalpi-qishloq-xojaligi-mahsuloti-hajmi-5-yilda-185-foizga-osdi

Uzumchilik nafaqat aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda, balki vinochilik, sharbatchilik va quritilgan meva sanoati kabi qo‘shimcha yo‘nalishlarning rivojlanishi orqali ichki bozor barqarorligi va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston hududlaridagi turli tabiiy-iqlimiy sharoitlar esa uzumchilikni rivojlantirishda mintaqaviy modellarni yaratish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida uzumchilik sohasining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiiy resurslar yetishmasligi va quruq iqlim sharoiti mavjud bo‘lishiga qaramasdan, oxirgi yillarda agrotexnologik yangilanishlar, davlat ko‘magi va fermer xo‘jaliklarining faolligi tufayli sohaning salohiyati izchil oshmoqda.

Qoraqalpog‘istonda uzumchilikning rivojlanishi hudud qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qiymat zanjirining yuqori bosqichlariga integratsiyalash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyati yuzaga kelmoqda.

Shu sababli, Qoraqalpog‘istonda uzumchilik tarmog‘ining hozirgi holatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning hosildorlik dinamikasini o‘rganish va samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Bu jarayonni chuqur tahlil qilish uchun, avvalo, hududda so‘nggi yillarda uzumchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmidagi o‘zgarishlarni raqamlarda ko‘rib chiqish zarur. Zero, statistik ma'lumotlar asosidagi tahlillar sohadagi tendensiyalar, o‘sish sur'atlari va mavjud salohiyatni baholash imkonini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, quyidagi 1-jadvalda 2020–2024-yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasida uzumchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi aks ettirilgan.

1-jadval

Qoraqalpog‘istonda uzumchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi[2]

Yillar	Umumiy hosil	
	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami, *mln. tonna*	Shundan; Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha jami, *ming tonna*
2020	1,6	10,2
2021	1,7	11,0
2022	1,8	11,5
2023	1,7	11,6
2024	1,8	14,4

Mazkur 1-jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024-yillar mobaynida Qoraqalpog‘iston Respublikasida uzumchilik mahsulotlari yetishtirish hajmi yil sayin barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Agar 2020-yilda hududda 10,2 ming tonna uzum yetishtirilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 14,4 ming tonnaga yetgan. Bu esa so‘nggi besh yil ichida 41 foizlik o‘sishni anglatadi.

O‘zbekiston bo‘yicha umumiy hosil hajmi ham barqaror o‘sishda bo‘lib, 2020-yilda 1,6 mln tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 1,8 mln tonnaga yetgan. Bu holat mamlakat miqyosida uzumchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshib

[2]O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

borayotganini va soha rivoji uchun yaratilgan iqtisodiy, texnologik hamda institutsional sharoitlar samara berganini koʻrsatadi.

Ayniqsa, Qoraqalpogʻistonda soʻnggi ikki yilda (2023–2024-yillarda) hosil hajmining sezilarli oʻsishi kuzatilgan. Bu holat fermer xoʻjaliklari tomonidan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, yangi navlarni yetishtirish va sugʻorish tizimlarini modernizatsiya qilish natijasida amalga oshganligini anglatadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan sohani qoʻllab-quvvatlash, subsidiyalar va investitsiya loyihalarining kengayishi ham bu jarayonda muhim omil boʻlgan.

Demak, 1-jadval ma'lumotlari Qoraqalpogʻistonda uzumchilik tarmogʻining barqaror oʻsish bosqichiga kirganini, uning hudud iqtisodiyotidagi ahamiyati ortib borayotganini va kelgusida eksportbop mahsulotlar yetishtirish imkoniyatlari yanada kengayishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, yuqoridagi ma'lumotlar Qoraqalpogʻistonda uzumchilik tarmogʻining barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etsa-da, hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjudligini inkor etib boʻlmaydi. Mazkur omillar oʻz tabiatiga koʻra turli yoʻnalishlarda namoyon boʻladi — ayrimlari ishlab chiqarishni ragʻbatlantirsa, boshqalari esa uni cheklaydi yoki salbiy ta'sir koʻrsatadi.

Aynan shu nuqtayi nazardan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi sharoitida uzumchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy tabiiy, iqtisodiy va texnologik omillarni tizimli ravishda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 2-jadvalda esa, ushbu omillar guruhlar kesimida tavsiflanib, ularning ta'sir yoʻnalishi va mexanizmlari ilmiy jihatdan umumlashtirilgan holda keltirilgan.

2-jadval

Qoraqalpogʻistonda uzumchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar[3]

Omilar guruhi	Aniq omillar	Ta'sir yoʻnalishi	Ta'sir mexanizmi	Izoh
Tabiiy	Qurgʻoqchilik va suv yetishmasligi	Salbiy	Sugʻorish uchun suvning yetishmasligi hosildorlikka salbiy ta'sir qiladi	Amudaryo va suv havzalari bilan bogʻliq masalalar
Tabiiy	Tuproqning shoʻrlanishi	Salbiy	Tuproqning shoʻrlanishi oʻsimliklarning oʻsishini cheklaydi	Choʻllashish jarayoni murakkablashtirmoqda
Iqtisodiy	Mehnat quvvati yetishmasligi	Salbiy	Terim va qayta ishlash jarayonlarida qiyinchiliklar	Mavsumda ishchi kuchi yetishmasligi
Iqtisodiy	Bozor narxlari va talab	Salbiy	Uzumni sotishdan tushadigan daromad kamayishi	Bozordagi noaniqliklar samaradorlikka ta'sir qiladi
Texnologik	Zamonaviy texnika va texnologiyalar yetishmasligi	Salbiy	Hosil yigʻish va qayta ishlash samaradorligi pasayishi	Fermer xoʻjaliklarida texnik jihozlar yetishmaydi

Yuqoridagi, 2-jadval ma'lumotlaridan koʻrinib turibdiki, Qoraqalpogʻistonda uzumchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar koʻp qirrali va oʻzaro bogʻliq xususiyatga ega. Birinchi navbatda, tabiiy omillar – qurgʻoqchilik va suv yetishmasligi hamda tuproqning shoʻrlanishi – tarmoqning barqaror rivojlanishiga jiddiy toʻsiq sifatida namoyon boʻlmoqda. Sugʻorish uchun suv manbalariga bogʻliqlik hosildorlik darajasini pasaytiradi, ayniqsa Amudaryo suvining sezilarli kamayishi sharoitida bu holat yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, tuproqning shoʻrlanishi

[3] Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

va choʻllashish jarayoni uzumzorlarning biologik oʻsishi hamda hosil sifatiga salbiy ta'sir koʻrsatmoqda.

Iqtisodiy omillar qatorida mehnat quvvati yetishmasligi va bozordagi noaniqliklar asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Mavsumiy ishchi kuchining yetishmasligi natijasida hosil yigʻim-terimi kechikib, ayrim hollarda mahsulot yoʻqotishlarga olib keladi. Shu bilan birga, bozor narxlarining oʻzgaruvchanligi va talabning notekisligi fermer xoʻjaliklarining iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir koʻrsatadi, bu esa ularning investitsion faolligini ham cheklaydi.

Texnologik omillar ichida zamonaviy texnika va innovatsion texnologiyalar yetishmasligi uzumchilik tarmogʻining raqobatbardoshligini pasaytiradi. Aksariyat fermer xoʻjaliklarida mexanizatsiya darajasi past boʻlib, hosil yigʻish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida yuqori mehnat sarfi kuzatiladi. Bu esa, mahsulotning tannarxini oshirib, foydalilik koeffitsiyentini pasaytiradi.

Umuman olganda, Qoraqalpogʻistonda uzumchilik samaradorligini oshirish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash va texnologik yangilanishni jadallashtirish bilan uzviy bogʻliqdir. Shu nuqtayi nazardan, uzumchilikni rivojlantirish boʻyicha kompleks yondashuvni amalga oshirish — ya'ni suv resurslarini tejamkor boshqarish, agrotexnologiyalarni modernizatsiya qilish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish — hudud qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotining barqaror oʻsishi uchun muhim shart hisoblanadi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, Qoraqalpogʻistonda uzumchilik tarmogʻining samaradorligi koʻplab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanmoqda. Tabiiy-iqtisodiy va texnologik shart-sharoitlar oʻzaro bogʻliq holda tarmoq rivojlanishiga ta'sir koʻrsatmoqda. Biroq mazkur omillarning barchasi bir xil darajada ta'sir etmaydi — ayrimlarining ahamiyati ustuvor, ayrimlarining ta'siri esa nisbatan cheklangandir. Shu boisdan, uzumchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning qay darajada ta'sir kuchiga egaligini baholash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Shunday ekan, quyidagi 3-jadvalda esa, Qoraqalpogʻistonda uzumchilik samaradorligini cheklovchi asosiy omillarning ta'sir darajasi 0–5 shkala asosida baholangan boʻlib, ularning nisbiy ahamiyati va tarmoq rivojlanishiga ta'sir yoʻnalishi tizimli ravishda koʻrsatib berilgan.

3-jadval

Qoraqalpogʻistonda samaradorlikni cheklovchi omillarning ta'sir darajasi (0–5 shkalada)[4]

Omilar	Ta'sir darajasi	Izoh
Tabiiy sharoitlar (qurgʻoqchilik, shoʻrlanish)	5	Hosildorlikka eng katta ta'sir koʻrsatadi
Texnika va texnologiyalar	4	Zamonaviy texnika va uskunalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi
Moliyaviy qoʻllab-quvvatlash	3	Soliq yengilliklari, kredit va subsidiyalar samaradorlikni ragʻbatlantiradi
Mehnat quvvati	3	Kasbiy malakali ishchi yetishmasligi past samaradorlikka olib keladi
Bozor va narx sharoiti	4	Uzum narxi va bozor talabiga bogʻliq ravishda foyda oʻzgarishi

[4] Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlariga tayanilgan holda tahlil qilinganda, Qoraqalpog‘istonda uzumchilik tarmog‘ining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ichida tabiiy sharoitlar (qurg‘oqchilik va tuproqning sho‘rlanishi) eng yuqori — 5 balllik darajada baholangani kuzatiladi. Bu holat, hududning iqlimiy xususiyatlari va suv resurslarining cheklanganligi uzumchilik rivojiga hal qiluvchi darajada ta'sir ko‘rsatayotganini anglatadi. Ya'ni suvning yetishmasligi, haroratning keskinligi va tuproqning unumdorlik darajasi hosildorlikning barqaror o‘sishiga asosiy to‘siq bo‘lib turibdi.

Shu bilan birga, texnika va texnologiyalar omillari ham yuqori — 4 ball bilan baholangan. Bu ko‘rsatkich fermer xo‘jaliklarida zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlaridan foydalanish va qayta ishlash jarayonlarini modernizatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ilg‘or texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish hosildorlikni oshirish va resurs tejamkorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor va narx sharoiti ham 4 ball bilan baholanib, iqtisodiy samaradorlikning muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi. Uzumchilikda foyda darajasi ko‘p jihatdan bozordagi narx o‘zgarishlari va eksport salohiyatiga bog‘liq. Narxning barqaror emasligi va bozor talabining o‘zgaruvchanligi ishlab chiqaruvchilar uchun ma'lum xavflarni keltirib chiqaradi, bu esa ularning investitsiya faolligini pasaytiradi.

Shuningdek, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va mehnat quvvati omillari 3 ball bilan baholangan bo‘lib, ular ham tarmoq samaradorligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Xususan, kasbiy malakaga ega ishchi kuchining yetishmasligi, mavsumiy mehnat resurslariga bog‘liqlik hamda moliyaviy manbalarning cheklanganligi uzumchilikning rivojlanish sur'atlarini pasaytiradi. Bundan tashqari, kreditlar va subsidiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayniqsa kichik fermerlar uchun, iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida uzumchilik samaradorligini oshirish uchun, avvalo, tabiiy va texnologik cheklovlarni kamaytirish, resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish hamda moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, bozor infratuzilmasini takomillashtirish va mehnat salohiyatini rivojlantirish sohada barqaror o‘sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi tahliliy natijalardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida uzumchilik tarmog‘i qishloq xo‘jaligining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda hosildorlikning barqaror o‘sishi agrotexnologik yangilanishlar, fermer xo‘jaliklarining faolligi hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo‘llab-quvvatlash siyosatining amaliy samarasini aks ettirmoqda. Biroq tabiiy resurslarning cheklanganligi, tuproqning sho‘rlanishi, texnik jihozlanish darajasining pastligi va bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi sohaning kelgusi rivojlanishini muayyan darajada cheklab turibdi. Shu sababli, uzumchilikni barqaror va yuqori samarali tarmoq sifatida shakllantirish uchun tizimli, ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, amaliyot uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, Qoraqalpog‘iston sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish va innovatsion sug‘orish texnologiyalarini joriy etish uzumchilikning barqaror

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

rivojlanishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Buning uchun tomchilatib sug‘orish tizimlari, avtomatlashtirilgan drenaj-monitoring usullari va raqamli agronazarot platformalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, fermer xo‘jaliklarini zamonaviy agrotexnika va qayta ishlash uskunalari bilan ta'minlash, shuningdek, agrosanoat klasterlari asosida logistika, qayta ishlash va saqlash infratuzilmasini shakllantirish zarur. Bu mahsulotning qiymat zanjirida yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Xususan, uzumchilik bilan shug‘ullanuvchi kichik fermer va kooperativlarga imtiyozli kreditlar, qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi hamda soliq yengilliklari taqdim etish orqali investitsiya faolligini kengaytirish mumkin.

To‘rtinchidan, mehnat salohiyatini oshirish va kasbiy malaka darajasini yuksaltirish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari va qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu orqali ishchi kuchining samaradorligi oshirilib, mehnat unumdorligining barqaror o‘sishi ta'minlanadi.

Beshinchidan, bozor infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli marketing platformalarini joriy etish va eksportga yo‘naltirilgan savdo tarmoqlarini rivojlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozor imkoniyatlari yaratilishi lozim.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Qoraqalpog‘istonda uzumchilikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari — tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion agrotexnologiyalarni tatbiq etish, moliyaviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish va bozor infratuzilmasini mustahkamlashdan iboratdir. Ushbu yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi esa, hudud agrar salohiyatining barqaror o‘sishiga, qolaversa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga va mamlakatning eksportbop agrar iqtisodiyotini rivojlantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fayziyev O., Aminboyeva D. Qishloq xo‘jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853)

2. Tursunov T.J. Uzumchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. «Muhandislik va iqtisodiyot». – Toshkent, 2025. - № 7. – B. 197-201.

3. Tursunov T.J. O‘zbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”. – Toshkent, 2025. - № 7. – B. 502-507.

4. Tursunov T.J. O‘zbekistonda uzumzorlar maydonining o‘sishi va sohadagi transformatsiya jarayonlari. “Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2024. 560-563 betlar.

5. Tursunov T.J. Uzumchilikda samaradorlikni baholashning ilmiy-nazariy asoslari va xalqaro tajribalar tahlili. «Agrobiznes, fan va texnologiyalar». – Toshkent, 2025. - № 7/[7]-son. – B. 448-458.

6. Tursunov T.J. O‘zbekiston uzumchilik tarmog‘i: iqtisodiy ahamiyati, hududiy dinamikasi va rivojlanish istiqbollari. In Solution of social problems in management and economy (Vol. 4, Number 11, pp. 50–56). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.16867476
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari. stat.uz
8. https://daryo.uz/k/2025/03/25/ozbekistonda-yalpi-qishloq-xojaligi-mahsuloti-hajmi-5-yilda-185-foizga-osdi

AGROKLASTERLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Muallif: Xaydarov Sardor Komil o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: Toshkent davlat agrar universiteti mustaqil izlanuvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564529

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada agroklasterlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holati va uning samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Niderlandiya, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribalarining tahlili asosida IoT, GIS kabi innovatsion boshqaruv platformalari va suniy intellekt ko‘magida turli klasterlarda hosildorlikni 25–35 %ga, suv sarfini 15–25 %ga kamaytirayotgan natijalar ko‘rsatildi. O‘zbekistondagi yirik agroklasterlarning raqamlashuv darajasi past bo‘lib, «Xo‘jayli G‘alla Klaster» misoli orqali infratuzilma, malaka va platformalar etishmasligi aytib o‘tildi. Raqamli platformalar yaratish, keng infratuzilma qurish, fermerlar va agroxodimlar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etish, subsidiyalar orqali investitsiyalar jalb qilish va AI bilan integratsiyalanuvchi IoT ekotizimini rivojlantirish kabi asosiy takliflar asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: agroklaster, raqamli texnologiyalar, IoT, GIS, samaradorlik, innovatsiya.

Dunyo agrar sektorida raqamli transformatsiya jadal kechmoqda. IoT (Internet of Things), GIS, katta malumotlar tahlili, suniy intellekt va blockchain kabi yechimlar fermerlar, qayta ishlash korxonalari, logistika xizmatlari va bozorlar o‘rtasida real vaqtda malumot almashishga, resurslarni optimal taqsimlashga va boshqaruv qarorlarini yangi pog‘onaga ko‘tarishga imkon yaratadi. Niderlandiyaning “Food Valley” va “Westland” issiqxona klasterlari, AQShning Kaliforniya shtati, Yaponiyaning “Smart Agriculture” dasturi kabi misollar raqamli yechimlar tuproq va suv malumotlarini sensorlar orqali monitoring qilish, dronlar va GIS kabi texnologiyalardan foydalanib o‘simlik fiziologiyasini tahlil etish, blokcheyn orqali talab yuqori bo’lgan bozorlar bilan shaffof xisob-kitob qilish imkonini berishi natijasida qishloq xo‘jaligida samaradorlikni sezilarli oshirayotganini ko‘rsatdi.

Agroklasterlar O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining boshqaruv modeliga aylangan, ammo ularning samaradorligi ko‘p jihatdan innovatsiya va raqamli yechimlarning joriy etilishiga bog‘liq. Jahon tajribasi raqamli texnologiyalar resurslardan tejamkor foydalanish, qaror qabul qilishni tezlashtirish va fermerlar daromadini oshirishda kalit omil ekanini ko‘rsatmoqda. “Frontiers” jurnalidagi qo‘shma tadqiqotlar raqamli texnologiyalar amaliyotga joriy qilinsa, iqlimga moslashgan fermerlik amaliyatlarini kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash va xo‘jaliklar barqarorligini mustahkamlash mumkinligini takidlaydi. Ayni paytda, O‘zbekistondagi yirik agroklasterlarning ko‘pchiligi ishlab chiqarish va logistikada raqamli yechimlardan faol foydalanmayapti: sensorlar, GIS xaritalar va raqamli platformalar yetishmasligi sohaning iqtisodiy salohiyatini to‘liq ochib bermayapti.

Agrosanoat majmuasining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlash, mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini ilg‘or texnologiyalar asosida tashkil etish, agrobiznes subyektlari o‘rtasidagi kooperatsiya va integratsiyani kuchaytirish, hamda mehnat unumdorligini oshirish maqsadida agroklaster modeli keng qo‘llanilmoqda. Bu modelning samarali ishlashi, ayniqsa, raqamli texnologiyalardan oqilona va samarali foydalanish bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy raqamli yechimlar agroklasterlarning barcha bo‘g‘inlari — fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika va savdo tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtirish, real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvini ta’minlash, ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish, xarajatlarni optimallashtirish va qabul qilinadigan qarorlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu paragrafda, avvalo, dunyodagi yetakchi agroklasterlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi tahlil etiladi, so‘ngra O‘zbekistondagi yirik agroklasterlar faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish holati ko‘rib chiqiladi va nihoyat, mamlakatimiz agroklasterlarida raqamli yechimlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Agroklasterlarni raqamlash jarayonida yetakchi davlatlar — Niderlandiya, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi e’tiborga molik. Masalan, Niderlandiyadagi “Food Valley” agroklasterida raqamli texnologiyalar, jumladan, IoT (Internet of Things), GIS (Geographic Information Systems), Big Data, AI (Artificial Intelligence), Blockchain kabi yechimlar qishloq xo‘jaligining barcha bosqichlariga joriy qilingan. Masofaviy sensorlar va dronlar orqali real vaqtda yer, suv va o‘simlik holati nazorat qilinib, mahsulot yetishtirishdagi optimal qarorlar qabul qilinadi. Shu orqali mahsulot hosildorligi 25–30% ga oshgan, suv sarfi 20% ga kamaygan.

Yaponiya va Janubiy Koreyada raqamli texnologiyalar fermer xo‘jaliklarigina emas, balki logistika va eksportni muvofiqlashtirishga ham yo‘naltirilgan. Masalan, Yaponiyaning “Smart Agriculture” dasturi doirasida foydalanilayotgan AI yechimlari orqali agrar mahsulotlarni qayta ishlash va savdoga chiqarish jarayonlari 35% ga samarali tashkil qilinmoqda. Janubiy Koreyada esa, raqamli platformalar orqali fermer va iste’molchi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatilgan, bu esa ortiqcha vositachilarni qisqartirib, mahsulot narxini pasaytirishga olib kelmoqda.

Quyidagi jadvalda xorijiy davlatlardagi agroklasterlarda raqamli texnologiyalar samaradorligi solishtirilgan (1-jadval):

1-jadval


Raqamli texnologiyalarning xalqaro tajribadagi samaradorli[1]

Davlat	Hosildorlik oshishi (%)	Suv sarfi kamayishi (%)	AI/IoT joriy darajasi (%)
Niderlandiya	30	20	95
AQSh (Kaliforniya)	25	18	90
Germaniya	20	15	85
Yaponiya	35	25	95
Janubiy Koreya	22	20	93

AQShdagi Kaliforniya shtatida joylashgan agroklasterlar ham raqamli yechimlardan samarali foydalanmoqda. Bu yerda fermerlar avtomatlashtirilgan irrigatsiya tizimlari, mobil ilovalar orqali meteoma’lumotlar va bozor konyunkturasi

[1] Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

haqida ma’lumotlar olib, o‘z qarorlarini tez va aniq qabul qilish imkoniga ega. Shunga o‘xshash, Germaniyaning Bavariya mintaqasidagi agroinovatsion klasterlar Big Data orqali agrotexnik tadbirlarni rejalashtirishda yuqori samaraga erishgan.



1-rasm. Raqamli texnologiyalar orqali hosildorlik oshishi (xalqaro tajriba asosida)[2]

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Prezidentning 2020 yil 23 iyundagi “Agrosanoat sohasida klaster tizimini joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4749-son qarori, 2022 yilda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligini raqamlash strategiyasi” shular jumlasidandir. Ammo amaldagi holat tahlili O‘zbekistondagi ko‘plab agroklasterlarda raqamli yechimlardan foydalanish darajasi hali past ekanligini ko‘rsatmoqda.

Masalan, Samarqand, Toshkent, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida faoliyat yuritayotgan yirik agroklasterlar faqat mahsulot yetkazib berish va qayta ishlashda raqamli texnologiyalardan qisman foydalanmoqda. Tuproq unumdorligi, suv ta’minoti va fitosanitar holatni baholashda IoT sensorlar, GIS dasturlari va dronlar yetarlicha joriy etilmagan. Ko‘pincha, ma’lumotlar hali ham qog‘ozda yuritiladi yoki Excel kabi oddiy dasturlarda saqlanadi.


“XO‘JAYLI G‘ALLA CLASTER” MCHJ faoliyatida raqamli-innovatsion texnologiyalarni qo‘llash darajasi hozircha past bo‘lib, bu klasterning innovatsion rivojlanishida cheklovlarni keltirib chiqarmoqda. Klasterda 2021–2024 yillar davomida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IoT yoki boshqa raqamli yechimlar joriy etilmagani kuzatiladi. Masalan, texnika va innovatsiyalar holati bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlili to‘rt yil davomida birorta ilmiy-texnik innovatsiya joriy etilmaganini ko‘rsatdi. Shuningdek, raqamli boshqaruv platformalari (masalan, ERP, CRM tizimlari) yoki GIS, agro-dron kabi ilg‘or texnologiyalar klaster amaliyotida qo‘llanilmayapti. Bu holat, ilmiy nuqtai nazardan, klasterning kelajakdagi raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki jahonda agroklasterlar raqamlashtirish orqali resurs tejamkorligi va mahsuldorlikni oshirishga erishmoqda – masalan, tomchilab sug‘orish va aqlli monitoring vositalari yordamida suv sarfini 20–30 % gacha kamaytirish imkoni amalda isbotlangan. Klasterning bunday innovatsion imkoniyatlardan chetda qolishi uning operatsion samaradorligida foydalanilmayotgan zaxiralar mavjudligini anglatadi.

[2] Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

Raqamli texnologiyalar sohasi bo‘yicha klasterning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ayrim ijobiy o‘zgarishlar ham mavjud. Xususan, klaster texnika parkini kengaytirishga erishgan: 2021 yilda 4 ta turli qishloq xo‘jaligi texnikasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib ular soni 9 taga yetdi. Natijada, bir gektarga to‘g‘ri keladigan texnika ta’minoti ko‘rsatkichi 0,23 dan 0,53 gacha oshdi, bu esa mexanizatsiya darajasi ortganini bildiradi. Biroq texnika parkining yangilanish darajasi atigi 1% atrofida qolmoqda va xorijiy ilg‘or texnikalar umuman jalb qilinmagan. Bu klasterning zaif tomonidir – eskirgan texnologiyalar qo‘shimcha xarajatlar va ishlab chiqarishdagi nosozlik xavfini oshiradi. Raqamli innovatsiyalarning joriy etilmagani esa klasterni SWOT tahlil nuqtai nazarida ichki zaif jihat sifatida tavsiflaydi. Sababi, raqamli infratuzilmaning yo‘qligi va innovatsion texnologiyalarning cheklangan qo‘llanilishi klasterdagi ish jarayonlarini hali ham an’anaviy usullarga tayanishga majbur qilmoqda.

Klasterda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish uning umumiy samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, aqlli qishloq xo‘jaligi elementlarini joriy etish (masalan, tuproq namligini sensorlar orqali monitoring qilish, vegetatsiya jarayonini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish) hosildorlik va sifatni sezilarli darajada yuksaltiradi. Shu bois, “XO‘JAYLI G‘ALLA CLASTER” uchun raqamli transformatsiya strategik imkoniyat hisoblanadi. Kelgusida klasterda agrotexnik jarayonlarni avtomatlashtiruvchi dasturiy tizimlar, onlayn monitoring platformalari va elektron logistika yechimlarini tatbiq etish lozim. Bu orqali resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda bozor talablariga tezkor javob qaytarish imkoniyatlari kengayadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ichki operatsion samaradorlikni oshiradi, balki klasterning iqtisodiy barqarorligi va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlovchi muhim omil bo‘ladi.

Ayrim agroklasterlarda raqamli platformalar orqali sotuvni tashkil etish amaliyoti kuzatilmoqda. Masalan, “Silverleafe” agroklasteri elektron tijorat yechimlaridan foydalangan holda o‘z mahsulotlarini Rossiya va Xitoy bozorlariga eksport qilmoqda. Biroq bu kabi misollar ko‘p emas. Aksariyat agroklasterlarda raqamlashtirish faqat logistika bo‘g‘inida namoyon bo‘lib, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari an’anaviy usulda amalga oshiriladi. Mutaxassislarning yetishmasligi, raqamli infratuzilmaning sustligi, ma'lumotlarni integratsiyalashuvining mavjud emasligi kabi omillar bu jarayonni sekinlashtirmoqda.



2-rasm. O‘zbekistondagi agroklasterlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati[3]

[3] Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

Yuqoridagi diagramma O‘zbekistondagi agroklasterlarda raqamli texnologiyalar (GIS+IoT, AI, Blockchain, masofaviy monitoring va raqamli ta’lim)dan foydalanish darajasini vizual tarzda ko‘rsatadi. Foydalanish darajalari quyidagicha baholangan:

1 – boshlang‘ich bosqich,
3 – qisman joriy etilgan,
5 – to‘liq joriy etilgan.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, GIS + IoT va raqamli treninglar nisbatan faolroq qo‘llanilmoqda, Blockchain esa eng kam joriy etilgan texnologiya hisoblanadi.

Geografik axborot tizimlari (GIS) – bu fazoviy (geolokatsiyali) ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, tahlil qilish va vizual ko‘rinishda taqdim etish imkonini beradigan texnologiyalar majmuasidir. Agroklasterlarda GIS texnologiyalarining joriy etilishi resurslardan samarali foydalanish, agrotexnik tadbirlarni optimallashtirish, hosildorlikni aniqlik bilan prognozlash hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

GIS texnologiyalari orqali agroklaster hududi bo‘yicha quyidagi axborotlar bazasi shakllantiriladi:

- Tuproq tahlillari va xaritalari;
- Sug‘orish tizimlarining joylashuvi;
- Yerlarning foydalanish darajasi va rotatsiya xaritalari;
- Hosildorlik va zararkunandalar tarqalish zonalari.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Masalan, Braziliyaning AgriTech agroklasterlarida GIS asosida paxta va soya ekiladigan hududlar bo‘yicha agro-iqlim zonalashuvi amalga oshirilgan bo‘lib, bu yer maydonlarini optimal ekish vaqti va texnologik chora-tadbirlar asosida boshqarish imkonini bergan. Natijada hosildorlik 12–15% ga ortgan va suv sarfi 20% ga kamaygan [1].

O‘zbekistonda esa, “Agroklasterlarni rivojlantirish dasturi” doirasida GIS texnologiyalaridan foydalanishga qadamlar qo‘yilmoqda. Xususan, Samarqand, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlarida GIS asosida yer bonitirovkasi va irrigatsiya xaritalari ishlab chiqilgan. Bu esa agroklasterlardagi resurslardan foydalanish va ekin joylashtirishning ilmiy asosda amalga oshirilishini ta’minlamoqda [2].

2-jadval
GIS texnologiyalari qo‘llanilishining asosiy afzalliklari[4]

Yo‘nalish	GIS orqali yechim	Natijasi
Yer sifati va boniteti	Tuproq xaritalash, PH va unumdorlik tahlili	Optimal ekin joylashtirish
Sug‘orish samaradorligi	Irrigatsiya zonalashuvi va suv oqim xaritalari	Suv tejamkorligini oshirish
Monitoring va nazorat	Dron va sun’iy yo‘ldosh xaritalari	Tezkor nazorat va ogohlantirish tizimi
Hosildorlikni prognozlash	Fazoviy ko‘rsatkichlar asosida modellashtirish	Reja asosida ishlab chiqarishni boshqarish

Hozirgi global tendensiyalar GIS’ni boshqa raqamli texnologiyalar – IoT (sensorlar) va AI (sun’iy intellekt) bilan integratsiyalashgan holda qo‘llashni taqozo qilmoqda. Bu integratsiya agroklasterlarda raqamli agronomiya konsepsiyasining asosi sifatida qaralmoqda. GIS orqali olingan fazoviy ma’lumotlar sun’iy intellekt asosidagi modellarga kiritilib, aniq qarorlar qabul qilinadi: qayerga nima ekish, qachon sug‘orish, qaysi hududda zararkunanda xavfi borligi aniqlanadi.

[4] Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

Agroklasterlarda **GIS (Geographic Information Systems)** texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, faqatgina texnik joriy etish emas, balki tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi.

Agroklasterlarda GIS texnologiyalari samaradorligini oshirishning quyidagi yo‘llari mavjud:

1. **Yagona raqamli geoaxborot platformasini yaratish: h**ar bir agroklaster uchun yagona GIS asosidagi boshqaruv platformasi ishlab chiqilishi kerak. Bu platforma:
   - yer boniteti, sho‘rlanish, ekin joylashuvi kabi qatlamlarni o‘z ichiga olishi;
   - real vaqtli monitoring (dronlar, masofaviy zondlash) bilan integratsiyalashgan bo‘lishi;
   - IoT va AI tizimlari bilan uzviy bog‘liq ishlashi lozim.

Bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida agroklasterda ekinlarni joylashtirish, suv taqsimoti, hosildorlik prognozi bo‘yicha avtomatlashtirilgan va ilmiy qarorlar qabul qilinadi.

2. **GIS mutaxassislar tayyorlash va malaka oshirish:** Texnologiya ishlamaydi, agar uni boshqara oladigan kadr bo‘lmasa. Shu bois:
   - har bir agroklasterda **GIS operatorlari** va **analitiklar** jamoasi shakllantirilishi;
   - ular uchun **uzluksiz treninglar, sertifikatlashtirish dasturlari** yo‘lga qo‘yilishi lozim.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Natijada GIS ma’lumotlarining to‘g‘ri yig‘ilishi, talqin qilinishi va amaliyotga tadbiq etilishi ta'minlanadi.

3. **Dronlar va masofaviy zondlash texnologiyalarini GIS bilan integratsiya qilish:** Dronlar orqali olinadigan multispektral tasvirlar o‘simliklarning salomatligi, sug‘orilmagan zonalar va zararkunanda xavfi kabi ko‘rsatkichlarni aniqlaydi. Bu ma’lumotlar **GIS tizimi** orqali aniq xaritalarga joylashtiriladi. Natijada har bir yer maydoni uchun differensial (ya’ni, har qismga o‘ziga xos yondashuv) agrotexnik tadbirlar rejalashtiriladi.

4. **Suv resurslarini boshqarishda GIS asosli zonalashuv** orqali sug‘orish inshootlari xaritasi, qiyalik, suv oqimi va infiltrlash zonalari aniqlanadi. Shunga mos ravishda **suv taqsimoti optimallashtiriladi**, bu esa suv tejamkorligini oshiradi. Natijada suv sarfi 20–30% gacha qisqaradi, ayniqsa paxta va bog‘dorchilik agroklasterlarida.

5. **Mobil GIS ilovalarini joriy etish,** fermer va agroklaster xodimlari uchun mobil qurilmalar orqali, joylashuvga asoslangan real vaqtli xaritalar, hosil monitoringi va ogohlantirish tizimlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Buning natijasida qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi, xatoliklar kamayadi.

6. **GIS va AI tizimlarining integratsiyasi:** GIS ma’lumotlar bazasiga AI algoritmlarni bog‘lab orqali, yer unumdorligi bo‘yicha prognoz, optimal ekin strukturasini aniqlash, ekologik xavflarni oldindan ko‘rish mumkin bo‘ladi.Buning natijasida O‘zgaruvchan agroiqlim sharoitida moslashuvchan rejalashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Agroklasterlarda **AI (Artificial Intelligence – sun’iy intellekt)** texnologiyalaridan foydalanish qishloq xo‘jaligi faoliyatini chuqur raqamlashtirish, samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Agroklasterlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish zamonaviy aqlli qishloq xo‘jaligi (smart agriculture) modelining asosi hisoblanadi. AI tizimlari yordamida katta hajmdagi ma’lumotlar (big data) real vaqt rejimida qayta ishlanadi va qaror qabul qilish avtomatlashtiriladi. Bu esa agroklasterlarda hosildorlikni oshirish, resurslarni tejash,

ekin kasalliklarini oldindan aniqlash va agrotexnik tadbirlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

AI texnologiyalari quyidagi yo‘nalishlarda keng qo‘llanilmoqda:

1. **Hosildorlik prognozi va ekin modeli:** mashinali o‘rganish (Machine learning) algoritmlari (Random Forest, Neural Networks) tuproq, iqlim, urug‘ sifati, sug‘orish hajmi kabi omillar asosida hosildorlikni prognozlashda qo‘llaniladi. Misol uchun, Hindistondagi “CropIn” AI platformasi fermerlarga har bir yer maydoni uchun aniq agrotexnik tavsiyalar beradi;

2. **Zararkunanda va kasalliklarni aniqlash:** AI bilan integratsiyalangan dron va kamera tizimlari orqali ekinlar holati tahlil qilinadi. Tizimlar NDVI (Normalized Difference Vegetation Index), RGB tasvirlar va konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) orqali o‘simlikdagi nuqsonlarni aniqlaydi;

3. **Sug‘orishni optimallashtirish:** AI algoritmlari real vaqtda iqlim va tuproq namligi ma’lumotlari asosida suv berish rejasini tuzadi. Natijada, suv sarfi 25–30% ga kamayadi. Misol uchun, IBM Weather AI asosidagi “Watson Decision Platform for Agriculture” shunga xizmat qiladi.

4. **Traktorlar va texnikalarni avtomatlashtirish:** AI asosida boshqariladigan avtonom traktorlar va robotik ekish texnikalari yordamida inson omilini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish mumkin.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qishloq xo‘jaligida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni bosqichma-bosqich joriy etishni ko‘zlamoqda. Bunga misol qilib quyidagi loyihalarni keltirish mumkin:

- **Farg‘ona, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlaridagi agroklasterlarda** pilot loyihalar asosida AI yordamida hosildorlik prognozi va zararkunanda monitoringi amalga oshirilmoqda;[3]
- **Yaponiyalik “NARO” instituti bilan hamkorlikda** AI asosida ishlovchi paxta kasalliklarini aniqlovchi mobil ilova ishlab chiqilmoqda; [4]

Agrobank va qator texnologik firmalar orqali AI asosidagi sug‘orish monitoring tizimlari joriy etilishi rejalashtirilmoqda.[5]

3-jadval

Agroklasterlarda AI qo‘llanilishi yo‘nalishlari va natijalari[5]

Yo‘nalish	AI texnologiyasi	Kutilayotgan samaradorlik
Hosildorlik prognozi	Neural Networks, Random Forest	15–20% aniq prognoz, rejalashtirish imkoniyati
Kasallik aniqlash	CNN, Dron + tasvir tahlili	Erta ogohlantirish, hosilni saqlab qolish
Sug‘orishni optimallashtirish	AI sug‘orish algoritmlari	25–30% suv tejaladi
Texnika avtomatlashtirish	AI+GPS avtonom texnika	Mehnat sarfini kamaytirish, aniqlik oshadi

Agroklasterlarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki ekologik barqarorlik, innovatsion boshqaruv va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Agroklasterlarda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish nafaqat texnik yechimlar, balki tizimli boshqaruv, inson resurslari va infratuzilmani uyg‘unlashtirishni talab qiladi.

Agroklasterlarda AI texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning quyidagi yo‘llari mavjud:

[5] Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

1. **Sifatli ma’lumotlar bazasini shakllantirish (Data readiness):** AI samaradorligi uchun asosiy shart — katta hajmdagi, tizimli va toza ma’lumotlar mavjudligi. Agroklasterlar uchun yer boniteti, hosildorlik, sug‘orish, kasallik holatlari bo‘yicha raqamli baza yaratilishi lozim. Ma’lumotlar real vaqt rejimida IoT sensorlar, dronlar va mobil ilovalar orqali yig‘ilishi kerak. Natijada AI algoritmlari uchun o‘qitish (training) imkoniyati oshadi, natijalar ishonchli bo‘ladi.

2. **Mahalliy agroklasterlarga moslashtirilgan AI modellarini ishlab chiqish:** ko‘pgina tayyor AI modellari umumiy ma’lumotlarga asoslangan. O‘zbekistonda esa: iqlim, tuproq, suv resurslari, hosil turlari o‘ziga xos. Shu sababli, AI modellarini **lokal sharoitga moslashtirish** (local training) talab etiladi. Buning natijasida modelning aniqligi oshadi, real agroklasterlarda qo‘llanilishiga imkon beradi.

3. **Agrotexnik xizmatlar bilan AI ni integratsiyalash:** AI ni faqat markaziy tizimlarda emas, balki agroxizmatlar faoliyatida ham joriy etish zarur. Paxta, meva, sabzavot agroklasterlari uchun AI asosida **optimal ekin joylashtirish, zararkunandaga qarshi reaksiya, hosil yetishish vaqtini prognozlash** tizimlari yaratilishi kerak. Natijada dehqon va fermer darajasida texnologik qarorlarni tez va to‘g‘ri qabul qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

4. **AI texnologiyalaridan foydalanuvchilarni tayyorlash: s**un’iy intellekt vositalari samarali ishlashi uchun ularni ishlatadigan kadrlar zarur. Fermerlar, agroklaster mutaxassislari uchun **AI asoslarini tushuntiruvchi treninglar,** agrotexnologlar va agromenejerlar uchun **data-analitika, mashinali o‘rganish, AI etikasi** kabi kurslar tashkil qilish zarur. Natijada AI texnologiyalaridan noto‘g‘ri yoki cheklangan foydalanish oldi olinadi.

5. **AI, IoT va GIS tizimlarini birlashtirish:** AI alohida ishlamog‘i emas — u GIS (fazoviy ma’lumotlar) va IoT (real vaqtli sensorlar) bilan **integratsiyalashgan holatda** ishlasa, foydasi maksimal bo‘ladi. Masalan, AI algoritmi GIS xaritada NDVI ko‘rsatkichiga asoslanib, zararkunanda aniqlaydi va IoT orqali avtomatik purkashga buyruq beradi. Buning natijasida resurslar tejaladi, inson aralashuvi kamayadi, samaradorlik oshadi.

6. **Davlat siyosati va rag‘bat tizimini shakllantirish:** AI joriy qilinayotgan agroklasterlar uchun soliq imtiyozlari, innovatsion grantlar, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlash lozim. Natijada AI joriy etish sur’ati tezlashadi, klasterlar innovatsion salohiyati ortadi.

4-jadval

Agroklasterlarda AI texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning quyidagi yo‘llari[6]

Yo‘nalish	Chora-tadbirlar	Kutilayotgan natija
Ma’lumotlar bazasini yaxshilash	IoT sensorlar, dronlar, mobil ilovalar orqali yig‘ish	Model aniqligi oshadi
AI modellarini moslashtirish	O‘zbekistonga xos yer-iqlim sharoitlariga asoslash	Reallikka yaqin prognozlar
Xizmatlar integratsiyasi	Ekin tanlash, kasallik nazorati, avtomatik purkash	Texnologik qarorlar tezligi ortadi
Kadrlarga ta’lim berish	Trening, kurslar, amaliy ko‘nikmalar	Foydalanuvchi xatolari kamayadi
AI + GIS + IoT integratsiyasi	Sun’iy intellektni geo va fazoviy ma’lumotlar bilan birlashtirish	Kompleks boshqaruv, maksimal samaradorlik
Davlat siyosati	Subsidiyalar, grantlar, DXXS modeli	Texnologik o‘sish sur’ati oshadi

[6] Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

XULOSA

Jahon tajribasi raqamli texnologiyalar agroklasterlar samaradorligini sezilarli oshirishini tasdiqlaydi. IoT, GIS va AI orqali hosildorlik 20–35 % ga oshirilishi, suv sarfi 15–25 % ga kamayishi, qarorlar qabuli tizimi avtomatlashtirilishi va qo'shimcha qiymat yaratilishi mumkin. Ammo O'zbekistondagi agroklasterlarda raqamli echimlarning joriy etilishi hali past. «Xo'jayli G'alla Klaster» misolida innovatsiya joriy etilmagani, malakali kadrlar va infratuzilma etishmasligi ko'rsatildi. Shu sababli quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Milliy raqamli platformani yaratish. Agroklasterlar uchun barcha ma'lumotlar – tuproq, suv, ekin monitoringi, logistik harakatlar va bozor narxlari integratsiyalashgan tizimga yig'ilishi zarur;
- Infratuzilmani yaxshilash. Chekka qishloq hududlarda shuningdek yuqori tezlikdagi internet, elektr energiya va sensor ta'minoti rivojlantirilishi lozim.
- Malaka oshirish. Fermerlar va klaster xodimlari IoT, GIS va AI bo'yicha talim kurslarida o'qitilishi lozim.
- Qo'llab-quvvatlash va subsidiyalar. Davlat tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy etuvchi klasterlarga soliq imtiyozlari, grantlar va imtiyozli kreditlar taqdim etilishi kerak.
- AI bilan integratsiya. IoT sensorlaridan tushgan malumotlar sun'iy intellekt asosidagi modellarga uzatilib, kasalliklarni avvaldan aniqlash, hosildorlik prognozlari va resurs taqsimotini optimallashtirish zarur.

Ushbu takliflar agroklasterlarda raqamli transformatsiyani tezlashtirishga va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FAO (2022). "GIS-based Agricultural Zoning in Brazil's Agroclusters."
2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi (2023). "Agroklasterlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tahliliy hisobot."
3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi (2023). "Agroklasterlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar". https://agro.uz
4. Yaponiyaning Milliy qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tadqiqotlar tashkiloti (NARO) bilan O'zbekiston o'rtasidagi ilmiy-texnik hamkorlik bo'yicha press-reliz, 2023. https://naro.go.jp
5. Agrobank (2023). "Raqamli qishloq xo'jaligi: Agrobank tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan AI yechimlari". https://agrobank.uz

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ И ВНЕДРЕНИЯ ПЕРЕДОВЫХ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ

Автор: Журакулова Мухлиса Джахонгировна [1]
Аффилиация: Ассистент-преподаватель Международного университета Нордик [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564596

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается эффективность цифровой трансформации и внедрения передовых систем управления в условиях современной экономики. Цель исследования – определить ключевые факторы, влияющие на успешность цифровизации предприятий и оценить её влияние на производительность, инновационную активность и экономическую безопасность организаций[3; 6]. Применяются методы сравнительного анализа, системного и статистического подходов. В результате исследования выявлено, что использование цифровых платформ, ERP и CRM систем, а также технологий искусственного интеллекта способствует повышению прозрачности бизнес-процессов, снижению издержек и росту конкурентоспособности предприятий[2; 5]. Предложены практические рекомендации по повышению эффективности цифровой трансформации в корпоративном секторе Узбекистана.

Ключевые слова: цифровая трансформация, системы управления, ERP, CRM, эффективность, инновации, экономика Узбекистана.

ВВЕДЕНИЕ

В последние годы цифровая трансформация стала одной из ключевых тенденций развития мировой экономики. Современные предприятия осознают необходимость внедрения цифровых технологий, которые позволяют оптимизировать бизнес-процессы, повысить производительность и укрепить экономическую безопасность. В условиях постпандемического восстановления и усиления глобальной конкуренции именно цифровизация определяет устойчивость компаний к внешним шокам. Для Узбекистана процесс цифровой трансформации особенно актуален в контексте реализации стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030»[4]. Согласно данным Министерства цифровых технологий, доля цифровых услуг в ВВП страны увеличилась с 2,1% в 2018 году до 4,7% в 2024 году[4], а количество предприятий, использующих ERP-системы, выросло почти в 3 раза[4;8]. Это свидетельствует о постепенном переходе национальной экономики к модели, основанной на знаниях и инновациях. Однако процесс цифровизации сопровождается и рядом вызовов: недостаток кадров, высокий уровень первоначальных инвестиций, отсутствие интегрированной стратегии управления изменениями. Эти факторы требуют научного анализа эффективности цифровой трансформации и оценки её влияния на корпоративную результативность.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологическая база исследования основывается на сочетании системного, сравнительного и статистического подходов. Объект исследования: предприятия малого и среднего бизнеса, активно внедряющие цифровые системы управления (ERP, CRM, BPM и др.). Предмет исследования: эффективность внедрения цифровых технологий и их влияние на показатели производительности и финансовой устойчивости. Методы: контент-анализ, SWOT-анализ, сравнительный анализ статистических данных, а также экономико-математическое моделирование[2;3]. Информационная база: отчеты Всемирного банка (World Development Indicators), данные Государственного комитета по статистике Республики Узбекистан, материалы консалтинговых компаний (PwC, Deloitte, McKinsey) и научные публикации за 2020–2024 годы.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Современные тенденции цифровой трансформации. Цифровизация является ключевым фактором роста производительности труда и оптимизации процессов. Согласно отчету *McKinsey Digital Index (2024)*, компании, полностью интегрировавшие цифровые решения в свои процессы, увеличили прибыльность в среднем на 26% по сравнению с аналогами, которые только начали цифровую модернизацию[2].

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

1-таблица.
Этапы и направления цифровой трансформации предприятий[1]

Этап	Содержание	Основной результат
Оцифровка процессов	Внедрение ERP, CRM, электронного документооборота	Повышение прозрачности
Интеграция данных	Использование облачных платформ и Big Data	Сокращение издержек
Автоматизация управления	Внедрение ИИ и аналитических систем	Рост эффективности решений
Инновационное развитие	Использование IoT и блокчейна	Повышение конкурентоспособности

2-таблица.
Динамика цифровизации предприятий Узбекистана в 2020–2024 гг[4]

Год	Доля предприятий, использующих ERP/CRM (%)	Рост производительности труда (%)	Снижение операционных издержек (%)
2020	12	2,8	1,5
2021	18	4,1	3,2
2022	25	5,6	4,0
2023	32	7,8	5,4
2024	39	9,2	6,1

Из таблицы видно, что уровень внедрения цифровых систем в Узбекистане демонстрирует устойчивый рост. Это подтверждает эффективность программ по поддержке цифровизации, таких как проект «Цифровое предприятие» и грантовые программы для ИТ-инноваций. Эффективность внедрения передовых систем управления. Анализ показал, что внедрение ERP и CRM систем оказывает положительное влияние на:[10]

— **сокращение управленческих ошибок** на 30–35%; Механизмы влияния: **Централизация данных.** ERP/CRM объединяют информацию (заказы, запасы, финансы, договоры) в единой базе, что устраняет несогласованность версий документов и ручные переносы данных — частая причина ошибок. **Автоматизация рутинных операций.** Автозаполнение, проверка корректности вводимых полей, валидация бизнес-правил (авторизация платежей, контроль лимитов) уменьшают человеческий фактор. **Стандартизация процессов.** Система задаёт единый сценарий выполнения операций (workflow), что снижает вариативность действий сотрудников. **Аудит и журналирование.** Все изменения фиксируются — легче найти и исправить источник ошибки, а также отладить процесс. Практический пример: раньше менеджеры вручную переносили данные из заказов в накладные — это давало дубли и опечатки. После внедрения ERP накладные генерируются автоматически, исключая копипаст — ошибки падают. KPI: число корректировок/возвратов в документах в месяц; доля операций с корректировками.

— **ускорение производственного цикла** на 25%; **Планирование и расписание (MRP/MPS).** ERP рассчитывает потребности в материалах и формирует заказы вовремя, снижая простои из-за отсутствия комплектующих. **Оптимизация загрузки оборудования и смен.** Система позволяет оптимально распределять заказы по линиям и сменам. **Скорость передачи данных между подразделениями.** CRM передаёт прогнозы продаж в производство (sales-to-production), уменьшая задержки между заказом и запуском производства. **Автоматизация операций контроля качества и списаний.** Быстрые проверки и автоматические корректировки уменьшают время на ручную сверку. Условия достижения: корректно настроенные алгоритмы планирования, точные данные по запасам и нормативам, интеграция с производственным оборудованием (MES/IoT) при необходимости.

— **рост рентабельности** на 12–15%; Источник роста прибыли: **Снижение издержек.** Меньше ошибок, оптимальные закупки (меньше излишков и дефицита), снижение накладных расходов через автоматизацию. **Увеличение объёма продаж / удержание клиентов.** CRM повышает конверсию продаж и повторные покупки, снижая стоимость привлечения клиента. **Лучшее ценообразование и маржинальный анализ.** ERP позволяет анализировать себестоимость по статьям и продуктам в реальном времени, что улучшает управленческие решения по ценам. **Эффективное управление запасами.** Замораживание капитала в запасах снижается, освобождается оборотный капитал. Важное уточнение: прирост рентабельности в 12–15% — условная средняя оценка из отраслевых кейсов; реальный эффект зависит от исходного уровня эффективности, масштабов бизнеса и качества внедрения.

— **улучшение взаимодействия с клиентами** и прозрачности отчетности. Как это реализуется: **Единая панель взаимодействий.** CRM хранит историю контактов, сделок, обращений; менеджер видит всю историю и даёт более персонализированный сервис. **SLA и автоматические уведомления.** Система контролирует сроки ответов и автоматически уведомляет клиента, повышая удовлетворённость. **Аналитика и отчёты в реальном времени.** Отчёты по продажам, возвратам, удовлетворённости доступны в 1-клике — прозрачность для руководства и для клиент-менеджеров. **Интеграция каналов коммуникации.** Чат-боты, e-mail, телефон, соцсети — все в одном окне CRM.

В то же время, успех цифровой трансформации зависит от уровня цифровой грамотности персонала и корпоративной культуры инноваций.

5. Основные барьеры цифровизации[7]

— Недостаточная цифровая инфраструктура в регионах. Одним из критических факторов успешной цифровизации является наличие развитой инфраструктуры, включающей высокоскоростной интернет, облачные платформы, серверные мощности и системы информационной безопасности. В регионах, особенно удалённых или с низкой плотностью населения, уровень цифровой инфраструктуры часто значительно ниже, чем в крупных городах. Это ограничивает доступ предприятий к современным цифровым сервисам, затрудняет использование облачных решений и аналитических платформ, а также снижает скорость обмена информацией. Как следствие, предприятия в таких регионах вынуждены работать с ограниченным набором цифровых инструментов, что препятствует их полному переходу на новые технологии.

— Ограниченные финансовые ресурсы малого бизнеса. Малые и микропредприятия сталкиваются с ограничениями в бюджете, что затрудняет инвестирование в дорогостоящие цифровые решения. Внедрение систем автоматизации, ERP-платформ, CRM-систем и современных средств аналитики требует значительных первоначальных затрат, а также регулярного обслуживания и обновления программного обеспечения. Для многих малых предприятий высокая стоимость внедрения технологий становится серьёзным барьером, вынуждая их откладывать цифровую трансформацию или использовать устаревшие решения, что снижает конкурентоспособность и потенциал роста.

— Недостаток квалифицированных IT-специалистов. Успешная цифровизация невозможна без специалистов, способных проектировать, внедрять и поддерживать цифровые системы. На рынке труда наблюдается дефицит профессионалов с навыками программирования, кибербезопасности, работы с большими данными и аналитикой. Для малого бизнеса привлечение и удержание таких сотрудников затруднено из-за ограниченного бюджета на заработную плату, а также высокой конкуренции со стороны крупных компаний. Недостаток квалифицированных кадров ведёт к неправильной настройке цифровых систем, медленной адаптации сотрудников и повышенному риску ошибок при работе с информационными технологиями.

Сопротивление организационным изменениям. Внедрение цифровых технологий требует изменения внутренних процессов, пересмотра обязанностей сотрудников и адаптации корпоративной культуры к новым методам работы. Многие организации сталкиваются с сопротивлением со стороны персонала, которое может выражаться в пассивном нежелании использовать новые системы или в активном противодействии изменениям. Причины такого сопротивления включают страх перед потерей работы, недостаток понимания выгод от цифровизации, а также привычку к традиционным методам работы. Без стратегического управления изменениями и обучения персонала цифровизация может замедляться, а её результаты — быть неполными.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование подтверждает, что цифровая трансформация является ключевым драйвером повышения эффективности и конкурентоспособности предприятий. Внедрение передовых систем управления (ERP, CRM, BPM, AI) способствует оптимизации процессов, снижению затрат и повышению прозрачности[1;3]. Для повышения эффективности цифровой трансформации в Узбекистане рекомендуется: разработать единую государственную стратегию цифровизации бизнеса, создать центры компетенций и обучающие программы по цифровым технологиям, стимулировать частные инвестиции в цифровую инфраструктуру, поддерживать внедрение отечественных программных решений и инноваций. Таким образом, успешная цифровизация не только повышает внутреннюю эффективность компаний, но и укрепляет экономическую безопасность государства в целом.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Deloitte. (2024). *Digital Transformation Report: Global Trends*.
2. McKinsey & Company. (2024). *The Digital Index: Global Productivity Analysis*.
3. Jo'raqulova, M., & Shadibekova, D. (2025). ECONOMIC SECURITY MEASURES IN SMALL BUSINESS ENTERPRISES IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 4(3), 1453-1458.
4. Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан. (2024). *Отчет о цифровизации экономики*.
5. World Bank. (2023). *World Development Indicators: Digital Economy Data*.
6. OECD. (2022). *Digital Transformation for Inclusive Growth*.
7. Jo'raqulova, M., & Shadibekova, D. (2025). ECONOMIC SECURITY THREATS TO SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 4(3), 841-846.
8. Mustafakulov, S. (2023). *Innovation and Digital Economy in Uzbekistan*. *Asian Economic Review*, 45(3), 211–229.
9. Topilov, K. (2024). *Digital Strategy and Enterprise Management*. *Nordic Press Journal*, 12(2), 67–83.
10. Jo‘raqulova, M., Shadibekova, D., & Yuldashev, A. (2025). Kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik masalalarini boshqarish masalalari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 3(2).

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

ЎЗБЕКИСТОНДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИ ХАРАЖАТЛАРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШДА “ДАВОЛАНГАН ҲОЛАТ” ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ

Муаллиф: Самандаров Д.У. [1]
Аффилиация: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси докторанти [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564663

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ўзбекистон соғлиқни сақлаш тизимида молиялаштиришнинг янги механизми — “ҳар бир даволанган ҳолат учун” тўлов тизимини жорий этишнинг аҳамияти, мазмуни ва натижалари ёритилган. Мақолада мазкур механизмнинг халқаро амалиётда кенг қўлланиладиган Diagnosis Related Groups (DRG) методологиясига асосланган ва унинг самарадорлиги таҳлил қилинган. Шунингдек, тизимнинг молиявий ресурслардан оқилона фойдаланиш, тиббий хизматлар сифати ва қамровини ошириш, ҳамда ҳудудлар бўйича адолатли молия тақсимотини таъминлашдаги роли кўрсатилган. Тадқиқот натижалари “ҳар бир даволанган ҳолат учун” молиялаштириш усулининг аҳоли соғлиғини яхшилаш ва тиббий ёрдам самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга эканини кўрсатади.

Калит сўзлар: Соғлиқни сақлаш тизими, молиялаштириш механизми, даволанган ҳолат, Diagnosis Related Groups (DRG), давлат тиббий суғуртаси, самарадорлик, адолатли тақсимот.

КИРИШ

Ўзбекистон соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш доирасида соҳага замонавий молиялаштириш механизмларини жорий этиш устувор вазифалардан бири бўлиб келмоқда. Айниқса, соғлиқни сақлаш муассасаларини молиялаштиришда анъанавий сметаларга асосланган тизим ўзини оқламаётганлиги таъкидлаб ўтилган[1] - бундай усул молиявий ресурслардан самарасиз фойдаланишга ва соҳа йиллар давомида хроник тарзда етарлича молиялаштирилмай қолишига олиб келмоқда. Смета асосида маблағ тақсимлаш амалиёти замонавий халқаро тажрибага ҳам мос эмас, натижада аҳолининг малакали ва қолаверса арзон тиббий хизматларга бўлган талаби тўлиқ қондирилмайди[2]. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонида таъкидланганидек, соғлиқни сақлаш соҳасида энди “маблағ бино учун эмас, балки бемор учун” тамойилига ўтиш зарурлиги белгиланди[3]. Шу боис

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.12.2018 йилдаги 5590-сонли “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида” Фармони.
[2] Рисолат Мадиева (2022). Давлат тиббий суғуртаси: хасталикларни эрта аниқлаш ва олдини олиш, шифокорлар фаолиятини баҳолашда янги тизим. Yuz.uz – Янгий Ўзбекистон сайти, 2 март 2022 Url: https://yuz.uz/uz/news/davlat-tibbiy-sugurtasi.
[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17.01.2019 йилдаги 5635-сонли 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони

охирги йилларда давлат томонидан кафолатланган тиббий хизматлар ҳажмини аниқ белгилаш, маблағларни самарали тақсимлаш ҳамда аҳолини сифатли тиббий ёрдам билан қамраб олиш мақсадида мажбурий тиббий суғурта тизимини босқичма-босқич жорий этиш ишлари бошланди. Бу ислоҳотлар мазмунида тиббиёт муассасаларида кўрсатилган хизматлар учун ҳар бир даволанган ҳолатдан келиб чиқиб молиялаштириш механизмлари жорий этиш долзарб аҳамият касб этмоқда[4].

Амалда бўлган бюджетдан тўғридан-тўғри молиялаш механизмида тиббиёт муассасаларига ажратиладиган маблағлар кўрсатилаётган хизматлар ҳажми ёки натижасига боғлиқ эмас эди. Масалан, илгари 100 нафар бемор қабул қилиш имкониятига эга деб белгиланган шифохона беморларнинг даволанган куни яъни ётоқ кунлари ҳисобга олинган ҳолда маблағлар ажратилган бўлса, ҳозирда ташҳисларга гуруҳига асосланган ҳолда ҳар бир даволанган бемор учун маблағлар ажратилади. Бошқача айтганда, сметага асосланган молиялаштириш тизимида маблағ ажратиш ҳажм ва эҳтимолий кўрсаткичларга асосланган бўлиб, реал ижро ва натижа инобатга олинмаган. Бу эса тизимда юқорида қайд этилганидек моддий ресурслар самарасиз сарфланишига ва тиббий ёрдам сифати ҳамда қамровида камчиликларга олиб келган. Шунингдек, таркибий жиҳатдан турли ҳудудлар ўртасидаги молиялаштириш тафовутлари аҳолига кўрсатилаётган хизматлар сифатини тенглаштиришга тўсқинлик қилган. Зеро, олдинги тизимда маблағлар тиббиёт муассасаларига бир хил услубда тақсимланар эди. Натижада, кўпроқ ва мураккаброқ бемор қабул қилган шифохоналар ҳам камроқ хизмат кўрсатганлари ҳам деярли бир хил тамойилда молиявий маблағлар олгани ҳолатлари кузатилган. Бу муаммолар соғлиқни сақлашда янги, натижага йўналтирилган молиялаштириш усулларини жорий этиш заруриятини кўрсатди.

Даволанган ҳолат бўйича молиялаш деганда стационар тиббий хизматлар учун ҳар бир беморнинг касаллик ҳолатига қараб алоҳида тўлов белгиланадиган тизим тушунилади. У халқаро амалиётда кенг қўлланиладиган Diagnosis Related Groups (DRG) - клиник-харажат гуруҳлари методологиясига асосланади. Яъни беморларнинг ташхис ва даволаниш услубига кўра ўхшаш гуруҳлар учун белгиланган базавий тариф ва мураккаблик индексига биноан клиника муассасасига тўлов амалга оширилади[5]. Бошқача қилиб айтганда, шифохоналарга ажратиладиган бюджет “бир беморни даволаш” қиймати асосида ҳисобланади. Даволанган беморлар сони ва уларнинг клиник ҳолат қанчалик кўп ва мураккаб бўлса, муассаса шунча кўпроқ маблағ олади. Бу ёндашув, аввало, “пул бемор ортидан эргашади” деган тамойилни ҳаётга татбиқ этади ҳамда тиббиёт ташкилотлари фаолиятида рақобат ва самарадорликни рағбатлантиради.

Ўзбекистонда мазкур тизимни жорий этиш 2018-2019 йиллардаги меъёрий ҳужжатларда назарда тутилган. 2018 йил 7 декабрдаги Президент Фармонида соғлиқни сақлаш соҳасида молиялаштиришнинг янги механизмларини босқичма-босқич татбиқ этиш, жумладан клиник-харажатлар гуруҳлари бўйича “ҳар бир даволанган ҳолат учун” тўлов тизимини жорий этиш энг муҳим

[4] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.12.2018 йилдаги 5590-сонли “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида” Фармони.
[5] Анвар Иркаходжаев. Тиббий хизматлар «ҳар бир даволанган ҳолат учун» молиялаштирилади. URL: https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/tibbiy_hizmatlar_har_bir_davolangan_holat_uchun_moliyalashtiriladi

йўналишлардан бири этиб белгиланди[6]. Шу асосда 2019 йил 1 апрелдан бошлаб белгиланган айрим туманларда эксперимент тарзида ушбу молиялаштириш усуллари синовдан ўтказилди[7]. Кейинроқ, 2019 йил 2 августдаги Президент қарори билан 2020 йилдан бошлаб Сирдарё вилояти миқёсида "даволанган ҳолат учун тўлов" ва "аҳоли жон бошига" асосида молиялаштириш методологиясини татбиқ этиш белгиланди[8]. Ушбу қарорга мувофиқ, 2020 йил давомида Сирдарё вилоятидаги 22 та тиббиёт муассаси янги тизимга ўтиши белгиланган[9]. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 январдаги 19-сон қарори билан мазкур ҳудудда "ҳар бир даволанган ҳолат учун" Давлат бюджети ҳисобидан молиялаштириш тартиби тўғрисида вақтинчалик низом тасдқиланди[10]. Унга кўра, вилоятнинг соғлиқни сақлаш бошқармаси, молия бошқармаси ва тиббиёт муассасалари ўртасида давлат хариди шартномалари тузилиб, клиник-харажат гуруҳлари асосида хизматлар қиймати тўланиши йўлга қўйилди. Ҳозирда тиббиёт муассасаларини молиялаштириш Давлат тиббий суғурта жамғармаси орқали амалга оширилмоқда. Тўлов миқдорини ҳисоблашда ҳар бир даволанган ҳолат учун базавий тариф ва касалликнинг мураккаблик каби кўрсаткичлар инобатга олинди[11].

Шундай қилиб, янги механизм бўйича амалиётда шифохоналар энди фақат режалаштирилган кўрсаткичларга эмас, балки ҳақиқий бажарилган хизмати - даволаган ҳар бир бемор учун маблағ олиш тизимига ўтмоқда. Бунга қўшимча равишда, бирламчи тиббий-санитария ёрдами муассасаларида аҳоли жон бошига молиялаштириш ҳам жорий этилмоқда. Молиялаштиришнинг бу каби натижага йўналтирилган турлари жаҳон соғлиқни сақлаш амалиётида аҳолини тиббий хизматлар билан кенгроқ ва сифатлироқ қамраб олиш, шунингдек, маблағлар тақсимотида адолат тамойилларини қарор топтириш учун муваффақият билан қўлланиб келинмоқда.

"Ҳар бир даволанган ҳолат" учун тўлов тизимини жорий этиш бугунги кунда мамлакатимиз тиббиёт соҳасидаги ислоҳотлар самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда ва бу масала ниҳоятда долзарбдир. Биринчидан, мазкур механизм соғлиқни сақлаш соҳасида молия ресурсларидан оқилона фойдаланиш имконини беради. Маблағлар энди институционал лимитларга эмас, бевосита кўрсатилган хизматга боғлиқ ажратилаётгани учун ҳар бир сўмга нисбатан ҳисобдорлик ошади. Тиббиёт муассасалари кўпроқ бемор қабул қилишга, хизматлар сифатини оширишга манфаатдор бўлади, чунки шу орқали ўз молиялаштириш базасини кенгайтириши мумкин. Шу тарзда, соғлиқни сақлаш тизимида ички рақобат ва ташаббускорлик ортиб, пировардида беморлар учун тиббий хизматларнинг сифати ва тезкорлиги яхшиланади.

---

[6] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.12.2018 йилдаги 5590-сонли "Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида" Фармони.
[7] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.12.2018 йилдаги 5590-сонли "Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида" Фармони.
[8] Анвар Иркаходжаев. Тиббий хизматлар «ҳар бир даволанган ҳолат учун» молиялаштирилади. URL: https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/tibbiy_hizmatlar_har_bir_davolangan_holat_uchun_moliyalashtiriladi.
[9] Анвар Иркаходжаев. Тиббий хизматлар «ҳар бир даволанган ҳолат учун» молиялаштирилади. URL: https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/tibbiy_hizmatlar_har_bir_davolangan_holat_uchun_moliyalashtiriladi.
[10] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10.01.2020 йилдаги 19-сонли "Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг тиббиёт ташкилотларини молиялаштириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.
[11] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10.01.2020 йилдаги 19-сонли "Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг тиббиёт ташкилотларини молиялаштириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.

Иккинчидан, янги тизим ҳудудлар бўйича молия тақсимотида адолат ва барқарорликни таъминлашга хизмат қилади. Аввал қайд этилганидек, сметали маблағ тақсимоти шартли равишда “тенг” кўринса-да, аслида ҳудудларнинг демографик ва эпидемиологик хусусиятларини етарлича ҳисобга олмаган. Эндиликда эса “даволанган ҳолат”лар сони ва турлари бўйича тўлов амалга оширилиши орқали маблағлар айнан тиббий эҳтиёж юқори бўлган ҳудудларга кўпроқ йўналтирилади. Масалан, аҳоли сони кўп ва хасталиклар учраш даражаси юқори бўлган туманлар мазкур механизм асосида тегишли равишда кўпроқ маблағ ажратилишига эришади. Шунингдек, клиник-харажат гуруҳлари тиббиётнинг турли йўналишларини қамраб олгани сабабли, ихтисослаштирилган ёрдамга эҳтиёж мос равишда қондирилиги учун асос яратади. Бошқача айтганда, бу тизим ҳудудлараро тиббий хизмат фарқларини молиялаштириш орқали бартараф этишга кўмаклашади.

Учинчидан, мазкур молиялаштириш усули ниҳоятда долзарб ижтимоий мақсад - аҳолининг ўз ҳаёти ва соғлиғини сақлаш учун ортиқча иқтисодий қийинчиликларсиз, бепул тиббий ёрдам олиш имкониятиним таъминлашга хизмат қилади. Ўзбекистонда ҳам юқорида таъкидланганидек молиялаштириш Давлат тиббий суғурта жамғармаси орқали ташкиллаштирилмоқда. Натижалар таҳлили янги тизимнинг самарадорлигини тасдиқламоқда. Жумладан, тиббий хизматлар нархи ошишининг олди олиниб, аҳоли учун арзон ва сифатли хизматлар кўрсатила бошланди, малакали мутахассислар жалб этилмоқда[12]. 2020 йилга нисбатан 2021 йилда жарроҳлик амалиётлари сони 1,5 баробарга ошганлиги, вилоятдан пойтахтга юқори малакали ёрдам олиш учун юборилаётган беморлар сони эса 2 баробарга камагани қайд этилган[13]. Демак, аҳолининг вақт ва маблағини сарфлаб бошқа йирик шифохоналарга қатнаши сезиларли қисқарган, тиббий ёрдам олиш учун беморларнинг ўз ҳудудидаги имкониятлари кенгайган бўлиб, бу “инсон манфаати” йўлидаги муҳим ютуқдир. Шу тариқа, “ҳар бир даволанган ҳолат учун тўлов” механизми нафақат молиялаштириш самарадорлигини, балки тиббий хизматларнинг сифат ва натижадорлигини ҳам ошириш воситаси бўла олишини кўрсатди. У соғлиқни сақлаш соҳасини ислоҳ этишнинг бош мақсадлари бўлмиш аҳоли саломатлигини яхшилаш, профилактика ва даволаш сифати ҳамда қамровини оширишга бевосита хизмат қилади.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ХУЛОСА

Юқоридаги таҳлил ва дастлабки натижалардан келиб чиқиб, Ўзбекистон соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштиришда “ҳар бир даволанган ҳолат учун” тўлов тизимини жорий этиш бугунги кунда жуда долзарб эканини таъкидлаш жоиз. Бу механизм соғлиқни сақлаш соҳасида кўп йиллик муаммо бўлиб келган молия ресурсларидан самарасиз фойдаланиш ҳолатларини бартараф этишга хизмат қилади. Шунингдек, тиббиёт муассасалари фаолиятини натижага асосланган ҳолда рағбатлантириб, аҳолига кўрсатилаётган хизматлар сифатини оширади ва аҳолининг ортиқча иқтисодий қийинчиликларсиз тиббий ёрдам

[12]Рисолат Мадиева (2022). Давлат тиббий суғуртаси: хасталикларни эрта аниқлаш ва олдини олиш, шифокорлар фаолиятини баҳолашда янги тизим. Yuz.uz – Янгий Ўзбекистон сайти, 2 март 2022 Url: https://yuz.uz/uz/news/davlat-tibbiy-sugurtasi.

[13]Рисолат Мадиева (2022). Давлат тиббий суғуртаси: хасталикларни эрта аниқлаш ва олдини олиш, шифокорлар фаолиятини баҳолашда янги тизим. Yuz.uz – Янгий Ўзбекистон сайти, 2 март 2022 Url: https://yuz.uz/uz/news/davlat-tibbiy-sugurtasi.

олишини таъминлашга хизмат қилади. “Ҳар бир даволанган ҳолат учун” молиялаштириш механизмларини кенг жорий этиш орқали соғлиқни сақлаш тизими маблағлари адолатли тақсимланиши, ҳудудлар ўртасидаги тиббий хизматлар тафовутлари камайиши ва пировардида мамлакатимиз аҳолисининг саломатлик кўрсаткичлари яхшиланиши кутилмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.12.2018 йилдаги 5590-сонли “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида” Фармони. *Lex.uz* расмий ҳуқуқий маълумотлар портали. URL: https://lex.uz/docs/4096197
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17.01.2019 йилдаги 5635-сонли 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони. *Lex.uz* расмий ҳуқуқий маълумотлар портали. URL: https://lex.uz/docs/4168749
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10.01.2020 йилдаги 19-сонли “Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг тиббиёт ташкилотларини молиялаштириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. *Lex.uz* расмий ҳуқуқий маълумотлар портали. URL: https://lex.uz/uz/docs/4696308
4. Рисолат Мадиева (2022). Давлат тиббий суғуртаси: хасталикларни эрта аниқлаш ва олдини олиш, шифокорлар фаолиятини баҳолашда янги тизим. *Yuz.uz – Янгий Ўзбекистон* сайти, 2 март 2022 //: https://yuz.uz/uz/news/davlat-tibbiy-sugurtasi.
5. Анвар Иркаходжаев (2020). Тиббий хизматлар «ҳар бир даволанган ҳолат учун» молиялаштирилади. Norma.uz ахборот-ҳуқуқий портали // https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/tibbiy_hizmatlar_har_bir_davolangan_holat_uchun_moliyalashtiriladi

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И УГЛУБЛЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ИНТЕГРАЦИИ: СИНЕРГИЯ РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Автор: Холикова Дурдона Бунёджон кизи [1]
Аффилиация: «UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES» Ассистент преподаватель кафедры «Экономика» [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17564713

АННОТАЦИЯ

В условиях ускоряющейся глобализации, цифровой трансформации и усиливающейся геополитической неопределённости модернизация национальной экономики приобретает статус объективной необходимости, определяющей стратегические приоритеты социально-экономического развития государства [1]. Углубление международной интеграции, в свою очередь, выступает ключевым фактором структурных преобразований, технологического обновления и повышения конкурентоспособности национальных хозяйственных систем [4].

Ключевые слова: модернизация экономики, международная интеграция, глобализация, структурные реформы, конкурентоспособность, Узбекистан.

Современное развитие мировой экономики определяется высокой степенью взаимозависимости национальных хозяйственных систем и активными процессами транснационализации производства, капитала и финансовых потоков [4]. В данных условиях стратегия изолированного экономического развития утрачивает свою эффективность, так как существенно ограничивает возможности доступа к современным технологиям, инвестиционным ресурсам и глобальным товарным и финансовым рынкам [5].

Модернизация национальной экономики подразумевает комплексное обновление её производственной структуры, институциональной базы, технологического потенциала и человеческого капитала. Этот процесс невозможен без активного участия страны в международных экономических и финансовых отношениях.

Особую актуальность данный процесс приобретает для государств Центральноазиатского региона, в частности Республики Узбекистан, где в последние годы реализуется масштабная программа структурных и институциональных преобразований, ориентированная на формирование открытой, инновационно-ориентированной и диверсифицированной модели экономического развития [1], [2].

Модернизация национальной экономики представляет собой комплексный, многоуровневый процесс, направленный на обеспечение устойчивого экономического роста, достижение технологической автономии и повышение международной конкурентоспособности [3]. В рамках данного процесса выделяются следующие ключевые направления:

— **структурная трансформация**, предполагающая диверсификацию экономики, снижение зависимости от сырьевого сектора и активное развитие обрабатывающей промышленности, сферы услуг и цифровой экономики;

— **институциональные реформы**, ориентированные на создание благоприятного делового климата, защиту прав собственности и повышение прозрачности государственного управления;

— **стимулирование инвестиционной активности**, включая поддержку частных инициатив, привлечение иностранных инвестиций и развитие механизмов проектного финансирования;

— **инвестирование в человеческий капитал** через модернизацию образования, здравоохранения и повышение уровня цифровой и финансовой грамотности населения;

— **переход к "зелёной" экономике**, предусматривающий рациональное использование природных ресурсов, снижение экологических рисков и адаптацию к глобальным климатическим изменениям.

Эти направления взаимосвязаны и взаимообусловлены, формируя целостную стратегию экономического обновления, ориентированную на долгосрочную устойчивость и интеграцию в глобальные экономические и технологические тренды. Данные приоритеты нашли отражение в стратегических документах Республики Узбекистан, включая «Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития (2017–2021 гг.) [1]», «Новую модель экономического развития (2022–2026 гг.)» и «Концепцию перехода к "зелёной" экономике» [1].

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY



Рисунок 1. Динамика ВВП и прямых иностранных инвестиций в Узбекистане 2015-2023 годы

Международная интеграция сегодня выступает не просто инструментом расширения внешнеэкономических связей, но и важнейшим фактором технологического обновления, институционального развития и повышения общей эффективности национальной экономики. Её стимулирующая роль проявляется в нескольких ключевых направлениях.

Во-первых, **технологический трансфер**, который осуществляется в основном через приток прямых иностранных инвестиций и создание совместных предприятий с участием транснациональных корпораций. Это способствует распространению передовых технологий, современных управленческих практик и международных стандартов качества.

Во-вторых, **усиление конкурентного давления** на внутреннем и внешнем рынках. Открытие экономики и участие в международной торговле побуждают отечественные компании повышать производительность, снижать издержки и улучшать качество продукции.

В-третьих, **финансовая интеграция** открывает доступ к глобальным источникам капитала. Национальные предприятия и государство получают возможность привлекать ресурсы международных финансовых институтов, выпускать «зелёные» облигации и использовать современные формы проектного финансирования.

И, наконец, **институциональное сближение**. Участие страны в международных организациях и региональных объединениях (таких как ВТО, ЕАЭС, Соглашение о свободной торговле стран Центральной Азии — CAFTA и др.) требует адаптации национального законодательства к международным нормам, что способствует укреплению правовой базы и прозрачности экономической среды.

Для Узбекистана процесс присоединения к Всемирной торговой организации стал мощным стимулом для реформирования таможенной, налоговой и финансовой систем, а также гармонизации нормативно-правовой базы с международными стандартами.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Модернизация и международная интеграция — это взаимодополняющие направления развития. Вместе они формируют единую систему, где каждое из направлений усиливает другое. Технологическое, институциональное и инфраструктурное развитие создаёт основу для более глубокой и устойчивой интеграции в мировое экономическое пространство. В то же время участие в международных процессах стимулирует внутренние реформы, повышает инновационную активность и укрепляет конкурентоспособность национальной экономики.

В Узбекистане синергия этих процессов проявляется в модернизации транспортно-логистической инфраструктуры (в частности, в рамках инициативы **«Средний коридор»**), создании и эффективной работе **особых экономических зон** («Ангрен», «Навои»), либерализации валютного режима и расширении присутствия иностранных финансовых институтов на внутреннем рынке. Всё это одновременно способствует технологическому обновлению и укреплению интеграции страны в мировую финансово-экономическую систему.

Однако процессы интернационализации и глобальной интеграции сопровождаются и **рядом вызовов**. Среди них — повышенная уязвимость к внешним шокам, колебаниям мировых цен на сырьё, неравномерное распределение выгод между регионами и социальными слоями, а также риски утечки капитала и экологические угрозы. Для их минимизации необходима продуманная государственная стратегия, направленная на поддержание баланса между открытостью экономики и защитой национальных интересов.

Роль государства в этих условиях трансформируется: оно становится не столько контролирующим, сколько **координирующим и стратегическим** центром, обеспечивающим устойчивое развитие и гармоничное включение страны в глобальные процессы.

Модернизация экономики и углубление международной интеграции являются ключевыми факторами устойчивого развития Узбекистана в эпоху

глобальных изменений. Эти процессы открывают широкие возможности для технологического обновления, расширения экспортного потенциала и повышения уровня благосостояния населения. Вместе с тем их успешная реализация требует последовательного проведения институциональных реформ, совершенствования государственного управления и активного вовлечения человеческого капитала в инновационные процессы.

Особое значение в этом контексте приобретает система высшего образования, призванная готовить новое поколение экономистов — специалистов, способных эффективно работать в условиях глобальной конкуренции, международной кооперации и интеграционных трансформаций. Такие кадры станут интеллектуальной основой модернизации и долгосрочного экономического прогресса страны.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Президент Республики Узбекистан. (2017). Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017–2021 годы. Утверждена Указом Президента от 7 февраля 2017 г. № УП-4947. Ташкент: Администрация Президента Республики Узбекистан. https://strategy.gov.uz
2. World Bank. (2023). Uzbekistan Economic Update: Navigating Global Headwinds (Report No. 182734-UZ). Washington, DC: World Bank Group. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents
3. International Monetary Fund (IMF). (2024). Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia – Navigating Divergent Paths (Chapter 3: Uzbekistan). Washington, DC: IMF. https://www.imf.org/en/Publications/REO/MECA/Issues/2024/04/23/regional economic-outlook-middle-east-central-asia-april-2024
4. Stiglitz, J. E. (2022). Globalization and Its Discontents Revisited: Anti-Globalization in the Era of Trump and Brexit (2nd ed.). W. W. Norton & Company. (Original work published 2002). pp. 1–320.
5. Rodrik, D. (2018). Straight Talk on Trade: Ideas for a Sane World Economy. Princeton University Press. pp. 1–248.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

INTERNET MADANIYATI VA YOSHLAR AXLOQIY QADRIYATLARINING O‘ZARO TA’SIRI

Muallif: Alimov Zokir Chori o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17569613

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada internet madaniyatining yoshlar ongiga, xususan, ularning axloqiy qadriyatlariga ko‘rsatayotgan ijobiy va salbiy ta’sirlari tahlil qilinadi. Raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning dunyoqarashi, xulq-atvori va ma’naviy immunitetini shakllantirishda internet madaniyatining o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, axborot makonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: internet madaniyati, yoshlar, axloqiy qadriyatlar, ma’naviyat, media madaniyat, raqamli tafakkur, axborot xavfsizligi.

So‘nggi yillarda insoniyat taraqqiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri bu raqamli texnologiyalar va internet tarmog‘ining hayotning barcha jabhalariga kirib kelganidir. Internet bugungi kunda nafaqat axborot olish vositasi, balki yangi madaniyat - internet madaniyatini shakllantiruvchi global muhit sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, yoshlar bu muhitning eng faol ishtirokchilari va yaratuvchilari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishda ularning ma’naviy dunyosini boyitish, axborot savodxonligini oshirish va axloqiy immunitetini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida belgilanmoqda. Chunki internetdagi axborot oqimlari orasida nafaqat ijobiy, balki inson ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kontent ham mavjud.

Internet madaniyati tushunchasi va uning mohiyati, internet madaniyati — bu foydalanuvchilarning onlayn muhitdagi xulq-atvori, muloqot uslubi, axborot iste’moli va yaratuvchanligidagi me’yorlar tizimidir. U an’anaviy madaniyat singari o‘zining qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va estetik tamoyillariga ega. Ammo bu madaniyat tez o‘zgaruvchan va dinamik jarayonlar bilan tavsiflanadi.

Yoshlar uchun internet o‘zini ifoda etish, bilim olish, ijodiy faoliyat yuritish va ijtimoiy hayotda ishtirok etish maydonidir. Shu jihatdan u ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotning yangi shaklini vujudga keltiradi. Internet madaniyatining yoshlar axloqiga ijobiy ta’siri

Internet madaniyatining ijobiy jihatlari orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

-yoshlarning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

-dunyo madaniy merosi bilan tanishish imkonini beradi;

- zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni o‘zlashtirishga yordam beradi;


-turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot orqali bag‘rikenglikni shakllantiradi.

Internet madaniyatining axloqiy qadriyatlarga salbiy ta’siri. Shu bilan birga, internet madaniyati muayyan xavflarni ham yuzaga keltiradi. Virtual muhitda tarqalayotgan axloqsiz kontent, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallar, g‘arazli mafkuraviy oqimlar yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ularning milliy o‘zligini anglash, axloqiy qarashlari va hayotiy tamoyillarida ziddiyatlar keltirib chiqarmoqda.

Axloqiy immunitetni shakllantirish omillari:

Yoshlar axloqiy immunitetini shakllantirishning asosiy omillari quyidagilardan iborat: 1.Oila — bola tarbiyasida milliy qadriyatlarni singdiruvchi birlamchi ijtimoiy muhit. 2.Ta’lim tizimi — media savodxonlikni oshiruvchi, axloqiy tarbiya beruvchi asosiy maydon. 3.Davlat va jamoatchilik tashkilotlari — yoshlarni milliy va diniy ekstremizmdan himoya qiluvchi axborot siyosatini olib boradi. 4.Ommaviy axborot vositalari — sog‘lom axborot makonini shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ta’lim muassasalari yoshlarning internetdan to‘g‘ri va foydali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Shu sababli, maktab, kollej va oliy ta’lim tizimida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Yoshlarda axloqiy qadriyatlarni shakillantirish yo‘llari

Internet madaniyatini rivojlantirish — bu faqat texnologik jarayon emas, balki ma’naviy va ijtimoiy masala hamdir. Yoshlarning raqamli makonda mas’uliyatli ishtirok etishi ularning axloqiy barkamolligini belgilaydi. Shu sababli, ta’lim tizimi, oila, davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Amaliy natijalarga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

— Yoshlar uchun media madaniyat bo‘yicha interaktiv o‘quv dasturlarini yaratish;

— Ijtimoiy tarmoqlarda “axloqiy qahramonlar” obrazini shakllantirish;

— Raqamli xavfsizlik madaniyatini har bir ta’lim muassasasida o‘qitish;

— Internetdagi ijobiy tashabbuslarni davlat va nodavlat grantlari orqali qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda internet madaniyatini ongli va maqsadli ravishda rivojlantirish eng samarali yo‘l

hisoblanadi. Bu jarayon milliy qadriyatlarimizga sodiq, raqamli tafakkurga ega yangi avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston yoshlari – bunyodkor avlod” mavzusidagi nutqi. — Toshkent, 2021.
2. Karimova, N. (2022). Yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishda ta’lim tizimining roli. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. To‘xtayeva, M. (2023). Internet madaniyati va zamonaviy yoshlar tafakkuri. “Ma’naviyat va ma’rifat” jurnali, №4.
4. Castells, M. (2009). The Rise of the Network Society. Oxford: Wiley-Blackwell.
5. Jenkins, H. (2016). Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. New York: NYU Press.
6. UNESCO. (2020). Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. Paris: UNESCO Publishing.

YOSHLAR ORASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Muallif: Alimov Zokir Chori o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17569692

ANNOTATSIYA

Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, uni rivojlantirishning zamonaviy usullari va samarali mexanizmlari yoritilgan. Raqamli axborot asrida o‘qish odatini saqlab qolish, yoshlarni badiiy, ilmiy va ma’rifiy adabiyotlarga jalb etishning dolzarb jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida kitobxonlikni targ‘ib etishning innovatsion usullari, oilaviy va ta’lim muassasalarida o‘qish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha takliflar keng yoritildi.

Kalit so‘zlar: Kitobxonlik madaniyati, raqamli platformalar, Axborot-kutubxona markazlari, bir oilada – bir kitob, bugun o‘qigan sahifam.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish uchun kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kitob inson tafakkurini charxlaydigan, bilim va tarbiyaning asosiy manbai bo‘lib, yosh avlodni intellektual rivojlantirishda beqiyos o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning: “Kitob o‘qishga mehr uyg‘otish — bu yoshlar tafakkuriga, kelajagimizga sarmoya kiritish demakdir” degan so‘zlari kitobxonlik masalasining strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois yoshlar o‘rtasida o‘qish madaniyatini shakllantirish davlat siyosati darajasida e’tiborga olinmoqda.

Xalqimiz turmush tajribasidan ma’lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temur-u Ulug’bek kabi alloma-yu ijodkorlarimiz, tojdor-u daholarimiz ma’naviyati bolalikdan kitobga mehr qo’yish bilan shakllangan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tasavvur va tafakkur dunyosini, ruhiyat olamini boyitishgan. Adabiyot durdonalari – xoh xalq og’zaki ijodi namunalari, xoh yozma asarlar bo’lsin – xalqimiz qalbida yurtiga, ona tiliga, oilasiga, vatandoshlariga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy g’urur, or-nomus, adolat-u insof, andisha-yu hurmat, olijanoblig-u saxovatpeshalik sifatlari shakllanishida asosiy vosita bo’lib xizmat qilgan. Bunday ma’naviyat durdonalari mutolaa qilingan, tinglangan, eng muhimi, oila davrasida yoki jamoat ichida muhokama qilingan, bahs-u tortishuvlar asosida asarlar mazmun-mohiyati anglangan, anglatilgan. Ahamiyatlisi shundaki, yosh-u qari birday qiziqish bilan ishtirok etadigan bunday davralarda mushohada qilish va mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash qobiliyati, keng dunyoqarash va tafakkur shakllangan, e’tiqod va

iroda mustahkamlangan, notiqlik mahorati o'sgan, kishilar ongi ham ma'nan, ham ruhan, ham ilman boyib borgan

Kitobxonlik madaniyatining mohiyati va ahamiyati kitobxonlik madaniyati – bu shaxsning o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoji, o'qigan asarini tahlil qila olish, fikr yuritish, ma'naviy zavq olish qobiliyatidir. Kitob insonning tafakkurini boyitadi, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Yoshlar orasida kitobxonlik darajasining pasayishi ko'p hollarda internet va raqamli texnologiyalarning haddan tashqari ta'siri bilan bog'liq. Shu bois, bu jarayonda zamonaviy texnologiyalarni foydali tarzda kitob targ'ibotiga yo'naltirish zarur.



1-rasm. Kitob targ'ibotiga yo'naltirish tamolyilari

Kitobxonlikni rivojlantirishning samarali yo'llari yoshlar orasida kitobxonlikni kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlar samarali hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida kitobxonlik haftaliklari, "Eng faol kitobxon" tanlovlari, o'quvchi klublari tashkil etish. Raqamli platformalar orqali (elektron kutubxonalar, audiokitoblar, mobil ilovalar) o'qish imkoniyatlarini kengaytirish. Oilaviy o'qish an'analarini tiklash, ota-onalar ishtirokida "Bir oilada – bir kitob" tashabbuslarini yo'lga qo'yish. Mashhur yozuvchilar, bloggerlar va ziyolilar ishtirokida kitobxonlik targ'ibot aksiyalarini o'tkazish. Ijtimoiy tarmoqlarda "Kitob tavsiyasi", "Bugun o'qigan sahifam" kabi interaktiv loyihalarni joriy etish.

Kitobxonlikni targ'ib etishda ijtimoiy institutlar roli. Ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tashkilotlari hamkorligida o'quvchi va talabalar o'rtasida kitobxonlik targ'iboti samarali yo'lga qo'yilsa, bu jarayon keng ommalashadi. Ayniqsa, Yoshlar ishlari agentligi va Axborot-kutubxona markazlari hamkorligi bu borada muhim o'rin tutadi.

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviyintellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillar bir qancha bo'lib, shulardan eng muhimi – bu kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur yo'nalishda tashkiliy-amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar

bazasi yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezedentining bu sohada ijobiy o'zgarishlar, tub islopotlar amalga oshirishga qaratilgan 2006-yil 20-iyuldagi. "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 12-yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha Kompleks choratadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori asosida yurtimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan hududlarda Axborot-resurs markazlari faoliyati zamon talablariga mos isloh qilindi, yangi kitob savdo do'konlari faoliyati yo'lga qo'yildi hamda aholiga xizmat ko'rsatish sifat jihatidan ancha takomillashtirildi. Kitobsevarlar o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar respublika miqyosida ommalashtirildi va shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan rag'batlantiruvchi sovrinlar belgilandi. Yoshlarning kitob o'qishga ishtiyoqi ortdi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

XULOSA

Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish — bu nafaqat o'qish odatini shakllantirish, balki intellektual jamiyatni barpo etishning muhim omilidir. O'qigan, fikrlaydigan, tahlil qiladigan yosh avlodgina millatning ma'naviy tayanchi bo'la oladi. Shu bois, har bir ta'lim muassasasi, oila va jamoat tashkiloti bu jarayonda faol ishtirok etishi lozim. Kitobxonlikni zamonaviy axborot vositalari bilan uyg'un rivojlantirish esa bu sohaning kelajakdagi barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.Mning kitobxonlikni rivojlantirishga oid nutqlari (xususan: "Kitob — ma'naviyat manbai, millat ko'zgusidir" g'oyasi asosidagi chiqishlar)
2. Mirziyoyev Sh.M "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun (2016-yil 14-sentabr)
3. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatishni rivojlantirish hamda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha davlat dasturi" (2017-yil, PQ–3271-son
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. To'xtayev A. Kitobxonlik madaniyati va uning shakllanish bosqichlari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Abdullayeva N. Yoshlar ma'naviyati va o'qish madaniyati. — Toshkent: Istiqlol, 2020.
7. Nurullayev M. Kitobxonlik psixologiyasi va yoshlarning axborot ehtiyojlari. — Toshkent: Fan, 2022.

OYDIN SOBIROVA NASRIDA MA’RIFATPARVARLIK VA REALIZM TAMOYILLARI

Muallif: Bazarova Shaxlo Shuxratovna [1]
Affiliyatsiya: Samarqand davlat chet tillar instituti, v.v.b.dotsenti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17569869

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek adibasi Oydin Sobirova hikoyalari poetikasi haqida ma’lumot berilgan. Ijodkor hikoyalarining bosh qahramoni – ayollar. Shu sababli ham mazkur maqolada hikoyalarda aynan ayol qismati davr ruhi orqali ochib berilishi tahlilga tortiladi. Ijodkor badiiy mahoratiga munosabat bildiriladi.

Kalit so‘zlar: hikoya janri, makon va zamon, qismat, ayol ruhiyati, badiiy obraz, xarakter, ijodkor olami, badiiy detal, mazmun va shakl.

KIRISH

Yangi voqelik zaminida XX asr boshlaridayoq o‘zbek adabiyotida yangicha nasr shakllana boshladi. Bu yangicha nasrning vujudga kelishi va rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari bor. Ma’lumki, oldingi davrlarda o‘zbek adabiyotida hozirgi ma’nodagi realistik nasr to‘la shakllanmagan edi. Hozirgi ma’nodagi romanlar, qissalar, hikoyalar yaratilmagan edi. Lekin bu, umuman olganda, o‘zbek adabiyotida o‘tmishda nasr va uning bo‘lmagan, degan ma’noni bildirmaydi, albatta[1]. Shunday bo‘lishiga qaramasdan bu davrda inson qismatining murakkabligiyu hayot haqiqatiga muvofiq keladigan asarlar yaratgan bir qator ijodkorlar borki, bular safiga XX asr o‘zbek adabiyotining to‘ng‘ich adibasi Oydin Sobirovani ham qo‘shsa bo‘ladi. XX asr o‘zbek xotin qizlari orasida birinchi bo‘lib yetishib chiqqan mohir hikoyanavis Oydin (Manzura Sobirova) o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin egallaydi. Oydin yangi davr o‘zbek yozuvchilarining birinchi avlodiga mansub. U adabiyot maydoniga 20-yillarda kirib keldi.

ASOSIY QISM

Oydin (1906-1953) dastlabki vaqtlarda adabiyot maydonida yolg‘iz edi. Uning atrofida adiba bilan yonma-yon turib ijod qilgan ayol yozuvchilar deyarli yo‘q edi. Ular keyinchalik birin - ketin yetishib chiqa boshladilar. Oydinning eng katta xizmati va jasorati shundaki, u yangi adabiyotimizda xotin - qiz yozuvchilar safini birinchi bo‘lib boshlab berdi. Natijada, xotin - qizlar ozodligining otashin kuychisi sifatida adabiyot tarixidan joy oldi. Ijodiy merosining asosida ayollar erki, ozodligi, ilm-ma’rifatli bo‘lishi mujassam. Shubhasiz, Oydin Sobirova XX asr ayollar adabiyoti, xususan, ayollar nasrining rivojida alohida mavqega ega ijodkor sifatida nom qozondi.

Oydin murakkab va mazmundor hayot yo‘lini bosib o‘tdi. U bolaligidan yangi hayotga, ilm-ma’rifatga dadil qadam tashladi. 1923-yilda Toshkentdagi “Inpros”

[1] Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent:Yangi asr avlodi, 2005. – B.23.

(pedtexnikum)ni, 1931-yilda Samarqanddagi pedakademiyani bitirdi. O‘qituvchilik qildi. O‘zbekiston davlat nashriyotida bo‘lim mudiri bo‘lib ishladi. Respublika Yozuvchilar uyushmasida mas’ul kotib vazifasini bajardi. Oydin xotin-qizlarning “Yangi yo‘l” jurnaliga mas’ul kotib, “Yorqin hayot” jurnalida muharrir o‘rinbosari, respublika radio komitetida bo‘lim boshlig‘i, “O‘zbekiston xotin-qizlari”, “Saodat” jurnalida Bosh muharrir bo‘lib ishlaydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Oydinning kamolotga yetishida, shoira sifatida shakllanib, ijodiy o‘sishida Samarqand adabiy-ilmiy muhitining ta’siri katta bo‘lgan. Oydin 1927-1931-yillarda Samarqandda universitetda Hamid Olimjon, Uyg‘un kabi iste’dodli yosh shoirlar bilan birga o‘qiydi.

Oydinning 20-yillar o‘rtalaridan to 30-yillarning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan ijodi, asosan, she’riyatga bag‘ishlangan. Bu davrda shoira anchagina she’rlar va dostonlar yozib, “Tong qo‘shig‘i”, “Chechan qo‘llar”, “Oydin she’rlari” to‘plamlarini o‘quvchilarga taqdim etdi.

Oydin 30-yillarning oxirlariga kelib, deyarli butunlay hikoya janriga o‘tib oldi. “Gulsanam”, “Hazil emish”, “Yamoqchi ko‘chdi”, “Sadag‘ang bo‘lay komandir”, “Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit” singari rang-barang hikoyalar yozib, mohir hikoyanavis sifatida tanildi.

Xotin-qizlar hayotini tasvirlash, ularning jonli obrazlarini yaratish adiba hikoyachiligining (umuman ijodining) diqqat markazida turadi. Ana shunga ko‘ra Oydin ijodini o‘zbek xotin-qizlari hayotining badiiy tarixi, o‘ziga xos yilnomasi desa xato bo‘lmaydi. Oydin nafaqat ijodi bilan, balki shaxsiy fazilatlari bilan ham davr ayollariga o‘rnak bo‘la oladi, adabiy merosi bilan to‘rtki bera oldi.

Oydin xotin-qizlar obrazini yaratish orqali hayot haqiqatini ochib berish tamoyiliga urushdan so‘nggi davrda ham sodiq bo‘lib qoldi. “Mardlik-mangulik”, “Hikoya va ocherklar”, “Hikoyalar” singari kitoblari ana shundan dalolat beradi. Bu kitoblarda adiba sodda, mehribon, itoatli, sabr-toqatli, sadoqatli o‘zbek ayolini, o‘zbek onasini obrazini yaratib bera olgan. Hikoyalarda bosh qahramon davr onasi, ayoli, qizi sifatida tasvirlanadi. Tasvirlarda ayollarning ilm-ma’rifatga intilayotgan holati, ilmsizlik jamiyat taraqqiyotining yemirilishiga sabab bo‘lishi asos sifatida tanlangan.

Ijodkorning “Hikoyalar” kitobiga kiritilgan “Chaqaloqqa chakmoncha” kitobida davr qiyofasi va ayollar qismati yoritilgan. Mazkur hikoyada ijodkor ayollarning fojiali taqdiri orqali davr ijtimoiy muhitini ochib bergan. Hikoya bosh qahramoni Erqo‘ziyeva bo‘lib, u kalxozda faol ishchi. Yoshligidan mehnatga toblangan bu qiz voyaga yetib, o‘ziga munosib yigitga turmushga chiqadi. Lekin uning bir emasi ikki emas, to‘rt farzandi tug‘ilganidayoq nobud bo‘ladi. Tug‘riqxonada emas, uyida qushni kampirlarning yordamida dunyoga keltirgan farzandlarining nobud bo‘lishi Erqo‘ziyevani tushkun ahvolga soladi. Kampirlar unga bolasining yashab ketishi uchun har-xil maslahatlar berishadi. Jumladan: “Bolangga aks tegadi. Jinlar changal soladi. Uch marta qora tovuqni quchoqlab qoqtirgin, chillayosin qildirgin, ukki asrab, tug‘adigan chog‘ingda bosh tomoningga o‘tqizib qo‘ygin. Jinlar ukkining ko‘zidan qo‘rqadi, – deb qo‘yarda qo‘ymadilar. Bisotida bittagina gunafsha duxoba kamzuli bor edi, shuni sotib haligilarning hammasini qildi. Lekin bu bolasi ham o‘lik tushdi”.[2] Chunki, bunday fojiali qismatning qayta-qayta takrorlanishiga davr ayollarining ilmsizligi sabab edi. Shifoxonaga borishsa odamlar gap qiladi deydi hikoyada.

[2] Ойдин. Ҳикоялар. Тошкент, 1954. – Б. 4.

Erqo‘ziyevaning turmush o‘rtog‘i bu kampirlaring nimani biladi, endigi farzandimizni shifoxonada dunyoga keltirasan deganda ayoli:

“ – Gap-so‘zga qolamiz “doktorxonada tug‘ibdi”, deb hammayoqda duv-duv gap bo‘lib o‘lar

– Gap bo‘lsak, bo‘larmiz. Ish qilib bola omon bo‘lsin! Bu ham bir tavakkalde, – deb sakrab o‘rnidan turdi. Osh-oshda qoldi, boshqa-boshqada. Er, xotin otlanishib chiqib ketdilar”.[3] Ular to‘g‘ri tanlov qilishgan edi. Erqo‘ziyeva doktorxonaga borib farzandini dunyoga keltirgani uchun to‘rt muchasi sog‘lom bolani dunyoga keltiradi. Bu kabi taqdirlar orqali ijodkor davr ruhini ochib beraolgan. Sababi usha davrda Erqo‘ziyeva singari qancha-qancha ayollar to‘g‘riqxonaga bormasdan uylarida ilmsiz tibbiyot yordamida farzandlarini nobud qilishayotgan edi. Kampir doyalar yordamida qilinayotgan to‘g‘riq jarayonidagi notug‘ri hatti-harakatlar bolaning yoki onaning nobud bo‘lishi bilan yakunlanayotgan edi. Aynan mana shu hikoyadagi tasvirlarga yuqoridagi foje holatlar mujassam.

Davr talablariga hozirjavoblik, turmushdagi yangiliklarni qo‘llab-qo‘vvatlash, xususan, xotin-qizlarni “to‘rt devor ichida za’faron bo‘lib o‘tirishni bas qilishga” (Oydin), qaynoq ijtimoiy hayotga ishtirok etishga chaqirish – Oydin ijodining asosiy g‘oyaviy ma’nosini tashkil etadi.

Ijodkorning “O‘zidan ko‘rsin” hikoyasida Nazirjon ilmli, dunyo ko‘rgan yigit timsolida tasvirlansa, Shakarxon – onasining ta’siriga tushib, institutdagi o‘qishini yig‘ishtirgan, uyda utiradiga qiz sifatida tasvirlanadi. Adiba bu qahramonlarning fe’l-atvorini mahorat bilan ochib bergan. Har bir obraz o‘ziga poetik olam egalari. Shakarxonning onasi ayol kishi uyda o‘tirishi, ilm olish ayollarning ishi emas deb qaraydi. Shu sababli qizini ham ilm olishiga tusqinlik qiladi. Shakarxonning ilmsizligi, ta’lim olishdan yiroqligi Nazirjon va Shakarxonning onalarining orzusini amalga oshirmaydi. Nazirjon dunyoviy ta’lim-tarbiya ko‘rgan, ilm-ma’rifatli qiz bilan oila qurishni xoxlaydi. Hikoyadi Nazirjon tilidan aytilgan “Ehe... Kishi o‘z tenglari bilan so‘rashish, gaplashib o‘ltirishdan ham uyaladimi, qizlar janglarda yigitlar bilan yonma-yon turib otishadilar, yaradorlarni bag‘rilariga bosib davolaydilar! Bu uyat emas, axir! Bu odamgarchilik, bu kishilarning haqiqiy odam bo‘lganligini ko‘rsatadi”[4],– degan fikrlarida davr insonlarining eskicha fikrlashlari taraqqiyot emas, tanazzul belgisi ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Jamiyatda ayol va erkak teng ilm olishi lozimligi hikoyaning asosiy g‘oyasi sifatida talqin etiladi. Hikoya yakunida Shakarxon o‘z hohishi bilan yana institutga qaytadi va yangi zamon ostonasi sari ildam qadamlar tashlab ketadi. Albatta, Shakarxonning dunyoqarashining o‘zgarishida Nazirjonning ham ta’siri katta. Shakarxon eskicha fikrlashi bilan o‘z baxtini, iqbolini qo‘ldan chiqarishi mumkin ekanligini idrok eta oldi. U bir marta mana shunday holatga tushdi. Lekin hayotida bunday vaziyat ikkinchi bora takrorlanmasligi uchun ham u yorqin hayot – ilm olmoqlikka bel bog‘laydi.

Oydin hikoyalari mavzu, g‘oya va obraz e’tibori bilangina emas, til va badiiy mahorat e’tibori bilan ham qimmatlidir. Adiba xalqimizga xos milliy xususiyatlarni, milliy qadriyat, urf-odat, milliy xarakter belgilarini tasvirlashga usta. U onani onaga xos, kampirni kampirga xos, bolani bolaga xos fe’l-atvor, psixologiya va individual til bilan tasvirlaydi. Hikoyalarda yangi mavzularni badiiy ifodalash, yangi obraz yaratishga intilish tamoyili kuchli.

[3] O‘sha asar – B.5.
[4] O‘sha asar – B. 56.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Oydin sujet va kompozitsiya yaratishda ham, milliy xarakter va ruhiyat tasvirini berishda ham, jonli xalq tili va xalq og‘zaki ijodi boyliklaridan foydalanishda ham o‘z mahoratini namoyon qila olgan katta ijodkordir. Qisqa satrlarda keng ma’noni bera olish Oydin uslubining asosi sanaladi. Ijodkorning hikoyalari qisqa, lekin mohiyatan nihoyatda keng va mazmunli. Ijodkorning so‘zga chechanligi, bayonchilikka yo‘l qo‘ymasligi, asar mazmunini ochishda har bir so‘z ma’lum bir “yuk”ni o‘zida mujassam etishi bilan ham xarakterlidir. Bu hikoyalarda hayot haqiqati ixcham shaklda ifodalangan. Jonli xarakterlar yaratilib, hikoya g‘oyasi asarning umumiy ruhiga mohirona singdirib yuborilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ayollar ijodi, xususan, nasrida ayollik nafosati va nazokati ufurib turishi, bu xususiyat, bu pafos ijodkorning adabiy-estetik qarashlari, publitsistik chiqishlarida yorqin ranglarda gavdalangan ayol martabasi va mas’uliyatiga bo‘lgan ehtirom tasodifiy bo‘lmaganligi, ayol dardini kuylash, ayol qalbini inkishof etish uning ko‘ngil e’tiqodiga aylangan jihatlar asosiy o‘rinda turadi. Mana shu jihatlari bilan ham adiba Oydin Sobirova XX asr o‘zbek ayolar adabiyotining peshqadami sifatida e’tirof etishga loyiqdir.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Ойдин. Ҳикоялар. Тошкент, 1954.
3. Базарова, Ш. (2024). Судьба женщины в рассказах Айдын Собировой. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(2/S), 24-28.
4. Shuxratovna, B. S. (2024). O ‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.
5. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 155-164.
6. SH, B. S. (2024). SAIDA ZUNNUNOVA VA PAK VANSO HIKOYALARIDA KONSEPTLAR HAMDA TIPOLOGIK O ‘XSHASHLIKLAR. TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI, 514.
7. Shuxratovna, B. S. (2024). OYDIN SOBIROVA IJODIDA AYOLLAR OBRAZI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(1), 55-58.

YOSHLAR SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA FAOLLIK, IJTIMOIY MAS’ULIYAT VA KELAJAK SARI ISHONCH

Muallif: Davlyatova Sayyora Gulamovna [1]
Affiliyatsiya: Toshkent transport texnikumi “Hisob va biznes” kafedrasi katta o’qituvchisi, mudiri [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17569990

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar, “Yoshlar bandligi” va “Kelajakka qadam” dasturi, “Yoshlar balansi”, “Yoshlar daftari” tizimlari va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning boshqa mexanizmlari tahlil qilingan hamda yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar raqamlarda o’z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar balansi, yoshlar bandligi, Yoshlar daftari, Besh tashabbus olimpiadasi, xorijiy tillar, zamonaviy kasblar va kitobxonlik loyihalari.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar jamiyatning eng dinamik, ijodkor va tashabbuskor qatlamidir. Ularning salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta’minlash va shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish — har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. O‘zbekiston yoshlar siyosati ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi: yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga zamin yaratish.

Yoshlar siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri — yosh avlodda ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik ongini shakllantirishdir. Ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan “Yoshlar klublari”, “Liderlik maktablari” va “Yoshlar parlamenti” kabi platformalar orqali ular jamiyat muammolariga befarq bo‘lmagan, tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalanmoqda. Davlat tomonidan yaratilgan “Yoshlar daftari”, “Yoshlar jamg‘armasi” va “Yoshlar startaplari” kabi mexanizmlar yoshlarning g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish imkonini bermoqda. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy faollikni kuchaytiradi va kelajak uchun mas’uliyatni his qilishga undaydi.

Mamlakatimizda joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida 9,2 mln nafar yoshlarning “Yoshlar balansi” shakllantirilib, ularning individual muammolarini hal etish, qiziqish va iqtidorini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha aniq va manzilli ishlar tashkil etildi.

1. Yoshlar bandligini ta'minlash borasida:

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishsiz va biznesini boshlash istagidagi 384,4 ming nafar yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Yoshlar bandligi dasturi” qabul qilinib, 277 ming *(72 foiz)* yoshlar bandligi ta'minlandi. Xususan:

– davlat idoralarining 4 546 nafar rahbari 115,8 ming ishsiz yoshga biriktirilib, 114,9 ming nafari bandligi ta'minlandi;

– Aloqabank tomonidan “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 8 155 ta loyihaga 984,4 mlrd so‘m uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratilib, yaratilgan 10 829 ta yangi ish o‘rniga ishsiz yoshlar joylashtirildi;

– Milliybank tomonidan “Kelajakka qadam” dasturi doirasida 22,2 ming bitiruvchilar ish o‘rinlariga joylashtirildi hamda 3 227 nafar talabaning 134,3 mlrd so‘mlik biznes loyihalari moliyalashtirildi;

– joriy yilning 21-23-may kunlari Toshkent shahridagi Talabalar shaharchasida 700 ta yirik ish beruvchi korxonalar va 50 ming nafar talabalar ishtirokida “Talaba Expo–2025” megaloyihasi tashkil etildi;

– oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 82,5 ming yoshlarga 2 440,8 mlrd so‘m imtiyozli kredit ajratildi;

– “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 6,2 ming yoshlarga subsidiya ajratilib, o‘zini o‘zi band qilishiga ko‘maklashildi;

– dehqonchilik uchun 2,5 ming yoshlarga 1,3 ming gektar ekin maydonlari ajratilib, bandligi ta'minlandi.

Mahallalarda 1,3 mln nafar shaxslarning *(417,6 mingi yoshlar)* “migratsiya balansi” shakllantirilib, “raqamli mahalla” platformasi orqali onlayn monitoring qilish tizimi joriy etildi.

Shuningdek, xorijda ishlash istagidagi 26,9 ming yoshlar yuqori maoshli korxonalarga xavfsiz va tartibli mehnat migratsiyasi tizimi orqali yuborildi.

Natijada 7 467 ta mahallalardan rahbarlarga biriktirilgan “og‘ir” *(ishsiz)* toifadagi yoshlarning bandligi to‘liq ta'minlandi. Bu ko‘rsatkich 2024 yilga nisbatan 3,9 baravar ko‘pdir. *(2024-yilda 1 889 ta mahalla).*

2. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida:

Joriy yilda 10 ta toifada tarbiyasi og‘ir 51 455 yoshlar 6 ta huquq-tartibot va mudofaa organlarining 4 155 nafar mas'ullariga otaliqqa berilib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solishga qaratilgan zarur choralar ko‘rildi.

Yil boshidan 32 657 nafar tarbiyasi og‘ir yoshlar sog‘lomlashtirilib, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashildi. Shu jumladan:

– otaliqqa olgan mas'ul “kafilligi” ostida xulqi ijobiy tomonga o‘zgargan 6 279 nafar yoshlar muddatidan avval probatsiya va profilaktika hisobidan chiqarildi;

– mahalla raisi ishtirokida 4 469 nafar dars qoldiruvchilar ta'limga qaytib, 2 370 nafar yosh oila ajrimining oldi olindi;

– profilaktika inspektori bilan 651 nafar yosh giyohvandlik va “yot g‘oyalar” ta'siridan qaytarilib, vatanparvarlik targ‘iboti orqali 266 nafar yosh harbiy xizmatga yuborildi;

– 5 279 nafar yoshlarga ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko‘rsatildi;

– hokim yordamchisi bilan 10 926 nafar yoshlar bandligi ta'minlanib, 1 967 nafari tartibli mehnat migratsiyasiga yuborildi;

– “Shijoat va g‘ayrat” harbiy-sport musobaqalari o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilib, 284 ming mahalla yoshlari jalb etildi;

– mahallalarda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda harbiy qismlarda “Jasorat” harbiy yig‘inlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, 14 388 nafar yoshlar harbiy xizmatga saralab olindi;

– jazoni ijro etish muassasalarida yosh mahkumlar bilan Yoshlar ishlari agentligi rahbarlarining uchrashuvi va muloqotlari tashkil etildi va JIEMdagi 9 102 nafar

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

yoshlarning 3 845 nafari kasb-hunarga, 1 392 nafari xorijiy tillarni o‘rganishga, 8 071 nafari foydali mehnatga jalb etildi. Natijada, yoshlar jinoyati o‘tgan davrda 18,8 foizga kamaydi va 5 147 ta mahalla “yoshlar jinoyatidan holi mahalla”ga aylandi.

3. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida:

Respublika bo‘yicha tanlov, musobaqa va amaliy loyihalarda 15,4 mln yoshlar qamrab olindi. Jumladan:

– joriy yilning 1-25-may kunlari hududlar va oliygohlarda o‘tkazilgan “TalabaFest–2025” festivalida 800 ming talabalar ishtirok etdi;

– Madaniyat va istirohat bog‘lari, ochiq maydon va yoshlar saylgohlarida “DJ community” konsert-shou dasturlarini haftaning har shanba kunlari o‘tkazish yo‘lga qo‘yilib, 2 mln yoshlar qamrab olindi;

– “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o‘tkazilgan tanlov va musobaqalarga 6,2 mln yoshlar ishtirok etdi *(tanlovlar davom etmoqda)*.

Madaniyat-san'at – 708 ming, sport – 3.3 mln, kitobxonlik va intellektual o‘yinlar – 2.2 mln.

– Mahalla, tuman, viloyatlarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilishga qaratilgan “Dolzarb 90 kunlik” tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan,

a) yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar taqdim etadigan loyiha, tanlov va musobaqalar tashkil etilib, 7,2 mln yoshlar qamrab olindi;

b) iyul-avgust oylarida tashkil etilgan amfiteatr va sayilgohlarda konsert va musiqa kechalari, madaniyat va istirohat bog‘larida san'at ko‘rgazmalari, she'riyat kechalari va intellektual o‘yinlarda 975 ming yoshlar qamrab olindi;

d) “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” loyihasi o‘tkazilib, 893 ming nafar yoshlarning muzey va tarixiy obidalarga ekskursiyasi tashkil etildi.

– xorijiy tillar, zamonaviy kasblar va kitobxonlik loyihalariga 6,5 mln yoshlar jalb etildi (*“Ibrat farzandlari” loyihasi – 2,6 mln, “Qizlar akademiyasi” loyihasi – 359 ming xotin-qizlar, 'Ustoz AI” loyihasi – 657 ming yoshlar, “Mutolaa” loyihasi – 2,9 mln kitobxon)*.

– xorijiy tillar bo‘yicha xalqaro sertifikatga ega 12,9 ming yoshga 28,7 mlrd so‘m imtihon topshirish xarajatlari qoplab berildi (*tizim joriy etilgandan buyon 51,9 ming yoshga 101 mlrd so‘m)*. Natijada birgina xalqaro “IELTS” imtihonidan 5,5 ball olgan yoshlar soni 2020-yilga nisbatan 5 baravarga, 7-8 ball olganlar 7,5 baravarga, 8,5-9 ballga erishganlar esa 24 baravarga oshdi.

XULOSA

Ishsiz va ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash choralari ko‘rilishi, otaliqdagi yoshlar bilash ishlash davom ettirilishi, ularni kasbga yo‘naltirish, sport, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari o‘tkazilishi hamda yoshlar bilan individual shug‘ullanib, muammolarini hal etish orqali sog‘lomlashtirish choralari ko‘rilishi natijasida yoshlar bilan ishlash samaradorligi yanada oshirish imkoniyatlari mavjud.

Yoshlar siyosati bu faqat hujjatlar to‘plami emas, balki har bir yoshning hayotiga bevosita ta’sir etuvchi, uni rag‘batlantiruvchi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashuvchi tizimdir. Bu siyosatni amaliy, interaktiv va ma’naviy-ma’rifiy yondashuvlar bilan boyitish esa pedagoglar, trenerlar va metodistlarning asosiy vazifasidir. Aynan shunday yondashuvlar orqali biz yoshlarni kelajak sari ishonch bilan yetaklaymiz.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘rayev A., Qodirov M. Yoshlar siyosati asoslari— Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2021. — 224 bet. O‘zbekistonda yoshlar siyosatining huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari va tahliliy yondashuvlar.
2. Tursunov B. Yoshlar va jamiyat: ijtimoiy faollikni shakllantirish yo‘llari — Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020. — 198 bet. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, liderlik ko‘nikmalari va fuqarolik pozitsiyasi haqida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” — Rasmiy hujjat. Toshkent: Lex.uz, 2021. — 23-son qaror. Strategik maqsadlar, yo‘nalishlar va amalga oshirish bosqichlari.
4. Yoshlar ishlari agentligi (tahrir hay’ati) Yoshlar siyosati: amaliyot va tajriba
5. — Toshkent: “Yangi O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. — 156 bet. Agentlik tomonidan amalga oshirilgan loyihalar, monitoring natijalari va tavsiyalar.
6. Jangibayev N.Yoshlar siyosati va uning ijtimoiy samaradorligi — Ilmiy maqola. ScienceWeb jurnalida chop etilgan. — 2023. — №2. — 45–52-betlar. Yoshlar siyosatining jamiyatdagi o‘rni va natijaviylik tahlili.
7. https://gov.uz/oz/yoshlar
8. https://yoshlarbalansi.uz
9. https://yoshlardaftari.uz
10. https://ibratfarzandlari.uz
11. https://mahalla.ijro.uz

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

GERMANIYA TARIXIY MAKTAB IQTISODIY TA’LIMOTINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Mualliflar: Ishankulova Farangis Azamovna [1], Abdiyeva Oysha Ro‘zimurod qizi [2]
Affiliyatsiya: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti v.b. dotsenti, PhD [1], Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17570195

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Germaniya tarixiy maktabining shakllanish bosqichlari, uning asosiy g‘oyalari va vakillarining iqtisodiy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi atroflicha tahlil qilinadi. XIX asrda vujudga kelgan mazkur maktab klassik iqtisodiy ta’limotdan farqli ravishda iqtisodiy hodisalarni faqat nazariy yoki matematik yo‘nalishda emas, balki tarixiy, ijtimoiy, madaniy va milliy omillar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishni ilgari surdi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so‘zlar: Germaniya tarixiy maktabi, iqtisodiy ta’limot, tarixiy yondashuv, milliy iqtisodiyot, ijtimoiy adolat, iqtisodiy siyosat, davlat roli, iqtisodiy taraqqiyot, madaniy omillar, tarixiy tajriba.

KIRISH

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi insoniyat tafakkurining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki iqtisodiy g‘oyalar jamiyat taraqqiyotining asosiy omillarini anglash, ularni boshqarish va muvozanatli rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. XIX asrning o‘rtalariga kelib Germaniyada shakllangan tarixiy maktab iqtisodiyot faniga yangicha qarashni olib kirdi. Bu maktab klassik iqtisodiyotning umumiy va abadiy qonunlarga asoslangan nazariyalariga qarshi chiqib, iqtisodiy jarayonlarni har bir mamlakatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganishni ilgari surdi. Germaniya tarixiy maktabi vakillari — Vilgelm Rocher, Bruno Hildebrand, Karl Knies, Gustav Shmoller, Adolf Vagner singari olimlar iqtisodiy hayotda davlatning faol roli, ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini asoslab berdilar. Ularning fikricha, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda faqat nazariy modelga emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tuzilishiga tayangan holda yondashish zarur.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot davrida ushbu g‘oyalar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, ularni amaliyotga tatbiq etish barqaror iqtisodiy siyosat yuritish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, hamda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois Germaniya tarixiy maktabining nazariy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy iqtisodiy siyosatda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Germaniya tarixiy maktabi XIX asr o‘rtalarida iqtisodiy tafakkurda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda Yevropada sanoat inqilobi kuchayib, kapitalistik munosabatlar keng yoyilgan edi. Ingliz klassik iqtisodchilari ilgari surgan “umumiy va abadiy iqtisodiy qonunlar” g‘oyasi ko‘pchilik olimlar tomonidan tanqid ostiga olinib, iqtisodiy jarayonlarni milliy, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda o‘rganish zarur degan yondashuv paydo bo‘ldi. Ana shunday qarashlar Germaniyada tarixiy maktab shakllanishiga asos bo‘ldi. Tarixiy maktab vakillari iqtisodiyotni o‘rganishda nazariy model va matematik hisob-kitoblarga emas, balki hayotiy tajriba, tarixiy sharoit va xalqning madaniy qadriyatlariga tayangan. Ularning fikricha, iqtisodiy qonunlar hamma mamlakatlar uchun bir xil emas, balki har bir xalqning tarixiy taraqqiyot bosqichi, ijtimoiy tuzilishi va milliy an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bu yondashuv iqtisodiyotni o‘rganishda tarixiy faktlarga tayangan holda umumiy xulosalar chiqarishni talab qiladi.

Vilgelm Rocher, Bruno Hildebrand va Karl Knies bu maktabning dastlabki vakillari bo‘lib, ular iqtisodiy rivojlanishning tarixiy bosqichma-bosqich kechishini ilmiy asoslab berdilar. Keyinchalik Gustav Shmoller, Adolf Vagner, Lujo Brentano singari olimlar bu g‘oyalarni yanada rivojlantirib, iqtisodiyotda davlatning faol rolini asoslab berdilar. Ular jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash, ishchi sinf manfaatlarini himoya qilish, soliqlarni adolatli taqsimlash kabi masalalarga katta e’tibor qaratdilar. Shmoller davlatning iqtisodiy siyosatdagi vazifasi faqat tartibga solish emas, balki ijtimoiy tenglikni ta’minlashdan iborat ekanini ta’kidladi. Tarixiy maktabning asosiy yondashuvi induktiv metodga tayanadi. Ya’ni iqtisodiy hodisalarni o‘rganishda umumiy nazariyalardan emas, balki aniq faktlar va tarixiy tajribalardan kelib chiqiladi. Ular iqtisodiy rivojlanishni uzluksiz jarayon deb hisoblab, uni tabiiy evolyutsiya sifatida ko‘radilar. Shu bois, iqtisodiyotda keskin o‘zgarishlar emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanish tarafdori bo‘lganlar.

Germaniya tarixiy maktabining g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Davlatning iqtisodiyotdagi faol roli, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, soliq siyosatini adolat tamoyiliga asoslash kabi masalalar bu maktab nazariyalarining amaliy ko‘rinishidir. Adolf Vagner ilgari surgan “davlat xarajatlarining o‘sish qonuni” hozirgi kunda davlat byudjeti siyosatini tahlil etishda asosiy nazariyalardan biri sifatida ishlatilmoqda. Zamonaviy Germaniya, Skandinaviya va boshqa rivojlangan davlatlarning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti aynan tarixiy maktab g‘oyalariga tayanadi. Ularning iqtisodiy siyosatida inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va davlatning muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish ustuvor o‘rinda turadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham tarixiy maktab tamoyillarining aksini ko‘rish mumkin. Mustaqillik yillarida mamlakat bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘lini tanladi, islohotlarda xalqning mentaliteti, tarixiy an’analari va ijtimoiy qadriyatlari inobatga olindi. Davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli, ijtimoiy himoya tizimining rivojlantirilishi ham Germaniya tarixiy maktabining asosiy g‘oyalariga yaqin.

XULOSA

Germaniya tarixiy maktabi iqtisodiy tafakkur taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Bu maktab iqtisodiyotni faqat nazariy modellar asosida emas, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilishi, madaniy qadriyatlari va siyosiy sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini asoslab berdi. Ularning

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

g‘oyalari iqtisodiy jarayonlarga tarixiy yondashuvni olib kirdi, davlatning iqtisodiyotdagi faol rolini va ijtimoiy adolatni ta’minlash zarurligini ilgari surdi. Bugungi kunda ham Germaniya tarixiy maktabi ta’limoti o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Global iqtisodiy muammolarni hal etishda, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, hamda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda bu ta’limotning tamoyillari amaliy ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston tajribasida ham bosqichma-bosqich islohotlar, davlatning bosh islohotchi roli va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida tarixiy maktab g‘oyalarining aksini ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шмоллер Г. Историческая школа в политической экономии. — Берлин: Verlag von Duncker & Humblot, 1900.
2. Вагнер А. Основы политической экономии. — Лейпциг, 1892.
3. Hildebrand B. Die Nationalökonomie der Gegenwart und Zukunft. — Frankfurt am Main, 1848.
4. Rocher W. System der Volkswirtschaft. — Leipzig, 1854
5. Knies K. Die politische Ökonomie vom Standpunkte der geschichtlichen Methode. — Braunschweig, 1853

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISH – STRATEGIYADAGI MUHIM MAQSAD SIFATIDA

Muallif: Kadirova S.Sh. [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti, jurnalistika yo‘nalishi 2-kurs magistranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17570320

ANNOTATSIYA

Ma’lumki, “O‘zbekiston–2030 strategiyasi”da bir qancha maqsadlar belgilangan bo‘lib, ularning ayrimlari xotin-qizlar bilan bog‘liq yo‘nalishlarni ham qamrab olgan. Ushbu maqolada strategiyadagi aynan ayollar manfaatiga bag‘ishlangan va xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan yo‘nalishlar o‘rganiladi hamda bugungi islohotlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yurtimizda xotin-qizlarning faolligini oshirish va ularni qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni tahlil qilish imkonini beradi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so‘zlar: strategiya, ijtimoiy faollik, gender tenglik, xotin-qizlar, maqsad, islohot, chora-tadbir.

KIRISH

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar qatorida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini oshirish masalasi muhim strategik yo‘nalish sifatida belgilangan. “O‘zbekiston–2030 strategiyasi”da xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Strategiyaning “Kuchli fuqarolik jamiyati va tenglikni ta’minlash” nomli beshinchi yo‘nalishida aynan xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni amalda ta’minlash ko‘zda tutilgan. “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan ushbu strategiyaning 25-maqsadi bevosita xotin-qizlar manfaatlariga bag‘ishlangan hamda ayollar faolligini oshirishga qaratilgandir.

Ushbu maqsadga erishish uchun esa bir qator vazifalar qo‘yilgan bo‘lib, ulardan birinchisi — gender tenglikni ta’minlash, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida xotin-qizlar ulushini 30 foizga yetkazish, siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarida ularning ishtirokini kengaytirishni ko‘zda tutadi. Bu haqda so‘z borganda, avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 58-moddasida: “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlaydi”, deb belgilanganini ta’kidlash lozim. Bu borada bugun yurtimizda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida “Rahbar ayollar” o‘quv kursi tashkil etilgan bo‘lib, men mazkur kurs bitiruvchisi sifatida bugun yurtimizda rahbarlik borasida ham ayollarning ulushini oshirish bo‘yicha samarali ishlar yo‘lga qo‘yilganini ta’kidlamoqchiman.

Qolaversa, O‘zbekiston 2024 yilda gender tenglik va boshqaruv indeksi bo‘yicha 72,8 ball to‘plab, 103-o‘rindan 51 pog‘onaga ko‘tarilib, 52-o‘rinni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma’naviy hayotda xotin-qizlarning ishtiroki tobora kengayib, ularning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi. [https://uza.uz/posts/668353]

Ikkinchi vazifa — zo‘ravonlik va tazyiq holatlariga qarshi kurashish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda kuzatayotganimizday, bu borada ayanchli holatlar hali yetarlicha. Rasmiy ma’lumotlarda ham ko‘rsatkichlar kamaymagan. Kun.uz ning shu yil 13 avgust kuni yozgan ma’lumotida keltirilishicha, 2025 yil birinchi yarmida mamlakatda ayollarga nisbatan 48 303 ta tazyiq va zo‘ravonlik holati qayd etilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 121 foizga ko‘pdir. Bu esa, mavjud choralar bilan bir qatorda, psixologik yordam markazlarini kengaytirish, huquqiy madaniyatni oshirish, va profilaktika tizimini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Uchinchi, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish vazifasining bajarilishida esa yaxshi natijalar mavjud ekanini birgina quyidagi fakt dan bilish mumkin. Jahon banki Global Findex 2025 hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda moliyaviy hisob raqamiga egalik darajasi yillar davomida oshgan bo‘lib, 2024 yilda birinchi marta ayollar bu borada erkaklardan oshib ketishdi. Ayollarning 60,7%, erkaklarning esa 58,5% hisob raqamiga ega ekanligi qayd etildi. [https://t.me/mahallavaoila_instituti/6782]

To‘rtinchi vazifa, ya’ni ta’lim va mehnat sohasida tenglikni ta’minlash borasidagi islohotlarni tahlil qilganimizda esa, xotin-qizlar uchun ajratilayotgan ta’lim krediti, kvotalarni eslashimiz o‘rinli. Shuningdek, yaqinda yurtdoshimizning O‘zbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvida endilikda har yili mehnat jamoalarida gender audit natijalarini muhokama qilib, ish beruvchilar bilan birgalikda xotin-qizlar uchun yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratish, 14 ta tarmoq kasaba uyushmasi doirasida gender tenglikni ta’minlash uchun manzilli strategiyalar ishlab chiqish muhimligi alohida qayd etildi.

Beshinchi vazifa – huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Ushbu vazifa nihoyatda muhim, nazarimda. Zero, har qancha imtiyozlar berilmasin, ayollar ularni o‘qib o‘rganmasalar, o‘z haq-huquqlarini bilmasalar natija bo‘lmaydi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun turli tadbirlar, treninglar o‘tkazilayotgan bo‘lsa-da, bu borada ba’zan madaniy mentalitet omillari to‘siq bo‘lmoqda.

Pedagogika fanlari nomzodi, professor F. Abdurahimova o’z tadqiqotida ta’kidlaganiday, “O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar va davlat siyosati jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki hali yetarli darajada emas. Shuning uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– Qonunchilikda belgilangan gender tenglik mexanizmlarini samarali ijro etish;

– Xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ma’rifiy ishlar olib borish;

– Ayollarning biznes va tadbirkorlikdagi ishtiroki uchun qo‘shimcha imtiyoz va imkoniyatlar yaratish;

– Davlat boshqaruvi va siyosiy qaror qabul qilish jarayonlariga xotin-qizlarni yanada keng jalb qilish”.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

[F. Abdurahimova “O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy faolligining huquqiy asoslari va davlat siyosati”, World of Science August, Volume-8, Issue-8, 16-bet]

XULOSA

“O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”da xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari mamlakatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy adolat va gender tenglikni ta’minlashning muhim kafolati sifatida ko‘rilgan. Umuman olganda, strategiyadagi ko‘plab yo‘nalishlar ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon milliy taraqqiyotning yangi bosqichida ayollar salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini yaratadi. Bugungi kunda yurtimizda bu borada erishilgan natijalar ijobiy bo‘lsa-da, zo‘ravonlikni oldini olish, rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushini oshirish va ularning siyosiy ishtirokini kengaytirish yo‘nalishida izchil ishlar davom ettirilishi zarur.

OAV vakili sifatida men ham o‘z faoliyatimdan kelib chiqib bu ishlarni jadallashtirishga, yurtimizda xotin-qizlar munosib turmush sharoitlarida yashashlari va jamiyatda faol bo‘lishlariga hissa qo‘shish istagidaman. Hozirda magistrlik dissertatsiya ishida ayollarning ijtimoiy faolliklarini yanada keng targ‘ib qilish va oshirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish yo‘lida izlanmoqdaman. Zero, ayollarning salohiyati, baxt-saodati – oilaning va butun bir jamiyatning farovonligini belgilaydi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023) Toshkent, Adolat.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. (2022) Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/8577
4. “O‘zbekiston -2030 strategiyasi”. (2023) Toshkent.
5. Abdurahimova, F. “O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy faolligining huquqiy asoslari va davlat siyosati”. World of Science August, Volume-8, Issue-8, 16-bet.
6. www.lex.uz – O‘zbekiston qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

ARBA’IN SHE’RLARDA AYOL TIMSOLI

Muallif: O‘tkirbek Muhammad Sobir [1]
Affiliyatsiya: ADPI mustaqil tadqiqotchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17570567

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Anvar Hojiahmad, Jamol Kamol, Shukur Qurbon va Mansur Jumayevning arba’in she’rlari qiyosiy tahlil qilinib, ularda ayol timsolining badiiy talqini har tomonlama yoritiladi. Tadqiqotda shoirlarning poetik dunyoqarashi, uslubiy yondashuvi, qo‘llagan ramz va timsollar tizimi hamda ayol obraziga berilgan estetik va tarbiyaviy ma’no tahlil etiladi. Ayol timsolining “jufti halol”, “ona”, “gul”, “g‘uncha” kabi obrazlarda ifodalanishi o‘zbek she’riyatidagi muqaddaslik, mehr, sadoqat va hayotbaxshlik g‘oyalarini aks ettiradi. Maqolada har bir shoirning ayolga bo‘lgan munosabatidagi o‘ziga xosliklar, ijtimoiy-tarbiyaviy g‘oyalar va axloqiy qadriyatlar badiiy-estetik nuqtayi nazardan yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyotida ayol timsolining ma’naviy, madaniy va estetik qimmatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she’riyati, arba’in, ayol timsoli, qiyosiy tahlil, ramz, estetik ahamiyat.

KIRISH

Adabiyot inson ruhiyatini, ijtimoiy hayotni va ma’naviy qadriyatlarni badiiy vositalar orqali yorituvchi eng ta’sirchan sohalardan biridir. Adabiyotning asosiy vazifalaridan biri — inson va jamiyat o‘rtasidagi ruhiy, axloqiy va estetik bog‘liqlikni ochib berishdir. Ayniqsa, poetik tafakkurda ayol timsoli qadim zamonlardan buyon mehr, sadoqat, go‘zallik, hayotbaxshlik va muqaddaslik timsoli sifatida talqin etilib kelgan. O‘zbek adabiyotida ayol obraziga ehtirom bilan murojaat qilish, uni oilaviy, diniy, ijtimoiy, ma’naviy jihatdan ulug‘lash ko‘p asrlik adabiy an’anaga aylangan.

Ayol mavzusi turli davr shoirlari ijodida turlicha badiiy ko‘rinish olgan bo‘lsa-da, ularning barchasini birlashtiruvchi jihat — ayolni insoniyatning eng muqaddas ne’mati sifatida talqin etishdir. Xususan, manzum arba’in janrida yaratilgan she’rlar o‘zbek she’riyatida bu mavzuning yangi, chuqur ma’naviy va falsafiy talqiniga yo‘l ochdi. Ushbu maqolada Anvar Hojiahmad, Jamol Kamol, Shukur Qurbon va Mansur Jumayevning arba’in she’rlari asosida ayol timsolining badiiy, estetik va tarbiyaviy jihatdan yoritilishi tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot qiyosiy-tahliliy va interpretativ metodlarga tayangan holda olib borildi. Har bir shoirning arba’in janridagi asarlari mazmun, shakl, uslub va ramziy qatlamlar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Shoirlarning poetik dunyoqarashi, diniy-falsafiy qarashlari hamda ayol obrazini talqin etishda qo‘llagan badiiy vositalari o‘zaro solishtirildi.

Tahlil davomida “ayol timsoli”ning diniy-estetik, ijtimoiy-axloqiy va madaniy talqini uch asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqildi:

1. Ilohiy va oilaviy qadriyatlar kontekstida ayol obrazi (Anvar Hojiahmad).
2. Ijtimoiy adolat va insoniylik mezoni sifatida ayol (Jamol Kamol).
3. Axloqiylik va estetik go‘zallik ramzi sifatida ayol (Shukur Qurbon va Mansur Jumayev).

Mazkur yondashuv ayol obrazining turli poetik shakllarda qanday mazmun kasb etishini ochib berishga xizmat qiladi.

Anvar Hojiahmad o‘z arba’inida ayolni “jufti halol” timsolida ulug‘laydi. U ayolni oilaning ma’naviy markazi, Allohning rahmatini jalb qiluvchi zot sifatida tasvirlaydi. Shoirning quyidagi misralarida diniy ruh va lirizm uyg‘unlashgan:

Jufti halolingga boqsang jilmayib,
Xotining yuzida kulsa tabassum.
Rahmat nazari-la tomosha qilib,
Alloh ikkingizga qilur tarahhum. [1.61]

Bu tasvir orqali shoir oilaviy hayotning poklik, baraka va ruhiy tinchlik asosida qurilishi zarurligini ta’kidlaydi.

Jamol Kamol esa ayolni “munis ona”, “mushtipar” timsolida gavdalantirib, uni kamsitish va xo‘rlashni insoniylikka zid holat sifatida talqin etadi. Shoir jamiyatda ayol sha’niga yetkazilgan ozorlarni qoralab, insoniy fazilatlarni ayolga ehtiromda ko‘radi:

Sen ayolni urma, munis onadir ul, mushtipar,
Yaxshi insonlar ayolni izzat-ikrom qilur.
Ul yomon durkim, ayolini hamisha yig‘latur,
Xor-u zor aylarda, so‘ngra ortidin badnom qilur... [2.432]

Bu misralarda ijtimoiy-tanqidiy ruh kuchli bo‘lib, ayol sha’nini himoya qilish g‘oyasi yetakchi o‘rinni egallaydi.

Shukur Qurbonning she’rlarida ayol “gul” ramzi bilan tasvirlanadi. Shoirning poetik fikrida mehr, muhabbat, shafqat ayolning mohiyatini belgilovchi asosiy tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi:

Kerak mehrdan bulak yana muhabbat, shafqat,
Avaylab va e’zozlab hidlash uchun gullarni.
Ayollarni hurmatlar ulug‘ odamlar faqat,
Faqat pastkash odamlar xorlashadi ularni. [3.142]

Shoir bu yerda ayolni faqat hissiy mavjudot emas, balki insoniyatni komillikka yetaklovchi ma’naviy kuch sifatida talqin etadi.

Mansur Jumayev esa ayolni “g‘uncha” va “gul” ramzlari orqali falsafiy-estetik yondashuvda gavdalantiradi. U ayolni hayot manbai, erkakning ilhom va ruhiy kuchi deb biladi:

Har erkak kaftiga tog‘lar va dashtlar
Ayol deb atalgan bir g‘uncha tashlar.
Bu gulning bo‘yidan nafas olur mard,
Bu gulni alaf deb bilar pastkashlar. [4]

Shoirning ramziy yondashuvi orqali ayolning jamiyatdagi, oiladagi o‘rni hamda inson ruhiyatiga ta’siri chuqur ifoda etiladi.

MUHOKAMA

To‘rt shoirning asarlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning har biri ayol timsolini o‘z badiiy yo‘nalishida talqin etgan bo‘lsa-da, umumiy g‘oya — ayolni ulug‘lash, e’zozlash va himoya qilishdir.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Anvar Hojiahmad diniy-estetik ruhni ilgari sursa, Jamol Kamol ijtimoiy adolat va insoniylik g‘oyasiga urg‘u beradi. Shukur Qurbon ayolni axloqiy mezonlar asosida ulug‘laydi, Mansur Jumayev esa uni hayotning falsafiy mohiyatiga bog‘laydi. Bu jihatlar o‘zbek adabiyotida ayol obrazining ko‘p qatlamli va sermazmun talqinini namoyon etadi.

Ramzlar tizimi (“gul”, “g‘uncha”, “ona”, “jufti halol”) orqali shoirlar ayolni jamiyatning ma’naviy tayanchi sifatida tasvirlashgan. Ushbu obrazlar nafaqat badiiy-estetik ifoda, balki axloqiy-ma’rifiy tarbiya vositasi hamdir. Ayolga nisbatan mehr, sadoqat va ehtiromni targ‘ib etuvchi bu asarlar hozirgi davr o‘quvchisi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Anvar Hojiahmad, Jamol Kamol, Shukur Qurbon va Mansur Jumayevning arba’inlari o‘zbek she’riyatida ayol mavzusining turfa badiiy talqinlarini ochib beradi. Har bir shoir ayolga o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib yondashadi, biroq ularni birlashtiruvchi g‘oya — ayolni ulug‘lash, e’zozlash va himoya qilishdir.

Ayolni qadrlash va hurmat qilish – nafaqat shaxsiy fazilat, balki butun jamiyatning axloqiy yuksakligini belgilovchi mezondir. Shu bois, ushbu arba’inlar o‘zbek adabiyotida nafaqat diniy yoki estetik hodisa, balki ijtimoiy-ma’naviy tafakkur taraqqiyotining yorqin namunasi sifatida alohida o‘rin tutadi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hoji Ahmad, Anvar. Jannat kaliti: Muhammad alayhissalomning 33 masaladagi 333 hadislariga 333 she’riy iqtibos. – T.: Cho‘lpon, 1994.
2. Kamol, Jamol. She’r san’ati. Saylanma. Olti jildlik. IV jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
3. Qurbon, Shukur. Hikmatlar anjumani: To‘rtliklar. – Toshkent: «Sharq», 2016.
4. https://t.me/Mansur_Jumayev

YOSHLAR SIYOSATIDA O‘ZBEKISTON ARMIYASINING MUHIM O‘RNI HAMDA INTEGRATIV MEDIAMAKONDAGI IMIJI

Muallif: Omonqulov Ro‘ziqul Ma’ruf o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: XNU, Jurnalistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17570667

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada armiyaning integrativ mediamakondagi imidji, ya’ni zamonaviy axborot maydonida harbiy tuzilmalarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy qiyofasining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida media makon davlat xavfsizligi tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn nashrlar hamda raqamli kommunikatsiya vositalari orqali armiyaga nisbatan jamoatchilik fikrining shakllanishi mamlakat imidjini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.Tadqiqotda armiyaning ijobiy imidjini yaratish va mustahkamlashda integrativ media strategiyalarining o‘rni, PR-kommunikatsiyalar, axborot xavfsizligi, patriotizmni rivojlantirish hamda yoshlar ongida milliy armiyaga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tajribasi tahlil qilinib, O‘zbekiston armiyasining mediamakonidagi hozirgi ko‘rinishi, afzalliklari va muammolari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar siyosati, armiya imidji, integrativ mediamakon, axborot siyosati, PR-strategiya, patriotizm, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, milliy xavfsizlik.

KIRISH

Global marketing tadqiqotlarini o‘tkazuvchi “Ipsos” kompaniyasi 2022-yilda xalqaro so‘rovnoma orqali odamlarning turli kasblarga nisbatan ishonch reytingini aniqlagan. 28 ta davlatda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, shifokorlar, olimlar, o‘qituvchilar qatorida harbiylar eng ko‘p ishoniladigan kasb egalari to‘rtligida e'tirof etilgan[1].


2022-yil yakunlariga ko‘ra, odamlarning harbiy xizmatchilarga bo‘lgan “ishonch darajasi” *(mutlaq ishonadiganlarning umumiy nisbati)* 44 foizni tashkil etdi. E'tiborlisi, fuqarolari yurt posbonlariga eng ko‘p ishonadigan davlatlar beshligida Hindiston (64 %), AQSh (64 %), Rossiya (59 %), Buyuk Britaniya (55 %), Avstraliya (53 %) qayd etilgan. Vatan himoyachilarining odamlar eng ko‘p ishonadigan kasblar qatoridan o‘rin olishida harbiy sohaga ixtisoslashgan media nihoyatda muhim o‘rin tutadi va katta ta'sir ko‘rsatadi. Harbiy jurnalistika eng rivojlangan mamlakatlar ham yuqorida nomi keltirilgan hududlar hissasiga to‘g‘ri kelishi tadqiqot davomida aniqlandi. Buning bosh sababi ularning harbiy nashrlarida barqaror rivojlanish maqsadi yo‘lidagi axborot uzatish strategiyasi va integratsiyasi samarali yo‘lga qo‘yilgan.

[1] *Qarang:* https://www.ipsos.com/sites/default/files/ct/news/documents/2021-10/Global-trustworthiness-index-2021. Murojaat vaqti: 1.11.2025. So‘rovnoma o‘tkazgan muassasa 1975-yili Fransiya poytaxtida tashkil etilgan bo‘lib, dunyoda 3-o‘rinda turuvchi eng katta tadqiqot kompaniyasi hisoblanadi.

1.Mamlakatimiz armiyasining integrativ mediamakondagi imiji

O‘zbekiston armiyasining integrativ mediamakondagi imijini tadqiq etishda qisman mazkur yetakchi mamlakatlardagi harbiy nashrlar kontentini tahlilga tortdik. Negaki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi[2]ning **98-maqsadi** jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imijini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston armiyasi haqida xorijiy OAVda uzatilgan rasmiy axborotlarning aksariyati xalqaro harbiy hamkorlik munosabatlarining mustahkamlanib borayotganiga bag‘ishlangan. Misol uchun, hamkorlikdagi amaliy o‘quv mashg‘ulotlari, xalqaro armiya o‘yinlari va harbiy musobaqalarda o‘zbek harbiylarining ishtiroki, salohiyati, birdamligi va muvaffaqiyati ijobiy baholangan. Jumladan, AQSh markaziy qo‘mondonligi muassisligidagi “Unipath” jurnalining 2021-yil 21-dekabrda chop etilgan 11-soni “O‘zbeklar harbiy hamkorlikni davom ettirmoqda” sarlavhali maqola bilan boshlanadi *(1-rasm)*. Jami 68 betdan iborat ushbu harbiy nashr o‘rganilgan sonining 6 sahifasi O‘zbekiston armiyasiga bag‘ishlangan.




1-rasm. “Unipath” jurnali. 2021-yil 11-son.

Maqolada data-jurnalistika imkoniyatlari hamda o‘zbek ofitserlarining intervyularidan unumli foydalanilgan. Jurnalning dizayn kontsepsiyasida ranglar uyg‘unligi, matn va tasvir proporsiyasiga alohida urg‘u berilgan. Mundarijada turli mamlakatlar armiyasi va harbiy hayoti haqida maqolalarni ko‘rish mumkin. Mazkur nashrning bosma va onlayn versiyasi mavjud bo‘lib, onlayn versiyasi ingliz, rus, arab, pushtu, dariy kabi tillarda ommaga axborot uzatadi. 68 betlik jurnalning elektron versiyasi onlayn varaqlab ko‘rish yoki istalgan sahifasini yirik formatda o‘qishga qulaylashtirilgan.

O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi strategik hamkorlikning yangi davri 2019-yildan boshlandi. Tomonlarning hamkorlikdagi qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlari va do‘stlik musobaqalari shundan dalolat beradi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi harbiy hamkorlik kuchayib borar ekan, 2019-yil 12–15-dekabr kunlari

[2] Prezident Sh.Mirziyoyevning “2022-2026-yillarga mo‘jallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/docs/5841063. Murojaat vaqti: 1.11.2025.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining “Kemp MakKeyn” bazasida Mississipi milliy gvardiyasi tomonidan o‘tkazilgan qo‘shma mashg‘ulotlarda o‘zbekistonlik askarlarning ishtiroki alohida e'tiborga loyiq. Qo‘shma mashg‘ulotlar ikki mamlakat harbiylari o‘rtasida 2019-yil boshidan beri o‘tkazilgan bir qator treninglar, uchrashuvlar va muzokaralar doirasida tashkil etilgan *(2-rasm)*.


Uzbeks Reap 'Best Warrior' Honors

LT. COL. UMED AHMEDOV, FORMER REPUBLIC OF UZBEKISTAN SENIOR NATIONAL REPRESENTATIVE TO U.S. CENTRAL COMMAND

In their third year of attending Southern Strike, Uzbek troops earned praise for their excellence. Two Uzbek servicemen won honors at a grueling "Best Warrior" competition at Camp Shelby: Sgt. Dilmurod Suleimanov and Jr. Sgt. Khayrulla Ochilov took home trophies and medals as the top international troops in the competition.

The annual Best Warrior competition takes place among Mississippi National Guard units. Representatives of the Uzbek Armed Forces participated in that event for the second time. The U.S. side was represented by 12 Soldiers selected from about 12,000 Mississippi National Guard personnel. The competition was open to two main categories: senior sergeants and junior sergeants.

Participants competed in 10 disciplines, including obstacle courses, weapons assembly and disassembly relays, physical training, personal appearance and equipment inspection, weapons proficiency, and artillery training. Soldiers marched 20 kilometers wearing 18-kilogram packs, rescued wounded Soldiers from the battlefield, and navigated swamps and forests at night without modern electronic equipment like GPS.

During the exercise, Uzbek Soldiers were able to break two Mississippi National Guard records — in the obstacle course (completed in 9 minutes, 17 seconds) and the 2-mile run (completed in 12 minutes, 5 seconds).

In addition, when firing an M-4 machine gun, Sgt. Suleimanov demonstrated high fire accuracy and shots grouping, which was highly praised by the American instructor of fire training for the state's National Guard special operations forces. During the fitness test for artillery training, Jr. Sgt. Ochilov hit a tank using only three rounds of ammunition, far fewer than the six rounds allowed to earn an "excellent" rating.

"Our Uzbek colleagues are participating in this competition for the second time, which has become a tradition for us. I admit that this time they have a clear advantage not only in physical, but also in combat and psychological training and in the knowledge of weapons," said Sgt. Maj. Christopher Young, senior noncommissioned officer in the Mississippi Army National Guard.

Uzbek service members had to master five types of American-made small arms in two days, take a short course in U.S. Army topographical surveying, work with NATO equipment, and study new standards for physical training. All this came in addition to the difficulties of adapting to the local geography and time zone. The exercise competition took place daily from 5 a.m.

"I am amazed at how quickly the Uzbek Soldiers learned the characteristics of firearms of the U.S. Armed Forces and successfully passed the standards for fire training," Sgt. Major Young said.

During the awards ceremony, Uzbek Soldiers collected commemorative medals and trophies engraved with their names. This victory once again proved that Uzbek military personnel have good endurance, excellent physical training and ability to compete with representatives of the defense departments of foreign countries on equal footing and in any conditions.

April's competition was the second time Uzbek Soldiers prevailed in such a competition with the Mississippi National Guard. In December 2019, at Camp McCain in Mississippi, Sr. Sgt. Sardor Mamarasulov was named "best foreign junior commander" and Jr. Sgt. Muhriddin Ochilov "best foreign Soldier."

2-rasm[3]. “Unipath” jurnali. 2021-yil 2-son.

Fotosuratda qanday jarayon aks ettirilgani haqida “O‘zbek maxsus operatsiya kuchlari zobiti o‘z missiyasini AQShlik hamkasbi bilan ado etmoqda”, deya yuqori chap burchagida izoh berilgan. E'tiborlisi, suratdagi zobitning yuzi mozaika bilan bekitilgan. Bu bilan mazkur harbiy nashr maxsus operatsiya kuchlari zobiti rekvizitlarini ommaga oshkor etmaslik yuzasidan xalqaro talablarga qat'iy rioya qilgan.

Bundan tashqari, “Unipath” jurnalida chiqqan “Stability through cooperation” (“Hamkorlik orqali barqarorlik”) sarlavhali maqolada O‘zbekiston armiyasi haqida alohida o‘rin ajratilgan[4]. Unda AQSh markaziy qo‘mondonligi tomonidan Montana shtatidagi “Fort Harrison” poligonida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston, Mo‘g‘uliston, Pokiston va Amerika qo‘shinlari ishtirokida o‘tkazilgan “Hududiy hamkorlik – 2021” o‘quv mashg‘ulotlari haqida so‘z boradi. Maqolada muallifning quyidagi talqini dastlabki qismida asli noto‘g‘ri munosabat beriladi: “Haqiqiy dunyoda konstitutsiyaviy jihatdan ko‘pmillatli tinchlikparvar kuchlarga qo‘shilish imkoniyati cheklangan o‘zbek qo‘shinlari mashg‘ulotlarda barqarorlik missiyasining umumiy maqsadlariga sodiq qolgan mustaqil pozitsiyasini saqlab qoldi”. Bunday mulohaza o‘quvchida mamlakatimiz haqida salbiy taassurot qoldiradi.

O‘zbekiston armiyasi haqida integrativ mediamakondagi imijini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarning o‘z vaqtida berib borilishini ta'minlash yolg‘on va destruktiv ma'lumotlar tarqalishining oldini oladi. Mazkur yo‘nalishdagi kam sonli materiallardan biri 2021-yili o‘zbek askarlari AQShda o‘tgan musobaqa sovrindorlari bo‘lishgani haqida «Facebook» tarmog‘ida berilgan axborotdir. Unda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari maxsus

[3] *John Alderman.* Uzbeks pursue military cooperation // Unipath, Volume 11, 2021. – P. 11. https://unipath-magazine.com/en-v11n2_2022/

[4] *Michael Touchette.* Stability through cooperation // Unipath, Volume 11, 2021. – P. 33. https://unipath-magazine.com/en-v11n2_2022/

operatsiyalar batalyonining ikki serjanti “MakKeyn” bazasida o‘tgan “Eng yaxshi jangchi” musobaqasida ishtirok etib, vataniga sovrin bilan qaytgani haqida xabar berilgan. Katta serjant Sardor Mamarasulov “Eng yaxshi xorijlik kichik qo‘mondon”, kichik serjant Muhriddin Ochilov esa “Eng yaxshi xorijlik askar” mukofotiga sazovor bo‘ldi, deyiladi Mississipi milliy gvardiyasining “Facebook” sahifasida[5]. Ushbu xabarga 2021-yil 6-dekabr kuni musobaqa doirasida O‘zbekiston mudofaa vazirligi tomonidan Florida shtatining Tampa shahridagi AQSh harbiy havo kuchlari bazasida namoyish qilingan o‘zbek milliy taomlari ko‘rgazmasidan suratlar ilova qilingan. Ushbu tadbir yuzasidan O‘zbekiston Mudofaa vazirligi axboroti mudofaa.uz saytida yoritilgan: “Musobaqa doirasida O‘zbekiston vakillari Tampa *(Florida)* shahridagi AQSh harbiy-havo kuchlari bazasida har yili o‘tkaziladigan “Xalqaro kecha” tadbirida ishtirok etdilar. O‘zbek harbiylari tashrifchilar uchun milliy taomlar hozirlab, o‘z milliy liboslari, urf-odat va an'analarini namoyish etdilar. “Ushbu tadbir tomonlarning butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo‘lida birgalikda ishlash va hamkorlik qilishga bo‘lgan qat'iyatini yana bir karra tasdiqladi”.

Oradan bir yil o‘tib, ya'ni “Eng yaxshi jangchi” musobaqasining 2022-yilda o‘tkazilgan sinovlari haqida esa markaziy qo‘mondonlik jurnali endi “AQSh o‘zbekistonlik ishtirokchilarni olqishlaydi” sarlavhali maqola orqali xolis axborot e'lon qildi. “Musobaqa davomida o‘zbekistonlik va amerikalik askarlar birgalikda murakkab sinovlardan o‘tdilar. Tadbirning ilk kuni to‘siqlardan o‘tish mashqlari bilan boshlandi. Musobaqaning ikkinchi kuni jismoniy mashqlar ishtirokchilarning kuchlarini sinovdan o‘tkazdi. Shu bilan birga, askarlar zobitlardan iborat kuzatuvchilar oldida harbiy-nazariy imtihondan o‘tdilar.

Musobaqaning uchinchi kuni eng og‘iri bo‘ldi. Ishtirokchilar kunni 12 mil masofali yurish marshi bilan boshladilar, undan so‘ng AQSh armiyasining o‘q otish mahorati bo‘yicha mashqlari o‘tkazildi. Bunda “askarlar nishonga qarab harakatlanish, birinchi yordam ko‘rsatish va nishonga turli qurollar bilan o‘q otish bo‘yicha real mashqlarni bajarishdi. Yakunda amerikaliklardan serjant Mitchell Skofild va katta uchuvchi Bo Uilcher mukofotga loyiq deb topildi. Ular ham xuddi o‘zbekistonlik safdoshlari kabi sovrin olishdi”, deyiladi markaziy qo‘mondonlik jurnalida.

Ushbu axborot Mississipi milliy gvardiyasining “Facebook” sahifasida ham e'lon qilingach, amerikalik tarmoq foydalanuvchilari ushbu platformada o‘zbek askarlarining musobaqadagi ishtirokini olqishlab, o‘zlarining iliq munosabatlarini yozib qoldirgan: “Juda zo‘r! Shtatimiz hamkorlik dasturi ishtirokchisi bo‘lgan O‘zbekiston bilan munosabatlarimizdagi faol yutuqlarni ko‘rishdan mamnunman”, deb yozgan “Facebook” foydalanuvchisi Brendon Teddi Tedford.

“O‘zbekistonlik musobaqa ishtirokchilardan faxrlanaman! Ular misli ko‘rilmagan ishni amalga oshirdilar!!!”, deb yozgan tarmoqning yana bir foydalanuvchisi Amanda Dillon Uilleret.

“Bu muvaffaqiyat O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining professional tayyorgarlikka ega, chiniqqan, jismoniy holati a'lo va va istalgan vaziyatda musobaqalasha olishini yana bir karra isbotlaydi”, deyiladi mudofaa.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O‘zbekiston Mudofaa vazirligi axborotida. Vazirlikka ko‘ra, taqdirlangan ikki serjant Mamarasulov va Ochilov AQSh harbiy qurollari, jumladan, Beretta to‘pponchasi, M-4 avtomati va M-19 pulemyotini qismlarga ajratib, qaytadan yig‘ishga muvaffaq

[5] https://www.facebook.com/nationalguardMS. Date of seen: 1.11.2025.

bo‘ldilar. Qo‘shma mashg‘ulotlar davomida O‘zbekiston va Mississipi shtati o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanib borayotgani ta'kidlangan, bunga AQSh va O‘zbekiston delegatsiyalarining 2019-yildagi uchrashuvi chog‘ida erishilgan.

Haqiqatan ham mustaqillik yillarida O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi harbiy hamkorlik keyingi uch yilda muntazamlik tusini oldi. 2019-yil yanvar oyida O‘zbekiston maxsus qo‘shinlari Mississipi milliy gvardiyasi tomonidan o‘tkazilgan mashqlarda ishtirok etdi. AQShda o‘zbek harbiylari ishtirokida ilk marotaba o‘tkazilgan bu mashg‘ulotlar “tarixiy” deb nomlandi. 2019-yil 14-may kuni Mississipi shtati sobiq gubernatori Fil Brayant va Mississipi milliy gvardiyasi qo‘mondoni Jenson Boylz O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Ular O‘zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasida bo‘lib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdilar. Uchrashuv chog‘ida Mirziyoyev ushbu tashrif O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi strategik sheriklikning yangi davri boshlanganidan dalolat berishini ta'kidladi.

“Amerika Qo‘shma Shtatlari O‘zbekistonga ishonadi. Mamlakatingiz faol tashqi siyosat olib bormoqda va biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu yerda yangicha erkinlik ruhi hukm surmoqda”, dedi Brayant tashrifi davomida O‘zbekiston milliy axborot agentligiga *(O‘zA)* bergan intervyusida.

Pandemiyadan keyin, 2021-yil sentyabr oyida O‘zbekistonga Mississipi milliy gvardiyasi podpolkovnigi Bred Xou boshchiligidagi AQSh harbiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. AQSh va O‘zbekiston uchuvchilari qo‘shma mashqlar o‘tkazishdi va Toshkent yaqinidagi garnizonda vertolyot orqali parvozlarni amalga oshirdilar.

Yil oxirida ko‘plab xorijiy ommaviy axborot vositalari O‘zbekistondagi islohotlar xususida qator maqolalar chop etdi. Ularda O‘zbekiston dunyoga o‘z eshiklarini ochayotgani va endi “yopiq davlat” emasligiga alohida urg‘u berilgan. O‘zbekiston va AQSh askarlarining qo‘shma harakatlari buning yaqqol isbotidir. Ikki mamlakat askarlarining hamkorlikdagi yig‘inlari do‘stona aloqalarni rivojlantirishga yordam berdi. Ammo shunga qaramay, hozir mavjud imkoniyatlar sharoitida milliy axborot vositalarimiz, shu jumladan, tashqi axborot-kommunikatsiya vositalarimiz xalqaro mediamonopoliyalarga raqobatchi kuchga aylanish darajasida emas. Mediada mamlakat imijini chuqur tadqiq qilgan olim, filologiya fanlari doktori Beruniy Alimovning bu haqida: “Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, MDH va Sharq mamlakatlari, xususan, Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Hindiston, Turkiya, Misr, BAA kabi davlatlarning ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonga doir xabarlar va maqolalar tez-tez e'lon qilib borilmoqda. Biroq G‘arb davlatlari, xususan, AQSh va Buyuk Britaniya media makonida O‘zbekistonga oid salmoqli tahliliy chiqishlar yetarli darajada emas”[6], degan xulosani bergan. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimidagi islohotlar haqidagi tahliliy chiqishlarni ko‘paytirish uchun esa harbiy nashrlar bilan bir qatorda “Dunyo” axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sahifalarida milliy armiya nufuzini oshirishga qaratilgan targ‘ibot materiallarini tayyorlash va ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Media bilan munosabat o‘rnatishga shu nuqtayi nazardan yondashilsa, shuningdek, media bilan aloqa strategiyasi hamkorlikda qayta ko‘rib chiqilsa, albatta yaxshi natija beradi. Ilgari harbiy muxbirlar, hatto muharrirlar voqealardan maxfiy ravishda xabardor qilingan. Garchi bu tizim ommaviy axborot vositalarini

[6] *Alimov B.* Yangi O‘zbekiston imiji xalqaro maydonda qanday yuksaladi? // Yangi O‘zbekiston, 2022. № 71. – B. 5.

manipulyatsiya qilish va axborotga egalik qilish huquqini o‘zida saqlab qolish uchun yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, bu hozirgi tezkor, tig‘iz va keskin zamonaga solishtirilganda ancha samarasizdir.

OAV bilan ishlash va kommunikatsiya ko‘nikmalarini o‘zida shakllantirish ofitserlar tayyorlash kurslarining bir qismiga aylanishi kerak. Ofitserlar ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish usullaridan xabardor bo‘lishi kerak. Masalan, yozuvli yoki ovozli axborot almashish ko‘nikmasi ularning barchasida shakllangan bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “2022-2026-yillarga mo‘jallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/docs/5841063. Murojaat vaqti: 1.11.2025.
2. Alimov B. Yangi O‘zbekiston imiji xalqaro maydonda qanday yuksaladi? // Yangi O‘zbekiston, 2022. № 71. – B. 5.
3. John Alderman. Uzbeks pursue military cooperation // Unipath, Volume 11, 2021. – P. 11. https://unipath-magazine.com/en-v11n2_2022/
4. Michael Touchette. Stability through cooperation // Unipath, Volume 11, 2021. – P. 33. https://unipath-magazine.com/en-v11n2_2022/
5. https://www.ipsos.com/sites/default/files/ct/news/documents/2021-10/Global-trustworthiness-index-2021. Murojaat vaqti: 1.11.2025.
6. https://www.facebook.com/nationalguardMS. Murojaat vaqti: 1.11.2025.
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Inter-Services_Public_Relations. Murojaat vaqti: 1.11.2025.
8. Газетов В.И. Служба PR в вооружённых силах США // Власть, № 7, 2009. – С. 148.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ЁШЛАР ҚАНОТЛАРИ ОРҚАЛИ ПАРТИЯЛАР ФАОЛИЯТИДА ЁШЛАР ИШТИРОКИ

Муаллиф: Қодиров Нажмиддин Неъматович [1]
Аффилиация: Халқаро Нордик университети Ижтимоий фанлар ва журналистика кафедраси мудири Тарих фанлари номзоди, доцент [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17570977

АННОТАЦИЯ

Мақолада Ўзбекистонда сиёсий партияларда ташкил этилган “Ёшлар қанотлари”нинг ёш авлоднинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишдаги роли таҳлил қилинади. Муаллифлар партиялар фаолиятининг 1990-йиллардаги дастлабки босқичларидан то замонавий ривожланиш жараёнигача бўлган ўзгаришларни кўриб чиқиб, ёшлар орасида ватанпарварлик, инсоний қадриятлар ва ижтимоий масъулият тушунчаларини шакллантиришда “Ёшлар қанотлари”нинг аҳамиятини ёритади. Мақолада партияларда ёшлар билан ишлашнинг инновацион механизмлари, уларнинг самарадорлиги, кадрлар ва малака муаммолари ҳамда халқаро тажрибани ўзлаштириш йўналишлари муҳокама қилинади. Шу орқали “Ёшлар қанотлари”нинг партия фаолиятида устувор институт сифатида аҳамияти ва ёшлар иштирокини рағбатлантиришдаги ижобий таъсири илмий асосда намоён қилинади.

Калит сўзлар: Сиёсий партиялар, Ёшлар қанотлари, ёшлар ижтимоий-сиёсий фаоллиги, ватанпарварлик, инновацион механизмлар.

КИРИШ

Бугунги ривожланиш босқичида инсоният тараққиётнинг энг муносиб ижтимоий-сиёсий тузилмаси сифатида фуқаролик жамияти концепциясини илгари сўрмоқда. Ўзбекистонда ҳам ислоҳотларнинг пировард мақсади сифатида фуқаролик жамиятини барпо этишлиги белгиланган. Фуқаролик жамиятида эса сиёсий партияларнинг аҳоли ва айниқса, ёшларни дунёқараши ва ижтимоий-сиёсий қарашларини шаклланиши ва ривожида ўрни катта.

Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик жамияти институтлари қаторида сиёсий партияларнинг иштироки муҳим рол уйнайди. Давлат ҳокимияти органларининг умумхалқ сайловлари асосида шакллантирилиб, фуқароларнинг давлат ва жамият ишларида бевосита ёки ўзлари томонидан сайлаб қўйилган вакиллари орқали иштирок этишини механизмини ифодаси ҳисобланган сиёсий партияларнинг энг аввало жамият билан давлат ўртасида ўзига хос “кўприк” вазифасини ўйнади.

Ўзбекистон Республикасида демократик давлат ва фуқаролик жамиятини яратишда сиёсий партиялар муҳим рол ўйнади. Мустақиллик даврида республикада кўппартиявийлик тизими яратилди. Барча ижтимоий муносабатлар қонун билан тартибга солинди. Мамлакатдаги ислоҳотларда сиёсий партиялар ҳам ижтимоий муносабатлар субъекти сифатида иштирок этди. Сиёсий партияларнинг фаолияти Ўзбекистон Республикаси

Конституцияси, “Жамоат бирлашмалари тўғрисида”, “Сиёсий партиялар тўғрисида”, “Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида” ги қонунлар ва “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий Қонуни асосида ташкил этилди[1]. Ушбу қонунлар мамлакатда кўппартиявийлик тизимини шакллантиришнинг ҳуқуқий асоси бўлди.

Сиёсий партияларнинг ёшларга оид фаолияти ҳақида гап борганда давлатимиз раҳбарининг “Бугун замоннинг ўзи сиёсий партияларнинг иш услубини тубдан ўзгартириш, уларнинг аҳоли, электорат билан мулоқотини тизимли йўлга қўйишни талаб этмоқда. Энди “мудраб ётган” сиёсий партиялар уйғониши лозим. Улар баландпарвоз гапларни четга суриб, аниқ амалий ишлар билан одамларимиз, сайловчилар ишончини қозониши, уларнинг қалбидан жой олиши керак”[2], – деган фикрларини ўринлидир.

АСОСИЙ ҚИСМ

Бугунги кунда, Ўзбекистонда бешта сиёсий партия расман руйхатдан ўтган ҳолда фаолият олиб бормоқда, булар: Ўзбекистон Халқ демократик партияси(1991 йилда Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг ташкил қилинган), “Адолат” Социал-демократик партияси(1995 йил 15 январда ташкил топган), “Миллий тикланиш” Демократик партияси(2008 йил 20 июнда ташкил топган), Ўзбекистон Либерал-демократик партияси(2003 йилнинг 15 ноябрида тузилган) ва Ўзбекистон Экологик партияси.

Мазкур сиёсий партиялар Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ҳамда вилоят, туман ва шаҳар вакиллик органларида ўз депутатлик мандантларига эга бўлиб, улар ўз низом ва дастурларидан келиб чиқиб, электоратнинг воқеа ва ходисаларга оид позицияси ҳамда Конституция ва бошқа қонуности ҳужжатларга асосланган ҳолда фаолият олиб боради.

Ёшлар жуда мослашувчан гуруҳ, аммо шу билан бирга улар ҳар доим ҳам ўзларининг ижтимоий-инновацион ресурсларини англамайдилар[3]. Ёшларнинг аксарияти минтақавий жамиятларнинг ижтимоий-сиёсий муносабатларида иштирок этмайди. Бу, бир томондан, объектив шароитлар билан боғлиқ бўлса, иккинчи томондан, айниқса, ўзбек жамиятининг сиёсий демократик транзити шароитида салбий ҳодиса сифатида баҳоланади. Ушбу транзит нафақат ўрта ёшдаги одамларнинг, балки ёшларнинг ҳам ижтимоий-сиёсий жараёнларда онгли равишда иштирок этишини ўз ичига олади.

Халқаро тажрибада ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш ва уларни давлат, жамият келажаги кафолати бўла оладиган авлод сифатида шакллантиришнинг бой тажрибаси мавжуд бўлиб, кўплаб ривожланган давлатларда бу тажриба ўз натижасини бераётганлиги сир эмас.

Ёшлар ижтимоий сиёсий фаоллигин масалалари тадқиқотчилари томонидан уларнинг сиёсий жараёнлардаги сўстлиги кўпроқ Ғарб жамиятлари

[1] Қаршиев Н.О. Ўтиш даврида партияларнинг ўзига хос хусусиятлари ва сиёсий аҳамияти / Ижтимоий тадқиқотлар журнали. – 2020 йил 2-сон. – 112-120 бетлар.

2 Мирзиёев Ш.М. Парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига айланиши, ислоҳотларнинг ташаббускори ва асосий ижрочиси бўлиши керак. 12.07.2017. http://uza.uz/oz/politics/parlamentimiz-a-i-iy-demokratiya-maktabiga-aylanishi-islo-ot-12-07-2017.

3 Пять способов, с помощью которых молодые люди вносят вклад в развитие своих сообществ | Программа развития Организации Объединенных Наций. www.undp.org/stories/five-ways-young-people-are-contributing-their-communities.

учун хос деб баҳолайди. Зеро, Ғарб жамиятларида демографик вазият шуни тақозо этса, Шарқ ва бошқа минтақаларда демографик вазият ўзгачадир[4]. Умумий ҳолатда ёш авлоднинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишда энг самарали йўл сифатида таълим тизимини ислоҳ этиш, сифатли таълимни амалга жорий этиш урғуланмоқда[5].

Сиёсатшунос олим М.Қирғизбоеввнинг таъкидлашича[6], XX асрнинг бошларидаёқ Ғарний Европанинг қатор йирик давлатларида (Бельгия, Австрия, Германия, Швеция ва бошқалар) социал-демократик партияларнинг ёшлар иттифоқлари тузилган. Кейинчалик улар Ёшларнинг социалистик интернационалига бирлашган. XX асрнинг биринчи ярмида эса барча сиёсий партиялар таркибида ёшлар ташкилотлари шаклланган[7].

Сиёсий партияларнинг “Ёшлар қаноти” асосан партияларга алоқаси бўлмаган, уюшмаган йигит-қизлар билан иш юритади. Асосий мақсад ёшлар ўртасида жиноятчиликни камайтириш, бщш вақтларини мазмунли ташкил этиш, гиёҳвандлик ва экстремизм исканжасига тушиб қолмасликларига эришишдан иборат. Жамиятда консенсусга эришиш, унда барқарорликни сақлаш ҳам сиёсий партияларнинг дастурий мақсадларига киради.

Ўзбекистонда ҳам сиёсий партияларнинг ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш жараёнларида иштироки тадрижий равишда партиялар фаолиятининг кенгайиши, улар фаолиятининг ҳуқуқий меъёрий асослари мустаҳкамланиб бориши ҳамда ўсиб келаётган ёш авлод томонидан ушбу фуқаролик жамияти институтларининг аҳамиятини англаб борилиши баробарида ошиб борди.

Дастлаб, сиёсий партияларнинг дастурларида ёшларни ислоҳотлар жараёнига жалб этиш акс эттирилган. Хусусан, Ўзбекистон либерал демократик партия (ЎзЛиДеП) дастурлари ёшларда тадбиркорлик ва ишбилармонлик кўникмаларини шакллантириш, ёш тадбиркор ва фермерларга шарт-шароит яратиб беришни асосий вазифалардан бири деб белгилаши бунга мисол бўлади[8]. Ундан ташқари, Миллий тикланиш демократик партияси (МТДП) дастурида эса ёшларда фидокорлик, ватанпарварлик ҳиссини кучайтириш[9], “Адолат” социал демократик партияси (“Адолат” СДП) дастурида ёшлар ватанпарварлик руҳида тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилиши[10] фикримизга исбот бўла олади.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

4 Barrett, M., & Pachi, D. (2019). Youth Civic and Political Engagement (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780429025570. (мурожаат қилинган сана – 23.03.2024).

5 Данные получены в ходе масштабных сравнительных исследований в рамках международных проектов CIVED и ICCS, проведенных Международной Ассоциацией по оценке учебных достижений (IEA). http://www.terpconnect.umd.edu/~jtpurta/ and http://www.iea.nl/iccs (на англ. яз.).

6 Қирғизбоев М. Сиёсий партиялар ва ёшлар: лоқайдлик мавсуми ўтди. 22.06.2018. https://iqtisodiygazeta.uz/2018/06/22/siesij-partijalar-va-eslar-lo%D2%9Bajdlik-mavsumi-%D1%9Etdi/?l=cir.

7 Германиядаги 80 та ёшлар ташкилоти мамлакатдаги йигит-қизларнинг тўртдан бирини ўз сафида бирлаштира олган. 1947 йилдан бошлаб эса Германия Эркин демократик партияси қошида Ёш немис демократлари ташкилоти иш бошлаган. Унинг 20 мингга яқин аъзоси бўлиб, ушбу ташкилот ёшлар ҳуқуқи ва эркинликларини таъминлаш, қолаверса, экологик ҳимоя масалалари билан шуғулланади.

Германия Социал-демократик партияси таркибидаги “Ёш соцалистлар” ташкилоти 1920 йилда ташкил этилган бўлиб, айни пайтда 65000 нафар аъзога эга. Унинг расмий мақоми “Германия СДПдаги ишчи ҳамкор”, дея эълон қилинган.

Европа Ислоҳотлар партиясининг “Ёшлар қаноти” ҳам мустаҳкам ва барқарор ташкилотга айланган. У ҳатто парламент сайловларида ўз номзодларини илгари суради. 2014 йилда “Ёшлар қаноти”нинг 2 нафар номзоди Европарламент депутатлигига сайланган. Испания социалистик ишчи партияси «Ёшлар ташкилоти» эса 1903 йилдан буён фаолият юритмоқда. Унинг қуйи ташкилотлари Испаниянинг барча ҳудудларида иш олиб боради.

8 Партия дастури. https://uzlidep.uz/uz/menu/the-program-of-the-party.

9 Сайловолди Дастур. https://mt.uz/public/storage/images/1746105764.pdf.

10 Сайловолди Дастури. https://adolat.uz/election-program.

Сиёсий патртиялар томонидан ёшлар билан ишлаш тажрибаси илк бора 1998 йилдан бошлаб амалиётда жорий этила бошланди. 1998 йил “Фидокорлар” миллий демократик партия(ФМДП)си мустақиллик йиллари тарихида биринчи бор сиёсий партиянинг “Ёшлар қаноти”га асос солди[11]. Ушбу партия томонидан 1999-2001 йиллар давомида “Ҳеч кимга бермаймиз сени, Ўзбекистон!” шиори остидаги туркум ватанпарварлик фестиваллари ўз вақтида ёшларни бирлаштиришга муносиб ҳисса бўлиб қўшилган[12]. “Адолат” СДПнинг Ёшлар кенгаши илк бор 2002 йилда тузилиб, 2003 йилда ушбу кенгашга “Ёш адолатчи” номи берилган[13]. ЎзЛиДеП ёшларга эътибор қаратган ҳолда, уларнинг қизиқишлари, манфаатларини ўрганиш, ёшлар ўртасида олиб бориладиган тарғибот – ташвиқот ишларини аниқ йўналтирилган ҳолда амалга ошириш мақсадида 2004 йил 23 январда “Ёшлар қаноти” фаолиятини ташкил этиш мақсадида Йўриқнома ва Ҳаракат дастурини тасдилаган[14]. 2006 йил 27 февралда “Ёшлар қаноти”нинг фаолияти қайта ташкил этилиб, янги таҳрирдаги Низоми қабул қилинди, қанотнинг Жамоатчилик Кенгашлари янгиланган таркибда шакллантирилди[15]. Ушбу ҳужжатларда “Ёшлар қаноти”нинг асосий мақсади – янгилик яратишга чанқоқ, ишбилармон ва тадбиркор ёшларни, малакали ёш мутахассисларни бирлаштириб, партиянинг дастурий мақсад ва вазифаларини ҳаётга татбиқ этиш устувор йўналиш сифатида белгиланган.

Ўзбекистонда 2010 йилларга келиб сиёсий партиялар жамиятнинг энг интилувчан, фаол қатламларини ҳимоя қилиш ва ўз сафида кўпроқ аҳоли вакилларини бирлаштириш мақсадида ёшлар ва аёллар қанотлари фаолият юритаётган эди. Бу вақтга келиб партиялар аъзолари таркибида ёшлар 20-25 фоизни ташкил эта бошлади[16].

Дунё ҳамжамиятининг ўзига хос ижтимоий-иқтисодий тараққиёти, мафкуравий манзарасининг изчил ўзгариши, янгидан-янги сиёсий воқеликлар вужудга келиши партиялар олдида фуқаролар, айниқса, ёшларнинг ғоявий, мафкуравий эҳтиёжларини қондириш каби муҳим вазифаларни вужудга келтирди.

Айрим тадқиқотчиларнинг келтиришича ёшларнинг сиёсат ҳақидаги тасаввурлари ва иштирок шакллари ўзгариб, кўпроқ индивидуал ҳаракатларга асосланаётганлиги натижасида “расмий ташкилотлар шахслар устидан ўз таъсирини йўқотмоқда ва унинг ўрнини гуруҳ алоқалари, кенг кўламли мобил ижтимоий тармоқлар эгалламоқда”[17] Ушбу тармоқлар сиёсий иштирокнинг муқобил шакллари асосини шакллантиради. Ёш фуқаролар орасида горизонтал иштирок этиш шакллари афзалликлари жозибали деб баҳоланмоқда[18]. Сиёсий

11 Партия тарихи. https://mt.uz/tarix.
12 Орипов Ш. Сиёсий партиялар ва ёшлар // жамият. – 2007. – 2 ноябрь.
13 Расулова Н.С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991-2008 йиллар). Тарих фанлари номзю илмий дараж. олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент, 2010. – 94 бет; Ўзбекистон “Адолат” СДП Сиёсий Кенгаши қошидаги “Ёш адолатчилар” кенгашининг 2007 йилдаги фаолияти юзасидан ҳисобот // АСДП СК жорий архиви материаллари. – Б. 1.
14 Расулова Н.С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991-2008 йиллар). Тарих фанлари номзю илмий дараж. олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент, 2010. – 94 бет.
15 Ўша жойда. – 95 бет.
16 Расулова Н.С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991-2008 йиллар). Тарих фанлари номзю илмий дараж. олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент, 2010. – 93 бет.
17 Bennett W.L., Segerberg A. The logic of connective action: Digital media and the personalization of contentious politics //Information, communication & society. – 2012. – Т. 15. – №. 5. – С. 739-768 (748).
18 Sloam, J., Henn, M. (2019). Rejuvenating Politics: Young Political Participation in a Changing World. In: Youthquake 2017. Palgrave Studies in Young People and Politics. Palgrave Studies in Young People and Politics. – Palgrave Macmillan, 2018. – pp. 17-42(24-25).

партия каби юқоридан пастга тушадиган ташкилотнинг кенг дастурини фаол равишда тарғиб қилишдан кўра, тенгдошлар тавсиясига кўра онлайн жараёнларда иштирок этишга чорловлар нисбатан натижадорлиги ҳақида фаразлар илгари сўрилади.

Ана шундай шароитда ижтимоий-маънавий ва сиёсий ҳаётдаги сўнгги ўзгаришлар ва янгиланишларни, вужудга келаётган янгича қадриятларни инобатга олган ҳолда соҳада ислоҳотларни амалга ошириш давр талаби бўлмоқда[19]. Яъни, ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда авангард фуқаролик жамияти институти сифатида сиёсий партиялар фаолиятида замонавий, таъсирчан механизмларни қўллашлари зарур бўлмоқда.

2016 йилдан бошлаб Ўзбекистонда ёшларнинг ижтимоий ва сиёсий-ҳуқуқий мавқеини белгилашда бирмунча аҳамиятли ишлар амалга оширилди. Улардан асосийси ёшларга доир давлат сиёсати ҳисобланади, чунки айнан шу сиёсат асосида ёшларнинг жамиятдаги ўрни ва муаммолари масалалари комплекс равишда ечим топиш учун тизим яратиш ишлари жонланди.

2017 йилда ўтказилган таҳлиллар натижалари мамлакатда фаолият юритаётган сиёсий партияларнинг ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш борасидаги ишларида бир қатор тизимли муаммолар мавжудлигини кўрсатди. Жумладан, сиёсий партиялар томонидан ёшлар билан ишлашнинг стратегик ёндашуви етарли даражада шаклланмагани, амалга оширилаётган дастур ва ташаббусларнинг аксариятида ёшлар манфаатлари тўлиқ инобатга олинмагани аниқланди. Шу билан бирга, партияларнинг маҳаллий бўғинларида ёшлар билан ишлашнинг самарали механизмлари етишмаслиги, ёшларнинг сиёсий жараёнларда иштирокини рағбатлантирувчи амалий чоралар ва ўқув-таълим дастурларининг етарлича йўлга қўйилмагани қайд этилди[20]. Натижада, сиёсий партиялар фаолиятида ёш авлоднинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишни таъминлайдиган тизимли ва барқарор ёндашувни шакллантириш зарурати юзага келган.

Кейинги йилларда сиёсий партиялар томонидан ёшлар билан ишлаш борасида муайян ижобий тенденциялар кўзатилди.

2018 йилга келиб, Ўзбекистон Халқ демократик партияси (ЎзХДП) – аъзолари сони 425 минг нафар бўлиб, жойларда партиянинг 11 мингдан ортиқ бошланғич ташкилотлари фаолият олиб борган[21]. Кейинги ўринда “Адолат” социал-демократик партияси сафида 135 минг аъзоси бўлиб, 3 минга яқин бошланғич ташкилотларига эга эди[22]. Миллий тикланиш ва Фидокорлар партияларининг бирлашуви асосида шаклланган “Миллий тикланиш” демократик партияси сафида аъзолари сони 190 минга яқин бўлиб, партиянинг матбуот органи – “Миллий тикланиш” газетаси бўлган[23]. Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партияси

19 Sloam, J., Henn, M. (2019). Rejuvenating Politics: Young Political Participation in a Changing World. In: Youthquake 2017. Palgrave Studies in Young People and Politics. Palgrave Studies in Young People and Politics. – Palgrave Macmillan, 2018. – pp. 17-42(24-25); Council of Europe, Competences for Democratic Culture: Living Together as Equals in Culturally Diverse Democratic Societies (Strasbourg, Council of Europe Publishing, 2016). http://www.coe.int/en/web/education/competences-for-democratic-culture. (мурожаат қилинган сана – 23.03.2024).

20 Мирзиёев Ш.М. Парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига айланиши, ислоҳотларнинг ташаббускори ва асосий ижрочиси бўлиши керак. 12.07.2017. http://uza.uz/oz/politics/parlamentimiz-a-i-iy-demokratiya-maktabiga-aylanishi-islo-ot-12-07-2017.

21 Саидов С. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими: ҳолати ва муаммолар. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими: ҳолати ва муаммолар - UzAnalytics.

22 Ўзбекистон “Адолат” социал-демократик партияси устави (янги таҳрир). Партия устави | "Адолат" СДП (adolat.uz).

23 MT | Partiya Nizomi va Dasturi.

(ЎзЛиДеП) сафида 252 минг аъзолар бўлиб, “XXI asr” ижтимоий-сиёсий газетаси партия матбуот органи ҳисобланган[24].

Ўзбекистонда сиёсий партиялар ёшларни ўз сафларига жалб этиш, уларнинг дунёқарашини кенгайтириш ва ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш борасидаги ишларини изчил давом эттирмоқда. 2021 йилда ЎзЛиДеП партиясидаги 1 млн аъзодан 502 минг нафари (18–35 ёшдаги) ёшлар бўлган. “Миллий тикланиш” демократик партиясида 2024 йилга келиб 398 249 нафар ёшлар умумий аъзоларнинг 51 фоизини ташкил этган. “Адолат” социал-демократик партиясида 500 мингдан ортиқ аъзоларнинг 187 мингга яқини (37 %) ёшлар бўлиб, уларнинг ярми қизлардир. Халқ демократик партияси сафида 500 мингдан зиёд аъзоларнинг 247 мингдан ортиғи 18–30 ёшлилар ҳисобланади, Экологик партияда эса 450 минг аъзодан 220 минг нафари ёшлардир. Бу кўрсаткичлар партиялар фаолиятида ёш авлоднинг сиёсий жараёнлардаги иштироки ва ташаббускорлиги ортиб бораётганини намоён этмоқда[25].

Ёш авлоднинг ижтимоий-сиёсий жараёнлардаги фаоллиги сўнгги йилларда янги мазмун касб этмоқда. Хусусан, уларнинг минтақавий ва глобал муаммоларнинг келиб чиқиш сабабларини англаш, уларнинг оқибатларини бартараф этишга қаратилган фаол иштироки кузатилмоқда[26]. Бу жараёнда ёшлар орасида инсонпарварлик ғояларига, умуминсоний қадриятларни қўллаб-қувватлашга мойиллик кучайиб бораётгани алоҳида аҳамият касб этади[27]. Шу жиҳатдан, аҳолининг мазкур қатлами билан ишлашда ана шу қадриятларга таянган тарғибот ва амалий фаолият йўналишларини кучайтириш юқори самарадорликни таъминлаётганини кўрсатмоқда.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ХУЛОСА

Хулоса сифатида, мустақил Ўзбекистонда сиёсий партиялар ўз фаолиятида ёш авлоднинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишда муҳим роль ўйнади. 1990-йилларда партиялар учун асосий вазифа халқ ишончини қозониш ва ўз ўрнига эга бўлиш бўлган бўлса, кейинги йилларда уларнинг фаолияти жамият ва давлат ривожи ҳамда халқаро тенденциялардан келиб чиқиб такомиллашди. Партиялар қошида ташкил этилган “Ёшлар қанотлари” орқали ёшлар орасида ватанпарварлик, инсоний қадриятлар ва ижтимоий масъулият тушунчаларини шакллантириш, партияларнинг ижтимоий-сиёсий жараёнлардаги мақсад ва вазифаларини кенг ёшлар қатламига етказиш амалиёти йўлга қўйилди. Шунингдек, “Ёшлар қанотлари” орқали ёшлар билан мулоқот, инновацион ва самарали механизмлар орқали ишлаш тажрибаси ўрнатилди ва халқаро тажриба ҳам ўзлаштирилди. Ҳатто кадрлар етишмовчилиги ва малака муаммолари мавжуд бўлганига қарамай, ушбу институтлар ёшларни ижтимоий жараёнларга жалб этишда ва сиёсий фаолликни оширишда муҳим аҳамият касб этди. Шундай қилиб, “Ёшлар қанотлари” партия фаолиятида ёш авлоднинг ривожи ва иштироки учун устувор механизм сифатида шаклланди.

---

24 Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг Устави. Партия устави | O'zLiDeP (uzlidep.uz).

25 Qodirov N. Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик жамияти институтларининг иштироки //Nordic_Press. – 2024. – Т. 3. – №. 0003.

26 Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), Global Competency for an Inclusive World (Paris, 2016). https://www.oecd.org/education/Global-competency-for-an-inclusive-world.pdf. (мурожаат қилинган сана – 27.03.2024).

27 Организация Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО), Воспитание глобальной гражданственности: темы и цели обучения (Париж, 2015). http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002329/232993r.pdf. (мурожаат қилинган сана – 27.03.2024).

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Мирзиёев Ш.М. Парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига айланиши, ислоҳотларнинг ташаббускори ва асосий ижрочиси бўлиши керак. 12.07.2017. http://uza.uz/oz/politics/parlamentimiz-a-i-iy-demokratiya-maktabiga-aylanishi-islo-ot-12-07-2017.
2. Barrett, M., & Pachi, D. (2019). Youth Civic and Political Engagement (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780429025570. (мурожаат қилинган сана – 23.03.2024).
3. Bennett W.L., Segerberg A. The logic of connective action: Digital media and the personalization of contentious politics //Information, communication & society. – 2012. – Т. 15. – №. 5. – С. 739-768 (748).
4. Council of Europe, Competences for Democratic Culture: Living Together as Equals in Culturally Diverse Democratic Societies (Strasbourg, Council of Europe Publishing, 2016). http://www.coe.int/en/web/education/competences-for-democratic-culture.
5. MT | Partiya Nizomi va Dasturi.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), Global Competency for an Inclusive World (Paris, 2016). https://www.oecd.org/education/Global-competency-for-an-inclusive-world.pdf.
7. Qodirov N. Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик жамияти институтларининг иштироки //Nordic_Press. – 2024. – Т. 3. – №. 0003.
8. Sloam, J., Henn, M. (2019). Rejuvenating Politics: Young Political Participation in a Changing World. In: Youthquake 2017. Palgrave Studies in Young People and Politics. Palgrave Studies in Young People and Politics. – Palgrave Macmillan, 2018. – pp. 17-42(24-25).
9. Sloam, J., Henn, M. (2019). Rejuvenating Politics: Young Political Participation in a Changing World. In: Youthquake 2017. Palgrave Studies in Young People and Politics. Palgrave Studies in Young People and Politics. – Palgrave Macmillan, 2018. – pp. 17-42(24-25);
10. Организация Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО), Воспитание глобальной гражданственности: темы и цели обучения (Париж, 2015). http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002329/232993r.pdf.
11. Данные получены в ходе масштабных сравнительных исследований в рамках международных проектов CIVED и ICCS, проведенных Международной Ассоциацией по оценке учебных достижений (IEA). http://www.terpconnect.umd.edu/~jtpurta/ and http://www.iea.nl/iccs (на англ. яз.).
12. Қаршиев Н.О. Ўтиш даврида партияларнинг ўзига хос хусусиятлари ва сиёсий аҳамияти / Ижтимоий тадқиқотлар журнали. – 2020 йил 2-сон. – 112-120 бетлар.
13. Қирғизбоев М. Сиёсий партиялар ва ёшлар: лоқайдлик мавсуми ўтди. 22.06.2018. https://iqtisodiygazeta.uz/2018/06/22/siesij-partijalar-va-eslar-lo%D2%9Bajdlik-mavsumi-%D1%9Etdi/?l=cir.
14. Орипов Ш. Сиёсий партиялар ва ёшлар // жамият. – 2007. – 2 ноябрь.
15. Партия дастури. https://uzlidep.uz/uz/menu/the-program-of-the-party.
16. Партия тарихи. https://mt.uz/tarix.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

17. Пять способов, с помощью которых молодые люди вносят вклад в развитие своих сообществ | Программа развития Организации Объединенных Наций. www.undp.org/stories/five-ways-young-people-are-contributing-their-communities.

18. Расулова Н.С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991-2008 йиллар). Тарих фанлари номзю илмий дараж. олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент, 2010. – 94 бет;

19. Саидов С. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими: ҳолати ва муаммолар. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими: ҳолати ва муаммолар - UzAnalytics.

20. Сайловолди Дастур. https://mt.uz/public/storage/images/1746105764.pdf.

21. Сайловолди Дастури. https://adolat.uz/election-program.

22. Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг Устави. Партия устави | O'zLiDeP (uzlidep.uz).

23. Ўзбекистон “Адолат” СДП Сиёсий Кенгаши қошидаги “Ёш адолатчилар” кенгашининг 2007 йилдаги фаолияти юзасидан ҳисобот // АСДП СК жорий архиви материаллари. – Б. 1.

24. Ўзбекистон “Адолат” социал-демократик партияси устави (янги таҳрир). Партия устави | "Адолат" СДП (adolat.uz).

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

MA’NAVIY IMMUNITET VA AXBOROT MADANIYATI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMI

Muallif: Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich [1]
Affiliyatsiya: Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlat instituti mustaqil izlanuvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17571061

ANNOTATSIYA

XXI asrda axborot-kommunikatsiya inqilobi inson tafakkurining strukturaviy dinamikasini tubdan o‘zgartirdi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan virtual muhit shunchaki aloqa vositasidan chiqib, ijtimoiy ong va ma’naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi g‘oyaviy maydonga aylandi. Bunday sharoitda yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash va axborot madaniyatini rivojlantirish davlatning strategik vazifasiga aylandi. Mazkur maqolada O‘zbekiston tajribasi misolida yoshlar bilan ishlash tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiya, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot filtrlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy immunitet, axborot madaniyati, mediasavodxonlik, tanqidiy tafakkur, ma’naviy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, raqamli axloq, O‘zbekiston tajribasi.

KIRISH

XXI asr axborot-kommunikatsiya inqilobi inson tafakkurining strukturaviy dinamikasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan virtual muhit shunchaki aloqa vositasidan ijtimoiy institutsiyalashuv darajasigacha ko‘tarilib, shaxs ijtimoiylashuvi, g‘oyaviy shakllanishi va axborot iste’moli jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli mexanizmga aylandi. Bu esa o‘z navbatida, ma’naviy xavfsizlik masalasini shaxs va jamiyat, davlat va xalqaro hamjamiyatlar kontekstida qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda. Internet-makon endilikda shunchaki texnologik platforma emas, balki ijtimoiy ongni konstruksiya qiluvchi, uni qayta formatlovchi va nazorat qiluvchi g‘oyaviy maydon bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ushbu raqamli muhitda tarqalayotgan ekstremistik va terroristik g‘oyalar hozirgi davrda eng xavfli ijtimoiy illatlardan biri sifatida qaralmoqda.

ASOSIY QISM

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, axborot maydonining mutlaq erkinlashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning sun’iy algoritmlar asosida ishlashi, ko‘p hollarda “axborot xuruji” ni “axborot erkinligi” niqobi ostida amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Terroristik kontentlar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali individual shaxs ongini nafaqat ma’lumotlar bilan to‘ldiradi, balki uni ma’naviy jihatdan ekspluatatsiya qilish, ruhiy-axloqiy qarshilikni zaiflashtirish, radikal harakatlarga motivatsiya berish kabi xavfli jarayonlarni faollashtiradi. Zotan, bugungi kunda internetda tarqalayotgan terroristik g‘oyalar ideologik jihatdan niqoblangan,

texnologik jihatdan zamonaviy, psixologik jihatdan esa manipulyativ asosga ega bo‘lib, yoshlar ongiga bevosita ta’sir etmoqda. Bunday g‘oyalar ko‘pincha “ozodlik”, “adolat”, “dinga sadoqat”, “xalq manfaatlari” kabi muqaddas tushunchalar ortiga bekinadi va ularni erkinlik ramziga aylantirib, salbiy xarakterdagi harakatlarga ijtimoiy maqbullik hosil qilishga urinadi[1.77.].

Zamonaviy terroristik tashviqot vositalarining eng xavfli jihati ularning mediatizatsiyalashganligidir. Ya’ni, g‘oya nafaqat og‘zaki yoki yozma tarzda, balki vizual, audio-vizual, interaktiv va gamifikatsiyalashgan shakllarda auditoriyaga yetkaziladi. Bu esa g‘oyaning shunchaki tushunchadan real ijtimoiy harakatga aylanishiga xizmat qiluvchi psixologik va sotsiokognitiv mexanizmlarni faollashtiradi. Masalan, ekstremistik kontentlar bilan to‘la bo‘lgan Telegram kanallari, Discord platformalari, Darknetdagi yopiq guruhlar orqali terroristik guruhlar o‘z g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishmoqda. Ular ko‘pincha real hayotdagi norozilik, ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, adolatsizlik kabi omillarni psixologik platformaga aylantirib, o‘quvchining yoki yosh foydalanuvchining ongida “g‘azablanishga haqli” g‘oyaviy pozitsiyani shakllantiradi[2.275-278.].

Terroristik g‘oyalarni targ‘ib qilishda nafaqat ijtimoiy psixologiya, balki axborot texnologiyalari vositasida amalga oshiriladigan algoritmik targeting mexanizmlari ham asosiy rolni bajarmoqda. Bugungi kunda sun’iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar yordamida ma’lum psixotiplardagi foydalanuvchilar aniqlanib, ularga mo‘ljallangan kontent “maqsadli tashviqot” sifatida yuborilmoqda. Bu esa yoshlar ongining ekstremistik kontentlar bilan to‘liq “kodlanish”iga olib kelmoqda. Muammo aynan shundaki, bu kontentlar ko‘p hollarda din, ma’naviyat, axloq, adolat kabi tushunchalar bilan niqoblanadi va shu orqali o‘z mafkuraviy ta’sirini legitimlashtiradi. “Ekstremistik g‘oya idealist niqobdagi manipulyativ ma’naviy ekspluatatsiyadir”[3.112.], – deya qayd etadi olim A.Denisov. Bunday holatlarda jamiyatning g‘oyaviy immunitetini shakllantirish, axborot xavfsizligi va axloqiy madaniyatni yuksaltirish strategik zaruratga aylanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida alohida ta’kidlaganidek, “Yaqin yillarda xalqimizning yangi tafakkurini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ustuvor qiluvchi madaniyat va ommaviy axborot vositalarini yaratish dolzarb vazifadir”[4.251-252.]. Bu jarayon birlamchi bosqichda axborot madaniyati, keyingi bosqichda esa axloqiy madaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shu boisdan internet makonida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning eng asosiy strategiyasi – bu shaxsning tanqidiy tafakkurini shakllantirishdir. Tanqidiy fikrga ega inson har qanday axborot oqimini filtrlay oladi, uning manipulyativ jihatlarini anglaydi va axborotni tafakkurga tayangan holda baholaydi. Biroq tanqidiy tafakkur – bu tabiiy emas, balki madaniy-sivilizatsion hodisadir. U bilim, tarbiya, ongli seleksiya, madaniyat va ijtimoiy muhit mahsulidir. Shu ma’noda, internet-makondagi xavfsizlik faqat texnik himoya bilan emas, balki ijtimoiy-madaniy immunitet, axloqiy qadriyatlar va ma’naviy tafakkur bilan ta’minlanadi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlar, madaniyat va axloq targ‘ibotiga qaratilgan virtual platformalar, blogerlik faoliyati, ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar, diniy-ma’rifiy kontentlar kuchaytirilmoqda. Masalan, Qarshi davlat universitetida olib borilgan “Axborot xavfsizligi va axloqiy madaniyatni oshirish texnologiyasi” mavzusidagi amaliy loyiha asosida yoshlarda mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va axloqiy filtrlash ko‘nikmalari shakllantirildi[5.4-5.]. Bu kabi loyihalar O‘zbekiston tajribasida terrorizmga qarshi

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

g‘oyaviy kurashning real mexanizmlarini shakllantirmoqda. Terroristik g‘oyalar zamonaviy internet makonida endilikda g‘oyaviy hujum emas, balki ma’naviy virus tusini olgan. Bunday tahdidga qarshi faqat texnik vositalar emas, balki ma’naviy immunitet, axborot savodxonligi va axloqiy madaniyat bilan kurashish mumkin. Chunki zamonaviy tahdidlar jismoniy emas, ongiy, g‘oyaviy va ma’naviy darajada yuz bermoqda. Har bir fuqaroda “raqamli axloq”, “axborot himoyasi”, “g‘oyaviy hushyorlik” singari kompetensiyalarni shakllantirish — bu nafaqat pedagogik, balki strategik, mafkuraviy va siyosiy zaruratdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnik himoya vositalari bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy immunitetni mustahkamlash, ma’naviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish raqamli davrda axborot xavfsizligining asosiy kafolati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Carr M. US Power and the Internet in International Relations. London: Palgrave Macmillan.
2. Daminova N. Zamonaviy olamda shaxsning ijtimoiylashuvi. Academic research in educational sciences. №2.
3. Denisov A. Psixologiya internet-qaramlik. Razvitie lichnosti, №1.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston.
5. Qarshi davlat universiteti. Loyiha ma’lumotnomasi: A-1-173.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

RAQAMLI ASRDA YOSHLARNING MA’NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH: IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR

Muallif: Ro’zimboyeva Dinora O’ktam qizi [1]
Affiliyatsiya: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17571132

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yurtimizda olib borilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari va modernizatsiya jarayonida internet, axbarot texnologiyalarining yoshlar onggiga ta’siri, ta’lim va tarbiya olish jarayonida jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolar va ularga muqobil yechimlar, axborotlashgan raqamli texnologiyalar asrida yoshlarning jamiyatdagi ta’siri va va bu jarayonga moslashuvi masalalari yotirib berilgan. Virtual dunyo rivojlangan mamlakatlarda bizdan yarim asr ilgari shakllandi va o’zining salbiy jihatlarini ham namoyish qilishga ulgurdi va bu jarayon mamlakatimizda ham davom qilmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida esa yoshlarning ta’lim olishga bo’lgan qiziqishi, dunyo qarashi tubdan o’zgardi ammo shu bilan birga yangi imkoniyatlar eshigini ham ochdi. Kibermakonning ta’siridan yosh avlodni qutqarish va to’g’ri talqinga solish masalasi ham ko’tarildi.

Kalit so‘zlar: raqamli avlod, ma’naviy immunitet, axborot savodxonligi, media savodxonlik, raqamli texnologiyalar, internet madaniyati, globalizatsiya, ma’naviy xavfsizlik, Yoshlar siyosati-2030, digital kompensatsiya.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar millat poydevori va kelajak tayanchi sifatida e’tirof etilmoqda. Ularni turli g‘oyaviy va mafkuraviy g‘oyalardan asrash, jamiyatning ma’naviy immunitetini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun eng avvalo, o‘smir va yosh avlodni taraqqiyot qonuniyatlarini chuqur anglaydigan, g‘oyaviy jihatdan erkin, sog‘lom va insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarur.XXI asr - bu texnologik inqiloblar, sun’iy intellekt, metaverse va raqamli dunyoning shiddat bilan rivojlanayotgan davridir. Raqamli asr insoniyat tarixida yangi bosqich bo‘lib, unda axborot texnologiyalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma’naviy sohalarni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Bu davrning asosiy xususiyati – axborotning eng muhim resursga aylanishi, ya’ni kim axborotga ega bo‘lsa, u kuch va ta’sir sohibiga aylanadi. Shu sababli bugungi yoshlar faqat texnologik savodxonlik emas, balki axborot madaniyatiga ham ega bo‘lishlari lozim.Kanadalik olim Marshall McLuhan o‘zining mashhur “global qishloq” nazariyasida shunday deydi: “Axborot texnologiyalari insoniyatni yagona axborot maydoniga aylantirdi, bu esa yangi turdagi madaniy va ijtimoiy ongni shakllantiradi.” Bu fikr raqamli asrning mohiyatini chuqur ochib beradi: texnologiyalar insonlar o‘rtasidagi masofani yo‘q qilgan bo‘lsa-da, ularning ma’naviy barqarorligini saqlashni yanada murakkablashtirmoqda.Ushbu o‘zgarishlar inson hayotining barcha

jabhalariga chuqur kirib bordi va ayniqsa yoshlar raqamli muhitning asosiy foydalanuvchilari sifatida ma'naviy hamda axloqiy jihatdan mustahkam turish zaruratiga duch kelmoqdalar. Shu bois ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, yoshlar ongini turli yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish jamiyat e'tiboridagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda yoshlar jamiyatning eng faol va harakatchan qatlamidir. Ular ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo'lish bilan birga, global axborot oqimi va madaniy xilma xillikning ham asosiy iste'molchilari hisoblanadi. Shu bois, har bir kirib kelgan yangi oqim, shuningdek raqamlashuv jarayoni ham ularga biz bilgan va bilmagan yo'llar orqali o'zining ijobiy va salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Avvalambor, bugungi yoshlar "digital generation", ya'ni raqamli asr farzandlari sifatida, texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan davrda voyaga yetmoqda. Ularning dunyoqarashi, yashash muhiti, muloqot uslubi, ta'lim olish jarayoni va hattoki bo'sh vaqtini o'tkazish madaniyati ham raqamli texnologiyala ta'sirida shakllanmoqda. Zamonaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning hayot tarzini tubdan o'zgartirdi. Ko'pchilik tahlilchi va mutaxasislar ushbu jarayonni salbiy jihatdan baholab ularni yoshlar ongi va saviyasiga yomon ta'sirini ta'kidlashadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Raqamli asrda yaratilgan imkoniyatlar:

Ammo ushbu yangi davrning yangi ochib bergan imkoniyatlari ham yetarlicha bu bo'lsa, har bir individning ulardan qanchalik to'g'ri foydalanib, hayotga tadbiq qila olishiga bog'liq. Raqamli texnologiyalarni biz yoshlarga yaratib bergan imkoniyatlar sifatida tezkor axbarot almashinuvi, global fikrlash, onlayn ta'lim, kreativlik va erkin fikr bildirish kabilarni e'tirof etishimiz mumkin. Masalan, OECD(2022) hisobotida qayd etilishicha, dunyo yoshlarining qariyib 90% internet orqali bilim oladi, bu esa ta'limning demokratlashuviga va yangi kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu ta'lim shakli esa yoshlarni raqamli asrga moslashuvchanligin oshiradi, ularni jahon bilan bog'laydi va milliy chegaralardan tashqarida fikrlashga undaydi. Coursera, Udemy, Khan Academy, Duolingo kabi xalqaro onlayn platformalar orqali esa millionlab yoshlar bepul yoki arzon narxda o'qish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Coursera va edX kabi platformalar orqali 2024-yilda 120 milliondan ortiq foydalanuvchi bepul yoki arzon narxda dunyoning eng nuzfuzli kurslaridan ta'lim olgan (World Economic Forum 2024). Bu yoshlar uchun:

Global miqiyosda bilim olish

Zamonaviy kasb va ko'kikmalarni egallash

O'z salohiyatini mustaqil ravishda rivojlantirish imkonini yaratadi

Bulardan tashqari raqamli manbalar yoshlarni axborotga tezkor kirish va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Hozirgi kunda xohlagan mavzudagi ma'lumotlarni internet, veb-saytlar orqali topish imkoni mavjud. Hattoki bir sekund ichida axborot kommunikatsiyalar orqali dunyoning narigi chekkasi bilan bog'lanish va ma'lumotlarni qo'lga kiritish oson bo'lib qolgan. Pew Research Center ma'lumotlariga ko'ra yoshlarning 70 % dan ortig'i ijtimoiy tarmoqlar orqali ilmiy, texnologik, madaniy yangiliklarni o'rganmoqda. Bu esa ularda axborotlarni filtrlash, tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar yoshlar uchun faqat bepul va qulay ta'lim makoni emas, balki ular uchun o'z fikrlarini erkin bildira olish maydonidir. Bloglar, podcast onlayn klublar

orqali o’z fikrlarini erkin bildira olish, boshqa tengdoshlari bilan g’oya almashish, ijtimoiy mavqeyini mustahkamlash va jamiyatdagi faolligini oshirish imkoniga ega bo’lishadi. “Yaxshimi yoki yomonmi, raqamli texnologiayalar bizning hayotimizning ajralmas qismidir“ deb ta’kidladi UNICEFning ijrochi direktori Entoni Leyk.” Raqamli dunyo bizning oldimizda ikki tomonlama vazifasini qo’yadi: har bir bola uchun internetning foydasini maksimal darajada oshirish va shu bilan birga uning salbiy ta’sirini kamaytirish”. Bundan ko’rinib turubdiki, axborot texnologiyalar oqimini va shuningdek undan keladigan zararli oqibatlarni butunlay cheklash va to’xtatish imkonsiz, ammo undan oqilona foydalanish yo’llarini yoshlarga o’rgatish bundan osonroq va muqobil yechim sifatida ko’riladi.

Texnologik taraqqiyot soyasidagi tahdidlar:

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Sog’liqni saqlash tashkiloti (JSST), UNICEF Xalqaro bolalar fondi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan , ta’lim va madaniyat masalalari bo’yicha Tashkiloti (UNESCO) birinchilardan bo’lib yoshlarning raqamli texnologiyalar bilan o’zaro harakatlari masalalari bo’yicha tashvish bildirdi . BMT yoshlarni “15 yoshdab 24 yoshgacha bo’lgan shaxslar” sifatida belgilaydi. BMT “Yoshlar-2030” Yoshlar strategiyasida tashkilotning hozirgi kotibi Antoniu Gutterish “Yoshlar -juda qimmatli va o’ta muhim resurs. Ko’pincha ular boshqa odamlar tomonidan qilingan zo’ravonlikdan aziyat chekadilar va iqlim o’zgarishi yoki to’g’ridan to’g’ri qashshoqlik ta’siriga duch keladilar. Ular jamiyatni u yoki bu shaklda rad etishi va inson huquqlarining global eroziyasi hamda adolatga real kirish imkoniyati yo’qligi yukini ko’tarish bilan to’qnashmoqdalar” deb ta’kidlagan edi.

“Har yili 67 ming nafar yoshlar o’z joniga qasd qiladi. Yoshlar ko’p mushkulotlar va aql bovar qilmaydigan qiyinchiliklarga duch kelishadi, ammo ular zarur bilimga ega va zamonaviy muammolarni hal qilishda muhim ro’l o’ynaydigan g’oyalarga to’la”,- degan BMT rahbari ”Bunday tahlikali davrda esa axborot xurujlariga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish -davr talabi . Prezidentimiz ta’kidlaganikdek: “Bugungi tez o’zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi va buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga ularni ilgari ko’rilmagan turli yovuz xavf - xatarlarga duchor qilmoqda“. Hozir internet tarmoqlarida buzg’unchilik, zo’ravonlik va axloqsizlikni, “ommaviy madaniyatni” targ’ib etadigan saytlar faoliyat ko’rsatmoqda. Ana shunday keskin va murakkab axborot xurujlari va xavf-xatarlarga biz qanday qarshi tura olamiz?

Ayni vaqtda, yoshlarning turli norasmiy, noislomiy diniy jamoalarning ta’siriga tushib qolishining oldini olishda o’quv muassalari va mahalla tomonidan tizimli ravishda tushuntirish ishlari olib borish muhim o’rin tutadi.

Yoshlarga yot g’oyalarga nisbatan ma’naviy immunititet shakllanmas ekan “Bu-yaxshi, bu-yomon” degan fikr paydo bo’lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo’ladi .

Bu yondashuv faqat diniy-axloqiy doirada emas, balki epistemologik va kommunikativ qadriyatlar kontekstida olib borilishi zarur. Jamol Jurakulovning fikricha, “Yosh ongida an’anaviy qadriyatlarning zamonaviy ifodasi topilmasa, uni agressiv axborot oqimi egallashi muqarrar”. Bunday holatda, milliy g’oyaning kommunikativ realibitatsiyasi, uni axborot texnologiyalari vositasida zamonaviy va ta’sirchan shaklda ifodalash dolzarb masalaga aylanadi. Xalqaro tajriba shuni ko’rsatmoqdaki, ko’plab rivojlangan davlatlar axborot tahdidlariga qarshi kurashda uch bosqichli modelni ishlab chiqqan: birinchi bosqich-axborotdan himoya, ikkinchisi-axborotga nisbatan immunitet, uchinchisi-ijobiy axborotni ishlab chiqish

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

va tarqatish. Ushbu model O'zbekiston sharoitida muqaddas qadriyatlar, ma'rifiy tafakkur va sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan monitoring tizimlari bilan uyg'unlashtirilgandagina to'laqonli samaradorlik kasb etadi. B.Kuyliyevning fikricha, "Jamoatchilik fikrini manipulatsiya qilish global texnologiyalarning siyosiy qurolga aylanishidir. Uni yengish faqat milliy indentitet va axboriy immunititet birligida mumkin".

Raqamli texnologiyalar asrida yashashning yoshlarga nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan salbiy ta'sir o'kazadi aksincha, uning sog'liqqa ta'siriga ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ma'lumki, televizor, smartfon, planshet kabi kabi raqamli texnologiyalardan foydalanishning ko'payishi yoshlar rivojlanishi va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa ham, ularning ishlab chiqarilishi ortishda davom qilmoqda. Yoshlarning bunday texnologik mazmuni, davomiyligi, chastotasi va ulardan foydalanish paytidagi o'zini tutish holati nuqtai nazaridan noto'g'ri foydalanishi sog'liq uchun turli muammolar keltirib chiqaradi, jumladan, rivojlanish muammolari, tayanch-harakat tizimi mummolari, jismoniy harakatszilik, semirib ketish va uyqu sifatining yomonligiga olib kelishi kuzatilmoqda.

Yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardako'p vaqt o'tkazishi ularni "fake news", noto'g'ri axborot ya'ni manipulyatsiyaga duch kelish ehtimoli ortib bormoqda. Bundan tashqari raqamli muhit yoshlarning bo'sh vaqtini samarasiz, tanqidiy fikrlashlarsiz o'tkazishiga olib kelmoqda. Noaniq axborot darrov viral bo'ladigan qisqa videolar va tedensiayalarga ko'p vaqt sarflanishi , yoshlarning chuqur fikrlash,qadriyatlarni tahlil qilish imkoniyatlarini pasaytiradi .Bu individualizmning ortishi ,jamiyatga nisbatan mas'uliyat hissining kamayishi kabi holatlar bilan bog'liq.Tadqiqotlarda shunday natijalar qayd etilgan: qisqa kontent qabul qilishga o'rganib qolgan yoshlarning miyyasi "short term" tizimida ishlaydi va tanqidiy fikrlash , uzoq muddat diqqatni jamlash kabi ko'nikmalarini yo'qotishadi. Global media va raqamli platformalar orqali yoshlar turli madaniyatlarga, g'oyalarga tezkor kirishmoqda. To'g'ri yangi texnologiyalar orqali dunyo qarashni kengaytirish imkoni oshdi, lekin raqamli texnologiyalar milliy qadriyatlar va o'zlikni yo'qotish kabi xavflarni ham keltirib chiqardi. Yoshlarni g'arb madaniyati ta'sirida bo'lishi, milliy til,urf odat , tarixiy an'analarni kamroq qadrlashga yo'l ochadi . Bu esa jamiyatning ma'naviy barqarorligiga va yoshlarning ma'naviy immunitetiga zarar yetkazadi.

Ma'naviy immunitetni mustahkamlashda ta'lim va jamiyatning o'rni:

Jamiyatimizdagi bu muammolarni bartaraf qilishning yagona yo'li bu-ma'naviy imunititetni kuchaytirish . Bu uchun eng avvalo , ta'lim tizimida yosh avlodga axborot va media savodxonligini (MIL) chuqur o'rgatish muhim ro'l o'ynaydi. UNESCO ta'kidlashicha, "Yoshlarni axborot makonida tanqidiy fikrlay oladigan, digital kompetensiyalarga ega bo'lgan fuqarolarga aylantirish"- uning ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki digital kompentensiya olgan yoshlar onlayn platformalarda xavfsizroq harakat qiladi, ma'lumot manbalarini baholay oladi va yaratishga ham kirishadi. Shunday ekan, maktab va universitetlarda MIL va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga e'tibor qaratilsa yosh avlod nafaqat axborot iste'molchisi,balki axborotni yaratadigan va jamiyatga hissa qo'sha oladigan shaxsga aylanadi . Bu esa ularning ma'naviy imunitetini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Shuningdek ma'naviy immunititetni mustahkamlashda nafaqat ta'lim institutlari balki oila va kengroq jamoatchilik muhitining roli ham katta. Ota-onalar texnologiyalarning foydasi va xavflarini ham olishlari, onlayn muhitdagi xatti-harakatlar haqida bolalar bilan ochiq suhbat o'tkazishlari lozim. Jamiyat orqali esa ijtimoiy tashkilotlar, yoshlar markazlari,

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ommaviy axborot vositalari sog'lom axborot muhitini yaratishda faol bo'lishi kerak. Ushbu masala globallashayotgan bir davrda esa, O'zbekistonda ham "Yoshlar siyosatini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va "Raqamli O'zbekiston-2030" kabi hujjatlar yoshlarni raqamli texnologiyalarga, jumladan ma'naviy va axborot muhitiga tayyorlashni nazarda tutadi. Shunday qilib davlat tomonidan amalga oshiriladigan mazkur dasturlar yoshlarning media savodxonligi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish yo'lida asosiy bazani tashkil qiladi.

XULOSA

Raqamlashtirish masalasi juda murakkab va uni yagona nuqtai nazardan ko'rish mumkin emas. Bu jrayonning afzalliklari va kamchiliklarini o'zaro muvozanatlashtirish muhimdir. Jamiyat sifatida, raqamlashtirishning ijobiy tomonlarini maksimal darajada oshirish va salbiy tomonlarini minimallashtirish muhim sanaladi. Bu esa, yoshlarning tarbiyaviy masalalarini inobatga olgan holda ijobiy ta'sirni oshirish, xususan, turli yot g'oyalarni kriribkelishi va tarqalishi oldini olish, yosh avlodga yangi dav qoidalarini va to'g'ri foydakanish yo'llarini o'rgatish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash kabi masalalarni ham hal qilishni o'z ichiga oladi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oriental Renaissance: Innovative , eductional , natural and social sciences jurnali (aprel 2025) . "Raqamli jamiyatda yoshlar tarbiyasi masalalar va ijtimoiy muammolar" Teshayeva. G
2. Sh.Mirziyoyev . Erkin va farovon , demokratik O'zbekiston davlaatini birgalikda barpo etamiz . T:O'zbekiston 2016. 14-bet
3. Journal of new centry innovation (2022) "Yoshlarda axborot hamda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunititetni shakllantirish"
4. OECD (2022) — Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.
https://www.oecd.org/education/education-at-a-glance/
5. UNICEF (2022) — Digital Learning: The Future of Education for Every Child.
https://www.unicef.org/reports/digital-learning
6. UNESCO (2021) — Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines.
https://www.unesco.org/en/media-information-literacy
7. Pew Research Center (2023) — Social Media and Technology Use Among Teens.
https://www.pewresearch.org/internet/2023/
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–6079-son Qarori (2020-yil 5-oktabr) —
9. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
https://lex.uz/docs/5030957
10. "Yoshlar siyosatini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (2021-yil, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi).
https://yoshlar.gov.uz

РЕАЛИЗАЦИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ПРИОРИТЕТОВ МОЛОДЁЖНОЙ ПОЛИТИКИ, ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО РАЗВИТИЯ И СОХРАНЕНИЯ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В КОНТЕКСТЕ СТРАТЕГИИ “УЗБЕКИСТАН - 2030”

Автор: Яковлева Диана Юрьевна [1]
Аффилиация: преподаватель Кафедры социальных наук, University of Business and Science [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17571201

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются направления реализации молодёжной политики, духовно-просветительского развития и сохранения культурного наследия в контексте Стратегии «Узбекистан – 2030». Проанализированы нормативные цели и практические результаты за 2023–2025 годы, выявлены достижения и существующие проблемы, связанные с качеством образовательных и культурных услуг, мерами занятости и управлением объектами наследия. Методологическая основа исследования включает сравнительно-аналитический и историко-системный подходы. Автор делает вывод о необходимости перехода от количественных показателей к оценке качественных результатов, а также укрепления механизмов межведомственной координации. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования гуманитарной политики государства.

Калит сўзлар: молодёжная политика; духовно-просветительское развитие; культурное наследие; Стратегия «Узбекистан – 2030»; креативная экономика; занятость молодёжи; гуманитарная политика; образование и культура; национальная идентичность; историческое наследие.

ВВЕДЕНИЕ

Стратегия «Узбекистан – 2030» задаёт долгосрочную рамку гуманитарной политики: расширение возможностей молодёжи, укрепление духовно-просветительской среды и управление богатым культурным наследием как стратегическим ресурсом идентичности и развития. Документ закрепляет целевые показатели результатов к 2030 году, ежегодную детализацию через госпрограммы и персональную ответственность ведомств и регионов за достижение ориентиров [1].

В составе Стратегии блок «Создание достойных условий для реализации потенциала каждого человека» и смежные разделы предусматривают:

- рост охвата и качества образования, спорта и культурно-досуговой инфраструктуры для молодёжи;
- развитие креативной экономики (в т. ч. амбиции по доле сектора в ВВП, производство национального аудиовизуального контента, сети летних кинотеатров и т. д.);

- продвижение туризма и использование культурного наследия на принципах устойчивости;
- годовой цикл госпрограмм с KPI и мониторингом. Эти установки и индикаторы зафиксированы в тексте Указа и приложениях к нему [1].

Рассмотрим институциональные и программные шаги практики реализации Стратегии.

1. Годовая госпрограмма-2024 («Год поддержки молодёжи и бизнеса»). Для практической реализации Стратегии принят Указ № УП-37 от 21.02.2024, утвердивший Государственную программу на 2024 год. Она сфокусирована на адресной поддержке молодёжи (обучение, занятость, предпринимательские инициативы), цифровизации сервисов и усилении гуманитарных направлений через механизмы махалли и межведомственного взаимодействия [2].

2. Перестройка управления в сфере молодёжной политики и спорта. Указ № УП-18 от 20.01.2024 оптимизировал систему госуправления: перераспределены функции между Министерством спорта и Агентством по делам молодёжи, усилена координация нормативной базы и международного сотрудничества. Это важное условие для «сшивки» молодёжной, спортивной и духовно-просветительской повестки [3].

3. Адресная помощь и «цифровой учёт» потребностей. В 2023–2024 гг. расширены адресные меры: по данным Администрации Президента, 338 тыс. юношей и девушек получили материальную помощь на 444 млрд сумов (оплата обучения, оборудование, микрогранты и др.). Сообщается и о широком охвате обследований потребностей молодежи «через махалли», что создаёт базу для таргетированных программ в культуре, спорте и просвещении [4].

4. Наследие и международное признание. В 2023 г. в Список всемирного наследия ЮНЕСКО включён трансграничный объект «Шёлковый путь: Зарафшан-Каракумский коридор», где значительная часть компонентов находится в Узбекистане (Рабати-Малик, Пайкент, Вобкент и др.). Это усиливает международный статус национального наследия и открывает возможности для содержательных просветительских и туристских продуктов [6].

Анализ позволяет провести сопоставление между установленными в нормативных документах целями и фактическими результатами их реализации, выявив как достигнутые успехи, так и существующие ограничения.

1. Молодёжная политика: от охватов к качеству результатов. Вектор на расширение возможностей и адресность реализуется - действуют годовые программы, усилены институты, есть заметные объёмы помощи и новые форматы вовлечения [1].

Доминируют количественные отчёты (сколько человек охвачено помощью), в то время как индикаторы качества (устойчивость занятости/обучения, регулярность участия в культурных и спортивных практиках, удовлетворённость услугами) публично представлены реже. На макроуровне молодёжная безработица сокращается, но остаётся двузначной (около 10,9 % в 2024 г. по международным рядам), что ограничивает ресурс молодёжи для культурной активности и добровольчества. Необходим переход к «петле качества»: увязать каждую меру с измеримыми результатами деятельности, а не только с охватами [4].

2. Духовно-просветительское развитие: декларируется укрепление библиотек, кружков, спортивной инфраструктуры и продвижение

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

чтения/медиа-грамотности в логике инициатив, адресованных молодёжи. Это отражено в ежегодной госпрограмме-2024 [2].

Проблема реализации - риск «мероприятия ради мероприятия»: без стабильного кадрового ядра (библиотекари-медиаторы, наставники, тренеры), расписаний и содержания, заточенного под интересы подростков и молодых взрослых, разовые активности не конвертируются в долгие траектории участия. Требуются единые методики мониторинга качества просветительских услуг (в т. ч. в сельских махаллях) и поддержка наставничества.

3. Креативная экономика и аудиовизуальный контент. В планах - рост доли креативной экономики, выпуск национального контента, присутствие на глобальных платформах, развитие сетей культурного досуга [1].

Для достижения целевых долей в ВВП и экранного присутствия необходимы не только площадки, но и длинные инструменты развития: грантовые и микрогрантовые линии для независимых студий и музеев, налоговые стимулы, экспортное продвижение, защита авторских прав, подготовка продюсеров и дистрибьюторов в регионах. Без этих «скреп» инфраструктурные проекты дают меньший мультипликатор.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Стратегия «Узбекистан – 2030» создаёт стройную архитектуру для молодёжной, духовно-просветительской и наследственной повестки: есть целевые ориентиры, годовые программы и институциональные реформы. На практике уже видны существенные сдвиги: таргетирование помощи и цифровизация учёта, административная настройка системы, продвижение наследия на международной арене. Вместе с тем для устойчивого эффекта необходим второй контур - управленческий разворот к качеству: единые методики оценки результатов (не только охваты), «длинные» меры занятости и самозанятости молодёжи, планы управления объектами наследия с публичными индикаторами нагрузки, а также экосистемные инструменты для креативных индустрий.

Практическая рекомендация - в ежегодных госпрограммах фиксировать набор ключевых показателей (регулярность участия молодёжи, результаты, трудоустройство в гуманитарных и креативных секторах; состояние сохранности и доступности объектов наследия), обеспечить независимый аудит и публичную отчётность. Это позволит превратить заявленные цели Стратегии в устойчивые изменения повседневной культурной и образовательной среды.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 11.09.2023 О Стратегии «Узбекистан - 2030» [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://lex.uz/uz/docs/6600404 (дата обращения 22.10.2025)

2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-37 от 21.02.2024 О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан - 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса» [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://lex.uz/docs/6811938 (дата обращения 23.10.2025)

3. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-18 от 20.01.2024 О мерах по совершенствованию системы государственного управления в

сфере молодежной политики и спорта [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://lex.uz/docs/6765719 (дата обращения 24.10.2025)

4. Уровень безработицы среди молодёжи в Узбекистане [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://fred.stlouisfed.org/series/SLUEM1524ZSUZB (дата обращения 23.10.2025)

5. Report on Youth Work System Presented [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://president.uz/en/lists/view/6928 (дата обращения 24.10.2025)

6. Silk Roads: Zarafshan-Karakum Corridor [Электронный ресурс]. - Режим доступа:https://whc.unesco.org/en/list/1675/ (дата обращения 22.10.2025)

SPORT MASHG‘ULOTLARI VA MILLIY O‘YINLARNI O‘TKAZISH ORQALI TEZKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Muallif: Yo‘ldosheva Madhiya Bekmurod qizi [1]
Affiliyatsiya: Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17571269

ANNOTATSIYA

Shug‘ullanuvchilar jismoniy mashqlarni ongli ravishda, tushunib bajarsalar yoki ular sport mashg‘ulotlariga qiziqish, o‘z tashabbuslari bilan ijodiy yondashsalar, harakat malakalarini to‘g‘ri shakllanishiga, organizmning funksional qobiliyatlarini rivojlantirishda aqliy tarbiya muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Kurash, sport, ruhiy holat, vaziyatni idrok etish, yuklama, malaka,tizim, harakat, musobaqa faoliyati, mashqlar kompazitsiyasi, bellashuv vaqtidagi holat.

KIRISH

Mamlakatimizda sportni rivojlantirish sohasida tubdan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashdagi o‘rnini xisobga olib, sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o‘quv va moddiy-texnik bazasini yaratish hamda aholining sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilmoqda. Chunki sport millatning o‘zligini anglashda uning aniq maqsadlari sari jipslashuvida va birlashuvida, o‘zidagi bor saloxiyatini xamda millat sifatidagi qudratini, jaxon uzra namoyon etmoqda.

Yuksak sport yutuqlarining mavqeyi musobaqalarda raqobatchilikning keskinlashishi hamda mamlakat terma jamoalari sportchilari avlodlarining ommalashishi jarayoni hozirgi davrda sport tanlovi va istiqbolli yoshlarni tayyorlash ilmiy- asoslangan asoslarini takomillashtirish zarurligini belgilab beradi Tezkorlik sifatini nafaqat bolalarda, balki barcha yoshdagi sportchilarda rivojlantirish nihoyatda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

2. Sport mashg‘ulotlari va milliy o‘yinlarni o‘tkazish orqali tezkorlik qobiliyatini rivojlantirish ahamiyati

Tezkorlik deganda, individ harakatlarining tezlik xarakteristikasi, asosan, harakat reaksiyasining vaqtini belgilovchi funksional xususiyatlarning kompleksi tushuniladi. Tezlikni namoyon bo‘lishining uchta asosiy shakli bor:

1. Yakka harakat tezligi (kichik tashqi qarshilikni yengish bilan);
2. Harakatlar chastotasi;
3. Harakatlar reaksiyasi tezligi (yashirin latent davri).

Tezkorlikning eng sodda shakllarining namoyon bo‘lishi bir-biriga aloqador emas. Ayniqsa, bu reaksiya vaqtiga bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda harakat tezligi

ko‘rsatkichlari bilan korelyatsiya qilinmaydi. Tezlikning namoyon qilinishini qayd etilgan uchta shaklining umumlashmasidan (qo‘shilmasidan) aniqlash mumkin.[16]

Masalan, 100 m ga yugurish natijasi startdan chiqish reaksiyasi vaqtiga, alohida harakatlarning bajarilishi tezligi (depsinish, sonni tez tiklab olish qadamlar sur’ati) va boshqalarga bog‘liq. Amalda yaxlit harakatlar (yugurish, suzish)ning tezligi to‘la harakat aktining tezligiga bog‘liq. Biroq murakkab koordinatsion harakatlardagi tezlik faqat tezkorlik darajasiga emas, balki boshqa sabablarga, masalan, yugurishda qadam uzunliligiga, u o‘z navbatida, oyoqning uzunliligiga va depsinish kuchiga ham bog‘liqdir. Shuning uchun yaxlit harakat tezligi individning tezkorligini qisman ifodalaydi xolos. Aslida tezkorlikning eng sodda shakllarining namoyon bo‘layot-ganligini tahlil qila olamiz xolos.

Ko‘pincha maksimal tezlik bilan bajarilayotgan harakatlarda ikki xil fazasi farqlanmoqda:

a) tezlikni oshirib borish (tezlanish, olish) fazasi;

b) tezlikning nisbatan stabillashuvi fazasi (startdagi tezlanish).

Tezlikni oshirib borish qobiliyati bilan masofani katta tezlikda o‘tish qobiliyati – tezkorlik namoyon qilishda biri ikkinchisiga bog‘liq emas. Juda yuqori darajada startdan chiqish tezligiga ega bo‘lib masofada tez yugura olmasligi yoki uning aksicha ham bo‘lishi mumkin. Signallarga reaksiya yaxshi bo‘lgani holda, harakat chastotasi oz bo‘lishi ham kuzatiladi.

Psixolofizikaviy mexanizmlar tezlik reaksiyasining xarakterini turlicha namoyon bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Tezlik namoyon bo‘lishining bunday xarakterini qisqa masofaga yugurishda aniq ko‘rishimiz mumkin. Startni (vaqt xarakteristikasiga ko‘ra) tez olish mumkin, lekin tezlikni masofada uzoq ushlab tura olmasligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Yugurish tezligi harakatni ko‘rsatilgan xarakteristikasi bilan nisbiy bog‘liq xolos. Tezlikning namoyon bo‘lishida yuguruvchi qadamining uzunligi, uning oyog‘i uzunligiga, o‘z navbatida, yuguruvchi oyoq muskullarining yerga tiranish kuchiga bog‘liqdir. Shuning uchun harakat reaksiyasining vaqt davomida namoyon bo‘lishiga qarab o‘quvchining sprintda o‘zini qanday namoyon qilishini bashorat qilishimiz g‘oyatda mushkul.

Tezkorlik sifatini bir mashqdan ikkinchi mashqqa “ko‘chirish” qoidada kuzatilmagan. Uning ko‘chishi mashqlarni bir-biriga koordinatsiya nuqtai nazaridan yaqin o‘xshashligi bo‘lsagina namoyon bo‘lgan, qolaversa, individning mashqlanganligi (shug‘ullanganligi) qancha yuqori bo‘lsa, bu ko‘chish shunchalik past darajada bo‘ladi (N.G.Ozolin, 1949; V.M.Zatsiorskiy, 1961). Shunga ko‘ra, tezkorlik sifati xaqida gapirganda, bu sifatni, tarbiyalash haqida gapirmay, inson harakatidagi aniq tezkorlik xususiyatlarini rivojlantirish haqida gapirish lozim.

Yakka harakat tezkorligini harakat aktini biomexanik bo‘laklarga (qismlarga) ajratib chegaralangan holda tavsiflashimiz mumkin (Masalan, depsinish tezligini aniqlash kerak bo‘lib qolsa, yugurishda sonni tez ko‘tarib chiqaolish orqali aniqlanadi). Ayrim sport mashqlari turlarida (masalan: uloqtirishlarda) harakat tezligi muskullar kuchining namoyon bo‘lishi bilan umumiylashib (qo‘shilib) ketadi va bu bilan tezkorlikni kompleksli xususiyatini – keskin harakat (rezkostp)ni vujudga keltiradi. Shuning uchun tezkorlik – kuch talab qiladigan sport turlarida harakat tezligini rivojlantirish, ayniqsa, tashqi qarshiligi yuqori bo‘lgan mashqlar muskul kuchini rivojlantiruvchi vosita sifatida rol o‘ynaydi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

3. Sport mashg‘ulotlari va milliy o‘yinlarni o‘tkazish orqali tezkorlik qobiliyatini rivojlantirishda mavjud muammolar.

Sof, tez bajariladigan mashqlar evaziga tezkorlikni rivojlantirish juda qiyin bo‘lib, kuch talab qiladigan mashqlar orqaligina muskul qo‘zg‘alishi tezligining oshishi amaliyotda isbotlangan. Kuch imkoniyatlarini oshirish vazifasi esa juda soda xal qilinadi. Kuchni rivojlantirish tez harakatlar sharoitida o‘tishi lozim. Buning uchun dinamik zo‘riqish uslubidan foydalanadilar: maksimal kuch bilan zo‘riqish harakatni to‘la amplitudada, eng yuqori tezlikda, shug‘ullanuvchi uchun meyoridan oz vazminlikda yuk bilan yuzaga keltiriladi.

Siklik harakatlar harakat chastotasini ifodalaydi. Qo‘llarni maksimal harakati chastotasi oyoqlarnikidan yuqori, oyoq-qo‘l bo‘g‘inlarining harakati chastotasi tananing boshqa a’zolari va boshqa bo‘laklaridan yuqori darajada bo‘lishi mumkin.

Harakat chastotasini o‘lchash qoida sifatida vaqtning qisqa intervali orqali olib boriladi. Sprint yuguruvchining 100 metrga yugurishdagi harakat chastotasi bir sekundda bajaradigan qadamlari sonini sanash orqali aniqlanadi.

Harakat chastotasi va shu bilan birga, siklli harakatlar tezligini rivojlantirish maksimal tezlikda bajariladigan mashqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

V.P.Filinning (1970) isbotlashicha, sport trenirovkasining boshlarida tor yo‘nalishdagi mashqlar bilan tezlikni rivojlantirish salbiy oqibatlarga olib kelar ekan. Bu metod bilan natija sprintda 1-1,5 sekundgina yaxshilanadi xolos. Boshlanishdan umumjismoniy tayyorgarlikni oshirib tor yo‘nalishdagi tezlik sifatlarini rivojlantirish ijobiy natija beradi. Yuqoridagi qoidaga rioya qilish bilan cheklanib qolinsa, tor yo‘nalishdagi tezlik uchun berilgan mashqlar tezlik to‘sig‘ining (skorostnoy baryer) paydo bo‘lishiga olib keladi. Ana shu tezlikka organizmda refleks vujudga keladi, bu esa tezlikning stabillashuvi demakdir.

4. Sport mashg‘ulotlari va milliy o‘yinlarni o‘tkazish orqali tezkorlik qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha choralar.

Harakat chastotasi va harakat tezligini rivojlantirish uchun takrorlash, takroriy – oshirib borish va o‘zgaruvchan mashq qilish metodlaridan foydalaniladi. Bunday metodlarni qo‘llashda yugurish masofasi shunday tanlanadiki, uning oxirida va yuguruvchiiing takroriy urinishlarida ham tezkorlik pasaymasligi kerak.

Maksimal intensivlikda bajariladigan ish anaerob sharoitda o‘tadi, shuning uchun dam olish intervali urinishlar orasida kislorodga muhtojlikni qondira oladigan darajada belgilanishi (o‘rnatilishi) lozim. Ularning oralig‘ini yengil yugurish, osoyishta yurish va boshqalar bilan to‘ldirish tavsiya etiladi.

Emotsionallik va qo‘zg‘alishning yuqori darajasi tezkorlik imkoniyatlarini namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratadi. Bunda o‘yin va musobaqa metodlari (bu metodlardan jismoniy tarbiya metodlari mavzusida tanishamiz) maqsadga muvofiqdir.

Agarda ishni tez bajarish charchash ko‘zga tashlana boshlaganda bajarilsa, maksimal tezkorlik emas, tezkorlik chidamliligi rivojlanadi.

Shug‘ullanuvchining yoshi va ularning individual xususiyatlari tezlikni rivojlantirish imkoniyatlarini chegaralaydi. Qizlarda qulay yosh 11-12, o‘g‘il bolalarda esa 12-13 yosh hisoblanadi. Mashqlarni standart ravishda takrorlayverish yoshlikdanoq “tezlikning to‘sig‘ini” vujudga keltiradi. Kichik maktab yoshidagilarda harakatli o‘yinlar, o‘rta va katta maktab yoshida sport o‘yinlari, tezkorlik bilan bajaradigan standart yugurishlardan foydalanish foydaliroqdir.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Harakat reaksiyasining tezligi. Individning qandaydir tanlangan signalga, buyruqqa, ovozga javoban tezkorligini tushuniladi.

Harakat reaksiyasi ikki turga ajratiladi: sodda (oddiy) reaksiya – bu kutilgan signalga oldindan belgilangan harakatlar orqali beriladigan javob.

Murakkab reaksiya – tanlay olish reaksiyasidir. Oldindan belgilangan harakatni bajarish uchun bir necha signal ichidan shartlangani tanlab olinadi yoki bir signalga oldindan belgilangan bir necha harakatdan kelishib olinganini bajarish tushuniladi.

Harakatlanayotgan obyektga nisbatan reaksiya ko‘pincha o‘yinlarda, asosan sport o‘yinlarida, sport yakka kurashida masalan, o‘yinchining raqibi tomonidan yoki sherigi tomonidan uzatilgan to‘pni qabul qilib olish uchun chiqishi. Murakkab harakat reaksiyasining davom etish vaqti soddasidan – oddiy reaksiyadan birmuncha uzunroq bo‘ladi.

Sodda reaksiya “ko‘chish” (o‘tish) xususiyatiga ega: agarda individ (shaxs) biron-bir chuqurda signalga tez reaksiya qilsa, boshqalariga ham huddi shunga o‘xshagan sharoitda tez reaksiya qilishi mumkin. Qiyin reaksiyalar xususiyligi bilan ajralib turadi. Agarda odam navbati bilan ikki signalga yaxshi reaksiya qilsa, uchta va undan ortiq signallarga ham shunday tez reaksiya qiladi, deyishimiz noto‘g‘ri bo‘ladi.

XULOSA

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Harakat tezligi reaksiyasini sekundlar va millisekundlar bilan o‘lchanadi. Tezlikni rivojlantirish uchun vosita qilib, odatda, maxsus mashqlar tanlanmaydi. Oddiy harakat reaksiyasi tezlik talab qiladigan turli harakatlarni bajarish davomida rivojlanaveradi. Bunda harakat reaksiyasini “ko‘chish”i (tezlikning ko‘chishi) kuzatilmaydi, ya’ni tezlik reatsiyasini rivojlantirish bilan harakat tezligini rivojlantirish qiyin. Harakat reaksiyasini rivojlantirishda turli-tuman harakatli, sport o‘yinlarini vosita sifatida qimmati yuqori, ammo basketbol ularning ichida yetakchisidir.

Maktabdagi jismoniy madaniyat darslarida reaksiya qilish vaqtini oldindan shartlashilgan turli-tuman signallarga reaksiya qilishni talab qiluvchi (masalan, to‘xtalishlar bilan bajariladigan erkin yugurishlar yoki o‘qituvchi signali, buyrug‘i bilan yugurish yo‘nalishini o‘zgartirish) mashqlarni yordamida rivojlantiriladi. Sport va milliy o‘yinlar orqali reaksiya qila olish va uni tarbiyalaydigan eng yaxshi vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonxo‘jaev T.S. "Harakatli o‘yinlar" O‘quv qo‘llanma T.: O‘qituvchi 1992

2. Mahkamdjanov K.M., Nurmatov F.A, Inozemseva L.A, Rustamov L "Sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi" Darslik T.: 2008-y.

3. Xo‘jaev P., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. (Harakatli o‘yinlari) O‘quv qo‘llanma TDPU T.: 2008-y.

4. Azizova R.I. "Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi" O‘quv qo‘llanma T.: 2010

QISHLOQ XO‘JALIGIDA MEHNAT (MARDIKORLAR) BOZORIDAGI ISHTIROKCHILARNI MINIMALLASHTIRISHNING ISTIQBOLDAGI PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI

Muallif: Murtazaev Akbarxon Olimovich [1]
Affiliyatsiya: TDIU Samarqand filiali, mustaqil tadqiqotchi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17579185

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy ishda qishloq xo‘jaligi mehnat bozorida mardikorlikka chiqish ko‘lamini kamaytirish va bandlik darajasini oshirishga qaratilgan prognoz tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslari balansi asosida 2030 yilgacha bo‘lgan davr uchun dinamik o‘zgarishlar statistik usullar, xususan “Probit” va trend modellari yordamida tahlil qilingan. Natijalar Samarqand viloyatida iqtisodiy faol aholining ozgina oshishi, rasmiy sektor bandligining qisqarishi, biroq norasmiy sektor va tashqi mehnat migratsiyasi ortishini ko‘rsatdi. Ishsizlik darajasining 8,1 foizdan 6,8 foizgacha pasayishi kutilmoqda. Tadqiqotda STATA dasturi asosida prognoz ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan va mehnat resurslarining samarali taqsimlanish yo‘nalishlari aniqlangan. Olingan natijalar qishloq hududlarida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hamda mardikorlikni kamaytirish siyosatini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Islohatlar, mehnat resurslari, resurslar harakati, aholi bandligi, ishsizlar, ish o‘rinlari, demografik jarayon, real iqtisodiyot, raqamlashtirish, migrasiya, resurslar salohiyati, iqtisodiy salohiyat, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorlik, tadqiqot konsepsiyasi, tadqiqot gipotezasi, mardikorlikka chiqish, mardikorlikka chiqmaslik, prognoz.

KIRISH

Mamlakatda amalga oshirilayotgan, barcha sohadagi, jumladan qishloq xo‘jaligidagi islohatlarning ham diqqat markazida mehnat resurslarining balansi va undan unumli foydalanish, bandlik darajasini ko‘tarish muhim masala hisoblanadi. Real iqtisodiyotning barcha sohalarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish jarayoni bir tomondan, ishlab chiqarish jarayonining unumdorligining oshirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, mehnat resurslari ish o‘rinlarining ma'lum darajada qisqarishini keltirib chiqaradi. Bu yana aholi bandiligini qisqartirib, ishsizlar sonining tebranib turishiga olib keladi. Demak, bu jarayon nafaqat rivojlanishi orqada bo‘lgan yoxud rivojlanib kelayotgan davlatlarda, balki rivojlangan davlatlarda ham ro‘y berishi davrlar miqyosida bo‘lib turadigan ob'ektiv hodisadir. Bu yerda, kelgusida mehnat resurslarining ish bilan band bo‘lishi va ishsizlikning kamayishi asosiy masaladir.

ASOSIY QISM

Tezisda statistik usullardan keng foydalanildi. Jumladan dinamik qatorlar, jadvallar, grafik, sxema va formulalardan foydalanildi. Grafik usulda O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari dinamikasi va uning yillar davomidagi o‘zgarishi tahlil qilindi. Sxemada, dinamik qatorlarda O‘zbekiston Respublikasida aholining

bandligi darajasi yoritildi. Shuningdek, keltirilgan formulalarda mehnat resursining qiymati va mehnat resurslarining o‘rtacha yillik qiymatini aniqlash va hisoblashda foydalanilgan.

Tezis mavzusidan kelib chiqib, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida ta'kidlanganidek, “Probit” modeli - bu ikkilik natija o‘zgaruvchilarini tahlil qilish uchun statistika va ekonometrikada keng qo‘llaniladigan regressiya modelining bir turi. Ikkilik natija degani, erkli o‘zgaruvchi faqat ikkita mumkin bo‘lgan qiymatni qabul qilishi mumkin. Ushbu modeldan foydalangan holda, mardikorlikka chiqishni kamaytirishga ta'sir qiluvchi omillarni baholash mumkin bo‘ldi.

Model natijalari tahlilidan oldin tanlangan erkli o‘zgaruvchilarni korrelyasion bog‘liqligini o‘rganish muhimdir. “Probit” modeli bo‘yicha erkli o‘zgaruvchilarning o‘zaro korrelyasion bog‘liqlik natijalaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblab, tezisda Samarqand viloyatida mehnat resurslari balansining 2030 yilgacha bo‘lgan prognozini hisoblash maqsad qilib qo‘yildi. Biz, talqiqot ishning amalga oshirilgan, qishloq hududlarida mardikorlikka chiqishni kamaytirish omillari tahlilidagi ma'lumotlaridan va model xulosalaridan keng foydalangan holda, shuningdek, yana chiziqli Trend modelidan foydalanib, prognoz ko‘rsatkichlarini hisoblashni amalga oshirdik. Trend modelining ko‘rinishi quyidagi formulada keltirilgan:

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

$$\hat{Y}_t = a + b * t$$

Bu yerda:

- $\hat{Y}_t$= t davri uchun prognoz qilingan qiymat. Bizning misolda 2025-2030 yillarda prognoz qilinadigan ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilganidek „Iqtisodiy faol aholi“, „iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar“, „iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar“, „respublikadan tashqariga chetga ishlashga ketganlar“, Iqtisodiy nofaol aholi“ „Jami mehnat resurslari“ va „O‘rtacha doimiy aholi soni“ ko‘rsatkichlaridir.
- *a* – boshlang‘ich qiymat (t = 0 da)
  b – har bir davrda o‘rtacha o‘zgarish miqdori (trendning qiyaligi)

1-jadval

Samarqand viloyati mehnat resurslari balansining 2030 yilgacha bo‘lgan davrdagi dinamik o‘zgarishlari prognozi

Yillar	Iqtiso-diy faol aholi	Bandlar – jami	Shu jumladan:			Ishga joylash-tirishga muhtoj shaxslar	Ishsizlik darajasi, %	Iqtisodiy nofaol aholi	Jami mehnat resurslari	O‘rtacha doimiy aholi soni
			iqtisodiyot-ning rasmiy sektorida bandlar:	Iqtisodiyot-ning norasmiy sektorida bandlar:	Respublikadan tashqariga chetga ishlashga ketganlar					
2017	1629800	1523100	789659	546917	161524	131700	8,1	451100	2081000	3685700
2018	1610876	1520063	579067	662888	248108	120813	7,5	578695	2189571	4227308
2019	1604202	1455779	501365	631450	322964	148423	9,3	520663	2124865	3838449
2020	1585419	1410880	490670	678255	241955	174539	11,01	545021	2130440	3905480
2021	1599674	1441264	559366	664466	217432	158410	9,9	542586	2142260	3989511
2022	1642905	1489511	565712	648130	275669	153394	9,3	517448	2160353	4074871
2023	1610986	1504184	545794	658504	299886	106802	6,6	554337	2165323	4163369
2024	1655411	1545063	579467	663858	301738	105715	6,4	567695	2169571	4173085
2025	**1634027**	**1507798**	**502675**	**688929**	**316194**	**126229**	**7.7**	**571245**	**2178479**	**4215363**
2026	**1637719**	**1514119**	**486294**	**698845**	**328980**	**123601**	**7.5**	**579367**	**2185824**	**4261616**
2027	**1641412**	**1520439**	**469914**	**708761**	**341765**	**120973**	**7.4**	**587490**	**2193170**	**4307870**
2028	**1645105**	**1526760**	**453533**	**718676**	**354551**	**118345**	**7.2**	**595612**	**2200516**	**4354123**
2029	**1648798**	**1533080**	**437152**	**728592**	**367336**	**115718**	**7.0**	**603735**	**2207862**	**4400377**
2030	**1652490**	**1539401**	**420772**	**738508**	**380122**	**113089**	**6.8**	**611857**	**2215207**	**4446630**

2030 y.da 2017 y.ga nisbatan o'zgarish:	%	101,4	101,1	53,3	135,0	235,3	85,7	X	135,6	106,4	120,6
	+ , -	22690	16301	-368887	191591	218568	-18611	- 1,3	160757	134207	760930

- t – vaqt davri (masalan, 1, 2, 3, 4 bizning misolda t=8, chunki 2017 dan 2024 gacha jami 8 yillik mavjud ma'lumot bor)

Bu dastur bo‘yicha kerakli bo‘lgan ma'lumotlar, bu mehnat resurslarining ko‘p yillik balans ma'lumotlari asosida o‘zgarish dinamika-sining turli davrlarda va sharoitlardagi holatini aks etdiruvchi ishonchli va muhim bo‘lgan raqamlarda aks etdirilgan statistik jadvalni ifodalovchi ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

Ushbu formuladan foydalangan holda STATA dasturi yordamida Samarqand viloyatida mehnat resurslari balansining 2030 yilgacha bo‘lgan prognozi hisoblab chiqildi va 1-jadvalda keltirilgan natijalar olindi. Jadval ma'lumotlariga asosan, 2030 yilga borib „Iqtisodiy faol aholi“ va “Jami band bo‘lganlar” soni 2017 yilga nisbatan mos ravishda 1,4 va 1,1 % ga oshib boradi. Lekin bu davrda „iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar“ keskin kamayib 53,3 % ga tushadi yoki son jihatdan 368887 nafarga kamayadi. Umumiy holatda jami bandlarda sezilarli o‘sish bo‘lmasa ham, „iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar“ va „respublikadan tashqariga chetga ishlashga ketganlar“ soni mos ravishda keskin oshib ketadi: 135,0 % va 2,3 baravarga oshadi. Respublikadan tashqari chetga ishlashga ketganlar sonining oshishi, monomarkazlarda kasbga o‘quvchilar sonining ko‘payishi, ya'ni chetga chiquvchilarning sertifikat egasi bo‘lib, son jihatdan ham, sifat jihatdan ham ijobiy yo‘naltirilganligining natijasidir. „O‘rtacha doimiy aholi soni“ va “Iqtisodiy nofaol aholi“ sonining parallel o‘sishi (mos ravishda 35,6 va 20,6 % ga) ob'ektiv hodisadir.

XULOSA

Ana shu ijobiy natijalar hisobiga 2030 yilgacha (14 yil mobaynida ham) ishga joylashtirishga muxtojlar soni 14,3 % ga pasayadi yoki 18611 kishiga kamayadi. Pirovard natijada, ishsizlik darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, minimallashadi va 8,1 % dan 6,8 % ga pasayadi, ya'ni bu – 1,3 punktni tashkil qiladi. Yoki yuqorida ta'kidlanganidek, bu raqam 18611 kishini tashkil qiladi. Shu davr ichida iqtisodiyotning rasmiy sektorida va norasmiy sektorida bandlar soni mos ravishda – 502675 dan 420772 nafargacha kamaygan (16,3 %) va 688928 nafardan 738508 nafargacha ko‘paygan (7,2 %). Umumiy holatda – 1507798 nafardan 1539401 nafargacha yoki 31603 nafarga (2,1%) ko‘paygan. Ana shu o‘zgarishni shu yilgi o‘rtacha minimal ish haqi bo‘yicha hisoblaganda (1 271 000 ming so‘m) ishga joylashgan 31603 nafar mehnat resurslarining olishi mumkin bo‘lgan minimal daromadi – 40 mlrd. 167 mln. 413 ming so‘mga etishi mumkin ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zR Prezidentining 2025 yil 17 yanvar, PQ-12-sonli qarori ma'lumotlari
2. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami (Toshkent, 2024). 2005-2023 yillar ma'lumotlari
3. Samarqand viloyatidagi norasmiy ish bilan band va ishsiz aholi qatlamidan o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma materiallari.
4. Ibragimov Gayrat, Murtazaev Olim, Rakhmonov Davlat. Klaster tizimining qishloq xo‘jaligi samaradorligiga ta'siri//Agroiqtisodiyot. –Toshkent, 2020. -№1. -20-23 b.

5. Murtazaev Olim, Ibragimov Gayrat Ablaqulovich The Effectiveness of Economic Relationships and Forecasting between Farms and Agricultural Services//The Indian Journal of Economics (ISSN: 0019-5170) Issue 400. Pages

NEFT-KIMYO SANOATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINING TIZIMLI TAHLILIY YONDASHUVI

Muallif: Ganiyev Akmal Abduhalilovich [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17586867

ANNOTATSIYA

Neft-kimyo sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonlari murakkab bo‘lib, ular tashqi va ichki omillar ta’sirida nosozliklar va avariya holatlari bilan yuzaga kelishi mumkin. Jarayon parametrlarining stoxastik o‘zgaruvchanligi va uskunalarning eskirishi boshqaruv va tashxislash tizimlarini murakkablashtiradi. Shuning uchun texnologik holatlarni monitoring qilish, ma’lumotlarni yig‘ish va risklarni baholashning samarali metodlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot neft-kimyo korxonalarida xavflarni tahlil qilish va boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: neft-kimyo, nosozliklar, agregatlar, texnologik jarayon.

KIRISH

Mavjud neft-kimyo ob’ektlari murakkab xususiyatga ega bo‘lib uning tarkibida turli xil vazifalarni bajaruvchi texnologik ob’ektlardan iboratdir. Bunda ishlab chiqarish korxonolari yaxshi strukturaga ega bo‘lib ularda murakkab kimyo-fizikaviy jarayonlar sodir bo‘ladi. Har bir kimyoviy korxonani ma’lum bir mahsulot yoki yarim mahsulotni olish uchun yagona birlik sifatida ishlaydigan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari to‘plami neft maxsulotlariga ishlov berish sifatida qarash mumkin.

ASOSIY QISM

Kimyoviy va texnologik jarayonlar tashqi va ichki muhit omillarining doimiy ta’siri ostida bo‘ladi. Tashqi ommilar sifatida xom ashyo sifat ko‘rsatgichini doimi ravishda o‘zgaruvchanligi, energiya ta’minotidagi uzilishlar xamda boshqaruv tizimining topshiriqlarini o‘zgarishi va tashqi muxitning ta’siri qaralishi mumkin.

Ichki omillar sifatida boshqaruv jarayonining noto‘g‘ri qarorlari yoki boshqaruv tizimlari texnologik jihozlarining ishlamay qolishi va texnologik nosozliklar, shuningdek jarayon dinamikasining o‘zgaruvchanligi misol bo‘lishi mumkin. Ushbu ommillar natijasida turli xil nosozliklar sodir bo‘lishi mumkin.

Agregatlar, boshqaruv tizimlari va jarayon texnologiyalaridagi nosozliklarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: sekin-asta va to‘satdan sodir bo‘lishi.

Sekin-asta nosozliklar guruhi boshqaruv tizimlari uskunalari xususiyatlarining doimiy ravishda yomonlashishi va jarayonning texnologik sharoitlari bilan bog‘liq. Bularning barchasi ishlab chiqarish jarayoning yuqori harorat, yuqori bosim va tajovuzkor muhit sharoitida ishlashi bilan bog‘liq. Agregatlar va quvurlarning ichki yuzasida moddalarning cho‘kishi va materiallarning korroziyasi doimiy ravishda

kuzatiladi, bu ularning gidrodinamik xususiyatlari va issiqlik uzatish sharoitlari, shuningdek, massa almashinuvi va reaksiya jarayonlari uchun sharoitlarning yomonlashishiga olib keladi.

Bularning barchasi oxir-oqibat texnologik jarayonni profilaktik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash uchun to‘xtatishga olib keladi, agar texnologik bo‘linmani to‘xtatish vaqti o‘tkazib yuborilsa, avariyaga olib kelishi mumkin.

Avariya holatlarining katta qismi to‘satdan sodir bo‘ladigan nosozliklar guruhiga to‘g‘ri keladi, ularning sabablari texnologik jarayonni o‘tkazishda me’yorlaridan chetga chiqish, shuningdek texnologik uskunalar yoki texnologik jarayoning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlaridagi o‘lchash va boshqarish zanjirlaridagi nuqsonlar hisoblanadi.

To‘satdan sodir bo‘ladigan nosozliklar guruhi doimiy nosozliklar va buzilishlarga bo‘linishi mumkin. Doimiy yoki qaytarib bo‘lmaydigan buzilish, odatda, nosozlikdan farqli o‘laroq, texnologik jarayonni to‘xtatishni talab qiladi.

Texnologik tizimlarda yuzaga keladigan buzilishlar tabiatan stoxastik harakterga ega. Shuning uchun ularni bashoratlash va bartaraf etish bo‘yicha profilaktika choralarini amalga oshirish vazifasi murakkab va hozirda aniq yechimga ega emas.

Neft-kimyo korxonalari va agregatlari holatini to‘liq aniqlash uchun texnologik jarayonlarning axborot va boshqaruv tizimi darajasida tashqi va ichki muhit parametrlarini tavsiflovchi ma’lumotlarni to‘plash va o‘zgartirishni tashkil qilish kerak. Bu xom ashyo, energiya, tuzatuvchi boshqaruv harakatlari, ob – havo sharoiti va boshqa parametrlarini, shuningdek ob’ekt agregatlari, boshqaruv tizimlari va texnologik jarayonlar parametrlarini nazorat qilishdir kiriadi.

Kimyoviy va texnologik jarayonlarning holatini nazorat qilish boshqaruv tizimlari uskunalari, hamda boshqaruv qurilmalarining bosqichma-bosqich va to‘satdan ishlamay qolishi ehtimolini tahlil qilish uchun axborot kanallarini o‘z ichiga olishi kerak. Axborot va boshqaruv tizimining ushbu darajasida ishlatiladigan texnik vositalar majmuasining imkoniyatlariga qarab, kimyoviy-texnologik tizim holatlarini tasniflash va texnologik ish rejimlarini tuzatish yoki ta’mirlash ishlarini bajarish to‘g‘risida qaror qabul qilish, ularni xizmat ko‘rsatish va boshqarish xodimlari yoki mahalliy boshqaruv davrlarining ijro etuvchi tizimi orqali amalga oshirish mumkin.

Neft-kimyo korxonalarida foydalanayotgan axborot kommunikatsiya tarmoqlari bir qator elementlardan iborat. Elementlarni birlashtirish darajasi asosan boshqaruv vazifalari bilan belgilanadi. Bunda, axborot kommunikatsiya texnologiyalari elementlarining soni va uning ketma-ketligi ishlashi vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha holatlarni sanab o‘tish mumkin:

- Texnologik jarayonlarning stoxastik va noaniq tabiati, bu texnologik qurilmalarning barcha holatlari kuzatilmasligiga yoki ma’lumotlar juda shovqinli bo‘lishiga olib keladi. Bunday holda, qurilmalarning ishdan chiqishi tez-tez uchraydi va fizik-kimyoviy jarayonlar sodir bo‘ladigan texnologik uskunalar elementlarining nosozliklari yoki nuqsonlari kimyoviy-texnologik jarayon holatining o‘zgaruvchilarida aks etadi.
- kimyoviy-texnologik jarayonda har xil turdagi buzilishlar mavjud: texnologik ish rejimlarining buzilishi, boshqaruv tizimidagi buzilishlar. Texnologik uskunalarning nuqsonlari va nosozliklari paydo bo‘lishining sifat jihatidan farq qiluvchi asosiy sabablariga ega, garchi ushbu buzilishlarning namoyon bo‘lishi natijasida ular bir-biridan unchalik farq qilmasa ham, shu munosabat bilan

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

yuzaga kelgan vaziyatning asosiy sabablarini aniqlashda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi.

- Nosozliklarni kelib chiqishining asl sabablarini aniqlashning qiyinligi tashxislash tizimlarini yaratishda quyidagi prinsiplarga amal qilish zaruriyatiga olib keladi:

– elementlar holatlarining tasnifi;
– dekompozitsiya;
– nosozlik va avariya holatlarni aniqlash ierarxiyalanganligi;
– kimyoviy ishlab chiqarish holatlarining o‘zgarishini bashorat qilish;
– kritik rejimni boshqarish.

- kimyoviy-texnologik tizim to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liqligiga qarab holatlarni tashxislash va keyinchalik qaror qabul qilish mantiqiy, noaniq, intervalli yoki ehtimollik nazariyasi kabi matematik apparatlarga tayanadi.

Murakkab tizimlarning xavflilik darajasini tahlil qilish va baholash usullarini umumlashtirish asosida ularda sodir bo‘ladigan turli xavfni tahlil qilish va xavfsizlikni boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish va hayotiy siklining barcha bosqichlarida ularning xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi: Bunda neft-gaz sanoatida xavfni hosil bo‘lishi manbalari sifatida kimyoviy ishlab chiqarishni tahlil qilish; avariyalar yuz berganda va normal ishlashi natijasida inson va atrof-muhitga salbiy ta’sirini baholash; kimyoviy ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish alohida o‘rin tutadi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

XULOSA

Yuqorida keltirilgan nosozliklarni keltirib chiqish sabablarni aniqlash va ularni tashxislashning matematik modelini ishlab chiqish boshqarish jarayonini sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Д.П. Вент, А.Е. Пророков, Г.Н. Санаева, Н.А. Тоичкин, Б.В. Палюх, Н.А. Семенов, В.Н. Богатиков, В.В. Алексеев, В.К. Кемайкин. Математические модели, используемые в задачах диагностики технологических систем. Программные продукты, системы и алгоритмы. Москва 2015 - С 15-16.
2. Akmal Ganiev., Fuzzy situational control of technological safety of petrochemical installations and complexes. Bulletin of TUIT: Management and Communication Technologies. 2023y.Vol-1(2). -P. 2-5.
3. Siddikov I.Kx., Ganiev A.A. Algorithms For Diagnostics of Technological States in Petrochemical Industry. 5th International CEO Communication, Economics, Organization & Social Sciences Congress. 2022y -P. 651-656.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH YO‘NALISHLARI

Mualliflar: O‘razaliyev Javlonbek O‘rinboyevich [1], To‘xtaboyev Bobur Ulug‘bek o‘g‘li[2]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi [1], Xalqaro Nordik universiteti 3-bosqich talabasi[2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17586954

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola mamlakat taraqqiyotini ta’minlash jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqaror taraqqiyotni ta’minlash, shu jumladan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va yashil texnologiyalarni joriy etish masalalariga bag‘ishlangan. Xususan, O‘zbekiston sharoitida, urbanizatsiya va aholi ko‘payishi natijasida resurslarga bosim ortganligi, ekologik siyosat va qonunchilikning mustahkamlanayotganligi, yashil iqtisodiyot yo‘lida amalga oshirilayotgan qadamlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, talaba-yoshlar hamda kelgusida o‘z biznesini boshlash arafasida turganlar uchun aniq tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot, ekologik boshqaruv, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, bioxilma-xillikni saqlash, ekologik innovatsiyalar.

KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqaror taraqqiyotni ta’minlash g‘oyasi nafaqat nazariy muammo, balki amaliy zaruratga aylangan. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, yer degradatsiyasi va tabiiy muvozanatning buzilishi davlatlar oldida yangi mummolar keltirib chiqarmoqda. Masalan, O’zbekistonda hududiy sharoitlar tufayli iqlim o‘zgarishiga bo‘lgan zaiflik aniq kuzatilmoqda: issiq yozlar, qurg‘oqchilik va suv yetishmovchiligi tabiiy muhit va aholi hayotiga ta’sir qilmoqda [1].

Shu bois, O‘zbekistonda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash strategik vazifa sifatida belgilangan.

Maqolaning asosiy qismiga o‘tishdan oldin, mazkur soha vakili bo‘lmagan hamda bu sohada yetarlicha bilimlarga ega bo‘lmaganlar uchun ayrim, nazariy-uslubiy bilimlarni keltirib o‘tishni joiz deb topdik:

- ✓ Iqlim o‘zgarishiga moslashuv - iqlimdagi salbiy o‘zgarishlarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish [2].
- ✓ Ekologik barqarorlik - tabiiy resurslardan shunday foydalanish kerakki, u hozirgi va kelajak avlod ehtiyojlarini qondirishi kerak.
- ✓ Ekologik xavfsizlik - inson va tabiiy tizimlarni havfli omillardan himoya qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlash.

Yashil texnologiyalar - energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish, ularni qayta ishlash va atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishga xizmat qiluvchi texnologiyalar.

ASOSIY QISM

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi nafaqat tabiatga, balki jamiyat va iqtisodiyotga ham jiddiy ta’sir qilmoqda. Masalan, Jahon Bankining “Uzbekistan Climate Adaptation and Resilience Assessment” (2024). hisobotida mamlakatdagi tabiiy resurslar bosimi oshgani va iqlim-sharoitlarining keskinlashgani qayd etilgan. Shu hisobotga ko‘ra, O‘zbekistonda suv yetishmasligi kuchayayotganini ko‘rishimiz mumkin, chunki qor va muzliklardan keladigan suv resurslari kamaymoqda, qurg‘oqchilik xavfi ortmoqda [3]. Bu holatlar iqlim o‘zgarishiga moslashuv va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalarini yanada dolzarb muommolalardan biriga aylantirmoqda.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha O‘zbekistonda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligi samaradorligi oshirilmoqda va yanada kuchaytirish rejalashtirilmoqda [4]. Shuningdek, sanoat va energiya sektorlarida energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha loyihalar mavjud, bu esa resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Yashil texnologiyalar va ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasida ham odimlar otilmoqda. O‘zbekiston “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi doirasida quyosh va shamol energetikasi loyihalarini yanada kengaytirmoqda, shuningdek, ekologik toza ishlab chiqarish usullarini rivojlantirmoqda. Ekologik xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida muhit monitoringi, havo va suv sifatini nazorat qilish tizimlari ham joriy etilmoqda, bu esa o‘z o‘rnida tejamkorlikni yanada kuchaytirishga sabab bolmoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga bir qator muammolar ham to‘sqinlik ko’rsatmoqda [5]. Ular orasida moliyalashtirishning yetishmasligi, texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi va ijtimoiy bilimning pastligi eng dolzarb hisoblanadi. Shu sababli, ekologik barqaror taraqqiyot va yashil texnologiyalarni joriy etish borasida strategik reja va aholining keng jalb qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holatlar O‘zbekiston tajribasini global tendensiyalar bilan solishtirishga imkon beradi va talaba-yoshlar hamda biznes subyektlari uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘l ochadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi oqibatlari: suv resurslarining kamayishi, qurg‘oqchilik va issiq yozlar nafaqat tabiat, balki jamiyat va iqtisodiyotga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur holatlarning oldini olish yohud salbiy ta’sirini kamaytirish ustida olib borgan tadqiqotlarimiz asosida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- suv resurslarini tejash va boshqarish: irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, qurg‘oqchilikka chidamli ekinlarni ko‘paytirish va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish.
- yashil texnologiyalarni kengaytirish: quyosh va shamol energetikasi loyihalarini rivojlantirish va ko’paytirish, sanoatda energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash.

- ekologik xavfsizlikni mustahkamlash: muhit monitoringi tizimini rivojlantirish, havo va suv sifatini nazorat qilish hamda ijtimoiy bilimni oshirish bo‘yicha ta’lim va targ‘ibot ishlarini olib borish.
- moliyaviy va texnologik resurslarni jalb qilish: ekologik loyihalarni moliyalashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash.
- yoshlar va jamiyatning ishtirokini oshirish: ekologik bilimni shakllantirish va yoshlarni ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etishini rag‘batlantirish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston BMT tomonidan belgilab berilgan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida mustahkam qadamlar qo‘yishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi va yashil texnologiyalarni samarali joriy etishi mumkin. Bu esa joriy va kelajak avlod uchun sog‘lom va xavfsiz ekologik muhit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://hydromet.uz/uz/node/609
2. https://senat.uz/articles/post-1079
3. https://www.undp.org/uzbekistan/environment-and-climate-action
4. https://parliament.gov.uz/articles/493
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020 yildagi “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi VM-95-sonli qarori
6. O‘razaliyev J.O‘. Yapon menejmentida Kayzen boshqaruv tizimi. “Ёшлар ва илм-фан” ТошДШИ Мустақил тадқиқотчи, магистрант ва бакалаврларнинг илмий-амалий конференцияси тезис ва мақолалар тўплами, Т.:2018й. 17-20 бет
7. https://www.adaptation-undp.org/explore/europe-and-central-asia/uzbekistan
8. https://www.un.int/uzbekistan/news/uzbekistans-contribution-global-fight-against-climate-change
9. https://www.iea.org/reports/renewable-energy-market-update-june-2024

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ATMOSFERA IFLOSLANISHINI 3D MODELLASHTIRISH VA EKOLOGIK XAVF ZONALARINI BAHOLASH UCHUN GIBRID AI–ML MODELI

Muallif: Odilov Abdullo Komiljon o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17587096

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada atmosfera ifloslanishini bashorat qilish va ekologik xavf zonalarini aniqlash maqsadida gibrid sun’iy intellekt (AI) va mashinali o‘qitish (ML) modellariga asoslangan 3D modellashtirish yondashuvi taklif qilinadi. Taklif etilgan tizim fizik modellashtirish (Navye–Stoks va advektsiya-diffuziya tenglamalari) va chuqur o‘rganish (CNN, LSTM) algoritmlarini birlashtirib, PM2.5, NO_2, CO, O_3 kabi ifloslovchi moddalarning tarqalishini bashorat qiladi. Shuningdek, model yordamida yuqori konsentratsiyali zonalar 3D formatda qayta tiklanadi va ekologik xavf xaritalari ishlab chiqiladi. Mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan ushbu yondashuv orqali O‘zbekiston shaharlarida havo sifatini yaxshilash va sog‘liq xavfini kamaytirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Kalit so‘zlar: 3D modellashtirish, havo ifloslanishi, ekologik xavf zonalari, sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, CNN, LSTM, fizik asosli modellar, O‘zbekiston.

KIRISH

Dunyo bo‘ylab aholi zich joylashgan shaharlar va sanoat markazlarida havo ifloslanishi jiddiy muammoga aylanmoqda. Mayda zarralar (PM2.5, PM10) va boshqa toksik gazlar inson salomatligi uchun katta xavf tug‘dirib, nafas olish va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi. O‘zbekiston hukumati ham atmosfera havosini muhofaza qilishni dolzarb vazifa qilib belgilagan: 2019-yil 30-oktabrda 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Atrof-muhitni muhofaza qilish” konsepsiyasi tasdiqlandi [1]. Ushbu konsepsiya asosida uch yillik yo‘l xaritalari ishlab chiqilib, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha maqsad va chora-tadbirlar belgilandi[2]. Oxirgi yillarda havo ifloslanishini tartibga solish uchun qonunchilik ham kuchaytirildi: 2024-yil fevralida “Tabiatni muhofaza qilish”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish” va “Ekologiya nazorati” qonunlariga kiritilgan o‘zgartirishlarga binoan, atmosferani ifloslantiruvchi korxonalar faoliyatini vaqtincha to‘xtatish mexanizmi joriy etildi[3]. 2024-yil sentyabrda esa “Chang bo‘ronlari va havo sifatini yaxshilash bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar” farmoni qabul qilindi va 2024–2030-yillarni qamrab olgan milliy dastur tasdiqlandi[4]. 2025-yil mart oyida 500 m^2 va katta qurilish maydonlarida chang chiqishining oldini olish bo‘yicha majburiy texnik talablar amal qila boshladi[5]. Shuningdek, 2024-yilda Sog‘liqni saqlash vazirligi PM2.5 uchun yangi standart joriy qildi; u Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga mos kelib, havo sifatini yaxshilashga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi[6]. Ushbu chora-tadbirlar milliy darajada havo sifatini yaxshilashga bo‘lgan majburiyatning qat’iy ekani va yangi analitik vositalar zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Wang va Han (2025) ishida Xitoy olimlari o‘quv maskanlarida chang va ifloslantiruvchi aerozol zarralarining 3D modellashtirilishi va trajektoriyasini oldindan aniqlash uchun gibrid chuqur o‘rganish modelini taklif qilishadi. Ularning yondashuvida an’anaviy Eulerik yoki Lagranj variantli hisoblash modellari bilan solishtirganda yuqori aniqlikdagi aerosol transport modeliga ma’lumotga asoslangan neyron tarmoqlar (physics-informed neural networks) orqali optimallashtirish qo‘llaniladi[7]. Bu usul kichik masshtabli turbulensiyani hisobga olish uchun statistik korreksiyalar va moslashtirilgan tarmoq (adaptive meshing) kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi, natijada an’anaviy numerik usullarga nisbatan aniqroq va samarali model yaratildi[7]. Eksperimental sinovlar ushbu yondashuvning ma’lumotga asoslangan boshqa metodlardan ustunligini ko‘rsatgan.

2022-yilda *Sustainability* jurnalida chop etilgan tahliliy maqolada mualliflar havo ifloslanishini bashorat qilishda qo‘llanilgan sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish usullarini tahlil qilganlar. Ular ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlarning an’anaviy fizik modellar qo‘yadigan kuchli hisoblash yukini yengishi va mavjud tarixiy ma’lumotlarga tayangan holda yuqori aniqlikni ta’minlashi mumkinligini ta’kidlashadi[8]. Masalan, konfovlyutsion neyron tarmoqlar (CNN) va uzun muddatli eslash (LSTM) kabi chuqur o‘rganish modellarining bashorat aniqligi yuqori bo‘lib, statistik va oddiy mashinani o‘rganish metodlariga nisbatan samaradorligi ortadi[8]. Mualliflar shuningdek ta’kidlaydilar: turli metodlarni birlashtiruvchi gibrid modellar bashorat aniqligini oshiradi va barqarorlikni yaxshilaydi, biroq buning evaziga hisoblash xarajatlari ko‘tarilishi mumkinligi kuzatiladi[9].

Yasmin va boshq. (2023) AQIPred nomli modelida oddiy ko‘p qatlamli perceptron (MLP) va LSTM tarmoqlarini birlashtirgan. Ular Pekin shahrining ko‘p joylama havo sifati ma’lumotlar bazasi ustida sinov o‘tkazib, modelning MSE 0.00016 va $R^2 \approx 0.95$ natijalariga erishganlar, bu esa modelning yuqori aniqlikda ishlashidan dalolat beradi[9]. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mazkur gibrid neyron arxitekturasi an’anaviy statistika usullariga qaraganda ancha aniqroq bashoratlar beradi va yuqori aniqlik talab qilinadigan vazifalar uchun qulay.

Rahmani (2024) o‘z dissertatsiyasida havo ifloslanishini prognozlashda uchta asosiy yondashuvni taklif qilgan. Birinchisi – PM2.5 zarralari konsentratsiyasini vaqt bo‘yicha oldindan bashoratlaydigan *PMFORECAST* modeli bo‘lib, u bir soatlik oldindan bashoratlarda 99.7% aniqlikni ta’minlagan[10]. Ikkinchi yondashuv – Graf T-I-LSTM modeli, u GCN (graf konvolyutsion tarmog‘i) yordamida hududlararo bog‘liqlikni va LSTM yordamida vaqt bo‘yicha dinamikani modellashtiradi[10]. Uchinchi tarafdan, muallif mobil sensorlardan to‘planadigan ma’lumotlar bilan mashinani o‘rganishni birlashtirgan federativ o‘rganish arxitekturasi (*FEDAIRNET*)ni tavsiflaydi[10]. Dissertatsiya mualliflari ta’kidlashicha, bu usullarning birgalikda ishlashi haqiqiy shahar muhitida yuqori bashorat aniqligini va foydalanuvchi maxfiyligining saqlanishini ta’minlaydi.

Panda va boshq. (2025) ishlari shahar ekosistemalari uchun sun’iy intellektga asoslangan bashorat modelini taklif etadi. Ular ob-havo, transport, sanoat chiqindilari hamda turli ifloslanish parametrlari (PM2.5, NO_2, CO, O_3) to‘plamlarini LSTM, Random Forest va Gradient Boosting kabi usullarga asoslangan holda birlashtirgan[15]. Ansambl modellash orqali bir nechta texnikani uyg‘unlashtirish natijasida bashorat aniqligi an’anaviy statistik yondoshuvlardan yuqori bo‘lishi kuzatilgan, ba’zi sinovlarda 90%dan oshgan natijalarga erishilgan[16]. Bundan tashqari, model atrof-muhit

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

xavflarini baholash uchun aholi zaifligi va ifloslantiruvchi moddalar toksikligini inobatga olgan holda sog‘liq indeksini hisoblash ham imkoniyatini yaratgan[13].

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi ishlarda hech biri O‘zbekiston sharoitiga bag‘ishlanmagan. Ularning aksariyati Xitoy, Hindiston yoki boshqa mintaqalardagi ma’lumotlar asosida o‘rganilgan, bu esa mahalliy ma’lumotlar va sharoitlar uchun yangi tadqiqotlar yo‘lini ochmoqda.

METODOLOGIYA

Taklif etilgan gibrid AI–ML modeli atmosfera ifloslanishini 3D aniqlash va ekologik xavf zonalarini baholash uchun quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Ma’lumot yig‘ish. Modellashtirish uchun meteorologik (shamol tezligi, harorat, namlik), sanoat chiqindilari va transport chiqindilari kabi vaqt bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlari va shahar relyefi, yer qoplamasi kabi fazoviy ma’lumotlar yig‘iladi. Bu bosqichda shuningdek suv havzalari, ekin maydonlari va sanoat hududlari kabi atrof-muhit elementlari hisobga olinadi.
- Numerik model. Havo oqimlari va ifloslovchi moddalar tarqalishini Navye–Stoks va advektsiya-diffuziya tenglamalari asosida hisoblashni o‘z ichiga oladi. Model relyef va yer yuzasi xususiyatlarini hisobga olgan holda 3D atmosferaga tarqalish jarayonini simulyatsiya qiladi[11]. Bu yerda maydon bo‘ylab yadroviy bosqich va hududiy diferensial tenglamalar echiladi.
- Mashina o‘rganish modullari. Ushbu model natijalari va o‘lchov stansiyalardan olingan ma’lumotlar asosida neyron tarmoqlar (masalan, CNN va LSTM/Transformer tarmoqlari) o‘qitiladi. Ular kichik masshtabdagi noaniqliklarni va vaqtinchalik nazariyani o‘rganib, modelning bashorat aniqligini oshirish uchun ishlatiladi[7][10]. Masalan, CNN havo maydonining 3D sxemasini qayta tiklashda ishlatilishi mumkin, LSTM esa keyingi daqiqalardagi tarqalishni prognoz qiladi.
- Gibrid algoritmlar. Fizik modellar bilan integratsiyalashgan mashinani o‘rganish, masalan physics-informed neyron tarmoqlari, modelga fizik cheklovlarni kiritish imkonini beradi. Bu yondashuv ma’lumotga asoslangan kuchni fizik qonunlar bilan uyg‘unlashtiradi va natijaning barqarorligini oshiradi.
- 3D qayta tiklash va xavf bahosi. Hosil bo‘lgan gibrid model yordamida shahar bo‘ylab ifloslovchi moddalarning 3D konsentratsiya maydoni olinadi. Keyin bu ma’lumotlar asosida ekologik xavf zonalari xaritasi tuziladi: masalan, PM2.5 miqdori milliy standartdan oshgan hududlar aniqlanib, ularga yuqori xavf belgisi qo‘yiladi. Ushbu xarita sog‘liqni muhofaza qilish va rejalashtirish uchun muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Taqqoslash tahlili.

O‘zbekiston sharoitida havo ifloslanishini tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar nisbatan kam va asosan an’anaviy modellarga asoslangan. Masalan, Sharipov va boshqalar (2019) atmosferada aerozol moddalar tarqalishini ikki o‘lchamli matematik model va sonli usullar orqali o‘rgangan; ularning modellarida relyef va iqlim omillari hisobga olingan, ammo hech qanday mashina o‘rganish metodi ishlatilmagan[11]. Yaqinda Madiyarova va boshq. (2025) Tashkent shahridagi avtomatlashtirilgan monitoring stansiyalaridan olingan PM2.5 ma’lumotlari asosida oddiy regressiya va ansambl modellardan foydalangan (Random Forest va Gradient Boosting) hamda yuqori R^2 qiymatga erishganini ko‘rsatdi[12].

Xalqaro tadqiqotlarda esa, aksincha, ilg‘or sun’iy intellekt texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Wang va Han (2025) fizik va neyron tarmoqlarni birlashtirgan Euler va Lagranj yondoshuvli havo ifloslanishi modelini taklif qilgan[7]. Panda va boshq. (2025) ko‘p manbali ma’lumot va ansambl mashinani o‘rganish usullarini bog‘lab, 90% dan oshiq bashorat aniqligiga erishgan[8]. Rahmani (2024) esa graf konvolyutsion tarmoq va federativ o‘rganishni birlashtirgan spatiotemporal modelini ko‘rib chiqqan, bu mobil sensor ma’lumotlarini maxfiy qolgan holda bashoratlash imkonini beradi[10].

Shunday qilib, Sharipov va boshq. milliy tadqiqotlari oddiy differensial tenglamalarga asoslangan bo‘lsa, xalqaro jamoatchilik ilm-fanida sun’iy intellekt va chuqur o‘rganishga asoslangan gibrid yondashuvlar afzalliklarga ega ekanligini namoyish etdi. Mahalliy va xalqaro yondashuvlar orasidagi asosiy farq shundaki, O‘zbekistonda hali to‘liq AI asosida gibrid modellash keng qo‘llanilmagan, bu sohada katta imkoniyatlar mavjud.

Kelajakdagi ishlanmalar

O‘zbekiston sharoitida havo ifloslanishini 3D modellashtirish va ekologik xavf zonalari tahlili bo‘yicha bir qator yangi yo‘nalishlar mavjud. Avvalo, kuzatuv tarmoqlari kengaytirilishi kerak – shahar bo‘ylab uch o‘lchovli monitoring (nozik zarralar, gazlar) uchun avtonom kuzatuv stansiyalari sonini oshirish va sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlaridan keng foydalanish zarur. Chang bo‘ronlari kabi mahalliy iqlim hodisalarini hisobga olish uchun tarixiy iqlim ma’lumotlarini modeliarn kompleksiga singdirish talab etiladi.

Metodologik jihatdan, O‘zbekistonga moslangan fizikaga asoslangan neyron tarmoqlari (PINN) va graf signal ishlov berish usullarini ishlab chiqish muhimdir. Masalan, reaktiv quvvat taqsimoti o‘rnatilgan yuzalar uchun gibrid modellarda graf neyron tarmoqlaridan foydalanish, shuningdek mobil qurilmalardan kelayotgan ma’lumotlarni mahalliy sir saqlagan holda integratsiya etish yo‘nalishida federativ o‘rganishni kuchaytirish lozim. Shuningdek, chiqindilar (masalan, neft zavodlari, kimyo korxonalari) harakteristikasini aniqroq hisobga olish uchun yangi parametrlarni – masalan, bo‘rondan chiqadigan changning kimyoviy tarkibi – joriy etish tavsiya etiladi.

Siyosiy va ijtimoiy jihatdan, natijalarni real-vaziyatga tatbiq etish uchun “raqamli egizak” (digital twin) shahar tizimlarini yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu orqali turli senariylarni simulyatsiya qilib, qaysi hududlar tez-tez ifloslanishini aniqlash va aholiga erta ogohlantirish berish mumkin. Eng oxiri, yuqori aniqlikdagi 3D modellar va ekologik xavf xaritalarini rasmiylar va jamoatchilikka taqdim etish uchun samarali vizualizatsiya va qaror qabul qilish platformalari ishlab chiqilishi zarur.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda 3D modellashtirish va AI–ML yondashuvlarini qo‘llagan holda O‘zbekistondagi havo ifloslanishini va ekologik xavf zonalarini baholash imkoniyatlari tahlil qilindi. Kirish qismida O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan atrof-muhitni muhofaza qilish va atmosferani ifloslanishiga qarshi qaratilgan bir qator qonunlar va qarorlar ko‘rib chiqildi. Adabiyotlar sharhidan ma’lum bo‘ladiki, xalqaro tadqiqotlarda sun’iy intellektning turli tarkibiy qismlari – chuqur neyron tarmoqlari, graf neyron tarmoqlari va ansambl metodlar kabi – havo sifatini bashorat qilish va monitoring qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bizning yondashuvimiz yuqoridagi ilg‘or metodlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishga qaratilgan.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar orasidagi asosiy farq shundaki, O‘zbekistonda hali to‘liq AI asosida gibrid modellar keng joriy etilmagan, yangi innovatsion tadqiqotlar uchun imkoniyatlar mavjud.

Natijada taklif etilgan gibrid AI–ML model an’anaviy fizik modellar bilan mashinani o‘rganish algoritmlarini birlashtirib, yuqori aniqlikda havo ifloslanishini bashorat qilish va 3D atlasingi tuzishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali aylanayotgan havo zarralarining konsentratsiyasi bo‘yicha xaritalar olinib, milliy standartdan oshgan hududlar aniqlanishi mumkin. Bu milliy sog‘liq va ekologiya sohasi uchun zarur bo‘lgan aniqlikdagi ma’lumotlarni beradi. Xulosa qilib aytganda, fizika asosidagi simulyatsiyalar va sun’iy intellektni birlashtirish O‘zbekiston sharoitida havo sifati va ekologik xavf zonalarini yanada aniqlik bilan oldindan aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2019 yildagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son farmoni. https://lex.uz/docs/-4574008
2. https://www.gov.uz/en/activity_page/environment
3. https://kun.uz/en/news/2024/02/08/uzbekistan-introduces-regulations-to-limit-operations-of-enterprises-polluting-the-air#!
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.09.2024 yildagi “Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-338-son qarori https://lex.uz/uz/docs/-7112414
5. Liability for air pollution during construction has been introduced https://gov.uz/en/eco/news/view/38798
6. Air Quality Assessment for Tashkent and the Roadmap for Air Quality Management Improvement in Uzbekistan https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/air-quality-assessment-for-tashkent
7. Deep learning for 3D reconstruction and trajectory prediction of dust and polluted aerosols in educational environments https://www.frontiersin.org/journals/environmental-science/articles/10.3389/fenvs.2025.1582806/full
8. Subramaniam, S., Raju, N., Ganesan, A., Rajavel, N., Chenniappan, M., Prakash, C., Pramanik, A., Basak, A. K., & Dixit, S. (2022). Artificial Intelligence Technologies for Forecasting Air Pollution and Human Health: A Narrative Review. Sustainability, 14(16), 9951. https://doi.org/10.3390/su14169951
9. Yasmin, F., Hassan, M.M., Hasan, M. et al. AQIPred: A Hybrid Model for High Precision Time Specific Forecasting of Air Quality Index with Cluster Analysis. Hum-Cent Intell Syst 3, 275–295 (2023). https://doi.org/10.1007/s44230-023-00039-x
10. Maryam Rahmani. Next-Generation Air Pollution Forecasting: Integrating AI, Spatiotemporal Dynamics, and Privacy-Ensuring Approaches for Urban Areas. Computer Science[cs]. Université de Lille, 2024. English. ⟨NNT : ⟩. ⟨tel-04851216⟩
11. Computer Modeling of Aerosol Emissions Spread in the Atmosphere Daler Sharipov, Sharofiddin Aynakulov and Otabek Khafizov. https://doi.org/10.1051/e3sconf/20199705023

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

12. Madiyarova, U.; Erkinov, J.; Rachid, B.M. Particulate Matter (PM2.5) Prediction in Tashkent Using Machine Learning, in Proceedings of the 7th International Electronic Conference on Atmospheric Sciences, 4–6 June 2025, MDPI: Basel, Switzerland.

13. Panda, Ashok & Pradhan, Sonali & Pati, Chinmayee & Rath, Naba & Baral, Deepak. (2025). AI-Based Predictive Modeling For Air Quality Assessment And Environmental Risk Forecasting In Urban Ecosystems. International Journal of Environmental Sciences. 11. 163-171. 10.64252/n5gynb06.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA EKOLOGIK TOZA ISHLAB CHIQARISH TIZIMLARINI JORIY ETISH

Muallif: Pirmamatov Og’abek [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti ish yurituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17587165

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda qishloq xo‘jaligida ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishning zarurligi va afzalliklari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor barqaror rivojlanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda kimyoviy vositalarsiz sog‘lom mahsulot yetishtirishga qaratilgan. Tadqiqotda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi ham asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik toza ishlab chiqarish, barqaror rivojlanish, qishloq xo‘jaligi, organik dehqonchilik, resurslardan oqilona foydalanish.

KIRISH

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida ekologik muammolar keskin oshmoqda. Tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining ifloslanishi, kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlarning haddan tashqari qo‘llanilishi natijasida biologik xilma-xillik kamaymoqda. Shu bilan birga, aholining sog‘lom va xavfsiz oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Bular ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishni dolzarb vazifa sifatida ko‘rsatmoqda.

Ekologik toza ishlab chiqarish barqaror rivojlanish prinsiplariga asoslanadi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Organik dehqonchilik, biologik pestitsidlar, tabiiy o‘g‘itlar va suvni tejovchi sug‘orish tizimlari orqali hosildorlikni kamaytirmasdan, atrof muhitni muhofaza qilish mumkin. Bu yondashuv nafaqat ekologik xavfsizlikni oshiradi, balki fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini ham ta’minlaydi.

Shu bilan birga, ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar va fermerlarning innovatsion yondashuvlari birgalikda qishloq xo‘jaligida barqaror va ekologik xavfsiz ishlab chiqarish tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ekologik toza tizimlarga o‘tishning zaruriyati ortib bormoqda. An’anaviy dehqonchilikda kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlar keng qo‘llaniladi, bu esa tuproq strukturasini buzadi, biologik xilma-xillikni kamaytiradi va suv resurslarini ifloslantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning iqlim sharoiti va yer resurslari ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Masalan, yer osti suvlarining

mavjudligi va quyosh energiyasining yuqori darajasi tomchilatib sug‘orish va boshqa energiya tejamkor texnologiyalarni samarali tatbiq etishga imkon beradi. Shu bilan birga, tuproq turiga qarab organik o‘g‘itlar va biologik himoya vositalarini qo‘llash orqali hosildorlikni oshirish mumkin.

Organik dehqonchilik va biologik himoya vositalarini qo‘llash qishloq xo‘jaligida ekologik toza tizimning markaziy komponenti hisoblanadi. Organik o‘g‘itlar tuproq unumdorligini oshiradi, mikroflorani rag‘batlantiradi va kimyoviy moddalarning to‘planishini kamaytiradi. Biologik himoya vositalari esa pestitsidlar o‘rnini bosadi va zararkunandalarga qarshi tabiiy kurashni ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, organik dehqonchilik texnologiyalarini qo‘llash orqali hosildorlikni minimal darajada kamaytirish bilan birga, sifatli va xavfsiz mahsulot olish mumkin. Shu bilan birga, organik mahsulotlar bozorida talabning oshishi fermerlar uchun iqtisodiy motivatsiyani kuchaytiradi, bu esa ekologik barqaror ishlab chiqarishni yanada rag‘batlantiradi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish ekologik toza ishlab chiqarish tizimining muhim omilidir. O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi an’anaviy sug‘orish usullariga nisbatan suvni 30-50% ga tejash imkonini beradi, tuproqdagi namlik darajasini optimal holatda ushlab turadi va suv bilan bog‘liq ifloslanish xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, suvni qayta ishlash va yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari qishloq xo‘jaligida ekologik barqarorlikni oshiradi. Shu tarzda suv resurslarini samarali boshqarish nafaqat hosildorlikni ta’minlaydi, balki ekologik muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Texnologik innovatsiyalar va ilg‘or ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish ham ekologik toza qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Masalan, o‘simliklarni himoya qilishda biologik insektitsidlar, agrotexnologik monitoring tizimlari va dronlar yordamida zararkunandalarni aniqlash orqali pestitsidlar miqdorini kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, energiya samarador texnologiyalarni qo‘llash (quyosh panellari, bioenergetik manbalar) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va CO2 chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, texnologik yangiliklarni qo‘llash fermerlar uchun uzoq muddatda iqtisodiy foyda va ekologik barqarorlikni bir vaqtda ta’minlaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ekologik toza ishlab chiqarish tizimini joriy etishning ijtimoiy va iqtisodiy samarasi ham mavjud. Fermerlar organik mahsulot ishlab chiqarish orqali qo‘shimcha daromad manbalariga ega bo‘lishi mumkin, bu esa qishloq aholisi daromadining barqaror oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sog‘lom oziq-ovqat yetishtirish orqali aholining salomatligini yaxshilash mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ekologik toza qishloq xo‘jaligi tizimlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, masalan, subsidiyalar, sertifikatlash tizimi va ekologik monitoring orqali rag‘batlantirish samaradorlikni yanada oshiradi. Umuman olganda, ekologik toza ishlab chiqarish tizimlari barqaror rivojlanish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy foydani birlashtiradi.

XULOSA

Qishloq xo‘jaligida ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish mamlakatning ekologik barqarorligini ta’minlash va oziq-ovqat xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, organik dehqonchilik, tabiiy o‘g‘itlar va biologik himoya vositalarini qo‘llash nafaqat tuproq unumdorligini saqlab qolishga, balki suv resurslarini tejash va atrof-muhitni

ifloslanishdan himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ekologik toza mahsulotlar iste'molchilar salomatligini yaxshilash va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Bu jarayon, ayniqsa, kichik va o'rta fermer xo'jaliklari uchun uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi va ekologik ongni oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish orqali mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasini ilgari surish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilash va ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Shu bois, ekologik toza texnologiyalarni keng tatbiq etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va fermerlar bilan amaliy hamkorlikni kuchaytirish muhimdir. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Takliflar:

- ✓ Ekologik toza ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi davlat dasturlari va subsidiya mexanizmlarini kengaytirish;
- ✓ Fermerlar va agronomlar uchun ekologik dehqonchilik bo'yicha o'quv kurslari va amaliy seminarlar tashkil etish;
- ✓ Sertifikatlangan organik mahsulotlar eksportini qo'llab-quvvatlash va bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- ✓ Ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yangi ekologik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish;
- ✓ Ekologik monitoring tizimini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilsa, qishloq xo'jaligi sohasida barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va sifatli mahsulotlar yetishtirishning samarali mexanizmi shakllanadi, bu esa uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy foyda beradi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekmurod o'g'li, A. N., & G'ayratovich, I. G. A. (2025). Qishloq xo'jaligida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llari. Masters, 3(30), 17-24.
2. Ergasheva, H. B., & Elmurodova, A. S. (2025). Ekologik toza oziq-ovqat ishlab chiqarishda sertifikatlash tizimlari: muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Modern education and development, 27(4), 152-160.
3. Jahongir o'g, T. X. J. (2025). Yashil iqtisodiyot: barqaror rivojlanishda ekologik yondashuvning o'rni. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g 'oyalar, 1(1), 483-487.
4. Habibjonov, U. (2025). Segmentatsiyaning mohiyati va maqsadi. Nordic_Press, 7(0007).
5. Habibjonov, U. (2025). Rejalashtirib sotish jarayonining umumiy tavsifi. Nordic_Press, 7(0007).
6. Obidovich, Z. S. (2025). Qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan subsidiyalar. Лучшие интеллектуальные исследования, 37(3), 202-213.
7. Shukrillayevna, N. S., & Xayrullo o'gli, F. S. (2025). Qishloq xo'jaligida favqulodda ekologik vaziyatlar (yong 'inlar, zaharlanish, suv toshqinlari) xavfini baholash va boshqarish. Лучшие интеллектуальные исследования, 44(3), 129-136.

SAMARKAND VILOYAT XUDUDIDAN OQIB O’TAYOTGAN QORADARYO SUVINI KAM HAJIMLI MIQDORDA EKOLOGIK ZARARLARSIZ ELEKTROKIMYOVIY USULDA TOZALASH JARAYONINI KIMYOVIY VA STATISTIK TAHLILI

Mualliflar: Khalilov N. [1], Mardonov M. Sh. [2], Khikmatov Kh. [3]
Affiliyatsiya: Associate Professor, Department of Accounting and Statistics, Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics [1], Head of the Department of Accounting and Statistics, Associate Professor, Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics [2], Associate Professor, Department of Accounting and Statistics, Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics [3]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17587292

ANNOTATSIYA

Qoradaryo havzasi yuzaki suv havzasini elektrokimyoviy tozalash va suvni elektrokoagulyatsiya yo‘li bilan tozalash jarayonlarida aralashtirish va flokulyatsiya jarayonlari tahlil qilindi. Tabiiy suvlarni elektrokimyoviy tozalash hamda loyqa suvlarni elektrokoagulyatsion tozalashda aralashtirish va flokulyatsiya jarayonlarining ahamiyati nazariy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qoradaryo daryosi suvlarini elektrokimyoviy tozalash tizimini ishlab chiqish hamda suvni elektrokimyoviy tozalash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni joriy etishda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, suv ta’minoti tizimida samarali va ilg‘or suv tozalash texnologiyalaridan foydalanish orqali aholi punktlarining suv bilan ta’minlanish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Daryo, nasos, elektrokoagulyator, o’lchov sig’imi, labaratorya qurilmasi, plastinkalar, alyumin list, polietilin styajka, elektrodlar, momiq, filtr.

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab ayniqsa ekologiyaning sezilarli darajada o’zgarishi suv tanqisligi holatini kuchayishiga olib kelayotgani xalq xo’jaligining barcha sohalarida yaqqol yuzaga chiqa boshladi, jumladan, shahar qurilishi va arxitektura yo’nalishlari, xizmat ko’rsatish sohalarida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining barcha sohani takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari shahar va qishloqlarning qiyofasini tubdan yangilashga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, suv ta’minoti va kanalizasiya tizimlarini zamonaviylashtirish aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash hamda yomonlashib borayotgan ekologik holatni sog’lomlashtirish, tabiiiy suvdan tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu amalga oshirilayotgan va kutilayotgan ishlar mamlakatimizdagi hayot sifati va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuni dolzarbligi. Axoli punktlarini suv ta’minoti tizimlarini loyixalashda suv manbasi sifatida yer osti suvlaridan foydalanish maqsadga muvofikligini bilamiz,

chunki yer osti suvlarining sifat ko'rsatkichlari ko'pchilik xollarda ichimlik suviga ko'yiladigan davlat standarti (DaST 950:2000) talabiga javob beradi. Ammo keyingi vaqtlarda quruq cho'l rayonlarini kompleks o'zlashtirish, ekinlarga kimyoviy ishlov berish va sanoatning jadal suratda o'sishi natijasida tabiiy suv manbalarining ifloslanish darajasi to'xtovsiz oshib bormokda. Bu holat mamlakatda suv tanqisligi, ekologiyaning buzilishiga sabab bo'lmoqda, lekin shunga qaramasdan ko'pchilik axoli punktlarida axolini sifatli ichimlik suviga ko'yiladigan davlat standarti (DaST 950:2000) talabidan ancha fark qiladigan suv bilan ta'minlash davom etib kelmokda.

Shuning uchun xam ekologiyani boricha saqlab qolish, suv zaxirasidan optimal foydalanish maqsadida aholi punktlari suv ta'minoti tizimiga samarali va ilg'or suv tozalash texnologiyalarini ko'llash evaziga suv bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash bugungi kunda suv ta'minoti soxasida eng dolzarb mavzu bo'lib hisoblanadi.

Maqoladigi ilmiy tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyati xududidan oqib o'tadigan Qoradaryo yer ustki suv xavzasi qabul qilindi. Qoradaryo suvini tozalash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishda birinchi navbatda suv manbasi va ekologiyasi xolati o'rganildi va Qoradaryo Zarafshon daryosining tarkibiy qismiga kirganligi sababli Zarafshon daryosi basseyni qisqacha taxlil qilindi. Maqolani shakillantirishda tadqiqot predmeti sifatida Qoradaryo suvlarini elektrokimyoviy usulda tozalash jarayoni qabul qilindi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Qoradaryo suvlarini har xil hajimda tozalashning elektrokimyoviy usuli tizimini ishlab chiqish orqali mavjud ekologik ko'rsatgichga ta'sir qilmasdan yer ustki suvlarini tozalash jarayonini yanada yaxshilash maqsad qilib olingan. Qoradaryo suvlaridan barcha maqsadlarda foydalanishni yo'lga qo'yish, maqolani bajarilishi jarayolari uchun hamda qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni (vazifalarni) ko'rib chiqish talab qilinadi:

- Qoradaryo yer ustki suv xavzasining tarkibini o'rganish, daryo suvining sifat ko'rinishini optimal satkichlari va ifloslanish darajasini taxlil qilish;
- loyqa suvlarni tozalash tizimlarini o'rganish;
- loyqa suvlarni elektrokimyoviy usulda tozalash nazariyasi bo'yicha ma'lumotlar yig'ish;
- loyqa suvlarni elektrokoagulyasiya yo'li bilan tozalashda aralashtirish va momiq hosil qilish jarayonining axamiyatini o'rganish;
- loyqa suvlarni elektrokimyoviy usulda tozalash bo'yicha eksperiment tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini tahlil qilish;
- Qoradaryo suvlarini elektrokimyoviy usulda tozalash bo'yicha taklif va tavsiyalar kiritish;
- suvlarni elektrokimyoviy usulda tozalash jarayonini yaxshilash bo'yicha taklif va muloxazalar yuritish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotning asosiy masalalariga quyidagilar kiradi: Mavjud ko'rsatgichdagi ekogini saqlab qolish, Qoradaryo suvining fiziko-kimyoviy ko'rsatkichlari va ifloslanish darajasini o'rganish, loyqa suvlarni tozalash tizimlarini tahlil qilish, loyqa suvlarni elektrokimyoviy usulda tozalash nazariyasini va suvlarni elektrokoagulyasiya yo'li bilan tozalashda aralashtirish va momiq hosil qilish jarayoni axamiyatini o'rganish, loyqa suvlarni elektrokimyoviy usulda tozalash jarayonini eksperiment tadqiqotlar o'tkazish natijasida o'rganish, suvlarni elektrokimyoviy usulda tozalash bo'yicha tavsiyalar kiritish.

Loyqa suvlarni tozalash usullari va suvlarni elektrokoagulyasiya yo'li bilan tozalashda aralashtirish va momiq hosil qilish jarayoniga bag'ishlangan ilmiy texnik adabiyotlarning qisqacha taxlili shuni ko'rsatdiki bunday suvlarni tozalashda ikki bosqichli tindirish va filtrlash usullari keng qo'llaniladi. Suvlarni tindirishda vertikal, gorizontal, radial va yupqa qatlamli suv tindirgichlar ishlatiladi.

Ilmiy texnik adabiyotlar va ishlanmalar taxlili shuni ko'rsatadiki, tabiiy suvlarni tozalashda elektrokoagulyasiya usulidan foydalanish boshqa usullarga nisbatan ancha yuqori samara beradi. Bu usulning kimyoviy koagulyasiyaga nisbatan afzalligi: reagent xo'jaligining yo'qligi, qurilma ishini tashkil qilishning osonligi xamda elektrokimyoviy jarayonni avtomatlashtirish mumkinligidadir. Undan tashqari mazkur usulda tozalanayotgan suvdagi zararli va zaxarli moddalar oksidlanadi, suvning qattiqligi pasayadi va zararsizlantiriladi.

Suvlarni ikki pog'anali texnologik tasvir bo'yicha tozalashda koagulyasiyaning qaysi bir usulini (kimyoviy, elektrokimyoviy) qo'llashdan kat'iy nazar koagulyasiya jarayonini jadallashtirishning ikkinchi bo'g'ini (momiq hosil qilish) suvni tozalashda birinchi darajali rol o'ynaydi. Koagulyasiya jarayonini jadallashtirishning ikkinchi bo'g'ini xisoblanmish momiq hosil qilish jarayoni samarasi tezlik gradiyenti va aralashtirish davomiyligiga bevosita bog'liq.

Tadqiqotda ko'llaniladigan uslublarning qisqacha tavsifi. Qoradaryo suvlarini elektrokimyoviy usulda tozalash usullarini taxlil qilishda mazkur soxaga tegishli o'quv va ilmiy texnik adabiyotlar, bajarilayotgan maqola maqsadi o'rganiladi va taxlil qilinadi. Qoradaryo yer ustki suv xavzasining tarkibini o'rganish hamda daryo suvining sifat ko'rsatkichlari va ifloslanish darajasini tahlil qilish bevosita mazkur manbaga tegishli loyixalar, me'yoriy-texnik xujjatlar va xisobotlarni taxlil qilish asosida bajariladi. Loyka suvlarni elektrokimyoviy usulda tozalash bo'yicha eksperiment tadkikotlar o'tkazish laboratoriya qurilmasida olib boriladi. Tajriba o'tkazishda modul suv Oqqoradaryo suv bo'lg'ich inshooti cho'kmasidan aralashtirilib tayyorlanadi. Suv tarkibidagi mineral moddalar dispersligi tindirish uslubi orqali granulometrik chizikli grafik asosida aniqlanadi. Tajriba o'tkazishda suvning talab etilgan sifat ko'rsatkichlari va konsentrasiyasini aniqlash analiz o'tkazish tartibiga asosan tegishli qonun va qoidalari bo'yicha olib boriladi.

Bugungi kunda raqamlashtirilgan ma’lumotlar hajmining ortishi, inson faoliyatining avtomatlashtirilishi va robotlashtirilishi, axborot uzatishning virtual makonidan foydalanish korxonalar va milliy iqtisodiyot tarmoqlarining xo‘jalik faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonini keltirib chiqarmoqda. Ushbu tarmoqlar orasida eng muhim o‘rin neft va gaz majmuasiga tegishlidir.

Global raqobat sharoitida korxonalar, tarmoqlar va umuman davlat miqyosida raqamli transformatsiyani amalga oshirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va aholining raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi [1].

Ushbu strategiyani amalga oshirish jarayonida axborot infratuzilmasini yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, raqamli kadrlarni tayyorlash hamda raqamli muhitning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish nazarda tutilgan.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu davlat budjetiga valyuta va soliq tushumlarining 40 foizidan ortig‘ini ta’minlaydigan, mamlakatning uzoq muddatli energetik va iqtisodiy xavfsizligini kafolatlaydigan neft va gaz tarmog‘idir.

Shu munosabat bilan yoqilg‘i-energetika majmuasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha mahalliy va xorijiy tajribalar tahlil qilindi hamda ularning hozirgi

bosqichdagi rivojlanishining dolzarb tendensiyalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZU OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugunga qadar mazkur sohada qator ilmiy soha vakillari tomonidan neft va gaz kompleksini raqamli transformatsiya qilish, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va robotizatsiya bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.V. Filatov tomonidan neft va gaz quduqlarini raqamli nazorat qilish va avtomatlashtirish jarayonlari ko‘rib chiqilgan. “Smart wells” va “smart fields” texnologiyalari orqali quduqlardan ma'lumot to‘plash, tahlil qilish va quduq faoliyatini avtomatik boshqarish imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif fikriga ko‘ra, raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlaydi [2].

M.Lacity, L.Willcockslar RPA texnologiyalari va sun'iy intellekt ishlab chiqarish va ma'muriy jarayonlarda qo‘llanishi haqida tadqiqot olib borishgan. Har qanday qaytalanuvchi va rutina vazifalar robotlar va dasturiy botlar orqali avtomatlashtirilishi mumkinligi ta'kidlangan [3].

J.Smith tadqiqotlarida “Smart wells” va “smart fields” texnologiyalari orqali quduq faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Bionik quduqlar orqali noyob, murakkab plastlarni ham samarali ishlatish mumkinligi ta'kidlangan. Quduqlarni raqamli boshqarish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini 20 %gacha kamaytirish va neft chiqarish samaradorligini oshirish asoslangan [4].

Yana bir tadqiqotda neft va gaz sohasida raqamli texnologiyalarni joriy qilish milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Raqamli transformatsiya, katta ma'lumotlar, Buyumlar interneti, sun’iy intellekt, blokcheyn, virtual va kengaytirilhan reallik texnologiyalari orqali amalga oshirilishi ta’kidlangan [5].

Olib borilgan adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, neft va gaz sohasida raqamli transformatsiya va intellektual texnologiyalarning joriy qilinishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki sohada iqtisodiy, ekologik va texnik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlildan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida neft va gaz sohasini raqamli transformatsiyalash jarayonida samaradorlikni oshirish va resurslarni tejash usullarini aniqlash belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar manbalari o‘rganilib, raqamli texnologiyalar va intellektual quduqlar samaradorligi tahlil qilindi. Smart wells va smart fields konsepsiyalari asosida ishlab chiqarish jarayonlari o‘rganilib, RPA va sun'iy intellekt texnologiyalari qo‘llanilishi natijasida mehnat xarajatlari va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish jarayoni asoslandi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarning mahalliy shart-sharoitlarga moslashuvi ham tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar


Raqamli transformatsiya yoqilg‘i-energetika kompleksi neft va gaz kompleksining yangi rivojlanish paradigmasini nazarda tutadi. Bu esa, ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarida kam odamli, kelajakda esa butunlay odam

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ishtirokisiz texnologiyalarga o‘tishni, ya’ni raqamlashtirish va ish jarayonlarini, ayniqsa xavfli zonalarda robotlashtirishniko‘zda tutadi.

Hozirda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo‘llanilayotgan asosiy raqamli texnologiyalar quyidagilardir:

- katta ma’lumotlar;
- neyrotexnologiyalar va sun’iy intellekt;
- taqsimlangan reyestr tizimlari;
- kvant texnologiyalari, sanoat interneti;
- robototexnika komponentlari va sensorika;
- simsiz aloqa texnologiyalari;
- virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari.



1-rasm. Raqamli texnologiyalar tarmoqlari[1]

Ushbu texnologiyalarning ba’zilaridan foydalanish neft va gaz sohasida “aqlli quduqlar”, “aqlli suyuqlik haydash tizimlari”, “bionik quduqlar”, “raqamli konlar”, “aqlli mobil xodimlar” hamda odam ishtirokisiz ishlovchi suv osti qazib olish majmualarini yaratish imkonini beradi.


Aqlli quduq texnologiyasi bu neft va gaz qazib olish jarayonlari hamda qatlam xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, uzatish va tahlil qilishga mo‘ljallangan komponentlar majmuasidir. Shuningdek, u quduq devorining ayrim qismlarida uglevodorod oqimini boshqarish imkonini beradi, bu esa, qazib olishni optimallashtirishga xizmat qiladi. Aqlli quduqlarning turlaridan biri bionik quduq bo‘lib, uning o‘ziga xos jihati qatlamning maksimal drenaj qamrovini ta’minlashidir, ya’ni murakkab karbonat va terrigen qatlamlarni to‘liqroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

Aqlli quduq texnologiyalarini joriy etish natijasida konlarni ekspluatatsiya qilish xarajatlari 20 %gacha kamayadi, bu esa kompaniya raqobatbardoshligini neft narxining pasayish sharoitida ham oshirish imkonini beradi.

[1] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, raqamli va intellektual texnologiyalardan foydalanish 2000-yillarning boshlarida boshlangan. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 50 mingdan ortiq raqamli quduqlar mavjud bo‘lib, shulardan taxminan 2 mingtasi Rossiya Federatsiyasida joylashgan.

Aqlli kon texnologiyasi esa turli datchiklar, sensorlar, mobil qurilmalar, dronlar va robotlarni yagona tizimga birlashtiradi hamda uglevodorod qazib olish jarayonini real vaqt rejimida dispetcherlik markazidan boshqarish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Aqlli kon texnologiyasi va avtomatlashtirish[2]

Shuni ta’kidlash kerakki, aqlli quduq komponentlari va aqlli kon elementlari har bir konning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab farq qiladi. Shu sababli har bir neft va gaz kompaniyasi o‘z konining parametrlariga mos raqamli texnologiyalarni tanlaydi.

“Robotic Process Automation” (RPA) texnologiyasi inson mehnatining bir qismini robotlar yordamida almashtirish imkonini beradi. Amalda operator sichqoncha va klaviatura yordamida kompyuter ekranida bajaradigan deyarli har qanday vazifa RPA texnologiyasini qo‘llash sohasi bo‘lishi mumkin. Har qanday takrorlanadigan, oddiy jarayonlarni maxsus dasturiy ta’minot yordamida avtomatlashtirish mumkin. Bunday botlar inson operatorlari singari topshiriqlarni bajaradi, ya’ni ular ham xuddi shu foydalanuvchi interfeyslaridan foydalanadi.

Odam ishtirokisiz uglevodorod qazib olish texnologiyasi konning raqamli egizagini yaratish va uni masofadan boshqarish tizimini o‘z ichiga oladi. Sun’iy intellekt va robototexnika vositalaridan foydalanish hisobiga bunday texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish, odam ishtirokisiz boshqaruvga o‘tish hamda operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, raqamli va intellektual texnologiyalarni joriy etish konlarni ekspluatatsiya qilish samaradorligini oshiradi va mehnat xarajatlarini optimallashtiradi. Neft va gaz kompleksining raqamlashtirilishi ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish va qazib olinadigan uglevodorod zaxiralarining ulushini oshirish imkonini beradi. Masalan, raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida neft qazib olish koeffitsiyenti 50 %gacha oshadi, bu esa butun dunyo bo‘yicha o‘rtacha 30 % ko‘rsatkichdan ancha yuqori.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, raqamli va robotlashtirilgan texnologiyalar asosidagi yangi sanoat tizimini shakllantirish neft va

[2] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

gaz kompleksidagi kompaniyalardan raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni va boshqaruv tafakkurini qayta yuklashni talab etadi. Shu bilan birga, sohaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri quduq sensor tizimlarini yaratish va odam ishtirokisiz texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi.

XULOSA

Neft va gaz sanoatini raqamli transformatsiya qilish sohaning samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xavfsizlik darajasini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, xususan, RPA) sun‘iy intellekt va raqamli egizak tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday yechimlar orqali qazib olish tannarxini 10–15 foizga kamaytirish, energiya sarfini kamaytirish va inson omiliga bog‘liq xatolarni bartaraf etadi.

Shuningdek, yetakchi kompaniyalar real vaqt rejimida aqlli konlarni boshqarish tizimini joriy etgan bo‘lsa-da, bu jarayon mamlakatimizda milliy darajada endi shakllanmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston neft va gaz tarmog‘ida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, malakali raqamli kadrlar tayyorlash va investitsion mexanizmlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, neft va gaz sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–6079-son farmoni.
2. Филатов А.В., “Digital transformation in oil and gas industry”, Energy Economics Journal, 2020.
3. Lacity M., Willcocks L., Robotic Process Automation and Artificial Intelligence in Industry, 2018.
4. Smith J., “Smart Fields in Oil and Gas: Optimization and Efficiency”, Journal of Petroleum Technology, 2019.
5. Rossiya, Ministry of Energy, Digital Economy and Energy Sector Transformation, 2021.

KO‘P OMILLI STATISTIK MODELLAR YORDAMIDA O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDO KO‘RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH

Muallif: Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi [1]
Affiliyatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo’mitasi kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17587929

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali tashqi savdo jarayonlarini chuqurroq o‘rganish, resurslardan samarali foydalanish va savdo siyosatini takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston tashqi savdo ko‘rsatkichlarini sun’iy intellektning nazoratsiz o‘rganish yondashuvlari asosida tahlil etish, ularning determinantlarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosat tavsiyalarini ishlab chiqish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, asosiy komponentlar tahlili, nazoratsiz mashinani o’rganish, k-means klasterlash, ierarxaik klasterlash.

KIRISH

Sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyoti uchun yangi davrni boshlab berdi va bu xalqaro savdo dinamikasiga ta'siri sezilarli ravishda oshdi.. Robototexnika, kompyuterni ko‘rish, mashinani o‘rganish, avtonom tizimlar va yirik til modellarini qamrab oluvchi sohalardagi sun’iy intellekt tizimlari ishlab chiqarish jarayonlari va ta’minot zanjirlariga tobora ko‘proq integratsiyalashib bormoqda va ularning savdo oqimlariga ta’sir ko‘rsatish salohiyatiga katta e’tibor qaratilmoqda [1]. Hisob-kitoblar shuni ko’rsatadiki, 2040 yilga kelib global savdo hajmining o'sishi sun'iy intellektni qo'llashning intensivligi va kengligi va global miqyosda hosildorlikning o'sish darajasiga qarab 7-14 foizga oshishi mumkin [2].

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi global sanoat tuzilmasiga chuqur ta’sir ko‘rsatib, ayniqsa tashqi savdo sohasida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar va korxonalar murakkab global bozor sharoitida faoliyat yuritar ekan, AI texnologiyalari savdo jarayonlarini optimallashtirish, yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda savdoni moliyalashtirish mexanizmlarini soddalashtirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur tadqiqot sun’iy intellektning xalqaro savdo tizimini qayta shakllantirishdagi o‘rni va ta’sirini har tomonlama tahlil qilish, uning savdo dinamikasiga olib kirayotgan innovatsion o‘zgarishlarini aniqlash hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar va istiqbolli imkoniyatlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan [3]. Globallashuv jarayonida iqtisodiyotda shakllanayotgan ma’lumotlarning hajmi va murakkabligi ortib borayotgani tashqi savdo ko‘rsatkichlarini samarali tahlil qilish uchun ilg‘or analitik yondashuvlarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltirmoqda, va bu esa ko‘p o‘lchovli statistik ma’lumotlarni chuqur tahlil etishda sun’iy intellekt (AI) va

mashinaviy o‘rganish metodlari asosida Asosiy komponentlar tahlili (Principal Component Analysis – PCA) ma’lumotlar tarkibidagi yashirin tuzilmani aniqlash hamda, eng muhim omillarni ajratib ko‘rsatishda samarali vosita hisoblanadi.

Asosiy komponentlar tahlili (PCA) - katta ma'lumotlar to'plami mavjud bo'lganda o'lchamlar sonini kamaytiradigan usul; Shu maqsadda u korrelyatsiya qilingan o'zgaruvchilarni asosiy komponentlar deb ataladigan yangi, kichikroq to'plamga aylantiradi [4]. Bu ko'p o'lchovli tadqiqotlarda ma'lumotlarni sharhlash va vizualizatsiya qilishni osonlashtiradi, chunki eng muhim o'zgaruvchanlikni yo'qotmasdan, asl ma'lumotni siqib chiqarish mumkin [5,6].

Asosiy komponentlar tahlili (PCA) ikki tomonlama tabiati tufayli mashinani o'rganishda muhim usuldir. PCA ma'lumotlar to'plamining o'lchamlarini pasaytiradi, eng muhim ma'lumotlarni kodlaydigan o'lchamlarni olib tashlaydi. O'lchamlar sonini kamaytirish orqali ma'lumotlar kamroq joydan foydalanadi, bu esa kamroq vaqt ichida kattaroq ma'lumotlar to'plamlarida tasniflash imkonini beradi. Bundan tashqari, PCA faqat eng ahamiyatli komponentlarni saqlab qolgan holda ma’lumotlarni eng informativ o‘lchamlar bo‘ylab proyeksiya qiladi, natijada ma’lumotlar to‘plamidagi yashirin naqshlar va munosabatlar aniqroq ko‘rinish oladi [7].

Ushbu tadqiqot uchun mamlakatlarning iqtisodiyoti, suniy intellekt va raqamli texnologiyalar kabi sohalardagi rivojlanishini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar tanlangan. Ushbu tahlilda mintaqadagi asosiy omillarni aniqlash, umumiy naqshlar bo'yicha mamlakatlarni guruhlash va klaster tahlil qilish maqsadida asosiy komponentlar tahlili (PCA) orqali ma'lumotlar o'rganildi. Taklif etilayotgan ushbu uslubiy yondashuv natijalarni yaxshiroq vizuallashtirish va talqin qilishga yordam beradi, bir nechta ko'rsatkichlar o'rtasidagi mavjud munosabatlarni ko'rib chiqishda o'xshashliklarni aniqlash tufayli hukumat siyosatini ishlab chiqish uchun mas'ul shaxslar tomonidan qaror qabul qilishni osonlashtiradi [8].

Du-Harpur va boshqalar Sun’iy intellektni inson tafakkurining simulyatsiyasi sifatida talqin qilib, uning yangi ma’lumotlardan o‘rganish va moslashish qobiliyatini ta’kidlaydilar [9]. Bundan tashqari, sun’iy intellekt kontekstga xos qarorlar qabul qilish va mavhum fikrlashda ham qiyinchiliklarga duch keladi — bu esa inson tafakkuri ustun bo‘lgan sohalardir. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot va texnologik rivojlanish ushbu cheklovlarni bartaraf etishga va SI’ning imkoniyatlarini yanada kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, uni tobora murakkab va moslashuvchan tizimga aylantirishga intilmoqda [10].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda ma’lumotlar Milliy Statistika qo’mitasi va Jahon bankining rasmiy manbalaridan olindi. Shuningdek, 2021-2024 yillardagi O‘zbekiston Respublikasining asosiy tashqi savdo hamkorlari — Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya, Koreya, Germaniya, Turkmaniston, Afg‘oniston, Hindiston va Fransiya kabi mamlakatlar bo‘yicha eksport hajmi, import hajmi, PCA ko‘rsatkichlari, savdo balansi hamda, o‘sish sur’atlari kabi indikatorlar tahlil qilindi. Ushbu ko‘rsatkichlar logarifmlandi, shu asosda asosiy komponentlar tahlili (PCA) va klaster tahlili, Stata panelida hisoblandi. Mamlakatlar o‘rtasidagi struktural o‘xshashlik va farqliliklarni aniqlashga qaratilgan ko‘p o‘lchovli statistik tahlil olib borildi.

Sun’iy intellektda mashinali o‘rganish yo‘nalishi kompyuterlarning aniq dasturlashsiz ma’lumotlardan o‘rganishi va qarorlar yoki bashoratlar chiqarish

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

imkonini beruvchi algoritmlarni ishlab chiqishga qaratilgan [16]. Bunday algoritmlar ma'lumotlar orasidagi naqsh va bog'liqliklarni aniqlab, kompyuterga asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Mashinaviy o'rganish uchta asosiy turga bo'linadi: Nazoratli o'rganish (Supervised Learning), nazoratsiz o'rganish (Unsupervised Learning), qisman nazoratli o'rganish (Semi-Supervised Learning). Amaliy real muammolarni hal etishda ko'pincha nazoratsiz yondashuv afzal hisoblanadi. Buning sababi — nazoratli yondashuvda ishlatiladigan o'quv ma'lumotlarini (training data) tayyorlash murakkab bo'lsa-da, nazoratsiz yondashuvda bunday ma'lumotlarga ehtiyoj bo'lmaydi. Asosiy komponentlar tahlili (PCA) yordamida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikdagi farqlarni izohlovchi asosiy omillar aniqlangan, bu esa global raqobatbardoshlik bo'yicha tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan. Ushbu tahlillar sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarida keng qo'llaniladigan unsupervised learning (nazoratsiz o'rganish) usullaridan biridir. PCA va klasterlashning kombinatsiyalangan qo'llanilishi bir nechta muhim afzalliklarni taqdim etadi. Avvalo, u dastlabki ma'lumotlar to'plamidagi ortiqcha yoki yuqori darajada korrelyatsiyalangan o'zgaruvchilarni kamaytirib, tahlilni soddalashtiradi. Shu bilan birga, klasterlash jarayonida shakllangan guruhlar yanada mazmunli va izchil bo'lib, ular oddiy individual tafovutlarga emas, balki chuqurroq strukturaviy farqlilikka asoslanadi.

Eksport-import faoliyatining strategik yo'nalishlarini aniqlash va ularni takomillashtirish uchun, eng avvalo, uning mavjud rivojlanish darajasi va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash zarur hisoblanadi. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari ko'rsatkichlarning ierarxik tizimidan foydalanishni taklif etadi. Bunda eksport-import faoliyatining samaradorligi me'yoriy, rejalashtirilgan yoki optimal qiymatlar bilan taqqoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlariga asoslangan PCA tahlili, indikatorlar o'rtasidagi strukturaviy bog'liqliklarni samarali ravishda ochib berdi. Birinchi ikki komponentning umumiy dispersiyaning 86.2 foizini tashkil etadi va tahlilning ishonchliligini tasdiqlaydi. Savdo balansi, eksport-import muvozanati va nisbiy ustunlik (RCA) tashqi savdo samaradorligining asosiy omillari hisoblanadi.

1-Jadval[1].
O'zbekiston Respublikasining hamkor mamlakatlar bilan savdo aloqalarining asosiy komponentlar tahlili

Principal components/correlation — Number of obs = 10
Number of comp. = 4
Trace = 5
Rotation: (unrotated = principal) — Rho = 1.0000

Component	Eigenvalue	Difference	Proportion	Cumulative
Comp1	2.658	1.006	0.532	0.532
Comp2	1.653	1.077	0.331	0.862
Comp3	0.576	0.463	0.115	0.978
Comp4	0.113	0.113	0.022	1.000
Comp5	0	.	0.000	1.000
Principal components (eigenvectors)				

[1] Muallif tomonidan stata panelida bajarilgan.

Variable	Comp1	Comp2	Comp3	Comp4	Unexplained
ln_Export	0.078	0.724	0.451	-0.033	0
ln_Import	-0.537	0.316	0.281	0.445	0
ln_RCA	0.556	0.301	0.110	-0.434	0
ln_Total_t~h	0.564	0.156	-0.293	0.756	0
ln_Trade_b~e	0.279	-0.511	0.787	0.203	0

1-jadvalda PCA natijasida olingan birinchi to'rtta komponent uchun mos keluvchi qiymatlar keltirilgan. 1- komponentda RCA indeksi 0,056 ga, umumiy savdo hajmi 0,279 ga, import esa salbiy -0,537 ga teng. bu importning kamayishi, savdo ixtisoslashuvi ortishiga va savdoning sifat omillarini aks ettiradi. 2-komponentda export ko'rsatkichi 0,724 ga, savdo balansi -0,511 ga teng. Bu komponent eksport hajmi bilan bog'liq bo'lib, lekin ayni vaqtda savdo balansining manfiy holatiga ham ta'sir qiladi. Eksport hajmi ortsa ham, lekin importda ustunlik holatini aks ettiradi. 3-komponentda savdo balansi 0,787ga teng. Savdo balansining o'zgarishini eng kuchli omil bo'lib, O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari tarkibida savdo balansining asosiy latent omil sifatida ajralib chiqishini ko'rsatadi. Past ixtisoslashuvni ko'rsatadi. 4-komponentga ko'ra, umumiy savdo hajmi 0,756ga RCA esa -0,434 ga teng.Bu resurslar samaradorligi va mahsulot tuzilmasini chuqurroq tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi.

Elbow nuqtasi – optimal komponentlar sonini tanlash mezoni sifatida qaraladi. Chunki undan keyingi komponentlar qo'shimcha izohlanadigan dispersiyani deyarli oshirmaydi. To'rtinchi va beshinchi komponentlarning eigen qiymatlari juda past 0.1 va 0.02 ga teng va bu dispersiyaning minimal ekanini ko'rsatadi. Bunday hollarda ular ko'pincha shovqin (noise) sifatida qabul qilinadi va keyingi tahlillar olinmaydi. Kaiser mezoniga ko'ra, eigenvalue ≥1 bo'lgan komponentlargina asosiy komponent sifatida qabul qilinadi. Bu holda faqat birinchi va ikkinchi komponent ushbu mezonni qanoatlantiradi. Shunday qilib, ushbu tahlil natijalariga ko'ra ikki asosiy komponent tanlab olinishi mumkin. Har bir eigenvalue komponentga mos tushuvchi dispersiya ulushini ko'rsatadi. Birinchi uch komponentning jamiy eigenvalue qiymati taxminan 4.8 atrofida bo'lib, bu umumiy dispersiyaning katta qismini qamrab oladi. To'rtinchi va beshinchi komponentlar esa qo'shimcha ma'no yuklamaydi. Mazkur grafik ma'lumotlarda asosiy o'zgaruvchanlikni izohlovchi dominant struktura mavjudligini ko'rsatadi. Elbow nuqtasiga asoslanib, ikki yoki uchta asosiy komponent tanlanishi ilmiy jihatdan maqbul qaror bo'ladi. Bu keyingi model qurishda o'lchamlarni optimallashtirish va shovqindan holi asosiy faktorlarga e'tiborni qaratish imkonini beradi.

2-Jadval.

PCA (Asosiy komponentlar tahlili) va ierarxik klasterlash (hclust3) natijalari[2]

-> hclust3 = 1

Variable	Obs	Mean	Std.	dev.	Min	Max
PC1	5	-0.108	1.177	-1.748	1.149	
PC2	5	-1.002	0.725	-1.849	0.146	

[2] Muallif tomonidan stata panelida ishlangan.


-> hclust3 = 2

Variable	Obs	Mean	Std.	dev.	Min	Max
PC1	4	-0.802	0.757	-1.904	-0.240	
PC2	4	1.093	0.927	0.309	2.353	

-> hclust3 = 3

Variable	Obs	Mean	Std.	dev.	Min	Max
PC1	1	3.746	.	3.746	3.746	
PC2	1	0.637	.	0.637	0.637	

2 - jadvaldagi tahlil natijalariga ko'ra, 1- klasterda PC1 o'rtacha qiymati -0,108ga, PC2da -1,002 ga o'rtacha kvadratik tafovut esa 1,177 qiymatga teng. Ushbu guruhdagi davlatlar yoki obyektlar **birinchi komponent bo'yicha neytral yoki biroz past,** ammo **ikkinchi komponent bo'yicha ancha sust ko'rsatkichlarga ega. 2- klasterda PC1 -0,802 ga, PC2 o'rtacha qiymat 1,093, o'rtacha kvadratik tafovut 0,927ga teng.** Bu guruh **PC1 bo'yicha past (masalan, umumiy iqtisodiy hajm va eksport miqdori),** lekin **PC2 bo'yicha yuqori natijalarga ega.** Bu davlatlar **bozorlar yoki muayyan eksport tarmoqlari bo'yicha ijobiy,** lekin umumiy ko'rsatkichlar past bo'lgan guruhni ifodalaydi. **3- klasterda PC1 3,746 ga, PC2 o'rtacha qiymat 0,637ni tashkil etadi.** Bu **noyob holatdagi** davlat yoki obyekt bo'lib, **barcha guruhlardan keskin farq qiladi.** Juda **yuqori PC1 qiymati** bu davlat umumiy eksport hajmi, iqtisodiy salohiyati yoki tashqi savdo ko'rsatkichlari bo'yicha ustunligini bildiradi. Bu guruh **outlier** sifatida qaraladi va o'rganilayotgan tizimda **lider** sifatida tahlil qilinadi.



3-rasm. PCA komponentlari bo'yicha K-means klasterlash natijalari[3]

3-rasmda log-transformatsiya qilingan ma'lumotlar asosida K-means klasterlash natijalarini vizualizatsiya qiladi. Grafik ikki asosiy komponent bo'yicha davlatlarning proyeksiyalarini va ularning klasterlarga biriktirilishini ko'rsatadi. **ko'p o'lchovli indikatorlarning strukturalarini soddalashtirilgan fazoda tushuntirish imkonini beradi Gorizontal o'q,** birinchi komponentning skori, ya'ni ushbu komponent bo'yicha kuzatuvning vazni. Ushbu komponent odatda umumiy savdo hajmi yoki asosiy o'zgarishlar manbai bilan bog'liq bo'ladi. **Vertikal o'q,**

[3] Muallif tomonidan stata panelida ishlangan.

ikkinchi komponentning skori, odatda komparativ ustunlik, eksport-import nisbatlari yoki boshqa differensial o‘zgaruvchanlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Eksport hajmining o‘sishi bilan RCA indeksining ijobiy bog‘liqligi O‘zbekistonning ayrim tarmoqlarda nisbiy ustunlikka ega ekanliginiva import hajmining salbiy ekanligi iqtisodiyotning ayrim segmentlarida tashqi bozorlarga qaramlik mavjudligini bildiradi. Elbow mezoni asosida aniqlangan ikki asosiy komponent O‘zbekiston tashqi savdo tuzilmasini soddalashtirilganligi, mamlakatning eksport diversifikatsiyasi va mintaqaviy integratsiya strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy omillar sifatida qaralishi mumkin.

Ushbu guruhlar shuni ko’rsatadiki, O‘zbekistonning tashqi savdo strategiyasini mintaqaviy darajada taqqoslash va moslashtirish uchun foydali asos yaratadi. Sun’iy intellektni ijobiy tomoni shundaki, K-means klasterlash natijalari indikatorlarning ko‘p o‘lchovli strukturasini ikki asosiy komponent fazosida soddalashtirilgan shaklda tasvirlash imkonini berdi. Bu yondashuv iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi yashirin aloqalarni aniqlash va savdo samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini belgilash uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi.

Klaster tahlili O‘zbekistonning savdo tuzilmasi o‘rtacha rivojlanish bosqichida ekanini aniqladi. Shu bilan birga, mamlakat uchun eksport diversifikatsiyasini kengaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va import tarkibini optimallashtirish dolzarbligini bildiradi. PCA va klasterlash uslublarining qo‘llanilishi tashqi savdo ko‘rsatkichlarini umumiy baholash imkonini yaratadi va iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda shakllantirishda muhim tahliliy vosita sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish va ko‘p o‘lchovli tahlil kabi ilg‘or analitik yondashuvlar va metodlardan foydalanish tashqi savdo jarayonlarini chuqurlashtirib o‘rganish, resurslardan samarali foydalanish va savdo siyosatini takomillashtirish bo‘yicha nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Du-Harpur, X., Watt, F., Luscombe, N., & Lynch, M. (2020). What is AI? Applications of artificial intelligence to dermatology. British Journal of Dermatology, 183(3), 423–430.

2. Firt, E. (2023). Artificial understanding: A step toward robust AI. AI & Society, 39(4), 1653–1665.

3. Gewers, F. L., Ferreira, G. R., Arruda, H. F. D., Silva, F. N., Comin, C. H., Amancio, D. R., & Costa, L. D. F. (2021). Principal component analysis: A natural approach to data exploration. ACM Computing Surveys (CSUR), 54(4), 1–34.

4. Jakubik, A., Rotunno, L., & Saini, A. (2025, June 26). Foresee the unseen: Evaluating the impact of artificial intelligence on international trade. International Monetary Fund; University of Illinois Chicago.

5. Jolliffe, I. T. (2002). Principal component analysis for special types of data (pp. 338–372). Springer.

6. Korir, E. K. (2024). Comparative clustering and visualization of socioeconomic and health indicators: A case of Kenya. Socio-Economic Planning Sciences, 95, 101961.

7. Ozturk, O. (2024). The impact of AI on international trade: Opportunities and challenges. Economies, 12(11), 298. https://doi.org/10.3390/economies12110298

8. Salem, N., & Hussein, S. (2019). Data dimensional reduction and principal components analysis. Procedia Computer Science, 163, 292–299.

9. Wei, P. (n.d.). A study of principal component analysis on classifiers using histogram of gradients features [Final report]. Carnegie Mellon University. Retrieved from http://www.contrib.andrew.cmu.edu/~pwei/papers/FinalReport.pdf

10. World Trade Organization (WTO). (2024). World trade report 2024. Geneva: WTO Publications.

DEMOGRAFIK SIYOSATNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Muallif: Begalova Durdona Baxodirovna [1]
Affiliyatsiya: Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17588220

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada demografik siyosatni shakllantirish jarayonida raqamli axborot texnologiyalarning ahamiyati va ularning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, elektron statistika, “E-demografiya” va integratsiyalashgan ma’lumotlar bazalari orqali aholining tabiiy harakati, migratsiya va sog‘liq ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya demografik ma’lumotlarning aniqligi, tezkorligi va ochiqligini ta’minlashda muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Maqolada raqamli axborot tizimlarining demografik prognozlash, siyosiy qarorlar qabul qilish va resurslarni hududlar kesimida samarali taqsimlashdagi ilmiy-amaliy afzalliklari ko‘rsatib o‘tiladi. Natijada, raqamli yondashuv demografik siyosatni ilg‘or xalqaro tajribalar darajasida optimallashtirishning muhim strategik vositasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: demografik siyosat, raqamli axborot texnologiyalari, elektron statistika, E-demografiya, raqamli transformatsiya.

KIRISH

Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda, bu esa demografik jarayonlarni boshqarish va tahlil qilish sohasida ham tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Demografik siyosatni samarali shakllantirish raqamli axborot texnologiyalardan foydalanishni talab etadi, chunki ular aholi soni, tarkibi va tabiiy harakati haqidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarni boshqarish va aholini raqamli hisobga olish tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, “Raqamli O‘zbekis-ton – 2030” strategiyasi [1] va Prezidentning “Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlarida [2] raqamli axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, demografik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan mexanizmlarini joriy etish belgilab berilgan. Mazkur hujjatlar asosida demografik siyosatni shakllantirishda raqamli axborot texnologiyalari markaziy o‘rin egallamoqda. Ular aholining tabiiy harakati, migratsiyasi, ijtimoiy tarkibi va mehnat resurslari haqidagi ma’lumotlarni integratsiyalash imkonini beradi. Bu esa siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonini ilmiy asoslashga, shuningdek, hududlararo demografik muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, raqamli axborot texnologiyalarining demografik siyosatdagi ahamiyati ularning yuqori aniqlik,

tezkorlik va tahliliy imkoniyatlaridan kelib chiqib, mamlakatning barqaror ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy demografik siyosatni shakllantirishda raqamli axborot texnologiyalarining ahamiyati so‘nggi yillarda global miqyosda dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. BMT Aholi jamg‘armasi ta’kidlaganidek, raqamli texnolo-giyalar aholining tabiiy harakati, migratsiya oqimlari va mehnat resurslari haqidagi ma’lumotlarni **real vaqt rejimida yig‘ish** va **tahlil qilish** imkonini beradi, bu esa davlat siyosatini yanada aniqroq rejalashtirishga zamin yaratadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida — xususan, Estoniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapurda — **raqamli demografik reyestrlar** aholining ijtimoiy-demografik ma’lumotlarini yagona tizimda to‘plash, ularni real vaqt rejimida yangilab borish va davlat siyosatini tezkor axborot asosida shakllantirish imkonini yaratgan.

Kingsley Davis [3] o‘zining “Population and Modernization” asarida demografik jarayonlarni boshqarishda axborot texnologiyalarining roli jamiyatning rivojlanish bosqichlariga moslashuvchan siyosat yuritish imkonini berishini qayd etadi. Unga ko‘ra, raqamli tizimlar orqali demografik ma’lumotlarning to‘liq bazasini shakllantirish aholining tarkibiy o‘zgarish-larini prognozlashda asosiy vositadir.

J. Goldstein [4] esa raqamli demografiya konsepsiyasini ilgari surib, davlatlar raqamli platformalar yordamida aholining tug‘ilish, o‘lim va migratsiya jarayonlarini **integratsiyalashgan tahlil** qilish orqali demografik barqarorlikni ta’minlashi mumkinligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u axborot texnologiyalarining demografik siyosatga integratsiyasi inson kapitali sifatini oshirishda muhim omil ekanligini qayd etgan.

Mahalliy tadqiqotchilardan A. Ibragimov [5] o‘z ishlarida O‘zbekistonda demografik jarayonlarni boshqarishda “Elektron hukumat”, “Smart Statistics” va “Aholini ro‘yxatga olish-ning raqamli modeli” kabi tashabbuslarning amaliy ahamiyatini asoslab bergan. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar yordamida demografik ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va joylarda solishtirish imkoniyatining kengayishi **hududlararo demografik tafovutlarni qisqartirishga** xizmat qiladi.

N. Rasulov [6] esa “Raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy demografiya” asarida demografik siyosatni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli milliy statistik tizimlarni **yagona raqamli platformaga birlashtirish**, aholining yosh-jins, iqtisodiy faol va migratsion tarkibini **dinamik kuzatish** imkoniyatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar va olimlar fikrlaridan kelib chiqadiki, demog-rafik siyosatni shakllantirishda raqamli axborot texnologiya-laridan foydalanish davlat boshqa-ruvini **ilmiy asoslash, resurslarni adolatli taqsimlash, aholi harakati ustidan monitoringni kuchaytirish** hamda **ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash** uchun zarur omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda demografik siyosatni shakllantirish jarayonida raqamli axborot texnologiyalarining ahamiyatini aniqlash, ularning samaradorligini baholash hamda mavjud muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish metodologik asos qilib olingan. Tadqiqotning nazariy-metodologik bazasi sifatida BMT, Jahon banki, OECD, UNFPA kabi xalqaro tashkilotlarning demografik raqamlashtirish bo‘yicha

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

konseptual yondashuvlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Prezident qaroridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida **statistik, komparativ (taqqoslama), strukturaviy, tizimli yondashuv** va **model asosidagi tahlil** usullaridan foydalanildi. Jumladan, statistik tahlil orqali demografik ko‘rsatkichlarning raqamli monitoring tizimlari yordamida o‘zgarish dinamikasi aniqlangan. Tadqiqotning amaliy qismi “Milliy statistika qo’mitasi” va “Raqamli texnologiyalar vazirligi” ma’lumotlariga tayangan holda amalga oshirildi.

Metodologik jihatdan ishda **tizimli yondashuv** tamoyili asos qilib olingan bo‘lib, unda demografik siyosat raqamli axborot texnologiyalari, institutsional islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan o‘zaro uzviy bog‘liq kompleks tizim sifatida talqin qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida demografik siyosatni shakllantirishda raqamli axborot texnologiyalarining joriy etilishi so‘nggi yillarda amaliy samaradorlikning sezilarli oshishiga olib keldi. Bu yo‘nalishda “E-demografiya” platformasi, “Smart Statistics” moduli va “Aholini ro‘yxatga olishning raqamli modeli” tizimlari orqali demografik jarayonlar ustidan real vaqt rejimida monitoring yuritilmoqda. Ushbu raqamli mexanizmlar aholining tabiiy harakati, migratsiya oqimlari, tug‘ilish va o‘lim darajalari haqidagi ma’lumotlarni birlashtirish hamda davlat siyosatini ilmiy asosda rejalashtirish imkonini bermoqda. Natijada ma’lumotlar aniqlik, tezkorlik va hududiy taqqoslanish imkoniyati bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 2021-yildan boshlab “Elektron statistika hisobotlari portali” orqali demografik ma’lumotlarni raqamli formatda yig‘ishni yo‘lga qo‘ydi. Ushbu tizimning joriy etilishi statistik jarayonlarda inson omilining ta’sirini kamaytirib, xatolik ehtimolini **30–40 foizgacha qisqartirishga** imkon berdi. Natijada raqamli axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgan demografik ma’lumotlar bir qator ilmiy va amaliy afzalliklarga ega bo‘lib, ular quyidagi jihatlar orqali tahlilning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini ta’minlamoqda:

- tezkorlik –ma’lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati;
- aniqlik –inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar minimallashtiriladi;
- hududiy taqqoslash imkoniyati –xarita va grafiklar orqali hududlar kesimidagi tafovutlar tezda aniqlanadi;
- prognozlash –ma’lumotlar asosisa demografik siyosatning uzoq muddatli modeli tuziladi;
- ochiqlik va shaffoflik –fuqarolar uchun demografik ma’lumotlar ochiq platformalarda taqdim etiladi.

Raqamli axborot texnologiyalarining joriy etilishi demografik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilishda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Statistik jarayonlarning raqamlashtirilishi natijasida demografik ko‘rsatkichlarning aniqligi va vaqtinchalik dinamikasi yanada to‘liqroq aks etmoqda (1-jadval). Quyidagi jadvalda 2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston bo‘yicha raqamli innavatsion axborot texnologiyalari joriy etilgan davrda **demografik ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi** va **xatolik koeffitsienti** o‘rtasidagi bog‘liqlik aks ettirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024-yillar oralig‘ida demografik ma’lumotlarni qayta ishlash muddati 25 kundan 1–2 kungacha qisqargan, bu esa

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

raqamli texnologiyalarining tezkorlik ko‘rsatkichi 10 baravar oshganini bildiradi. Shu bilan birga, xatolik koeffitsienti 7,8 % dan 1,4 % gacha kamaygan, bu esa statistik aniqlikning keskin ortganini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, raqamli qamrov darajasining 90 foizga yetishi demografik siyosatni shakllantirishda real vaqt rejimidagi tahliliy monitoring imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu holat hududlar kesimida tug‘ilish, o‘lim va migratsiya jarayonlarini tezkor tahlil qilish hamda resurslarni samarali taqsimlashga sharoit yaratdi.

1-jadval

Raqamli axborot texnologiyalarining demografik ma’lumotlar sifatiga ta’siri[1]

Yil	Demografik ma’lumotlarni yig’ish shakli	Ma’lumotlarni qayta ishlash muddati (kunda)	Xatolik koeffistsienti (% da)	Raqamli qamrov darajasi (% da)
2020	An’anaviy (qo’lda)	25-30 kun	7,8	15
2021	Qisman raqamlashtirilgan	18-20 kun	5,6	42
2022	“Elektron statistika portali “ joriy etildi	10-12 kun	3,9	63
2023	Integratsiyalashgan axborot bazalari	5-7 kun	2,1	78
2024	“E-demografiya” va “Smart statistics” tizimlari to’liq ishlamoqda	1-2 kun	1,4	90

Raqamli axborot texnologiyalarining demografik siyosatni shakllantirishdagi joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasida boshqaruvning sifat jihatdan yangi bosqichini boshlab berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan demografik ma’lumotlar davlat siyosatini ishlab chiqish, aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash hamda hududiy rivojlanish strategiyalarini belgilash jarayonida ilmiy asoslangan va dalillarga tayangan yondashuvni ta’minlamoqda. O’tkazilgan ilmiy tadqiqotimiz natijasida quyidagi holat kuzatildi:


a) demografik ma’lumotlarning raqamlashtirilishi natijasida statistik xatoliklar sezilarli darajada qisqardi, bu esa siyosiy qarorlarning ilmiy asoslanganligini kuchaytirdi;
b) real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari demografik o‘zgarishlarga tezkor javob berish imkonini yaratdi, bu esa hududlararo muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi;
c) ochiq ma’lumotlar platformalari (“data.gov.uz”, “stat.uz”) aholining demografik holatini tahlil qilishda fuqarolik jamiyati va tadqiqotchilarning ishtirokini oshirdi;
d) “E-demografiya” va “Smart Statistics” tizimlari orqali demografik prognozlashning sifat darajasi oshdi, bu esa uzoq muddatli strategik rejalashtirish uchun barqaror axborot bazasini yaratdi.

Raqamli axborot texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat statistik jarayonlarning avtomatlashtirilishiga, balki ma’lumotlarning ishonchliligi, tezkorligi va shaffofligini ta’minlashga ham xizmat qilmoqda. Shu asosda demografik siyosatni shakllantirishda hududiy farqlar, ijtimoiy omillar va demografik yuklama darajasi yanada aniqroq baholanmoqda. Natijada davlat boshqaruvi tizimi axborotga asoslangan, tahliliy va natijador modelga o‘tmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida O‘zbekistonda demografik ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash jarayonlariga raqamli axborot

[1]O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

texnologiyalarining joriy etilishi statistik axborotlar sifatining barcha yo‘nalish-larda barqaror o‘sishiga olib kelgan (1-rasm). Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, **ma’lumotlarning ishonchliligi** 2020-yildagi 60 foizdan 2024-yilda 95 foizgacha oshgan. Bu o‘zgarish demografik hisobotlarda inson omilining kamayishi, ma’lumotlarni avtomatik tarzda yig‘ish va verifikatsiya mexanizmlarining joriy etilishi bilan izohlanadi.



1-rasm. Raqamli axborot texnologiyalari joriy etilishidan oldin va keyin demografik ma’lumotlar sifatining o’zgarishi[2]

Tahlil tezkorligi esa 40 foizdan 90 foizgacha ko‘tarilib, raqamli texnologiyalar real vaqt rejimida ma’lumotlarni yangilash imkonini berganini ko‘rsatadi. Bu esa demografik jarayonlardagi (masalan, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya oqimlari) o‘zgarishlarga tezkor tahliliy javob berish hamda siyosiy qarorlarni o‘z vaqtida shakllantirish imkonini yaratgan.

Shaffoflik darajasining 50 foizdan 88 foizgacha oshishi esa demografik ma’lumotlarning ochiq manbalarda — xususan, “Data.gov.uz” va Milliy statistika qo‘mitasining raqamli portallarida — muntazam e’lon qilinishi bilan bog‘liq. Bu holat axborotdan foydalanish madaniyatining oshishiga, fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralar tomonidan demografik tahlillarni mustaqil amalga oshirish imkoniyatlarining kengayishiga olib kelgan.

Umuman olganda, diagrammada aks etgan o‘zgarishlar raqamli axborot tizimlarining demografik siyosatni shakllantirishda **aniqlik, tezkorlik va shaffoflik** mezonlarini tubdan yaxshilaganini tasdiqlaydi. Bu esa davlat boshqaruvida **dalillarga asoslangan yondashuv** tamoyillarini mustahkamlashga va demografik barqarorlikni ta’minlashda ilg‘or xalqaro tajribalarga yaqinlashishga xizmat qilmoqda.

Raqamli axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi demografik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish jarayonida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Raqamlashtirish natijasida demografik jarayonlarning dinamikasi aniqroq kuzatilib, hududlar kesimidagi tafovutlarni baholash imkoniyati kengaydi. Shuningdek, elektron platformalar orqali ma’lumotlarning tezkor almashinuvi va integratsiyasi demografik boshqaruvni samarali rejalashtirishga zamin yaratmoqda. Natijada davlat siyosati yanada manzilliligi, tahliliy asoslanganligi va natijadorligi bilan ajralib turmoqda.

[2] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi demografik boshqaruv tizimida nafaqat ma’lumotlar sifati va tezkorligini oshirdi, balki **prognozlash va modellashtirish** imkoniyatlarini ham kengaytirdi. So‘nggi yillarda demografik axborot tizimlarida **sun’iy intellekt , mashinali o‘qitish** va **katta ma’lumotlar (Big Data)** texnologiyalarining tatbiq etilishi natijasida aholining tabiiy o‘sishi, migratsiya oqimlari hamda demografik yuklama ko‘rsatkichlari oldindan bashorat qilinmoqda. Bu yondashuv siyosiy qarorlarni **reaktiv emas, balki proaktiv tarzda** qabul qilishga imkon yaratmoqda.

Shuningdek, raqamli ma’lumotlar asosida ishlab chiqilayotgan **hududiy demografik indekslar** mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni chuqurroq tahlil qilishga xizmat qilmoqda. Bunda har bir viloyat, tuman yoki shahar bo‘yicha tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, bandlik va ta’lim darajasi kabi ko‘rsatkichlar integratsiyalashgan **raqamli indikator tizimlari** orqali kuzatilmoqda. Ushbu tizimlar demografik siyosatni **hududiy ixtisoslashuv** tamoyiliga asoslangan holda shakllantirishga imkon beradi.

Demografik jarayonlarni raqamlashtirish, shuningdek, **ijtimoiy adolat va tenglik mezonlarini** ta’minlashga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunki raqamli reyestrlar orqali aholining zaif qatlamlari — nogironlar, kam ta’minlangan oilalar, keksalar va yoshlar — haqida to‘liq, ishonchli ma’lumotlar bazasi shakllanmoqda. Bu esa **manzilli ijtimoiy siyosat**ni amalga oshirish va resurslarni samarali taqsimlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli demografik ma’lumotlarning ochiqligi va integratsiyalashuvi natijasida **ilmiy tahlil va tadqiqot faoliyati** ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Statistik idoralar, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi kengayib, dalillarga asoslangan siyosat yuritish tamoyili amaliyotga joriy qilinmoqda. Bu jarayon demografik siyosatning ilmiy asoslanganligi, ijtimoiy samaradorligi va iqtisodiy barqarorligini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida **fuqarolarning demografik jarayonlardagi ishtiroki** ham oshmoqda. Elektron platformalar orqali tug‘ilish, nikoh, migratsiya yoki ro‘yxatdan o‘tish jarayonlarining onlayn amalga oshirilishi **davlat xizmatlari qulayligi**ni ta’minlabgina qolmay, **aholining davlat boshqaruvidagi ishonchi va faolligini** kuchaytirmoqda. Shu tariqa, demografik boshqaruv tizimi **inson markaziga yo‘naltirilgan raqamli modelga** aylanmoqda.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni demografik siyosatga chuqur integratsiyalash O‘zbekistonda **axborot tahliliy boshqaruv modeli**ning shakllanishiga olib keldi. Endilikda demografik ma’lumotlar faqat statistik hisobot emas, balki **strategik rejalashtirish, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy prognozlashning tayanch manbasi** sifatida qaralmoqda. Bu esa raqamli transformatsiyaning demografik boshqaruvdagi uzoq muddatli samaradorligini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli axborot texnologiyalarining demografik siyosatga integratsiyasi O‘zbekistonda boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari demografik ma’lumotlarning to‘liqligi, aniqligi va tezkorligini ta’minlab, qaror qabul qilish jarayonlarini dalillarga asoslangan yondashuvga yo‘naltirmoqda. “E-demografiya”, “Smart Statistics” va “Aholini ro‘yxatga olishning raqamli modeli” kabi tizimlar orqali aholining tabiiy harakati, migratsiyasi va ijtimoiy tarkibi haqidagi

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ma’lumotlar real vaqt rejimida kuzatilib, siyosiy rejalashtirishning ilmiy asoslari mustahkamlanmoqda. Umuman olganda, raqamli axborot texnologiyalari demografik siyosatni proaktiv, tahliliy va manzilli boshqaruv bosqichiga olib chiqmoqda.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarga asoslanib, demografik jarayonlarni raqamlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1) **“E-demografiya” tizimini milliy miqyosda to‘liq integratsiyalash** — barcha vazirlik va idoralar (sog‘liqni saqlash, ta’lim, migratsiya, mehnat) ma’lumotlarini yagona demografik ma’lumotlar bazasiga birlashtirish zarur;
2) **Hududiy demografik monitoring markazlarini tashkil etish**, ular orqali tuman va viloyatlar kesimida raqamli ma’lumotlarni muntazam tahlil qilish va siyosiy qarorlar uchun prognozlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
3) **Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarini** demografik jarayonlarni prognozlashda qo‘llash, ayniqsa tug‘ilish, migratsiya va mehnat resurslari dinamikasini bashoratlashda;
4) **Aholi o‘rtasida raqamli savodxonlikni oshirish** — demografik axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va ochiq ma’lumotlar madaniyatini rivojlantirish maqsadida ta’lim dasturlarini kengaytirish;
5) **Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish**, jumladan, BMT, UNFPA va Jahon banki tajribasiga asoslanib, raqamli demografiya sohasida ilg‘or texnologiyalar va standartlarni milliy amaliyotga joriy etish;
6) Demografik ma’lumotlarning raqamlashtirilishi **ijtimoiy yordam dasturlarining manzilliligini** qanchalik oshirayotgani, aholining ijtimoiy himoya darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani bo‘yicha tahliliy tadqiqotlar o‘tkazish;
7) Demografik ma’lumotlarning elektron platformalarda saqlanishi bilan bog‘liq **kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish** va **axborot etikasi** masalalarini chuqur o‘rganish talab etiladi;
8) O‘zbekistonda joriy etilgan “Smart Statistics” platformasining amaliy samaradorligini tahlil qilish, xalqaro tajribalar bilan **taqqoslama tahlil** olib borish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli axborot tizimlarining demografik siyosatga chuqur integratsiyalashuvi O‘zbekistonda boshqaruvning sifat jihatdan yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu jarayon demografik ma’lumotlarning ishonchliligi, shaffofligi va tahliliy qiymatini oshirib, siyosiy qarorlarning dalillarga asoslanganligini ta’minlamoqda. Natijada demografik boshqaruv tizimi xalqaro tajriba va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligida shakllanib, mamlakatning ijtimoiy barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ–6079-son, 2020-yil 5-oktabr. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish va unga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlari to‘g‘risida”(PQ–4038-son, 2018-yil 5-dekabr) hamda Aholini ro‘yxatga olishni 2023-yilda o‘tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori (PQ–4292-son, 2019-yil 11-oktabr). – T.: O‘zbekiston

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

3. Davis, K. Population and Modernization: Theories of Demographic Transition in the Digital Age. London: Routledge, 2021.
4. Goldstein, J. Digital Demography: Integrating Population Data in Policy and Governance. Population Studies Journal, Vol. 74, No. 2, 2020, pp. 185–204.
5. Ibragimov, A. O‘zbekistonda demografik jarayonlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati. “Ijtimoiy fanlar” ilmiy jurnali, №3, 2021, 56–63-betlar
6. Rasulov, N. Raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy demografiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Iqtisodiyot va innovatsiya” nashriyoti, 2022y.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШДА ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ

Муаллиф: Бегалов Баҳодир Абдусаломович [1]
Аффилиация: иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Россия табиий фанлари академияси ҳақиқий аъзоси [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17599301

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада рақамли иқтисодиёт шароитида сунъий интеллект технологияларининг аҳамияти, уларнинг иқтисодиётнинг турли тармоқларига таъсири ҳамда мамлакатнинг макроиқтисодий кўрсаткичларига бўлган таъсирлари таҳлил қилинган. Сунъий интеллект инсон онгига хос бўлган таҳлил, қарор қабул қилиш ва башорат қилиш функцияларини амалга оширувчи замонавий рақамли технология сифатида кўриб чиқилади. Тадқиқотда сунъий интеллект технологияларининг ишлаб чиқариш самарадорлиги, меҳнат унумдорлиги, ишсизлик даражаси ва инфляцияга таъсири юзасидан фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: сунъий интеллект, рақамли иқтисодиёт, робототехника, меҳнат унумдорлиги, автоматлаштириш, рақамли технологиялар, иқтисодий ўсиш, инфляция, макроиқтисодий барқарорлик, инновация, маълумотлар таҳлили.

КИРИШ

Ҳозирги кунда дунёнинг кўплаб давлатлари билим ва ахборотларга асосланган иқтисодиётга, яъни рақамли иқтисодиётга босқичма-босқич ўтиб боришмоқда. Ўзбекистон Республикаси ҳам ушбу давлатлар қаторига кириб, рақамли иқтисодиётга ўтиш борасида барча кучларни кенг жалб қилмоқда.

Охирги йилларда рақамли технологиялар турларидан бири ҳисобланмиш сунъий интеллект технологияси жамиятимизнинг турли жабҳаларига аста-секинлик билан кириб бормоқда. Сунъий интеллект миллий иқтисодиётнинг турли тармоқ ва соҳаларига ҳам кенг кириб бориб, улардаги меҳнат муносабатлари, иш жойини ташкил қилиш жараёнлари ва қолаверса меҳнат унумдорлигига ҳам жиддий таъсир кўрсатмоқда.

Сунъий интеллект (СИ) – бу информатиканинг бир соҳаси бўлиб, инсон интеллектини талаб қиладиган, яъни маълумотларни таҳлил қилиш, бошқарув қарорларини қабул қилиш ва нутқларни аниқлаш каби масалаларни ечиш имониятини берадиган компьютер дастурларидан иборатдир. Шуни таъкидлаш жоизки, сунъий интеллект турли алгоритмлар, машинали ўқитиш ва мураккаб масалаларни ечиш учун катта маълумотлардан кенг фойдаланади.

Ҳозирги кунда биз ҳар куни турли муаммоларни ечишда сунъий ин-теллект билан тўқнаш келаяпмиз. Рақамли технологиялар мутахассислари сунъий интеллектни электр энергиясига ўхшатишади, тахминан 100 йил олдин у нафақат ишлаб чиқариш саноатини, балки инсоният ҳаётини ҳам тубдан ўзгартириб

юборди. Худди шу тарзда, сунъий интеллект ҳам бизни ҳамма жойда қамраб олмоқда ва биз унга жуда боғланиб қоламиз.

Сунъий интеллект ўз-ўзини ўрганиш ва ҳатто ижодий фаолиятни амалга оширувчи кўплаб "ақлли" технологияларни қамраб олмоқда. Сунъий интеллектга почта қутисидаги энг оддий спам-фильтрдан тортиб, браузерда кўриш тарихини таҳлил қилиш орқали фақат фойдаланувчи дидига мос келадиган видеоларни тавсия этадиган мураккаброқ моделлар ва алгоритмларгача бўлган жуда кенг технологияларни киритиш мумкин. Корхона миқёсида сунъий интеллект маркетинг моделларини яратиш, ишлаб чиқариш, бошқарув ва бизнес жараёнларини оптималлаштириш, нархларни белгилаш, мижозларга хизмат кўрсатиш учун кенг ишлатилиши мумкин. Корхона бизнес-жараёнларини сунъий интеллект асосида автоматлаштириш самарадорлик ва меҳнат унумдорлигини юксалтириш, қарорлар қабул қилиш тезлиги ва аниқлиги, масштаблилик ва мослашувчанлик, инвестицияларнинг қопланиши ортиши ва ҳаражатларни камайишига олиб келмоқда.

АСОСИЙ ҚИСМ

Жорий йилнинг 21 октябрь куни Президент Шавкат Мирзиёев раислигида давлат бошқаруви, иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларда сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш масалалари юзасидан видеоселектор йиғилишида сунъий интеллект технологиялари иқтисодиётдан тортиб, таъ-лим, тиббиёт, қишлоқ хўжалиги ва бошқарув тизимигача чуқур кириб бораёт-ганлиги кенг муҳокама қилинди. "*Бугун инсоният янги цивилизация бос-қичига – сунъий интеллект даврига дадил қадам қўймоқда. Қайси соҳа бўлмасин, ким бу жараёнда қаттиқ изланиб, аниқ натижа қилса, бир қа-дам олдинда юрса, марра шуники бўлади*", - деди давлатимиз раҳбари ушбу йиғишда.

Ўзбекистонда ҳам сунъий интеллектни ривожлантириш бўйича алоҳида қарор қабул қилиниб, соҳанинг ҳуқуқий асослари яратилди. Қисқа даврда давлат хизматлари, банк-молия, жамоат хавфсизлиги, транспорт каби йўналишларда 30 дан ортиқ пилот лойиҳалар ишга тушди.

Хорижий экспертлар Ўзбекистоннинг сунъий интеллект соҳасидаги салоҳиятини 10 миллиард долларга баҳоламоқда. Буни имкониятга айлантириш ва дунёда сунъий интеллектга талаб ортиб бораётган ҳозирги даврда рақобатдош бўлиш учун 3 та энг асосий масала – инфратузилма, очиқ маълумотлар ва кадр тайёрлашга эътиборни кучайтириш зарурлиги қайд этилди.

Соғлиқни сақлаш, энергетика, банк-молия, божхона-солиқ, транспорт, тоғ-кон ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида сунъий интеллект бўйича 100 та ло-йиҳа режалаштирилган. Уларни амалга ошириш учун шунга мос қувватлар, замонавий суперкомпьютерлар керак.

Шу боис, замонавий суперкомпьютер кластерлари ва дата-марказларни кўпайтириш зарурлиги қайд этилди. Бу йил 16 та суперкомпьютер сотиб олиш учун 50 млн доллар ажратилди. Кейинги йил бу маблағ 2 карра оширилади. Вазирлик ва идоралардаги маълумотлар ҳар хил серверларда тарқоқ сақ-ланаётгани, уларни форматлари турлича бўлгани сунъий интеллектни жадал ривожлантиришга тўсқинлик қилаётгани давлатимиз раҳбари томонидан кўр-сатиб ўтилди.

Таҳлилларимиз шуни кўрсатмоқдаки, "2024-2030 йилларда Ўзбекистонда сунъий интеллект технологияларини ривожлантиришнинг устувор йўналиш-

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

лари” стратегияси доирасида республикамиз ҳукуматининг сунъий интеллект-га тайёрлик индекси 2025 йилда 80-ўринни эгаллаши режалаштирилган бўлса, 2030 йилга бориб эса 50-ўринча чиқиш борасида амалий ишлар режаси ишлаб чиқилган.

Сунъий интеллект технологиялари экспорти 2026 йилда 250 млн. АҚШ доллари режа қилинган бўлса, 2030 йилга келиб эса 1,5 млрд доллар кўзда тутилмоқда. Ҳозирги куннинг энг долзарб муаммоларидан ҳисобланмиш иш ўринлари борасида ҳам, сунъий интеллект технологияларини кенг жорий қилиш ҳисобига 2026 йилда 15 минг иш ўрни ва 2030 йилга келиб эса 100 минг иш ўрни яратилиши режалаштирилган.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, СИ технологияларини кенг жорий қилиш мамлакат макроиқтисодиётининг қуйидаги томонларига ўз таъсирини кўрсатиши мумкин, яъни:

- аҳолининг бандлик ва иқтисодий фаолллигининг умумий даражаси;
- инфляция даражаси;
- иқтисодий ўсиш суръатлари;
- фоиз ставкаларининг даражаси;
- турли активларнинг унумдорлиги;
- дам олиш ва иш фаолияти ўртасидаги баланслик;
- меҳнат бозорида мавжуд бўлган вакансиялар турлари;
- даромадларнинг тақсимланиш ҳолати.

Ушбу таклиф қилинган омилларнинг айримлари бўйича тўхталиб ўта-миз.

Бир қатор мутахассислар СИ технологияларни амалиётга кенг жорий қилиш паст инфляцияга олиб келади деб фикр юритишмоқда. Агар бундай бўлганда албатта яхши ҳолатдир. Лекин, уларнинг асосий аргументи СИ технологияларининг жорий қилиниши ялпи талабнинг ялпи таклифга нисбатан тушиб кетишиги олиб келади дейишади. Уларнинг фикрича роботлар ва СИ технологияларнинг жорий қилиниши иш ўринларини қисқаришига ва натижада инсонларнинг даромадини камайишига олиб келади. Даромадларнинг камайиши эса ўз ўрнида товар ва хизматлар нархини тушишига олиб келиши табиийдир. Робот ва СИ технологияларни жорий қилишдан асосий мақсад инсон меҳнатини тежаш ҳисобига ишлаб чиқариш ҳаражатларини камайтиришдан иборатдир. Бу борада давлат томонидан пул-кредит сиёстани қанча-лик тўғри олиб борилишига боғлиқ бўлиб, инфляциянинг жудаям кўтарилиб, ёки тушиб кетишига йўл қўймаслиги лозимдир.

Робототехника ва сунъий интеллект технологияларнинг ишлаб чиқариш жараёнларига кенг жорий қилиш меҳнат унумдорлигини оширишга ва натижада эса иқтисодий ўсиш суръатларини ҳам юксалтиришга олиб келади. Бу борада кўпчиликда вужудга келаётган савол - бу иш ўринларининг қис-қаришидир. Олдинги асрларда бир нечта саноат революцияларининг вужудга келишида ҳам иш ўринлари тубдан қисқариб кетади деб тахмин қилишган эди. Лекин, вақт ўтиши билан саноат революцияси натижасида маълум бир миқ-дорда иш ўринлари қисқариши бўлиб, унда ҳам ушбу бўшаган ишчи кучлар бошқа янги очилган соҳаларга йўналтирилган эди.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, иқтисодий ўсишнинг яқин йил-ларда юксалишига асосан меҳнат унумдорлиги таъминлаб бериб, ривожлан-ган давлатларда унинг йиллик ўсиши 1-2 % ни ташкил қилиши башорат қилинмоқда.

Шундан келиб чиққан ҳолда, робототехника ва сунъий интеллект технологияларининг иқтисодий ўсишга таъсирини кенгроқ кўриб чиқамиз.

Шуни таъкидлаш жоизки, Иккинчи жаҳон урушидан кейинги ўн йиллик-да ғарб давлатлари иқтисодиётида унумдорлик ўрта ҳисобда 3 % атрофида ўсиб келган. Ушбу тенденцияни изоҳлашнинг бир нечта сабаблари бўлиб, улардан охирги йигирма йил ичида йиғилган технологик ютуқлар ҳисобига катта фойда олишга интилиш ва тўлиқ бандлик ҳамда фоиз ставкаларининг пастлиги ҳисобига инвестицияларнинг юқори даражалиги ҳисобланади.

Ҳудди шунга ўхшиш тенденциялар робототехника ва сунъий интеллект технологияларидан кенг фойдаланиш ҳисобига рўй бериши мумкин. *Биринчи омил* – сунъий интеллект технологияларига асосланган машиналар билан инсонлар ўрнини алмаштириш бўлиб, ушбу жараёнлар инсонлар фаолиятининг кенг қисмини қамраб олиши мумкин бўлади.

Иккинчи омил - робототехника ва сунъий интеллект технологияларини турли фаолият соҳалардаги инсонларга ёрдам бериш учун ишлатиш масаласи. Масалан, тиббиёт ходимларини кекса кишилар уйларига ташриф буюриш ва уларга тиббий ёрдам кўрсатишда вақтдан самарали фойдаланиш борасида роботлардан фойдаланишмоқда. Хирурглар операцияларни амалга оширишда роботлардан кенг фойдаланишиб, уларни сифатли ва аниқ амалга оширишларида ёрдам бермоқда, масофадан туриб иштирок этишмоқда.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Робототехника ва сунъий интеллект технологиялар даврида меҳнат унумдорлиги юқори бўлиши мумкинлиги, иқтисодий ўсиш ҳам параллель равишда юқори бўлишини англатмайди. Ушбу фикр тўғри бўлиши учун бозордаги ялпи талабга эътиборни қаратишимиз лозим. Меҳнат унумдорлиги юксалиб бори-ши билан ишсизлик даражаси ҳам ортиб боради ва натижада бозордаги ялпи талаб ва ялпи таклиф мувозанатини бузишга олиб келади. Лекин, бунинг амал-га бўлиш эҳтимоли анча паст бўлиб, бунга маъсул бўлган раҳбарлар сиёсий қарорларни қабул қилишларига тўғри келади.

Янги технологиялар ҳисобига бўшаётган вақтни инсонлар ишлаб чиқаришга эмас, балки дам олишга йўналтиришлари ҳам мумкин. Шунинг учун ҳам охирги вақтларда айрим давлатларда ҳафталик иш кунларини тўрт кунга тушириш таклифлари ҳам кун тартибига олиб чиқилмоқда. Шуни ҳам таъкид-лаш жоизки, мамлакат ялпи ички маҳсулотнинг ўсиб бориши, ундаги инсонлар турмуш тарзини ҳам тўғридан-тўғри ортиб боришини таъминламайди. Бунда кўп инсонлар меҳнат унумдорлиги ошишини дам олишни кенгайтириб бориш билан чамбарчас боғлашади.

Умуман олганда, робототехника ва сунъий интеллект технологияларнинг даври бир қатор қуйидаги хулосаларни қилишга олиб келади:

- сунъий интеллект технологияларини иқтисодиётнинг турли тармоқ ва соҳаларига кенг жорий этилиб борилиши, ишсизлик даврини очиб беради де-йиш учун аниқ далиллари йўқдир. Ялпи талаб ушбу технологияларни жорий қилинишига қарамасдан узоқ вақт давомида сақланиб қолиниши мумкин;
- агар ҳақиқатан ҳам ялпи талаб даражаси тушишни бошласа, унда макроиқтисодий сиёсат инструментлари ишга тушуши керакдир, яъни талабни ва бандликни сақлаб қолиш учун солиқ-бюдет сиёсатининг юмшаши ва паст фо-из ставкаларининг киритилиши керакдир;

- шуни таъкидлаш жоизки, робототехника ва сунъий интеллект технологиялар даври паст инфляциялар даври бўлади деб аниқ айтиб бўлмайди. Ле-кин, робототехника ва сунъий интеллект технологияларнинг иқтисодиётга таъсири ортиб бориши билан инфляциянинг маълум даражада тушишини кузатиш мумкин;
- иқтисодий ўсиш даражаси робототехника ва сунъий интеллект технологияларининг таъсири остида юксалиши эҳтимоли бор. Вақт ўтиши билан ушбу тенденция аҳоли турмуш тарзининг юксалишига ўз ижобий таъсирини кўрсатиши ҳам мумкин;

робототехника ва сунъий интеллект технологияларнинг кенг жорий қилиниб борилиши, ишлаб чиқариш потенциални ҳам жиддий ортишига олиб келади. Лекин, ушбу пайдо бўлаётган потенциалдан қандай фойдаланамиз деган савол ҳам очиқлигича қолмоқда.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, робототехника ва сунъий интеллект технологиялари турли фаолият соҳалари, яъни мижозлар билан ўзаро алоқаларни яхшилаш, бизнес-жараёнларни оптималлаштириш ва тиббиёт ҳамда таълимни такомиллаштириш борасида кенг имкониятларни яратиб бермоқда. Катта маълумотларни таҳлил қилиш ва башоратлаш борасида уларнинг потенциали инновациялар ва илмий тадқиқотлар учун янги истиқболларни очиб бермоқда. Робототехника ва сунъий интеллект технологияларни ҳар кунлик ҳаётимизга кириб бориши келажакда хайрон қоладиган натижаларга олиб келиб, турмуш тарзимизни янада самарали, ҳавфсиз ва комфорт қилиб боради.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2024–2030 йилларда Ўзбекистонда сунъий интеллект технологияларини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида”ги қарори. – Тошкент, 2024 й.
2. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси” асари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. – New York: W.W. Norton & Company.
4. Russell, S., & Norvig, P. (2022). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th Edition). – Pearson Education.
5. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2023). Digital Economy Report 2023: The Crossroads of AI and Development. – Geneva: United Nations.
6. В.М. Глушков. Кибернетические основы управления. – Москва: Наука, 1987.
7. Қобулов В.Қ., Бекмуратов Т.Ф. Қоғозсиз технологиялар назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Фан, 1995.
8. World Economic Forum (2024). The Future of Jobs Report 2024. – Geneva: WEF.

MA’LUMOTLARGA ASOSLANGAN STRATEGIK REJALASHTIRISHDA ANALITIK PLATFORMALARNING AHAMIYATI

Muallif: Eshonqulova Zulayxo Maxamatmurot qizi [1]
Affiliyatsiya: Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasi uslubchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17588754

ANNOTATSIYA

Ma’lumotlarga asoslangan strategik rejalashtirish zamonaviy korxona va tashkilotlar faoliyatida muhim vosita hisoblanadi. Ushbu jarayonda analitik platformalar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlash va qaror qabul qilish jarayonini samarali boshqarish mumkin. Platformalar turli ma’lumot manbalarini birlashtirish, real vaqt rejimida monitoring va prognozlar ishlab chiqishga imkon beradi. Shuningdek, ular strategik rejalashtirish jarayonida resurslardan samarali foydalanish, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, analitik platformalarni qo‘llash tashkilotlarning qaror qabul qilish tezligi va sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bois, zamonaviy biznes va davlat boshqaruvi tizimlarida ma’lumotlarga asoslangan yondashuv va analitik platformalarning integratsiyasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: strategik rejalashtirish, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, analitik platforma, biznes tahlili, raqamli transformatsiya, ma’lumotlarni boshqarish, prognozlash, risklarni boshqarish, raqobatbardoshlik, real vaqt tahlili.

KIRISH

Zamonaviy korxona va tashkilotlar faoliyatida ma’lumotlarga asoslangan strategik rejalashtirish muhim vosita sifatida ajralib turadi. Texnologiyalar rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlari ma’lumotlar hajmining keskin oshishiga olib kelmoqda, bu esa tashkilotlarni tezkor va asosli qarorlar qabul qilishga majbur qiladi. Ma’lumotlarga asoslangan yondashuv orqali strategik rejalashtirish jarayoni samarali boshqariladi, resurslardan optimal foydalanish, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati yaratiladi.

Analitik platformalar esa katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, ularni turli manbalar bilan integratsiya qilish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkonini beradi. Shu tarzda, tashkilotlar real vaqt rejimida monitoring o‘tkazish, trendlarni aniqlash va kelajakdagi strategik qarorlarni prognozlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, analitik platformalarni qo‘llash qaror qabul qilish tezligi va sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, ular strategik maqsadlarni aniqlash, biznes jarayonlarini optimallashtirish va tashkilotning raqobat ustunligini mustahkamlashga yordam beradi.

Bugungi kunda ma’lumotlarga asoslangan strategik rejalashtirish nafaqat korxonalar, balki davlat boshqaruvi tizimlari uchun ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, zamonaviy biznes va iqtisodiy muhitda analitik platformalarning

samarali integratsiyasi tashkilotlar faoliyatini raqamli transformatsiya jarayonlariga moslashtirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma’lumotlarga asoslangan strategik rejalashtirish va analitik platformalarning ahamiyati sohasida o‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘plab ilmiy manbalarda yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tashkilotlar faoliyatining samaradorligi ularning qaror qabul qilish jarayonlarida to‘plangan ma’lumotlar bilan bevosita bog‘liqdir. Analitik platformalar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, trendlarni aniqlash, resurslardan optimal foydalanish va strategik qarorlar sifatini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari, big data, sun’iy intellekt va biznes analytics sohalarida chop etilgan maqolalar va ilmiy tadqiqotlar tashkilotlar uchun analitik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Xalqaro va mahalliy manbalar ma’lumotlarga asoslangan strategik rejalashtirishning nafaqat iqtisodiy, balki boshqaruv jarayonlarida ham samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqotda analitik platformalarning strategik rejalashtirish jarayonidagi ahamiyatini aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Birinchi navbatda, ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirildi, bu orqali mavjud nazariy asoslar, ilg‘or tajribalar va zamonaviy yondashuvlar o‘rganildi. Keyingi bosqichda solishtirma tahlil metodidan foydalanildi, bunda turli platformalarning imkoniyatlari, funktsional jihatlari va amaliy qo‘llanilishi o‘rganildi. Shuningdek, statistik tahlil va grafik vositalar yordamida ma’lumotlar vizualizatsiya qilindi, bu strategik qarorlarni qabul qilishdagi tendensiyalarni aniqlashga yordam berdi. Tadqiqot metodlari analitik platformalarni samarali qo‘llash va ularning strategik rejalashtirish jarayoniga ta’sirini baholashga qaratildi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, analitik platformalarni qo‘llash strategik rejalashtirish jarayonida korxonalarning qaror qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Platformalar katta hajmdagi ma’lumotlarni birlashtirish, tahlil qilish va real vaqt rejimida trendlar va asosiy indikatorlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa resurslardan samarali foydalanish, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari jadvallar va diagrammalar yordamida vizual tarzda tasdiqlangan.

1-jadval korxonalarda analitik platformalarni qo‘llash darajasi va strategik qarorlar sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, platforma qo‘llanilishi yuqori bo‘lgan korxonalarda qaror qabul qilish tezligi va sifati sezilarli darajada yuqori.

Korxona nomi	Platforma qo‘llanish darajasi (%)	Qaror qabul qilish tezligi	Qaror qabul qilish sifati (ball)
A korxona	85	Tez	9.2
B korxona	70	O‘rtacha	7.8
C korxona	60	Sekin	6.5
D korxona	90	Tez	9.5
E korxona	75	O‘rtacha	8.0

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, platformalar yordamida ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va tahlil qilish osonlashadi, bu qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va xatolik ehtimolini kamaytiradi. Shu bilan birga, platformalar

kelajakdagi tendensiyalarni prognozlash imkoniyatini oshiradi, bu esa ishlab chiqarish hajmi, resurs taqsimoti va moliyaviy ko‘rsatkichlarni oldindan rejalashtirishga yordam beradi. Shuningdek, platformalarning qo‘llanilishi korxonalar va tashkilotlarda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, analitik platformalarni joriy qilgan tashkilotlarda qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi va strategik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyati oshadi. Shu tarzda, natijalar platformalarning strategik rejalashtirish jarayonidagi samaradorligini, tashkilot faoliyatini optimallashtirish va maqsadli natijalarga erishishda muhim vosita ekanligini aniq tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, analitik platformalar strategik rejalashtirish jarayonida korxonalarning qaror qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Platformalar katta hajmdagi ma’lumotlarni birlashtirish, tahlil qilish va real vaqt rejimida trendlar va asosiy indikatorlarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, natijalar ko‘rsatdiki, platformalardan samarali foydalanish korxonalarda qaror qabul qilish tezligini oshiradi va xatolik ehtimolini kamaytiradi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Platformalarning prognozlash imkoniyati tashkilotlarga kelajakdagi resurs taqsimoti, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy ko‘rsatkichlarni oldindan rejalashtirishga yordam beradi, bu esa strategik maqsadlarni amalga oshirish jarayonini soddalashtiradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolardan biri platformalarni joriy etishda texnik va kadrlar tayyorligi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, ma’lumotlarning sifatini ta’minlash va turli manbalardan olingan ma’lumotlarni integratsiya qilish jarayoni ba’zi tashkilotlarda murakkabliklar keltirib chiqaradi. Shu sababli, platformalarning to‘liq samarali ishlashi uchun ma’lumotlarni standartlashtirish, xodimlarni malaka oshirish va texnologik infratuzilmani mustahkamlash zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari analitik platformalarning strategik rejalashtirishdagi ahamiyati va korxona faoliyatini optimallashtirishdagi rolini aniq ko‘rsatadi. Platformalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish korxonalarning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi va maqsadli natijalarga erishishda muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, analitik platformalar strategik rejalashtirish jarayonida korxonalarning qaror qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Platformalar katta hajmdagi ma’lumotlarni birlashtirish, tahlil qilish va real vaqt rejimida trendlar va asosiy indikatorlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa resurslardan samarali foydalanish, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, platformalardan samarali foydalanish korxonalarda qaror qabul qilish tezligini oshiradi va xatolik ehtimolini kamaytiradi. Shu bilan birga, platformalarning prognozlash imkoniyati kelajakdagi resurs taqsimoti, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy ko‘rsatkichlarni oldindan rejalashtirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar, jumladan texnik tayyorgarlik va ma’lumot sifatiga oid cheklovlar,

platformalarning to‘liq samarali ishlashiga ta’sir qiladi. Shu sababli, tashkilotlarda ma’lumotlarni standartlashtirish, xodimlarni malaka oshirish va texnologik infratuzilmani mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, tadqiqot natijalari analitik platformalarning strategik rejalashtirish jarayonidagi ahamiyatini, korxona faoliyatini optimallashtirish va maqsadli natijalarga erishishdagi rolini aniq ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davenport, T. H., & Harris, J. G. (2007). Competing on Analytics: The New Science of Winning. Boston: Harvard Business School Press.
2. Provost, F., & Fawcett, T. (2013). Data Science for Business: What You Need to Know about Data Mining and Data-Analytic Thinking. Sebastopol, CA: O’Reilly Media.
3. Shmueli, G., Bruce, P. C., Gedeck, P., & Patel, N. R. (2020). Data Mining for Business Analytics: Concepts, Techniques, and Applications in R. Hoboken, NJ: Wiley.
4. McAfee, A., Brynjolfsson, E., Davenport, T. H., Patil, D. J., & Barton, D. (2012). Big data: The management revolution. Harvard Business Review, 90(10), 60–68.
5. Watson, H. J., & Wixom, B. H. (2007). The current state of business intelligence. Computer, 40(9), 96–99.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA MHXSga MUVOFIQ MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBI VA TAHLILI

Mualliflar: Kenjebayeva Gulfuza Raxmatillayevna [1], Kamolova Ruxshona Temurxon qizi [2]
Affiliyatsiya: FDTU, “ Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o’qituvchisi [1], FarTU 660-23r”Raqamli iqtisodiyot” yonalishi talabasi [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17588828

ANNOTATSIYA

Ushbu tezis raqamli transformatsiya sharoitida Moliya Hisobi Xalqaro Standartlari (MHXS) asosida moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish va tahlil qilish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi moliyaviy investitsiyalarning samarali boshqarilishi va hisobotlar ishonchliligini ta’minlash zarurati bilan bog‘liq. Tezisda MHXS 9, 32, 39 standartlari asosida moliyaviy investitsiyalarni turlari, amortizatsiyalanadigan va amortizatsiyalanmaydigan modellar, shuningdek, ularning keyingi baholash usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy investitsiyalar, MHXS, bozor qiymati, raqamli transformatsiya, amortizatsiyalanadigan qiymat, moliyaviy hisobot, investitsiyalarni baholash.

KIRISH

Raqamli transformatsiya davrida, moliyaviy investitsiyalar korxona faoliyatida muhim o‘rin tutadi. MHXS (Moliya Hisobi Xalqaro Standartlari) moliyaviy investitsiyalarning hisobi va hisobotida yagona qoidalarni belgilaydi. Ushbu standartlar investitsiyalarni boshqarish, ularning samaradorligini baholash va moliyaviy hisobotlarning ishonchlligini ta'minlashga qaratilgan. MHXS 9 "Moliyaviy instrumentlar", MHXS 32 "Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish" va MHXS 39 "Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash" moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish va baholashning asosiy standartlaridir. [1]

Ma’lumot uchun: ushbu standart 1-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish”ning o‘rnini egallaydi. Yangi standart 2027-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirishi belgilangan bo‘lib, tashkilotlarga standartni ushbu sanadan oldin ixtiyoriy ravishda qo‘llashga ruxsat etilishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun MHXS matni tan olingan (2022-yil 9-dekabrda ro‘yxatdan o‘tgan, r/r.3400). [5]

Mazkur MHXS standarti tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarni taqdim etish va oshkor etish bilan bog‘liq masalalarni yaxshilashga, unda foyda yoki zarar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladigan moliyaviy natijalar bo‘yicha ma’lumotlarni taqdim etishga alohida e’tibor qaratilgan.[1]

ASOSIY QISM

Moliyaviy investitsiyalar- bu aktivlar bo‘lib, ular korxona tomonidan dividendlar, foizlar yoki qiymat o‘sishidan daromad olish maqsadida sotib olinadi.

Moliyaviy investitsiyalar turlari:

- ✓ Qimmatli qog‘ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar)
- ✓ Ustav kapitalidagi ulushlar
- ✓ Qarz berilgan mablag‘lar
- ✓ Sotilgan moliyaviy aktivlar

MHXS ga muvofiq moliyaviy investitsiyalar ikki guruhga bo‘linadi:

Amortizatsiyalanadigan moliyaviy investitsiyalar - bu MHXS 9 ga muvofiq maqsadli foydalanish usuli aniq bo'lgan va bozori mavjud bo'lmagan moliyaviy aktivlardir. Ular dastlabki qiymatida hisobga olinadi va zarar yuzaga kelganida amortizatsiya hisoblanadi. [2]

Amortizatsiyalanmaydigan moliyaviy investitsiyalar - bu MHXS 9 ga muvofiq faol bozori mavjud bo'lgan va sotish maqsadida yoki qisqa muddatda foyda olish uchun sotib olingan moliyaviy aktivlardir. Ular doimiy ravishda bozor qiymatida baholanadi. [2]

MHXS 9 ga muvofiq, moliyaviy investitsiyalar dastlabki tan olishda oddiy qiymat asosida baholanadi. Oddiy qiymatga quyidagilar kiradi:

- ✓ Xarid narxi
- ✓ Xarajatlar (komissiyalar, bojlar, vositachilik xizmatlari) [3]

Misol: Korxona 1000 ta aktsiyani har biri 50$ dan sotib oldi. Broker xizmati 500$. Dastlabki tan olish qiymati: 1000 × 50$ + 500$ = 50,500$

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Moliyaviy investitsiyalarning keyingi baholashi - bu investitsiyalarning dastlabki tan olinganidan keyingi davrlarda qiymatini aniqlash va hisobga olish jarayonidir. MHXS 9 "Moliyaviy instrumentlar" ga muvofiq, moliyaviy investitsiyalarning keyingi baholashi ikkita asosiy model asosida amalga oshiriladi.

1. Amortizatsiyalanadigan qiymat modeli

Amortizatsiyalanadigan qiymat - bu moliyaviy aktiv dastlabki tan olingan qiymatidan buzilish (impairment) yo'qotilishlari hisoblagichiga ajratilgan summalar ayrilgandan keyingi qiymatidir. Amortizatsiyalanadigan qiymat modeli asosan uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy investitsiyalarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu modelning qo‘llanilish doirasi quyidagi holatlarni o‘z ichiga oladi:

Maqsadli foydalanish - muayyan maqsadda sotib olingan investitsiyalar. Amortizatsiyalanadigan qiymat modeli kompaniya tomonidan ma'lum bir strategik maqsadda sotib olingan investitsiyalarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunga misol qilib, kompaniyaning o'z faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan va uzoq muddatda ushlab turish niyatida sotib olingan investitsiyalarni keltirish mumkin. Masalan, asosiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va kelajakda korxona rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan sanoat korxonalaridagi ulushlarni ko'rsatishimiz mumkin. [4]

Bozori mavjud bo'lmagan - faol bozori yo'q qimmatli qog'ozlar. Bu model, ayniqsa, faol savdo bozori mavjud bo'lmagan moliyaviy investitsiyalar uchun qo'llaniladi. Bunga misol qilib, ochiq birjalarda savdosi amalga oshmaydigan, xususiy kompaniyalardagi ulushlar yoki bozor kotirovkalari muntazam ravishda mavjud bo'lmagan qimmatli qog'ozlarni keltirishimiz mumkin. Bunday hollarda, investitsiyalarning bozor qiymatini aniq aniqlash qiyin bo'lgani sababli, amortizatsiyalanadigan qiymat modeli eng maqbul yechim hisoblanadi.

Uzoq muddatli strategik - kompaniya faoliyati bilan bevosita bog'liq investitsiyalar. Amortizatsiyalanadigan qiymat modeli kompaniya faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan uzoq muddatli strategik investitsiyalar uchun mos keladi. Bunga misol qilib, kompaniyaning asosiy faoliyatini ta'minlovchi xom ashyo yetkazib beruvchi korxonalardagi ulushlar, texnologik hamkorlik uchun sotib olingan

investitsiyalar yoki bozor pozitsiyasini mustahkamlash maqsadidagi sanoatdagi raqobatchilardagi ulushlarni keltirishimiz mumkin. Bu investitsiyalar kompaniyaning asosiy biznes strategiyasining ajralmas qismi bo'lib, ularni qisqa muddatli bozor o'zgarishlariga qarab baholash maqsadga muvofiq emas. [4]

Hisobga olish tartibi

Amortizatsiyalanadigan qiymat = Dastlabki qiymat - Buzilish yo'qotilishlari+ Qayta tiklangan summalar

Buzilish testi. Har hisobot sanasida investitsiyalarning buzilish belgilari mavjudligi tekshiriladi:

- ✓ Qarz oluvchining moliyaviy qiyinchiliklari
- ✓ To'lovlarni kechiktirish
- ✓ Iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuvi

2. Bozor qiymat modeli - bu ma'lum bir sana dagi bozor ishtirokchilari o'rtasida tartibli bitim asosida aktiv sotish yoki majburiyatni bajarish uchun olinadigan narx. MHXS 13 ga muvofiq bozordagi qiymat 3 darajali ierarxiyaga ega[6]

1-daraja - Identifikatsiyalangan bozor narxlari

- ✓ Faol bozorlardagi kotirovkalar
- ✓ Birja narxlari

2-daraja - Bilvosita kuzatiladigan ma'lumotlar

- ✓ O'xshash aktivlar narxlari
- ✓ Kuzatiladigan bozor ma'lumotlari
- ✓ Korxilatlar va narx ko'rsatkichlari

3-daraja - Kuzatilmaydigan ma'lumotlar

- ✓ Kompaniyaning o'z baholash modellari
- ✓ Ehtimollik asosidagi baholar
- ✓ Mutaxassislik baholashlari

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish metodlari

Bozor qiymat usuli. Qimmatli qog'ozlar bozor qiymatida baholanadi, o'zgarishlar moliyaviy natijaga ta'sir etadi. [7]

Kapital qatnashishi usuli. Ustav kapitalidagi ulushlar 20-50% bo'lganda qo'llaniladi. Investitsiya dastlabki qiymatida hisobga olinadi va ulush foiziga muvofiq korxonaning sof foydasiga moslashtiriladi.

Samarali foiz stavkasi usuli. Qarz qimmatli qog'ozlari (obligatsiyalar) uchun qo'llaniladi. Foiz daromadlari samarali foiz stavkasi asosida hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyalar tahlili quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi:

Rentabellik ko'rsatkichlari

Investitsiyalarning umumiy rentabelligi = (Investitsiyadan olingan daromad / O'rtacha investitsiyalar qiymati) × 100%

Investitsiyalarning sof rentabelligi = (Investitsiyadan olingan sof daromad / O'rtacha investitsiyalar qiymati) × 100%

Risk ko'rsatkichlari

- ✓ Investitsiyalarning diversifikatsiya darajasi
- ✓ Investitsiyalarning likvidlik darajasi
- ✓ Valyuta riski darajasi

Samaradorlik ko'rsatkichlari

- ✓ Investitsiyalarning aylanish tezligi
- ✓ Investitsiyalarning daromadliligi

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

MHXS ga muvofiq, moliyaviy investitsiyalardagi o'zgarishlar quyidagicha hisobga olinadi: [7]

- ✓ Bozordagi qiymat o'zgarishi - moliyaviy natijaga ta'sir etadi
- ✓ Valyuta kursi o'zgarishi - moliyaviy natijaga ta'sir etadi
- ✓ Investitsiyalarning buzilishi (impairment) - zarar sifatida hisobga olinadi

Investitsiyalarning qayta baholanishi - kapitalda qayta baholash zaxirasiga o'tkaziladi.

XULOSA

Raqamli transformatsiya davrida, MHXS moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish va tahlil qilishda aniq qoidalarni belgilaydi. Ushbu standartlar hisobotning ishonchliligini oshiradi, investitsiyalarning haqiqiy qiymatini aks ettiradi va qaror qabul qilish jarayonida yordam beradi. Korxonalar MHXS talablariga qat'iy rioya qilgan holda moliyaviy investitsiyalarini samarali boshqarishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, amortizatsiyalanadigan qiymat modeli kompaniyaning uzoq muddatli strategik manfaatlariga xizmat qiladigan, bozor qiymatini aniq aniqlab bo'lmaydigan va ma'lum bir biznes maqsadlari uchun sotib olingan investitsiyalarni hisobga olishda qo'llaniladi. Bu model kompaniyaga investitsiyalarning haqiqiy iqtisodiy qadrini va ularning biznes strategiyasidagi o'rnini to'g'ri aks ettirish imkoniyatini beradi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Moliya Hisobi Xalqaro Standartlari (MHXS)" - Xalqaro Moliya Hisobi Standartlari Kengashi (IASB), 2023 yil nashri
2. MHXS 9 "Moliyaviy instrumentlar"
3. MHXS 32 "Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish"
4. MHXS 39 "Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash"
5. "Moliyaviy hisob va hisobot" - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2022
6. PwC "IFRS and US GAAP: Similarities and Differences" - 2023
7. "Korxona moliyasi" - O'zbekiston iqtisodiyot universiteti darsligi, 2021

INNOVATIVE ACTIVITIES OF THE EVOLUTION OF DIGITAL PLATFORMS

Author: A.U.Kobilov [1]
Affiliation: Tashkent State University of Economics Professor of the Department of Digital Economics [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17589065

ABSTRACT

With the development of informatization and digitalization, the joint use of IT infrastructure is increasingly carried out in order to expand innovative activities. Digital platforms (DP) are becoming a common mechanism of interaction. More and more small and medium-sized enterprises are developing innovative platforms and using the intermediary role of these innovations in various market segments and sectors. Global digitalization of economic activity makes the requirement for joint use of information resources and information infrastructure by market entities one of the key conditions for the development of innovative activities.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Keywords: evolution, digital platforms, development, innovation, innovation.

INTRODUCTION

Changes in the ways of doing business in the modern economy are due to the development of informatization and the subsequent digitalization processes. This leads to the fact that the activities of organizations are becoming increasingly saturated with information technology (IT) and services. The synergistic effect of digitalization occurs due to the interactions between economic entities that begin to jointly develop IT and related services, actively use them, which leads to the development of IT infrastructure. Digitalization, thus, through the use of the global IT infrastructure enables organizations to flexibly and much more quickly adapt to dynamic changes in the external environment. According to N.V. Dneprovskaya, "the use of IT in the economy allows economic entities to achieve new economic effects by adapting to the constantly changing external business environment" [1, p. 49]. The modern economy is characterized by changes in the adaptive mechanisms of communication activities of economic entities, ensuring the continuity of interactions with all stakeholders, which allows them to carry out both the provision and consumption of services in the electronic environment. Digitalization has changed the nature of business activity both in terms of business opportunities and the methods of implementing them.

Platforms provide a set of common methods, technologies and interfaces for a wide range of users, participants (e.g. third-party app developers) and spin-offs that, when rich enough, lead to the formation of an ecosystem [2]. The platform economy is characterized by modularity: many platforms operating in niche markets mostly remain so, while others grow, specialize further and develop, even absorbing other niche businesses until they themselves manage to become platform ones. By expanding and facilitating entrepreneurship, digital platforms play an important role

in stimulating and creating new opportunities for bottom-up innovation [3]. On the supply side, digital platforms promote new forms of entrepreneurship and innovation, allowing people to fully exploit technological opportunities and realize their own ambitions or achieve alternative goals.

In total, 2913.9 EB2 of information was transferred in the countries of the association in 2023. Three quarters of this volume came from China. Another 15% in total came from India and Russia. At the same time, the growth in Internet traffic in our country ensured an increase in its share among the BRICS+ countries from 4.7% in 2021 to 5.4% in 2023 (Fig. 1).




Fig. 1. Global Internet Protocol traffic, Gbps [1]

The modern market has long been characterized by a value chain that includes data collection, processing, analysis, storage, and, of course, modeling. Firms create value by transforming data into analytics and monetizing it. Digital data as a new economic resource creates and retains value, allowing economic entities to increase their strategic importance by controlling it. This leads to the formation of new competitive advantages and the growth of market power for such firms. It is data that underlies the rapid development of information and digital technologies: Internet services, blockchain, the Internet of Things, AI, and cloud computing.

Secondly, the process of platformization, which significantly changes industries and markets. The effectiveness of the CP is indicated by the use of business models based on them by the largest companies by capitalization. CPs become a mechanism for interactions between many economic entities through communications via the Internet. Companies focused on platform interactions gain more advantages in the data-driven economy. Significant amounts of information related to the business activity of platform users are extracted and recorded.

Thus, the global digitalization of economic activity makes one of the key conditions for the development of innovative activity the requirement for the joint use of information resources and information infrastructure by market entities, and, consequently, the capabilities of the digital platform.

The essence and nature of digital platforms. In the text of the Program "Digital Economy of the Russian Federation", the DP is understood as "a system of algorithmic mutually beneficial relationships of a significant number of independent participants in an economic sector (or sphere of activity), carried out in a single information environment, leading to a reduction in transaction costs due to the use of an IT package for working with data and changes in the division of labor system" [8].

One of the distinctive features of the CPU is the virtually unlimited number of users that can function together with its help.

A significant number of studies have been devoted to the nature of digital platforms, their categorization, and issues of their impact on the economy. Figure 2 shows the categories of digital platforms according to the typology of M. Kenney and J. Zysman [2].




Fig. 2. Categories of digital platforms

According to M. Jacobides et al., “the coming era of digital platforms provides the opportunity for various types of economic entities, service and manufacturing, small and medium, domestic and foreign, to extract competitive advantages from the processing of digital data” [9].




Fig. 3. Typology of digital platforms according to P. Evans

Economic entities actively use the digital platform when conducting joint business activities. Thus, the methods and techniques of using IT in economic activities are becoming one of the priority areas in strategic planning [11]. The process of transition to a digital economy is based, therefore, on the use of information and digital technologies, the availability and convenience of IT infrastructure and flexible digital business models. This article examines innovative platforms, since it is through them that economic entities have the opportunity to quickly bring innovations to the market and form an effective innovative ecosystem.

RESEARCH METHODOLOGY

The premises described in the previous section highlight the need to understand how and to what extent digital platforms differ in function and structure in order to develop an understanding of how they may influence the development of innovative activities of economic entities. Although the literature on the platform economy is quite diverse, a clear theory of the impact of different types of platforms on the economy as a whole has not yet been developed.

When studying DP in scientific literature, issues of pricing principles [12, 13], formation of platform strategies and innovations [14, 15], management and architecture of platforms [16, 17] are considered, and an analysis of platform competition [18, 19] and network effects [20, 21] is also carried out. However, it should be noted that there is no unified approach to studying the evolution of DP.

Thus, the aim of this study was to determine the factors influencing the transition of economic entities to the use of DP, and to form on this basis an evolutionary classification of DP.

During the study, systems analysis, systematization, formalization and other general scientific and special methods of scientific research were used.

RESULTS AND DISCUSSION

For any type of economic activity, the transition from automation to informatization to digitalization occurs progressively (evolutionarily). Therefore, it is necessary to take into account a significant number of factors that play a role in the transition of an economic entity to DP when implementing innovative activities.

The innovative environment emerging in the digital economy is based on information resources, the development and use of which leads to a change in the directions of their application in innovative activities. Expansion of the information environment is possible only with an evolutionary transition from one stage of application of information technologies to the next. This, in turn, gives economic entities access to new, innovative types of resources (Fig. 4).

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY




Fig. 4. Scheme of innovation creation through interaction of different types of resources [22]

Based on the literature reviewed, the authors propose an evolutionary classification of DPs used in the transition to the implementation of innovative activities (Fig. 6).

At the first stage of IT use within the framework of innovation activities, software and hardware-software solutions are developed on the basis of the CP. The product/tool for information processing and the transaction for the exchange of goods and/or services become the result of innovation activities. The beneficiary is considered to be the developer of software and hardware-software solutions. He sets the technical requirements.

The second stage is characterized by the need to process and analyze incoming data to make optimal management decisions for the economic entity. The beneficiary imposes requirements both on the functionality of the services and on the composition of the information.

During the transition to the third stage, a full-fledged digital market infrastructure is formed based on ecosystems, allowing for the implementation of innovative business models and the management of innovative activities based on the results of big data processing.

Thus, although the digital era began several decades ago with the Internet and the transformation of IT-based services, significant improvements in the processing, transmission and access to data are pushing economic actors towards a new techno-economic paradigm: the “platform economy” or “digital platform economy”. Digitalization and cloud technologies are the infrastructures on which new economic activities and organizational models operate, i.e. platform markets and

business/commercial/institutional ecosystems. Digital platforms are therefore the core of this innovative reorganization of the economy: they are the hinges and mediators of the actions and development of software, hardware, operations and networks.

CONCLUSION

The growing number of economic entities, the development of the digital environment, the rapid transformation of forms of interaction in it, the creation of new goods and services determine the growth of competition in innovative activities [23].

The replacement of old channels of business interactions with information technologies and DP leads to the fact that one of the key advantages for economic entities in the process of implementing innovative activities is online relations in real time [22]. The development of digitalization processes enables economic entities to automate expensive and labor-intensive communication stages of innovative activities when searching for strategic partners.

REFERENCES

1. Shevtsova I.V., Dneprovskaya N.V. Involving citizens in business communications in economics and public administration // Public administration in the 21st century: Proc. of the 13th international. conf. – Section 7. Anti-crisis management: state mechanisms, business technologies. – M.: "KDU", University book, 2016. – P. 49–57.
2. Kenney M., Zysman J. The rise of the platform economy // Issues in Science and Technology. – 2016. – No. 32(2). – P. 61–69. DOI: 10.17226/21913
3. Kenney M., Zysman J. Choosing a Future in Platform Economy: The Implications and Consequences of Digital Platforms, Kauffman Foundation New Entrepreneurial Growth Conference. – Amelia Island Florida, 2015. DOI: 10.1017/CBO9781107415324.004
4. Sundararajan A. Peer-to-peer businesses and the sharing (collaborative) economy: Overview, economic effects and regulatory issues. – Written testimony for the hearing titled The Power of Connection: Peer to Peer Businesses, 2014.
5. Bogdanowicz M. Digital entrepreneurship barriers and drivers: The need for a specific measurement framework // JRC Technical Report – EUR 27679 EN. – Brussels, 2015. DOI: 10.2791/3112
6. Schor J. Debating the Sharing Economy // Journal of Self-Governance and Management Economics. – 2016. – No. 1(3). – P. 7–22.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Muallif: Mardanova Ra’no Isakovna [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasi PhD dotsenti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17589271

ANNOTATSIYA

IoT qurilmalaridan real vaqt rejimidagi ma'lumotlarni oziq-ovqat ta'minoti zanjirlariga integratsiyalashuvi prognozli tahlillar orqali talab va taklifni samarali boshqarish yo'lidagi muhim qadamdir. IoT qurilmalari qaror qabul qilish va operatsiyalarni optimallashtirishga yordam beradigan muhim ma'lumotlarni olish va uzatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Namlik sensorlari harorat monitoringi bilan birgalikda ishlaydi va saqlash sharoitlarini har tomonlama ko'rishni ta'minlaydi va nozik oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashni yanada yaxshilaydi. GPS kuzatuv tizimlari transport vositalari uchun real vaqt rejimida joylashuv ma'lumotlarini taqdim etish orqali ta'minot zanjiri operatsiyalarini tushunishning yana bir qatlamini taklif qiladi. Mahalla tizimida turli IoT qurilmalari o'rtasida standartlashtirilgan aloqa protokollarini

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

orqali uzluksiz ma'lumotlar almashinuvini osonlashtiradigan integratsiya platformalari orqali tahlil qiladilar.

Turli xil IoT texnologiyalaridan foydalangan holda, mahalla tizimi barcha jaryonlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi hamda quyidagi samaradorlikga erishadi: oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotidagi uzilishlar (48–72 soat oldin) bashorat qilinadi, qaror qabul qiluvchi organlar uchun real vaqtli ma'lumotga asoslangan boshqaruv interfeysi yaratiladi.

XULOSA

Mahalla tizimida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash faqat agrar ishlab chiqarish jarayonlariga tayanadigan yo'nalish emas, balki institutsional boshqaruv, innovatsion texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlikni o'zida mujassam etgan kompleks tizimdir. Shu sababli, ta'minot zanjirining samaradorligini oshirish orqali mahalla darajasida oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlarini doimiy ravishda monitoring qilish, tahlil etish va boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, dinamik ta'minot zanjiri boshqaruv tizimini shakllantirish kelajakdagi oziq-ovqat sanoatida samaradorlik, barqarorlik va moslashuvchanlikni oshiruvchi innovatsiyalar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu yondashuv mahalla miqyosida oziq-ovqat siyosatini ilg'or texnologiyalar va jamoaviy ishtirok asosida rivojlantirishga zamin hozirlaydi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Takliflar

1.Mahalla IoT integratsiyasi bo'yicha o'z tajribasidan foydalanish uchun davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishlari kerak. Ushbu hamkorliklar ilg'or texnologiyalardan foydalanishni ta'minlaydi, bu esa mahallaga imuammolarini yechishga va IoT umumiy strategiyasini yaxshilash imkonini beradi. 2.Mahalla tizimi xodimlariga IoT qurilmalari tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlash bo'yicha zarur ko'nikmalarni berish kerak, bu samarali qarorlar qabul qilish uchun juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Oʻzbekiston Respublikasining 03.02.2025 yildagi Oziq-ovqat xavfsizligi toʻgʻrisidagi OʻRQ-1023-son Qonuni,
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi PF-158-son Farmoni.
3. B. Eickhout, H. van Meijl, A. Tabeau and E. Stehfest The Impact of Environmental and Climate Constraints on Global Food Supply*. https://www.researchgate.net/publication/5081769
4. Berkinov B. Mahalla hududida aholini oziq – ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talablarining tahlili va prognozi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologiyes) ilmiy elektron jurnal, 2/2024,mart-aprel, (№ 00070)
5. Agu, Edith & Chiekezie, Njideka & Abhulimen, Angela & Obiki-Osafiele, Anwuli & Abhulimen, Angela. (2024). * Corresponding author: Njideka Rita Chiekezie Optimizing supply chains in emerging markets: Addressing key challenges in the financial sector. 10.53346/wjast.2024.6.1.0045.
6. Abhulimen, A. O., & Ejike, O. G. (2024). Ethical considerations in AI use for SMEs and supply chains: Current challenges and future directions. International Journal of Applied Research in Social Sciences, 6(08), 1653–1679.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

MAHALLA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI ASOSIY YO‘NALISHLAR

Muallif: Qulmatova Sayyora Safarovna [1]
Affiliyatsiya: TDIU, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi PhD, dotsent [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17589665

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning mahalla boshqaruv tizimining raqamli transformatsiyasini o‘rganildi. Tadqiqot mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish institutlarining shaffofligi, samaradorligini oshiradigan tashkiliy, iqtisodiy va axborot texnologiyalari yechimlarini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot fuqarolar va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida real vaqt rejimida aloqa o‘rnatish, avtomatlashtirilgan xizmatlarni yetkazib berish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni ta'minlaydigan raqamli modelni taklif qilish orqali AKT vositalarini an'anaviy jamoat tuzilmalariga integratsiyalashning innovatsion yondashuvini taqdim etadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so’zlar: raqamli mahalla, raqamli boshqaruv, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish, mobil platforma, davlat boshqaruvi, raqamli transformatsiya

KIRISH

Ma’lumki, dunyodagi murakkab geosiyosiy sharoitlar, global raqobatning keskin tus olishi va resurslar uchun kuchayib borayotgan kurash davlatlarni yangicha uslub va yondashuvlar asosida raqamli texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz ham ana shunday talablarga javob beradigan yangi texnologiyalardan foydalanish masalasi oldingi o’ringa chiqdi. Uning markazida inson qadri, xalq manfaati va amaliyotdagi hayotbaxsh natijalar turadi. Zero, bugun mamlakat taraqqiyot mezoni faqat iqtisodiy o‘sish emas, balki davlat boshqaruvi shaffofligi, mahalliy rahbarlar faoliyatida natijadorlik, ijro intizomi qat’iyligi, eng muhimi, odamlar dardini eshitish va hal qilishga qodir bo‘lgan tizimlarning mavjudligiga ham bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi mahalla tizimida raqamli transformatsiya so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi, ijtimoiy himoya va mahalla boshqaruvining muhim ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Raqamli transformatsiya davrida mahalliy boshqaruv tuzilmalarini modernizatsiya qilish ma'muriy samaradorlikni oshirish, fuqarolarning ishtirokini va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni kuchaytirishga intilayotgan ko'plab mamlakatlar uchun muhim ustuvor vazifaga aylandi. Mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'muriy landshaftida muhim rol o'ynaydigan o'zini o'zi boshqarish instituti bo'lgan mahalla tizimini raqamlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni tezlashdi. Mahalla tizimi fuqarolar va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni osonlashtiradigan, ijtimoiy farovonlik, nizolarni hal qilish va mahalliy rivojlanish tashabbuslarini nazorat qiluvchi bo'lib xizmat qiladi.


An'anaviy qog'ozga asoslangan boshqaruv mexanizmlari va cheklangan raqamli infratuzilma uning zamonaviy boshqaruvning o'sib borayotgan talablarini qondirish qobiliyatini cheklab qo'yadi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun

raqamli texnologiyalarni mahalla faoliyatiga integratsiya qilish ham strategik zarurat, ham amaliy yechimdir.

O'zbekistonda mahalla boshqaruvini raqamli transformatsiyasida "Raqamli mahalla" mobil ilovasi ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish, fuqarolar ishtirokini kuchaytirish va real vaqt rejimida ma'lumotlar almashinuvi va mobil xizmatlardan foydalanish orqali shaffoflikni ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Shuningdek, mamlakatda texnologik imkoniyatlar va sun'iy intellektni boshqaruv tizimiga joriy etish ehtiyoji hayotiy zaruratga aylangandi. Bunga mahalliy boshqaruvda fuqarolarning haqiqiy muammolarini tezkor aniqlash va hal qilish "Xalq nazorati" elektron portalini tashkil qilinishi misol bo'ladi. Fuqarolar qurilish, yo'l, obodonlashtirish va infratuzilma bilan bog'liq muammolarni fotosurat va aniq manzil bilan ilova qilib yuborishlari mumkin bo'ladi. E'tirof etish lozimki, ushbu portal amaliyotga samarali joriy etilsa, aholi murojaatlarining yagona platformasi sifatida ishlaydigan, barcha vazirlik va idoralar bilan integratsiyalangan, davlat va fuqaro o'rtasidagi masofani qisqartiruvchi mexanizm vazifasini o'taydi. Shuningdek, kameralar tirbandlikni boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash uchun xizmat qilishi kerak. Svetoforlarni "aqlli boshqaruv"ga o'tkazish, yo'l belgilarini to'g'rilash, chorrahalarda harakatni sun'iy intellekt orqali boshqarish vazifasining amalga oshirilishi faqat qulaylik emas, balki fuqarolar hayoti uchun xavfsizlik va kafolat manbai bo'lib xizmat qiladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY



1-rasm Mahalla tizimini raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari

Yana bitta yechim sifatida "Smart Mahalla" mobil ilovasi mahalla fuqarolari uchun e-hujjat, murojaat, statistik ma'lumotlar va geolokatsiya asosidagi xizmatlarni taqdim etadi. "Online-Mahalla.uz" platformasi esa ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bandlik, remittanslar, ijtimoiy to'lovlar va oilaviy daromadlar haqidagi ma'lumotlarni yagona tizimda birlashtiradi. Mahalla tizimida raqamli axborot almashinuvini davlat organlari (Moliya vazirligi, Bandlik agentligi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali) bilan integratsiyalash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'z navbatida, ushbu yo'nalishdagi harakatlar va vazifalarni to'liq amalga oshirishda yuqorida texnologiya sifatida aqlli mahalla tizimini yaratish kerak. Shuningdek, mahallaga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishda ishlarini kengaytirish va mahalla fuqarolarini faol jalb etishga ham jiddiy yondashish kerak. Bunday

innovatsiyalarning joriy etilishi nafaqat aqlli boshqaruvdagi global tendentsiyalarga mos keladi, balki hukumatning yanada ochiq, tezkor va hisobdor ma'muriy muhitni yaratadi.

XULOSA

O‘zbekistonning mahalla boshqaruv tizimini raqamli texnologiyalar orqali raqamli transformatsiya qilish yanada shaffof, samarali va inklyuziv mahalliy boshqaruvga strategik o’tishni anglatadi. Tashkiliy islohotlar, iqtisodiy asoslar va ilg‘or axborot texnologiyalarini birlashtirish orqali ushbu tashabbus zamonaviy, fuqarolarga yo‘naltirilgan jamoat boshqaruvi modeli uchun zamin yaratadi. Ushbu tadqiqot natijalari mahalla faoliyatini raqamlashtirish xizmatlar ko‘rsatishni sezilarli darajada yaxshilashi, ma'muriy ish jarayonlarini soddalashtirishi va fuqarolarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda kengroq kirish va ishtirok etish orqali ularni qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, nafaqat texnologik yechim, balki kengroq institutsional o‘zgarishlar uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Hamda aholi va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida real vaqt rejimida o‘zaro ta'sirni osonlashtiradi, byurokratik inertsiyani kamaytiradi va hisobdorlik madaniyatini rivojlantiradi. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish muvofiqlashtirilgan siyosat yondashuvini, raqamli infratuzilmaga investitsiyalarni va mahalla xodimlari orasida salohiyatni oshirishni talab qiladi. O‘zbekiston “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida keng qamrovli raqamli boshqaruvga yo‘lini davom ettirar ekan, bu raqamli tashabbuslar an'anaviy tizimlar va innovatsion davlat xizmati modellari o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Oxir-oqibat, ushbu o‘zgarish mahallaning noyob ijtimoiy-madaniy tuzilishini aks ettirib, xalqaro ilg‘or amaliyotlarga mos keladi va raqamli taraqqiyot hamjamiyat va hamkorlikning asosiy tamoyillarini o‘rnini bosuvchi emas, balki qo‘llab-quvvatlashini ta'minlaydi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
2. Normurodov, Z. (2023). Improving the digital competencies of mahalla employees. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), Uzbekistan.
3. Turmanov, S.T. (2021). O‘zbekistonda mahalliy institutlar rivojlanishining milliy xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 1(6), 97–107. [https://www.oriens.uz]
4. Muzaffarova D. Tashkilotning funksional operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish yo ‘llari //Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 275-284.
5. Muzaffarova D. Raqamli transformatsiyani joriy qilish metodologiyasi //Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 48- 56.
6. S. Qulmatova. Aholini oziq – ovqat mahsulotlariga bo’lgan iste’mol talablari modellashtirish. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi, vol. 5 No. 09 (2025).

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SANOAT 4.0 GA O‘TISHDAGI O‘RNI VA BOSQICHLARI

Muallif: Rajabov Sherzod Baxtiyorovich [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasi v.b dotsenti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17589740

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining Sanoat 4.0 konsepsiyasiga o‘tishdagi o‘rni, ahamiyati va bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli texnologiyalar – IoT, sun’iy intellekt, kiberjismoniy tizimlar, bulutli hisoblash va katta hajmdagi ma’lumotlar sanoat jarayonlarini modernizatsiya qilishdagi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Sanoat 4.0 ga o‘tishning bosqichlari sifatida raqamli infratuzilmani shakllantirish, jarayonlarni avtomatlashtirish, aqlli boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda integratsiyalashgan raqamli ekotizimni yaratish jarayonlari yoritiladi. Maqola doirasida korxonalar uchun raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish, mavjud imkoniyatlarni baholash va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar taqdim etiladi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkonini berishini ko‘rsatadi. Ushbu ish Sanoat 4.0 ga o‘tish jarayonida raqamli transformatsiyaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: raqamli transformatsiya, Sanoat 4.0, avtomatlashtirish, IoT, AI, raqamli infratuzilma, innovatsiya, raqamli ekotizim, bulutli texnologiyalar

KIRISH

Bugungi kunda sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni ta’minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish masalalari strategik ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo miqyosida kechayotgan texnologik rivojlanish jarayonlari sanoat tarmoqlarini yangi bosqichga olib chiqayotgan bo‘lib, ushbu o‘zgarishlarning markazida Sanoat 4.0 konsepsiyasi turadi. Mazkur model raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, Internet of Things, kiberjismoniy tizimlar, bulutli platformalar va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash kabi ilg‘or yondashuvlarga asoslanadi. Sanoat 4.0 korxonalarga ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali yuqori unumdorlikka erishish va xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Sanoat 4.0 ga o‘tishning poydevori raqamli transformatsiya bo‘lib, u korxona faoliyatining barcha yo‘nalishlarini – boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish usullari, xizmat ko‘rsatish modeli va axborot oqimlarini kompleks raqamlashtirishni talab qiladi. Raqamli transformatsiya jarayoni korxona ichidagi mavjud resurslarni tahlil qilish, raqamli infratuzilmani shakllantirish, texnologik modernizatsiya, avtomatlashtirilgan tizimlarni integratsiya qilish va raqamli madaniyatni rivojlantirish kabi bosqichlardan

iborat. Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi korxonaga Sanoat 4.0 tamoyillarini to‘liq joriy etish imkonini yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan mazkur ilmiy ishning dolzarbligi shundaki, unda raqamli transformatsiyaning Sanoat 4.0 ga o‘tishdagi o‘rni ilmiy asoslangan holda yoritiladi, bosqichlar tizimli tarzda tahlil qilinadi va ushbu jarayonning samaradorlikka ta’siri aniqlanadi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sanoat 4.0 va raqamli transformatsiya bo‘yicha ilmiy adabiyotlar ushbu jarayonlarning nazariy hamda amaliy asoslarini keng yoritadi. Xususan, K. Shvab o‘zining “To‘rtinchi sanoat inqilobi” asarida Sanoat 4.0 texnologiyalarining inson resurslari, ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruv tizimlariga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur tahlil qiladi. Unga ko‘ra, raqamli texnologiyalar korxonalar faoliyatini to‘liq qayta tashkil etuvchi strategik omildir. J. Lee va hamkorlari kiberjismoniy tizimlarning sanoat jarayonlarini optimallashtirishdagi rolini ko‘rsatib, ularning real vaqt rejimidagi monitoring va boshqaruv imkoniyatlarini alohida ta’kidlaydi. M. Porter va J. Heppelmann esa raqamli transformatsiyaning asosiy kuchi raqamli platformalar va aqlli mahsulotlar integratsiyasida ekanligini ta’kidlab, IoT asosidagi sanoat modellarini samaradorlikning yangi bosqichi sifatida baholashadi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Shuningdek, P. Kagermann tomonidan ishlab chiqilgan Sanoat 4.0 arxitekturasi konsepsiyasida ishlab chiqarish tarmoqlarini raqamlashtirishning asosiy tamoyillari — moslashuvchanlik, avtomatlashtirish, tarmoqlangan integratsiya va aqlli boshqaruv tizimlari — ilmiy asoslar bilan bayon qilingan. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya korxona infratuzilmasi, raqamli madaniyat va malakali kadrlar bilan bevosita bog‘liq.

Tadqiqot jarayonida bir nechta metodlar qo‘llanildi. Tizimli tahlil metodi Sanoat 4.0 texnologiyalarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga imkon berdi. Taqqoslash metodi yordamida turli mamlakatlar tajribasi, xususan Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya sanoat raqamlashtirish strategiyalari solishtirildi. Konseptual yondashuv raqamli infratuzilma, avtomatlashtirish va aqlli boshqaruv tizimlarining yagona modeldagi o‘rnini belgilashga xizmat qildi. Shuningdek, kontent-tahlil metodi asosida yetakchi olimlar asarlari, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlar (WEF, OECD, McKinsey) hisobotlari o‘rganilib, Sanoat 4.0 ga o‘tishning nazariy asoslari umumlashtirildi. Ushbu metodlar tadqiqotning ilmiy ishonchliligini ta’minladi va ishlab chiqilgan xulosalarning amaliy ahamiyatini kuchaytirdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya jarayonlarining Sanoat 4.0 ga o‘tishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Korxonalarda raqamli infratuzilma darajasi, avtomatlashtirish ko‘lami, IoT va AI asosidagi boshqaruv tizimlarini joriy etish darajasi hamda ishlab chiqarish samaradorligi tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich amalga oshirilgan korxonalarda ishlab chiqarish hajmi 12–18 %, energiya sarfi 10–15 % ga optimallashtirilgan va jarayonlarni boshqarish aniqligi sezilarli darajada oshgan.

1-jadval Raqamli transformatsiya bosqichlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich daraja	O‘rta daraja	Yuqori daraja
Raqamli infratuzilma	45 %	67 %	89 %
Avtomatlashtirish darajasi	32 %	54 %	81 %
IoT integratsiyasi	18 %	42 %	76 %
AI asosidagi boshqaruv tizimlari	10 %	27 %	64 %
Energiya samaradorligi	8 %	13 %	22 %
Ishlab chiqarish unumdorligi	11 %	16 %	26 %

NATIJALAR TAHLILI

Olingan ko‘rsatkichlar raqamli transformatsiyaning Sanoat 4.0 ga o‘tishda strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Yuqori darajada raqamlashtirilgan korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlari tezkor va aniq boshqariladi, resurslardan samarali foydalaniladi hamda energiya sarfi kamayadi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya va Sanoat 4.0 tamoyillarini integratsiyalashgan tarzda joriy etish korxonaga raqobatbardoshlikni oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Raqamli transformatsiya jarayonlari Sanoat 4.0 ga o‘tishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon korxonalarda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor almashish, resurslardan samarali foydalanish va sifatni yaxshilash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Sanoat 4.0 ga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va har bir bosqichda o‘ziga xos vazifalar mavjud. Avvalo, korxona jarayonlarini tahlil qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish strategiyasini ishlab chiqish muhimdir. So‘ng avtomatlashtirish va tizimlarni integratsiya qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlari raqamli platformaga o'tkaziladi.

Real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish orqali jarayonlarni optimallashtirish va qaror qabul qilishni tezlashtirish mumkin bo‘ladi. Raqamli transformatsiya jarayonida texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, kadrlar malakasining pastligi, ma’lumotlar xavfsizligi va tizimlarni integratsiya qilishdagi muammolar kabi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, tadqiqot natijalari bu muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha strategik choralarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, raqamli transformatsiya va Sanoat 4.0 ga o‘tish korxonalarga samaradorlikni oshirish, raqobatbardoshlikni mustahkamlash va innovatsion rivojlanishni ta’minlash imkonini beradi.

XULOSA

Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining Sanoat 4.0 ga o‘tishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor almashish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash orqali korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi. Sanoat 4.0 ga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va har bir bosqichda o‘ziga xos vazifalar va strategiyalar mavjud. Shu bilan birga, texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, kadrlar malakasining pastligi, ma’lumotlar xavfsizligi va tizimlarni integratsiyalashdagi muammolar jarayon samaradorligini cheklash mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish va raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun strategik choralar zarur. Umuman olganda, raqamli transformatsiya va Sanoat 4.0 ga o‘tish korxonalarga innovatsion rivojlanish, samaradorlik va raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Schwab, K. (2017). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
2. Lasi, H., Fettke, P., Kemper, H.-G., Feld, T., & Hoffmann, M. (2014). Industry 4.0. Business & Information Systems Engineering, 6(4), 239–242. https://doi.org/10.1007/s12599-014-0334-4
3. Kagermann, H., Wahlster, W., & Helbig, J. (2013). Recommendations for implementing the strategic initiative INDUSTRIE 4.0. Frankfurt: Acatech – National Academy of Science and Engineering.
4. Brettel, M., Friederichsen, N., Keller, M., & Rosenberg, M. (2014). How Virtualization, Decentralization and Network Building Change the Manufacturing Landscape: An Industry 4.0 Perspective. International Journal of Information and Communication Engineering, 8(1), 37–44.
5. Hermann, M., Pentek, T., & Otto, B. (2016). Design Principles for Industrie 4.0 Scenarios. Proceedings of the 49th Hawaii International Conference on System Sciences (HICSS), 3928–3937. https://doi.org/10.1109/HICSS.2016.488

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON HUKUMAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONLARI

Mualliflar: Sabirova Dildor Arifovna [1], Odiljon Olimovich Azizov [2]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti “Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar” kafedrasi dotsenti [1], Xalqaro Nordik universiteti Akademik departament bo‘limi Ta’lim platformalari bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17589824

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonlari tahlil qilinadi. Elektron hukumatning ahamiyati, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish omillari, shuningdek, aholiga qulay va shaffof xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali”, “my.gov.uz” tizimi hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi islohotlar misolida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: elektron hukumat, raqamli transformatsiya, davlat xizmatlari, axborot texnologiyalari, ochiqlik va shaffoflik, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, yagona darcha, innovatsion boshqaruv

KIRISH

Elektron hukumat davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.

Mamlakatimizda elektron hukumat tizimi O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Elektron hukumatni tadbiq qilish darajasi har bir mamlakat taraqqiyoti darajasining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi va vaqti-vaqti bilan maxsus reyting Elektron hukumat tayyorligi indeksi (E-government Readiness Index)ni tuzadigan BMT ekspertlari tomonidan o'lchanadi.

Ushbu global tendentsiya doirasida, bizning mamlakatimiz hukumati tomonidan bir qator hujjatlar qabul qilingan. Jumladan:

- O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 maydagi «Elektron hukumat» tizimi doirasida axborot — kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-4328-son qarori;
- O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining “Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o‘z

faoliyati bo‘yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 16 iyuldagi 444-son qarori.

“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida 2022 йил 27-avgust kuni Toshkent viloyati Zangiota tumanida “Elektron hukumat” tizimi ma’lumotlarini saqlash va qayta ishlash yagona markazi ishga tushdi. Markazda Xitoyning Huawei kompaniyasi bilan hamkorlikda 20 peta bayt xotiraga ega tizim tashkil etilgan. 580 ta server, umumiy elektr quvvati 5 megavattli dizel generatorlar tizimning uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.

Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko‘riladigan manfaat mavjud bo‘lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya‘ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi. Hozirgi vaqtda, hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e‘tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo‘li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.


ASOSIY QISM

Elektron hukumat tizimini joriy etishga mas‘ul organ va muassasalar:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi - elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta‘minlaydi.
- O‘zbekiston respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi - elektron hukumat sohasidagi vakolatli organ bo‘lib, elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.
- “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi — Elektron hukumat” tizimi loyihalarini amalga oshirishning me‘yoriy-metodik ta‘minlanishini tashkil qilish, davlat organlarida foydalanilayotgan axborot tizimlari, axborot resurslari va ma‘lumotlar bazalarini ishlab chiqish va integrasiyalashni ta‘minlaydi.

Davlat organlari elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Turli xil onlayn xizmatlar orqali fuqarolar va tadbirkorlar davlat veb-saytlariga kirishlari va ko'plab shakllarni to'ldirishlari, uchrashuvga yozilishlari, ish qidirishlari mumkin va hokazo. Ma‘lumotlarni qayta ishlovchi boshqa davlat xizmatlari litsenziyalar va ruxsatnomalarni olish imkoniyati, soliq deklaratsiyalarini topshirish va ijtimoiy nafaqalar olish uchun ariza berish imkoniyatini beradi.



1-chizma. Elektron hukumat tizimida amalga oshirilgan loyihalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil, 29 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida 2021-yilning oxiriga qadar elektron davlat xizmatlarini 60 taga ko‘paytirib, ularni 300 taga, masofaviy xizmatlar ulushini esa kamida 60 foizga yetkazish zarurligi ta‘kidlangandi.[1]

Shundan kelib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonining 24 hamda 25-ilovasiga muvofiq, «2021 yilda davlat xizmatlarini ustuvor ravishda elektron shaklga o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi» taqdim etildi.

Mazkur topshiriqni amalga oshirish maqsadida vazirlik tomonidan mavjud davlat xizmatlari tahlil qilinib, 2021-yilda YaIDXP orqali davlat xizmatlarini ustuvor ravishda elektron shaklga o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur dastur loyihasi bilan davlat boshqaruvi organlari, vazirlik va idoralar tomonidan ananaviy tarzda yoki boshqa manbalar orqali elektron ko‘rsatilayotgan talabgorligi yuqori bo‘lgan davlat xizmatlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish belgilangan.

Bular quyidagi xizmatlar:

- Fuqarolikka qabul qilish uchun ariza yuborish;
- avtomobilni texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun onlayn to‘lovlarini amalga oshirish;
- oliy ta‘lim to‘g‘risidagi dublikat hujjatlarini berish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining doimiy joylashgan joyi (yashash joyi) faktini rasmiy tasdiqlash;
- ish daromadlari to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma olish;
- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i holati haqida ma‘lumot olish;
- oliy o‘quv yurtlariga hujjatlarni qabul qilish;
- avtotransport vositalarini onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish;
- avtotransport vositasining davlat raqami va texnik pasportini o‘zgartirish uchun ariza yuborish;
- oliy ta‘lim muassasalarining magistraturasiga o‘qishga kirish uchun hujjatlarini topshirish;.
- mehnat daftarchasidan ko‘chirma olish;
- saylov uchastkasini aniqlash yoki o‘zgartirish va h.

Ushbu dastur bilan davlat xizmatlarini to‘liq masofadan ko‘rsatish bo‘yicha jarayonlarni avtomatlashtirish va xizmat ko‘rsatish bosqichlarin maksimal darajada optimallashtirish nazarda tutilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumat bo‘yicha yangi 2022 yil tadqiqotida O`zbekiston 193 davlat orasida 69-o‘rinni egalladi.2

Elektron hukumat elementlarining joriy etilishi davlat boshqaruvi samaradorligini, davlat protseduralarining shaffofligini oshirishi va ehtimol, davlat xizmatchilari safidagi korrupsiya darajasining sezilarli pasayishiga olib kelishi kutilmoqda.

Jamiyatning rivojlanish darajasi, davlat sektorida IT sohasining rivojlanishiga bevosita bog'liq. Bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlari o'z oldiga turli

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29.12.2020
2 https://www.spot.uz/ru/2022/09/29/e-gov-survey/

ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlarni maksimal darajada axborotlashtirish vazifasini qo'ymoqda. Elektron hukumat tizimining shakllantirilishi davlat boshqaruvi va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini, fuqarolik jamiyati va biznesning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligini, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Janubiy Koreyani haqli ravishda “Elektron hukumat” tizimini joriy etish sohasida - namuna deyish mumkin. 2017-yilda Janubiy Koreyaning elektron hukumati o‘zining 50 yilligini nishonladi. Bu davr mobaynida mamlakatda fuqarolar istalgan joyda va istalgan vaqtda onlayn xizmatlardan foydalanishlari uchun barcha ishlar amalga oshirildi.

Barchaga ayonki O`zbekistonda ham bugun aloqa, axborotlashtirish va IT texnologiyalari sohasini rivojlantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aytish mumkinki, “Elektron hukumat”ning aholi o‘rtasida faol qo‘llanilishini ta’minlash borasida allaqachon ko‘p ishlar qilingan.

Shu bilan birga, elektron hukumat tizimini rivojlantirishning uslub va yondashuvlarini yanada takomillashtirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Bugungi kunda ushbu savollarga yechim topish zarur:

-Mamlakatimiz elektron hukumatni rivojlantirish indeksi bo‘yicha dunyo mamlakatlari yetakchilaridan farqini yo‘qotish uchun qanday muammolarni yengib o‘tishi kerak?

-Elektron hukumat davlat xizmatlari sifatini oshirishning yetakchi omiliga aylanishi uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak?

Ushbu muammolarni hal qilish:

– BMT metodologiyasi va elektron hukumat indeksi ko‘rsatkichlarini;

– elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro reytingda yetakchi o‘rinlarni egallagan Daniya, Estoniya, Janubiy Koreya, AQSH va boshqalar kabi ilg‘or mamlakatlar, shuningdek, ushbu sohada jadal rivojlanayotgan MDH davlatlarining tajribasini chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish jarayonlari davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron hukumatning joriy etilishi orqali davlat xizmatlari sifati oshib, fuqarolar uchun qulay, tezkor va shaffof muhit yaratilmoqda. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash jarayonlari ham izchil davom etmoqda. Kelgusida elektron hukumat tizimini yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribalarni joriy etish, integratsiyalashgan ma’lumotlar bazasini yaratish va fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Davlat sektorida IT vositalaridan malakali foydalanish, davlat xizmatlarining shaffofligi, tezkorligini ta’minlashi, shuningdek fuqarolarning muammolarini samarali hal etishini ta’minlashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Elektron hukumat” to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi qonuni, 2015-yil 9-dekabr, O‘RQ-395-son;

2. «Elektron hukumat» tizimi doirasida axborot — kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-4328-son qarori;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (PF–6079-son, 05.10.2020 y.)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning
5. Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasi. 2020-yil 29 dekabr
6. gov.uz- O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.
7. my.gov.uz -Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
8. lex.uz- O‘zbekiston respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
9. ictnews.uz/28/08/2017/e-gov-4/
10. www.spot.uz

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA AUTSORSING KOMPANIYALAR BILAN HAMKORLIK ORQALI ILG‘OR BOSHQARUV TIZIMLARINI JORIY ETISH VA XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Muallif: Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi [1]
Affiliyatsiya: Toshkent davalt iqtisodiyot universiteti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assistenti[1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17589935

ANNOTATSIYA

Zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonida autsorsing kompaniyalar bilan samarali hamkorlik tashkilotlar faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Ushbu maqolada autsorsing mexanizmlari yordamida ilg‘or boshqaruv tizimlarini (ERP, CRM, BI, SCM va boshqalar) joriy etishning samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida autsorsing kompaniyalarning o‘rni, ular tomonidan taklif etilayotgan innovatsion texnologik yechimlar, axborot xavfsizligi va ma’lumotlar almashinuvining ishonchliligi muhokama qilinadi. Tadqiqotda korxonalar faoliyatida autsorsingdan foydalanish natijasida boshqaruv xarajatlarining qisqarishi, xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligi oshishi, shuningdek, raqamli tizimlarni joriy etishdagi xatoliklarning kamayishi kuzatildi. Ilg‘or boshqaruv tizimlarini autsorsing kompaniyalar yordamida amalga oshirish, nafaqat resurslardan oqilona foydalanish, balki raqamli iqtisodiyot sharoitida tashkilotning strategik rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi. Maqolada autsorsing xizmatlarining transformatsion jarayonlardagi afzalliklari, muammolari va istiqbollari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida autsorsing hamkorlik modeli orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: raqamli transformatsiya, autsorsing, ilg‘or boshqaruv tizimlari, xizmat ko‘rsatish samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, korporativ boshqaruv, axborot xavfsizligi, IT infratuzilma, strategik rivojlanish, raqamli integratsiya, tashqi hamkorlik

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayoni tashkilotlarning strategik rivojlanishida, boshqaruv tizimlarini optimallashtirishda hamda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish korxonalarga ichki jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish orqali qaror qabul qilish sifatini yaxshilash, hamda mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati ko‘p hollarda tashqi ekspertiza va texnik resurslarga ega bo‘lgan autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlik darajasiga bog‘liqdir.

Autsorsing kompaniyalari korxonalarga zamonaviy raqamli yechimlar, ilg‘or boshqaruv tizimlari (ERP, CRM, SCM, BI va boshqalar) hamda IT-infratuzilmani samarali boshqarish xizmatlarini taklif etadi. Ushbu hamkorlik modeli tashkilotlarga o‘z asosiy faoliyat yo‘nalishlariga e’tibor qaratish imkonini berib, texnik va raqamli

infratuzilma bilan bog‘liq jarayonlarni tajribali mutaxassislarga topshirish orqali resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

Raqamli transformatsiya jarayonida autsorsingning ahamiyati shundaki, u nafaqat texnik qo‘llab-quvvatlashni, balki strategik boshqaruv, innovatsion yondashuv va biznes jarayonlarning uzluksizligini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ilg‘or boshqaruv tizimlarini autsorsing orqali joriy etish tashkilotlarga raqamli iqtisodiyotning talablariga moslashish, tezkor axborot almashinuvi va analitik imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, raqamli transformatsiya sharoitida autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli, ushbu maqolada autsorsing va ilg‘or boshqaruv tizimlarining integratsiyasi orqali tashkilot faoliyatida raqamli transformatsiyaning samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi besh yil davomida raqamli transformatsiya, autsorsing xizmatlari va ilg‘or boshqaruv tizimlari masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jahon va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya korxonalar faoliyatining barcha bosqichlariga ta’sir etuvchi kompleks jarayonga aylangan. Ayniqsa, pandemiya davridan keyingi davrda korxonalarning raqamli infratuzilmasini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda tashqi autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zaruriyati yanada ortgan.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

So‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy ishlarda raqamli transformatsiya va autsorsing o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘riladi. Tadqiqotchilar raqamli texnologiyalarni joriy etish autsorsing xizmatlarining sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv tizimlarida shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilishini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, ilg‘or boshqaruv tizimlari (ERP, CRM, BI, SCM va boshqalar) korxonalar faoliyatini optimallashtirishda muhim vosita bo‘lib, ularni autsorsing asosida joriy etish raqamli transformatsiya jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonida autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlik tashkilotlarga bir qator ustunliklar beradi. Ular qatorida moliyaviy samaradorlik, risklarni kamaytirish, yangi texnologiyalarni tez joriy etish, ma’lumotlar xavfsizligini oshirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash kabi jihatlar mavjud. Biroq ba’zi tadqiqotlar autsorsing jarayonida yuzaga keladigan muammolarga — masalan, ma’lumotlarni himoya qilish, texnik nazoratni yo‘qotish, va korporativ madaniyatning moslashmasligi kabi xavflarga ham e’tibor qaratadi.

Shuningdek, so‘ngi yillar oralig‘ida chop etilgan bir qator ilmiy manbalarda raqamli transformatsiya va ilg‘or boshqaruv tizimlarining korxona faoliyatidagi o‘zaro integratsiyasi chuqur tahlil qilingan. Olimlar fikricha, korxonalar autsorsing asosida ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali o‘z faoliyatini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ularning xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tezkor, moslashuvchan va sifatli boshqarishiga olib keladi.

METODLAR

Tadqiqotda so‘nggi besh yillik adabiyotlar tahlili asosida ilmiy asoslangan yondashuvlar qo‘llaniladi. Avvalo, tizimli adabiyot tahlili usuli orqali so‘ngi yillarda

chop etilgan ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va hisobotlar o‘rganiladi. Bu metod mavzuga oid dolzarb nazariy yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Keyingi bosqichda **taqqoslama tahlil** metodi yordamida autsorsing asosida ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish bo‘yicha turli mamlakatlarda amalga oshirilgan tajribalar solishtiriladi. Natijada, har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Shuningdek, **sifatli tahlil** usuli orqali raqamli transformatsiya va autsorsingning iqtisodiy, tashkiliy va texnologik jihatlari chuqur o‘rganiladi. Bu jarayonda ilg‘or boshqaruv tizimlarining joriy etilishi natijasida xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi.

Agar amaliy tadqiqot imkoniyati mavjud bo‘lsa, **holat tahlili (case study)** metodi qo‘llaniladi. Unda autsorsing asosida raqamli tizimlarni joriy etgan real korxonalarning tajribasi o‘rganilib, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi.

Umuman olganda, ushbu metodlar raqamli transformatsiya jarayonida autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlik orqali ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish samaradorligini aniqlash, tahlil qilish va ilmiy asoslash imkonini beradi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonida autsorsing kompaniyalari bilan hamkorlik qilish korxonalar faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Autsorsing xizmatlaridan foydalanish natijasida tashkilotlarda boshqaruv tizimlari optimallashtiriladi, xarajatlar kamayadi, va raqamli texnologiyalarni joriy etish tezligi ortadi. So‘nggi besh yillik tahlillar korxonalar faoliyatida ijobiy o‘zgarishlarni yaqqol namoyon etadi.

1.1-jadval. raqamli transformatsiya jarayonida autsorsing xizmatlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari (2020–2024 yillar tahlili asosida)

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
IT-autsorsingdan foydalanuvchi tashkilotlar (%)	40	49	57	65	73
Raqamli yechimlarni joriy etish tezligi (oylarda)	12	10	8	6	5
Operatsion xarajatlarni qisqartirish darajasi (%)	9	13	17	21	25
Boshqaruv samaradorligining o‘sish darajasi (%)	10	14	19	23	28
Mijozlar qoniqish darajasi (%)	68	72	78	83	88

1.1-jadvaldan ma’lum bo‘lishicha, autsorsing xizmatlarini jalb etgan tashkilotlarda raqamli transformatsiya jarayonlari yanada tezroq amalga oshgan, boshqaruv tizimlari takomillashgan va xizmat sifati ortgan.

1.2-jadval Autsorsing asosida raqamli transformatsiya samaradorligining o‘sish dinamikasi (2020–2024 yillar)

Yil	Operatsion xarajatlarni qisqartirish (%)	Boshqaruv samaradorligi o‘sishi (%)	Mijozlar qoniqish darajasi (%)
2020	9	10	68
2021	13	14	72
2022	17	19	78

2023	21	23	83
2024	25	28	88

Diagramma tahliliga ko‘ra, 2020–2024 yillar davomida autsorsing asosida amalga oshirilgan raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida iqtisodiy va boshqaruv ko‘rsatkichlari muntazam o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. Ayniqsa, 2023–2024 yillarda o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lib, bu davrda ilg‘or boshqaruv tizimlari va raqamli yechimlar keng joriy etilgan.

Tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalar chiqarildi:

- ✓ Autsorsing xizmatlarini qo‘llash raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtiradi va tashkilotning texnologik moslashuvchanligini oshiradi.
- ✓ Ilg‘or boshqaruv tizimlari joriy etilgach, qaror qabul qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi va inson omilining xatolik ehtimoli kamayadi.
- ✓ Operatsion xarajatlarning qisqarishi moliyaviy samaradorlikni oshirib, resurslarni innovatsion rivojlanishga yo‘naltirish imkonini beradi.
- ✓ Mijozlar qoniqishining o‘sishi xizmat sifatining yaxshilanishi, tezkor texnik qo‘llab-quvvatlash va shaffof boshqaruv tizimlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Autsorsing orqali korxona nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki strategik boshqaruv darajasida ham barqaror o‘sishni ta’minlay oladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

MUHOKAMA

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonida autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlik qilish korxonalarning strategik boshqaruvini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Autsorsing xizmatlaridan foydalanish orqali tashkilotlar o‘zining asosiy faoliyat yo‘nalishlariga e’tibor qaratish imkoniga ega bo‘ladi, ikkinchi darajali texnik va yordamchi jarayonlarni esa malakali tashqi mutaxassislarga topshiradi. Bu jarayon natijasida ichki resurslardan foydalanish optimallashtiriladi, ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur’atlari ortadi. Shuningdek, autsorsing kompaniyalari ilg‘or texnologiyalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalangan holda tashkilotlarga raqamli transformatsiya jarayonini samarali amalga oshirishda yordam beradi.

Biroq autsorsing hamkorligi bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ular asosan ma’lumotlar xavfsizligi, xizmat sifati va hamkor ishonchliligiga taalluqlidir. Tashqi kompaniyalarga axborot tizimlariga kirish huquqining berilishi xavfsizlik risklarini kuchaytiradi, shuningdek, ayrim hollarda autsorsing xizmatlarining sifati kutilgan natijaga mos kelmasligi mumkin. Shu sababli, autsorsing jarayonida xavfsizlik protokollari, nazorat mexanizmlari va sifat monitoringi tizimlarini kuchaytirish zarur.

Muhokama natijalariga ko‘ra, autsorsing kompaniyalari bilan hamkorlik korxonalarga texnologik yangilanishni tezlashtirish, ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya davrida autsorsing tashqi ekspertiza va innovatsion yondashuvlarni tashkilotlarga olib kirib, ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, autsorsingdan foydalanish korxona rahbariyatiga strategik qarorlarni tezroq va aniqroq qabul qilish, bozor sharoitlariga moslashish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

XULOSA

Raqamli transformatsiya jarayonida autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlik qilish zamonaviy boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tashqi resurslardan oqilona foydalanish tashkilotlarga o‘z faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda strategik maqsadlarni tezroq amalga oshirish imkonini beradi. Autsorsing kompaniyalar bilan hamkorlik ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etishda texnologik yangiliklarni tezroq o‘zlashtirish, malakali mutaxassislar tajribasidan foydalanish va xizmat ko‘rsatish sifatini barqaror ushlab turish uchun qulay sharoit yaratadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida autsorsing nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki tashkilot ichida innovatsion madaniyatni shakllantiradi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma’lumotlarga asoslangan yondashuvni kengaytiradi hamda xizmat ko‘rsatish jarayonlarida raqamli analitika, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlardan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Autsorsing asosidagi hamkorlik raqamli transformatsiya jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u tashkilotlarga raqobatbardoshlikni oshirish, tezkor boshqaruv tizimlarini shakllantirish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini yuqori darajada ta’minlash imkonini beradi. Kelgusida bu yo‘nalishda milliy va xalqaro miqyosda tajriba almashish, yangi raqamli boshqaruv modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith, J., & Brown, T. (2021). Outsourcing and digital transformation: Enhancing operational efficiency. New York: Springer. – 315 p.
2. (Mamatqulova, D. (2020). Strategies for implementing digital management in enterprises. Bukhara: BDU Press.)
3. Deloitte Insights. (2023). Global outsourcing trends report. Retrieved from https://www.deloitte.com
4. PwC. (2022). Digital transformation and the future of outsourcing. Retrieved from https://www.pwc.com
5. Nurmatov, I. (2024). Raqamli transformatsiya jarayonida autsorsingning iqtisodiy afzalliklari. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar instituti. – 156 bet.
6. (Nurmatov, I. (2024). Economic advantages of outsourcing in the process of digital transformation. Tashkent: Institute of Economics and Innovation.)
7. World Economic Forum. (2023). The digital transformation of industries: Driving efficiency through outsourcing. Geneva: WEF.
8. Sh, R. (2025). Opportunities for digitizing and customizing the educational process based on open-source software. Экономика и социум, (6-1 (133)), 653-656.
9. Baxtiyorovich, R. S., Urinovich, K. A., & Mashrab ogli, A. M. (2022). BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING TALIM SOHASIDA QOLLANILISHI. Архив научных исследований, 5(5).
10. Sadinov, A., & Rajabov, S. (2023). Utilizing digital technologies for waste management. In E3S Web of Conferences (Vol. 381, p. 01096). EDP Sciences.

MILLIY SUG‘URTA BOZORIDA BIZNES-JARAYONLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Muallif: Shakirov Utkirbek Tahirovich [1]
Affiliyatsiya: “Kafil-Sug‘urta” AJ Investitsiyalar departamenti direktori [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17596794

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy sug'urta bozorini raqamlashtirishdagi mavjud tendentsiyalar va ularning sug'urta kompaniyalari biznes jarayonlarining samaradorligiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, ichki jarayonlarni avtomatlashtirish, masofaviy mijozlarga xizmat ko'rsatish platformalarini joriy etish va xavfni baholash va sug'urta hodisalarini prognoz qilish uchun Big Data va sun'iy intellektdan foydalanish tahlil qilingan. Raqamlashtirish milliy sug'urta bozorida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar tajribasini yaxshilashga yordam beradi degan xulosaga kelingan.

Kalit so’zlar: raqamlashtirish, sug'urta bozori, biznes jarayonlari, avtomatlashtirish, Big Data, sun'iy intellekt, mijozlar tajribasi, optimallashtirish

KIRISH

Zamonaviy sug'urta bozori yuqori raqobat, iste'molchilarning o'zgaruvchan afzalliklari va xizmat ko'rsatish tezligi va sifatiga bo'lgan talablarning ortishi bilan tavsiflanadi. Ushbu muhitda raqamli texnologiyalarni joriy etish sug'urta kompaniyalarining samaradorligini oshirish va biznes jarayonlarini optimallashtirishda asosiy omilga aylanib bormoqda. Raqamlashtirish odatiy operatsiyalarni avtomatlashtirish, tahliliy imkoniyatlarni yaxshilash va mijozlar bilan tezroq o'zaro aloqalarni ta'minlash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Jahon sug‘urta bozorini shakllantirish uchun bozorni erkin tartibga solish, sug‘urta kompaniyalarini birlashtirish, sug‘urta va bank kapitali o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, jahon iqtisodiyoti miqyosining oshishi, qayta sug‘urtalash bozorini rivojlantirish, xalqaro axborot tarmog‘i sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internetdan faol foydalanish kabi shartlar bajarilishi kerak[1].

Sug'urta tarmog’ini raqamlashtirish biznes jarayonlarining samaradorligi, shaffofligi va tezligini oshirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kompleks joriy etishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy sug'urta sanoatida raqamlashtirish bir nechta asosiy sohalarni qamrab oladi, ularning har biri kompaniya faoliyatini optimallashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

[1] Евгения Леонидовна Прокопьева. Современный страховой рынок россии: проблемы и потенциал развития. Digest Finance, 2022, vol. 27, iss. 1, pp. 66–88

Raqamlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sug'urta kompaniyalarining ichki jarayonlarini avtomatlashtirishdir. Bunga hujjatlarni qayta ishlash vaqtini qisqartiradigan, xatolarni minimallashtiradigan va buxgalteriya operatsiyalarining aniqligini oshiradigan elektron hujjat aylanishi tizimlaridan foydalanish kiradi. Avtomatlashtirish shuningdek, sug'urta polislarini yaratish va qayta ishlashni ham o'z ichiga oladi - mukofotlarni hisoblashdan tortib shartnomalarni bajarish va mijozlar fayllarini boshqarishgacha.

Integratsiyalashgan ERP tizimlarini joriy etish turli kompaniya bo'limlarini yagona axborot muhitiga integratsiya qilish orqali buxgalteriya hisobi va boshqaruvni optimallashtiradi. Bu jarayonlarning shaffofligini ta'minlaydi, moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlashni tezlashtiradi va takroriy bitimlar ehtimolini kamaytiradi. Ichki jarayonlarni avtomatlashtirish shuningdek, tashkiliy boshqaruvni yaxshilaydi, bu esa rahbariyatga kompaniya faoliyati bo'yicha analitik hisobotlarni tezda olish imkonini beradi.

Sug'urtada raqamlashtirishning ikkinchi muhim sohasi raqamli mijozlar bilan aloqa qilish uchun samarali kanallarni yaratishdir. Sug'urta kompaniyalari masofaviy sug'urta shartnomalarini tuzishga imkon beruvchi mobil ilovalar va veb-platformalarni faol ravishda ishlab chiqmoqdalar, bu esa jismoniy ofisga tashrif buyurish zaruratini bartaraf etadi. Onlayn konsultatsiyalar, chatbotlar va intellektual xizmatlar mijozlar so'rovlarini tezkor qayta ishlash, sug'urta mahsulotlarini tanlash bo'yicha tavsiyalar berish va da'volarni tezkor hal qilish vositalariga aylanmoqda. Mijozlar ma'lumotlarini tahlil qilish orqali kompaniyalar o'z takliflarini shaxsiylashtirishlari, har bir foydalanuvchining ehtiyojlarini eng yaxshi qondiradigan mahsulotlarni yaratishlari mumkin. Bu yondashuv mijozlarning qoniqishini oshiradi va brendga sodiqlikni mustahkamlaydi.

Raqamlashtirishning uchinchi sohasi xavflarni prognoz qilish va baholashning aniqligini oshirish uchun zamonaviy analitik texnologiyalardan foydalanishdir. Katta ma'lumotlardan foydalanish mijozlarning xatti-harakatlari, sug'urta hodisalari va bozor tendentsiyalari haqida juda ko'p miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi, bu esa sug'urta da'volarining ehtimolini aniqroq prognoz qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt (AI) sug'urta da'volarini avtomatik ravishda tekshirish, firibgarlikni aniqlash va da'volar tartiblarini optimallashtirish uchun faol qo'llaniladi. Bashoratli tahlil mijozlarning noyob xavflari va afzalliklarini hisobga oladigan moslashtirilgan sug'urta mahsulotlarini yaratish imkonini beradi, bu esa sug'urta operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi.


Sug'urta sohasida raqamlashtirish (digitalizatsiya) jarayoni kompaniyalarga **risklarni aniqroq baholash, prognoz qilish va boshqarish imkonini beradi.** An'anaviy sug'urta modellari ko'pincha statistik ma'lumotlar va tajriba asosida qaror qabul qilgan bo'lsa, raqamli texnologiyalar yordamida risklarni hisoblash jarayoni sezilarli darajada avtomatlashtiriladi va optimallashtiriladi.

Sug'urta mahsulotlarining soni va turlarining o'sishi munosabati bilan risklarni baholash tizimini yaratish zarurati tug'ildi. Shu maqsadda ular matematik usullar va statistik ma'lumotlardan foydalana boshladilar, bu esa sug'urta hodisalarining yuzaga kelish etimolini aniqroq baholash imkonini berdi. Aktuarlik kasbi joriy etildi. Aktuariylar ma'lum bir sug'urta hodisasi sodir bo'lish ehtimoli asosida mukofotlarni

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

hisoblash uchun statistik ma’lumotlardan foydalanishni boshladilar[2]. Bu risklarni yanada aniqroq baholash va sug‘urta tariflarini belgilash imkonini berdi. Sug‘urta kompaniyalari kelajakdagi xatarlarning chastotasi va narxini bashorat qilishga yordam beradigan statistik ma’lumotlarni yig‘ishni boshladilar. Bu sug‘urta mukofotlarini hisoblashni yanada takomillashtirish va risklarni boshqarish modellarini ishlab chiqish uchun asos bo‘ldi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy sug‘urta bozori ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘langan ekotizim bo‘lib, unda turli tomonlar o‘zaro ta’sir qiladi: sug‘urta qoplamasini taklif qiluvchilar, unga muhtoj bo‘lganlar va uni sotib oladiganlar, bu jarayonga yordam beradigan ixtisoslashgan tashkilotlar va ushbu sohani tartibga soluvchi davlat institutlari. Quyidagi 1–rasmda zamonaviy sug‘urta bozorining tuzilishi keltirilgan.



1-rasm. Zamonovaiy sug‘urta bozorining tuzilishi[3]

Sug'urta sohasida raqamlashtirish kompaniyaning ichki jarayonlari va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarini keng qamrovli o'zgartirishni, shuningdek, xabardor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun analitik vositalarni joriy etishni anglatadi. Bu sug'urta tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va resurslardan foydalanishni optimallashtirish uchun zamin yaratadi.

[2] И. В. Мальцев, Е. В. Грачёва. "Страхование в России: история, современность, будущее" — Издательство: Научная книга. 2017 г. 280 с.
[3] Муаллиф ишланмаси

Raqamli texnologiyalar asosida biznes jarayonlarini optimallashtirish bir nechta mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

- jarayonlarni qayta loyihalashda eskirgan ish oqimlarini qayta ko'rib chiqish va avtomatlashtirilgan modellarni joriy etish;
- tizim integratsiyasi CRM, ERP va tahliliy platformalarni yagona axborot makoniga integratsiya qilishga mo'ljallangan;
- raqamli xizmatlar mijozlarga onlayn sug'urta va masofaviy da'volarni hal qilish imkoniyatlarini taqdim etadi;
- ish faoliyatini nazorat qilish va monitoring qilishda jarayonlar samaradorligini baholash uchun raqamli boshqaruv panellari va KPi tizimlaridan foydalaniladi.

Ushbu mexanizmlardan samarali foydalanish operatsion xarajatlarni kamaytiradi, xatolarni kamaytiradi, da'volarni qayta ishlashni tezlashtiradi va mijozlar qoniqishini oshiradi.

Aniq afzalliklarga qaramay, sug'urta sohasida raqamlashtirish raqamli tashabbuslarni rejalashtirish va amalga oshirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan bir qator muhim qiyinchiliklar va cheklovlarga duch kelmoqda. Asosiy muammolardan biri axborot tizimlarini modernizatsiya qilishning yuqori narxidir. Zamonaviy platformalar, avtomatlashtirilgan jarayonlar va tahliliy vositalarni joriy etish katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi, bu esa cheklangan resurslarga ega kompaniyalar uchun juda muhim bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangi tizimlarni mavjud jarayonlar bilan integratsiyalash ko'pincha texnik xizmat ko'rsatish va texnik yordam uchun murakkabliklar va qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Yana bir muhim muammo - malakali IT va tahlil mutaxassislarining yetishmasligi. Raqamli vositalardan samarali foydalanish katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, biznes intellekt va kiberxavfsizlik sohasida malakali xodimlarni talab qiladi. Kerakli tajribaga ega inson resurslarining yetishmasligi texnologiyalarni joriy etishni sekinlashtirishi va raqamli transformatsiya samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, raqamlashtirish kiberxavfsizlik xavflarining ortishi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zarurati bilan bog'liq. Sug'urta kompaniyalari mijozlarning katta miqdordagi maxfiy ma'lumotlarini qayta ishlaydi, bu ularni kiberhujumlar uchun jozibador nishonga aylantiradi. Ma'lumotlar xavfsizligining buzilishi moliyaviy yo'qotishlarga, obro'ga putur yetkazishga va huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, bu esa mustahkam axborot xavfsizligi tizimlarini joriy etishni va tahdidlarni doimiy monitoring qilishni talab qiladi.

Nihoyat, korporativ madaniyat va biznes jarayonlarini raqamli muhitga moslashtirish ham jiddiy muammo hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish an'anaviy ish modellarini o'zgartirishni, xodimlarni yangi vositalar bo'yicha o'qitishni va tashkiliy jarayonlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Xodimlarning o'zgarishlarga qarshiligi va tashkilotning raqamli innovatsiyalarga tayyor emasligi transformatsiyani sekinlashtirishi va uning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun raqamlilashtirishga strategik yondashuv, jumladan, bosqichma-bosqich texnologiyalarni joriy etish, byudjetni puxta rejalashtirish, xodimlarni tizimli o'qitish va qayta tayyorlash hamda kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish talab etiladi. Ushbu kompleks yondashuv xavflarni minimallashtiradi, kompaniyaning raqamli muhitga barqaror moslashishini ta'minlaydi va bozorda uzoq muddatli raqobatbardosh ustunliklarni yaratadi.

XULOSA

Milliy sug'urta bozorida biznes jarayonlarini raqamlashtirish sug'urta kompaniyalarining samaradorligini oshirishning asosiy vositasidir. Avtomatlashtirish, analitik tizimlar, katta ma'lumotlar va sun'iy intellektni joriy etish mijozlarga tezroq xizmat ko'rsatish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va qaror qabul qilishni yaxshilash imkonini beradi. Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya jarayonlarni kompleks boshqarish, strategik investitsiya siyosati va xodimlarning malakasini oshirishni talab qiladi. Kelajakda raqamlashtirish sug'urta tashkilotlarining ham milliy, ham xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini belgilovchi omilga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Евгения Леонидовна Прокопьева. Современный страховой рынок россии: проблемы и потенциал развития. Digest Finance, 2022, vol. 27, iss. 1, pp. 66–88
2. И. В. Мальцев, Е. В. Грачёва. "Страхование в России: история, современность, будущее" — Издательство: Научная книга. 2017 г. 280 с.
3. Орланюк-Малицкая Л.А., Янова С.Ю., Богоявленский С.Б. Страхование 4-е изд.Учебник для вузов. Изд. 4. 2023. 481 с.
4. Мазаева М.В. Экономическое поведение участников страхового рынка: социологический подход к изучению // Мониторинг общественного мнения. 2011. №1 (101). С. 45.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ILG‘OR BOSHQARUV TIZIMLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Muallif: Sofoyeva Fotima Davlatyorovna [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Sanoatni boshqarish varaqamli texnologiyalar kafedrasi assisenti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17596853

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida tashkilotlarda boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiya qilish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda sun’iy intellekt, “Big Data” va bulutli texnologiyalar asosida qaror qabul qilish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ilg‘or boshqaruv tizimlarining raqamli iqtisodiyotga ta’siri, ularning innovatsion rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqotda boshqaruv tizimlarining raqamli asr talablariga moslashuvi, ularning barqaror rivojlanishdagi roli hamda inson resurslari boshqaruvi va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlariga ta’siri tahlil qilingan. Natijada, raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan omillar, yo‘nalishlar va istiqbollar aniqlangan.

Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, boshqaruv tizimlari, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, innovatsiya, Big Data, bulutli texnologiyalar, qaror qabul qilish, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, axborot texnologiyalari

KIRISH

Zamonaviy davrda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylanib, mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida boshqaruv tizimlarining mohiyati tubdan o‘zgarib, ularni ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday o‘zgarishlar nafaqat korxona va tashkilotlar faoliyatida, balki butun iqtisodiy muhitda yangi tamoyillarni shakllantirmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlari — bu avtomatlashtirilgan, sun’iy intellekt asosida ishlovchi va ma’lumotlarga tayangan holda qaror qabul qiluvchi kompleks tizimlardir. Ular korxonalarning samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlari tashkilotlarning strategik rejalashtirish jarayonlarini soddalashtiradi, real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi hamda boshqaruv qarorlarining aniqligini oshiradi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida ilg‘or boshqaruv tizimlarining o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, sun’iy intellekt, “Big Data”, bulutli texnologiyalar va Internet of Things (IoT) kabi yechimlar boshqaruv jarayonlariga

chuqur integratsiyalashmoqda. Buning natijasida iqtisodiy tahlil, prognozlash va resurslarni taqsimlashda yangi yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Shu sababli, ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish, ularning samaradorligini baholash va istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Mazkur mavzu dolzarb bo‘lib, u nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki raqamli iqtisodiyotda boshqaruv tizimlarining takomillashuvi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, korxonalar faoliyatini raqamlashtirish va innovatsion rivojlanishga turtki berishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli iqtisodiyot va ilg‘or boshqaruv tizimlari sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Jahon miqyosida olib borilgan izlanishlar boshqaruv jarayonlarining raqamli transformatsiyasi, sun’iy intellekt, “Big Data” hamda avtomatlashtirilgan tizimlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Masalan, Brynjolfsson va McAfee (2017) raqamli iqtisodiyotda texnologik innovatsiyalar boshqaruv samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlashgan. Porter va Heppelmann (2019) esa raqamli platformalar asosidagi “aqlli” boshqaruv tizimlarining korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashdagi o‘rnini yoritganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga tatbiq etish nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki innovatsion rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mahalliy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimlarini rivojlantirish yo‘nalishida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamli yechimlarni joriy etish, axborot tizimlarini integratsiyalash hamda boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Ushbu islohotlar raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.

Tadqiqot metodlari va metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, tahliliy, statistik, taqqoslash hamda modellashtirish metodlari qo‘llanildi. Tizimli yondashuv orqali raqamli boshqaruv tizimlarining tarkibiy elementlari, ularning o‘zaro aloqasi va iqtisodiy muhitga ta’siri o‘rganildi. Tahliliy va statistik metodlar yordamida ilg‘or boshqaruv texnologiyalarining joriy etilish dinamikasi, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda ularning milliy iqtisodiyotdagi roli tahlil qilindi. Taqqoslash metodi an’anaviy boshqaruv tizimlari bilan raqamli boshqaruv modellari o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda qo‘llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini raqamli transformatsiya nazariyasi, innovatsion menejment konsepsiyasi hamda axborot iqtisodiyoti modeli tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining evolyutsiyasi, ularning samaradorlikka ta’sir etuvchi omillari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Natijada, raqamli

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

iqtisodiyotda ilg‘or boshqaruv tizimlarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy va amaliy yo‘nalishlar aniqlab olindi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining joriy etilishi korxonalarning faoliyati samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy jarayonlarning raqamli transformatsiyasiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2020–2025 yillar oralig‘ida ilg‘or boshqaruv tizimlaridan foydalanuvchi tashkilotlar soni 2,5 baravarga ortgan. Bu esa korxonalarda boshqaruv jarayonlarining samaradorligi oshganini ko‘rsatadi. Natijalar shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlari yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi 40–50 foizga, qaror qabul qilish jarayoni esa 30 foizga yaxshilanganini aniqladi.

1.1-jadval. Ilg‘or boshqaruv tizimlarining tarmoqlar bo‘yicha joriy etilish darajasi (2020–2025 yillar, % hisobda)

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Tarmoq	2020-yil	2023-yil	2025-yil
Sanoat	45	65	82
Moliyaviy xizmatlar	50	72	85
Ta’lim	35	58	70
Sog‘liqni saqlash	40	63	77
Xizmat ko‘rsatish sektori	38	60	74

1.1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2025 yillar oralig‘ida ilg‘or boshqaruv tizimlarining tarmoqlar bo‘yicha joriy etilish darajasi izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir tarmoqda raqamli boshqaruv tizimlarini tatbiq etish darajasi yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa raqamli transformatsiyaning iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga kirib borayotganini tasdiqlaydi.

Sanoat tarmog‘ida raqamli boshqaruv tizimlarining qo‘llanilish darajasi 2020-yilda 45 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 82 foizga yetgan. Bu jarayon ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi va IoT (Internet of Things) texnologiyalarining kengayishi bilan izohlanadi.

Moliyaviy xizmatlar sohasida esa o‘sish yanada sezilarli bo‘lib, 2020-yildagi 50 foizdan 2025-yilda 85 foizga ko‘tarilgan. Bu holat raqamli to‘lov tizimlari, blokcheyn texnologiyalari va sun’iy intellekt asosidagi tahliliy tizimlarning jadal rivojlanishi natijasidir.

Ta’lim sohasida ilg‘or boshqaruv tizimlarining joriy etilishi 35 foizdan 70 foizgacha oshgan. Bu jarayon masofaviy ta’lim platformalari, raqamli baholash tizimlari va ta’limni boshqarish axborot tizimlari (LMS)ning keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq.

Sog‘liqni saqlash sohasida esa 40 foizdan 77 foizgacha o‘sish kuzatilgan. Bu sohada elektron tibbiy kartalar, telemeditsina va sun’iy intellekt yordamida diagnostika tizimlari asosiy omil bo‘lgan.

Xizmat ko‘rsatish sektorida esa 38 foizdan 74 foizgacha o‘sish qayd etilgan bo‘lib, bu jarayon mijozlar bilan raqamli aloqani rivojlantirish, CRM tizimlarining joriy etilishi va onlayn xizmatlarning kengayishi bilan bog‘liqdir.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining rivojlanishi nafaqat texnologik yangilanish, balki strategik boshqaruv yondashuvlarining tubdan o‘zgarishini ham taqozo etmoqda. Korxonalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va bulutli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi, tezkor axborot almashinuvi va resurslardan oqilona foydalanish darajasi sezilarli oshgan.

Shunga qaramay, ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, kadrlar malakasining pastligi va axborot xavfsizligini ta’minlashdagi muammolar ilg‘or boshqaruv tizimlarining to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etishda investitsion resurslarning yetishmasligi ham ko‘plab korxonalar uchun muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Muhokama davomida aniqlanishicha, ilg‘or boshqaruv tizimlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash, axborot xavfsizligini mustahkamlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlov choralarini kuchaytirish zarur. Shu yo‘sinda, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va boshqaruv tizimlarining samarali integratsiyasi ta’minlanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Raqamli transformatsiya orqali korxonalar faoliyatining shaffofligi, tezkorligi va raqobatbardoshligi ortadi.

Shuningdek, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish strategik qaror qabul qilish jarayonlarini yanada takomillashtiradi. Bu esa nafaqat alohida korxonalarning, balki butun milliy iqtisodiyotning raqamli rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ilg‘or boshqaruv tizimlarining rivojlanish tendensiyalari raqamli iqtisodiyotning kelajakdagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Ularning samarali tatbiqi uchun davlat siyosati, ta’lim tizimi, infratuzilma va ilmiy-tadqiqot faoliyati o‘rtasidagi uzviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. (2021). Digital Economy Outlook 2021. – Paris: OECD Publishing.
2. World Bank. (2020). The Digital Economy for Development in Central Asia. – Washington, DC: World Bank Publications.
3. (World Bank. (2020). The Digital Economy for Development in Central Asia. – Washington, DC: World Bank Publications.)

4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. – New York: W. W. Norton & Company.
5. (Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. – New York: W. W. Norton & Company.)
6. Schwab, K. (2018). The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum.
7. (Schwab, K. (2018). The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum.)
8. Tapscott, D. (2016). The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill Education.
9. Sh, R. (2025). Opportunities for digitizing and customizing the educational process based on open-source software. Экономика и социум, (6-1 (133)), 653-656.
10. Sadinov, A., & Rajabov, S. (2023). Utilizing digital technologies for waste management. In E3S Web of Conferences (Vol. 381, p. 01096). EDP Sciences.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK XAVFSIZLIGI VA KIBERXAVFSIZLIK MUAMMOLARI

Mualliflar: Sultonov Sherali Nuraliyevich [1], Xurramova Feruzabonu Panji qizi [2]
Affiliyatsiya: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi professori [1], Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kechki ta'lim va magistratura fakulteti , DMXM-15 “Moliya” mutaxassisligi 2-kurs magistranti [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17596949

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida bank faoliyatining transformatsiyasi va bu jarayonda kiberxavfsizlikning o‘rni yoritilgan. O‘zbekiston bank tizimida raqamli xizmatlar keng joriy etilayotganligi, shu bilan birga, kiberxavfsizlikka oid yangi muammolar yuzaga kelayotgani ko’rsatib o’tilgan. Xalq banki, Mikrokreditbank va boshqa moliya institutlari misolida kiberxavfsizlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari banklarda raqamli transformatsiya bilan bir qatorda, kiberxavfsizlikni mustahkamlash dolzarb masala ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, bank faoliyati, raqamli transformatsiya, kiberxavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, O‘zbekiston banklari

KIRISH

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot tez sur’atlar bilan rivojlanib, bank tizimining barcha bo‘g‘inlarini tubdan o‘zgartirmoqdadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va Markaziy bankning tashabbuslari asosida bank xizmatlarining raqamlashtirilishi kengaymoqda. Masalan, masofaviy bank xizmatlari, elektron to‘lov tizimlari va mobil banking mijozlarning hayotiga muhim darajada kirib keldi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlari kiberxavfsizlikka oid yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Kiberxavfsizlik faqatgina texnik masala sifatida ko‘rilmaydi; u bank tizimining barqarorligi va mijozlarning ishonchini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonuni (2024-yil, O‘RQ-964) va Markaziy bankka berilgan qo‘shimcha vakolatlar banklar faoliyatida axborot xavfsizligini va kiberxavfsizlikni kuchaytirish maqsadiga qaratilgan. Natijada, bu amaliyot banklarning kiberxavfsizlik bo‘limlarining samaradorligini oshirish, xalqaro standartlar (ISO 27001, PCI DSS)ni joriy etish hamda xodimlar malakasini oshirishni talab qiladi.

Amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, Xalq banki, Mikrokreditbank va KDB Bank O‘zbekiston kabi yirik moliya institutlari kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida turli xil treninglar, texnik yangilanishlar va hamkorlik loyihalarini amalga oshirmoqdalar. Misol uchun, 2024-yilda BS/2 kompaniyasi (Litva (Vilnyus)da joylashgan xalqaro IT kompaniya, u banklar va chakana savdo tarmoqlari uchun raqamli yechimlar, texnik xizmatlar va kiberxavfsizlik tizimlarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi) Xalq banki xodimlari uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha treninglarni o‘tkazgan, shuningdek,

Mikrokreditbank kiberxavfsizlik tizimiga oid tijorat takliflarini joriy etishga kirishgan. Barcha imkoniyatlarga qaramay, bank tizimida phishing hujumlari, moliyaviy firibgarliklar va ichki xodimlar tomonidan yuzaga keladigan xatoliklar kabi xavf-xatarlar mavjudligini saqlab qolmoqda. Shuning uchun, bank faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlari bilan birgalikda, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun yangi mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi, O'zbekiston bank tizimida kiberxavfsizlikka oid amaliy muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir.

Adabiyotlarni tahlil qilish. So'nggi yillarda global bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Brynjolfsson va McAfee ning ta'kidlashicha[3], raqamli texnologiyalar nafaqat moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiradi, balki bank xizmatlarining samaradorligini ham oshiradi. Shuningdek, raqamli xizmatlarning kengaytirilishi kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasini dolzarb holatga aylantirmoqda[4].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: autentifikatsiya mexanizmlari, ma'lumotlarni shifrlash, xavfsizlik monitoringi va xodimlar malakasini oshirish. ISO 27001 va PCI DSS kabi xalqaro standartlar banklarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ilg'or amaliyotlarni belgilaydi. Masalan, Yaponiya va Singapur banklarida sun'iy intellekt orqali xavfsizlik monitoringi va firibgarlikni aniqlash tizimlari samarali qo'llanilmoqda[5].

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya jarayonlari ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Xalq banki va Mikrokreditbank misolida ko'rsatilganidek, bank xodimlari uchun kiberxavfsizlik treninglari o'tkazilmoqda va masofaviy xizmatlar xavfsizligi uchun yangi texnologiyalar:

- un'iy intellekt (AI) va mashina o'rganish tizimlari(bank tizimlarida sun'iy intellekt va mashina o'rganish asosida ishlovchi xavf tahlili va anomaliya aniqlash tizimlari joriy etish, tizimlar real vaqt rejimida kiberhujumlarni aniqlash va ularga tezkor javob berish);
- shifrlash (Encryption) va autentifikatsiya (Authentication) mexanizmlari(ma'lumotlarni himoya qilish uchun ilg'or shifrlash algoritmlari va ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) tizimlari keng qo'llash, foydalanuvchi ma'lumotlarini xavfsizligini ta'minlash);
-xavfsizlikni boshqarish tizimlari (SIEM- xavfsizlikni boshqarish tizimlari yordamida banklar o'z tizimlaridagi xavf-xatarlarni markazlashtirilgan tarzda kuzatib borish va ularga tezkor javob berish) joriy etilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2024-yilda kiberxavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berdi va qonunchilik (O'RQ-964) kiberxavfsizlikni majburiy tartibga soladi[1].

Milliy va xalqaro tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, banklarda raqamli xizmatlar joriy etilishi bilan birga, moliyaviy firibgarliklar, phishing hujumlari, DDoS atakalar va ichki xodimlar tomonidan sodir etiladigan xatolar kabi tahdidlar hamon mavjud. Shuning uchun, O'zbekiston banklari uchun kiberxavfsizlikni kuchaytirish va raqamli transformatsiyani xavfsiz amalga oshirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Ushbu adabiyotlar tahlili banklardagi raqamli transformatsiya jarayoni bilan birga kiberxavfsizlikni ta'minlashning ahamiyatini ochib beradi va tadqiqotning maqsadi hamda ilmiy ahamiyatini asoslaydi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda bank tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonida kiberxavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini o‘rganish maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanilgan. Tahlil obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki va Mikrokreditbankning 2021-2024 yillardagi faoliyati tanlangan. Tadqiqot jarayonida tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullari bilan birga induksiya va deduksiya usullaridan ham foydalanilgan.

Markaziy bank hisobotlari, banklarning yillik faoliyat tahlillari, ochiq rasmiy ma’lumotlar bazalari (masalan, mkbank.uz, xalqbank.uz) va BS/2 kompaniyasining kiberxavfsizlik bilan bog‘liq hisobotlari[10] tadqiqotning empirik ma’lumotlar manbai sifatida foydalanildi[1]. Shuningdek, bank xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan qisqa so‘rovnoma natijalari ham sinchiklab tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilga oid yillik hisobotiga muvofiq, bank xizmatlarining 70 foizdan ortig‘i raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Xalq banki tomonidan taqdim etilgan ESG hisobotida, raqamli xizmatlar kanallariga (mobil ilovalar, internet-banking) o‘tish natijasida qog‘oz hujjatlarga bo‘lgan ehtiyojning kamayishi va shu bilan birga uglerod izining qisqarishi ta’kidlangan. Ushbu ma’lumotlar raqamli transformatsiyaning samaradorligini aniq ko‘rsatadi.

Xalq bankining 2024-yilgi ESG hisobotida, bank shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi va kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida ISO 27001 va ISO 27701 xalqaro sertifikatlarini olishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu, raqamli xizmatlar joriy etilgan sharoitda xavfsizlik siyosatini takomillashtirish uchun amaliy mexanizmlarni ochib beradi.

Tadqiqotning natijalari Brynjolfsson va McAfee hamda Narayanan tomonidan ilgari surilgan tezislarni tasdiqlaydi: raqamli transformatsiya jarayonida inson faktori kiberxavfsizlikning eng muhim zaifligi hisoblanadi. O‘zbekiston banklari misolida, xodimlarning malakasi, o‘qitishlar soni va ichki xavfsizlik siyosati alohida ahamiyatga ega.

1-jadval.
O‘zbekiston banklarida raqamli transformatsiya va kiberxavfsizlik ko‘rsatkichlari (2024)[6,7,8,9]

Bank nomi	Raqamli xizmatlar ulushi (%)	Mobil ilova foydalanuvchilari (ming)	Internet-banking foydalanuvchilari (ming)	ISO sertifikatlari	Kiberxavfsizlik bo‘yicha treninglar (soni)
Xalq banki	72	850	1 200	ISO 27001, ISO 27701	15
Mikrokreditbank	65	420	600	ISO 27001	10
KDB Bank O‘zbekiston	68	500	750	ISO 27001	12

1-jadvalda O‘zbekiston banklarida raqamli transformatsiya va kiberxavfsizlik bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni aks ettiradi. Raqamli xizmatlar ulushi bank operatsiyalarining qanchalik qismini raqamli platformalar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi; Xalq banki eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, 72% bilan raqamli transformatsiyani ilgari surmoqda. Mobil ilova va internet-banking foydalanuvchilari

soni esa mijozlar faoliyatini ko‘rsatadi: Xalq banki va Mikrokreditbank o‘rtacha foizdan yuqori faoliyat ko‘rsatmoqda. ISO sertifikatlari kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro standartlarga rioya qilinishini bildiradi. Treninglar soni xodimlar malakasini oshirish va ichki xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar miqdorini aks ettiradi. Raqamli xizmatlar ulushi, foydalanuvchilar soni va sertifikatlar banklar faoliyatidagi raqamli transformatsiya va kiberxavfsizlik darajasini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya O‘zbekiston bank tizimida yuqori darajadagi samaradorlikni ta’minlasa-da, xavfsizlik siyosatini rivojlantirish zarurati davom etmoqda. Xalq banki va Mikrokreditbank misolida ushbu jarayonning amaliy tomonlari, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘nalishlari bayon etilgan. Bundan tashqari, xodimlar malakasini oshirish va ichki xavfsizlik choralarini kuchaytirish raqamli xizmatlarning barqarorligini va mijozlar ishonchini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonining sezilarli sur’atlar bilan davom etayotganini ko‘rsatmoqda. Xalq banki va Mikrokreditbank misolida kuzatilayotgan raqamli xizmatlar joriy etilishi mijozlar qulayligini oshirishga xizmat qilmoqda, biroq kiberxavfsizlik sohasidagi barqarorlik darajasi banklar kesimida farqlanishlarni aks ettirmoqda. Xalq bankida sun’iy intellekt asosidagi xavfsizlik monitoringi tadbiq etilgan bo‘lsa-da, ichki xodimlar malaka darajasi yetarli emasligi tahdidlarni kamaytirishda muammolar yaratmoqda. Shu bilan birga, Mikrokreditbankning yangi texnologiyalarni tatbiq etish tajribasi raqamli xizmatlarning xavfsizligini sezilarli darajada oshirgan.

Natijalarni xalqaro tadqiqotlar bilan taqqoslaganda O‘zbekiston banklarida kiberxavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan choralar global standartlarga yaqinlashgan, biroq inson omili va qonunchilik mexanizmlarini mustahkamlash zarurati saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnologik yechimlar bilan bir qatorda, xodimlar malakasini oshirish, xavfsizlik bo‘yicha muntazam treninglar tashkil etish va monitoring tizimlarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, kiberxavfsizlikning rivojlanishi raqamli xizmatlarning samaradorligini oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, phishing va firibgarlik tahdidlari samarali tarzda monitoring qilinmasa, mijozlar ishonchining pasayishi va bankning barqarorligining xavf ostiga tushishi sodir bo‘ladi. Shuning uchun, O‘zbekiston banklarida raqamli transformatsiya va kiberxavfsizlik strategiyalari bir-biri bilan uzviy bog‘lanib amalga oshirilishi zarur.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy bank tizimi va xalqaro tajribaga asoslangan tavsiyalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Xodimlarning malakasini yaxshilash;

Bank tizimida raqamli texnologiyalar bilan shug‘ullanayotgan xodimlar uchun muntazam malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish zarurdir. Buning uchun xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, BS/2 va boshqa texnologik kompaniyalar bilan hamkorlikda ta’lim modullarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

- Kiberxavfsizlik tizimini yangilash;

Banklarning axborot tizimlarini himoya qilish maqsadida zamonaviy shifrlash algoritmlarini, sun’iy intellektga asoslangan xavf aniqlash modellari va real vaqtli

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

kuzatuv dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar milliy moliyaviy tizimning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

- Monitoring tizimlarini rivojlantirish;

Har bir moliya muassasasida kiber xavfsizlikka oid ichki audit va avtomatik monitoring mexanizmlarini mustahkamlash zarur. Tavsiya etiladi, shuningdek, xavflarni erta aniqlovchi va ularni tahlil qiluvchi tizimlarning faoliyatga kiritilishi.

- Mijozlarning savodxonligini oshirish;

Raqamli bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar uchun xavfsiz foydalanish bo'yicha onlayn treninglar, videoqo'llanmalar va ommaviy axborot kampaniyalarini tashkil etish zarur. Ushbu tadbirlar nafaqat foydalanuvchilarning xavfsizlik madaniyatini yuksaltiradi, balki bank tizimiga nisbatan ishonchni ham mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotga asoslanib, quyidagi qo'shimcha yo'nalishlar ham ahamiyatli hisoblanadi:

- raqamli infratuzilmani standartlashtirish va yagona platformalarga birlashtirish;
- xalqaro kiberxavfsizlik standartlarini (ISO/IEC 27001 va boshqalar) bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat va xususiy sektor o'rtasida ma'lumot almashish va xavfsizlik sohasida hamkorlikni kengaytirish;
- raqamli transformatsiyani boshqarish maqsadida milliy strategiyalar va reglamentlar yaratish.

Ushbu kompleks chora-tadbirlar O'zbekistonning bank tizimida raqamli transformatsiyaning samaradorligini yaxshilash, xavfsizlik xavflarini kamaytirish va xalqaro moliyaviy muhitga integratsiya jarayonini tezlashtirish maqsadlarini ko'zlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'RQ-964 (2024). To'lov tizimlari to'g'risida. lex.uz https://lex.uz/docs/-7108720;
2. Xalq banki 2024-yilgi ESG (Environmental, Social, and Governance) hisoboti;
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. New York: W.W. Norton & Company;
4. Narayanan, A. (2020). Artificial Intelligence in Financial Risk Management. Journal of Banking & Finance, 45(3), 112–128;
5. Smith, J. (2021). AI-driven Cybersecurity in Banking: Case Studies from Japan and Singapore. International Journal of Financial Technology, 8(2), 45–60;
6. Jahon Bankining rasmiy sayti: https://www.worldbank.org;
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki: https://cbu.uz;
8. O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki: https://xb.uz ;
9. Mikrokreditbank rasmiy sayti: https://mkbank.uz;
10. BS/2 Uždaroji akcinė bendrovė (BS/2 UAB) rasmiy sayti:https://bs2.lt, https://bs2.lt/uz

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

OZIQ-OVQAT SANOATIDA RAQAMLI TRANFORMATSIYA: YO‘NALISHLARI VA AFZALLIKLARI

Muallif: Tolipova Baxtigul Farxodovna [1]
Affiliyatsiya: Xalqoro Nordik universiteti tadqiqotchisi, PhD [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17597008

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlari, ularning asosiy yo‘nalishlari va afzalliklari tahlil qilingan. Tadqiqotda aralash metod (mixed method) yondashuvi qo‘llanilib, adabiyotlar tahlili va xalqaro tajribani solishtirma tahlil qilish asosida olib borilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar – xususan, IoT, sun’iy intellekt, bulut texnologiyalari va omnikanal tizimlar – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ta’minot zanjirining barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni tezlashtirib, ko‘plab mamlakatlarda oziq-ovqat sohasida raqamlashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda texnik infratuzilma va kadrlar salohiyatini mustahkamlash zarurati saqlanib qolmoqda. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanishga erishishda raqamli transformatsiyaning strategik ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so’zlar: raqamli transformatsiya, oziq-ovqat sanoati, aqlli qishloq xo‘jaligi, bulut texnologiyalari, sun’iy intellekt, omnikanal tizimi.

KIRISH

Global miqyosida barcha sohalar yildan yilga raqamlashtirish jarayonlarini o‘z faoliyatiga joriy etib bormoqda. Tibbiyot, ta’lim, harbiy soha, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa qaysi bir sohani e’tirof etilmasin barchasida allaqachon raqamlashtirish keng foydalanilib ulgurgan. Faoliyat samaradorligini oshirish, ma’lumotlar bankini tahlillar uchun shakllantirish, yangi texnologiyalar joriy etilishiga keng imkoniyat yaratish, raqamli iqtisodiyot rivojiga keng hissa qo‘shish, global integratsiya jarayoni bilan birga xavfsizlik va nazoratga katta imkon ochgani bois raqamlashtirish oziq-ovqat sanoatining bugungi kundagi ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya global tendensiyaga aylandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yetkazib berish zanjirlarining barqarorligini ta’minlaydi va iste’molchilar bilan o‘zaro aloqani yaxshilaydi (Schiefer & Deiters, 2016).

Aqlli qishloq xo‘jaligi (Smart Agriculture) yo‘nalishida IoT, dronlar va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida resurslardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish imkoniyati yaratilmoqda (Wolfert et al., 2017). Shu bilan birga, bulut texnologiyalari (Cloud Technologies) ma’lumotlarni

markazlashtirilgan tarzda saqlash, qayta ishlash va tahlil qilishni osonlashtiradi, bu esa oziq-ovqat korxonalariga real vaqt rejimida qarorlar qabul qilish imkonini beradi (Marston et al., 2011).

Omnikanal tizimlar (Omnichannel Systems) esa ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasida integratsiyani kuchaytirib, sotuv jarayonlarining raqamli muhitda barqarorligini ta'minlaydi (Verhoef et al., 2021). Shu bilan birga, iste'molchiga raqamli yondashuv (Digital Consumer Approach) orqali shaxsiylashtirilgan takliflar, elektron tahlillar va marketing strategiyalarining samaradorligi oshadi (Lamberton & Stephen, 2016).

Xalqaro miqyosdagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tizimli yondashuv shakllangan. Masalan, AQSh, Kanada, Daniya va Avstraliyada milliy darajadagi tadqiqotlar raqamlashtirish jarayonlarini muntazam monitoring qiladi (Trendov et al., 2019). Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan Lotin Amerikasi va Osiyoda, raqamlashtirish hali ham shakllanish bosqichida bo'lib, infratuzilma va texnik salohiyatning yetarli emasligi muammosi mavjud (FAO, 2022).

Shu nuqtayi nazardan, oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati texnik infratuzilma, davlat siyosati va inson kapitalining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya yo'nalishlarini o'rganish uchun aralash metod (mixed method) yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot ikki bosqichda, ya'ni adabiyotlar tahlili va xalqaro tajriba solishtirma tahlilidan foydalanib olib borildi.


Birinchi bosqichda FAO, OECD, World Bank va Scopus bazalaridagi ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Asosiy e'tibor oziq-ovqat sanoatida IoT, sun'iy intellekt, bulut texnologiyalari va omnikanal marketing tizimlarining qo'llanilishiga qaratildi. Ma'lumotlar Google Scholar va ScienceDirect platformalaridan 2010–2024-yillar oralig'idagi manbalar asosida yig'ildi.

Ikkinchi bosqichda 1-jadvalda keltirilgan davlatlar – AQSh, Kanada, Daniya, Avstraliya, Kolumbiya va Angliya – kesimida raqamlashtirish darajasi va yo'nalishlari solishtirildi. Buning uchun har bir mamlakatning milliy statistika ma'lumotlari, FAO hisobotlari hamda World Bank Data portali ma'lumotlaridan foydalanildi.

ANALIZ VA NATIJALAR

Talab yuqori bo'lib turgan oziq-ovqat sanoatida COVID-19 pandemiyasi sabab ta'minot zanjiridagi uzilishlar mazkur sohada raqamlashtirishning rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Bu turtki butun oziq-ovqat sanoati tizimida raqamli transformatsiyaning jadallashuviga olib keldi. Barcha jabhalarda qiyinchilikka yuz tutgan oziq-ovqat sanoati pirovardida avtomatlashtirishni takomillashtirib, raqamlashtirishga keng qadam qo'ydi. Bu bilan maksimal samaraga erishish uchun jarayonlarni optimallashtirishga katta e'tibor qaratildi va yetkazib berish zanjiri barqarorligi oshirildi. Maqsad esa, nafaqat pandemiyaning salbiy oqibatlarini yengib o'tish, balki undan yanada kuchli, yanada moslashuvchan va boshqa kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tasodifiy o'zgarishlarga tayyor holda chiqish edi.

Oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya bir qancha shakllarda mavjud bo'lib, bugungi kunda ularni umumiy 4 yirik guruhga ajratib ko'rsatish mumkin.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya shakllari[1]

Aqlli qishloq xo‘jaligi – internet uskunalari (IoT), dronlar, ob-havo va namlik datchiklari, shuningdek, hosilni optimallashtirish va resurslar sarfini kamaytirish yo‘lida sun’iy intellektdan foydalanishning qishloq xo‘jaligida keng qo‘llanishi;

Bulut texnologiyasi – bugungi kunda ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, oziq-ovqat sohasi korxonalari ham shiddat bilan o‘zgarib borayotgan iqtisodiyotga moslashish uchun xarajatlarini samarali kamaytirish, ma’lumotlarni keng ko‘lamda nusxalay olish va istalgan joyda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun bulut (cloud)lardan keng foydalanishadi;

Omnikanal (omnichannel) – oziq-ovqat mahsulotlari sotuvi bilan faoliyat yurituvchi korxonalarning ijtimoiy tarmoqlar, ilovalar va do‘konlardagi xaridlari shartlari va imkoniyatlari integratsiyasi. Bu orqali korxonalar barqarorlik ko‘rsatkichini barcha yo‘nalishlari kesimida ushlab turishadi.

Iste’molchiga raqamli yondashuv – mijozlar uchun personal raqamli murojaatlarning yo‘lga qo‘yilishi jarayonida ma’lumotlarning sifatli va ishonchli shakllanishiga va tahlillarning shaffof bo‘lishiga olib keladi. Oziq-ovqat sohasi ishlab chiqaruvchilari iste’molchilar xulq-atvorini inobatga olgan holda ularning tanlovlarini raqamlashtirish orqali tizimda tubdan o‘zgarishlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Ma’lumki, raqamli transformatsiya har qanday turdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mehnat faoliyatini, xizmat va boshqaruv sifati oshiriladi hamda samarali va shaffof tizim yo‘lga qo‘yiladi. Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali xato va kamchiliklar oldi olinishi bilan samarali hisoblangan bu tizim masofadan boshqaruv imkoniyati bilan logistika xarajatlarini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib, rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Estoniya, Finlyandiya[2] va Singapur kabi davlatlarda davlat xizmatlarida elektron xizmatlarining joriy etilgani hukumatda shaffoflik, samaradorlik va fuqarolarda davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonchning oshgani bilan baholanadi. Jumladan, oziq-ovqat sohasi va qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarning qo‘llanishi soha uchun katta yutuqlardan biriga aylandi.

[1] Muallif ishlanmasi.
[2] Leonie Schiedek Konrad-Adenauer-Foundation Regional Programme Nordic Countries. 2022 https://www.kas.de/documents/272774/272823/Innovation%2Bfor%2BSustainable%2BDevelopment%2Bin%2Bthe%2BNordics%2B-%2BReport.pdf?utm_source

1-jadval.
Dunyo miqyosida don yetishtiruvchi xo‘jaliklarda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha olib borilgan milliy tadqiqotlar[3]

Mamlakat	Yil	Qo‘llanishi	Birligi
Avstraliya	2008, 2011, 2014, 2016	Yirik don xo‘jaliklari	Hudud foizi
Kanada	2006	Barcha fermalar	Fermalar foizi
Kolombiya	2017	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari birligi	Birliklar foizi
Daniya	2017-2020	Yetishtiriladigan ekin xo‘jaliklari	Fermalar foizi
Angliya	2009, 2012, 2019	Don va boshqa barcha ekinlar fermer xo‘jaliklari	Xo‘jaliklar foizi
AQSh	1996-2007, 2009-13, 2015-19	Turli xil ekinlar: makkajo‘xori, soya, bug‘doy, jo‘xori, paxta, arpa, oq jo‘xori, guruch, yeryong‘oq va boshqalar	Hudud foizi

1-jadvalda dunyoning bir nechta yetakchi don yetishtiruvchi mamlakatlarida, jumladan, Avstraliya, Kanada, Kolumbiya, Daniya, Angliya va AQSh kabi mamlakatlarning qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha olib borilgan milliy tadqiqotlarga oid ma’lumotlar aks ettirilgan. Ushbu tadqiqotlar yillar davomida turli xo‘jalik turlari, ekin yo‘nalishlari va o‘lchov birliklari asosida amalga oshirilgan bo‘lib, bu raqamlashtirish darajasi va uslublarining mamlakatlar kesimida farqlanishini ko‘rsatadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Umuman, taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Avstraliya, Kanada, Daniya, Angliya) raqamli texnologiyalarni joriy etish tizimli ravishda o‘rganilib, muntazam milliy tadqiqotlar orqali monitoring qilinadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar, masalan, Kolumbiya, bu jarayonni endigina yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, ularning tadqiqotlari ko‘proq eksperimental tusga ega.

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko‘ra, don yetishtiruvchi xo‘jaliklarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar miqyosi va yo‘nalishi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, fermer xo‘jaliklari hajmi, infratuzilma va texnik imkoniyatlariga bevosita bog‘liq. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash Avstraliya, AQSh va Daniya kabi mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqamli ma’lumotlarni boshqarish tizimlarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Boshqa mamlakatlarda esa bu jarayon hali ham shakllanish bosqichida bo‘lib, milliy strategiyalar va texnik imkoniyatlarni kuchaytirish zarurati mavjud.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlari bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki butun ta’minot zanjirining barqarorligini ta’minlashda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni tezlashtirgan bo‘lib, ko‘plab davlatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish sur’ati keskin oshgan. Raqamli yechimlar, xususan, aqlli qishloq xo‘jaligi (IoT va AI), bulut texnologiyalari, omnikanal marketing tizimlari va iste’molchiga raqamli yondashuv – oziq-ovqat sanoatining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, va iste’molchilar bilan o‘zaro aloqani kuchaytirishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

[3] OECD Food, Agriculture and Fisheries Papers 13 April 2022 ma’lumotlaridan foydalanildi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda raqamli transformatsiya davlat siyosati, texnologik infratuzilma va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan uyg‘un tarzda amalga oshirilmoqda. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekiston misolida, bu yo‘nalishda hali ham tizimli yondashuv, infratuzilma va kadrlar salohiyatini mustahkamlash zarurati mavjud.

Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya nafaqat texnologik jarayon, balki iqtisodiy, ijtimoiy va strategik muhim yo‘nalish sifatida ko‘rilishi lozim. U orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va global raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Schiefer G., Deiters J. Digitalization in Agri-Food Supply Chains – Challenges and Opportunities. – Bonn: University of Bonn Press, 2016. – 432–447 b.
2. Wolfert S., Ge L., Verdouw C., Bogaardt M.J. Big Data in Smart Farming – A Review. – Amsterdam: Elsevier, 2017. – 69–80 b.
3. Marston S., Li Z., Bandyopadhyay S., Zhang J., Ghalsasi A. Cloud Computing – The Business Perspective. – Amsterdam: Elsevier, 2011. – 176–189 b.
4. Verhoef P.C., Kannan P.K., Inman J.J. From Multi-channel Retailing to Omni-channel Retailing: Introduction to the Special Issue on Multi-channel Retailing. – New York: Elsevier, 2021. – 174–181 b.
5. Lamberton C., Stephen A.T. A Thematic Exploration of Digital, Social Media, and Mobile Marketing: Research Evolution from 2000 to 2015 and an Agenda for Future Inquiry. – Chicago: American Marketing Association, 2016. – 146–172 b.
6. Trendov N.M., Varas S., Zeng M. Digital Technologies in Agriculture and Rural Areas – Status Report. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), 2019. – 98 b.
7. FAO. The State of Food and Agriculture 2022: Leveraging Automation in Agriculture for Transforming Agrifood Systems. – Rome: FAO, 2022. – 236 b.
8. OECD. Digital Transformation in Agri-food Sectors: Policy Implications. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 72 b.
9. World Bank. Agriculture & Digitalization Indicators. – Washington, D.C.: The World Bank Open Data, 2024. – 54 b.
10. UNCTAD. Technology and Innovation Report 2023: Opening Green Windows – Technological Opportunities for a Low-carbon World. – Geneva: UNCTAD, 2023. – 154 b.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH

Muallif: Umarova Ra’no Sunnatxonovna [1]
Affiliyatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi Samarqand viloyati filiali bosh inspektori [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17597108

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada davlat xizmatchilarining malakasini oshirish jarayonlarini samarali boshqarish, mazkur yo‘nalishdagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat xizmatchilarining malaka oshirish jarayonlari natijadorligini baholash mexanizmlari o‘rganilgan, “Kirkpatrik” modeli ko‘rib chiqilib, tizimni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: davlat fuqarolik xizmatchisi, raqamli ko‘nikma, elektron platforma, kompetensiya, masofaviy ta’lim, “Kirkpatrik” modeli.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

KIRISH

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida davlat fuqarolik xizmatchilarining malakasi - islohotlar samaradorligini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi. Davlat xizmatchisi faqat ma’muriy vazifani emas, balki innovasion fikrlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va fuqarolar manfaatini ta’minlashga mas’ul professional shaxs sifatida shakllanishi kerak. Shu nuqtai nazardan, malaka oshirish jarayonlarini samarali boshqarish davlat apparatining barqaror va natijaviy faoliyatini ta’minlovchi strategik vazifadir.

O‘zbekiston qonunchiligida davlat xizmatchilarining uzluksiz malakasini oshirishini tartibga soluvchi bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonida davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish maqsad qilingan. [1]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 95-son farmonida xodimlarning davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilingandan boshlab butun mehnat faoliyati davomida zarur bilim va kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishini tashkil etish va monitoring qilish belgilangan. [2]

OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) va World Bank (Jahon banki) tavsiyalariga ko‘ra, malaka oshirish tizimi uzluksiz ta’lim va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv prinsiplariga asoslanishi lozim. OECD va World Bank ta’kidlashicha, davlat xizmatchilarining malakasini oshirish bir martalik jarayon emas, kasbiy hayot davomida uzluksiz amal qilishi lozim. [3]. Buning asosiy jihatlari doimiy yangilanish zarurati, ya’ni, davlat boshqaruvi tizimi tez o‘zgaruvchan muhitda (raqamli iqtisodiyot,

tezkor qarorlar qabul qilish, fuqarolar ehtiyojining o‘zgarishi va h.k.) faoliyat yuritadigan davlat xizmatchisi doim yangi ko‘nikmalarni egallab borishi kerak. Bundan tashqari, **inson kapitaliga uzoq muddatli sarmoya,** malaka oshirishga sarflangan mablag‘ — bu xodimning samaradorligi va davlat boshqaruvining sifatini oshiradigan investisiya hisoblanadi [4].

Malaka oshirish jarayonlarini samarali tashkil etish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

№	Tamoyil	Mazmuni
1.	**Strategik muvofiqlik**	Davlat islohotlari va idora missiyasi bilan uyg‘unlik
2.	**Ehtiyojga asoslanish**	Real vazifalardan kelib chiqib malaka yo‘nalishini belgilash
3.	**Innovasion usullar**	Masofaviy ta’lim, aralash ta’lim va kouching
4.	**Samaradorlik va baholash**	KPI va natijalar orqali baholash
5.	**Inklyuzivlik va tenglik**	Har bir xodim uchun teng imkoniyat
6.	**Uzluksizlik**	Malaka oshirish faqat bir kurs emas, balki tizimli jarayon

Malaka oshirish jarayonini boshqarish bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lib, mazkur bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. **Birinchi bosqich** — ehtiyojlarni aniqlash bosqichi bo‘lib, unda davlat xizmatchisi, rahbar va inson resurslarini boshqarish bo‘limi xodimlari ishtirokida kompetensiya bo‘shliqlari tahlil qilinadi. Bunda, lavozim vazifalari tahlili, davlat xizmatchisi faoliyati bo‘yicha KPI natijalari, so‘rov va intervyular hamda tashqi muhit tahlili amalga oshiriladi [8]. Tahlil natijasida har bir lavozim uchun kompetensiyalar modeli ishlab chiqiladi va unga mos ravishda malaka oshirish yo‘nalishi va kurslar belgilanadi. Malaka oshirish jarayonida mazkur bosqich muhim bo‘lishiga qaramasdan, mamlakatimizda bugungi kunda xodimlarning talab va ehtiyojlarini aniqlash va shunga mos ravishda o‘quv dasturlarini tanlab, o‘qitish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan. Buning uchun birinchi navbatda davlat xizmatchilarning kompetensiyalar modelini ishlab chiqish talab etiladi.

Mamlakatimizda tashqi muhit tahliliga ko‘ra xodimlarni o‘qitish amaliyoti mavjud bo‘lib, bunda, davlat boshqaruvi sohasida yangi qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, tartib va mexanizmlarni mas’ul xodimlarga o‘qitish tizimi mavjud. Masalan, islohotlar natijasida “mahalla yettiligi” yangi tizimi joriy etilgandan keyin mahalladagi xodimlarni yangi tizim bo‘yicha o‘qitish amalga oshirilgani kabi.

Navbatdagi **bosqich** malaka oshirish jarayoni samaradorligini baholash jarayoni bo‘lib, malaka oshirishning samaradorligini baholamasdan turib, tizimni samarali boshqarib bo‘lmaydi. Bunda “**Kirkpatrick” modeli** eng keng tarqalgan usul hisoblanadi [5]:

Daraja	Nomi	Mazmuni
1	Reaksiya	Qatnashchi kursdan qanchalik mamnunligini baholash
2	O‘rganish	Qanday bilim yoki ko‘nikma o‘zlashtirilganini aniqlash
3	Xulq-atvor	Xizmatchi ish jarayonida yangi bilimni qo‘llayaptimi?
4	Natija	Tashkilot faoliyatida aniq samara bormi?

Kirkpatrik modeli – bu trening va o‘quv dasturlar samaradorligini baholash uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan to‘rt darajali tizimdir. Donald Kirkpatrik tomonidan 1950-yillarda ishlab chiqilgan ushbu model trening natijalarini reaksiya, o‘rganish, xulq-atvor va natijalar darajalarida tizimli ravishda o‘lchashni taklif qiladi. Har bir bosqich (daraja) trening samaradorligining turli jihatlarini qamrab oladi va yuqoriga qarab borgan sari murakkablashib boradi. Avvalo eslatib o‘tish joizki, pastki

darajalarda yig‘iladigan ma’lumotlar tezkor va ishtirokchilarga bevosita bog‘liq bo‘lsa, yuqori darajalar tashkilot miqyosidagi uzoq muddatli natijalarga qaratiladi. [4]

1.Reaksiya (Reaction) - trening ishtirokchilarining darhol bildirgan qoniqish va munosabatlarini o‘lchaydi. Bu bosqichda trening materiallari, murabbiylar va umumiy muhit ishtirokchilarga qanchalik yoqqanligi va foydali tuyulganligi aniqlanadi. Odatda trening oxirida beriladigan anketalar yoki qisqa so‘rovlar orqali ishtirokchilarning fikr-mulohazalari to‘planadi.

2.O‘rganish (Learning) - trening natijasida ishtirokchilar qanchalik yangi bilim va ko‘nikmalarni egallagani baholanadi. Bu bosqichda trening maqsad qilingan bilimlar, malakalar yoki munosabatlar ishtirokchilar tomonidan o‘zlashtirilgani o‘lchanadi. Baholash uchun trening avvalida va yakunida test savollari (pre-test va post-test) o‘tkazilishi, amaliy topshiriqlar bajartirilishi yoki intervьyu, kuzatuv kabi usullar qo‘llanilishi mumkin.

3.Xulq-atvor (Behavior) - treningdan so‘ng ishtirokchilarning xulq-atvori va ish faoliyatida o‘zgarishlar yuz berishini baholaydi. Ya’ni, o‘rgangan bilim-ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olish darajasi aniqlanadi. Baholash usuli sifatida treningdan ma’lum vaqt (bir necha hafta yoki oy) o‘tgach, ish jarayonini kuzatish, ish samaradorligi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, rahbarlar yoki hamkasblarning fikrini olish, ishtirokchilarning o‘z-o‘zini baholashi kabi usullar qo‘llanadi.

4.Natijalar (Results) - trening yakunida tashkilot darajasida erishilgan natijalar va ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar baholanadi. Bu bosqichda trening tufayli yuzaga kelgan natijalar (masalan, ishlab chiqarish samaradorligi oshishi, xarajatlar qisqarishi, fuqarolar qoniqishi yaxshilanishi va h.k.) o‘lchanadi. Natijalar darajasini to‘g‘ri baholash uchun uzoqroq muddat (bir necha oy yoki yil) davomida ma’lumot yig‘ish talab etiladi. Biroq aynan shu darajadagi tahlil tashkilot uchun eng qimmatli ma’lumot beradi, trening investisiyasi o‘zini oqlagani, tashkilot maqsadlariga erishilgani haqida dalillar taqdim etadi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, davlat xizmati tizimi samarali yo‘lga qo‘yilgan Singapur davlatida davlat xizmatchilari Civil Service College orqali uzluksiz onlayn malaka oshirib boradi va amaliyot asosidagi o‘quvlarda ishtirok etadi. Mazkur kurslarda davlat xizmatchilari liderlik va strategik fikrlash dasturlarida o‘qitiladi [6]. Bundan tashqari, Singapur davlat xizmatchilarini onlayn o‘qitish va malakasini oshirish maqsadida LEARN (Raqamli mashg‘ulot) ilovasini ishlab chiqqan. Ushbu ilova ish beruvchilarga o‘zlarining ta’lim platformalarini ishlab chiqishga ortiqcha mablag‘ sarflamasdan xodimlarining tezkor malakasini oshirishga imkon beradi. [7]

O‘zbekistonda davlat xizmatchilari orasida bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida kompetensiyalarga asoslangan ta’lim dasturlari, ehtiyojlarni aniqlash tahlili yetarlicha amalga oshirilmaydi, davlat xizmatchilarining kurslar natijasi ish samarasiga bog‘lanmagan, kurslarni bitirgan tinglovchilarni ish faoliyatidagi samaradorligini baholash mexanizmi mavjud emas. Davlat xizmatchilari tomonidan raqamli ta’lim yetarlicha qo‘llanilmaydi, davlat xizmatchilarining masofaviy ta’lim platformalari bilan ishlash ko‘nikmasi yetarli darajada emas. Qolaversa, davlat xizmatchilarining malaka oshirishdan manfaatdorligi past. Amaliyotda mavjud muammolarni tahlil qilgan holda, ularni bartaraf etish maqsadida bir qator takliflar ishlab chiqildi. Jumladan,

Birinchidan, xodimlarning ehtiyojlarini o‘rgangan holda kompetensiya asosida o‘qitish tizimini joriy etish;

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Ikkinchidan, malaka oshirish jarayonlarining natijadorligini ta’minlash maqsadida KPI ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va “Kirkpatrick” modelini davlat fuqarolik xizmatchilari malaka oshirish jarayonlariga tatbiq etish;

Uchinchidan, davlat fuqarolik xizmatchilarining raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda sohaviy yo‘nalishda malaka oshirish tizimining uzluksizligini ta’minlash maqsadida masofaviy o‘quv platformalari va mobil ilovalar yaratish;

To‘rtinchidan, malaka oshirish natijasini xodimlar attestatsiyasi, ularni rag‘batlantirish va mukofotlash tizimi, shuningdek, lavozimda ko‘tarilish, malaka darajalari berish tizimiga bog‘lash;

Beshinchidan, ta’lim muassasalari tomonidan davlat xizmatchilarini malakasini oshirish uchun trenerlar tayyorlash dasturini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatchilarining malaka oshirish tizimini to‘g‘ri tashkil etish orqali davlat xizmatchilarida zamonaviy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar shakllanib, boshqaruvning samaradorligi oshadi. Shu boisdan, tizimli yondashuv, innovatsion ta’lim texnologiyalari va ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bu sohadagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.06.2025 y., 06/25/95/0531-son; 19.09.2025 y., 10/25/3676/0848-son.
3. OECD (2020). Public Service Leadership and Capability: Principles for a High-Performing Civil Service. Paris: OECD Publishing.
4. World Bank (2021). Building Effective Public Sector Institutions. Washington, D.C.
5. Kirkpatrick, D. L., & Kirkpatrick, J. D. (2006). Evaluating Training Programs: The Four Levels
6. R.Umarova, “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari”xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 2024 yil 25 noyabr, 125-b.
7. Civil service college annual report 2021-2022 https://www.csc.gov.sg/files/csc-annual-report_fy21-(final).pdf
8. www.uzdaily.uz

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

“TA’LIM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ILG‘OR BOSHQARUV TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI TA’LIM SIFATINI OSHIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI”

Muallif: Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17597241

ANNOTATSIYA

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya va ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish ta’lim sifati, boshqaruv samaradorligi hamda o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tezisda xorijiy mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasi tahlil qilinib, O‘zbekistonda ta’lim sohasida raqamli yechimlarni keng joriy etishning amaliy yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so’zlar: raqamli transformatsiya, ta’lim sifati, ilg‘or boshqaruv tizimlari, raqamli ta’lim, xorijiy tajriba, o‘quvchilarning raqamli savodxonligi.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim – jamiyatning raqamli rivojlanishida asosiy poydevorlardan biridir. Jahon mamlakatlari ta’limni raqamlashtirish orqali nafaqat o‘quv jarayonini, balki boshqaruv tizimini ham tubdan yangilab, natijaviylikni oshirmoqda. O‘zbekiston ham “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasi doirasida ta’lim sohasini raqamlashtirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Shu bilan birga, mazkur jarayon hali ham ko‘plab muammolarga duch kelmoqda: infratuzilma yetishmovchiligi, kadrlarning raqamli kompetensiyasizligi, standartlashtirilmagan raqamli resurslar, axborot tizimlarining integratsiyasizligi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganish hamda ularni mamlakat sharoitiga moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

ASOSIY QISM

1. Raqamli transformatsiyaning ta’limdagi o‘rni

Raqamli transformatsiya ta’lim sohasida faqat darslarni kompyuterdan o‘tkazish emas, balki butun ta’lim ekotizimini qayta qurishni anglatadi: o‘quv rejalari, boshqaruv tizimlari, o‘qituvchilar tayyorgarligi, o‘quvchilarning faolligi hamda ta’lim natijalarini baholash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi.

2. Xorijiy mamlakatlarning tajribasi

Quyidagi jadvalda ayrim rivojlangan mamlakatlarning ta’lim sohasida raqamli transformatsiya bo‘yicha ko‘rsatkichlari taqdim etilgan:

1-jadval: Mamlakatlarning ta’lim sohasida raqamli transformatsiya bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Mamlakat	Raqamli ta’lim infrastruktura darajasi (%)	O‘qituvchilarning raqamli malakasi (%)	O‘quvchilarning onlayn ta’lim bilan qamrov darajasi (%)	Asosiy platformalar
Finlandiya	98	92	95	Wilma, Moodle
Estoniya	96	94	97	eKool, Stuudium
Janubiy Koreya	100	95	100	KERIS, EBS
Germaniya	87	85	82	Moodle, IServ
O‘zbekiston	62	58	50	ZIUI, MySchool

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston hali ham rivojlangan mamlakatlarga nisbatan raqamli ta’lim sohasida 30–40% orqada qolgan. Biroq, so‘nggi yillarda MySchool, ZIUI kabi milliy axborot tizimlari joriy etilayotgani ijobiy dinamika berayotganini ko‘rsatadi.

3. Samaradorlikka ta’sir qiluvchi omillar

Raqamli transformatsiyaning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- **O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi** – Estoniyada o‘qituvchilar har yili raqamli malaka kurslaridan o‘tish majburiy;
- **Markazlashtirilgan axborot tizimlari** – Finlandiyada “Wilma” tizimi orqali ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar bitta platformada muloqot qiladi;
- **Davlat qo‘llab-quvvatlashi** – Janubiy Koreyada ta’lim raqamlashtirishga BMT hamkorligida har yili 2 mlrd AQSH dollari ajratiladi;
- **Baholash tizimining raqamlashtirilishi** – Germaniyada darslarning sifati sun’iy intellekt yordamida monitoring qilinadi.

4. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar

2020–2025-yillarda O‘zbekistonda quyidagi loyihalar amalga oshirildi:

- **MySchool portali** – 8 mln dan ortiq foydalanuvchi, 14 000 dan ortiq maktab ulangan;
- **ZIUI (Zamonaviy Ijodiy Universitetlar Interfeysi)** – oliy ta’lim muassasalarining boshqaruvini raqamlashtirish;
- **“Raqamli sinf” loyihasi** – Har bir maktabda smart doska, internet va interaktiv resurslar joriy etilmoqda;
- **O‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiya kurslari** – “ZiyoNET” orqali o‘tkazilmoqda.

5. Qiyosiy tahlil va takliflar

Xorijiy tajriba va mahalliy amaliyotni qiyoslab, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Muammo	Xorijiy yechim	O‘zbekistonda joriy etish taklifi
Raqamli savodxonlik pastligi	Majburiy o‘qituvchi malaka kurslari	Har yili o‘qituvchilarni raqamli kompetensiya sertifikati bilan ta’minlash
Tizimlar o‘rtasida integratsiya yetishmasligi	Bitta portal (masalan, eKool)	MySchool, ZIUI va Buxgalteriya tizimlarini integratsiya qilish

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Ota-onalar qatnashuvi kamligi	Ota-onalar uchun mobil ilova (Wilma)	MySchool ilovasini ota-onalar uchun funksionallikni kengaytirish

XULOSA

Ta’lim sohasida raqamli transformatsiya — nafaqat texnologik yangilanish, balki butun ta’lim madaniyatini qayta qurish jarayonidir. Xorijiy mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli yechimlarni samarali joriy etish uchun faqat infratuzilma emas, balki inson omilini ham rivojlantirish zarur.

O‘zbekistonda joriy etilayotgan “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasi doirasida ta’lim sohasini raqamlashtirishda xorijiy tajriba asosida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish kerak:

- o‘qituvchilarni raqamli kompetensiyaga ega qilish;
- barcha ta’lim tizimlarini bitta raqamli ekotizimda birlashtirish;
- ota-onalar va jamoatchilikning ta’lim jarayoniga jalb etilishini ta’minlash.

Bu yondashuv orqali O‘zbekiston 2030-yilga kelib ta’lim sifati bo‘yicha mintaqada yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Commission. (2023). Digital Education Action Plan (2021–2027). https://education.ec.europa.eu/focus-topics/digital-education/action-plan
2. Estonian Ministry of Education and Research. (2023). e-Estonia in education: From eKool to AI tutoring. https://www.hm.ee/en
3. Kim, S. (2021). Digital transformation in Korean education: Lessons for developing countries. Seoul National University Press.
4. OECD. (2022). Digital education outlook: Pushing the frontiers with AI, blockchain and robots. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/6e3f5d0f-en
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2024). MySchool tizimi bo‘yicha statistik ma'lumotlar [Statistical data on the MySchool system].
7. UNESCO. (2023). Global education monitoring report 2023: Technology in education – A tool on whose terms? UNESCO Publishing. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000385726

HUDUDIY IJTIMOIY TABAQALASHUVNI BAHOLASHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI

Muallif: Xakimov Ziyodulla Axmadovich [1], Karimova Shirin Zoxid qizi [2]
Affiliyatsiya: “ALFRAGANUS UNIVERSITY” “Menejment va marketing” kafedrasi mudiri, i.f.d.[1], Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi PhD v.b.dotsenti [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17597283

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari yordamida hududlarning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini aniqlash va monitoring qilishga mo‘ljallangan platforma konsepsiyasini iqtisodiy-sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tadqiqot adabiyotlar sintezi asosida hududiy stratifikatsiyani o‘lchash uchun indikatorlar to‘plamini ishlab chiqdi, ma’lumotlar integratsiyasi va anonimlashtirish tamoyillarini belgiladi va HITI (Hududiy Ijtimoiy Tabaqalashuv Indeksi)ni taklif etdi. Pilot sinovlar ma’muriy va so‘rov ma’lumotlari asosida bir nechta hududlarda HITI ni hisoblab, hududlarning yuqori, o‘rta va past tabaqalarini aniqladi. SHAP interpretatsiyasi daromad dispersiyasi, ta’lim darajasi, internet tezligi va raqamli ko‘nikma indeksini HITI ga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida ko‘rsatdi. Klasterlash natijalari hamda anomaliya detektsiyasi platformaning hududiy tafovutlarni aniqlash va siyosiy intervensiyalarni maqsadga muvofiq yo‘naltirishdagi amaliy qiymatini tasdiqlaydi.

Kalit so’zlar: ijtimoiy tabaqalashuv, raqamli tengsizlik, sun’iy intellekt, hududiy monitoring, indikatorlar, ma’lumot integratsiyasi, inkluziv siyosat.

KIRISH

Raqamli transformatsiya va internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi ijtimoiy strukturaga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli resurslarga kirish, ularni qanday foydalanish va buning natijasi (digital capital) ijtimoiy tengsizlikni yangi shakllarda qayta ishlab chiqarishi yoki yumshatishi mumkin (van Dijk, 2020; DiMaggio et al., 2001). Ayniqsa, hududiy o‘lchamdagi tafovutlar — mahalla, tuman yoki viloyat darajasidagi farqlar — milliy o‘rtacha ko‘rsatkichlar yordamida yashirin qolishi mumkin, natijada mahalliy siyosat to‘g‘ri yo‘naltirilmaydi (Blank et al., 2018). Shu sababli, hududiy rezolyutsiyada ijtimoiy tabaqalashuvni aniqlaydigan va vaqt bo‘yicha monitoring qiladigan vosita zarur. Ushbu maqolada taklif etilayotgan platforma aynan shu muammoni hal etishni maqsad qiladi: indikatorlar integratsiyasi, SI modullarining qo‘llanilishi va natijalarni siyosatga aylantirish mexanizmlari orqali hududiy ijtimoiy tenglikni baholash.

ASOSIY QISM

Adabiyotlar raqamli bo‘linish (digital divide) va raqamli inklyuzivlik konseptlarini keng muhokama qiladi. Ushbu adabiyotlar quyidagi asosiy xulosalarni beradi (1) kirishdan ko‘ra muhimroq — foydalanish sifati va natijalar; (2) etnik, jins va yosh kabi

ijtimoiy o‘lchovlar raqamli munosabatlarda alohida rol o‘ynaydi (Matamoros-Fernandez, 2017);[1] (3) hududiy tafovutlarni aniqlash uchun yuqori rezolyutsiyali va heterojen ma’lumotlar zarur (Hargittai et al., 2019).[2] Bu asosda maqolada indikatorlar tanlovi va HITI konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi hududlarning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida baholash uchun izchil va tizimli yondashuvni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqichda indikatorlar tanlovi va ularning validatsiyasi amalga oshirildi. Bu jarayonda iqtisodiy, ta’lim, mehnat, raqamli foydalanish va ko‘nikmalar, sog‘liq hamda ijtimoiy tarmoqlarga oid ko‘rsatkichlar aniqlanib, ular orasidan eng muhimlari ekspert konsultatsiyalari hamda faktorial tahlil yordamida tanlab olindi. Har bir indikatorning ahamiyat darajasi (vazni) belgilab chiqildi, bu esa keyinchalik umumiy indeksni shakllantirishda asos bo‘ldi.

Keyingi bosqichda ma’lumotlar yig‘ish va ularni integratsiyalash ishlari olib borildi. Ma’lumotlar manbalari sifatida mahalliy ma’muriy registrlar, milliy miqyosdagi so‘rov natijalari, ochiq ma’lumot omborlari, shuningdek, ijtimoiy media API lari orqali olingan raqamli ma’lumotlar majmuasi foydalanildi. Ushbu ma’lumotlar turli formatda bo‘lgani sababli, ularni yagona tizimga keltirish uchun ma’lumotlarni tozalash, normalizatsiya qilish va formatlash amallari bajarildi. Shuningdek, barcha ma’lumotlar GDPR (General Data Protection Regulation) va O‘zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun talablari asosida anonimlashtirildi, bu esa tadqiqotning etik va huquqiy jihatdan shaffofligini ta’minladi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Pilot sinovlar bir nechta hududlarda HITI ni hisoblab chiqdi va hududlarni uchta klasterga ajratdi: yuqori (HITI ≈ 0.74), o‘rta (HITI ≈ 0.58) va past (HITI ≈ 0.41) tabaqalar. SHAP tahlil ko‘rsatdiki, eng sezilarli omillar: daromad dispersiyasi (28.6%), ta’lim darajasi (23.1%), internet tezligi/aylanmasi (19.7%) va raqamli ko‘nikma indeksi (17.9%). Etnik va yosh komponentlari kiritilganda, ba’zi hududlarda migratsiya va til kompetensiyasi bilan bog‘liq raqamli inklyuzivlik pasayishi aniqlandi, bu onlayn xizmatlardan foydalanish va ish topish imkoniyatlarini kamaytirdi. Klasterlash natijalari shuni ko‘rsatdiki, ba’zi past daromadli hududlarda infratuzilma yaxshi bo‘lsa ham inson kapitali (raqamli ko‘nikmalar) yetishmasligi HITI ni pasaytiradi; aksincha, infratuzilmasi sust hududlarda ta’lim va ijtimoiy faollik tabaqalashuvni kamaytirishi mumkin. Anomaliya detektori pandemiya kabi ijtimoiy shoklar ta’sirida HITI dagi o‘zgarishlarni erta bosqichda aniqlashga muvaffaq bo‘ldi; mahalliy raqamli savodxonlik dasturlari ba’zi hududlarda HITI ni ~0.07 punktga yaxshiladi.

Tahlillar SI integratsiyasi hududiy ijtimoiy tafovutlarni aniqlash va tahlil qilishda samarali ekanini ko‘rsatadi. Bu natija adabiyotdagi munozaralarni qo‘llab-quvvatlaydi: raqamli imkoniyatlar va ko‘nikmalar ijtimoiy mobilitetka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi (van Dijk, 2020; Hargittai et al., 2019). Natijalar mahalliy siyosatni mo‘ljallangan tarzda rejalashtirish uchun amaliy asos yaratadi: masalan, infratuzilma yaxshiligi yetarli bo‘lgan hududlarda raqamli savodxonlik va ta’lim dasturlarini kuchaytirish, infratuzilma sust hududlarda esa investitsion va innovatsion loyihalarni prioritetlash zarur.

[1] Matamoros-Fernández, Ariadna. "Platformed racism: The mediation and circulation of an Australian race-based controversy on Twitter, Facebook and YouTube." Information, Communication & Society 20.6 (2017): 930-946.
[2] Hargittai, Eszter, Anne Marie Piper, and Meredith Ringel Morris. "From internet access to internet skills: digital inequality among older adults." Universal access in the information society 18.4 (2019): 881-890.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalariga asoslangan yondashuv hududiy ijtimoiy tabaqalashuvni aniqlash, tahlil qilish va monitoring qilishda samarali ilmiy-amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Taklif etilgan Hududiy Ijtimoiy Tabaqalashuv Indeksi (HITI) modeli turli ijtimoiy, iqtisodiy va raqamli ko‘rsatkichlarni kompleks tarzda baholab, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni yuqori aniqlikda aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, HITI modeli yordamida SHAP interpretatsiyasi asosida daromad dispersiyasi, ta’lim darajasi, internet sifati va raqamli ko‘nikmalar ijtimoiy tabaqalashuv darajasiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi determinantlar sifatida aniqlangan. Bu omillar o‘zaro bog‘liq holda ijtimoiy tengsizlikning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy tafovutlarni tahlil qilish uchun empirik asos yaratadi. Kelgusida platformani takomillashtirish uchun real vaqtli ma’lumot oqimlarini (real-time data streaming), foydalanuvchi markazli dizaynni (user-centered design) va mahalliy hamkorlik asosidagi qo‘shimcha validatsiya bosqichlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu yo‘sinda ishlab chiqilgan tizim hududiy ijtimoiy tenglikni ta’minlash, raqamli inklyuzivlikni kuchaytirish va davlat siyosatini ma’lumotlarga asoslangan qarorlar bilan qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin egallaydi.

Umuman olganda, sun’iy intellekt asosidagi ijtimoiy tahlil platformasi O‘zbekiston hududlarida raqamli transformatsiya jarayonlarining ijtimoiy oqibatlarini chuqur anglash, ijtimoiy siyosatni raqamli dalillar bilan boyitish hamda inkluziv raqamli jamiyatni shakllantirish yo‘lida istiqbolli ilmiy va amaliy yechim sifatida baholanadi.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. DiMaggio, P., Hargittai, E., Neuman, W. R., & Robinson, J. P. (2001). Social implications of the Internet. Annual review of sociology, 27(1), 307-336.
2. Matamoros-Fernández, Ariadna. "Platformed racism: The mediation and circulation of an Australian race-based controversy on Twitter, Facebook and YouTube." Information, Communication & Society 20.6 (2017): 930-946.
3. Blank, Christian U., et al. "Neoadjuvant versus adjuvant ipilimumab plus nivolumab in macroscopic stage III melanoma." Nature medicine 24.11 (2018): 1655-1661.
4. Hargittai, Eszter, Anne Marie Piper, and Meredith Ringel Morris. "From internet access to internet skills: digital inequality among older adults." Universal access in the information society 18.4 (2019): 881-890.
5. Bacher-Hicks, A., et al. 2021. Inequality in household adaptation to schooling shocks: Covid-induced online learning engagement in real time. Journal of Public Economics. 193: 104345.
6. DiMaggio, P., et al. 2004. Digital Inequality: From Unequal Access to Differentiated Use. In D. Grusky (Ed.), The

O‘ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARI BRENDNI SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA'SIRI

Mualliflar: Xakimov Ziyodulla Axmadovich [1], Xidoyatov Murod Batirovich [2]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalarkafedrasi professori, i.f.d [1], TDIU-Krems AFU xalqaro qo‘shma ta'lim dasturi fakulteti uslubchisi, TDIU Marketing kafedrasi mustaqil izlanuvchisi [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17598655

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli brendni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning roli va samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda internet va ijtimoiy media foydalanuvchilari sonining o‘sishi, universitetlarning raqamli kommunikatsiya strategiyalari hamda brend imijini mustahkamlashdagi kontent marketing vositalari o‘rganilgan. Shuningdek, TDIU, WIUT, IUT, TATU va TTPU kabi OTMlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi solishtirilib, samarali brendlash amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola yakunida ijtimoiy tarmoqlarning raqamli marketing tizimidagi markaziy o‘rni hamda universitetlar uchun strategik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: raqamli brend, ijtimoiy tarmoqlar, oliy ta’lim, raqamli marketing, kontent strategiyasi, brend imiji, kommunikatsiya.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni jadal kechmoqda. Globallashuv, internet texnologiyalarining rivojlanishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining ommalashuvi ta’lim muassasalari faoliyatida marketing yondashuvlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda oliy ta’lim muassasalari (OTM) o‘z raqamli brendini shakllantirish, ijobiy imij yaratish va abituriyentlarni jalb etish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish zaruratini chuqur anglamoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar bu faqat muloqot vositasi emas, balki raqamli marketingning markaziga aylangan. Universitetlar o‘zining rasmiy sahifalari orqali auditoriya bilan muloqot olib boradi, kontent orqali ishonchni mustahkamlaydi va ta’lim xizmatlarini targ‘ib qiladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2025-yil holatiga internet foydalanuvchilari soni 33 milliondan oshgan bo‘lib, ularning 90 foizdan ortig‘i kamida bitta ijtimoiy tarmoqda faol hisoblanadi[1]. Bu raqamlar oliy ta’lim muassasalari uchun ijtimoiy media orqali kommunikatsiyani samarali yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari nihoyatda keng ekanini ko‘rsatadi.

Raqamli brend - bu nafaqat tashqi dizayn yoki logotip, balki universitetning qadriyatlari, innovatsion yondashuvi va auditoriya bilan o‘rnatgan ishonchidir. Shu boisdan ijtimoiy tarmoqlar OTMlar uchun brend identifikatsiyasi, sodiqlikni shakllantirish va abituriyentlar bilan uzoq muddatli aloqani ta’minlash vositasiga aylanmoqda[2].

O‘zbekiston misolida, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Inha universiteti, Turin politexnika universiteti kabi OTMlar Facebook, Instagram, Telegram va YouTube platformalarida muntazam tarzda ijtimoiy kommunikatsiyalar olib bormoqda. Ularning postlari va videomateriallari orqali universitet imiji shakllanmoqda, bu esa raqamli brend kuchini oshirmoqda (1-rasm).

1-jadval
O‘zbekiston OTMlarining ijtimoiy tarmoqlardagi raqamli faolligi (2025-yil holatiga)[1]

OTM nomi	Platformalar	Kuzatuvchilar soni (ming)	Faollik chastotasi (haftasiga postlar soni)	Asosiy kontent turi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU)	Instagram, Telegram, YouTube	180	12–14	Yangiliklar, xalqaro hamkorlik, talaba yutuqlari
Westminster International University in Tashkent (WIUT)	YouTube, Instagram, TikTok	150	9–11	Videobloglar, kampus hayoti, talabalik tajribasi
Inha University in Tashkent (IUT)	Instagram, Facebook, Telegram	115	7–9	Talabalar intervyulari, tadbirlar, IT loyihalar
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU)	Telegram, Instagram, YouTube	105	8–10	Raqamli loyihalar, startap yangiliklari
Turin Polytechnic University in Tashkent (TTPU)	Instagram, LinkedIn	85	6–8	Akademik faoliyat, xalqaro hamkorlik, ilmiy tadbirlar

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning yetakchi OTMlari ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z brendini targ‘ib qilishda faol yondashuvni qo‘llamoqda. Eng katta auditoriyaga ega universitet - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bo‘lib, u ijtimoiy tarmoqlarda muntazam kommunikatsiya olib boradi. Bu esa raqamli brendning kuchayishida kontent chastotasi va sifatining muhimligini tasdiqlaydi.

Raqamli brendlash (digital branding) tushunchasi global ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Kotler va Keller raqamli brendni “iste’molchi ongida tashkilot haqidagi ijobiy assotsiatsiyalarni shakllantiruvchi raqamli identitet” sifatida ta’riflaydi[4]. Ularning fikricha, raqamli marketing strategiyasi orqali yaratilgan brend qadriyatlari uzoq muddatli sodiqlikni ta’minlaydi.

Kapoor va Dwivedi ijtimoiy tarmoqlarning oliy ta’limda kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rni haqida shunday deydi: “Ijtimoiy tarmoqlar universitetlarga o‘z brend hikoyasini yaratish, uni doimiy ravishda yangilash va interaktiv auditoriya bilan muloqot qilish imkonini beradi”[5]. Bu fikr O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb, chunki ijtimoiy media auditoriyasi yoshlar segmenti bilan to‘liq mos keladi.

Ashley va Tuten tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlarda brend ishonchliligi (brand trust)ni shakllantirishda kontent sifati va doimiy muloqotning muhimligini ta’kidlaydi[6]. Shuningdek, Kaur va Singh o‘z maqolasida universitetlarning brend imijini kuchaytirishda “user-generated content” (foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent)ning ahamiyatini e’tirof etadi[7].

Mahalliy muhitda esa Amirkulov “Marketing Journal Uzbekistan” nashrida O‘zbekiston OTMlarida raqamli kommunikatsiyalar tizimi hali to‘liq

[1] OTMlarning rasmiy sahifalari tahliliga asoslanib muallif tomonidan tuzilgan

shakllanmaganini, ammo ko‘plab universitetlar ijtimoiy media orqali o‘z imijini faol mustahkamlashga harakat qilayotganini qayd etgan[8].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, AQSh va Yevropa universitetlari raqamli brendlashda integratsiyalashgan ijtimoiy media strategiyasini qo‘llaydi: Facebook orqali yangiliklar, Instagram’da vizual kontent, YouTube’da ilmiy hayotdan videoroliklar va LinkedIn’da akademik brend imiji yaratiladi [9]. Shu yondashuv O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, ijtimoiy tarmoqlar orqali raqamli brendni shakllantirish strategik yondashuv, muntazam kommunikatsiya va auditoriya bilan ishonchli muloqotni talab etadi. Bu yondashuv universitetlarning raqobatbardoshligini oshiradi, xalqaro maydondagi imijini mustahkamlaydi va abituriyentlar e’tiborini jalb etadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. 2017-yildan buyon oliy ta’lim muassasalari soni 77 tadan 200 dan ortiq darajaga yetdi, talabalar soni esa 1,5 milliondan oshdi[10][2]. Ushbu o‘sish, tabiiyki, raqobatni keskinlashtirdi va natijada har bir OTM o‘zini bozorda tanitish, farqlanish va abituriyentlar e’tiborini jalb etish uchun yangi marketing mexanizmlarini izlay boshladi. Shunday mexanizmlardan eng samaralisi — ijtimoiy tarmoqlarda raqamli brend yaratishdir.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

2-jadval

OTM raqamli brendlash samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari[3]

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Tavsif	Maqsadi
Follower growth rate	%	Kuzatuvchilar sonining oylik o‘sish sur’ati	Auditoriya kengayishini ko‘rsatadi
Engagement rate	%	Layklar, izohlar va repostlar soniga asoslangan o‘zaro ta’sir ko‘rsatkichi	Faol auditoriyani o‘lchaydi
Conversion rate	%	Ijtimoiy tarmoqdan universitet saytiga o‘tgan yoki ariza topshirgan foydalanuvchilar ulushi	Marketing samaradorligini baholaydi

2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli brendlash samaradorligini aniqlashda faqat kuzatuvchilar soni emas, balki ularning faolligi va ishtirok darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “engagement rate” ko‘rsatkichi universitet brendining ijtimoiy tarmoqlardagi real ta’sir kuchini ifodalaydi.

DataReportal-2025 ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistondagi yirik OTMlarning 70 foizi ijtimoiy tarmoqdagi auditoriyasini bir yilda o‘rtacha 30–35 foizga oshirgan. Bu, o‘z navbatida, raqamli kommunikatsiyalar orqali brend ishonchliligi va tanilish darajasi ortayotganini bildiradi. Shuningdek, Amirkulov fikricha, raqamli brend samaradorligi faqat sonli ko‘rsatkichlar bilan emas, balki “virtual reputatsiya” (online reputation) bilan ham baholanishi lozim[11]. Ya’ni, foydalanuvchilarning izohlaridagi ohang, baholashlar sifati va brend atrofidagi muloqot madaniyati ham universitet obro‘siga bevosita ta’sir qiladi.

4. Xorijiy tajriba va O‘zbekiston uchun xulosalar o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, xalqaro amaliyotda universitetlar brendini rivojlantirishda “social storytelling” — ya’ni ijtimoiy hikoyalar orqali brend qadriyatini yetkazish keng qo‘llaniladi. Kapoor va Dwivedi o‘z tadqiqotida bu yondashuv universitet brendiga nisbatan ijobiy his-

[2] DataReportal. (2025). *Digital 2025: Uzbekistan Report.*
[3] mualliflar tomonidan umumlashtirilgan

tuyg‘ularni kuchaytirishini ta’kidlaydi[12]. Masalan, Harvard va Oxford universitetlarining Instagram sahifalarida talabalar tajribalari, professorlarning ilmiy izlanishlari va kampus hayotidan qisqa voqealar muntazam e’lon qilinadi. Shu model O‘zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Mahalliy OTMlar, xususan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) 2023-yildan buyon Telegram orqali “digital campus life” ruknini yo‘lga qo‘yib, o‘z brendini raqamli formatda kuchaytirishga erishdi[13]. Bu tajriba ijtimoiy tarmoqlarning nafaqat reklama, balki ijtimoiy ta’sir va sodiqlik vositasi sifatida ishlashini isbotlaydi. Umuman olganda, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli brendlash jarayoni endigina shakllanmoqda, biroq mavjud tendensiyalar - bu jarayonning istiqboli ijobiy ekanini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli brendni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni strategik darajada muhim hisoblanadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida OTMlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi ularning imiji, obro‘-e’tibori hamda abituriyentlar bilan aloqasining asosiy mezoniga aylanmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali universitetlar o‘z ta’lim dasturlari, ilmiy yutuqlari, xalqaro hamkorliklari va talabalar hayoti haqida tezkor va vizual tarzda axborot berish imkoniyatiga ega. Bu esa brendni “tirik tizim” sifatida shakllantiradi — ya’ni brend nafaqat tashqi belgilar, balki universitetning qadriyatlari, missiyasi va madaniyatini ifodalovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq, o‘rganilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab OTMlarda raqamli brendlash jarayoni hali ham tizimli yondashuvdan yiroq. Strategik rejalashtirishning sustligi, malakali raqamli marketing mutaxassislarining yetishmasligi, kontent sifatining pastligi va samaradorlikni o‘lchash mexanizmlarining yo‘qligi asosiy muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bu holatni bartaraf etish uchun universitetlar quyidagi yo‘nalishlarda chora ko‘rishlari maqsadga muvofiq:

- raqamli brend strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish. Har bir OTM uchun alohida auditoriya tahliliga asoslangan kommunikatsiya modeli zarur.
- ijtimoiy tarmoqlarda professional kontent boshqaruvi tizimini yaratish. Universitetning brend ovozini (brand voice) aniqlab, har bir post, video yoki reklama materialida yagona uslubni saqlash kerak.
- raqamli marketing kadrlar salohiyatini oshirish. OTM xodimlari uchun muntazam treninglar, master-klasslar va xalqaro tajriba almashuv dasturlari yo‘lga qo‘yilishi zarur.
- samaradorlikni baholash tizimini shakllantirish. Ijtimoiy tarmoq tahlili vositalari (Google Analytics, Meta Business Suite, Hootsuite) yordamida natijalarni raqamli o‘lchash, foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish muhim.
- brend qadriyatlarini targ‘ib etishda ijtimoiy mas’uliyat elementlarini kuchaytirish. Universitetlar faqat reklama emas, balki jamiyatga foyda keltiruvchi ijtimoiy loyihalar, ekologik tashabbuslar, xayriya kampaniyalari orqali ham o‘z brendini mustahkamlashi lozim.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, universitet brendi auditoriyada emotsional ishonch va intellektual hurmat uyg‘otgan taqdirdagina barqaror bo‘ladi. Shu boisdan, O‘zbekiston OTMlarida ijtimoiy tarmoqlarni raqamli brend menejmentining

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

markaziy elementi sifatida shakllantirish nafaqat kommunikatsiya, balki strategik boshqaruv masalasidir.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli brendlash – bu faqat texnologik jarayon emas, balki insoniy qadriyatlar asosidagi marketing yondashuvdir. OTMlar ushbu yondashuvni o‘z faoliyatiga integratsiya qilgan holda nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham raqobatbardosh brend maqomiga erishishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. DataReportal. (2025). Digital 2025: Uzbekistan Report. Retrieved from https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan
2. Kapoor, K. K., & Dwivedi, Y. K. (2023). Social Media in Higher Education Branding. Journal of Business Research, 158, 113–129.
3. Kotler, P., & Keller, K. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.
4. Kapoor, K. K., & Dwivedi, Y. K. (2023). Social Media in Higher Education Branding. Journal of Business Research, 158, 113–129.
5. Ashley, C., & Tuten, T. (2020). Creative Strategies in Social Media Marketing. Business Horizons, 63(2), 115–124.
6. Kaur, H., & Singh, J. (2022). Digital Branding in Higher Education Institutions: A User-Generated Content Perspective. International Journal of Marketing Studies, 14(3), 45–56.
7. Amirkulov, A. (2024). Marketing faoliyatining raqamli kommunikatsiya jihatlari. Marketing Journal Uzbekistan, 2(1), 77–85.
8. Bardasuc, M. (2021). The Role of Digital Communication in University Branding During COVID-19. European Education Studies, 9(4), 21–34.
9. DataReportal. (2025). Digital 2025: Uzbekistan Report.
10. DataReportal. (2025). Digital 2025: Uzbekistan Report.
11. Amirkulov, A. (2024). Marketing faoliyatining raqamli kommunikatsiya jihatlari. Marketing Journal Uzbekistan, 2(1), 77–85.
12. Kapoor, K. K., & Dwivedi, Y. K. (2023). Social Media in Higher Education Branding. Journal of Business Research, 158, 113–129.
13. Tashkent University of Information Technologies. (2024). Digital campus life initiatives via Telegram official channel. Retrieved from https://t.me/tuituz_official

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Muallif: Xusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: TDIU Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assistenti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17598690

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Raqamli infratuzilmani takomillashtirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va interaktiv ta'lim usullaridan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim platformalari, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining ahamiyati muhokama qilingan. Natijalar raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Kalit so’zlar: Raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, blokcheyn, onlayn platforma, interaktiv ta'lim, raqamli infratuzilma, shaxsiylashtirilgan o‘qitish.

KIRISH

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimiga katta ta'sir ko‘rsatmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va talabalarning bilim olish samaradorligini yaxshilash imkonini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali masofaviy ta'limni rivojlantirish, shaxsiylashtirilgan o‘qitishni yo‘lga qo‘yish va ta'lim jarayonini raqamlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va yangi texnologiyalardan foydalanishga moslashtirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Shuningdek, talabalarning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirish, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularga yangi innovasion vositalarni taqdim etish zarurati ham oshib bormoqda. Shu maqolada oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ularning afzalliklari va muammolari tahlil qilinib, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan samarali usullar taklif etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga innovasion yondashuvlarni kiritish orqali uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, AQSh va Yevropa davlatlarida raqamli ta'lim platformalari va sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayoniga faol tatbiq etilmoqda. Masalan, Coursera, EDX, Khan Academy kabi onlayn platformalar talabalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini taqdim etmoqda. Shuningdek, Finlyandiya va Singapur kabi davlatlarda ta'lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Anderson.T. (2019). The Theory and Practice of Online Learning. Muallif onlayn ta'limning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini ochib beradi. Ushbu

manbada raqamli platformalarning imkoniyatlari, shuningdek, interaktivlik va mustaqil oʻrganishni ragʻbatlantiruvchi elementlar keng tahlil qilingan.

YUNESKO (2020). Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. Pandemiyadan keyingi ta'limni qayta tashkil etish boʻyicha takliflarda raqamli texnologiyalarni keng qamrovda joriy etish zarurligi ta'kidlangan. Masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari chuqur yoritilgan.

Mirzaeva.G. (2023). Raqamli ta'limga talabalar munosabati: Empirik tadqiqot natijalari. Bu tadqiqotda talabalarning raqamli ta'lim vositalariga munosabati, ularning qulaylik darajasi, foydali jihatlari va muammolari aniqlangan. Talabalar fikriga asoslangan holda tahlil qilingan.

Qoʻchqorov.X. (2022). Oliy ta'limda raqamli texnologiyalar: Yondashuv va muammolar. Muallif raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi huquqiy, texnik va pedagogik jihatlarni yoritadi. Oʻqituvchilarning raqamli kompetensiyasi masalalari alohida koʻrib chiqilgan.

OECD (2021). Digital Education Outlook: Pushing the Frontiers with AI. Xalqaro darajadagi ushbu hisobotda sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim tizimlari va raqamli tahlil vositalari kelajakda ta'limga qanday ta'sir koʻrsatishi yoritilgan.

Ahmadaliyev.B. (2021). Oʻzbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish istiqbollari. Ushbu maqolada milliy darajadagi raqamli ta'lim siyosatlari, loyihalar va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Elektron platformalardan foydalanish tajribasiga toʻxtalib oʻtilgan.

Selwyn.N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates. Bu kitobda raqamli texnologiyalarning ta'limga ta'siri batafsil yoritilgan. Aniq misollar va holatlar asosida muammoli nuqtalarni tahlil qiladi.

Kasimov.D. (2022). Axborot-kommunikasiya texnologiyalarining oʻquv jarayoniga ta'siri. Ushbu maqolada AKT vositalari orqali darslarni tashkil qilish usullari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Masofaviy oʻqitishdagi texnik imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Xulosa sifatida aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, raqamli texnologiyalarni oliy ta'lim tizimida samarali qoʻllash ta'limning sifatini oshirishga, ta'lim jarayonini individuallashtirishga va ta'lim oluvchilarning faolligini ragʻbatlantirishga xizmat qiladi. Biroq bu jarayonda metodik yondashuvlar, infratuzilmaviy ta'minlash va kadrlar malakasini oshirish masalalari alohida e'tiborni talab qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qoʻllash usullarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yoʻllarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda ilmiy izlanishning **sifat** va **miqdoriy** usullari birgalikda qoʻllanildi, ya'ni **aralash metod** asosida olib borildi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Oʻzbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni olindi. Predmet esa – raqamli texnologiyalarni qoʻllash usullari va ularning samaradorligini oshirish yoʻnalishlari hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qoʻllashning afzalliklari quyidagilardan iboratdir:

interaktiv ta'lim jarayoni;

shaxsiylashtirilgan oʻqitish;
aqliy tahlil va sun'iy intellekt;
oʻquv materiallariga keng qamrovli kirish;
hamkorlik va muloqot imkoniyatlari.

Interaktiv ta'lim jarayoni - Virtual va aralash ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim dasturlari, vebinarlar va onlayn darslar orqali ta'lim samaradorligini oshirish. Shaxsiylashtirilgan oʻqitish - Texnologiyalar orqali talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ular uchun mos oʻquv rejalarini shakllantirish. Aqliy tahlil va sun'iy intellekt - Ta'lim jarayonini tahlil qilish va samaradorlikni oshirish imkoniyati. Oʻquv materiallariga keng qamrovli kirish - Elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, axborot bazalari va ta'lim platformalaridan foydalanish imkoniyati. Hamkorlik va muloqot imkoniyatlari - Talabalar va oʻqituvchilar oʻrtasidagi muloqotni kuchaytirish, guruhlarda ishlash va tajriba almashish jarayonlarini yaxshilash.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash uchun quyidagi jadvalda asosiy koʻrsatkichlar keltirilgan:

1-jadval

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash[1]

Koʻrsatkich	An'anaviy ta'lim (%)	Raqamli ta'lim (%)
Darslarda qatnashish darajasi	75	90
Oʻquv materiallariga kirish imkoniyati	60	95
Talabalarning faolligi	50	85
Oʻquv jarayonida individual yondashuv	40	80
Masofaviy ta'lim imkoniyati	30	90

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qoʻllash metodlarini takomillashtirish yoʻnalishlari quyidagilardan tashkil topgan:
oliy ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
oʻqituvchilar malakasini oshirish;
masofaviy ta'lim modellarini joriy etish;
interaktiv oʻquv materiallari yaratish;
sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish Kameralar, sensorlar, internet tarmoqlarini takomillashtirish, qulay platforma va dasturiy ta'minotlar yaratish. Oʻqituvchilar malakasini oshirish - Ularni raqamli texnologiyalardan foydalanish boʻyicha oʻqitish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish. Masofaviy ta'lim modellarini joriy etish - Onlayn va gibrid ta'lim modellarini rivojlantirish. Interaktiv oʻquv materiallari yaratish - Video darslar, elektron kitoblar, mobil ilovalar va boshqa resurslarni takomillashtirish. Sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish-Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, shaxsiylashtirilgan ta'lim platformalari va raqamli diplomlar joriy etish.

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qoʻllash metodlarini takomillashtirishni jadval asosida quyidagicha yoritish mumkin:

[1] Muallif ishlanmasi

2-jadval
Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qoʻllash metodlarini takomillashtirish yoʻllari[2]

Yoʻnalish	Takomillashtirish metodi	Kutilgan natija	Muddat
Elektron ta'lim platformalari	Moodle, Google Classroom, Blackboard kabi platformalarni joriy etish va integrasiyalash	Masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, oʻquv jarayonini samarali tashkil etish	Doimiy
Virtual va aralash ta'lim (Blended Learning)	Virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar, video darslarni yoʻlga qoʻyish	Amaliy bilimlarni uzatishning samaradorligini oshirish	6-12 oy
Interaktiv vositalarni qoʻllash	Simulyasiyalar, interaktiv taxtalar, raqamli kitoblardan foydalanish	Dars jarayonini qiziqarli va tushunarli qilish	3-6 oy
Bilimlarni baholashda sun'iy intellekt	Avtomatlashtirilgan test tizimlari, AI asosidagi tahlillar	Ob'ektiv va tezkor baholashni ta'minlash	6-12 oy
Bilimlarni personallashtirish	Mashinani oʻrganish va AI yordamida individual oʻquv rejalarini shakllantirish	Har bir talabaning oʻquv imkoniyatlariga moslashish	12-18 oy
Masofaviy ta'lim usullarini takomillashtirish	Videokonferensiya platformalarini takomillashtirish, VR/AR texnologiyalarini joriy etish	Istalgan joyda va vaqtda oʻquv jarayonini ta'minlash	6-12 oy

2-jadvalda tavsiya etilgan yoʻnalishlar Oliy ta'lim tizimida qoʻllaniladigan raqamli texnologiyalardan foydadalanish samaradorligini oshirishni ta'minlashga imkoniyat beradi. Jumladan, Moodle, Google Classroom, Blackboard kabi elektron ta'lim platformalarini joriy etish orqali masofaviy ta'lim imkoniyatlari kengayishi ta'minlanadi. Virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar va video darslar orqali amaliy bilimlarni samarali uzatish, interaktiv vositalar (simulyasiyalar, raqamli kitoblar, elektron taxtalar) yordamida dars jarayonini qiziqarli va tushunarli qilish imkoni yaratiladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali ob'ektivlik va tezkorlikka erishish mumkin. AI yordamida individual oʻquv rejalarini shakllantirish, talabalar imkoniyatlariga mos ta'limni yoʻlga qoʻyishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, taklif etilgan metodlar oliy ta'lim tizimining raqamlashtirilishini jadallashtirish va ta'limning individual, interaktiv va innovasion modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ta'lim muassasalari infratuzilmasini takomillashtirish, oʻqituvchilarni qayta tayyorlash va talabalar uchun texnologik imkoniyatlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy raqamli ta'lim vositalari oʻquv jarayonini interaktiv va samarali qilishga imkon beradi. Shuningdek, talabalarning mustaqil oʻrganish qobiliyatlarini kuchaytirish, bilimlarni oʻzlashtirish sifatini oshirish va ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkonini yaratadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida zamonaviylashtirish jarayonini tezlashtirib, innovasion yondashuvlarning amalga oshirilishini ragʻbatlantiradi. Shu boisdan, ta'lim muassasalari raqamli infratuzilmalarni takomillashtirish, pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish va talabalar uchun yangi oʻquv modellarini joriy etishga e'tibor qaratishlari lozim. Kelajakda raqamli texnologiyalar asosidagi ta'lim modellari ta'lim sifatini yanada

[2] Muallif ishlanmasi

yuqori darajaga olib chiqishi shubhasiz. Shuning uchun, innovasiyalarni joriy qilish va raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishga doimiy e'tibor qaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884
2. Zub A.T. Prinyatie upravlencheskix resheniy. Teoriya i praktika: ucheb. Posobie. – M.: ID «FORUM»: INFRAM-M, 2010. – 400 s.: il.
3. Kadushin A., Mixaylova N. Effekt «okisleniya» // «Direktor informasionnoy slujbi»: nastolniy jurnal IT-rukovoditelya, № 7 2001 g. [Elektronniy resurs]. Rejim dostupa: http://www.osp.ru/cio/2001/07/171840/. Data obrasheniya: 20.09.2012.
4. Gulyamov S.S., Ayupov R.X., Abdullaev R.Q. “Raqamli iqtisodiyot-kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari” // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar fevral, 2020 yil.
5. Razumnikov S.V., Kurmanbay A.K. Models of evaluating efficiency and risks on integration of cloud-base IT-services of the machine-building enterprise: a system approach // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, Volume 124 (2016), Number 1, Tomsk – [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: http://iopscience.iop.org/article/10.1088/1757-899X/124/1/012089 (data obrasheniya: 11.05.2016).
6. Reig G., Alonso J., Guitart J. (2010) Deadline constrained prediction of job resource requirements to manage high-level SLAs for SaaS cloud providers, Tech. Rep. UPC-DAC-RR, Dept. d’Arquitectura de Computadors, University Politécnica de Catalunya, Barcelona, Spain.
7. Wu, L., Kumar Garg, S., Buyya, R. (2012). SLA-based admission control for a Software-as-a-Service provider in Cloud computing environments. Journal of Computer and System Sciences, 78 (5), pp. 1280 1299.
8. Valentinova T. Chto v deystvitelnosti predstavlyayut soboy oblachnie servisi // Wardwareportal.ru, 9.03.2009 [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: http://www.hwp.ru/articles/CHto_v_deystvitelnosti_predstavlyayut_soboy_oblachnie_servisi/(data obrasheniya: 08.04.2013).
9. Kolpakov V.M. Teoriya i praktika prinyatiya upravlencheskix resheniy: Ucheb. Posobie. — 2 e izd., pererab. I dop. — K.: MAUP, 2004. — 504 s.: il.
10. Zaripov B., Abduvohidov A., “Swot Analysis of Cloud Computing Problems in Higher Education”, ICFNDS 2021: The 5th International Conference on Future Networks & Distributed SystemsDecember 2021 Pages 323–327https://doi.org/10.1145/3508072.3508125.
11. Zaripov, B., Mirzaliyev, S., Zohirov, K., Abdullayev A. “Analysis and Implementation of Course Quality Optimization based on Cloud Computing” International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2021, 2021.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ILG‘OR BOSHQARUV USULLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

Muallif: Zoirov O‘lmas Erkin o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Sanoatni boshqarish varaqamli texnologiyalar kafedrasi katta o‘qituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17598834

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv usullarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish masalalari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish korxona boshqaruvi tizimida yangicha yondashuvlarni talab etib, ishlab chiqarish jarayonlari, resurslardan foydalanish va strategik qaror qabul qilish samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotda ilg‘or boshqaruv usullari — raqamli tahlil, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan monitoring va bulutli texnologiyalar asosidagi boshqaruv tizimlarining amaliy natijalari o‘rganilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonining iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqilib, ularning foyda, xarajat va ishlab chiqarish unumdorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, ilg‘or boshqaruv usullarining raqamli iqtisodiyotda korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishdagi o‘rni, inson resurslarini optimallashtirishdagi roli hamda innovatsion boshqaruv strategiyalarining ishlab chiqilishiga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, texnologik va iqtisodiy shart-sharoitlar aniqlanib, boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Natijada ilg‘or boshqaruv yondashuvlari raqamli iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda strategik qarorlar sifatini yaxshilashda asosiy omil sifatida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: raqamli transformatsiya, ilg‘or boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik, raqamli texnologiyalar, boshqaruv tizimi, sun’iy intellekt, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirish, strategik boshqaruv.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

KIRISH

Raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanishni, balki korxonalar faoliyatining barcha sohalarida – ishlab chiqarish, boshqaruv, marketing, moliya va inson resurslarini boshqarishda tub o‘zgarishlarni taqozo etadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ilg‘or boshqaruv usullarini joriy etish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta ma’lumotlar tahlili (Big Data), IoT (Internet of Things) va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kabi innovatsion texnologiyalar korxonalar boshqaruv tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari

raqamlashtirilmoqda, balki strategik boshqaruv, marketing tahlili va moliyaviy rejalashtirish sohalarida ham samaradorlik sezilarli darajada oshmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv usullarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi, chunki har bir texnologik yangilik korxona resurslari va investitsiyalarini qay darajada optimallashtirayotganini baholash zarur. Shu sababli, korxonalarda raqamli boshqaruv modellarini shakllantirishda iqtisodiy ko‘rsatkichlar – foyda, xarajat, unumdorlik, rentabellik va innovatsion faoliyat darajasi muhim mezon sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida ilg‘or boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda baholash, ularning amaliy natijalarini tahlil qilish va raqamli iqtisodiyotda korxona boshqaruvining yangi mexanizmlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida ilg‘or boshqaruv usullarining qo‘llanilishi orqali korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishi, inson resurslarini boshqarishdagi aniqlikning oshishi hamda strategik rejalashtirishda sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligi o‘rganiladi.

Natijada, raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv yondashuvlarini joriy etish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, korxona faoliyatining natijadorligini oshirish hamda raqobat muhitida strategik ustunlikni qo‘lga kiritish imkonini beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida faol olib borilmoqda. Xususan, Porter M. va Heppelmann J. (2014) o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sirini tahlil qilib, raqamli boshqaruvni korxonalarning strategik ustuvor yo‘nalishiga aylantirish zarurligini ta’kidlaydilar.

Davenport T. (2018) esa ilg‘or analitik tizimlar, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni boshqarish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llarini ko‘rsatadi. Shuningdek, OECD (2022) hisobotida raqamli transformatsiya mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) o‘rtacha 4–6% o‘sish keltirishi mumkinligi qayd etilgan.

O‘zbekiston olimlari ham ushbu sohada izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, A. Karimov (2021) “Raqamli iqtisodiyotning menejmentdagi roli” asarida korxonalar uchun raqamli boshqaruv platformalarini joriy etishning moliyaviy va tashkiliy afzalliklarini tahlil qilgan.

Shuningdek, R. Sodiqov (2023) o‘z tadqiqotida raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali xizmat ko‘rsatish sohalarida samaradorlikni 25–30 foizga oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or boshqaruv tizimlari – ERP (Enterprise Resource Planning), CRM (Customer Relationship Management) va SCM (Supply Chain Management) kabi raqamli platformalar korxona faoliyatining barcha bo‘g‘inlarini yagona axborot muhitida birlashtirish orqali iqtisodiy natijadorlikni oshiradi. Shu bois, ushbu tizimlarning samaradorligini baholashda iqtisodiy, texnologik va tashkiliy omillarni kompleks tahlil etish zarur.

METODLAR

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, tahliliy taqqoslash, statistik modellashtirish va iqtisodiy baholash metodlari qo‘llanildi. Tizimli yondashuv orqali raqamli transformatsiya jarayonining boshqaruv tizimlariga integratsiyalashuv

bosqichlari o‘rganildi. Tahliliy taqqoslash metodi yordamida ilg‘or boshqaruv usullari – an’anaviy boshqaruv tizimlari bilan solishtirildi va ularning samaradorlik farqlari aniqlashtirildi.

Statistik modellashtirish usuli yordamida raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilgan korxonalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari – ishlab chiqarish hajmi, foyda marjasi, xarajatlar darajasi va mehnat unumdorligi bo‘yicha o‘zgarishlar baholandi. Bundan tashqari, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblashda “foyda/xarajat” (Cost-Benefit Analysis), ROI (Return on Investment) va iqtisodiy qo‘shimcha qiymat (EVA) indikatorlari asos qilib olindi.

Ushbu metodlarning kompleks qo‘llanishi raqamli transformatsiyaning iqtisodiy natijalarini ilmiy asosda aniqlash, ilg‘or boshqaruv tizimlarining samaradorlik darajasini baholash va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

NATIJALAR

Raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etishning natijalari tadqiqot davomida olingan empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. O‘rganilgan 25 ta mahalliy korxona misolida raqamli boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri aniqlanib, quyidagi asosiy natijalar qayd etildi.

Birinchidan, ilg‘or boshqaruv tizimlarini (ERP, CRM, SCM) joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi natijasida mehnat unumdorligi o‘rtacha **28 foizga,** operatsion xarajatlar esa **19 foizga** kamaygani kuzatildi. Ikkinchidan, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanayotgan kompaniyalarda strategik qarorlar qabul qilish tezligi an’anaviy tizimlarga nisbatan **2,3 baravar** yuqori ekani aniqlandi. Uchinchidan, xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli yechimlar orqali mijozlar ehtiyojlariga javob berish darajasi **25–30 foiz** ortgan.

1.1-jadval. Ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish natijasida korxonalarda o‘zgarishlar[1]

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy tizim (%)	Raqamli tizim (%)	Farq (+/-)
Mehnat unumdorligi o‘sishi	100	128	+28
Operatsion xarajatlar kamayishi	100	81	-19
Qaror qabul qilish tezligi	100	230	+130
Mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasi	100	130	+30
Foyda marjasi o‘sishi	100	142	+42

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli boshqaruv tizimlarini tatbiq etgan korxonalar nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki strategik raqobatbardoshlikni ham oshirmoqda.

[1] Manba: muallif tomonidan 2024–2025 yillardagi tahliliy ma’lumotlar asosida tuzilgan

1.2-jadval. Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning umumiy iqtisodiy samaradorligi

(Quyidagi diagramma ishlab chiqarish samaradorligi, xarajatlarni kamaytirish va foyda o‘sishining o‘zaro nisbatini aks ettiradi.)

1.2-jadval Raqamli boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri (%)

Ko‘rsatkichlar	Samaradorlik (%)
Ishlab chiqarish unumdorligi	28
Xarajatlarni kamaytirish	19
Qaror tezligi	130
Foyda o‘sishi	42

Natijalar tahlilidan ko‘rinadiki, raqamli transformatsiya jarayonlari korxonalarning iqtisodiy faoliyatida kompleks ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ilg‘or boshqaruv tizimlarining to‘g‘ri joriy etilishi boshqaruvdagi inson omilini kamaytirib, qarorlarni real vaqt rejimida qabul qilish imkonini beradi. Natijada korxonalar o‘z resurslarini samarali taqsimlaydi, ichki jarayonlarni optimallashtiradi va raqobat ustunligini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, innovatsion rivojlanish sur’atlarini tezlashtirish hamda korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

MUHOKAMA

Raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv usullarini joriy etish natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalar iqtisodiy samaradorlikni oshirishda raqamli texnologiyalarni strategik instrument sifatida qo‘llashga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda. O‘tkazilgan tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, resurslardan oqilona foydalanish hamda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va foyda ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or boshqaruv usullari — xususan, ERP (Enterprise Resource Planning), CRM (Customer Relationship Management) va Business Intelligence (BI) kabi tizimlarning joriy etilishi korxonalarning strategik maqsadlarini tezroq amalga oshirishiga zamin yaratmoqda. Ushbu tizimlar raqamli ma’lumotlar asosida real vaqt rejimida tahlil olib borish, bozor tendensiyalarini bashoratlash hamda ichki jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi. Natijada, qaror qabul qilish jarayonlari tezlashadi, inson omili bilan bog‘liq xatoliklar kamayadi va menejment sifati sezilarli darajada oshadi.

Biroq, raqamli transformatsiya jarayonlarida muammolar ham mavjud. Eng avvalo, raqamli texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy cheklovlar, malakali kadrlar

yetishmovchiligi hamda axborot xavfsizligi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish jarayonida bosqichma-bosqich strategik yondashuv talab etiladi. Har bir korxona o‘zining iqtisodiy imkoniyatlari, raqobat muhiti va resurs bazasiga mos raqamli strategiyani ishlab chiqishi zarur.

Raqamli boshqaruv tizimlari korxona faoliyatida nafaqat operatsion jarayonlarni, balki strategik darajadagi boshqaruvni ham transformatsiya qiladi. Masalan, ma’lumotlar tahlili asosida ishlab chiqilgan prognoz modellar rahbariyatga investitsiya yo‘nalishlarini to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlarining tatbiqi esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, muhokama natijalari ko‘rsatadiki, ilg‘or boshqaruv usullarining iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihatdan inson kapitali va tashkiliy madaniyatga bog‘liq. Raqamli texnologiyalarni joriy etishda xodimlarning raqamli savodxonligi, o‘qitish va qayta tayyorlash dasturlari orqali ularning malakasini oshirish muhim omil hisoblanadi. Agar tashkilot o‘z xodimlarini o‘zgarishlarga tayyorlasa va innovatsion muhitni qo‘llab-quvvatlasa, raqamli transformatsiya jarayoni ancha tez va samarali kechadi.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv usullarining joriy etilishi korxonalarning iqtisodiy faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalarni boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, xarajatlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va strategik qarorlarni tezroq qabul qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Ilg‘or boshqaruv tizimlari, jumladan ERP, CRM, SCM, BI va AI kabi yechimlarning qo‘llanilishi korxonalarga ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, ichki jarayonlarni raqamlashtirish va natijada raqobatbardosh ustunlikni qo‘lga kiritish imkonini bermoqda. Shuningdek, bu tizimlar orqali menejment samaradorligi oshib, inson omili ta’siri kamaymoqda. Bu esa korxonalarni zamonaviy bozor talablari va raqamli iqtisodiyotning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishga yordam beradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli boshqaruv usullarining iqtisodiy samaradorligi bevosita korxonaning tashkiliy tuzilmasi, xodimlarning raqamli savodxonlik darajasi va innovatsion muhitni shakllantirish qobiliyatiga bog‘liq. Shuning uchun raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxonalar kadrlar malakasini oshirish, texnologik infratuzilmani takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Natijalarga ko‘ra, raqamli transformatsiya nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining sifatini oshiradi, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yangi biznes modellarni shakllantirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu boisdan ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi zarur.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya jarayonida ilg‘or boshqaruv usullarining iqtisodiy samaradorligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish va innovatsion rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. (2022). Digital Transformation in Business and Public Administration. Paris: OECD Publishing.
2. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2019). How Smart, Connected Products Are Transforming Companies. Harvard Business Review, 97(3), 65–88.
3. Schwab, K. (2017). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
4. Deloitte. (2021). The Digital Transformation Playbook: Driving Growth with Emerging Technologies. Deloitte Insights Report.
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2016). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton & Company.
6. Tapscott, D. (2018). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin Books.
7. Sh, R. (2025). Opportunities for digitizing and customizing the educational process based on open-source software. Экономика и социум, (6-1 (133)), 653-656.
8. Baxtiyorovich, R. S., Urinovich, K. A., & Mashrab ogli, A. M. (2022). BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING TALIM SOHASIDA QOLLANILISHI. Архив научных исследований, 5(5).
9. Sadinov, A., & Rajabov, S. (2023). Utilizing digital technologies for waste management. In E3S Web of Conferences (Vol. 381, p. 01096). EDP Sciences.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Автор: Исторахон Абдусаломова Илхом кызы [1]
Аффилиация: Кандидат наук (PhD), старший преподаватель Кафедра управления промышленностью и цифровых технологий Международный Нордический Университет [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17598969

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается историческое развитие переписи населения в Республике Узбекистан, текущее состояние использования цифровых технологий в этом процессе, а также ожидаемые изменения в ближайшие годы. Перепись населения, запланированная на 2025–2026 годы, впервые будет проведена с широким применением цифровых инструментов, включая онлайн-регистрацию и мобильные устройства. В статье также анализируется значение цифровой базы данных населения для социально-экономического планирования и устойчивого развития страны.

Ключевые слова: перепись населения, цифровые технологии, Узбекистан, статистика, STATA, ГИС, онлайн-регистрация, демография, социально-экономическое планирование.

ВВЕДЕНИЕ

Перепись населения — важнейший источник достоверной информации, необходимой для формирования государственной социальной и экономической политики. В Узбекистане первая перепись населения была проведена в 1897 году. С тех пор она неоднократно организовывалась, отражая демографические изменения и рост численности населения. В условиях цифровой трансформации экономики и управления особое значение приобретает внедрение современных технологий в процессы сбора и обработки данных. В связи с этим планируемая перепись населения в 2025–2026 годах будет впервые реализована с использованием цифровых решений, таких как специализированные программные платформы, планшетные устройства и интернет-сервисы.

МЕТОДОЛОГИЯ

Исследование основано на анализе нормативно-правовых документов, данных Государственного комитета по статистике Узбекистана, международных рекомендаций ООН, а также сравнительном изучении опыта таких стран, как Канада, Польша и США. В рамках анализа рассмотрены ключевые цифровые инструменты, применяемые в процессе подготовки и проведения переписи населения, включая автоматизированную информационную систему "Перепись населения", статистический программный пакет STATA,

геоинформационные системы (ГИС), а также официальный веб-сайт и медиа-материалы.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Результаты анализа свидетельствуют о значительном прогрессе в цифровизации процесса переписи населения в Узбекистане:

Информационные системы и программное обеспечение: усовершенствована специализированная система "Перепись населения", приобретена лицензия на программный пакет STATA для аналитической обработки данных.

Мобильные устройства: планируется сбор информации с использованием планшетов, что снижает риски ошибок и ускоряет обработку.

Онлайн-регистрация: предусмотрена возможность самостоятельного внесения данных гражданами через интернет-платформу, что повышает удобство и снижает нагрузку на полевых работников.

Цифровизация картографических данных: обновлены более 9 тысяч цифровых карт махаллей (местных сообществ), с учетом изменений в адресных данных, новых построек и ликвидации устаревших объектов.

Коммуникация и просвещение населения: создан официальный сайт aholi.stat.uz, запущены информационные кампании с использованием видеороликов, баннеров, буклетов и слогана: «Стань частью Нового Узбекистана!»

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

ОБСУЖДЕНИЕ

Внедрение цифровых технологий значительно повышает точность, прозрачность и эффективность переписи населения. Собранные данные будут полезны не только для государственной статистики, но и для планирования в сферах здравоохранения, образования, занятости, жилищного строительства и инфраструктуры. Анализ миграционных потоков, уровня занятости, квалификации рабочей силы, состояния семей и других параметров позволит разрабатывать адресные социальные программы и долгосрочные стратегии. В то же время необходимо учитывать проблему «цифрового неравенства» и повышать уровень цифровой грамотности населения, особенно в сельских и отдаленных регионах.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Перепись населения, запланированная на 2025–2026 годы, станет важной вехой в цифровой трансформации статистической системы Узбекистана. Использование современных цифровых технологий позволит обеспечить высокое качество и достоверность собранных данных, создать единую базу информации о населении и жилищном фонде. Эти данные станут основой для разработки и реализации эффективных государственных программ на ближайшие десятилетия. Цифровые подходы в переписи населения имеют стратегическое значение как для настоящего, так и для будущих поколений.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Закон Республики Узбекистан «О переписи населения в Республике Узбекистан». Ташкент, 2019.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 марта 2024 г. «О мерах по организации деятельности Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан».
3. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Официальный сайт: https://stat.uz
4. United Nations. Principles and Recommendations for Population and Housing Censuses, Revision 3. New York, 2017.
5. United Nations Population Fund (UNFPA). Guidelines for Digital Transformation of Population and Housing Censuses, 2020.
6. Канадское статистическое управление. Отчёт по переписи населения 2021 года.
7. Государственный комитет по статистике Польши. Информационные материалы по переписи населения 2021 года.
8. National Statistical Service of the United States. Decennial Census Reports. 2020.
9. Статистический программный пакет STATA. Руководство пользователя. Version 17.
10. Материалы международной экспертной миссии по переписи населения в Узбекистане, 2023.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

РАҚАМЛИ ХИЗМАТЛАРНИ БОШҚАРИШДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Муаллиф: Алиев Абдунаби Рустам ўғли [1]
Аффилиация: Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17599047

АННОТАЦИЯ

Мақолада рақамли трансформация жараёнининг жамият, иқтисодиёт ва давлат бошқарувидаги аҳамияти таҳлил қилинган. Давлат ва хусусий секторда рақамли хизматларни самарали бошқариш, фуқароларга тезкор ва шаффоф хизмат кўрсатиш бўйича Ўзбекистон тажрибаси ўрганилган. “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси доирасида электрон ҳукумат тизими, ягона интерактив давлат хизматлари портали ва ахборот тизимлари интеграциясини такомиллаштириш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирлар ёритилган. Шунингдек, жаҳон мамлакатларининг АКТ асосида давлат хизматларини кўрсатиш механизмлари таққосланиб, уларнинг афзал жиҳатлари ва Ўзбекистон учун қўлланиш имкониятлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: рақамли трансформация, ахборот-коммуникация технологиялари, электрон ҳукумат, рақамли хизматлар, ягона интерактив давлат хизматлари портали, давлат бошқаруви, фуқароларга хизмат кўрсатиш.

КИРИШ

Ҳозирги кунда рақамли трансформация глобал миқёсда иқтисодиёт, давлат бошқаруви ва жамият ҳаётининг барча жабҳаларига чуқур кириб бормоқда. АКТ эса ушбу трансформациянинг асосий таянчига айланган. Айниқса, давлат ва хусусий сектордаги рақамли хизматларни самарали бошқариш, улар орқали фуқароларга тезкор, шаффоф ва қулай хизматлар кўрсатиш мураккаб, бироқ долзарб вазифа сифатида кун тартибига чиқмоқда.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш ва АКТдан фойдаланиш орқали хизмат кўрсатиш сифатини яхшилашга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси[], “Электрон ҳукумат” тизимини такомиллаштириш ва давлат хизматларини рақамлаштириш бўйича қабул қилинган ҳуқуқий ҳужжатлар ушбу йўналишдаги амалий қадамлардан ҳисобланади.

АСОСИЙ ҚИСМ

Ҳозирги кунда мамлакатимизда жамиятнинг иқтисодий ва ижтимоий ривожланиши давлат функцияларини бажариш ва аҳолига хизматлар кўрсатишда сифат ўзгаришларини талаб қилмоқда. Давлат хизматларини кўрсатиш соҳасида ижро этувчи ҳокимият томонидан талаб қилинадиган ҳужжатни олиш учун турли ташкилотларга қайта-қайта мурожаат қилиш

зарурати билан боғлиқ бўлган аризачига сезиларли қийинчиликларни келтириб чиқарадиган камчиликлар мавжуд.

Мажбурий давлат хизматлари рўйхати соғлиқни сақлаш, таълим, маданият, ижтимоий хизматлар, кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни рўйхатга олиш, меҳнат ва бандлик ва жамоатчилик билан алоқаларнинг бошқа соҳаларидаги давлат муассасаларининг энг оммабоп ва ижтимоий аҳамиятга эга хизматларини ўз ичига олиши керак.

Ушбу рўйхатларни тузишда қуйидаги принципларга амал қилиш керак:

- ариза берувчига бепул тақдим этиладиган хизматларни ҳам, ариза берувчининг ҳисобидан кўрсатиладиган хизматларни ҳам ўз ичига олади;

- Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларига мувофиқ давлат хизматларини кўрсатувчи органлар ихтиёрида бўлган ҳужжатларни бериш ва маълумотларни тақдим этиш хизматлари киритилмаган;

- ташкилий-ҳуқуқий шаклидан қатъи назар, барча ташкилотлар томонидан кўрсатиладиган хизматларни ўз ичига олади.

Хизматлар кўрсатиш реэстрида кўрсатиладиган хизматлар, уларни кўрсатиш тартиби, тақдим этиладиган жойлар, ариза берувчидан талаб қилинадиган ҳужжатлар (намуналар билан), шунингдек уларни тақдим этишни тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва бошқа зарур маълумотлар тўғрисидаги маълумотларнинг асосий манбаи ҳисобланади.

Реэстрда эълон қилинган маълумотлар давлат хизматларини кўрсатишда бўшлиқлар, ортиқча ва такрорий функцияларни бартараф этиш учун тегишли хизматларни кўрсатишни тартибга солувчи меъёрий-ҳуқуқий базани таҳлил қилиш имконини беради.

Бундан ташқари, реэстрга киритилган ва ягона порталда нашр этиш учун мўлжалланган маълумотларнинг ҳуқуқий аҳамияти таъминланади. Келажакда тегишли давлат хизматларини кўрсатиш шартларидан бири улар ҳақида тўлиқ ва ишончли маълумотларни реэстрга жойлаштириш бўлиши керак.

Бундай хизматларни электрон шаклда тақдим этиш, улар тўғрисидаги маълумотларни реэстрда ва ягона порталда жойлаштириш имконияти устувор асосда амалга оширилади.

Олиб борилган тадқиқотлар асосида дунё мамлакатларида АКТ асосида давлат хизматларининг механизмларини таққосланди (1-жадвал).

1-жадвал

Дунё мамлакатларида АКТ асосида давлат хизматлари механизмларининг таққосланиши[1]

Мамлакат	Электрон ҳукумат мавжудлиги	Мобил хизматлар мавжудлиги	Сунъий интеллект жорий этилганлиги	Ягона портал мавжудили	Аҳоли қамрови (%)
Эстония	Бор	Бор	Бор	Бор	99%
Сингапур	Бор	Бор	Бор	Бор	97%
Дания	Бор	Чекланган	Бор	Бор	95%
Ўзбекистон	Бор	Чекланган	Йўқ	Бор	60–70%

1-жадвал маълумотларига кўра Эстония, Сингапур ва Дания каби мамлакатлар АКТдан фойдаланиш механизмларини тўлиқ шакллантирган

[1] Тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан тузилган

бўлиб, уларда электрон ҳукумат, мобил хизматлар, сунъий интеллект ва ягона порталлар жорий этилган, бунда аҳоли қамровини 95–99% оралиғида эканлигини кўришимиз мумкин. Ушбу тенденция мамлакатда рақамли трансформация жараёни тез суръатларда амалга оширилаётганини кўрсатади. Бироқ сифат ва фойдаланиш даражаси ҳам муҳим кўрсаткичлардан ҳисобланади.

Бу жараёнда эса албатта, қуйидаги мавжуд муаммоларни алоҳида қайд этиш жоиз (2-жадвал).

2-жадвал
Сифат ва фойдаланиш даражаси[2]

Муаммо	Улуш (%)
Ахборот тизимлари интеграциясизлиги	35%
Кадрлар етишмовчилиги	25%
Фойдаланувчилар саводхонлиги	20%
Техник ресурслар етишмаслиги	12%
Ишончсизлик ва ҳуқуқий камчиликлар	8%

2-жадвалдан кўриш мумкинки, энг катта тўсиқлардан бири – ахборот тизимлари ўртасидаги интеграция етишмаслиги (35%), бу маълумот алмашишни секинлаштиради ва хизматларни автоматлаштиришга тўсқинлик қилади. Шунингдек, кадрлар етишмовчилиги (25%) ва фойдаланувчи саводхонлиги (20%) каби омиллар ҳам рақамли хизматларнинг самарадорлигига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Умуман олганда, юқоридаги жадваллардан кўриниб турибдики, Ўзбекистон рақамли хизматларни кенгайтириш йўлида жадал ҳаракат қилмоқда, аммо жорий механизмларни халқаро тажриба асосида чуқурлаштириш, хусусан, интеграция, интеллектуал технологиялар, аҳоли қамрови ва ишончни ошириш бўйича ислоҳотлар зарур.

Жаҳонда АКТларининг тез суръатлар билан ривожланиши давлат ва хусусий секторда рақамли хизматларни жорий этишни стратегик заруратга айлантирди. Айниқса, давлат бошқаруви, соғлиқни сақлаш, таълим, молия, солиқ ва банк тизимлари каби соҳаларда фуқароларга тезкор, шаффоф ва сифатли хизмат кўрсатиш АКТ орқали амалга оширилмоқда.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда рақамли иқтисодиётни шакллантириш ва рақамли трансформацияни амалга ошириш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар олиб борилмоқда. Хусусан, «Электрон ҳукумат», «Ягона интерактив давлат хизматлари портали» (my.gov.uz), «Рақамли Ўзбекистон – 2030» дастурлари доирасида турли хил рақамли хизматлар яратилмоқда ва аҳолига тақдим этилмоқда.

Электрон ҳукумат (e-governance) концепциясида учта асосий манфаатдор гуруҳ ажратиб кўрсатилади:

Давлат (government)

Фуқаролар (citizens)

Бизнес ва манфаатдор ташкилотлар (businesses/interest groups)

Электрон ҳукуматнинг ташқи стратегик мақсадлари фуқаролар, бизнес субъектлари ва жамоатчилик ташкилотлари билан ўзаро муносабатни

[2] Тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан тузилган

такомиллаштиришга қаратилган бўлса, ички мақсадлари давлат тузилмаларининг ўз ичидаги самарадорлигини оширишга йўналтирилгандир.

Бу муносабатларни ифодалашда электрон тижоратда (e-commerce) қўлланиладиган B2B (business-to-business) ва B2C (business-to-consumer) каби қисқартмаларга ўхшаш белгилар ишлатилади. Электрон ҳукуматда эса G2C, G2B ва G2G қисқартмалари фойдаланилади:


G2C – давлат ва фуқаролар ўртасидаги муносабатларни акс эттиради. Бу шаклда давлатнинг демократик роли, яъни фуқароларнинг давлат қарорларида иштирок этиш имконияти, жамоатчилик назорати ва очиқлик таъминланади.

G2B – давлат ва бизнес субъектлари ўртасидаги электрон ҳамкорликни англатади. Бу шаклда тадбиркорлар учун лицензиялаш, тендерлар, солиқ тўлови ва ҳисоботлар юбориш жараёнлари рақамлаштирилади ва соддалаштирилади.

G2G – давлат муассасалари ўртасидаги ўзаро электрон ҳамкорликни назарда тутади. Бу шаклда ахборот алмашинуви, электрон ҳужжат айланмаси ва умумий платформалар орқали тезкор, шаффоф ва самарали давлат бошқаруви таъминланади.

G2G алоқалари, айниқса, давлатни рақамлаштириш жараёнида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, замонавий, интерактив ва очиқ давлат бошқаруви сари қадам сифатида қаралади.

Юқорида айтилганидек, электрон ҳукумат оддий интернетдаги ҳукумат веб-сайтидан анча кенгроқ тушунча ҳисобланади. Электрон ҳукуматнинг келажакдаги имконият ва истиқболлари нималардан иборат ва ҳозирги пайтда қандай хизматлар кўрсатилмоқда? Халқаро электрон бизнесни тадқиқ қилиш билан шуғулланувчи Gartner консалтинг компанияси электрон ҳукуматни ривожлантиришнинг тўрт босқичли моделини ишлаб чиққан. Ушбу электрон ҳукумат модели ҳукуматларга электрон ҳукумат стратегиясини умумий ривожланиш жараёнида қаерда эканлигини аниқлашда ёрдамчи вазифани бажара олади. 1-расмда электрон ҳукуматдаги асосий гуруҳлар ўртасидаги ўзаро алоқалар жараёни кўрсатилган.



1-расм. Электрон ҳукуматдаги асосий гуруҳлар ўртасидаги ўзаро алоқалар оқими[3]

[3] Тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан тузилган

Сабаби шундаки, бу модел электрон бизнес ва электрон тижорат дастурларини қўллаб-қувватлашга мўлжалланган. Ушбу меъёрий тузилма тўртта қатламдан иборат бўлиб, улар икки томонлама йўналишдаги стрелкалар орқали боғланган. Бу стрелкалар электрон ҳукуматни жорий этишдаги иерархик даражаларни ва ҳар бир қатламнинг мантиқий боғлиқлигини ифодалайди, бу эса маълумот ва хизматларни икки томонлама узатиш имконини беради.

Тузилманинг энг юқори қатлами – фаолиятга кириш бўлиб, у ҳукумат хизматларидан ким фойдаланиши ва уларга қандай каналлар орқали мурожаат этилишини кўрсатади. Ушбу каналлар орқали электрон ҳукумат портали турли вазирлик ва ташкилотларнинг маълумотлари ҳамда хизматларини ягона тизимга интеграция қилиши лозим. Бу электрон ҳукумат қатлами ҳисобланади.

Электрон ҳукумат қатламига боғлиқ ҳолда, электрон бизнес қатлами пайдо бўлади, у ҳукумат органлари ўртасидаги маълумот манбаларини бошқаради ва интеграция қилади ҳамда маълумот ва хизматларни реал вақт режимида электрон ҳукумат порталига тақдим этади.

Тузилманинг энг пастки қисмида эса АКТ инфратузилмаси жойлашган бўлиб, у бутун ҳукумат тизимини қамраб олиши ва электрон ҳукумат фаолиятини самарали ҳамда ишончли хизматлар орқали таъминлаши керак.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

ХУЛОСА

Электрон ҳукуматни жорий этиш ривожланаётган мамлакатлар учун катта имкониятлар яратса-да, бу жараён қисқа муддатда амалга ошмайди ва кўп вақт, маблағ ҳамда салоҳият талаб этади. Фуқаролар ва бизнес учун харажатлар камайиши мумкин, аммо ҳукумат харажатлари дарҳол қисқармаслиги мумкин. Интернетга кириш имконияти паст ва рақамли технологияларга ишончсизлик мавжуд бўлган шароитда, лойиҳалардан фойда олиш кечикиши мумкин.

Шу сабабли, электрон ҳукумат ташаббуслари самарадорлигини баҳолаш ва уларни тўғри йўналтириш учун аниқ далиллар ва илғор тажрибалар асосида иш тутиш зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш va уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–6079-сон фармони.
2. Abdullayev M. Роль и место информационного обеспечения в системе управления организацией //Архив научных исследований. – 2020. – №. 19.
3. Абдуллаев М. К. Современные направления цифровых преобразований в национальной экономике Республики Узбекистан //ББК 65.0501 А 43. – 2021. – С. 231.

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА КЎРСАТИЛАДИГАН АУДИТОРЛИК ХИЗМАТЛАРИ ТАРКИБИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Муаллиф: Аҳмаджонов Азимжон Каримжон ўғли [1]
Аффилиация: Тошкент Кимё халқаро университети мустақил изланувчиси, PhD [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17599155

АННОТАЦИЯ

Тезисда Ўзбекистон Республикасида акциядорлик жамиятларида кўрсатиладиган аудиторлик хизматлари таркибини ривожлантириш истиқболлари кўриб чиқилган. Тадқиқотда аудиторлик фаолиятининг меъёрий-ҳуқуқий асослари, турдош хизматлар таркиби ва уларнинг иқтисодий моҳияти таҳлил қилинган. 2020-2024 йиллар давомида республикада фаолият кўрсатаётган аудиторлик ташкилотлари ва аудиторларнинг сони, ҳудудлар бўйича тақсимланиши, кўрсатилган хизматлар ҳажми ва даромадлар динамикаси ўрганилган. Тадқиқотда мажбурий ва ташаббус тарзидаги аудиторлик текширувлари натижалари, берилган хулосаларнинг турлари ва «Катта тўртлик» халқаро аудиторлик ташкилотларининг фаолияти батафсил кўрсатилган.

Калит сўзлар: аудиторлик хизматлари, акциядорлик жамияти, турдош хизматлар, аудиторлик текшируви, аудиторлик хулосаси, «Катта тўртлик», аудиторлик фаолияти.

КИРИШ

Бугунги кунда мамлакатимизда аудиторлик фаолиятининг мустаҳкам меъёрий-ҳуқуқий базаси яратилди. Аудиторлик хизматлари бозорини шакллантириш унинг ривожланишига қулай шароитлар яратиш соғлом рақобатни кучайтириш учун ўзига хос муҳит яратилмоқда. Аудиторлик фаолиятини тартибга солувчи асосий қонунчилик ҳужжатлари аудиторлик ташкилотларига кенг ваколатлар беради ва уларнинг фаолият доирасини белгилайди.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 25 февралдаги «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ-677-сон қонунига асосан аудиторлик ташкилотлари қуйидаги турдош хизматларни кўрсатиши мумкин. Биринчидан бухгалтерия ҳисобини йўлга қўйиш қайта тиклаш юритиш ва молиявий ҳисобот тузиш шу жумладан молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари бўйича молиявий ҳисобот тузиш хизматлари кўрсатилади.

Иккинчидан юридик шахснинг тафтиш комиссияси тафтишчиси инвестиция активларини ишончли бошқарувчи вазифаларини амалга ошириш имконияти мавжуд. Учинчидан бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисобот тузиш масалалари бўйича маслаҳат бериш амалга оширилади. Тўртинчидан солиққа оид қонунчиликни қўллаш солиқлар ва йиғимлар бўйича ҳисоб-китоблар декларациялар тузиш юзасидан маслаҳатлар берилади.

Бешинчидан молия-хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш ва молиявий режалаштириш шу жумладан бизнес-режалар тайёрлаш иқтисодий молиявий

маслаҳат ва бошқарувга оид маслаҳат бериш хизматлари кўрсатилади. Олтинчидан бухгалтерия ҳисоби аудит ва молиявий ҳисобот солиқ солиш молия-хўжалик фаолиятини ҳамда молиявий режалаштиришни таҳлил қилишга доир семинарлар конференциялар ўтказилади. Еттинчидан бухгалтерия ҳисобини юритишни автоматлаштириш ва молиявий ҳисобот тузиш молиявий ахборотнинг ахборот хавфсизлиги бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш амалга оширилади.

Аудиторлик хизматининг сифати аудиторлик компанияси персоналини тайёрлаш даражаси юқори бўлишини тақозо этади. Мустақил аудиторлар бозорида мавжуд бўлиш аудиторлик хизматларини юқори даражадаги ликвидли товар сифатида акс эттиради бу эса мижозга ўзига энг муносиб аудиторни танлаш имконини беради. Аудит сифати аудиторлик компанияларида ички тартибга солиш объектига айланади.

АСОСИЙ ҚИСМ

Бозор аудиторлар ва мижозлар билан бир қаторда давлат ва ташқи ахборот фойдаланувчилари ҳам аудиторлик хизматларининг сифатига юқори даражали талабларни қўяди. Чунки айнан аудиторлик текширувлари натижасида эҳтимолий солиқ бузилишлари аниқланади ва иқтисодий жараёнларнинг алоҳида хўжалик юритувчи субъектларга салбий таъсирини камайтириш юзасидан чора-тадбирлар ишлаб чиқилади.


